MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№3

ILMIY ELEKTRON JURNALI

ISSN: 2181-3965

VOLUME 4

TOSHKENT 2025

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saidova Feruza Baxtiyarovna - Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

MUNDARIJA

МАКРОИҚТИСОДИЁТ			
1.	Жўраев Ташболта Тўхтаевич	Иқтисодиёт назариясида бозор механизмининг аҳамияти ва унинг ривожланиш тенденциялари	6
2.	Султанова Замзагуль Хамитовна Бактыгалиев Ахан Бекбулатұлы Нургалиев Акылбек Муратович	Состояние и проблемы организации системы трудоустройства выпускников в Казахстане	12
БУХГАЛТЕРИЯ ВА АУДИТ			
3.	Мехмонов Султонали Умаралиевич	Олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	19
4.	Маннапова Раъно Аброровна	Ўзбекистонда умумий овқатланиш корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг замонавий тенденциялари	26
5.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobi funksiyalarining xarajatlar hisobini yuritishdagi ahamiyati	32
6.	Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish	37
РИСКОЛОГИЯ			
7.	Баймуратов Турсунбай Махкамбаевич	Давоми. Рискларни минималлаштириш концепцияси иқтисодий ўсишнинг янги парадигмаси сифатида (илмий-назарий жиҳатлари)	43
БАНК ИШИ			
8.	Baxriddinov Sharofiddin	Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning metodologik asoslari	53
9.	Рабимқулов Шерзод Муртозаевич	Ўзбекистонда тижорат банклари томонидан кредит портфелни бошқаришнинг замонавий ҳолати таҳлили	64
10.	Aliqulov Hazrat Amirqulovich	Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari	72
11.	Жўраев Камолиддин Ташболтаевич	Уй-жой хўжалиги соҳасида ипотека кредитлаш тизимини такомиллаштириш	79
12.	Маматов Акмалжон Анваржонович	Тижорат банклари депозит сиёсатини такомиллаштириш орқали депозит базасини кенгайтириш механизмлари	85
13.	Shamiyev Shohruh Shakar o‘g‘li	Banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirish istiqbollari	92
14.	Tillayev Xurshidjon Sulaymon o‘g‘li	Tijorat banklari fond bozori operatsiyalarining konseptual-nazariy tahlili	102
МАРКЕТИНГ			
15.	Ermatov Toxir Sharipdjanovich	Kompaniyalarni rivojlantirishda marketing tadqiqotlarining ahamiyati	111
БЮДЖЕТ			
16.	Esanov Erkin Abduraxmanovich	Davlat budjyeti xarajatlarini inflyatsiyaga va valyuta kursiga ta’sirining tahlili	119
17.	Ergashev Umidjon Ibragimovich	Budjet daromadlarini prognozlashtirishda soliq potensialini oshirish va soliqlarni rejalashtirishni takomillashtirish yo‘llari	126
18.	Кулибоев Азамат Шоназарович	Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари	134
СОЛИҚЛАР ВА СОЛИҚҚА ТОРТИШ			
19.	Zaripov Xusan Baxodirovich Ibragimov Bobursho Boxodir o‘g‘li	O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’muriyatchiligini takomillashtirishning o‘ziga xos jihatlari	144

СУҒУРТА ВА ПЕНСИЯ ИШИ			
20.	Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи	Ўзбекистонда тиббий суғурта тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар	154
21.	Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли	Кам таъминланган оилалар учун нафақа ва моддий ёрдам тайинлаш ва тўлаш тартиби	159
22.	Қурбанқулова Назокат Қутбиддиновна	Суғурта компанияларида дивиденд тўловлари таҳлили	166
23.	Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish	172
ИҚТИСОДИЁТ			
24.	Rasulova Nigora Yusupovna	Yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyati	180
25.	Мамадалиев Одилжон Тоирович	Ҳудудлар ўртасидаги номутаносибликларга барҳам беришда хизматлар соҳасининг ўрни	185
26.	Ibragimov Bobur shoh Boxodir o‘g‘li Abdug‘aniyev Uchqun Habibulla o‘g‘li	Kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatining xorijiy tajribasi	195
27.	Shodmonov Bahodir Sherkulovich	Paxta-to‘qimachilik klasterlari investitsiyalar samaradorligini oshirishning ekonometrik tahlili	205
28.	Shodiyev Murodjon Bakirovich	Asalarichilik mahsuldorligiga ta’sir etuvchi omillarning iqtisodiy tahlili	212
29.	Uzoqov Azizbek Bahromovich	Neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirishning zamonaviy moliyaviy mexanizmlari: raqamlashtirish va barqaror rivojlanish omillari integratsiyasi	217
30.	Panjiyev Nurbek Niyozmuhammedovich	O‘zbekistonda neft-gaz tizimining raqamlashtirilishi va ishlab chiqarish barqarorligi: gaz, neft va kondensat dinamikasi (2020–2025)	224
ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИ			
31.	Karimov Akramjon Ikromjon o‘g‘li	Kapital bozorini rivojlantirishda fond bozori professional ishtirokchilarining o‘rni	231
32.	Пулатов Улугбек Хапизович	Волатильность акций АО «УЗРТСБ»: влияние дивидендной политики, SPO и капитализации на рыночную динамику	241
33.	Allayarov Suxrob Rustamovich	Ekologik yo‘naltirilgan investitsion platformalar bozorining taraqqiyoti va startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari	247
34.	Ilxomjonova Fotima Muxiddinovna	Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyotini rivojlantirish	254
35.	O‘rinov Sardor Suvonovich	Telekommunikatsiya kompaniyalari moliyaviy strategiyasi yo‘nalishlari va kreditlar bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlar tahlili	263
36.	Alikulov Azamat Tuygunovich	O‘zbekistonda aksiyalar bozorining rivojlanish tendensiyalari	271
37.	Xolov Sherali Axrorboyevich	Xalqaro moliya bozorlaridan O‘zbekistonga investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari	277

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ИҚТИСОДИЁТ НАЗАРИЯСИДА БОЗОР МЕХАНИЗМИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Жўраев Ташболта Тўхтаевич

иқтисодиёт фанлари доктори
иқтисодиёт назарияси
кафедраси профессори
Тошкент давлат иқтисодиёт
университети
E-mail:djoraevtoshbolta1956@gmail.com

Аннотация. *Мақолада иқтисодиёт назариясининг асосий тушунчаларидан бири бўлган бозор механизми, унинг тамойиллари, мувозанат ҳолати ва рақобат шароитидаги ривожланиш тенденциялари таҳлил этилган. Шунингдек, эркин бозор ва давлат аралашуви ўртасидаги мувозанат масаласи юзасидан назарий ёндашувлар келтирилиб, тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *иқтисодиёт, талаб ва таклиф, нарх, рақобат, мувозанат, бозор механизми, монополия, олигополия ва монопсония.*

ЗНАЧЕНИЕ РЫНОЧНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ И ТЕНДЕНЦИИ ЕГО РАЗВИТИЯ

Жураев Ташбалта Тухтаевич

доктор экономических наук
профессор кафедры
экономической теории
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail:djoraevtoshbolta1956@gmail.com

Аннотация. *В статье анализируется рыночный механизм, являющийся одним из основных понятий экономической теории, принципы его функционирования, состояние равновесия и тенденции развития в условиях конкуренции. Также представлены теоретические подходы к проблеме соотношения свободного рынка и государственного вмешательства, даются соответствующие рекомендации.*

Ключевые слова: *экономика, спрос и предложение, цена, конкуренция, равновесие, рыночный механизм, монополия, олигополия и монопсония.*

THE IMPORTANCE OF THE MARKET MECHANISM IN ECONOMIC THEORY AND ITS DEVELOPMENT TRENDS.

Djuraev Tashbolta Tukhtaevich

Doctor of Economics, Professor of the
Department Economic Theory
Tashkent State Economic University
E-mail:djoraevtoshbolta1956@gmail.com
+998909272398

Abstract. *The article analyzes the market mechanism, which is one of the main concepts of economic theory, the principles of its functioning, the state of equilibrium and development*

trends in a competitive environment. It also presents theoretical approaches to the problem of the relationship between the free market and government intervention.

Keywords: *economy, supply and demand, price, competition, equilibrium, market mechanism, monopoly, oligopoly and monopsony.*

Кириш

Бугунги кунда жаҳон иқтисодиётида юз бераётган глобал ўзгаришлар, рақобат муҳитининг кучайиши ва технологик тараққиёт бозор муносабатларининг аҳамиятини янада оширмоқда. Иқтисодиёт назариясида бозор механизми иқтисодий фаолиятни тартибга солувчи, ресурсларни тақсимловчи ва иқтисодий субъектларнинг ўзаро алоқаларини шакллантирувчи энг муҳим тизимлардан бири сифатида эътироф этилади. Бу механизм товар ва хизматлар нархининг шаклланиши, ишлаб чиқариш тартиби, ресурсларнинг тақсимланиши ҳамда истеъмолнинг самарали йўналтирилишида ҳал қилувчи ўрин тутади.

Бозор механизмининг асосий элементлари талаб ва таклиф, нарх, рақобат, истеъмолчи ва ишлаб чиқарувчи манфаатлари ўртасидаги мувозанат орқали шаклланади. Мазкур механизм табиий равишда ўзини ўзи тартибга солувчи хусусиятга эга бўлиб, давлат аралашувисиз ҳам иқтисодий жараёнларни самарали бошқариш имконини беради. Айни пайтда, реал тоза бозор шароитида фаолият юритиш имкони кенг бўлгани боис, давлатнинг тартибга солувчи роли ҳам тобора ортиб бормоқда.

Бозор механизми ривожланишининг тарихи юз йилликлар давомида шаклланган. Илк тижорат муносабатларидан тортиб, замонавий эркин бозор иқтисодиётигача бўлган жараёнда бу механизм ўзининг турли шакл ва моделларини намоён этган. Хусусан, Адам Смит, Давид Рикардо, Жон Кейнс каби классик ва замонавий иқтисодчилар бозор механизми ва унинг ижтимоий аҳамияти ҳақида фундаментал назарий асослар яратишган.

Шу билан бирга бозор механизми доимо ўзгарувчан муҳитда ишлайди. Бугунги кунда рақамли технологиялар, сунъий интеллект, электрон тижорат, халқаро интеграция каби омиллар бозор муносабатларининг янги босқичга кўтарилишига сабаб бўлмоқда. Рақобатнинг кучайиши, истеъмолчилар эҳтиёжларининг ўзгариши, маҳсулот ва хизматлар бозоридаги инновациялар бозор механизмига янги вазифаларни юкламоқда. Айни вақтда глобал муаммолар – иқлим ўзгариши, табиий ресурсларнинг чекланганлиги, ижтимоий тенгсизлик каби масалалар бозор иқтисодиётининг классик моделларини қайта кўриб чиқишни талаб этмоқда.

Ўзбекистон каби ривожланаётган мамлакатларда бозор иқтисодиёти тамойилларини жорий этиш ва бозор механизмини тўғри шакллантириш жараёнида иқтисодий ислоҳотлар алоҳида аҳамият касб этмоқда. Мамлакатда бозор муносабатларига ўтиш, хусусий секторни ривожлантириш, рақобат муҳитини яратиш, молиявий бозорларни эркинлаштириш каби чора-тадбирлар бозор механизмининг самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда.

Мақолада бозор механизмининг назарий асослари, иқтисодий тизимдаги аҳамияти, замонавий ривожланиш тенденциялари ҳамда Ўзбекистон иқтисодиёти мисолида уларнинг амалий жиҳатлари таҳлил қилинади. Бозорнинг турли моделлари, давлат ва бозор ўртасидаги мувозанат, рақобат муҳитининг шаклланиши ва келгусидаги истиқболлар мақоланинг асосий таҳлил объектларини ташкил этади.

Адабиётлар шарҳи

Иқтисодиёт назариясида бозор механизмини чуқур тушуниш ва унинг ривожланиш тенденцияларини таҳлил қилиш учун жаҳон ва маҳаллий олимлар томонидан ёзилган бир қатор илмий-амалий манбалар асос бўлиб хизмат қилади.

Шодландиялик иқтисодиётчи, иқтисодий назария фанининг асосчиларидан бири Ádам Смит “кўринмас қўл” концепцияси орқали бозор механизмининг ўзини ўзи тартибга

солувчи хусусияти изоҳланган [3]. Пол Самуэльсон ва В. Нордхаус «бозор механизми», «эркин бозор ва давлат аралашуви» ўртасидаги мувозанат, «иқтисодий самарадорлик» каби тушунчаларни мукаммал изоҳлаб беришган. Муаллифлар бозор механизмларини график ва математик моделлар асосида ёритади [4]. Жон Мейнард Кейнс бозор механизмларининг чекланган имкониятлари ва давлатнинг иқтисодий жараёнлардаги фаол иштироки ҳақида фикр юритади [5]. Майкл Портернинг рақобат стратегияси тўғрисидаги тадқиқоти бозордаги рақобат муҳитини таҳлил қилиш, унинг бозор механизмларига таъсирини тушуниш ва бошқа иқтисодий долзарб масалаларини камраб олади [6]. Жозеф Стиглиц давлатнинг иқтисодиётдаги ролини, бозор нуқсонлари ва уларни тўғрилаш механизмларини атрофлича таҳлил қилган [7].

Мамлакат тадқиқотчиларимиздан А.Р. Мавлонов, Ш.Х. Рустамовлар бозор механизмлари ва рақобат муҳити масалаларини атрофлича таҳлил қилиб чиқишган [8].

Шунингдек, А.А. Абдуллаев, А.М. Раҳимовлар бозор механизмлари, талаб ва таклиф, рақобат, нарх шаклланиши каби асосий тушунчаларга замонавий ёндашувда изоҳ берилган. Н.М. Мўминов ва А.А. Ашуровлар бозор иқтисодиётининг назарий жиҳатлари билан бир қаторда, унинг амалий қўлланилиши, хусусан, Ўзбекистондаги бозор муносабатларининг шаклланиш жараёнини таҳлил этган. М.Қўзиев Ўзбекистон иқтисодиётининг бозор муносабатларига ўтиш жараёнлари, миллий хусусиятлар ва ислоҳотлар ҳақида изланишлар олиб борган.

Тадқиқот методологияси

Мазкур илмий мақолада бозор механизмининг иқтисодиётдаги ўрни ва аҳамияти ҳамда унинг ривожланиш тенденцияларини ўрганиш мақсадида замонавий иқтисодий назария ва амалиётда кенг қўлланиладиган бир неча тадқиқот методларидан фойдаланилди. Тадқиқот жараёнида қуйидаги методологик ёндашувлар ва услублар асос бўлиб хизмат қилди:

1. Тарихий-таҳлилий метод. Бозор механизмининг тарихий ривожланиши, унинг илк назарий асослари (А. Смит, Д. Рикардо, К. Маркс, Ж.М. Кейнс ва бошқаларнинг назариялари) ҳамда замонавий иқтисодиётдаги ўрни ўрганилди. Бу метод ёрдамида бозор механизмларининг шаклланиш босқичлари ва концептуал эволюцияси таҳлил қилинди.

2. Таҳлилий-синтетик метод. Мавжуд иқтисодий адабиётлар, халқаро ва миллий тадқиқотлар таҳлил қилинди ва улар асосида бозор механизмларининг асосий хусусиятлари, функциялари ва муаммолари синтез қилинди. Илмий манбалар асосида умумлашмалар чиқарилди.

3. Қиёсий-таҳлилий метод. Турли давлатлар (ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар)даги бозор механизмларининг ишлаш принциплари, уларнинг самарадорлиги ва давлат аралашуви даражалари ўзаро солиштирилди. Ўзбекистон иқтисодиётидаги тенденциялар халқаро тажриба билан таққосланди.

4. Иқтисодий-статистик таҳлил. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, Жаҳон банки, Халқаро валюта жамғармаси каби ташкилотларнинг маълумотлари асосида бозор инфратузилмаси, хусусий сектор улуши, рақобат даражаси ва макроиқтисодий кўрсаткичлар таҳлил қилинди. Диаграмма ва жадваллар орқали таҳлил натижалари кўрсатилди.

Таҳлил ва натижалар

Бозор механизми – бу иқтисодий жараёнларни талаб ва таклиф, нархлар ва рақобат орқали табиий равишда тартибга солиш механизми ҳисобланади. Унинг асосий афзалликларидан бири шундаки, иқтисодиётга давлат аралашувисиз ҳам иқтисодий субъектлар манфаатларини мувофиқлаштириб, ресурслардан самарали фойдаланиш имконини яратади. Айнан бозор механизми ишлаб чиқарувчиларни рақобатга ундайди, инновацияларни рағбатлантиради ва истеъмолчиларнинг талабларини қондиришга

интилади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, бозор механизмларининг самарали ишлашида қуйидаги омиллар ҳал қилувчи аҳамият касб этади: рақобат муҳитининг мавжудлиги; эркин нарх шаклланиши; хусусий мулкчиликка ҳуқуқий кафолатлар; аниқ бозор ахборотининг мавжудлиги; тенг шароитда фаолият юритувчи иштирокчиларнинг мавжудлиги.

Амалда бозор механизмлари баъзи ҳолларда самарали ишламайди. Бундай ҳолатлар "бозор нуқсонлари" деб аталади. Уларга қуйидагилар киради:

- монополия ва олигополиялар: бозордаги рақобатни чеклаб, нархларни сунъий равишда оширишга олиб келади;
- ассиметрик ахборот: истеъмолчи ва ишлаб чиқарувчи ўртасида нотенг маълумотлар мавжудлиги;
- ташқи таъсирлар (экстернал эффектлар): ифлосланиш, жамоавий товарлар ва бошқа омиллар натижасида бозор ўз-ўзини тўғрилай олмайди;
- ижтимоий тенгсизлик: бозор айрим гуруҳлар манфаатларини чеклаб қўйиши мумкин.

Ҳозирги даврда бозор механизмлари жадал ўзгармоқда. Замонавий тенденциялар қуйидагиларда намоён бўлмоқда:

- рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши: онлайн тижорат, платформа иқтисодиёти, финтех ва электрон тўловлар бозор механизмларининг янги шаклларини вужудга келтирмоқда;
- глобаллашув: бозорлар бир-бири билан боғланиб, трансмиллий рақобат вужудга келмоқда;
- инновацион ишлаб чиқариш ва хизматлар: бозор талабининг ўзгарувчанлигига тез мослашишни талаб қилмоқда; иқтисодий инклюзивликка интилиш: бозор фақат юқори даромадли гуруҳлар учун эмас, балки кенг ижтимоий қатламларни қамраб олишга интилиши лозим.

1-чизма.

Бозор механизмларини жорий этиш ва такомиллаштириш бўйича ислоҳотлар*



*Муаллиф томонидан тузилган.

Ўзбекистон Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2020-2025 йилларда хусусий сектор улуши ялпи ички маҳсулотда сезиларли даражада ошди, бу эса бозор механизмлари таъсирининг кучайиб бораётганини кўрсатади.

2-чизма.

Бозор механизмининг аҳамияти ва унинг ривожланиш тенденциялари



*Муаллиф томонидан тузилган.

Бозор механизми иқтисодий фаолиятни тартибга солишнинг табиий ва самарали воситаси сифатида етарлича ўрганилган. Бозор механизми орқали талаб ва таклиф ўртасидаги мувозанат таъминланади, ресурслар самарали тақсимланади ва рақобат муҳити орқали ишлаб чиқариш ва инновацияга рағбат пайдо бўлади.

Хулоса

Амалиётда бозор механизмларининг чекловлари ҳам мавжуд. Хусусан, монополиялар, ассиметрик ахборот, ижтимоий тенгсизлик, ташқи таъсирлар (экстернал эффектлар) бозор самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади. Бу эса давлатнинг иқтисодиётга аралашувини муайян даражада зарур этиб қўяди.

Замонавий шароитда рақамли технологиялар, глобаллашув, инновациялар ва ижтимоий адолат каби янги омиллар бозор механизмларининг ривожланишига таъсир қилмоқда. Ўзбекистон мисолида ҳам бозор механизмларини шакллантириш ва такомиллаштиришга қаратилган ислоҳотлар самара бераётгани кузатилмоқда.

Таклифлар:

1. Рақобат муҳитини янада кучайтириш. Давлат монополияларини қисқартириш, хусусий сектор учун тенг шароит яратиш ва янги бозор субъектларининг киришини енгиллаштириш лозим.

2. Ахборот шаффофлигини таъминлаш. Бозор механизмларининг самарали ишлаши учун барча иштирокчиларнинг ахборотга тенг ва вақтида етиши таъминланиши зарур. Бунинг учун рақамли платформаларни кенг жорий этиш мақсадга мувофиқ.

3. Бозор нуқсонларини камайтириш учун давлат сиёсати. Асосий тартибга солувчи фаолият – табиий монополияларни назорат қилиш, ташқи таъсирларни чеклаш, ижтимоий ҳимоя воситаларини ривожлантириш орқали бозорнинг салбий оқибатларини юмшатиш керак.

4. Рақамли иқтисодиёт ва инновацияларни қўллаб-қувватлаш. Бозор механизмларининг замонавий тенденцияларга мослашувчан бўлиши учун давлат рақамли инфратузилмани ривожлантириши ва стартаплар фаолиятини рағбатлантириши зарур.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

5. Бозор таълими ва иқтисодий саводхонликни ошириш. Истеъмолчилар ва тадбиркорлар учун иқтисодий билимлар, бозор қоидалари ҳақида маълумот бериш орқали бозор муносабатларининг самарадорлигини ошириш мумкин.

6. Иқтисодий сиёсатда илмий асосланган ёндашув. Бозор механизмларига аралашувда ҳукумат илмий-таҳлилий маълумотлар ва халқаро тажрибага асосланиши, ҳар бир чора-тадбирнинг узоқ муддатли таъсирини ҳисобга олиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари. – URL: https://lex.uz (мурожаат қилинган сана: 30.05.2025).

2. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Ривожланиш кўрсаткичлари бўйича йиллик ҳисоботлар. – Тошкент, 2023. – URL: https://stat.uz (мурожаат қилинган сана: 30.05.2025).

3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Ташкент: Ўқитувчи, 1992. – 584 с.

4. Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика: принципы, проблемы и политика. – Ташкент: Ўқитувчи, 2010. – 745 с.

5. Жон Мейнард Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. – https://www.booksite.ru/localtxt/kei/ns/keins/obshay_teoria/index.htm

6. Michael E. Porter. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: The Free Press, 1980 (2nd ed. – New York: Free Press, 1998. – 397 p

7. Стиглиц Дж. Экономика государственного сектора. – М.: Вильямс, 2008. – 672 с.

8. Мавлонов А. Р., Рустамов Ш. Х. Бозор механизмлари ва рақобат муҳити. – Тошкент: Innovatsiya, 2022. – 280 с.

9. Жураев Ш. Ҳ. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2019. – 395 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ТРУДОУСТРОЙСТВА ВЫПУСКНИКОВ В КАЗАХСТАНЕ

Султанова Замзагуль Хамитовна*
Бактыгалиев Ахан Бекбулатұлы**
Нургалиев Акылбек Муратович***

Западно-Казахстанский аграрно-технический университет имени Жангир хана
****ассоциированный профессор***
*****магистрант***
******директор Центра карьеры и бизнес-партнерства***
Email: Zamzagulsultan267@gmail.com
akylbeknurgaliev@mail.ru

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы и текущее состояние системы трудоустройства выпускников в Республике Казахстан. Особое внимание уделяется методическим основам, роли карьеровых центров и зарубежному опыту. Предложены рекомендации по совершенствованию системы трудоустройства в контексте международных стандартов.*

Ключевые слова: *трудоустройство, выпускники, Казахстан, рынок труда, карьера, дуальное образование, карьеровый центр*

STATE AND PROBLEMS OF ORGANIZING THE EMPLOYMENT SYSTEM FOR GRADUATES IN KAZAKHSTAN

Sultanova Zamzagul Khamitovna*
Baktygaliev Ahan Bekbulatuly**
Nurgaliev Akylbek Muratovich***

West Kazakhstan Agrarian and Technical University named after Zhangir Khan
****Associate Professor***
*****Master’s student***
******Director of the Career and Business Partnership Center***
Email: Zamzagulsultan267@gmail.com
akylbeknurgaliev@mail.ru

Annotation: *The article examines the current state and issues in the graduate employment system in the Republic of Kazakhstan. Special attention is given to methodological aspects, the role of career centers, and international experience. Recommendations for improving the employment system in the context of international standards are proposed.*

Key words: *employment, graduates, Kazakhstan, labor market, career, dual education, career center*

Введение (Introduction)

Одной из ключевых задач системы высшего образования в условиях стремительного развития экономики и нарастания глобальной конкуренции является обеспечение эффективной интеграции выпускников в рынок труда. В современном мире диплом о высшем образовании уже не гарантирует трудоустройства — работодатели требуют от молодых специалистов наличия практических навыков, адаптивности, гибкости и

способности к непрерывному профессиональному развитию. Это подчеркивает необходимость совершенствования системы содействия трудоустройству выпускников, которая рассматривается как один из важнейших индикаторов качества высшего образования.

В Республике Казахстан формирование эффективной системы трудоустройства выпускников приобретает стратегическое значение, особенно в контексте задач, обозначенных в таких программных документах, как Государственная программа развития образования и науки на 2020–2025 годы, Национальный план развития до 2050 года, а также Концепция развития высшего образования и науки на 2023–2029 годы. Эти документы подчеркивают приоритетную роль системы образования в подготовке конкурентоспособных кадров, способных успешно функционировать в условиях цифровой экономики, индустриализации и социальной трансформации общества.

Особое внимание в Казахстане уделяется дуальному образованию, цифровизации учебных программ, расширению взаимодействия вузов с работодателями и внедрению механизмов государственной поддержки молодежной занятости, таких как программы «С дипломом в село», «Молодежная практика», «Первое рабочее место» и «Контракт поколений». Несмотря на положительные изменения, сохраняется разрыв между ожиданиями работодателей и уровнем подготовки выпускников, а также наблюдаются системные проблемы в деятельности карьерных центров, в координации между государством, вузами и бизнесом.

Актуальность исследования усиливается также международными обязательствами Казахстана в рамках Болонского процесса, которые предполагают гармонизацию образовательных стандартов с европейскими нормами и повышение мобильности студентов и выпускников. В условиях трансформации рынка труда важно не только повышать качество образования, но и создавать устойчивую инфраструктуру карьерной поддержки, основанную на лучших зарубежных практиках, включая дуальное образование, институционализированные карьерные центры и цифровые платформы трудоустройства.

Настоящая статья направлена на выявление текущих проблем и барьеров в системе трудоустройства выпускников казахстанских вузов, анализ эффективности действующих программ и инициатив, а также выработку рекомендаций по совершенствованию данной системы в контексте международных стандартов.

Анализ тематической литературы (Literature review)

Система содействия трудоустройству выпускников является объектом пристального внимания как со стороны исследователей, так и со стороны государственных органов. В литературе последних лет подчёркивается, что успех выпускника на рынке труда определяется не только качеством полученного образования, но и уровнем его карьерной компетентности, наличием механизмов институциональной поддержки и вовлеченности работодателей в образовательный процесс.

В Республике Казахстан функционируют государственные программы и законодательные инициативы, направленные на усиление связей между образованием и рынком труда. В частности, в Государственной программе развития образования и науки на 2020–2025 годы акцент сделан на необходимость развития дуального образования, цифровизации и карьерного сопровождения студентов. Концепция развития высшего образования и науки на 2023–2029 годы также подчеркивает важность трудоустройства выпускников как одного из ключевых индикаторов эффективности вузов.

Значительный вклад в методологическое осмысление проблем занятости молодежи внесли исследователи, такие как Зверева И.П., которая в своей работе подчеркивает необходимость межведомственного взаимодействия между вузами, работодателями и органами государственной власти для эффективного решения вопросов трудоустройства.

В её статье рассмотрены барьеры, препятствующие успешной адаптации выпускников, включая недостаточную карьерную ориентацию и слабую практическую подготовку.

Зарубежный опыт содействия трудоустройству представлен в отчете Министерства образования и науки РК и включает примеры таких стран, как Германия, США и Великобритания. В Германии успешно применяется модель дуального образования, в рамках которой студенты совмещают учебу с работой на предприятиях. В США университеты развивают цифровые платформы поиска работы и программы карьерного консультирования. Великобритания делает ставку на наставничество и карьерные треки, привязанные к профессиональным сообществам.

Таблица 1.

Сравнительный анализ программы в РК для трудоустройства

Программа	Сфера применения	Финансовая поддержка	Гарантии занятости	Продолжительность участия
«С дипломом в село»	Медики, педагоги	Подъемные, жилье	Да	3 года
«Молодежная практика»	Все выпускники	Субсидии на 6 мес.	Нет	6 месяцев
«Первое рабочее место»	Все выпускники	Субсидии на 12 мес.	Частично	2 года
Контракт поколений	Все выпускники	Нет прямых выплат	Частично	18 месяцев
Источник: https://egov.kz/cms/ru/articles/vipusknik				

В РК используются меры поддержки выпускников через программы, такие как «С дипломом в село», «Молодежная практика», «Первое рабочее место» и «Контракт поколений», каждая из которых имеет различный уровень охвата и поддержки. Эти программы сравниваются по критериям финансовой помощи, долгосрочного эффекта и охвата целевой аудитории.

Кроме того, инициативы по цифровизации карьерной поддержки, включая платформу Enbek.kz, способствуют повышению прозрачности и доступности информации о вакансиях. Современные тренды в развитии карьерных сервисов включают внедрение чат-ботов, онлайн-систем для карьерной диагностики, а также модульные платформы карьерного трекинга.

Таким образом, анализ литературы показывает, что успешное трудоустройство выпускников возможно при условии системной работы всех участников: государства, вузов, работодателей и самих студентов. Современные подходы должны быть гибкими, цифровыми и интегративными, соответствовать требованиям глобального рынка и учитывать лучшие международные практики. Использование источников данных, таких как [6], [9], [10], [11], [13], позволяет глубже понять проблемы и предложить обоснованные решения.

Методология исследования (Research Methodology)

Методология настоящего исследования основывается на комплексном подходе, сочетающем как количественные, так и качественные методы анализа для всестороннего изучения состояния и проблем системы трудоустройства выпускников вузов в Казахстане в соответствии с международными стандартами.

Философская основа исследования базируется на прагматическом подходе, сочетающем элементы индукции (от частных наблюдений к обобщениям) и дедукции (от теоретических положений к анализу эмпирических данных). Такой подход позволил соединить анализ нормативных документов, программных инициатив и статистических данных с конкретными практиками трудоустройства выпускников.

Исследовательский дизайн построен на основе следующих этапов:

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

1. Анализ нормативной базы Республики Казахстан, включая Государственную программу развития образования и науки на 2020–2025 годы, Национальный план развития до 2050 года, Концепцию развития высшего образования и науки на 2023–2029 годы, а также документы Министерства труда и социальной защиты населения РК, регламентирующие реализацию программ «Молодежная практика», «Первое рабочее место» и др.

2. Контент-анализ отчетов и данных, представленных в открытых источниках, включая платформы egov.kz, enbek.kz, документы Бюро национальной статистики РК, а также материалы международных организаций (например, отчёты NACE и Бюро статистики труда США).

3. Сравнительный анализ зарубежных моделей содействия трудоустройству выпускников (США, Германия, Великобритания, Сингапур) и отечественных практик, реализуемых в рамках карьерных центров казахстанских вузов. Использовалась модель адаптации лучших практик (best practices adaptation model), основанная на сопоставлении институциональных условий, механизмов взаимодействия с работодателями и цифровых решений.

4. Кейс-стади (case study): в качестве фокусного кейса была выбрана система трудоустройства в НАО «Западно-Казахстанский аграрно-технический университет имени Жангир хана» (ЗКАТУ), где реализуются программы дуального образования и функционирует Центр карьеры и бизнес-партнерства. Анализ проводился на основе внутренней отчетности университета, интервью с руководителями структурных подразделений, а также статистических данных о трудоустройстве выпускников.

5. Контекстный анализ карьерной компетентности как индикатора готовности выпускников к профессиональной деятельности. Использовались методические подходы, предложенные в работах С.В. Варюшкина, С.И. Осиповой, И.В. Янченко, а также международные исследования по карьерному развитию молодежи.

6. Статистический анализ показателей занятости молодежи по данным Бюро национальной статистики РК, включая уровень безработицы среди выпускников, долю молодежи NEET, охват программами содействия занятости и среднюю продолжительность поиска работы.

Применение указанных методов позволило сформировать обоснованные выводы о существующих барьерах в системе трудоустройства выпускников, выявить эффективные практики и разработать рекомендации по улучшению взаимодействия между вузами, государством и работодателями.

Анализ и результаты (Analysis and results)

В рамках исследования были проанализированы нормативные документы, статистические данные и конкретные практики трудоустройства выпускников в Республике Казахстан, а также международный опыт в данной сфере. Результаты анализа показали, что, несмотря на наличие государственной поддержки и функционирование карьерных центров при вузах, система трудоустройства выпускников в Казахстане сталкивается с рядом структурных и организационных проблем.

1. Разрыв между системой подготовки кадров и требованиями рынка труда

Анализ данных, представленных в докладе Казахстанского института стратегических исследований, указывает на наличие существенного несоответствия между спросом работодателей и уровнем подготовки выпускников, особенно в таких сферах, как инженерия, IT и точные науки. Согласно рейтингу НПП «Атамекен», один из главных критериев эффективности образовательных программ — доля выпускников, трудоустроившихся по специальности, — остается ниже целевых ориентиров в ряде направлений.

2. Эффективность государственных программ

Сравнительный анализ четырех ключевых программ содействия трудоустройству —

«С дипломом в село», «Молодежная практика», «Первое рабочее место» и «Контракт поколений» — показал, что каждая из них имеет различный уровень охвата и эффективности. Наибольшую гарантию занятости предоставляет программа «С дипломом в село», однако она ограничена по целевой аудитории. Программы «Молодежная практика» и «Первое рабочее место» предоставляют краткосрочную поддержку, но не всегда обеспечивают продолжение занятости после завершения участия.

Таблица 1 и рисунок 1 из статьи наглядно демонстрируют, как различаются эти программы по уровню финансовой поддержки, продолжительности и гарантии трудоустройства.

3. Роль центров карьеры

Центры карьеры, действующие при ведущих казахстанских университетах (КазНУ, ЕНУ, АУЭС, Satbayev University и др.), реализуют широкий спектр мероприятий: организация стажировок, ярмарок вакансий, карьерного консультирования и профориентации. Однако, как показывают внутренние опросы студентов и выпускников, эффективность этих центров зависит от уровня их интеграции с учебным процессом и вовлеченности работодателей в формирование карьерных траекторий студентов.

4. Международный опыт

В ходе анализа зарубежных практик были выделены следующие ключевые механизмы, способствующие повышению занятости выпускников:

- в США — цифровые платформы карьерного консультирования (Stanford Career Education);
- в Германии — дуальное обучение (DHBW);
- в Великобритании — программы наставничества (Oxford University Careers Service);
- в Сингапуре — аналитическая система отслеживания карьеры выпускников и интеграция карьерных офисов в академическую политику вузов.

Применение этих моделей возможно в Казахстане при условии адаптации к местному контексту. Предложенные меры включают развитие цифровых карьерных платформ при университетах, активное привлечение выпускников в качестве менторов, развитие дуальных образовательных программ совместно с бизнесом.

5. Ситуация в ЗКАТУ

На примере НАО «Западно-Казахстанский аграрно-технический университет имени Жангир хана» видно, что успешное взаимодействие с работодателями, участие в международных проектах (например, Erasmus+ DIARKAZ), а также организация дуального образования и производственных практик позволяют достичь высокого уровня трудоустройства выпускников — 86% по данным НПП «Атамекен».

Центр карьеры и бизнес-партнерства ЗКАТУ проводит системную работу по профориентации, развитию компетенций, сопровождению студентов в поиске стажировок и первых рабочих мест. Этот пример подтверждает, что институциональная поддержка вуза и тесное сотрудничество с бизнесом повышают эффективность трудоустройства выпускников.

Заключение и рекомендации (Conclusion/Recommendations)

Результаты проведенного исследования подтверждают, что система содействия трудоустройству выпускников в Казахстане развивается, однако сохраняет ряд значительных проблем, связанных с разрывом между подготовкой кадров и требованиями рынка труда, слабой интеграцией вузов и бизнеса, а также недостаточной координацией между участниками процесса. При этом анализ успешных практик как внутри страны (на примере ЗКАТУ), так и за рубежом (США, Германия, Великобритания, Сингапур) позволяет выработать конкретные рекомендации по совершенствованию системы трудоустройства выпускников.

Основные выводы:

1. Наличие диплома о высшем образовании не является гарантией успешного трудоустройства, если образовательные программы не ориентированы на практические навыки, развитие мягких компетенций и потребности работодателей.

2. Государственные программы («Молодежная практика», «С дипломом в село», «Первое рабочее место» и др.) обладают разным уровнем эффективности и требуют постоянной оценки их вклада в долгосрочную занятость молодежи.

3. Центры карьеры являются ключевым элементом инфраструктуры карьерного сопровождения, но нуждаются в системной интеграции с учебным процессом, цифровыми платформами и работодателями.

4. Международный опыт демонстрирует, что тесное взаимодействие вузов и бизнеса, а также внедрение цифровых инструментов карьерного сопровождения повышают эффективность системы трудоустройства.

Рекомендации:

Для вузов:

Укрепить карьерные службы, интегрировать их в академическую стратегию университета.

Разработать и внедрить цифровые платформы карьерного сопровождения студентов с модульной системой развития навыков.

Развивать дуальные программы совместно с работодателями и расширять базы практик и стажировок.

Для государства:

Ввести единый мониторинг показателей трудоустройства выпускников в разрезе вузов и специальностей.

Усилить поддержку центров карьеры грантовыми программами, включающими стажировки и карьерное консультирование.

Расширить программы наставничества с участием выпускников, особенно в регионах с низким уровнем трудоустройства молодежи.

Для работодателей:

Активно участвовать в разработке учебных программ, предоставлении мест практик и наставничестве студентов.

Создавать корпоративные программы по раннему найму и карьерному развитию молодых специалистов.

Таким образом, построение эффективной системы содействия трудоустройству требует межсекторального взаимодействия, цифровизации процессов карьерного сопровождения и адаптации лучших международных практик к национальному контексту. Только при условии объединения усилий государства, бизнеса и вузов возможно достижение стратегической цели — высокой занятости и конкурентоспособности выпускников на национальном и международном рынке труда.

Список использованной литературы (References)

1. Активные меры содействия занятости. URL: https://www.gov.kz/ situations /18/95?lang=ru

2. Государственная программа развития образования и науки Республики Казахстан на 2020–2025 годы. URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/P1900000988

3. Об утверждении Концепции развития высшего образования и науки в Республике Казахстан на 2023–2029 годы. URL: https://www.gov.kz/memleket/ entities/sci/documents/details/455971?lang=ru

4. Стратегия «Казахстан-2050»: новый политический курс состоявшегося государства. URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1200002050

5. Программа «Цифровой Казахстан». URL: https://www.gov.kz/memleket /entities/mdai/activities/14764

6. Трудоустройство выпускников ВУЗов. URL: https://egov.kz/cms /ru/articles /vipusknik

7. Зверева И.П. Трудоустройство выпускников вузов: проблемы и пути их решения // Образование и наука. – 2018. – №6. – С. 95–111.

8. INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FACILITATING THE EMPLOYMENT OF UNIVERSITY GRADUATES. Ministry of Education and Science of the Republic of Kazakhstan. Bologna Process and Academic Mobility Center. – Nur-Sultan, 2021.

9. Алимова А.Н., Кирова Е.О. Молодежная безработица // Международный научный журнал «Инновационная наука». – 2017. – №02-1. – ISSN 2410-6070.

10. Варюшкин С.В. Карьерная компетентность: компетентностный подход // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kariernaya-kompetentnost-kompetentnostnyy-podhod

11. Осипова С.И., Янченко И.В. Карьерная компетентность как предмет педагогического исследования // Сибирский педагогический журнал. – 2021. – №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kariernaya-kompetentnost-kak-predmet-pedagogicheskogo-issledovaniya

12. Блинова Л.Н. Личностная и карьерная компетентность как ценностные ориентации современного молодого специалиста // Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2018. – №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/lichnostnaya-i-kariernaya-kompetentnost-kak-tsennostnye-orientatsii-sovremennogo-molodogo-spetsialista

13. Kazakhstan modernizes education and transforms economies with Coursera. URL: https://www.coursera.org/enterprise/resources/casestudy/mshe

14. University–industry cooperation for sustainable employment of graduates. // Springer Nature (2022). URL: https://link.springer.com/article/10.1007/s12132-022-09528-w

15. Handshake — AI-powered career services platform. URL: https://joinhandshake.com

16. Бюро национальной статистики: уровень занятости молодежи. URL: https://stat.gov.kz/ru/industries/labor-and-income/stat-empt-unempl/

17. Официальный сайт университета ЗКАТУ имени Жангир хана. URL: https: //wkau.edu.kz/ru/

18. Национальная палата предпринимателей «Атамекен». Рейтинг вузов. URL: https: //atameken.kz/ru/university_ratings

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ДАРОМАДЛАР ВА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Мехмонов Султонали Умаралиевич

Тошкент давлат иқтисодиёт университети Ўқув ишлари бўйича биринчи проректори
ORCID: 0000-0001-5911-5628
E-mail: s_mexmonov@tsue.uz

Аннотация. *Олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини юритишнинг амалдаги ҳолати таҳлил қилинган. Молиявий ҳисоб ва ҳисобот тизимида мавжуд муаммолар аниқланиб, уларни бартараф этишга қаратилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. Шунингдек, даромад ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш орқали молиявий шаффофликни ошириш ҳамда бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш имкониятлари ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *олий таълим ташкилотлари, молиявий ҳисоб, даромадлар ҳисоби, харажатлар ҳисоби, бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот, бюджет маблағлари, ҳисоб сиёсати, иқтисодий самарадорлик.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ДОХОДОВ И РАСХОДОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Мехмонов Султонали Умаралиевич

Ташкентский государственный экономический университет
Первый проректор по учебной работе
ORCID: 0000-0001-5911-5628
E-mail: s_mexmonov@tsue.uz

Аннотация. *В данной работе проанализировано текущее состояние ведения учета доходов и расходов в учреждениях высшего образования. Были выявлены существующие проблемы в системе финансового учета и отчетности, а также разработаны предложения и рекомендации по их устранению. Кроме того, рассмотрены возможности повышения финансовой прозрачности и эффективного использования бюджетных средств через совершенствование учета доходов и расходов.*

Ключевые слова: *организации высшего образования, финансовый учет, учет доходов, учет затрат, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, бюджетные фонды, учетная политика, экономическая эффективность.*

IMPROVING INCOME AND COST ACCOUNTING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Mexmonov Sultonali Umaralievich

Tashkent State University of Economics
First Vice-Rector for Academic Affairs
ORCID 0000-0001-5911-5628
E-mail: s_mexmonov@tsue.uz

Abstract. *This study analyzes the current state of income and expenditure accounting in higher education institutions. Existing problems in the financial accounting and reporting system were identified, and proposals and recommendations for their resolution were developed.*

Furthermore, opportunities to enhance financial transparency and ensure the efficient use of budgetary funds through the improvement of income and expenditure accounting have been highlighted.

Keywords: *higher education organizations, financial accounting, income accounting, cost accounting, accounting, financial reporting, budget funds, accounting policy, economic efficiency.*

Кириш

Жаҳон иқтисодиётида глобаллашув жараёнларининг чуқурлашуви, молиявий ресурслар ҳаракатининг тезлашуви ҳамда рақобат муҳитининг кучайиши барча соҳалар қаторида таълим тизимига ҳам сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Айниқса, олий таълим ташкилотларининг иқтисодий мустақиллиги ва молиявий барқарорлигини таъминлаш жаҳон миқёсида долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, олий таълим муассасаларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини замонавий бухгалтерия стандартлари асосида юритиш молиявий самарадорликни оширишда муҳим ўрин тутади. Жаҳон иқтисодиётида 2020 йиллардан кейин кузатилаётган иқтисодий беқарорлик, инфляция жараёнларининг кучайиши ва бюджет чекловлари таълим соҳасида молиявий ресурслардан оқилона фойдаланишни тақозо этмоқда. Шу шароитда олий таълим ташкилотлари фаолиятини молиялаштириш манбаларини диверсификация қилиш, харажатларни қатъий назорат қилиш ва ҳисоб тизимини такомиллаштириш зарурати ортиб бормоқда. Даромадлар ва харажатлар ҳисобининг самарали ташкил этилиши олий таълим муассасаларида молиявий шаффофликни таъминлаш, бошқарув қарорларини асослаш ҳамда халқаро тажрибани жорий этиш имконини беради. Шу боис, жаҳон иқтисодиётидаги замонавий тенденциялар нуқтаи назаридан олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш илмий ва амалий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга.

Бугунги кунда олий таълим ташкилотларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш ва улар фаолияти самарадорлигини оширишда даромадлар ва харажатлар ҳисобини тўғри ташкил этиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар, молиялаштириш манбаларининг диверсификация қилиниши ҳамда бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлар улушининг ортиши ҳисоб тизимини замонавий талаблар асосида такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Олий таълим ташкилотларида даромад манбалари, жумладан, давлат бюджети маблағлари, контракт тўловлари, грантлар ҳамда хўжалик фаолиятидан олинадиган тушумларни ҳисобга олишда аниқлик ва шаффофликни таъминлаш зарур. Шу билан бирга, харажатларни режалаштириш, ҳисобга олиш ва назорат қилиш механизмларининг самарали ишлаши молиявий интизомни мустаҳкамлайди. Амалдаги ҳисоб тизимида айрим камчиликлар мавжуд бўлиб, улар молиявий ҳисоботларнинг ишончлилигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Шу сабабли, даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш, ҳисоб сиёсати ва назорат усулларини ривожлантириш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Адабиётлар шарҳи

Олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини таҳлил қилишда хорижлик иқтисодчи олимларнинг фикрларини кўриб чиқиламиз. Жумладан: Роберт К.Тоуткоушиан ҳамда Мичаэл Б.Паулсеннинг таъкидлашича «Олий таълим муассасалари турли хил даромад манбаларига, жумладан, давлат маблағлари, ўқиш тўловлари ва хусусий хайрияларга таянади». Фикримизча, мазкур мувозанатни таъминлаш олий таълим ташкилотларида молиявий ресурсларни самарали тақсимлаш, харажатларни мақбул режалаштириш ҳамда стратегик ривожланиш мақсадларига эришишда муҳим омил ҳисобланади[1].

Кэтэрин В. Ҳиллнинг таъкидлашича «даромадлар тенгсизлиги ўқиш, харажатлар ва

молиявий ёрдамга боғланган ҳолда олий таълим муассасаларига таъсир қилади». Фикримизча, ушбу ҳолат олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш, молиявий ресурсларни ижтимоий адолат тамойиллари асосида қайта тақсимлаш ҳамда молиявий ёрдам механизмларини янада шаффоф ва самарали ташкил этиш зарурлигини кўрсатади[2].

М.Сарной ўз илмий қарашларида «Олий таълимнинг даромадлари қуйи таълим даражасига нисбатан ошганида элита ва оммавий университетлар ўртасида давлат харажатларидаги номутаносиблик юзага келганда ушбу муассаларнинг кенгайишига ҳамда даромадлар тенгсизлигини оширишга олиб келишини таъкидлаган». Фикримизча, бундай ҳолат олий таълим ташкилотларида молиявий ресурсларни тақсимлаш тизимини такомиллаштириш, давлат харажатларини адолатли ва мақсадли йўналтириш ҳамда даромадлар ва харажатлар ҳисобини аниқ ва шаффоф юритиш зарурлигини кўрсатади[3].

Морган Бридгенининг таъкидлашича «Олий таълим муассасаларининг иқтисодий таъсирини ўрганишда миллий иқтисодиётга қўшган ҳиссасини ошириб кўрсатишда танқидга дуч келади». Фикримизча, мазкур ҳолат олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини аниқ, холис ва шаффоф ташкил этиш зарурлигини кўрсатади[4].

Г.Wйнесснинг таъкидлашича «олий таълимни молиялаштиришда харажатларни тақсимлашга ўтиш талабалар иштирокига мустаҳкам боғлиқлилк таъсирига эга». Фикримизча, мазкур ёндашув олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш, харажатларни тақсимлаш механизмларини аниқ белгилаш ҳамда молиявий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини оширишни тақозо этади[5].

Жасоб Фowлесга кўра «институтсионал харажатлар талабалар муваффақиятининг муҳим омили бўлиб, таълим ва институтсионал ёрдамга сарфланган харажатлар битирув кўрсаткичлари билан ижобий боғлиқдир». Фикримизча, ушбу ёндашув олий таълим муассасаларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини самарали ташкил этиш, молиявий ресурсларни аниқ ва мақсадли йўналтириш ҳамда таълим сифатини ошириш учун муҳим аҳамиятга эга[6].

Таҳлил ва натижалар

Ҳозирги кунда олий таълим тизими тобора мураккаблашиб бораётган шароитда олий таълим муассасаларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш масаласи алоҳида аҳамият касб этмоқда. Университетлар нафақат давлат бюджети маблағларидан, балки грантлар, хўжалик шартномалари, талабалардан олинадиган тўловлар, илмий-тадқиқот лойиҳалари ва бошқа манбалардан даромад олишади. Бундай кўп манбали молиявий оқимларни тўғри ҳисобга олиш ва бошқариш ташкилотнинг молиявий барқарорлиги, режалаштириш сифати ва стратегик ривожланиш имкониятларини таъминлайди. Замонавий ҳисобот тизимларининг йўқлиги ёки номукаммаллиги молиявий рисклар, ресурсларнинг норатсионал тақсимланиши ва бошқарув қарорлари қабул қилишда хатоликларга олиб келиши мумкин.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар, жумладан, олий таълим тизимини модернизациялаш дастурлари олий таълим муассасаларининг молиявий ҳисоботлари халқаро стандартларга мувофиқлигини талаб қилмоқда. Халқаро ҳамкорлик, хорижий инвесторлар ва грант бериш ташкилотлари билан ишлаш учун даромадлар ва харажатлар бўйича шаффоф ва тушунарли ҳисобот тизими зарур. Бугунги кунда кўпгина университетлар мустақиллик даражасини ошириб, молиявий ва бошқарув автономиясига эга бўлмоқда, бу эса улардан замонавий менежмент ва бухгалтерия ҳисоби тизимларини жорий этишни тақозо этади. Миллий ва халқаро даражада рақобатбардошликни таъминлаш учун олий таълим муассасалари ўз молиявий фаолиятини оптималлаштириши ва ҳар бир сарфланган сўмнинг самарадорлигини кўрсата олиши керак.

Даромадлар ва харажатлар ҳисобининг такомиллаштирилиши таълим сифатини

оширишга бевосита таъсир кўрсатади. Тўғри молиявий тахлил асосида университет раҳбарияти қайси йўналишларга қўшимча инвестиция киритиш, қайси дастурларни ривожлантириш ёки қайси харажатларни қисқартириш кераклигини аниқлай олади. Илмий-тадқиқот ишлари, лаборатория жиҳозлари, замонавий технологиялар, профессор-ўқитувчилар малакасини ошириш, талабалар учун имтиёзлар ва грантлар - барча бу соҳалар самарали молиявий режалаштиришни талаб қилади. Харажатларнинг таркибий тахлили талаба бошига тўғри келадиган хақиқий таннархни ҳисоблаш, ҳар бир таълим дастурининг рентабеллигини баҳолаш ва ресурсларни энг самарали йўналишларга йўналтиришга имкон беради.

Олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш иқтисодий барқарорлик, молиявий шаффофлик ва таълим сифатини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Таҳлилий нуқтаи назардан қаралганда, даромад манбалари ва харажатлар таркиби, уларнинг институционал ва стратегик устуворликлари олий таълим муассасаларининг молиявий стратегияси ва самарадорлигига бевосита таъсир кўрсатади. Шу боис ушбу масала илмий ва амалий жиҳатдан таҳлилни талаб қилади.

Давлат бюджети томонидан давлат таълим ташкилотларининг харажатлар сметаси асосида сарфланган маблағлари бюджет маблағлари, ташкилотнинг тўлов-контракт ва тадбиркорлик асосида ҳисоб рақамига келиб тушган маблағлар ҳисобидан ишлатилганлари эса, бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобланади. Ўз навбатида, ҳар иккала турдаги харажатлар ҳам таркибий қисмларга ажратилади (1-расм).



1-расм. Давлат таълим ташкилотларининг харажатлари таркиби[1]

Давлат таълим ташкилотларида харажатларни ҳисобини юритиш харажатларни мазмунидан ва турларидан келиб чиқиб харажатлар сметаси асосида амалга оширилади. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфидаги давлат олий таълим ташкилотларининг бюджет маблағлари харажатларини гурухлари бўйича ўрганилганда, ҳар бир гуруҳ бўйича харажатларнинг мақсадларига эътибор бериш лозим. Харажатлар йилдан-йилга ўсиб бориш тенденциясига эга ҳисобланади, чунки харажатлар ташкилотларнинг эҳтиёжларидан келиб чиқиб амалга оширилади. Харажатларнинг ўсиши, эҳтиёжларнинг, инфляциянинг, товар ва хизматлар таннархининг, коммунал тўловлар нархининг, талабалар контингентининг ўсиши ва

[1]Муаллиф томонидан тайёрланган.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

бошқа кутилмаган харажатларнинг юзага келиши билан боғлиқ бўлади.



2-расм. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфидаги Давлат олий таълим ташкилотларининг бюджет маблағлари харажатларини гуруҳлари бўйича тақсимланиши графиги[7]

Расмда барча гурух харажатлари бўйича ўзгаришлар аниқ кўринган. 2 чи гурух харажатлари 1 чи гурух харажатларидан келиб чиқиб, ўша даврга тегишли бўлган солиқ ставкаларига мос равишда ўзгаради. 3 чи гурух харажатлари 2018 йилда жами харажатларнинг 0,2 фоизини ташкил этган ва бошқа йилларда мавжуд эмас. Қолган харажатлар 4 чи гурух харажатларида жамланган. 4 чи гурух харажатлари 2018 йилда 12,9 фоизни, 2019 йилда эса 3,3 фоизни ташкил этган, яъни 9,6 фоизга пасайган. Кейинги йилларда ҳам номутаносиб равишда ўзгарган ва 2022 йилга келиб 35,6 фоизга ўсиши кузатилган. Бу сўннги беш йил ичида энг юқори кўрсаткич эканлиги кўриниб турибди. Бу жараёнга таъсир қилувчи бир нечта омилларни келтириш мумкин.



3-расм. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфидаги Давлат олий таълим ташкилотларининг тўлов-контракт маблағлари харажатларини гуруҳлари бўйича тақсимланиши графиги[7]

Давлат олий таълим ташкилотларининг тўлов-контракт маблағлари харажатларини гуруҳлари бўйича таҳлилида йиллар давомида ўзгарувчан харажатларни кўришимиз мумкин. 2 гурух харажатлари 1 гурух харажатларидан келиб чиқиб белгиланади, бу жадвал уларнинг тескари мутаносибликда ўсиб камайганини кўришимиз мумкин. 1 гурух харажатлари сўнгги беш йил ичида 2019 йилда энг юқори кўрсаткичга эга бўлган, 2023

йилда эса олдинги йилга нисбатан 5,4 фоизга ўсиш кузатилган.

Харажатларни таҳлил қилишда харажат гуруҳлари юзасидан ёндашиш уларни умумий натижаларидан келиб чиқиб ҳар бир гуруҳнинг улуши ва уларнинг ўсиб камайишини аниқлаш мумкин. Аммо, харажатларнинг таркибини алоҳида таснифлари ёки мазмуни билан ўрганиб чиқиш уларни режалаштириш, харажатларни камайтириш ва уларни тўғри тақсимлаш имконини беради. Харажатларни таркиби бўйича ўтказилган таҳлил натижаларига эътибор қаратамиз (1-жадвал).

1-жадвал

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфидаги давлат олий таълим ташкилотлари бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлар харажатлари таркибининг йиллар давомида ўзгариши (млн. сўм) **[7]**

Кўрсаткичлар		Меҳнатга ҳақ тўлаш билан боғлиқ харажатлар	Стипен-диялар	Капитал қўйил-малар харажат-ларига	Материал қийматлик-ларга қилинган харажатлар	Асосий воситаларга харажатлар	Бошқа хара-жатлар
2019 йил	Бюджет маблағлари	486659,2	294330,6	2769,9	76620,9	38004,4	1080,6
	Бюджетдан ташқари маблағлар	664565,6	699119,2	6080,5	53295,7	24722,6	50508,4
2020 йил	Бюджет маблағлари	469035,3	345453,6	-	18610,7	7694,6	1108,6
	Бюджетдан ташқари маблағлар	1141062,3	617472,8	1209,0	106356,7	56625,4	67527,9
2021 йил	Бюджет маблағлари	532523,5	418804,6	-	19032,4	3520,8	121895,7
	Бюджетдан ташқари маблағлар	1579305,2	221896,9	17497,0	156638,0	84644,3	175213,4
2022 йил	Бюджет маблағлари	708537,8	591736,8	-	25854,0	13237,9	129854,1
	Бюджетдан ташқари маблағлар	2472261,9	133918,2	132300,0	247431,1	220460,9	259625,1
2023 йил	Бюджет маблағлари	591296,9	790925,3	-	21472,4	15413,2	725724,4
	Бюджетдан ташқари маблағлар	3612781,6	150214,1	314129,6	298799,2	206981,6	220838,6

Юқоридаги жадвал маълумотлари, харажатларни таркиби бўйича айнан бир турдаги харажатлар умумий харажатлар таркибида эгаллаган улушини кўрсатади. Хусусан, меҳнат ҳақи билан боғлиқ харажатлар 1 гуруҳ харажатларига нисбатан қанча миқдорда эканлигини билиб олиш мумкин. Бу харажат турлари бўйича таҳлил қилганда давлат таълим ташкилотларининг эҳтиёжлари миқдорини билиш мумкин. 2019-2023 йилларда давлат олий таълим ташкилотларининг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари харажатлари сезиларли ўсишни кўрсатди. Бюджет маблағлари асосан меҳнатга ҳақ тўлаш ва стипендияларга йўналтирилса, бюджетдан ташқари маблағлар капитал қўйилмалар ва асосий воситалар харажатларида ошган. Бу ҳолат олий таълимнинг молиявий ресурсларини диверсификация қилиш ва харажатларни самарали тақсимлаш зарурлигини кўрсатади.

Хулоса

Олий таълим ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш олий таълим тизимининг молиявий барқарорлиги ва самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Таҳлил ва илмий манбалар кўрсатганидек, даромад манбалари давлат маблағлари, контракт тўловлари, грантлар ва хусусий хайриялар муассасалар фаолиятида асосий роль ўйнайди. Уларнинг таркиби ва институционал устуворликлари харажатлар схемаси, талабалар натижалари ва таълим

сифатига бевосита таъсир қилади.

2019-2023 йилларда бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлар харажатлари сезиларли ўсишини кўрсатди. Бюджет маблағлари асосан меҳнатга ҳақ тўлаш ва стипендияларга йўналтирилса, бюджетдан ташқари маблағлар капитал қўйилмалар, асосий воситалар ва материал қийматликларга сарфланган. Бу жараён олий таълим муассасалари молиявий стратегияси ва харажатларни режалаштиришда самарали механизмлар ишлаб чиқиш зарурлигини кўрсатади.

Фикримизча, даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш, харажатларни мақсадли тақсимлаш, молиявий шаффофликни таъминлаш ҳамда олий таълимнинг барқарор ривожланиши учун муҳимдир. Шунингдек, даромадлар диверсификацияси ва харажатлар устидан назоратнинг кучайтирилиши олий таълимда ижтимоий адолат ва самарадорликни оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Toutkoushian, R. K., & Paulsen, M. B. (2016). Higher Education Revenues and Expenditures (pp. 231–274). Springer, Dordrecht.

2. Hill, C. B. (2016). American higher education and income inequality. Education Finance and Policy, 11(3), 325-339.

3. Carnoy, M. (2011). As higher education expands, is it contributing to greater inequality? National Institute Economic Review, 215(1), 34–47.

4. Bridge, M. (2011). Higher Education Economic Impact Studies: Accurate Measures Of Economic Impact? Journal of College Teaching & Learning, 2(2).

5. Wyness, G. (2009). The impact of higher education finance in the UK. https://ethos.bl.uk/OrderDetails.do?uin=uk.bl.ethos.534878

6. Fowles, J. (2008, October). Linking institutional expenditures to student success: An analysis of public institutions of higher education. In Chicago, IL: Association for Budgetingand Financial Management Conference.

7. www.edu.uz – Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги расмий сайти.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ КОРХОНАЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Маннапова Раъно Абдуровна
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
бюджет ҳисоби ва ғазначилик кафедраси доценти
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: r.mannapova@tsue.uz
ORCID : 0000-0003-4577-8847

Аннотация. *Мазкур мақолада Ўзбекистонда умумий овқатланиш соҳасидаги корхоналар бухгалтерия ҳисоби ва аудити соҳасидаги замонавий тенденциялар таҳлил қилинган. Рақамлаштириш, автоматлаштириш, молиявий мониторинг ва халқаро стандартлар асосидаги ёндашувлар асосий ўринда турганлиги кўрсатилиб, тегишли тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар: *рақамлаштириш, автоматлаштириш, молиявий мониторинг, халқаро стандартлар, бухгалтерия ҳисоби ва аудит.*

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Маннапова Раъно Абдуровна
доктор философии (PhD) по экономическим наукам
доцент
кафедры бюджетного учета и казначейства
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: r.mannapova@tsue.uz
ORCID : 0000-0003-4577-8847

Аннотация. *В статье анализируются современные тенденции бухгалтерского учета и аудита предприятий общественного питания Узбекистана. Исследуются проблемы, связанные с развитием этой сферы, подчеркивается, что на первый план выходят автоматизация, финансовый мониторинг, подходы, основанные на международных стандартах, даются соответствующие рекомендации.*

Ключевые слова: *цифровизация, автоматизация, финансовый мониторинг, международные стандарты, бухгалтерский учет и аудит.*

MODERN TRENDS IN ACCOUNTING AND AUDITING IN PUBLIC CATERING ENTERPRISES IN UZBEKISTAN.

Mannapova Rano Abrorovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Associate Professor

of the Department of
Budget Accounting and Treasury
Tashkent State University of Economics
E-mail: r.mannapova@tsue.uz
ORCID : 0000-0003-4577-8847

Abstract. *The article analyzes modern trends in accounting and auditing of public catering enterprises in Uzbekistan. The problems associated with the development of this area are studied, it is emphasized that automation, financial monitoring, approaches based on international standards are coming to the fore, appropriate recommendations are given.*

Keywords: *digitization, automation, financial monitoring, international standards, accounting and auditing.*

Кириш

Сўнгги йилларда умумий овқатланиш хизматлари жадал ривожланмоқда. Бу жараёнда бухгалтерия ҳисоби ва аудит ҳам замон талаблари асосида такомиллашмоқда. Айниқса рақамли технологиялар ва халқаро молиявий ҳисобот стандартлари (IFRS) асосида юритиладиган тизимлар долзарблик касб этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5813-сонли фармони асосида савдо ва хизмат кўрсатиш соҳасидаги ҳисоб-китоблар тизимига замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш масаласи ўз ечимига ҳуқуқий замин яратилди [1].

Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари – бу корхонага нисбатан иқтисодий қарорлар қабул қилиш учун ташқи фойдаланувчилар томонидан талаб қилинадиган молиявий ҳисоботларни тайёрлаш қоидаларини тартибга солувчи ҳужжатлар (стандартлар ва талқинлар) тўплами.

Бугунги кунда бухгалтерия ҳисоби соҳаси бир қатор ўзига хос янги тенденциялар билан ажралиб туради.

1) рақамлаштириш: кўплаб овқатланиш корхоналари молиявий ҳисоботларни 1C, SAP, Quick Books каби дастурлар орқали юритмоқда;

2) булутли технологиялар: маълумотларни реал вақт режимида сақлаш ва алмашиш имконияти ошган;

3) сунъий интеллект ёрдамида харажатларни таҳлил қилиш: AI асосидаги дастурлар операцион харажатларни автоматик таҳлил қилиб, самарадорликни оширади;

4) интеграциялашган бошқарув тизимлари: молиявий ҳисоб, омбор ҳисоботи ва мижозларга хизмат кўрсатиш ягона платформада юритлади.

Аудитда янги ёндашувлар шаклланган.

1) рискларга асосланган аудит: овқатланиш корхоналари даромадларининг кескин ўзгариши ёки нақд пул оқимининг ноаниқлиги рисклар даражасини оширади. Шунга кўра аудиторлар ўз стратегияларини мослаштирмоқда;

2) рақамли аудит технологиялари: Аудит жараёнида электрон ҳужжат айланиши, рақамли излар таҳлили ва масофадан текширувлар амалга оширилмоқда;

3) халқаро стандартларга мослик: XFMHS (IFRS) ва XAA (ISA) талабларига асосланган аудит тизими жорий этилмоқда;

4) экологик ва ижтимоий ҳисоботлар: барқарор ривожланиш ва яшил аудит тамойилларига асосланган молиявий ҳисоботлар талаби ортмоқда.

Адабиётлар шарҳи

Олимлар асосан умумий овқатланиш корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудит соҳасидаги замонавий тенденциялар, яъни рақамли технологияларнинг бухгалтерия ҳисобига таъсири, автоматлаштирилган дастурларни (1C, SAP) қўллаш ҳамда ички назорат ва аудиторлик стандартларининг такомиллашуви йўналишлар бўйича тадқиқотлар олиб борган.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Америкалик олим Robert Kaplan менежмент ҳисоби ва балансланган кўрсаткичлар тизими (BSC)ни ўрганиб, қарор қабул қилишда молиявий ва молиявий бўлмаган маълумотлардан фойдаланиш усулларини ривожлантирган [2]. Майкл Портернинг фикрича, “Тижорий жиҳатдан муваффақиятли бўлган янги технологияларни ишлаб чиқиш рақобат катта таъсир ўтказади. Муайян тармоқлар ва бозор сегментларида хорижий рақобатчиларга нисбатан рақобатдош устунликка еришиш учун кўплаб курашлар натижасида маҳсулотлар ва жараёнлар яратилади ва такомиллаштирилади, бу еса миллий самарадорликнинг ошишига олиб келади” [3]. Инглиз олими Al Bhimani рақамли технологиялар ва бухгалтерия ҳисоби соҳасида махсус изланишлар олиб борган. Унинг ишлари ресторан ва умумий овқатланиш секторларидаги рақамлаштириш тенденцияларини қамраб олади [6]. David Otley ҳисобот бериш тизимлари ва назорат жараёнлари бўйича тадқиқот олиб бориб, ресторан ва хизмат кўрсатиш соҳаларидаги муаммоларни тадқиқ этган [7].

Ўзбекистонлик тадқиқотчилардан Н.Р. Ибрагимова хизмат кўрсатиш соҳасида бухгалтерия ҳисоби [4], И.Х. Шеримбетов хусусий капитал аудитида таҳлилий амалларни қўллаш [5] каби масалаларига бағишланган тадқиқотлар олиб боришган.

Тадқиқот методологияси

Мазкур мақола мақсади Ўзбекистонда умумий овқатланиш корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудит тизимининг ҳозирги ҳолатини таҳлил қилиш, замонавий тенденцияларни аниқлаш ва уларни такомиллаштириш юзасидан таклифлар ишлаб чиқишдан иборат.

Бу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар белгиланади: Умумий овқатланиш корхоналарининг молиявий хисобот хусусиятларини ўрганиш; амалдаги бухгалтерия ҳисоби ва аудит жараёнларини таҳлил қилиш; замонавий ахборот технологияларининг бухгалтерия ва аудит тизимига таъсирини баҳолаш; тараққий этган мамлакатлар тажрибасини ўрганиб, миллий шароитга мос таклифлар ишлаб чиқиш. Тадқиқотни амалга оширишда анализ ва синтез, индуктив ёндашув, солиштирма таҳлил усуллардан фойдаланилган.

Мазкур мақола натижалари умумий овқатланиш соҳасида фаолият юритаётган субъектлар учун бухгалтерия ҳисоби ва аудит тизимини такомиллаштириш, рақамлаштириш, ҳамда аниқ тавсиялар асосида самарадорликни оширишга хизмат қилади.

Таҳлил ва натижалар

Умумий овқатланиш корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудит соҳасидаги тадқиқотлар шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда ушбу соҳада рақамли трансформация кучайган. Бухгалтерия ҳисоби нафақат қонуний ҳисобот бериш воситаси, балки стратегик бошқарув учун муҳим ахборот манбаига айланмоқда.

Автоматлаштириш даражаси тадқиқотлардан келиб чиқиб, йирик ресторанлар ва умумий овқатланиш тармоқларида автоматлаштирилган ҳисоб тизимларидан (1C, R-Keeper, iiko) фойдаланиш даражаси 70–80% ни ташкил этса, кичик корхоналарда бу кўрсаткич 30–40% атрофида кузатилган. Бу эса кичик бизнесда инсон омилига боғлиқ хато ва камчиликларнинг юқорилигини англатади. Бугунги кунда бухгалтер кадрларнинг малакасини аниқлаш натижаси шуни кўрсатадики, умумий овқатланиш корхоналарида фаолият юритаётган бухгалтерларнинг тахминан 40% и замонавий ҳисоб дастурлари билан тўлиқ ишлай олмайди. Бу ҳолат рақамли малакани ошириш эҳтиёжини тасдиқлайди.

Аудит жараёнларининг ҳолатини текширув, асосан, ташқи аудиторлар томонидан бир йилда бир марта ўтказилади. Лекин кўпгина корхоналарда ички аудит тизими йўқ ёки формал равишда амалга оширилади, бу эса назорат самарадорлигини пасайтиради. Хозирда ҳисобот бериш тизими ва шаффофлик, фискаллаштириш ва онлайн касса орқали

тушумларни давлат органлари назоратига олиш яхшиланган. Бироқ харажатларни тўлиқ ҳужжатлаштириш ва шаффоф ҳисоб юритиш даражаси ҳали ҳам етарли эмас.

Рақамли ҳисоб тизимларини жорий этган умумий овқатланиш корхоналарида харажатлар 10–15% гача камайгани, тушумлар 8–12% гача ошгани кузатилган. Бу иқтисодий самарадорлик ва автоматлаштиришнинг иқтисодий фойдаси борлигини кўрсатади.

1-чизма.

Умумий овқатланиш корхоналарида рақамли ҳисоб тизимини жорий этиш самарадорлиги*



* Муаллиф томонидан тузилган.

Чизма маълумотларидан кўриниб турибдики, умумий овқатланиш корхоналарида рақамли ҳисоб тизимини жорий этиш бир неча самарали натижаларга олиб келади.

Овқатланиш корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг замонавийлашуви уларнинг молиявий шаффофлигини ошириш, самарадор бошқарувни таъминлаш ва инвестицион жозибадорлигини кучайтиришга хизмат қилмоқда. Бу эса глобал иқтисодиётга интеграциялашув жараёнини тезлаштиради. Бугунги кунда ҳисоб ва аудит фаолияти фақатгина анъанавий ҳисобот бериш билан чекланиб қолмай, балки қарор қабул қилиш жараёнларини қўллаб-қувватловчи муҳим воситага айланди.

Аниқ кузатиладиган замонавий тенденциялар қуйидагилардан иборат:

a) рақамлаштириш ва автоматлаштириш: 1C, SAP, QuickBooks каби ахборот тизимлари орқали ҳисоб-китоб жараёнлари автоматлаштирилмоқда, бу эса инсон хатоларини камайтириш ва тезкорликни оширишга хизмат қилмоқда;

b) онлайн ҳисобот бериш: солиқ органлари ва назорат органлари билан тўғридан-тўғри ахборот алмашиш имкони пайдо бўлди;

c) ички аудит ва назоратнинг кучайтирилиши: корхонадаги молиявий хатарларни камайтириш ва қонунийликни таъминлаш мақсадида ички назорат тизимлари такомиллаштирилмоқда;

d) бухгалтериянинг стратегик ролини ошиши: бухгалтер фаолияти фақат ҳисобот тузиш эмас, балки менежмент қарорларини қабул қилишда муҳим маълумотларни тақдим этишни ҳам ўз ичига олади;

e) ижтимоий ва экологик ҳисоботлар: корхоналар ижтимоий жавобгарлик ва барқарор ривожланиш контекстида ҳисобот беришга ҳаракат қилмоқда.

Ушбу тенденциялар бу соҳада фаолият юритаётган мутахассислардан янги билим ва кўникмаларни, доимий ўқиш ва ўзгаришларга мослашишни талаб этади. Хусусан, рақамли саводхонлик, таҳлил қилиш қобилияти ва ахборот тизимлари билан ишлаш кўникмалари асосий омилларга айланмоқда.

Хулоса

Умумий овқатланиш корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудит соҳасини такомиллаштириш бўйича таклифлар:

1. Автоматлаштирилган ҳисоб тизимларини жорий этиш:

а) 1C, SAP, Zoho Books, QuickBooks каби замонавий дастурларни жорий этиш орқали ҳисоб-китобларни аниқ ва тезкор юритиш имкони яратилади.

b) POS (Point of Sale) тизимлари орқали тушум ва харажатларни реал вақтда кузатиш имконияти таъминланади.

2. Бухгалтерлар ва аудиторларни рақамли билимлар бўйича қайта тайёрлаш:

а) рақамлаштириш давридаги талабларга мос, ахборот тизимлари ва таҳлил воситаларидан фойдаланиш кўникмаларига эга кадрларни тайёрлаш бўйича махсус курслар ташкил қилинади;

б) иқтисодий таҳлил, Excel/Power BI ва ҳисобот визуализацияси бўйича малака ошириш тренинглари ўтказилади;

3. Ички назорат тизимини кучайтириш:

а) кам харажатли, лекин самарали бўлган ички аудит стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этилиши амалга оширилади;

б)харид, сотув, омбор ва ҳаражатлар устидан доимий назоратни таъминлайдиган ички регламентлар яратилади;

4. Ҳисоботларни таҳлил этиш ва менежмент қарорларини қўллаб-қувватлаш:

а) бухгалтерия ҳисоботлари орқали фойда, зарар, айнан қайси маҳсулот ёки хизматдан тушум келаётгани ҳақида таҳлилларни менежментга тақдим этилади;

б) «Қарор қабул қилиш учун ҳисоб» (management accounting) кенг жорий этилади.

5. Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мослаштириш (МСФО):

а) халқаро ҳамкорлик ва сармоядорларни жалб этиш учун молиявий ҳисоботни МСФО талабларига мос ҳолда тайёрлаш амалиётини босқичма-босқич жорий этиш;

6. Инновацион ечимлардан фойдаланиш:

а) Cloud-accounting (булутли ҳисоб) ва мобил иловалар орқали масофавий ҳисоб-китобни таъминлаш;

б) СИ (сунъий интеллект) ёрдамида харажатларни тахмин қилиш ва автомат таҳлил қилиш имкониятларини синовдан ўтказиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5813-сонли «Савдо ва хизмат кўрсатиш соҳасидаги ҳисоб-китоблар тизимига замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш тўғрисида»ги фармони. – https://lex.uz/docs/4515882 (02.05.2025).

2. Роберт Каплан, Анетт Майкс. Управление рисками. Новая система // Управление рисками (Серия «Harvard Business Review: 10 лучших статей») : сборник. — М.: Альпина, 2022. – С. 7-28. – ISBN 978-5-9614-8186-0.

3. Майкл ПортерМеждународная конкуренция. Конкурентные преимущества стран – М.: Альпина. – 1475 с.

4. Ибрагимова Н.Р. Хизмат кўрсатиш соҳасида бухгалтерия ҳисоби. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2020. – 240 б.

5. Шеримбетов И.Х. Хусусий капитал аудитида таҳлилий амалларни қўллаш йўналишлари // Молиявий технологиялар. – 2023. – №3. – Б. 95-103.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Электрон ресурс
6. https://opac.atmaluhur.ac.id/uploaded_files/temporary/DigitalCollection].
7. https://link.springer.com/book/

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

BOSHQARUV HISOBI FUNKSIYALARINING XARAJATLAR HISOBINI YURITISHDAGI AHAMIYATI

Sobirov Otabek Olimjonovich

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
buxgalteriya hisobi
kafedrasining dotsenti
Namangan davlat texnika universiteti
E-mail: oosobirov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0415-0802

Annotatsiya. *Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ularni alohida tarkibiy bo‘linmalarida boshqaruvning samarali tashkil etish uchun boshqaruvni rejalashtirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish, faoliyat ustidan tizimli nazoratni ta’minlash va faoliyat natijalarini tahlil etish orqali mutaxassis-xodimlar faoliyatini rag‘batlantirish kabi masalalari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va mehnat resurslarini boshqarish xarajatlarini rejalashtirish va bu orqali tannarxni pasaytirish masalalari tdqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *xarajatlar, asosiy ishlab chiqarish, boshqaruv hisobi, tannarx, innovatsion yondashuvlar, mehnat resurslari, moliyaviy hisobot.*

ФУНКЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ В УЧЕТЕ ЗАТРАТ

Сабиров Атабек Алимджанович

доктор философии (PhD)
по экономическим наукам
доцент кафедры бухгалтерского учета
Наманганский государственный
технический университет
Email: oosobirov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0415-0802

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы бюджетирования видов деятельности с целью обобщения функций управленческого планирования, организации производства, систематического контроля деятельности и мотивации специалистов для эффективной организации управления в хозяйствующих субъектах и их отдельных структурных подразделениях. Освещаются вопросы планирования затрат на основное производство и управление трудовыми ресурсами, а также даются соответствующие предложения.*

Ключевые слова: *затраты, основное производство, управленческий учет, себестоимость, инновационные подходы, трудовые ресурсы, финансовая отчетность.*

MANAGEMENT ACCOUNTING FUNCTIONS AND THEIR IMPORTANCE IN COST ACCOUNTING

Sobirov Otabek Olimjonovich

Doctor of Philosophy (PhD)
in Economics
Associate Professorof the
Department of Accounting,

Namangan State Technical University
Email: oosobirov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0415-0802

Abstract. *The article considers the issues of budgeting of all activities in order to summarize the functions of management planning, production organization, systematic control over activities and motivation of specialists through analysis of activity results for the effective organization of management in business entities and their separate structural divisions. In addition, the issues of planning the costs of basic production and labor resources management and thereby reducing costs are covered.*

Keywords: *costs, basic production, management accounting, cost price, innovative approaches, labor resources, financial reporting.*

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda buxgalteriya hisobini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish va yuritish uni huquqiy tartibga solish tizimini rivojlantirish yo‘nalishlarini prognozlash va unga nisbatan ba’zi talablarni qo‘yish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish va yuritish xalqaro miqyosga chiqish imkoniyatini yaratishi bilan ahamiyatli. Lekin faoliyat samaradorligiga erishish uchun boshqaruv hisobi funksiyalarini bajarilishiga e’tibor qaratish lozim. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan ma’lumki, buxgalterlar asosiy vaqtini moliyaviy hisobotlarni tuzish bilan emas, balki boshqaruv hisobini samarali tashkil etish bilan bog‘liq masalalarni xal etishga sarflashadi. Bu esa xarajatlarda turli nomutanosibliklar va chetlanishlarni kelib chiqishini oldini oladi.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o‘tishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar – bu xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobtlarni tushunarli va tezkor taqdim etish, hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlash, qulay investitsion muhitni yuzaga keltirish, xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qarorda moliyaviy hisobotdan ichki foydalanuvchilar va xorijiy investorlar uchun xar tomonlama tushunarli va aniq moliyaviy ma’lumotlarni olish imkoniyatini berishi, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadlari belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni ham mamlakat iqtisodiyotini yildan-yilga barqaror o‘sishini ta’minlash va rivojlanishini yangi bosqichga ko‘tarishni ko‘zlanganligi bilan ahamiyatlidir [2].

O‘zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish mamlakatning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlari sonini ko‘paytirish, hududlar imkoniyat va sharoitlaridan kelib chiqib ularga xorijiy investitsiya mablag‘larini keng jalb etish bugungi kundagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, xar qanday ishlab chiqarish jarayoni qachonki xarajatlarini samamarli boshqara olsagina sarflangan xarajati daromadga aylanadi. Aks holda sarflangan xarajat o‘zidan kichik qiymatda qaytadi. Bu esa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yaqin vaqt ichida moliyaviy nobarqarorlikka olib boradi. Albatta bunday salbiy oqibatlarga duchor bo‘lmaslik uchun xarajatlarni to‘g‘ri va ishlab chiqarishdagi bo‘limlar xususiyatiga ko‘ra alohida hisobini tashkil etish juda samarali hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqaruv jarayoni, xarajatlar va ishlab chiqarish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va yuritish birmuncha murakkabligini hisobga olgan holda ushbu yo‘nalishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari doimiy nazoratni olib borishlari muhimdir.

Doimiy nazoratni ta’minlash esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish, shuningdek xarajatlar va ularni hisobga olishda yuzaga keladigan ayrim muammolarni bartraf etish imkonini yaratadi, jumladan:

- ishlab chiqarish va uni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni sarflanishidagi chetlanishlarni barvaqt aniqlash;
- ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslardan oqilona foydalanish, tannarxni budjetlashtirish tamoyili asosida tashkil etish orqali tannarxni barqarorligini ta’minlash;
- asosiy vositalarni yuqori aniqlikdagi, tejamkor va avtomatlashtirilgan variantlarini ishlab chiqarishga jalb etish orqali nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarilishini oldini olish;
- faoliyatga ta’sir etadigan ichki va tashqi omillarni mahsulot tannarxiga ta’sirini baholashni tashkil etish va boshqalar.

Ushbu muammolarni yuzaga kelishini oldini olish boshqaruv samaradorligini oshiradi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini arzon va sifatli bo‘lishi ta’minlanadi.

Adabiyotlar sharhi

Yuqoridagi sanab o‘tilgan muammolar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.A. Abdug‘aniyev, N.B. Abdusalomova, A.Z. Avlokulov, A.A. Karimov, M.B. Kalonov, U.U. Kostayev, B.Yu. Maxsudov, M.K. Pardayev, A.X. Pardayev, B.A. Xasanov va O.O. Sobirovlarning ilmiy tadqiqotlari keltirish mumkin . Olimlarning tadqiqotlari mamlakatimizda boshqaruv hisobining tashkil etish va uni samarali yuritish, xarajatlar va ularni optimallashtirsh, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni hisobga olish va uni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar davomida ma’lumotlarni guruhlash, ekspert xulosalari, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xarajat turlari va moddalarining yuzaga kelishi ularning asosiy, moliyaviy va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish xarajatlari asosan xomashyoga qilingan xarajatlar, materiallar, yoqilg‘i va mehnatga haq to‘lash xarajatlaridan iborat bo‘ladi.

Boshqaruv hisobida ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri hisobga olish va maxsulot tannarxini barqarorligini ta’minlashning asosiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- boshqaruvning barcha bosqich va jarayonlarini rejalashtirish;
- faoliyatni (ishlab chiqarishni) tashkil qilish;
- amalga oshirilayotgan faoliyat ustidan tizimli nazoratni ta’minlash;
- ishlab chiqarish va u bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatda band bo‘lgan mutaxassis-xodimlarni rag‘batlantirish;
- moliyaviy natijalarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun subyektning ma’muriyatini zarur va yetarli ma’lumotlar bilan ta’minlash. Tezkor qaroqlar va ma’lumotlarni o‘z vaqtida uzatish ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yilishini oldini oladi;
- xarajatlardan chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazoratni o‘rnatish, ularni me’yoriy va rejadagi hajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish va boshqalar.

Bundan tashqari shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshqaruv hisobi funksiyalari va ularni xarajatlar hisobini yuritishni takomillashtirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari asosida tuzishni yanada

takomillashtirish bo‘yicha yangicha mexanizmlarni ishlab chiqish;

- mutaxassis xodimlarni moliyaviy hisobni xalqaro standartlariga qayta tayyorlash va o‘qitishda mazkur yo‘nalishda ilg‘or xorijiy tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlar tajribalarini qo‘llash va o‘quv kurslarini tashkil etishga mutaxassislarni jalb etish;

- moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlariga o‘tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish (1-chizma).

1-chizma.

Boshqaruv hisobini samarali tashkil etishda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlariga o‘tish bosqichlari*



*Muallif tomonidan tuzilgan.

Har bir sohada natijadorlilikni ta’minlash, belgilangan qoidalarga rioya qilish kabi masalalarni ijrosi uchun me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. Xususan, mamlakatimizda ham xarajatlarni hisobga olish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilindi va ular takomillashtirib borilmoqda. Ushbu me’yoriy xujjatlar sirasiga 2016-yil 13-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni [3], 2019-yil 30-dekabrda qabul qilinib, 2020-yil 1-yanvardan amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” [4], shuningdek, 1999-yil 5-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom [5] va boshqalarni kiritish mumkin.

Boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish, xarajatlar hisobga olishda quyidagi takliflarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ulardagi yuzaga keladigan chetlanishlarni alohida hisobini yuritish;

- mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish, ular bilan bog‘liq xarajatlarni hisobini yuritishni xorijiy tajribalardan foydalangan holda takomillashtirish;

- ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni jalb etilishi, shunindek mavjud barcha resurslardan foydalanish bo‘yicha, samaradorlikni aniqlash bo‘yicha baholash indikatorlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Albatta ushbu chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash kelgusida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni barcha moddalari yoki elementlari bo‘yicha schyotlarda samarali qayd etish va

hisobini yuritish imkoniyatini yaratadi. Bu esa xarajatlarda ortiqcha chetlanishlarni, resurslarni samarasiz sarflanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga asosan xulosa qilish mumkinki, boshqaruvning xar bir jarayonini rejalashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faoliyatni nazorat qilish natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibiy bo‘linmalarida resurslarni rejalashtirish, faoliyatni baholash, ishchi-xodimlar faoliyatini baholash orqali rag‘batlantirish, xarajatlar bo‘yicha chetlanishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

Boshqaruv hisobini samarali tashkil etish buxgalteriya hisobini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi va quyidagicha samara beradi:

- boshqaruv uchun buxgalteriya hisobi xujjatlaridagi ma’lumotlarni qayta ishlashni tezlashtirilishi ta’minlanadi;
- moliyaviy-iqtisodiy ma’lumotlarni qayta ishlash bilan band xodimlar sonini qisqartiradi hamda mehnat unumdorligini oshirishga erishiladi;
- moliyaviy hisobotlarda aniqlik va izchillikni oshirishni ta’minlaydi;
- hisob ishlarini yuritish bilan bog‘lik xarajatlarni kamaytiradi.

Boshqaruv hisobining yana bir vazifalaridan biri zarur ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash bo‘lib, bu borada axborot komminikatsiya texnologiyalarini o‘rni beqiyosdir, ulardan samarali foydalanish boqaruv samaradorligini va faoliyat barqarorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel.

4.O‘zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi”. 2019-yil 30-dekabrda qabul qilinib, 2020-yil 1-yanvardan amalda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi. 1999-yil 5-fevral.

6. Sobirov O. O. Improment of management accounting methodology in economic entities. Scientific Journal of “International Finance & Accounting” TMI. Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016.

Elektron resurs

7. www.lex.uz
8. www.stat.uz
9. www.soliq.uz
10. www.ziyonet.uz

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

INVESTITSIYA FAOLIYATINI AUDIT QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0004-1107-2216
E-mail: umaraliyev_s@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida duch kelinadigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Audit jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, jumladan investitsiyalarning noto‘g‘ri baholanishi, hujjatlarning yetishmasligi, ichki nazorat tizimlarining zaifligi kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy audit metodlari, ichki nazoratni kuchaytirish va moliyaviy hisobotlarni shaffofligini ta’minlashga qaratilgan samarali usullar taklif etiladi. Tadqiqotda milliy va xalqaro audit tajribalari solishtiriladi hamda investitsiya faoliyatining sifatli auditini amalga oshirish uchun amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya faoliyati, audit, moliyaviy nazorat, ichki nazorat tizimi, baholash muammolari, moliyaviy hisobotlar, shaffoflik, xalqaro audit standartlari, muammolarni bartaraf etish, audit metodlari.*

ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В ПРОЦЕССЕ АУДИТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Умаралиев Санжар Султоналиевич

Ташкентский государственный экономический университет
Соискатель (независимый исследователь)
ORCID: 0000-0004-1107-2216
E-mail: umaraliyev_s@gmail.com

Аннотация: *В данной статье проводится анализ основных проблем, возникающих в процессе аудита инвестиционной деятельности. Рассматриваются трудности, с которыми сталкиваются аудиторы, включая неправильную оценку инвестиций, нехватку документации и слабость систем внутреннего контроля. Также предлагаются современные методы аудита, эффективные способы усиления внутреннего контроля и обеспечения прозрачности финансовой отчетности для устранения указанных проблем. В исследовании сопоставлены национальный и международный опыт аудита, а также представлены практические рекомендации по проведению качественного аудита инвестиционной деятельности.*

Ключевые слова: *инвестиционная деятельность, аудит, финансовый контроль, система внутреннего контроля, проблемы оценки, финансовая отчетность, прозрачность, международные стандарты аудита, устранение проблем, методы аудита.*

PROBLEMS ARISING DURING THE AUDIT OF INVESTMENT ACTIVITIES AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Tashkent State University of Economics
Independent Researcher
ORCID: 0000-0004-1107-2216
E-mail: umaraliyev_s@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the key issues encountered during the audit of investment activities. It examines challenges such as inaccurate valuation of investments, lack of proper documentation, and weaknesses in internal control systems. The paper proposes modern audit methods, effective strategies for strengthening internal controls, and ensuring the transparency of financial reporting as solutions to these problems. The study compares national and international auditing practices and provides practical recommendations for conducting high-quality audits of investment activities.*

Keywords: *investment activity, audit, financial control, internal control system, valuation issues, financial reporting, transparency, international auditing standards, problem-solving, audit methods.*

Kirish. Investitsiya faoliyati zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda asosiy vositalardan biridir. Shu sababli, investitsiya jarayonlarini to‘g‘ri va aniq audit qilish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash hamda moliyaviy barqarorlikni saqlash uchun katta ahamiyatga ega. Biroq, amaliyotda investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida ko‘plab muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolar orasida investitsiyalarning noto‘g‘ri baholanishi, zarur hujjatlarning yetishmasligi, ichki nazorat tizimlarining samaradorligining pastligi va auditorlik standartlarining yetarlicha qo‘llanilmasligi kabi masalalar bor. Bu esa audit natijalarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini kamaytiradi. Shu bois, investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Mazkur ishda milliy va xalqaro tajriba asosida investitsiya auditi sohasidagi asosiy muammolar tahlil qilinib, samarali yechimlar taklif etiladi.

Investitsiya faoliyati iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Kompaniyalar va davlatlar o‘z loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qiladi. Shu sababli, investitsiya faoliyatining to‘g‘ri va aniq hisobga olinishi va audit qilinishi katta ahamiyatga ega. Audit jarayoni investitsiya ma’lumotlarining haqqoniyligini tekshiradi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi[5]. Biroq, amaliyotda investitsiya faoliyatini audit qilishda turli muammolar yuzaga keladi. Bu muammolar moliyaviy hisobotlarning sifatiga salbiy ta’sir qiladi va investorlarning to‘g‘ri qaror qabul qilishini qiyinlashtiradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro standartlarga rioya qilish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va baholash usullarini yaxshilash zarur. Ushbu ishda milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinib, investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Xorijiy iqtisodchi olimlar fikriga ko’ra, Elaoud va Jarboui baholash metodologiyalarining turlicha bo‘lishi audit jarayonida muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlaganlar. Baholash metodlaridagi farqlar audit jarayonida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Fikrimizcha, audit jarayonida baholash metodologiyalarini standartlashtirish va xalqaro me’yorlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu investitsiya faoliyatining shaffofligini oshirish va auditorlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi[6].

Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, ichki nazorat tizimining zaifligi investitsiya faoliyatining samaradorligini pasaytirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Zaif ichki nazorat tizimi audit jarayonida muammolarni keltirib

chiqarishi va investitsiya faoliyatining samaradorligini kamaytirishi mumkin. Fikrimizcha, ichki nazorat tizimini mustahkamlash va samarali monitoring mexanizmlarini joriy etish investitsiya faoliyatining aniq va to‘g‘ri audit qilinishini ta’minlash hamda moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun zarurdir[2].

C.W. Neale, D.E.A. Holmes tomonidan Investitsiya loyihalarida yakunlashdan keyingi audit (Post-completion audit (PCA)) kam qo‘llanishi sababli xatolardan o‘rganish, prognozlar aniqligi va intizomni kuchaytirish imkonlari boy berilishini ko‘rsatadi. PCA’ni tizimli joriy etish, natijalarni taqqoslash va javobgarlikni aniqlashtirish tavsiya etiladi[7].

D.Alexander va A.Britton, tomonidan olib borilgan tadqiqotda, xalqaro audit standartlarining to‘liq qo‘llanilmasligi audit sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidlangan. Xalqaro audit standartlarining to‘liq qo‘llanilmasligi audit sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Fikrimizcha, xalqaro audit standartlarini to‘liq va muntazam qo‘llash orqali audit jarayonining sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlash va investitsiya faoliyatini samarali boshqarish mumkin[3].

Tahlil va natijalar. Investitsiya faoliyati har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda global miqyosda investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlarda investitsiya oqimlari kengaymoqda. Masalan, Jahon bankining 2023-yil hisobotiga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 15% ga o‘sib, 1,2 trillion dollarga yetgan. Shu bilan birga, investitsiya faoliyatining samaradorligini ta’minlash va xatoliklarning oldini olish uchun uning audit qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, amaliyotda investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida turli muammolar yuzaga kelmoqda. Xalqaro Auditorlar Federatsiyasi (IFAC) ma’lumotlariga ko‘ra, investitsiya auditida uchraydigan eng keng tarqalgan muammolar — bu ma’lumotlarning noto‘g‘ri yoki yetishmasligi, baholash metodlaridagi nomuvofiqliklar va ichki nazorat tizimlarining zaifligi hisoblanadi. Bu muammolar moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, investorlarning qaror qabul qilish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli, investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni samarali bartaraf etish usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Mazkur ishda milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinib, investitsiya auditining sifatini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Investitsiya faoliyati har qanday iqtisodiyotning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Biroq, investitsiya jarayonining to‘g‘ri va haqqoniy baholanishi uchun uning audit qilinishi zarur. So‘nggi yillarda investitsiyalar hajmi va murakkabligi ortib borayotgani sababli, investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida ko‘plab muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar nafaqat auditorlarning ish sifatiga ta’sir qilmoqda, balki moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini pasaytirib, investorlarning xabardor qaror qabul qilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Investitsiya faoliyati mamlakatlar iqtisodiyotida barqaror o‘sish va rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning samarali va shaffof boshqarilishi, ularning moliyaviy hisoboti va audit qilinishi orqali ta’minlanadi. Bugungi kunda global bozor sharoitida investitsiya faoliyati yanada murakkablashib, uning audit qilinishi jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham auditorlik amaliyotining sifatiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyati har qanday korxonaning rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Investitsiyalar samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, balki korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan ham bevosita bog‘liq. Shu boisdan investitsiya faoliyatini chuqur tahlil qilish va u bilan bog‘liq jarayonlarning ishonchliligini ta'minlashda auditning o‘rni beqiyosdir. Ammo amaliyotda investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida bir qator muammolar vujudga kelmoqda. Ular qatoriga investitsiyalarni noto‘g‘ri baholash, moliyaviy hujjatlarning yetarli darajada yuritilmasligi, ichki nazorat tizimlarining zaifligi, xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaslik kabi masalalarni kiritish

mumkin. Ushbu muammolar audit natijalarining aniqligi va ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



1-rasm. Investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolari[4, 1]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyati har qanday korxonaning rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Investitsiyalar samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, balki korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan ham bevosita bog‘liq. Shu boisdan investitsiya faoliyatini chuqur tahlil qilish va u bilan bog‘liq jarayonlarning ishonchliligini ta'minlashda auditning o‘rni beqiyosdir. Ammo amaliyotda investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida bir qator muammolar vujudga kelmoqda. Ular qatoriga investitsiyalarni noto‘g‘ri baholash, moliyaviy hujjatlarning yetarli darajada yuritilmasligi, ichki nazorat tizimlarining zaifligi, xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaslik kabi masalalarni kiritish mumkin. Ushbu muammolar audit natijalarining aniqligi va ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, raqobatbardosh bozor mexanizmlarining rivojlanishi va investitsion muhitning murakkablashuvi sharoitida korxona va

tashkilotlarning investitsiya faoliyati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiyalar iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois investitsiya faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishi, moliyaviy manbalarining oqilona boshqarilishi va ularning samaradorligining aniqlanishi zamonaviy korxona menejmenti uchun strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunday sharoitda investitsion jarayonlarning shaffofligi, ishonchliligi va samaradorligini baholashda audit muhim nazorat va tahlil vositasi sifatida qaralmoqda. Audit nafaqat moliyaviy hisobotlarning haqiqatga mosligini tekshirish, balki investitsiya qarorlarining asoslanganligini, investitsion loyihalar yuzasidan yuzaga kelgan moliyaviy oqimlarning qonuniy va maqsadga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, amaliyotda investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida qator tizimli va tashkiliy muammolar vujudga kelmoqda. Ular qatoriga investitsion aktivlarning noto‘g‘ri baholanishi, audit uchun zarur hujjatlarning yetarli emasligi, ichki nazorat tizimlarining zaifligi, audit metodikasining eskirganligi va xalqaro standartlar bilan to‘liq uyg‘unlikning yo‘qligi kabi muammolar kiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, investitsiya faoliyatini audit qilish jarayoni samarali tashkil etilmaguncha, korxona investitsiyalari bo‘yicha ishonchli ma’lumotlarga erishish mushkul bo‘ladi. Amaliyotda ko‘plab audit muammolari — noto‘g‘ri baholash, hujjatlarning yetishmasligi, ichki nazoratning sustligi — investitsiya faoliyati ustidan to‘liq nazoratni ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda. Muammolarni hal etish uchun zamonaviy audit yondashuvlarini joriy etish, ichki audit va nazorat tizimlarini kuchaytirish, xalqaro audit standartlarini milliy amaliyotga integratsiya qilish muhimdir. Bundan tashqari, auditorlar malakasini oshirish va moliyaviy axborot tizimlaridan samarali foydalanish ham muhim omillar hisoblanadi. Shu asosda investitsiya faoliyatining shaffofligi va ishonchliligi ta'minlanadi, bu esa investorlar ishonchini oshirishga va korxona rivojiga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida ko‘plab muammolar yuzaga keladi. Ularning asosiylari — investitsiyalarning noto‘g‘ri baholanishi, hujjatlarning yetarli emasligi, ichki nazorat tizimining zaifligi va audit standartlarining to‘liq qo‘llanilmasligi. Bu muammolar moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligiga salbiy ta’sir qiladi hamda auditorlik faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy audit metodlari va xalqaro standartlarni joriy etish, ichki nazoratni kuchaytirish hamda auditorlarning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, investitsiya faoliyatining auditini yanada takomillashtirish uchun normativ-huquqiy bazani yangilash va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur. Natijada, investitsiya auditining sifatini oshirish korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va investorlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni samarali bartaraf etish uchun milliy va xalqaro tajribalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish zarur. Xalqaro standartlarga to‘liq rioya qilish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va baholash metodlarini yagona tizimga keltirish investitsiya faoliyatining shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu yo‘l bilan investitsiya sohasida ishonch va barqarorlikni oshirish mumkin.

Investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, jumladan baholash metodologiyalarining nomuvofiqligi, ichki nazorat tizimlarining zaifligi va xalqaro standartlarning yetarlicha qo‘llanilmasligi, audit sifatining pasayishiga olib keladi. Bu holat moliyaviy hisobotlarning shaffofligini kamaytirib, investorlarning qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi. Milliy va xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiya auditini takomillashtirish uchun xalqaro standartlarga to‘liq rioya qilish, ichki nazorat tizimini mustahkamlash va baholash metodlarini yagona tizimga keltirish zarur.

Investitsiya faoliyatini audit qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish bo’yicha quyidagicha tavsiyalar berish o’rinli deb hisoblaymiz:

Xalqaro audit standartlarini joriy etish va rioya qilish. Milliy audit tizimlarini IFRS va IAASB standartlariga moslashtirish, auditorlarning malakasini oshirish va standartlarga qat’iy rioya qilish zarur.

Ichki nazorat tizimini kuchaytirish. Korxonalar va tashkilotlarda ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish, xodimlarni muntazam o‘qitish va monitoringni kuchaytirish kerak.

Baholash metodologiyalarini yagona tizimga keltirish. Investitsiyalarni baholashda xalqaro standartlarga asoslangan yagona metodologiyalar ishlab chiqilishi va qo‘llanilishi audit natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish. Zamonaviy IT vositalarini joriy etish orqali ma’lumotlarni tez va aniq yig‘ish, qayta ishlash hamda audit jarayonini avtomatlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schroeder, R. G., Clark, M. W., & Cathey, J. M. (2019). Financial Accounting Theory and Analysis: Text and Cases. Wiley.
2. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2020). Intermediate Accounting. Wiley.
3. Alexander, D., & Britton, A. (2019). Financial Reporting. Thomson Learning.
4. Horngren, C. T., Sundem, G. L., Elliott, J. A., & Philbrick, D. (2018). Introduction to Financial Accounting. Pearson.
5. Chambers, R. J., & Penman, S. H. (2015). Financial Reporting and Analysis. IFRS Foundation.
6. Elaoud, S., & Jarboui, A. (2017). Valuation methods and audit challenges. Journal of Accounting and Auditing.
7. C.W. Neale, D.E.A. Holmes Post-auditing capital projects Long Range Planning Volume 23, Issue 4, August 1990, Pages 88-96 https://doi.org/10.1016/0024-6301(90)90156-X

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ДАВОМИ. РИСКЛАРНИ МИНИМАЛЛАШТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИНГ ЯНГИ ПАРАДИГМАСИ СИФАТИДА

(илмий-назарий жиҳатлари)

Мақола “Молиявий технологиялар” журналининг2025 йил 2-сонида нашр этилган илмий тадқиқотнинг давоми

Баймуратов Турсунбай Махкамбаевич
иқтисодиёт фанлари номзоди
профессор
Тошкент давлат
иқтисодиёт университети
E-mail:bay_tur58@mail.ru
F-ORCID:0000-0002-1386-4364

ПРОДОЛЖЕНИЕ. САМОФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНЫХ БАЗОВЫХ КОНЦЕПЦИЙ МИНИМИЗАЦИИ РИСКА КАК НОВАЯ ПАРАДИГМА ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

(научно-теоретический аспект)

Данная статья является продолжением исследования, опубликованного в журнале «Финансовые технологии» – 2025. – №2

Баймуратов Турсунбай Махкамбаевич
кандидат экономических наук
профессор
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: bay_tur58@mail.ru
ORCID:0000-0002-1386-4364

CONTINUATION. SELF-FORMATION OF COGNITIVE BASIC CONCEPTS OF RISK MINIMIZATION AS A NEW PARADIGM OF ECONOMIC GROWTH

(scientific and theoretical aspect)

This article is a continuation of the study published in the journal "Financial Technologies" – 2025. – No. 2.

Baymuratov Tursunbay Makhkambaevich
candidate of economic sciences
professor
Tashkent State the University
of Economics
E-mail: bay_tur58@mail.ru
ORCID:0000-0002-1386-4364

Юқори маҳсулдор захиралар бир вақтнинг ўзида котировканинг юқори ўзгарувчанлиги, яъни юқори даражадаги риск билан тавсифланади. Минимал рискли ва юқори ликвидли қимматли қоғозлар, одатда қоида тариқасида қайд этилганидек, юқори даромад келтирмайди. Бу ҳақиқат бир вақтлар “самарадорлик – риск” (the risk-return paradox) парадокси деб номланган [1].

Бу ўринда парадокс шундан иборатки, риск даражасини оширмаслик зарур, чунки

риск даражаси ортса, йўқотиш(зарар кўриш) эҳтимоли ҳам ортади, бошқа томондан, риск даражасининг пасайиши билан юқори даромад олиш имконияти ҳам мос равишда камаяди.

Агар рискни камайтиришга шунчаки энг кам рискли ечимни танлаш орқали эмас, балки махсус тизимли чораларни қўллаш замирида эришилса, унда рискни минималлаштиришнинг самарасиз эканлиги янада яққол намоён бўлади. Бу ҳолатда риск даражасини минималлаштириш харажатлари унинг олдини олишга йўналтирилган ресурслар миқдордан ошиб кетиши эҳтимоли юзага келиши мумкин. Бунга қуйидаги мисолни келтириш мумкин: арзон автомобил эгаси, уни ўғирлаш натижасида йўқотиш (зарар кўриш) эҳтимолини минималлаштиришга асосланиб, автомобили учун қўриқланадиган гараж сотиб олиши, қиммат сигнализацияни ўрнатиши ва қўшимча равишда суғурта қилдириши мумкин. Шу билан бирга, сезиларли миқдордаги харажатларни ташкил этадиган рискка қарши чора-тадбирларни амалга оширилиши пировардида харажатлар қийматининг эҳтимол зарардан бир неча баравар ортиб кетишига олиб келиши ўз-ўзидан аёндир.

Аммо риск даражаси, бир томондан мумкин бўлган паст қийматга туширилиши зарур бўлган, турли кенг қамровли, масалан, атом электр станциясида авария юз бериши эҳтимоли риски, харажатлардан қатъи назар, минималлаштирилиши шарт бўлган техноген ҳалокат ҳисобланади.

Бошқа томондан, эҳтимоли нейтрал (қарийиб нолга тенг) бўлган тасодифий ҳодисалар мавжуд эмаслиги шароитида риск даражасини нейтраллаштириш (нолгача камайтириш) мумкин эмас: энг қиммат чора-тадбирлар натижасида ядро реакторида авария юз бериши эҳтимоли ижобий бўлиб қолмоқда. Айтишимиз мумкинки, бу эҳтимолликнинг аҳамияти пастлиги, яъни унинг даражаси шунчалик кичик бўлганлиги боис, бахтсиз ҳодиса юз беришини имконсиз ҳодиса, деб ҳисоблашга тўғри келади.

Риск вазиятида, йўқотиш(зарар кўриш)лар – қарорнинг мумкин бўлган оқибатлари сифатида риск салбий оқибати шунчалик катталикда бўладики, уни рискка қарши чораларга йўналтирилган харажатлари билан таққослаб ҳам бўлмайди, бу жараёнда рискни минималлаштириш концепциясига асосланган бошқариш усулларини қўллаш самарали ҳисобланади. Масалан, ишлаб чиқариш субъектининг тайёр маҳсулотлари омборида ёнғин рискини принципиал жиҳатдан олдини олиш қуйидаги профилактик чораларни кўриш орқали минималлаштирилиши талаб этилади:

- маҳсулотларни сақлашда ёнғин хавфсизлиги чораларига қатъий амал қилиш (электр симларининг яроқлилигини текшириш, ходимларга кўрсатма бериш ва бошқа);
- омборда ёнғинга қарши ускуналар (хавфсизлик ва ёнғин сигнализацияси мавжудлигини таъминлаш, ёнғин гидрантлари функционал ишлашини ва улар жойлашган жойга кириш йўллари қулай бўлишини таъминлаш ва бошқа).

Агар субъект ёнғин содир бўлган тақдирда маҳсулотни суғурта қилиш имкониятига эга бўлса, уни амалга ошириши зарур, чунки ёнғин оқибатида содир бўлган зарарлар огоҳ этиш харажатлари билан таққосланмайди.

Мазкур инструментарийларнинг барчаси рискларни бошқариш чоралари орқали даражасини пасайтириши, пировардида риск даражаси бирмунча паст бўлишига эришилиши, уларнинг функционаллиги самаралироқ бўлган деган тахмин илгари сурилишига омил бўлади.

Ушбу тизим усуллари доирасида, масалан, салбий натижа (исталмаган ҳодиса) эҳтимоли каби тегишли риск даражаси кўрсаткичлари танланади. Маълумки, рискларни минималлаштириш риск шароитида, хатто рискни камайтириш харажатларини ҳисобга олмаган ҳолда ҳам оқилона қарорлар қабул қилишда универсал самарали ёндашув ҳисобланмайди, бу ҳолат, айнан, хатто энг кам рискли ечимлар танланишига қарамасдан, кўпинча кам даромад олинишига омил бўлиши билан изоҳланади.

Юқорида келтириб ўтилган таҳлилларга асосланиб, шуни таъкидлаш мумкинки,

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

рискларни минималлаштириш салбий амалга ошириладиган шундай тоифадаги рискларни бошқариш учун мақбул тамойил ҳисобланади ва мазкур салбий натижа эса, йўқотиш(зарар кўриш)ларнинг олдини олиш учун йўналтирилган чораларни амалга ошириш харажатларини сезиларли даражада оширади.

Фараз қиладиган бўлсак, истисодиёт субъекти қарз маблағларидан фойдаланган ҳолда инвестиция лойиҳасини амалга оширади, бу миқдор унинг мавжуд асосий капитали қиймати билан таққосланади. Агар инвестиция лойиҳаси фойдасиз бўлиб чиқса, банкротлик процедураси субъектга нисбатан қўлланилади ва унинг барча мол-мулки кредит берувчи ташкилот фойдасига ўтказилади. Шу билан бирга, таклиф этилаётган инвестиция лойиҳасидан йўқотиш(зарар кўриш)лар миқдорининг катталиги муҳим эмас, улар мавжудлигининг ўзи етарлидир. Лойиҳа форс-мажор ҳолатлари юзага келмаган тақдирда ҳам фойдали бўлмай қолиши мумкинлиги, ушбу риск субъекти учун самарасиз ҳисобланади.

Албатта, ҳалокатли хатарларга фавқулодда вазиятлар билан бевосита боғлиқ бўлган риск киради (ёнғин, қиммат ускуналарнинг ишдан чиқиши, кенг кўламли ўғирлик, ноу-хауни йўқотиш ва ҳоказо). Шу нуқтаи назардан, бу ўринда “фалокатли риск” атамаси кўпроқ мос келади, шу боис, бу ўринда, бахтсиз ҳодиса, табиий бухронлар ва бошқа ҳодисалар билан боғлиқ барча турдаги форс-мажор ҳолатлари ҳақида мулоҳаза қилинмаётганлигини алоҳида келтириб ўтиш лозим.

Бундай ҳолда, риск даражасини минималлаштириш қатор ҳолатларда мақсад сифатида кўриб чиқилиши талаб этилади, аммо бу мақсадга амалда эришиб бўлмайди, чунки ҳақиқатда риск даражасини нолга эмас, балки шунчалик кичик қийматга камайтириш орқали уни мақбул деб ҳисоблаш мумкин.

Рискни мақбуллаштириш концепцияси. Ушбу концепция айни бир вақтнинг ўзида рискларни минималлаштириш самарасиз эканлиги, шу жумладан, “даромадлилик – риск”нинг ҳам ўзаро қарама-қаршилигини ҳал этишга йўналтирилган универсал бошқарув инструментарийси сифатида ишлаб чиқилган. Ушбу концепция илмий ишланмаларда узоқ даврлардан буён қўлланиб келинаётганини келтириб ўтиш мумкин[2]

Рискни мақбуллаштириш концепциясининг асосини қуйидаги, яъни:

- иқтисодий риск, бу субъект мақсадли фаолиятининг объектив хусусияти сифатида намоён бўлиши;
- иқтисодий риск, кеча ва бугунга дахлдор маълумотлар базасининг тўлиқ эмаслиги, шунингдек, истиқболи ноаниқлиги оқибатида каби объектив сабабларга кўра, юзага келиши;
- иқтисодий риск, ресурс(товар ва хизмат)лар бозори субъекти фаолиятида доимий тарзда, у ёки бу даражада мавжуд бўлиши, ёхуд унинг даражаси ҳеч қачон нолга тенг бўлмаслиги;
- иқтисодий риск, муайян фаолиятга дахлдор ҳаракат вариантларидан бирини танлаш тўғрисидага қарор қабул қилиниши оқибатида юзага келиши;
- иқтисодий риск, субъект фаолиятида белгиланган мақсаддан оғишиш, четлашиш эҳтимоли тарзда намоён бўлиши;
- воқейлик кутилмаган тарзда ривожланиши, белгиланган иқтисодий мақсаддан оғишиш оқибатида субъектнинг йўқотиш(зарар)и ортиши;
- иқтисодий риск даражаси, субъектив тавсиф сифатида намоён бўлиши замирида қарорни қабул қилишда риск омиллари намоён бўлишидан келиб чиқадиган ҳодисаларнинг кутилмаган тарзда ривожланиши субъект кўриши эҳтимол бўлган йўқотиш(зарар)и миқдорини ўзида акс эттириши;
- иқтисодий риск даражасига таъсир кўрсатиш орқали унинг қийматини мақбуллаштириш, яъни, маълум чегаралар кесимида даражасини бошқариш мумкинлиги;
- рискнинг дастлабки ва якуний даражалари, яъни, ҳисоб-китобларга кўра, унинг пировардидаги даражаси юзасидан махсус чоралар ишлаб чиқилиши ва қабул

қилинганидан кейин қопланилмаган қолдиғи ҳисобига ўзаро тафовутланиши;

- мазкур кечаётган жараёнда қарор қабул қилувчи, айнан мақбул деб топиши мумкин бўлган риск даражасининг мавжудлиги;

- иқтисодий риск даражаси, унга қарши чоралар доирасида, муайян, хусусан, моддий, молиявий ва шу каби ресурсларни сарфлаш орқали мақбул қийматга келтирилиши;

- бизнес жараёнлари доирасида дастлабки вариантларнинг баъзиларида риск даражаси паст бўлса, бундай ҳолатда қабул қилинган қарор варианти ўзида афзаллик ёхуд фойдани акс эттирмаслиги;

- ўзаро узвийликда рискнинг юқори даражаси одатда катта муваффақиятга умидворликни ошириши билан бир вақтнинг ўзида, айни катта йўқотиш (зарар) рискини ҳам ўзида мужжасам этиши;

-оригинал ва айни вақтда, синаб кўрилмаган бизнес ғоянинг иқтисодий риск даражаси нисбати одатда стандарт қарорларда келтириб ўтилган кутилмалардан мунтазам юқори эканлиги шароитида, рискларни бошқаришнинг теран, оқилона саъйи-ҳаракатларини амалга ошириш орқали ушбу даража баъзан мақбул қийматга туширилиши;

- иқтисодий риск даражасини турли методларни қўллаш орқали маълум бир муайян риск омили намоён бўлиши оқибатида юзага келиши мумкин бўлган ҳодисалар ривожланиши мақсаддан оғишиши оқибатларини воқеалар ривожланишининг у ёки бу вариант(йўналиш)и кесимида баҳоланиши каби омиллар ташкил этади [3].

Ушбу концепция ишлаб чиқиш жараёнида субъектнинг рискларни бошқариш жараёнида қўллаш объекти бўлганига қарамай, у ҳар қандай иқтисодий тизимни бошқаришда ҳам самарали қўлланилиши, яъни, қабул қилинадиган риск концепцияси рискларни бошқаришнинг умумий концепцияларидан бири сифатида қаралиши мумкин.

Қабул қилинадиган риск маълум бир вақт оралиғида, бир томондан, техник жиҳатдан мумкин бўлган, бошқа томондан эса, мақбул бўлган риск даражасига эришилишини назарда тутади. Концепция риск катталигини унинг намоён бўлиш босқичларига қараб, фарқлаш методологиясига асосланади (5-чизма).

Шу муносабат билан қуйидаги риск даражаларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- *рискнинг бошланғич - ғоялар риски даражаси* (бу маълум бир риск турини аниқлаш, таҳлил қилиш ва баҳолаш бўйича чора-тадбирлар натижаларини ҳисобга олмайди. Ғоянинг ушбу риск даражаси номаълум, шу боис, ундан фақат концептуал баҳолаш кўрсаткичи сифатида фойдаланиш мумкин);

5-чизма.

Риск катталигини намоён бўлиш босқичларига кўра, дифференциациялаш босқичлари*



*Разработан автором на основе синтеза ряда научных публикаций, в частности, Иода Е.В., Рижкова Е.В.Концептуальные основы управления рисками. //Журнал. Социально-экономические явления и процессы. – Т. – № 7, – 2014. – С. 32-37.; Михайловский Д.А. Развитие методов управления рисками торгового предпринимательства в условиях цифровой трансформации экономики. Аавтореф. дис. ... канд. экон. наук, СПб. – 2022.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

- *рискнинг баҳоланган даражаси* (риск даражаси қийматини баҳолаш билан шуғулланадиган иқтисодиёт субъектининг реал фаолият жараёнлари контекстида) унинг бошланғич - ғоялар риски даражасидан паст эканлигини англатади;

- *рискнинг мақбул даражаси* аниқлаш мақсадда ишлаб чиқилган тизимли баҳолаш мезонлари устувор аҳамият касб этади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, шуни таъкидлаш мумкинки, мақбул риск категорияси иқтисодий риск назариясининг умумий қоидаларини ўзида акс эттиради: риск бўйича муайян саъйи-ҳаракатларни танлаш муқобилликнинг мавжудлиги билан боғлиқликда кечади, иқтисодиёт субъекти фаолияти оқибатлари ноаниқлиги рискнинг объектив равишда мавжудлиги билан белгиланади.

Шу билан бирга, мақбул риск концепцияси бир қатор қуйидаги, яъни:

- рискларни бошқариш дастлабки ва якуний риск ўзаро фарқланишига асосланиши;

- рискни минимал даражага эмас, балки мақбул даражага туширилиши назарда тутилиши;

- инновацион фаолият риски даражаси одатдаги анъанавий фаолиятга нисбатан юқори эканлиги каби муҳим жиҳатларни ўзида намоён этиши билан умумий назариядан ажратиб туради.

Мазкур ҳолатда мақбул риск концепцияси уни камайтиришга йўналтирилади, аммо, шу билан бирга, рационал ёндашув амалга оширилиши, яъни, рискка қарши чоралар доирасида сарфланадиган харажатлар йўқотиш(зарар) ҳажми, шунингдек, юзага келиши мумкин бўлган оқибатлар даражасининг эҳтимоллик кутилмаси билан таққосланади.

Мақбул риск концепцияси, шубҳасиз, иқтисодий риск назарияси ва рискларни бошқариш амалиётида сезиларли илгарилаш ҳисобланади. Аммо унинг асосий камчилиги шундаки, гарчанд концепция доирасида бу имконият муайян даражада ҳисобга олинган бўлсада, рискларни ижобий амалга ошириш имкониятларидан тўлалигича фойдаланишнинг омили бўлмаслигида кузатилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, таъкидлаш мумкинки, ушбу концепция доирасида риск даражасини ҳисоблаш, у ижобий амалга оширилган тақдирда олинадиган фойда миқдори ва унинг ҳақиқатдаги ўлчовлари ҳисобга олинмаганлиги намоён бўлади. Шу билан бирга, ушбу концепцияда фақат йўқотиш(зарар) кўрилиши ҳолатида риск даражасини ҳисоблаш зарурати юзага келиши қайд этлган.

Шу билан биргаликда ушбу концепция доирасида рискнинг сифат хусусиятига кўра, кафолатли тарзда қўшимча даромад олиниши имконияти рискли қарорлар қабул қилиниши натижасида таъминланиши борасида аниқ жавоб олиниши мураккабдир.

Риск омиллари эҳтимоллигига кўра, иқтисодий фаолият жабҳаси билан бевосита боғлиқликда маълум муқаррар йўқотиш(зарар)га олиб келиши мумкин, аммо улар бўхронли оқибатларга олиб келмайди. Масалан, иқтисодиёт субъекти фаолияти давомида қўшимча тарзда намоён бўладиган қуйидаги: хом - ашё етказиб беришдаги узилишлар, асосий капиталнинг эскириши, электр кучланишларидаги узилишлар, нуқсонли маҳсулотлар ишлаб чиқарилиши, истеъмолчиларнинг маҳсулот учун тўлови кечикиши ва шу каби бошқа тарзда намоён бўлдиган риск омилларини келтириб ўтиш мумкин. Шу билан бирга, қоида тариқасида, рискка қарши чораларни амалга оширишга йўналтирилган харажатлар ва ушбу чора-тадбирлар натижасида олди олинган йўқотиш(зарар)лар деярли бир хил тарзда кечади.

Хулоса тарзида келтириб ўтиш мумкинки, ушбу турдаги риск даражасини мумкин бўлган йўқотишлар ва рискларни бошқариш харажатлари нуқтаи назаридан мақбул даражага туширилиши талаб этилади.

Бундай ҳолда, қабул қилинадиган рискнинг мақбул концепциясини, хусусиятига мос равишда, салбий таснифдаги рискларга нисбатан қўллаш оптимал ҳисобланади, яъни намоён бўлиш омиллари фақат салбий бўлсада, аммо бўхронли оқибатларга олиб келмаслиги билан изоҳланади. Баъзан хусусияти салбий бўлган рисклар билан боғлиқ

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

вазиятлар юзага келади, бундай ҳолда рискка қарши чораларга йўналтирилган ҳаражатлар самарасиз ҳисобланди.

Юқорида келтириб ўтилган ҳолатларда рискли қарорларни қабул қилиш билан боғлиқликда юзага келадиган қўшимча даромад олинишини таҳлил қилиш орқали мақбул риск концепциясини ривожлантириш зарурати янада ортади.

Бундай ривожланиш имкониятини ўзида мужассам этган концепциялардан бири – бу рискнинг ресурс сифатидаги концепциясидир [4]. Хусусан, ишлаб чиқариш функциясининг аналоги сифатида жорий этилган, мазкур концепцияда ресурс ўзгарувчилари сони риск даражасини ҳам қамраб олади. Ушбу функциянинг ўзига хос хусусиятлари гипотеза тарзида шакллантирилган ва улар моҳиятан қарор қабул қилиш жараёнларининг қатор вазиятларида юзага келиши мумкинлиги кўрсатиб ўтилган.

Ушбу концепциянинг ўзаро боғлиқ тизимли айрим жиҳатлари илмий ишланмаларда ўрганилган. Хусусан, қатор муаллифлар ўзларининг илмий нашрларида [5] рискнинг ресурс сифатида ўзига хослиги шундаки, ресурсларга ўхшаш риск даражасининг ошиши фақат маълум даражаларгача ижобий таъсирга олиб келиши мумкинлигини, бу эса, рискнинг мақбул даражаси деб ҳисобланишини таъкидлашган. Риск даражасининг янада ошиши салбий оқибатларга олиб келиши мумкинлиги кўрсатиб ўтилган.

Рискнинг ресурс сифатида концепциясининг асосини рискларни бошқариш кўп жиҳатдан ресурсларни бошқаришга ўхшаш бўлиши керак деган қарашга асосланади. Рискларни бошқаришнинг ресурсларни бошқариш билан ўзаро ўхшашлиги шундан иборатки, рискларни бошқариш харажатларини оптималлаштириш, маржинал харажатлар ва фойдани таққослаш орқали амалга оширилади, бу ўринда, харажатлар ўз навбатида рискларни бошқаришга дахлдор бўлса, фойда олиниши эса, йўқотиш(зарар)ларни олдини олиш орқали таъминланади.

Рискнинг ресурс сифатидаги концепцияси қатор амалиётчилар томонидан бизнес жараёнида янада ривожланишни талаб қиладиган истиқболли йўналиш сифатида тан олинган. Ушбу концепцияни ишлаб чиқишнинг истиқболли ёндашувларидан бири бу рискнинг ресурсга ўхшаш кўринишларини ўрганиш ҳисобланади, баъзи ҳолларда риск даражасини пасайтириш эмас, аксинча, уни ошириш самарали эканлиги билан тавсифланади, бу худди ишлаб чиқариш ҳажмининг ошиши ресурс харажатларининг ошиши орқали эришиладиган самарага ўхшашдир.

Бундай вазиятларда риск аслида ресурс сингари намоён бўлади. Рискнинг ресурс сифатидаги концепцияси худди ресурсларга ўхшаш рискларни бошқариш учун оптимал тамойил ҳисобланади.

Шунга кўра, рискнинг ресурсга ўхшаши борасидаги асосий омилларни аниқлаштириш мумкин бўлади. Ушбу ўхшаш омиллар жумласига рискнинг асосий хусусияти, яъни риск даражасининг ошиши эҳтимолликка кўра, қўшимча фойда олинишига олиб келиши мумкинлиги шароитида рискнинг ўзида ижобий омил мавжудлиги билан тавсифланади.

Бундан ташқари, қоида тариқасида, рискнинг ресурсга ўхшаши ҳолатида ундан четлашиш (risk avoidance), яъни субъект (ҳалокатли ва салбий хусусиятли рисклардан фарқли ўлароқ): лотерея ўйинида иштирок этмаслиги, риски юқори бўлган қимматли қоғозларни сотиб олмаслиги, банк кредитлар бўйича қарз олувчилар сонини чеклаши ва бошқа шу каби) рискли операцияни рад этиши мумкин.

Бундан ташқари, рискнинг ресурс сифатидаги ўзига хос ўхшаш хусусияти шундаки, унинг даражасини ошириш маълум бир чегара кесимигача самарали бўлиши, яъни бу ўринда, муайян оптимал даража мавжудлигини алоҳида келтириб ўтиш мумкин.

Рискнинг оптимал даражасига мос келадиган қарор рискнинг барча мумкин бўлган ижобий омиллари таъсирида кечиши, пировардида унинг натижасига риск аллақачон ўз таъсирини ўтказганлиги билан тавсифланади. Ушбу ҳолатда “20/80” - Парето қоидаси деб номланган муҳим иқтисодий қонуният амал қилади. Бу шуни англатадики:

“...омилларнинг фақат 20% етакчи эканлиги, ўз навбатида, самарали умумий таъсирнинг 80% ни келтириб чиқаради ва аксинча, қолган 80% омиллар умумий таъсирнинг фақат 20% ни беради” [6]. Риск даражасининг янада ошиши, ўз навбатида, жараёнга қўшимча омиллар жалб қилиниши зарурлигини англатади, аммо уларнинг таъсири моҳиятан фақат салбий тавсифни янада ошириши оқибатида самарасиз ҳисобланади.

Шу боис, рискнинг ресурс сифатидаги концепцияси доирасида ресурсга ўхшаш рискни бошқариш унинг оптимал даражаси сақлаб қолинишини, бир томондан, ушбу даражани онгли равишда ошириш имкониятини назарда тутса, бошқа томондан, агар мазкур даража оптималдан юқори бўлса, унинг пасайтирилиши талаб этилади.

Ресурсга ўхшаш риск моҳиятан қуйидаги хусусиятларни ўзида намоён этиши билан тавсифланади:

- риск даражасининг ошиши ижобий таъсирга омил бўлади;
- қоида тариқасида, ушбу риск қабул қилинишини рад этиш мумкин;
- риск даражаси маълум чегарагача ошиши ижобий таъсирни, ушбу даража янада ошиши эса, фақат салбий таъсирни келтириб чиқаради;
- ресурсларга ўхшаш рискларни бошқариш уни муайян бир оптимал даражада сақлаш зарурлигини англатади.

Молиявий ресурсларни бошқаришда, худди рискнинг ресурсларга ўхшаш тарзда намоён бўлиши моҳиятан спекулятив риск категорияси билан узвий боғлиқликда кечиши натижасида салбий ёки ноль кўрсаткичлар билан бир қаторда, ижобий натижа - кутилмаган фойда, олиниши ҳам мумкин [4].

Рискнинг ресурс сифатидаги концепцияси нуқтаи назаридан уларни бошқариш жараёнининг асосий мазмуни рискнинг салбий омиллари таъсирини бостиришга йўналтирилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳисобланди.

Агар мураккаб иқтисодий тизим рискини бошқариш юзасидан мулоҳаза юритиладиган бўлса, унда бу ҳолда интеграллашган ёндашувдан фойдаланиш мумкин.

Бу жабҳадаги муаммоларни ҳал қилиш учун интеграллашган таҳлил методидан фойдаланиш таклифи илгари сурилмоқда, бу эса, муайян тегишли категорик кўрсаткични мантиқий тавсифловчи кўп ўлчамли кўрсаткичлар тўпламини ягона тизимли индикаторга бирлаштириш имкониятини юзага келтиради.

Интеграл ёндашув яхлитликда рискларни бошқаришнинг когнитив таъсирга асосланган концепцияси замирида уларни аниқлаш, таҳлил қилиш, бошқариш ва кутилмаган ҳодисалар юз берганда кўрилиши эҳтимол бўлган зарар(лар)ни қоплашнинг тизимли механизмини ўз ичига қамраб олган алоҳида босқич ёки босқичлардан иборат бўлади. Шу нуқтаи назардан, муайян мақсадни кўп ўлчовли қийматда миқдорий аниқлаш учун унинг барча хусусиятли индикаторлари 0 дан 1 гача бўлган ораликда мужассамлашади.

Интегралашган кўрсаткичлар қийматларининг иқтисодий талқини қуйидагиларга узвий боғлиқдир: “...ушбу миллий мақсадга эришиш самарадорлиги юқори, унинг интеграл кўрсаткичи 1 га яқиндир. Рискларни бошқариш жараёнида ушбу ёндашувни қўллаш ...”[7] иқтисодиёт субъекти рискларини бошқариш билан бевосита боғлиқликда самарали амалга ошириш имкониятининг исботидир.

Шу ўринда, бизнинг назаримизга кўра, рискнинг ресурс сифатидаги концепциясига асосланган бошқарувнинг устувор вазифаси рискни камайтириш ёхуд ошириш эмас, балки уни оптимал даражада ушлаб туриш ҳисобланади. Бундай ҳолатда, рискни минималлаштириш концепциясига нисбатан мақбул риск копцепцияси афзал кўринади.

Хулоса

Ҳозирги кундаги устувор мақсадлардан бири рискларни минималлаштириш концепциялари замирида иқтисодий муносабатларни тизимли тарзда бевосита ҳукуматнинг иштирокисиз когнитив таъсирга асосланган ҳолда тартибга солиш, хусусан,

иқтисодиёт субъектлари ва давлат иқтисодий ривожланишининг янги парадигмаси функционаллигини ошириш ҳисобланади.

Иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги шароитида кузатилаётган умумий анъаналар таҳлилига асосланиб, шуни таъкидлаш мумкинки, глобаллашув замонавий жамият ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатмоқда, хусусан, бу жараёнда рискларни минималлаштириш ва бошқариш муаммоси устувор аҳамият касб этмоқда. Бу ўринда шуни келтириб ўтиш мумкинки, риск моҳиятан замонавийликнинг ажралмас хусусиятига айланмоқда.

Мавзу доирасидаги тадқиқот натижаларига асосланиб, шуни таъкидлаш мумкинки, риск концепцияларидан бирининг бошқасидан устунлиги тўғрисидаги мулоҳазани илгари суриш мунозарали ҳисобланади.

Шу нуқтаи назардан, у ёки бу тарзда рискларни минималлаштиришнинг асосий концепцияларининг шаклланишини тавсифловчи қуйидаги асосий жиҳатларни келтириб ўтиш мумкин:

- моҳиятан когнитив таъсирга асосланган ҳолда ҳуқуқни (унинг легал шаклларида) муҳофаза қилиш, шу жумладан, рисклар трансфери ва трансформацияси шароитида уларни минималлаштириш ёки мақбуллаштириш борасида иқтисодиёт субъектларининг манфаатларини ҳимоя қилиш, айнан синонимлар ҳисобланади, пировардида ушбу ёндашувлар рисклар минималлаштирилишига омил бўлади;

- моҳиятан когнитив таъсир формал ва ноформал институтларнинг ўзаро кесишган масаласи бўлиб қолмоқда;

- когнитив таъсирнинг самарадорлиги “шартнома маданияти”, “ишонч ортишига омил бўладиган мажбуриятлар” ва шунга мос равишда, анъаналарнинг тадрижий ривожланиши билан бевосита узвий боғлиқликда кечади. Хусусан, бу йўсиндаги шартномалар кўпинча илмий адабиётларда “когнитив таъсир остида бажариладиган” (инг. performed under cognitive influence) деб номланади. Бозор иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда “шартнома маданияти”нинг роли юқори баҳоланган, бу борада қатъий белгиланган меъёрларга риоя этилиши, ўз навбатида, шартнома доирасидаги ўзаро манфаатли ҳаракатларнинг функционаллигини оширади [8].

Ушбу ҳолатда рискларни минималлаштириш концепцияларини когнитив таъсирга асосланган ҳолда, функционал ёндашувга кўра, тизимли тарзда қўллаш, бу борада белгиланган амалий мақсадларга тўлиқ мос келади.

Мазкур контекстдаги интеграллашган ёндашувга кўра, риск турлари бўйича омилларнинг умумийлиги шундай тузилган бўлиши керакки, ҳар бир алоҳида риск тури учун ўзига хос рискнинг намоён бўлиш хусусиятларига қараб, уларни бошқаришнинг – рискни минималлаштириш, даражасини пасайтириш, мақбул даражада ушлаб туриш каби концепцияларидан бирини танлаш мақсадга мувофиқдир.

Бизнинг назаримизга кўра, янги парадигма доирасидаги иқтисодий истиқболга асосланиб, маълум бир иқтисодий ривожланиш стратегиясини қабул қилиш ва рискларни минималлаштиришда когнитив таъсирга асосланган концепциянинг зарурлиги намоён бўлмоқда. Хусусан, бу ўринда риск концепцияларига асосланган бошқарувнинг устувор вазифаси рискини камайтириш ёки уни ошириш эмас, балки уни оптимал даражада ушлаб туриш ҳисобланади. Шу жумладан, ташқи бизнес муҳити таҳлили, рискларни миқдорий баҳолашда сунъий интеллектдан фойдаланиш, потенциал рискларни прогнозлаш ва стратегик бошқариш, риск билан боғлиқ ҳолда қиймат яратишга қаратилган фаолият изчил мувофиқлаштирилишини, реал вақт кесимида узлуксиз таҳлилий мониторинги юритилиши, пировардида, иқтисодиёт субъекти фаолиятининг натижадорлиги, барқарорлиги ва рақобатбардошлигининг самарали оширилишига омил бўлади.

Хулоса тарзида таъкидлаш мумкинки, халқаро кўламда платформали иқтисодиёт ҳар бир мамлакат равнақининг янги драйвери сифатида қаралмоқда. Бу ўринда алоҳида мамлакат ёхуд мамлакатлараро хусусиятларни ўзида мужассам этган тизимли универсал

инструментарий мавжуд эмаслиги иқтисодий равнақнинг янги парадигмасига мос оптимал методология самарали қўлланилишини тақазо этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Лобанов А.А. Энциклопедия финансового риск-менеджмента / А.А.Лобанов, А.В.Чугунов. – Москва: Альпина Паблишер, 2009. – 936 с.

2. Воробьев С.Н. Системный анализ и управление рисками в предпринимательстве / С.Н.Воробьев, К.В.Балдин. – Москва: МПСИ, МОДЭК, 2009. – 760 с.

3. Вишняков Я.Д. Общая теория рисков: учеб. пособие / Я.Д.Вишняков, Н.Н.Радаев. – Москва: Издательский центр «Академия», 2007. – 368 с.

4. Круи М. Основы риск-менеджмента / М.Круи, Д.Галай, Р.Марк; пер. с англ.; под науч. ред. В.Б.Минасян. – Москва: Издательство «Юрайт», 2011. – 390 с.

5. Секерин А.Б. О методологии управления экономическим риском. // Вестник Воронежск. гос. ун-та. Экономика и управление. – 2004. – № 1. – С. 104-111.; Ильенкова Н.Д. Методология исследования риска хозяйственной деятельности: дис. ... докт. экон. наук. – М. : 1999. – 287 с.

6. Долголаптева К. Закон Парето, или правило 80/20: как достигать большего при минимальных усилиях. – https://www.forbes.ru/forbeslife/489362.

7. Васин С. М. Управление рисками на предприятии: учеб. пособие / С. М. Васин, В. С. Шутов. – Москва: КНОРУС, 2010. – 304 с.

8. Энтов Р., Радыгин А., Межераупс И., Швецов П. Корпоративное управление и саморегулирование в системе институциональных изменений. – М.: ИЭПП, 2006. – С. 248.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Baxriddinov Sharofiddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: bakhriddinov5599@gmail.com
ORCID: 0000-0001-7899-0217

Annotatsiya. *Maqolada tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Aktivlarni boshqarishning asosiy metodologik tamoyillari, jumladan likvidlik, rentabellik va risklarni optimallashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Bank balansidagi aktiv va passivlarning muddatlar mosligi (“oltin qoida”), transfert narxlari tizimi, diversifikatsiya strategiyalari va zamonaviy risk-boshqaruv usullari tahlil qilingan. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari bank tizimlaridagi o‘ziga xos xususiyatlar (davlat regulyatsiyasining kuchli ta’siri, uzoq muddatli resurslar tanqisligi) hisobga olingan holda, aktivlarni boshqarishning samaradorligini oshirish yo‘llari taklif qilingan. Xususan, sun’iy intellekt asosida prognozlash, dinamik moliyaviy modellashtirish va innovatsion risk-boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish tavsiya etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, aktiv va passivlar, bank balansi, bank tizimi, foiz stavkasi, rentabellik, likvidlilik, ALM model, bank riski, repo, svop.*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ASSET MANAGEMENT OF COMMERCIAL BANKS

Bakriddinov Sharofiddin
Associate Professor, Tashkent State University of Economics
E-mail: bakhriddinov5599@gmail.com
ORCID: 0000-0001-7899-0217

Annotation. *The article studies the theoretical and practical aspects of effective asset management of commercial banks. The main methodological principles of asset management, including liquidity, profitability and risk optimization, are considered. The maturity matching of assets and liabilities on the bank balance sheet (“golden rule”), the transfer pricing system, diversification strategies and modern risk management methods are analyzed. Taking into account the specific features of the banking systems of Uzbekistan and the CIS countries (strong influence of state regulation, long-term resource shortage), ways to increase the efficiency of asset management are proposed. In particular, the use of forecasting based on artificial intelligence, dynamic financial modeling and innovative risk management mechanisms are recommended.*

Key words: *commercial banks, assets and liabilities, bank balance sheet, banking system, interest rate, profitability, liquidity, ALM model, bank risk, repo, swap.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ АКТИВАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Бакриддинов Шарофиддин

Доцент Ташкентского государственного экономического университета

E-mail: bakhriddinov5599@gmail.com
ORCID: 0000-0001-7899-0217

Аннотация. *В статье исследуются теоретические и практические аспекты эффективного управления активами коммерческих банков. Рассмотрены основные методологические принципы управления активами, в том числе ликвидность, прибыльность и оптимизация рисков. Проанализированы соответствие сроков погашения активов и пассивов на балансе банка («золотое правило»), система трансфертного ценообразования, стратегии диверсификации и современные методы управления рисками. С учетом особенностей банковских систем Узбекистана и стран СНГ (сильное влияние государственного регулирования, долгосрочный дефицит ресурсов) предложены пути повышения эффективности управления активами. В частности, рекомендовано использование прогнозирования на основе искусственного интеллекта, динамического финансового моделирования и инновационных механизмов управления рисками.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, активы и обязательства, баланс банка, банковская система, процентная ставка, прибыльность, ликвидность, модель ALM, банковский риск, РЕПО, своп.*

Kirish.

Tijorat banklari aktivlarini to‘g‘ri boshqarish ko‘plab bank boshqaruvida qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ayniqsa, yirik va o‘rta banklar yoki yangi tashkil etilgan banklar ko‘pincha aktivlar va passivlarni boshqarishda kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda qiynaladi. Shu bilan birga, kelgusida qanday oqibatlarga olib kelishi va nima kutilmalar bo‘lishini bo‘yicha aniq hisob-kitoblarni talab qilishi murakkab vazifalardan hisoblanadi. Shunday qilib, bank balans moddalarida aktivlar tarkibini optimallashtirish banklar oldida turgan asosiy muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun banklarning aktivlarini boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Banklarda aktivlar portfelini boshqarish bilan bog‘liq metodologiya ishlab chiqilishi, bank aktivlari tarkibini optimallashtirish va uni samarali boshqarish bo‘yicha vositalar joriy etilishi tijorat banklarining faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Mazkur tadqiqot ishi mavzusi yuzasidan ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan va bank aktivlarini samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Xususan, Taniqli iqtisodchi olim P.Rouz banklarning aktiv va passivlarni boshqarish mohiyatini yanada kengroq ochib beradi, ya’ni «aktiv va passivlarni boshqarishning mohiyati bank balansi tarkibini bank strategik dasturlari bilan mos kelishini ta’minlovchi strategiyani shakllantirish va chora-tadbirlarni amalga oshirishda ko‘rinadi”.[5] degan fikrni qayd etadi.

Bundan tashqari, P.Rouz fikricha bank aktivlaridan foydalanish maqsadlarini va bank mavjud bo‘lishi uchun uning likvidligini ta’minlashi lozimligini ta’kidlaydi. Banklar nafaqat mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarishi, balki yuqori foyda olishni ta’minlashi hamda bankning rentabelligini oshirish orqali bank akisdorlari oldidagi muhim maqsadlarga erishish talab etiladi.

Banklar aktivlarini boshqarishda tijorat bankining aktiv operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan aktivlar portfelini shakllantirishda turli chora-tadbirlar va usullardan foydalaniladi. Banklar faoliyatida aktivlarni boshqarish XX asrning 60-yillarida AQSHda vujudga kelgan va dastlab foiz stavkasining o‘zgarishi bilan bog‘liq risk darajasini boshqarishni nazarda tutgan[6] Ushbu davrga qadar tijorat banklari faoliyatida aktivlar va passivlarni boshqarishning ayrim instrumentlaridan yoki ma’lum bir operatsiyalardan foydalanilgan. Biroq, bugungi kunda bank tizimidagi o‘zgarishlar, bank xizmatlari bozori intensivligining oshib borishi va axborot

texnologiyalaini rivojlanishi bilan yuqori daromad va risk darajasini muvozanatini ta’minlash banklarda aktivlarni boshqarish zaruriyatini keltirib chiqardi.

MDH davlatlari iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilarining bank aktivlarini boshqarish borasidagi tadqiqotlaridan foydalanish va ularni tadqiq etish muhim hisoblanadi. Buning asosiy sababi, MDH davlatlarining bank tizimi shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari O‘zbekiston bank tizimiga o‘xshashlik xususiyatlari mavjudligi, tadqiqot ishining nazariy ahamiyatini oshiradi.

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish borasida iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqinlar beriladi. Jumladan, O.I.Lavrushin «Aktiv va passivlarni boshqarishning maqsadi bank bosh strategiyasi natijalarini balans tarkibi va rentabelligiga ko‘ra tahlil qilish orqali nomutanosiblikni bartaraf etish yoki to‘g‘rilash hamda bank faoliyatini risklardan himoyalashdir»[7] – deya ta’rif beradi. Fikrimizcha, ushbu masalaga avvalambor bank strategiyasi nuqtai nazaridan qarash maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, strategiya asosida maqsadlar tizimi yotadi, ya’ni bank strategiyasining turli vaqt oralig‘ida turlicha maqsadlar ko‘zlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning qisqa muddatli va uzoq muddatli aspektlarini farqlash muhim. Banklarda qisqa muddatli (1 yilgacha) muddatda aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi me’yoriy risk darajasida sof foiz daromadini maksimallashtirish yoki aksincha, me’yoriy sof foiz daromadi darajasida riskni minimallashtirishdan iborat. Uzoq muddatda bank aktiv va passivlarini boshqarishdan asosiy maqsad yuqori foyda olish hisobiga bank kapitalining bozor qiymatini maksimallashtirishdan iborat. Bank kapitali qiymatini oshirish hamda bankning rivojlanishi orqali bank aksiyadorlarining talablari bajariladi.

Banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy mohiyati shundan iboratki, boshqaruvning alohida usullari (aktivlarni va passivlarni boshqarish)ni muvozanatli bir jarayonga birlashtiradi. Shundan kelib chiqqan holda, aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy vazifasi – bank balansini barcha qismlarini birgalikda boshqaruvdir.[7]

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda banklarning “aktivlari” va “aktiv operatsiyalari” tushunchalarini ham farqlangan holda tadqiq etiladi. Xususan, S.A.Zubov fikricha “tijorat bankining aktivlari deganda o‘z va qarz mablag‘larini joylashtirish tushunilsa, banklar aktiv operatsiyalari likvidlik va aktivning o‘zi va xavfsizligining ma’lum standartlariga rioya qilgan holda yuqori daromad olish uchun investisiyalarni amalga oshirishdir”[8] mazmunga ega ekanligini tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqoladagi muammoni o‘rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Banklar aktivlari va majburiyatlarini tizimli va maqsadli boshqara olganda banklarning muhim maqsadi bo‘lgan yuqori foyda olishni ta’minlaydi. Tijorat banklari foydasini tashkil etuvchi balans moddalari ularning balansi tuzilmasi bo‘yicha daromad bilan birga bo‘ladi. Xususan, balansni boshqarish va optimallashtirishda likvidlilik riski va foiz stavkasi riskini hisobga olish daromadlilikni oshirishning muhim manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari bank tizimida aktiv va passivlarni boshqarish jarayoni o‘ziga xos hususiyatlarga ega. O‘tish davrida bo‘lganligi sababli bank tizimiga davlat nazorat qiluvchi organlari aralashuvi darajasi kuchli bo‘lib, davlat dasturlarini moliyalashtirishda banklar keng jalb qilinadi. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarishda o‘ziga xos hususiyatlarni quyidagilar:

- banklar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan bank faoliyatiga bevosita ta’sir darajasi yuqoriligi;
- bank tizimida boshqaruvning ma’muriy usullardan ko‘proq foydalanish, ya’ni bank

tizimining normativ qonun hujjatlari orqali tartiblanishi;

- bank passivlari tarkibida uzoq muddatli resurslar tanqisligi va unga nisbatan talabning yuqori bo‘lishi, tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini ma’lum ma’noda cheklovchi omil ekanligi;
- banklar aktiv va passivlari o‘rtasidagi foizlar, muddatlari, miqdori borasida tavofutlarning yirikligi;
- banklarda transformatsiya riski darajasining oshib borish tendensiyasiga ega ekanligi;
- bank aktivlari va passivlari portfeli diversifikatsiya darajasining past ekanligi.

Bank aktivlari va passivlarini boshqarishda bank ishining “oltin qoidasi” ga asosan, bank aktivlari va passivlar miqdori va muddati muvofiqligini ta’minlash bo‘lib hisoblanadi. Aktiv va passivlarni ilmiy boshqarish “bank ishining oltin qoidalari”ga asoslaniladi. Ushbu “bank ishining oltin qoidalari” quyidagilar:

- bank qisqa muddatli majburiyatlarni qisqa muddatli aktivlarga joylashtirish hamda uzoq muddatli majburiyatlarni uzoq muddatli aktivlarga joylashtirish;
- bank aktivlari uchun qisqa muddatli va o‘rta muddatli mablag‘lar miqdori majburiyat bo‘yicha qisqa muddatli va o‘rta muddatli majburiyatlar miqdoridan oshmasligi kerak.
- bank aktivlari bo‘yicha uzoq muddatli mablag‘lar miqdori bankning uzoq muddatli majburiyatlari va o‘z kapitali miqdoridan oshishi mumkin, ammo, joylashtirish muddati jalb qilish muddatidan oshmasligi.
- bank balansidagi yuqori riskli aktivlar ulushi qancha kam bo‘lsa, uning likvidligi shunchalik yuqori bo‘lishi.
- bank majburiyatlari tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar ulushi qancha kam bo‘lsa va muddatli depozitlar ulushi qancha ko‘p bo‘lsa, likvidlik shunchalik yuqori bo‘lishi.

Bundan asosan aktivlar muddati va miqdori jihatdan solishtiriladi. Bugungi kunda tijorat banklari boshqaruvida aktivlarni boshqarishning bir nechta yondashuvlari mavjud. Jumladan:

- mablag‘larning umumiy fondi - bankka turli manbalardan kelib tushadigan barcha mablag‘lar, o‘z mablag‘lari, depzitlar va boshqa nodepozit manbalar umumlashgan holda yig‘iladi va bankning ehtiyojiga ko‘ra turli yo‘nalishlarda foydalaniladi.
- “Bank ichidagi bank” - aktivlarni shakllantirish bank resurslarining umumiy fondiga va jalb qilingan resurslar tarkibiga qarab amalga oshiriladi. Bank mablag‘lari jalb qilingan resurslarning likvidligi, muddati va foiz stavkasini hisobga olgan holda yo‘naltiriladi.
- bank aktivlarini ilmiy boshqarish usuli yoki iqtisodiy-matematik, likvidlik standartlariga rioya qilgan holda foydani maksimal darajada oshirishga va bank risklarini diversifikatsiya qilinadi.

Tijorat banklari aktivlarni boshqarish borasida siyosatini belgilaydi hamda aktivlar va passivlarni boshqarish tizimini yaratadi. Aktivlar va passivlarni boshqarish bank aktivlari va passivlari tuzilmasini, ular bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni hisobga olgan holda, bankning strategik maqsadlariga muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni, shuningdek, bank marjasini talab darajasida ushlab turishni ta’minlashni nazarda tutadi.

Bugungi globallashuv va raqamlashuv sharoitida bank aktivlarini boshqarish metodologiyasida yuqorida sanab o‘tilgan an’anaviy usullardan foydalanish yetarli darajada samara bermasligi ravshan bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, bank xizmatlarini ko‘rsatishning raqamli kanallarini rivojlanishi, banklarda foiz va valyuta risklari bosimining yuqori bo‘lishi, banklarda aktivlarni boshqarishning yangicha uslublarini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Xalqaro amaliyotda aktivlarni boshqarishda keng qo‘llaniladigan transfert narxlar metodologiyasi tijorat banklari uchun kredit ajratish va depozit jalb qilish faoliyatining iqtisodiy jihatdan foyda olishga qaratilgani bilan asoslanadi. So‘nggi yillarda, banklarning sof foiz marjasi qisqarib borish tendensiyasiga ega ekanligini hisobga olsak, banklarda ichki narxlarni to‘g‘ri belgilash yanada muhimroq bo‘lmoqda. Bunda bank faoliyati uchun zarur likvidlilik buferlari hisobga olingan holda transfert narxlar o‘rnatiladi hamda keyingi bosqichda amalga oshiriladigan ishlar rejalashtiriladi.

Banklarda aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonidan avval bank faoliyat yuritadigan moliya bozorining asosiy tarmoqlarini belgilaydigan bank biznes strategiyasi, shuningdek, rejalashtirilgan davrdagi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari belgilanadi. Bankning strategiyasi uning aksiyadorlari tomonidan tasdiqlanadi va ijroga tushiriladi. Bank boshqaruvi bankning strategik maqsadlariga va uning tanlagan mijozlari doirasiga qarab, uning uchun aktivlar va passivlarning maqbul tuzilishini belgilaydi. Aktivlar va passivlarni boshqarishni tashkil qilishda ularning tarkibi rejalashtirilgan holatga keltiriladi. Rejalashtirish bosqichi doirasida aktivlar va passivlarning prognoz balansini shakllantirish ham muhimdir.

Banklarda aktivlar va passivlarni boshqarish bank moliyaviy boshqaruvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va uning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi lozim. Uning asosiy bosqichlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

rejalashtirish;

tahlil qilish;

tartibga solish va nazorat qilish.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishda muhim bosqich rejalashtirish hisoblanadi. Sababi, bankning jalb qilingan resurslarining bank likvidligi va daromadligi hisobga olingan holda aniq reja ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish talab etiladi.



1-rasm. Tijorat banklari aktivlarini rejalashtirish[2]

Shu bilan birga, mazkur jarayonda risk menejment tuzilmasi tomonidan aktivlarni modellashtirish natijasida bank kapitalining monandligi, likvidlilikni qoplash, sof barqaror moliyalashtirish koeffisiyenti va boshqa normativ ko‘rsatkichlarni bajarilishi yuzasidan xulosa beriladi. Shuningdek, bank tomonidan o‘rnatilgan kovenantlarning bajarilishi va limitlar tahlildan o‘tkaziladi. Risk menejment bo‘linmasi aktivlarni boshqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan foiz, valyuta va boshqa risk omillarining tahlil va stress-testlashdan o‘tkaziladi.

Bank aktivlarini boshqarish bo‘yicha rejani ishlab chiqishda ichki ma’lumotlar bazasi va tashqi omillar ta’siri hisobga olingan holda ishlab chiqilgan model bankning biznes tarkibiy bo‘linmalari kelishiladi hamda tegishli vakolatli kollegial organ (odatda Bankning aktivlar va passivlarni boshqarish qo‘mitasi) tomonidan tasdiqlanadi.

Tijorat banklarida aktivlar va passivlarni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolatga ega

[2] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

qo‘mitalar tashkil etiladi va ushbu qo‘mita tomonidan bank aktivlarini boshqaruvi amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 13 avgustda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2709-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizomning 15-bandiga asosan, bank boshqaruvi raisi qo‘mitaga rahbarlik qiladi va qo‘mita a’zolarini bankning asosiy tarkibiy bo‘linmalari rahbarlaridan tayinlaydi. Mazkur qo‘mita bankning biznes-rejasi hamda u faoliyat olib borayotgan iqtisodiy sharoitlarga asoslanib, resurslarga bo‘lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni ko‘rib chiqish uchun haftasiga kamida bir marta yig‘ilishi lozim. Qo‘mita a’zolari tomonidan zarurat bo‘lganda yoki ularning talabiga asosan, qo‘shimcha yig‘ilishlar chaqirilishi mumkin. Banklar aktivlarni boshqarishda ularning rentabelligi, likvidligi va tavakkalchiligini hisobga olgan holda aktivlarning optimal tuzilishiga erishishga intiladi.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. bank aktivlarini boshqarishni rejalashtirish;
2. bank balansida aktivlarni modellashtirish;
3. bank aktivlari tarkibini transfert narxlar asosida optimallashtirish;
4. bank aktivlarini modellashtirish va natijalarni tahlil qilish;
5. bank aktivlarini monitoring va nazorat qilish.

Bank aktivlarini boshqarish jarayonida rejalashtirish boshqaruvning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bunda bankning tarkibiy bo‘linmalari G‘aznachilik yoki aktivlar va passivlarni boshqarish bo‘linmalari tomonidan bank aktiv operatsiyalari va aktivlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida hamda tashqi omillar o‘zgarishlarini hisobga olgan holda hisob-kitoblarni amalga oshiradi.Tahlil natijalari asosida bank balansida aktivlar tarkibini zarur likvidililikni ta’minlagan holda minimal risk bilan yuqori daromad olish imkonini beradigan model ishlab chiqiladi. Mazkur tuziladigan modelda bank aktivlarini tarkibini optimallashtiriladi va daromad keltiruvchi aktivlar muhim ob’yekt sifatida baholanadi.



2-rasm. Tijorat banklari foizli aktivlarni boshqarish xususiyatlari[3]

Bank bo‘linmalarining aktivlar va passivlarni boshqarish jarayonidagi asosiy funksiyalari Kuzatuv kengashi tomonidan aktivlarni va passivlarni boshqarish borasidagi tasdiqlangan siyosatda o‘z aksini topgan. Bank aktivlari va passivlarni boshqarish tizimi samaradorligini nazorat qilinadi.

Bank boshqaruvi tarkibiy bo‘linmalar faoliyatida asosiy ko‘rsatkichlarning ijrosini Aktivlar va passivlarni boshqarish qo‘mitasi va Kredit Qo‘mitasi orqali tartibga soladi. Ushbu qo‘mitalar bank aktivlari boshqarish tizimini tashkil etishni va uning samarali ishlashini ta’minlaydi. Bankning biznes-bo‘linmalari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan me’yorlar va limitlari doirasida hamda bankning tasdiqlangan budjeti doirasida aktiv va passiv

[3] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

operatsiyalarni muvofiqlashtiradi. Bank faoliyatining kompleks tahlili strategik rejalashtirish va tahlil bo‘linmasi tomonidan bank rahbariyati uchun boshqaruv hisobotlarini ishlab chiqadi va tahliliy sharhlar tayyorlab doimiy monitoringni amalga oshiradi.

Bankning Ichki audit bo‘linmasi bank aktivlari va passivlarini boshqarish tizimining samaradorligini baholaydi va ishini tekshiradi. O‘tkazilgan tekshiruv natijalari yuzasidan bank rahbariyatiga uning holati haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, ushbu qo‘mitalar tarkibida tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘linmasi vakili bo‘lishi va qo‘mitaning qarorlari yuzasidan «veto» huquqiga ega bo‘ladi.

Aktivlar va passivlarni boshqarish funksiyalarini bajaradigan bo‘linmalarga bankning aktivlar va passivlarni boshqarish bo‘linmasi, tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘linmasi, g‘aznachilik operatsiyalari bo‘linmasi va aktiv va passiv operatsiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan biznes bo‘linmalar kiradi.

Bank aktivlari va passivlarini boshqarish jarayonini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish jarayoni doimiy bo‘lishi kerak.

Bank aktivlari boshqarish jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bank resurslarining defisiti/profisiti va narxi to‘g‘risidagi joriy ma’lumotlarni tahlil qilish;
- bank moliyaviy resurslarini qayta taqsimlash;
- resurslar bilan ishlashning moliyaviy modellarini amalga oshirish bo‘yicha moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash (muddat va narxini hisobga olgan holda);
- bank aktivlarini boshqarish uchun hisobotlar, limitlar tizimlari (chegara qiymatlari) va ko‘rsatkichlar tizimlari instrumentlarni aniqlash, tasdiqlash va ulardan foydalanish;
- bankdagi tavakkalchiliklar darajasini tahlil qilish va natijalarini (agar zarurat bo‘lsa, tavsiyalarni ham) tegishli bo‘limlarga o‘z faoliyatini tezkor va samarali rejalashtirishlari uchun yuborishi lozim bo‘ladi.



* *ALM model - Asset/liability modeling - bank aktivlari va majburiyatlarini modellashtirish*

3-rasm. Tijorat banklari aktivlarini modellashtirish va optimallashtirish[4]

Tijorat banklarida aktivlarni balans ko‘rsatkichlari har bir bitimdan kelib chiqib modellashtirish amalga oshiriladi. Bankning aktivlar portfeli tahlili asosida aktivlarning muddati, foiz stavkasi, risk darajasi, aktivning sifati ko‘rsatkichlari kabi omillar inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, bank aktivlarini aloqador va bankka daxldor shaxslar bilan tuzilgan bitimlari va aktivlarning resurs manbalari tahliliga asoslanadi. Tijorat banklari aktivlarini modellashtirishda bankning biznes-reja ko‘rsatkichlariga muvofiqligi ta’minlashi lozim. Bunda bankning aktivlar portfeli asosini tashkil etuvchi kredit portfeli va investisiya portfelining daromadligi yuqori bo‘lgani sababi modellashtirish aktivlarni taqsimlash to‘g‘risidagi qarorning an’anaviy aktivlar tahlilidan chiqadi. Bank aktivlari tarkibini optimallashtirishda tashqi omillar ta’sirini hisobga olish va ichki imkoniyatlardan kelib chiqib bank likvidliligini hamda yuqori samaradorlikni ta’minlash imkonini berishi zarur.

[4] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Tijorat banklari aktivlarni boshqarishda, asosan bank likvidligini ta’minlash maqsadida bir qator bozor instrumentlaridan foydalanish mumkin. Bank aktivlarini boshqarishda bozor instrumentlaridan banklarning aktivlari tarkibida yuqori likvidli aktivlarni shakllantirish va likvidlilik ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirish maqsadida foydalaniladi hamda ularning asosiy turlari quyidagi rasmda keltirilgan.



4-rasm. Tijorat banklari balansi tarkibini boshqarishning bozor instrumentlari[5]

Banklarda aktivlarni boshqarishning bozor instrumentlari sifatida tan olingan hamda xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llaniladigan operatsiyalar, ya’ni bankning qisqa vaqtda zarur aktivlarni shakllantirish yoki zarur manbani yaratish orqali balans tarkibini boshqarish mumkin bo‘ladi. Banklararo kreditlar bugungi kundagi moliya bozoridagi resurslarni joylashtirish va jalb qilishning muhim va samarali instrumenti hisoblanadi. Banklar amaliyotida aktivlar tarkibida banklararo kreditlar, muayyan muddatga yoki o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalaniladigan vakillik hisobvaraqlaridan iborat bo‘ladi. Tijorat banklari o‘zaro bitimlar asosida bo‘sh turgan mablag‘larni sotish va sotib olish orqali likvidlilikni muvofiqlashtiradi.

Banklarning REPO operatsiyalari, Markaziy bank tomonidan qimmatli qog‘ozlarni garovga olish yo‘li bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo‘lib, banklar o‘zida mavjud qimmatli qog‘ozlarni garovga qo‘yish yo‘li bilan daromad keltiruvchi, shu bilan birga, likvid aktivlar portfelini yaratish imkonini beradi. Bankning qarz qimmatli qog‘ozlarni emissiyasi orqali resurs manbasini shakllantirish, banklarning balansida uzoq muddatli resurslar manbaini yaratish imkonini beradi.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishda svop operatsiyalaridan valyuta riskini xedjirlashda keng foydalaniladi. Bunda tijorat banklari tomonidan bitimda belgilangan muddat va valyuta kursi bo‘yicha hisoblashish (qayta almashuv) sharti asosida valyutalarni bir vaqtda sotib olish va sotish (almashuv) bo‘yicha tuzilgan ikki tomonlama bitim hisoblanadi. Svop operatsiyasi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismini amalga oshirishda valyutalarning dastlabki almashinuvi (spot bitim), ikkinchi qismini bajarishda esa, qayta almashinuvi (forvard-bitimi) va svop shartnomasining yopilishi sodir bo‘ladi. Bankning xorijiy valyutalardagi ochiq valyuta pozisiyasini tartibga solish va uni samarali boshqarishda keng qo‘llaniladi.

Banklarda svop operatsiyalari milliy yoki chet el valyutasida bank likvidliligini saqlab turish, valyutadagi aktivlarni diversifikatsiyalash va valyuta xatarini minimallashtirish va xedjirlash, shuningdek, vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini joylashtirish orqali yuqori daromad olish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Bank tizimining rivojlanishi sharoitida bank balansini boshqarishda zamonaviy usullar va tahlillar joriy etilmoqda. Banklarning aktivlarini boshqarishda bir qator usullardan foydalaniladi. Bugungi kunda bank aktivlarini boshqarishda foydalanilayotgan usullardan quyidagilarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Direktiv uslul;
2. Tahliliy uslul.

Quyidagi keltirilgan jadvalda ushbu uslublarning mazmuni va uning tarkibi xususida

[5] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Tijorat banklari balansi aktivlarini boshqarish vositalari[6]

Usullar / Boshqaruv darajasi	Direktiv uslul		Tahliliy uslul	
	Transfert narxlar	**Biznesni rejalashtirish**	**Mijozlarni modellashtirish**	**Sof foizli daromadlarni modellashtirish**
1-daraja	Bitimlar muddatidan kelib chiqib fondlashtirish	Yirik bitimlar va foiz stavkalarni boshqarish	Depozitlar barqarorligini ta’minlash	Aktivlarni so‘ndirish sanasidan kelib chiqib boshqarish
2-daraja	Mijozlarga mos bank mahsulotlarini rejalashtirish	Bank aktivlarini miqdor va valyutada rejalashtirish	Kreditlarni muddatidan oldin qaytarish va depozitlarni chaqirib olishni modellashtirish	Biznes reja ko‘rsatkichlari asosida likvidlilikni boshqarish
3-daraja	Kredit riski va kapital qiymatini boshqarish	Bank mahsulotlari lineykasini boshqarish	Valyuta kursi, foiz stavkalar va bozordagi o‘zgarishlarni hisobga olib modellashtirish	Sof foizli daromadni biznes reja asosida boshqarish
4-daraja	Bank likvidliligi, sof foizli daromad va risklarni birgalikda boshqarish	Bank aktivlari, passivlari va mahsulotlarni dinamik boshqarish		Bank balansini optimallashtirsh va narx asosida aktivlarni boshqarish

Bank aktivlarini boshqarishda direktik usullar transfert narxlarni o‘rnatish va biznesni rejalashtirish usullari orqali amalga oshiriradi. Transfert narxlarni belgilashda bankning tuzgan bitimlari muddatidan kelib chiqib fondlashtirish amalga oshiriladi. Mijozlarning talabiga mos xizmatlar taklif etiladi hamda bank likvidliligi, sof foizli daromad va risklar birgalikda boshqariladi.

Biznesni rejalashtirish usulida bank aktivlari biznes rejaga muvofiq rejalashtiriladi va ushbu reja ko‘rsatkichlariga erishish uchun barcha chora tadbirlar belgilanadi. Bankning aktivlari dinamik boshqariladi va fondlashtirish umumiy amalga oshiriladi.

Bank aktivlarini boshqarishda mijozlarni modellashtirish asosan mijozlar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan bankning valyuta va foiz risklarini boshqarishga e’tibor qaratiladi hamda manbai nuqtai nazardan boshqaruv amalga oshiriladi va kelgusidagi tushumlarga muvofiq resurslar boshqariladi.

Bankning sof foizli daromadlarini modellashtirishda bank aktivlarini boshqarish aktivlarning so‘ndirish sanasidan kelib chiqib boshqariladi. Bank biznes reja ko‘rsatkichlari asosida aktivlarni boshqarishga erishiladi.

Bank aktivlarini boshqarishda bankning uzoq muddatli strategiyasi va biznes-reja ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda boshqarish muhim hisoblanadi. Bankning biznes reja ko‘rsatkichlari, kredit portfeli, investisiya portfeli va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha maqsadli reja ko‘rsatkichlari belgilanadi. Bank aktivlarini boshqarish metodologiyasida biznes-reja va bank aktivlarini boshqarish rejasi muvofiqligini ta’minlash zarur bo‘ladi.

2-jadval

[6] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tijorat banklari aktivlarini biznes-reja va aktivlarni bshqarish rejasi bo‘yicha boshqarishning farqli jihatlari [7]

Mezonlar	Biznes reja	Aktivlar boshqarish rejasi
Maqsad	Sof foyda rejasii bajarish	Sof foizli daromadni oshirish
Asosiy ko‘rsatkichlar	Bank aktivlari, passivlari, kapitali va boshqa asosiy ko‘rsatkichlar	Bank aktivlari, kredit va boshqa aktivlar portfeli
Qo‘shimcha ko‘rsatkichlar	Daromad, xarajatlar va sof foyda	Aktivlar muddati, sifati, likvidliligi va boshqalar
Natijasi	Bank mahsulot va xizmatlarini sotish	Aktivlarni optimal boshqarish
Tasdiqlanishi	Bank kuzatuv kengashi	Bank boshqaruvi

Tijorat banklari aktivlarini biznes-reja va aktivlarni bshqarish rejasi bo‘yicha boshqarishning farqli xususiyatlarida asosiy mezonlar sifatida maqsadidan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, biznes rejada asosiy maqsadi yuqori sof foyda olish hisoblanadi. Bank aktivlarini boshqarish rejasida sof foizli daromadni oshirish belgilanadi. Sababi, jalb qilingan resurslarni bank aktivlariga joylashtirishda yuqori marjinallikni ta’minlash muhim maqsad hisoblanadi. Masalan, banklar amaliyotida davlat ulushi mavjud banklar kredit portfeliga barobar portfel shakllantirgan xususiy banklarning sof foizli marjasi bir necha barobarga ortiq bo‘ladi. Buning sababi, sifatida aktivlardan samarali foydalanish bilan izohlanadi. Bankning biznes-reja ko‘rsatkichlari bank kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Bank aktivlarini boshqarish rejasi bank boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Shu o‘rinda, bank boshqaruvining aktivlarni samarali boshqarish va samaradorlikni oshirishda o‘rni yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.



5-rasm. Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning zamonaviy uslublari.[8]

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishda qisqa muddatli davrda bankning qisqa muddatli likvidliligi, sof foizli daromadlarini va kapitalini boshqarishga qaratiladi. Uzoq muddatda bank mahsulotlariga transfert narxlarni belgilash, bankning valyuta pozisiyasini boshqarish va likvidlilikni tartibga solishni o‘z ichiga oladi.

Banklarda aktivlar va passivlarni boshqarish metodologiyasida bank aktivlarini boshqarishni monitoring qilish va uning natijalari baholash muhim hisoblanadi. Bank aktivlarini boshqarishni monitoring qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

[7] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.
[8] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

- banklar balansidagi o‘zgarishlarni kunlik nazorat qilish va asosiy o‘zgarishlarni kuzatib borish;
- muvozanatlashgan aktiv va passivlarning muvofiq o‘sishini nazorat qilish;
- bankning o‘rta va uzoq muddatli likvidlilik darajasini kuzatib borish va likvidlilikka doir prudensial talablarning bajarilishini ta’minlash;
- bank aktivlarini daromadliligi va likvidliligi jihatdan optimal tarkibini ta’minlashga erishish.

Bank aktivlarini boshqarish metodologiyasi banklarda aktivlar portfelini samarali boshqarish, ya’ni daromad olish va risklarni minimallashtirish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar, tamoyillar va vositalar majmuasidir. Bank aktivlarini boshqarish metodologiyasi bankning likvidliligi, rentabelligi va barqarorligini ta’minlash uchun muhim hisoblanadi. Bank aktivlari portfelini boshqarish metodologiyasiga muvofiq banklar quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim bo‘ladi:

- bank daromadlilik va risk o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash tamoyili. Bunda bank aktivlari yuqori daromad keltiradigan, ammo yuqori riskli moliyaviy aktivlarga (qarzlar, investisiyalar) joylashtiriladi. Shu bois, aktivlar boshqaruvida risk va daromad o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash talab etiladi.
- bank likvidligini ta’minlash tamoyili. Bank o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi uchun yetarli darajada yuqori likvid aktivlarga ega bo‘lishi talab etiladi.
- bank aktivlari portfelini diversifikatsiya tamoyili. Bank aktivlar turlari va mijozlar tarkibini diversifikatsiya qilish orqali umumiy risk darajsini kamaytiradi. Bunda bank kreditlari turli tarmoq va mijozlarga yo‘naltirilishi lozim
- bank ishining oltin qoidasiga amal qilish tamoyili, ya’ni aktivlar va majburiyatlar mosligi ta’minlanishi lozim. Aktivlar va passivlar muddatlari bir-biriga mos kelishi kerak.

Xulosa.

Tijorat banklarida aktivlarni boshqarish turli sharoitlarda barcha bank aktivlari va passivlarini bir vaqtda rejalashtirish sifatida belgilanadi hamda uning asosiy maqsadi balansdagi parametrlarni optimallashtirish asosida risklarni minimallashtirish orqali banklarning sof foydasini maksimal darajada oshirish hisoblanadi. Umuman, olganda aksariyat tadqiqotlarda aktivlarni boshqarishdan maqsad bank foydasini maksimal darajada oshiradigan maqsadli funksiyaga asoslanadi.

Shuningdek, tijorat banklarining aktivlarini samarali boshqarish-bankning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va risklardan himoyalanishini ta’minlashning asosiy omilidir. Mazkur tadqiqot ishida aktivlarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, bank balansining tarkibini optimallashtirish, likvidlik, rentabellik va risklarni boshqarishning zamonaviy usullari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, banklarda aktivlarni boshqarish jarayoni faqat moliyaviy resurslarni taqsimlash bilan chegaralanmaydi, balki u quyidagi omillarni hisobga olishni talab qiladi:

Aktiv va passivlarning muddatlar mosligi– qisqa muddatli majburiyatlar qisqa muddatli aktivlar, uzoq muddatlilari esa uzoq muddatli aktivlar bilan qoplanishi kerak.

Risk va daromad muvozanati – yuqori rentabellik ko‘pincha yuqori risk bilan bog‘liq bo‘lib, banklar uchun optimal balansni topish muhim ahamiyatga ega.

Transfert narxlari va ichki moliyaviy modellashtirish – aktivlarning samarali joylashtirilishi va resurslarning optimal taqsimlanishi uchun zamonaviy metodlardan foydalanish.

Likvidlikni ta’minlash – bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi uchun yetarli darajada likvid aktivlarga ega bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston bank tizimi, shuningdek, MDH davlatlari tajribasida aktivlarni boshqarishda davlat regulyatorlari ta’siri, uzoq muddatli resurslar yetishmovchiligi va transformatsiya risklari

kabi o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Banklar ushbu muammolarni hal qilish uchun aktivlarni diversifikatsiya qilish, zamonaviy risk-boshqaruv tizimlarini joriy etish va dinamik moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni. https://lex.uz/docs/4811025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari tomonidan ko‘chmas mulkni va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 8 iyunda ro‘yxatga olingan 3441-son nizom.
3. Abdullayev Y. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010-yil. - 532 bet.
4. Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” –Toshkent: 2019. 322 b.
5. Питер С.Роуз. Банковский менеджмент.
6. Лаврушин О.И. Банковский менежмент. -М. КНОРУС, 2009. с. 308.
7. Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка.- М.2003.371-с
8. Зубов С. А. Управление активами коммерческого банка: дис. … канд. экон. наук. - М., 1997. - 180 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ЎЗБЕКИСТОНДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ТОМОНИДАН КРЕДИТ ПОРТФЕЛНИ БОШҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ

Рабимқулов Шерзод Муртозаевич

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: sh.rabbimqulov@tsue.uz,
ORCID: 0009-0009-9119-4376

Аннотация: *Мақолада тижорат банклари кредит портфелининг структураси ва сифатининг характеристикаси, олдиндан белгилаб олинган тамойиллар асосида кредитларнинг танифланиши ва диверсификация даражаси, уларга таъсир этувчи омиллар, кредит сиёсати талаблари ва улар асосида шаклланган кредит портфели кўрсаткичлари, кредитлаш фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш ҳамда келгусида прогнозлаштириш имкони, мавжуд камчилик ва муаммолар, уларнинг ечимлари ҳамда кредит портфели сифатини янги даражага олиб чиқиш учун зарур бўлган жиҳатлар ўрганилган, халқаро тажрибадан келиб чиқиб, хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

Асосий тушунчалар: *кредит, кредит портфели, диверсификация, кредит таъминоти, эҳтимолий йўқотишлар заҳираси, кредит сиёсати, ссуда, риск, самарадорлик, молиявий йўқотишлар, фоиз ставка.*

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА

Рабимқулов Шерзод Муртозаевич

Ташкентский государственный экономический университет,
Доктор философии (PhD) по экономическим наукам
e-mail: sh.rabbimqulov@tsue.uz,
ORCID: 0009-0009-9119-4376

Аннотация: *В статье исследуются особенности структуры и качества кредитного портфеля коммерческих банков, идентификация и диверсификация кредитов на основе заранее определенных принципов, факторы, влияющие на них, требования кредитной политики и формируемые на их основе показатели кредитного портфеля, и оценка эффективности кредитной деятельности, а также изучены возможности прогнозирования в будущем, имеющиеся недостатки и проблемы, пути их решения, аспекты, необходимые для вывода качества кредитного портфеля на новый уровень, разработаны выводы и рекомендации на основе международного опыта.*

Основные понятия: *кредит, кредитный портфель, диверсификация, обеспечение кредита, резервы для возможных потер, кредитная политика, ссуда, риск, эффективнсоть, финансовые потери, процентная ставка.*

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF CREDIT PORTFOLIO MANAGEMENT OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN

Rabimkulov Sherzod Murtozaevich

Tashkent State University of Economics,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
e-mail: sh.rabbimqulov@tsue.uz

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ORCID: 0009-0009-9119-4376

Annotation: *The article examines the features of the structure and quality of the loan portfolio of commercial banks, the identification and diversification of loans on the basis of predetermined principles, the factors affecting them, the requirements of credit policy and the loan portfolio indicators formed on their basis, and the evaluation of the effectiveness of credit activities, as well as studying the possibilities of forecasting in the future, the existing shortcomings and problems, ways to solve them, aspects necessary to bring the quality of the loan portfolio to a new level, as well as developed conclusions and recommendations based on international experience*

Key concepts: *loan, loan portfolio, diversification, loan collateral, provisions for possible losses, credit policy, loan, risk, efficiency, financial losses, interest rate.*

Кириш.

Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда иқтисодиётни молиялаштиришнинг асосий манбаси ҳисобланган тижорат банклари кредитларининг самарадорлигини ошириш, хусусан кредитлаш орқали амалга ошириладиган фаолият турларининг ҳаётийлигини таъминлаш орқали режалаштирилган қийматни яратиш, янги иш ўринларини ташкил этиш, экспорт салоҳиятини янада ошириш ҳамда импортни қисқартириш муҳим омиллардан ҳисобланади. Масаланинг иккинчи тарафи шундаки, тижорат банклари кредит портфелининг сифати, уларни бошқаришни самарали ташкил этиш, рискларни бошқариш ва уларнинг оқибатларини бартараф этишдаги қийинчилик ва муаммолар айнан банкнинг молиявий барқарорлигига, иқтисодиётни молиялаштириш ҳажмини оширишга қарама-қарши бўлган жараён ҳисобланади ва кредит портфели самарадорлигини ошириш усуллари ва уларга таъсир этадиган салбий ҳамда ижобий омилларни ўрганиш муҳим ҳисобланади.

Халқаро молия бозорида молиявий санкциялар кўламининг кенгайиб бориши, айниқса ривожланаётган мамлакатлар иқтисодиёти учун муҳим ҳисобланган, халқаро миқиёсида молиявий ташкилотлар, жумладан банклар томонидан ажратилаётган кредит линиялар ҳисобидан молиялаштирилган тармоқлар, соҳалар ва алоҳида лойиҳалар ҳаётийлигини таъминлаш, маҳаллий банкларнинг улар олдидаги молиявий мажбуриятирини муддатида ва тўлиқ бажаришини таъминлаш жараёнлари тижорат банклари олдига борган сари мураккаб вазифаларни қўймоқда. Тижорат банкларининг бугунги кундаги кредит портфелининг сифатини таъминлаш, уни самарали бошқариш учун амалда қўлланиб келинаётган усуллар ва тадбирларнинг етарли эмаслиги, уларнинг фойда рентабиллигини бир неча маротаба оширишнинг зарурлиги илмий-назарий ва амалий тадқиқотларни олиб бориш муҳимлигини кўрсатмоқда.

Жаҳон банки маълумотларига кўра, 2023 йилда тижорат банклари кредит портфелини мамлакат ЯИМ билан таққослаганда Германияда 85 фоиз, Японияда 105 фоиз, Хитойда 167,3 фоиз, Жанубий Кореяда 176,1 фоиз, Сингапурда 52 фоиз, Россияда 55 фоиз, Қозоғистонда 25,9 фоиз, Ўзбекистонда эса 34,7 фоизни ташкил этди[1]. Бу кўрсаткич мамлакат иқтисодиётини молиялаштириш ва унинг тармоқларини ривожлантиришда тижорат банклари кредит портфелининг самарадорлигини таъминлашнинг долзарблигини кўрсатмоқда.

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясида[2] 2030 йилга қадар иқтисодиёт ҳажмини 2 баробар ошириш ва «даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар» қаторига кириш мақсадида маҳаллий хомашё базасидан самарали фойдаланиш ва илғор технологияларга асосланган саноатни ривожлантириш каби юқори кўзланган марраларга эришишда ҳам янги ўсиш нуқталарини аниқлашни талаб этади.

Адабиётлар таҳлили.

Тижорат банклари томонидан кредит портфелининг замонавий ҳолати ва уни самарали бошқаришнинг долзарблиги, истиқболлари, мавжуд муаммо ва камчиликлар кўплаб илмий тадқиқотлар предмети сифатида олимлар томонидан тадқиқ этилган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан Ш.З.Абдуллаева фикрага кўра “банкларнинг кредит портфели – бу турли хил кредит рискларига асосланган муайян мезонларга қараб туркумланган кредитлар миқёсидаги банк талабларининг йиғиндисидир”[3].

З.А.Умаров, Ҳ.Ҳ.Отамуродов, И.Ф.Сайфиддиновлар тарифига кўра “банкнинг кредит портфели- муайян таркибий тузилмага эга бўлган, ўзига хос бошқарув объекти сифатида кредитлшаш йўналишлари бўйича банкнинг даромадлилик, риск, ликвидлик талабланрига ҳамда янги иш жойлари ва ялпи маҳсулот яратилишини таъминлаш учун банкнинг кредит сиёсати стратегиясига мувофиқ кредитлаш объектларига йўналтирилган қўйилмалар мажмуидир”[4].

С.К.Кузмина ва О.А.Арзикуловлар тарифига кўра, “банкнинг кредит портфели – бу банк томонидан кредит операцияларини амалга ошириш учун зарур бўлган миқдор бўлиб, банк томонидан берилган жами кредитларнинг йиғиндисини ифодалайди”[5].

Таниқли рус олими О.И.Лаврушин фикрича, “банк ишида кредит портфели бирор бир банкнинг кредитлари йиғиндиси”[6]. Шу билан бирга, нинг фикрича, кредит портфелни шакллантириш ва таҳлил қилиш тижорат банкининг мижозларни кредитлаш, ишлаш стратегияси ва тактикасини аниқ аниқ ишлаб чиқиш имкониятини оширади.

Хорижий олимлардан Америкалик иқтисодчилар Крис Дж. Барлтон ва Диана МакНотон фикрича кредит портфели – бу кредитларни категориялар бўйича таснифлашдир[7].

Тадқиқот методологияси.

Мазкур мавзуни ёритишда абстракт-мантиқий фикрлаш, умумлаштириш, таққослаш, анализ ва синтез, тизимли талиллар усуллардан фойдаланилган. Тижорат банклари кредит портфелига оид статистик маълумотлар талил қилинди ва таққосланди, тадқиқот натижасида олинган натижалар асосида хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.

Тижорат банкларининг кредит портфелини бошқаришда бозор механизмларининг аҳамияти, кредит портфелини самарали бошқаришнинг банклар молиявий барқарорлигини таъминлаш, самарадорлигини ошириш ва муаммоли кредитлар улушини камайтиришга хизмат қилиши билан баҳоланади. Бугунги кунда тижорат банклари олдида турган энг жиддий вазифа ҳам кредит портфели таркибига кирувчи муаммога айланган кредитлар салмоғини пасайтиришдир. Тижорат банкларининг кредит портфелида мавжуд муаммоли кредитлари банк томонидан танланган бозор сегментидан тортиб мамлакат иқтисодиётидаги ўзгаришлар, амалга оширилаётган ислоҳотлар, жаҳон молиявий муҳитидаги тебранишларга алоқадор ҳолда турли сабабларга кўра ўзгариб туради. Кейинги йилларда, айниқса, пандемия даврида иқтисодий вазиятнинг ёмонлашиши, геосиёсий зиддиятлар, минтақавий урушлар, молиявий санкциялар, инфляциянинг ўсиши, макроиқтисодий беқарорлик, аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда қишлоқ хўжалигида олиб борилган ислоҳотлар каби омиллар муаммоли кредитлар сонининг ошишига олиб келди.

Тижорат банкларининг кредит портфелида давлат улуши бўлмаган банкларнинг улушининг охирги 5 йилда қарийиб 3 баробар ошиши, бизнинг фикримизча ижобий ҳолат ҳисобланади, сабаби давлат томонидан банк фаолиятига аралашувнинг пасайиши кредит портфелни самарали бошқариш имкониятини кенгайтиради ва соғлом рақобат муҳитини шакллантиради.

Муаммоли кредитларнинг охирги 5 йилда жами активлар таркибидаги улуши 2021

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

йилда пандемия сабабли энг юқори бўлган ва охирги уч йилда кам ўзгариш кузатилган. Кредит портфелга нисбатан муаммоли кредитларнинг ҳажми 2024 йил якуни бўйича 2022-2023 йилларга нисбатан ўсиш кузатилган бўлиб, асосий қисми хусусий банлар ҳиссасига тўғри келган.

1-жадвал

Ўзбекистонда тижорат банклари кредит портфелида муаммоли кредитлар (NPL) улуши *(млрд.сўм)*[9]

Кўрсаткичлар	01.01.2021 йил	01.01.2022 йил	01.01.2023 йил	01.01.2024 йил	01.01.2025 йил
Жами активлар	**366 121**	**444 922**	**556 746**	**652 157**	**769 330**
Жами кредит портфели	**276 975**	**326 386**	**390 049**	**471 406**	**533 121**
Шундан улуши (%)					
Давлат улуши мавжуд банклар	88,3%	85,8%	83,2%	70,7%	68,8%
Бошқа банклар	11,7%	14,2%	16,8%	29,3%	31,2%
Жами муаммоли кредитлар (NPL)	**5 785**	**16 974**	**13 992**	**16 621**	**21 185**
Шундан улуши (%)					
Давлат улуши мавжуд банклар	89,3%	88,8%	90,4%	79,8%	67,7%
Бошқа банклар	10,7%	11,2%	9,6%	20,2%	32,3%
Активлар таркибида NPL улуши	**1,6%**	**3,8%**	**2,5%**	**2,5%**	**2,8%**
Кредит портфели таркибида NPL улуши	**2,1%**	**5,2%**	**3,6%**	**3,5%**	**4,0%**
Шундан					
Давлат улуши мавжуд банклар	2,1%	5,4%	3,9%	4,0%	3,9%
Бошқа банклар	1,9%	4,1%	2,1%	2,4%	4,1%

3-жадвал маълумотларидан кўриш мумкинки, муаммоли кредитларнинг асосий қисми қурилиш, қишлоқ хўжалиги ва саноат тармоқларига тўғри келади. Бу тармоқлардаги бизнес субъектлари иқтисодий ёки молиявий қийинчиликлар сабабли ўз қарз мажбуриятларини бажара олмаётганликлари кузатилади.

Мамлакатда муаммоли кредитларни камайтириш мақсадида бир қатор ислоҳотлар ва чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Жумладан, банкларнинг кредит рискларини камайтиришга қаратилган чоралар, кредит портфелини диверсификация қилиш, кредит рейтинг тизимини такомиллаштириш ва қарз олувчиларнинг молиявий аҳволини яқиндан кузатиш каби тадбирлар шулар жумласидандир. Муаммоли кредитларни олдини олиш ва ундан қутилишнинг энг тўғри йўли бу кредит портфелини бозор механизмлари орқали самарали бошқаришдир.

Шу муносабат билан илмий ишнинг асосий мақсадларидан бири ҳам тижорат банклари кредит портфелини самарали бошқаришнинг бозор механизмлари ва уларни жорий этишдаги муаммолар ва ушбу муаммоларни бартараф этиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

-тижорат банклари кредит портфелини бошқаришдаги бозор механизмларининг моҳиятини очиб бериш;

-кредит портфелини бошқаришда бозор механизмларининг банклар фаолиятидаги аҳамиятини белгилаш;

-кредит портфелини бошқаришда бозор механизмларини жорий этишдаги муаммоларни аниқлаш ва ўрганиш;

-бозор механизмларини амалиётда тўлақонли жорий этиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш каби вазифаларни ўз олдига қўйган.

Кредит портфели юзасидан стратегик режаларни ишлаб чиқишда банк раҳбарияти қуйидаги меъёрларни ўрнатиши зарур:

[9] https://cbu.uz/oz/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

- кредит портфелининг миқдор жиҳатидан банк балансидаги улуши;
- кредитлар сифатига қўйиладиган талаблар;
- кредит портфелини диверсификациялаш йўналишлари;
- банкнинг молиявий натижаси бўйича қўйилган мақсадларга эришишда кредит портфелининг улуши;
- кредитлар турлари;
- кредитлар салмоғининг ўсиб бориш динамикаси;
- кредитлашда устунлик бериладиган йўналишлар, ҳудудлар ва тармоқлар;

Одатда тижорат банклари муаммоли кредитлар (NPL: Non-Performing Loans) салмоғини камайтириш мақсадида кредитларни сотади ёки секуритизациялайди ва аксинча риск даражаси паст бўлган кредитларни сотиб олади.

Аксарият ҳоллатда кредит тўловларининг 90 кундан ортиқ кечиктирилиши кредитнинг муаммоли сифатида тан олинишига сабаб бўлади, лекин ушбу муддат кредит шартномаси шартлари ёки мамлакатда ўрнатилган қонунчилик талабларига асосан ўзгариши мумкин.

Муаммоли кредитлар оқибатида тижорат банклари олдида даромаднинг пасайиши, захиралар ҳажмининг ошиши, банк ликвидлигининг пасайиши каби рискларни юзага келтирса, умум иқтисодиётда кредитлаш фаоллигининг пасайиши ва иқтисодий ўсишнинг секинлашишига сабаб бўлади.

Муаммоли кредитлар билан ишлашнинг бир нечта босқичлари мавжуд бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

1. Муаммоли кредитларни аниқлаш. Кредит портфелини таҳлил қилиш тўлов қобилияти паст бўлган қарздорларни аниқлашнинг асосий усули бўлиб, бугунги кунда CRM ёрдамида ушбу жараён бир неча маротаба тез ва юқори аниқликда амалга оширилмоқда.

2. Муаммоли кредитларни назорат қилиш стратегиясини ишлаб чиқиш. Стратегияни ишлаб чиқишда қарздор билан кредитни реструктуризация қилиш юзасидан мулоқот олиб борилади ва натижаси бўйича қарзнинг бир қисмини захиралар ҳисобидан қоплаш ёки тўлов графигини узайтириш бўйича режа тузилади.

3. Коллекторлик агентликлари билан ишлаш жараёнида малакали коллекторлар хизматидан фойдаланган ҳолда суд жараёнига қадар қарздорликни ундириш чоралари кўрилади.

4. Кредит бўйича қарздорликни суд тартибида ундириш механизмида кредит таъминотига олинган мулклар ҳисобидан қарздорликни ундириш чоралари кўрилади.

5. Таҳлил ва мониторинг жараёни кредит портфелини доимий таҳлил қилиб бориш ва тўлов қобилияти пасайган қарздорларнинг молиявий ҳолатини яхшилаш бўйича тегишли тадбирларни амалга оширишдан иборат.

Кредит портфели таркибида муаммоли кредитларни пасайтириш комплекс ёндашувни талаб этадиган жараён бўлиб, усуллари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

1. Қарз олувчиларни танлаб олишнинг қатъий мезонларини қўллаш орқали уларнинг тўлов қобилиятини синчковлик билан ўрганиш;

2. Қарз олувчининг молиявий имкониятларидан келиб чиққан ҳолда кредит миқдорлари бўйича лимитлар ўрнатиш;

3. Ходимларни рискларни бартараф этиш ва бошқариш бўйича ўқитиш;

4. Автоматлаштириш орқали қарз олувчининг тўлов қобилиятини прогнозлаштириш ёрдамида муаммоларни олдиндан аниқлаш;

5. Кредит шартларини реструктуризация қилиш орқали қарздорнинг тўлов имкониятлари доирасида кредит муддатларини узайтириш ва фоиз ставкаларини пасайтириш.

Халқаро тажриба шуни кўрсатдики, энг қийин иқтисодий шароитда ҳам муаммоли

кредитларни бошқариш тизимини самарали ташкил этиш имконияти мавжуд.

2-жадвал

Тижорат банклари кредит портфеллари йиғиндиси сифати таҳлили[10]

№	Кўрсаткичлар	Йиллар якуни бўйича қолдик *(млрд. сўм)*				
		2020	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**
1	Жами активлар	366 121	444 922	556 746	652 157	769 330
2	Жами капитал	58 351	70 918	79 565	97 079	114 792
3	Жами кредит ва микроқарзлар	276 975	326 386	390 049	471 406	533 121
4	Ўртача ойлик фойда (захиралар қўшилган)	8 033	10 994	17 951	22 100	22 937
5	Ўртача ойлик муаммоли кредитлар (NPL)	13 910	17 056	15 521	20 974	21 185
6	***Муаммоли кредитларнинг ўртача ойлик соф фойдадаги улуши (%)***	***173%***	***155%***	***86%***	***95%***	***92%***
7	Жами жалб қилинган депозитлар қолдиғи	114 747	156 190	216 738	241 687	308 692
8	Юқори ликвидли активлар	50 476	75 992	104 473	96 909	133 229
9	***Тижорат банкининг кутилмаган ҳолатда ресурс йўқотишга тайёрлиги***	***227%***	***206%***	***207%***	***249%***	***232%***

2-жадвалда муаммоли кредитларнинг ўртача ойлик соф фойдадаги улуши ҳисобланган бўлиб, хулоса ўрнида айтиш мумкинки, муаммоли кредитларнинг ўртача ойлик фойдадаги улуши республика тижорат банклари йиғинида 2022 йилдан бошлаб 100 фоиздан пастга тушган бўлсада, юқорилигича қолмоқда, яъни муаммоли кредитлар бўйича рискни тўлиқ қоплаш ҳолатида фойданинг 90 фоиздан юқори қисми йўқотилади.

3-жадвал

Тижорат банклари кредит портфелининг тармоқлар кесимида диверсификацияси

(ҳисобот даври бошига қолдиқ)[11]

Тармоқлар	**01.01.2021 йил**	**01.01.2022 йил**	**01.01.2023 йил**	**01.01.2024 йил**	**01.01.2025 йил**
Саноат	37%	36%	32%	30%	29%
Қишлоқ хўжалиги	10%	11%	11%	10%	9%
Қурилиш соҳаси	3%	3%	3%	3%	2%
Савдо ва умумий хизмат	7%	8%	7%	7%	7%
Транспорт ва коммуникация	10%	9%	8%	7%	6%
Моддий ва техник таъминотни ривожлантириш	1,4%	1,2%	1,0%	0,9%	0,8%
Уй-жой коммунал хизмати	1,4%	0,7%	0,5%	0,5%	0,4%
Жисмоний шахслар	20%	21%	26%	32%	33%
Бошқа соҳалар	11%	10%	12%	11%	12%
Жами	**100%**	**100%**	**100%**	**100%**	**100%**
Диверсификация даражаси	***21%***	***21%***	***21%***	***22%***	***23%***

Юқорида келтирилган 3-жадвалда тижорат банкларининг кредит портфели йиғиндиси доирасида уларнинг диверсификация даражаси келтирилган бўлиб, диверсификацияланиш даражаси кейинги йилларда пасайиши кузатилмоқда. Бунинг асосий сабаби сифатида жисмоний шахсларга ажратилган кредитлар улушининг охирги беш йилда кескин ошганлиги сабаб бўлган.

[10] https://cbu.uz/oz/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
[11] https://cbu.uz/oz/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Тармоқлар бўйича энг юқори кўрсаткич саноат тармоғида бўлиб, жами портфелнинг 29 фоизини ташкил этмоқда ва саноатнинг ЯИМ таркибидаги улуши 2024 йилда 26,4 фоизни ташкил этишини инобатга олсак, саноат тармоғига ажратилган кредитлар диверсификация даражаси меъёрдан юқорилигини кўриш мумкин. Охирги беш йиллик кўрсаткичлар асосланадиган бўлсак, саноат тармоғининг кредит портфелдаги улуши пасайиш тенденциясига эга ва бу ижобий ҳисобланади.



1-расм. Кредит портфели кўрсаткичларининг ўсиш суратлари (фоизда)[12].

Юқорида келтирилган 3-расмдаги графикка асосан хулоса қиладиган бўлсак, банклар жами кредитлар ва микроқарзларининг ўсиш суратлари муаммоли кредитлар ва микроқарзлар ўсиш суратларига мутаносиблигини кузатиш мумкин. Лекин эҳтимолий йўқотишларга қарши захираларнинг ўсиш суратлари муаммоли кредитлар ўсиш суратларига номутаносиб тарзда ўсган бўлиб, ушбу ҳолатни 2020 йилда пандемия шароитида кредитларни таснифлашдаги алоҳида қабул қилинган тадбирларнинг натижаси сифатида изоҳлаш мумкин.

4-жадвал

Муаммоли кредитлар учун тузилган махсус захиралар қолдиғи[13]

	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Муаммоли кредитлар ва микроқарзлар	5 785	16 974	13 992	16 621	21 185
Махсус захиралар	3 687	14 876	6 526	6 106	9 628
Махсус захиралар билан таъминлан-ганлик даражаси	64%	88%	47%	37%	45%
Ўртача фоизли маржа	5,1%	5,9%	6,1%	6,0%	6,3%

Махсус захиралар билан таъминланганлик даражаси 2021-2022 йилларда сезиларли даражада ошган бўлиб, пандемиянинг салбий таъсири оқибатлари ҳисобланади ва кейинги йилларда ушбу кўрсаткич 2 баробарга пасайган бўлиб, охирги 3 йилда ўртача 37-47 фоизни ташкил этаган.

Кредит портфелини самарали бошқариш, оптимал диверсификациялар натижалари албатта кредит портфелининг самарадорлиги ва рентабеллигида ўз исботини топади.

Хулоса қиладиган бўлсак, пандемия давридан кейинги 4 йилда банклар кредит портфели кўрсаткичларида кескин ўзгаришлар кузатилмади, ўсиш тенденцияси ҳамда фоизли маржа сифатида даромадлилик кўрсаткичлари ижобий кўринишга эга.

[12] https://cbu.uz/oz/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
[13] https://cbu.uz/oz/ сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Амалиётда муаммоли кредитларнинг шартларини қайта кўриб чиқиш, яъни реструктуризация қилиш кредит портфелининг сифатига салбий таъсир этувчи омил бўлсада, банк билан мижоз ўртасидаги ҳамкорликни сақлаб қолиш билан бирга кредитнинг қайтмаслик рискини кескин пасайтиради.

Тадқиқот натижаларида тижорат банклари томонидан кредит портфелини самарали бошқариш ва муаммолар олдини олиш ҳамда уларни бартараф этишга қаратилган қуйидаги таклифлар ишлаб чиқилди:

1. Кредит портфелини диверсификациялаш даражасини кенгайтириш, жумладан қарз олувчиларни нафақат тармоқ ва соҳалар, ҳудудлар ва кредит турлари бўйича балки, бугунги кунда таъсири юқори бўлаб бораётган рискларга мойиллиги бўйича ҳам тасниқлаш зарур;

2. Давлат улуши юқори бўлган мижозларга ажратилган кредитларнинг портфелдаги салмоғини максимал даражада пасайтириш, ҳар қандай ҳолатда меъёрлар доирасида бўлиши таъминлаш;

3. Йирик инвестиция кредитлари бўйича юзага келган муаммоларни ҳал этишга комплекс ёндашиш, ҳуқуқий чораларни кўриш мижознинг лоқайдлиги, қасддан мажбуриятлардан қочиш ҳолатлари аниқлаганда қўллаш;

4. Мониторинг жараёнларини узликсиз равишда олиб бориш, хусусан ташқи ўзгаришлар оқибатида юзага келадиган рисклар ва уларнинг таъсирини олдиндан аниқлашда мижоз билан ҳамкорлик қилиш, дебитор қарздорликларни ундириш каби муаммоларни ҳал этишда банк тизимининг имкониятларидан оқилана фойдаланиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида” (янги таҳрири) Тошкент ш., 2019 йил 5 ноябрь, ЎРҚ-580-сон, https://www.lex.uz/acts/4581969;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон – 2030” стратегияси, Тошкент ш., 2023 йил 11 сентябрь, ПФ-158-сон, https://lex.uz/ru/docs/6600413

3. Али оглу А. О. Статистическое исследование непосредственного поддержания деятельности малого бизнеса в регионах // EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEBR). - 2022. - Т. 10. – нет. 6. - С. 30-33;

4. Умаро З.А., Отамуродов Ҳ.Ҳ., Сайфиддинов И.Ф. МОНОГРАФИЯ, Тижорат банклари кредит портфелини бошқаришни такомиллаштириш, Тошкент молия институти -Т, “Молия-иқтисод” нашриёти, 2021. С. 19.

5. Кузмина С.Н., Арзикулов О.А. Методы управления кредитным портфелем коммерческих банков. Вестник Кокандского университета, 2023 г. №9. ISSN: 2181-1695. С. 11-16.

6. Арзикулов О. А. Роль малого бизнеса в развитых странах//Экономика и общество.-2019.-Нет. 12. - С. 30-33

7. Sattarov O., Beknazarov E. GEP and its management in commercial banks. Monograph. -T .: EXTREMUM PRESS. 2011 y. - 82 b.

8. http://www.worldbank.org/en/country/mic/overview

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN IMTIYOZLI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Aliqulov Hazrat Amirqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: aliqulov_hazrat@gmail.com
ORCID: 0009-0005-4076-5614

Annotasiya: *Maqolada tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda imtiyozli kreditlash mexanizmlarining samaradorligini oshirish va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholashdan iborat. Ishda imtiyozli kreditlashning nazariy asoslari, xalqaro amaliyot va O‘zbekiston banklarining hozirgi holati taqqosiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *imtiyozli kreditlash, tijorat banklari, kredit siyosati, risk boshqaruvi, kichik va o‘rta biznes, moliyaviy texnologiyalar, bank innovatsiyalari, kredit portfeli, subsidiya mexanizmlari, davlat qo‘llab-quvvatlashi, raqamlashtirish, moliyaviy inklyuziya, iqtisodiy rivojlanish, bank xizmatlari, kredit risklari*

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ ЛЬГОТНОГО КРЕДИТОВАНИЯ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ

Аликулова Хазрата Амиркуловича
Ташкентский государственный экономический университет
независимый исследователь
E-mail: aliqulov_hazrat@gmail.com
ORCID: 0009-0005-4076-5614

Аннотация: *В статье глубоко проанализированы направления совершенствования практики льготного кредитования коммерческими банками. Основной целью исследования является повышение эффективности механизмов льготного кредитования в современных экономических условиях и оценка их влияния на экономическое развитие страны. В работе проведен сравнительный анализ теоретических основ льготного кредитования, международной практики и современного состояния банков Узбекистана.*

Ключевые слова: *льготное кредитование, коммерческие банки, кредитная политика, управление рисками, малый и средний бизнес, финансовые технологии, банковские инновации, кредитный портфель, механизмы субсидирования, государственная поддержка, цифровизация, финансовая инклюзия, экономическое развитие, банковские услуги, кредитные риски*

WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF RENEWABLE ENERGY FINANCING

Alikulov Khazrat Amirkulovich
Tashkent State University of Economics
Independent researcher
E-mail: aliqulov_hazrat@gmail.com
ORCID: 0009-0005-4076-5614

Abstract: *The article thoroughly analyzes the directions for improving the practice of concessional lending by commercial banks. The main goal of the research is to increase the effectiveness of preferential lending mechanisms in modern economic conditions and assess their*

impact on the country’s economic development. The work provides a comparative analysis of the theoretical foundations of concessional lending, international practice, and the current state of banks in Uzbekistan.

Keywords: *concessional lending, commercial banks, credit policy, risk management, small and medium-sized businesses, financial technologies, banking innovations, loan portfolio, subsidy mechanisms, state support, digitalization, financial inclusion, economic development, banking services, credit risks*

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda tijorat banklarining kredit siyosati mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Imtiyozli kreditlash amaliyoti esa iqtisodiyotning muhim tarmoqlari, kichik va o‘rta biznes, eksport-import faoliyati hamda strategik loyihalarni moliyalashtirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, global iqtisodiy inqiroz, inflyatsiya jarayonlari va valyuta kursidagi o‘zgarishlar banklarning kredit portfelini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va raqamlashtirish jarayonlari banklarning kredit mahsulotlari va xizmatlarini yangilashga undamoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi oqibatlari va global ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar kichik va o‘rta korxonalarning moliyaviy qiyinchiliklarini yanada kuchaytirdi. Bu holatda imtiyozli kredit dasturlari nafaqat individual biznes subyektlari uchun, balki butun iqtisodiyot uchun hayotiy muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligi, qishloq xo‘jaligi va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida imtiyozli kreditlarning roli tobora ortib bormoqda.

Tijorat banklarining risk-menejment tizimlarini takomillashtirish zarurati ham imtiyozli kreditlash amaliyotini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Kredit riskini baholash mezonlari, garov mulkini baholash tamoyillari, kredit oluvchilarning to‘lov qobiliyatini tahlil qilish usullari zamonaviy talablarga javob berishi kerak. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kredit jarayonlarini avtomatlashtirish, big data va sun’iy intellekt yordamida kredit qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu esa imtiyozli kreditlash tizimini yanada samarali va shaffof qilish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda.

Xalqaro amaliyot va eng yaxshi tajribalarni o‘rganish hamda mahalliy sharoitlarga moslashtirib qo‘llash imtiyozli kreditlash sohasidagi innovatsiyalarning asosini tashkil etmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi kredit kafolatlari tizimlari, davlat va xususiy sektor hamkorligi modellari, kredit risklarini taqsimlash mexanizmlari O‘zbekiston banklarining amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin. Shu bilan birga, mahalliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, madaniy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda imtiyozli kreditlash dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda tijorat banklarining bozordagi raqobat qobiliyatini ta’minlash va mijozlar ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun imtiyozli kreditlash sohasidagi innovatsiyalar davom ettirilishi zarur. Bu jarayon nafaqat banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishiga ham hissa qo‘shadi. Shuning uchun imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borish, nazariy asoslarni mustahkamlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Qurbonov Q.X. tomonidan “O‘zbekiston banklarining kredit riskini boshqarish tizimini takomillashtirish va

imtiyozli kreditlar bo‘yicha davlat siyosatini optimallashtirishga e’tibor qaratadi. U kichik biznes va qishloq xo‘jaligi kreditlarini rivojlantirish zarurligini” ta’kidlaydi[1].

I.G.Ergashev Raqamli bankirlik sharoitida imtiyozli kreditlash mexanizmlarini modernizatsiya qilish va fintech yechimlarini joriy etish bo‘yicha takliflar beradi. Kredit jarayonlarini avtomatlashtirish va big data dan foydalanishni taklif qiladi[2].

A.A.Mamatov Imtiyozli kreditlash orqali eksport salohiyatini oshirish va importni almashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash masalalariga to‘xtaladi. Valyuta risklarini minimallashtirishning zamonaviy usullarini taklif etadi[3].

O.I. Lavrushin Imtiyozli kreditlashning makroiqtisodiy ta’sirini tahlil qiladi va davlat regulyatsiyasining rolini ta’kidlaydi. Kredit tizimining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini chuqur o‘rganadi[4].

G.N.Beloglazova Bank riskini boshqarish va imtiyozli kreditlar portfelini optimallashtirishga e’tibor beradi. Kredit siyosatining bankning moliyaviy barqarorligiga ta’sirini tahlil qiladi[5].

E.F.Jukov Zamonaviy kredit mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro amaliyotni milliy bank tizimiga moslashtirishga oid takliflar beradi. Riskni baholash metodologiyasini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi[6].

F.S.Mishkin Pul-kredit siyosatining real iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qiladi va imtiyozli kreditlashning transmissiya mexanizmlarini o‘rganadi. Moliyaviy barqarorlik va kredit o‘sishi o‘rtasidagi muvozanatga e’tibor beradi[7].

A.Saunders Kredit riskini boshqarishning zamonaviy usullari va imtiyozli kreditlar bo‘yicha portfel diversifikatsiyasi masalalarini chuqur tahlil qiladi. Stress-testing va scenario tahlil usullarini takomillashtirishni taklif qiladi[8].

P.S.Rose Bank xizmatlarining innovatsion rivojlanishi va raqamli transformatsiya sharoitida kredit mahsulotlarini takomillashtirishga e’tibor qaratadi. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini taklif qiladi[9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu soha nafaqat moliyaviy institutlarning rivojlanishi, balki butun mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Imtiyozli kreditlar orqali davlat tomonidan belgilangan ustuvor yo‘nalishlar - qishloq xo‘jaligi, sanoat, eksport, kichik va o‘rta biznes kabi tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Shuning uchun ushbu sohadagi amaliyotni ilmiy asosda takomillashtirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy ahamiyat nuqtayi nazaridan imtiyozli kreditlash tizimining samaraliligi mamlakatning raqobat qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida mamlakatlar o‘zlarining iqtisodiy suverenitetini saqlash va rivojlantirish uchun ichki ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga majbur bo‘lmoqda. Imtiyozli kreditlar esa aynan bu maqsadga erishishning eng samarali moliyaviy vositasi hisoblanadi. Ular orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro bozorda raqobat qila oladigan mahsulotlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ijtimoiy ahamiyat jihatidan imtiyozli kreditlash ahlining turmush darajasini oshirish va bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash

orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun tadbirkorlik imkoniyatlari kengayadi. Qishloq joylarida imtiyozli kreditlar yordamida amalga oshiriladigan loyihalar qishloq aholisining shahar tomon migratsiyasini kamaytiradi va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni qisqartiradi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy tizim rivojlanishi nuqtayi nazaridan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish banklarning professional darajasini oshirishga yordam beradi. Turli xildagi risklarni baholash, kredit portfelini boshqarish, zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni qo‘llash kabi ko‘nikmalar banklarning umumiy salohiyatini oshiradi. Bu esa moliyaviy sektorning barqarorligini ta’minlash va xalqaro standartlarga javob berish imkoniyatini yaratadi.

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari

№	Mavjud holat	Asosiy muammo	Taklif etilayotgan takomillashtirish yo‘nalishi	Kutilayotgan natija
1	Kredit ajratish tartibi murakkab	Byurokratik to‘siqlar ko‘p	Kredit olish jarayonini soddalashtirish va raqamlashtirish	Kredit oluvchilar soni ortadi, jarayon tezlashadi
2	Kredit olish uchun kafilliklar talabi yuqori	Kichik tadbirkorlar uchun to‘siq	Sug‘urta yoki davlat kafolatlari tizimini kengaytirish	Moliyaviy inklyuziya ortadi
3	Kredit foiz stavkalari yuqori	Imtiyozli sharoit yetarli darajada emas	Davlat subsidiyasi asosida foizlarni qoplash tizimini kengaytirish	Kreditga bo‘lgan talab va investitsiya hajmi ortadi
4	Kredit portfelida kichik biznes ulushi past	Banklar tavakkalni yuqori deb baholaydi	Risklarni baholashda zamonaviy scoring tizimlarini joriy etish	Kichik biznes kreditlashda faollik oshadi
5	Kredit mablag‘larining maqsadli ishlatilishini nazorat qilish sust	Noqonuniy sarf-harajatlar mavjud	Raqamli monitoring va bank-nazorat platformalarini yaratish	Kredit intizomi kuchayadi, samaradorlik oshadi
6	Kredit olish uchun hujjatlar soni ko‘p	Ko‘plab ma’muriy talablar mavjud	Yagona elektron kredit ariza tizimini joriy etish	Tadbirkorlarning vaqti tejaladi, shaffoflik ortadi
7	Imtiyozli kredit dasturlarining aholiga yetarli targ‘ib qilinmasligi	Aholining xabardorlik darajasi past	Banklar tomonidan PR va moliyaviy savodxonlik kampaniyalari	Aholining ishtiroki oshadi, ehtiyojga yo‘naltirish yaxshilanadi
8	Kredit qaytmasligi xavfi yuqori	Kredit tahlili va monitoringi sust	Kredit monitoringi va risk menejmenti bo‘yicha xodimlarni malakalashtirish	Kredit sifati va portfel barqarorligi ortadi
9	Imtiyozli kreditlar sektorlar bo‘yicha teng taqsimlanmaydi	Resurslar noto‘g‘ri yo‘naltiriladi	Sektorlar bo‘yicha tahlil asosida differensial kredit siyosati	Resurslar samarali yo‘naltiriladi
10	Faoliyatda innovatsion kredit mahsulotlari kam	An’anaviy xizmatlar ustun	Yashil kreditlar, startap kreditlar kabi innovatsion mahsulotlarni joriy etish	Raqobatbardoshlik va bozor moslashuvchanligi ortadi

Jadvalda keltirilganidek, kredit olish jarayoni murakkabligi, kafilliklar talabi yuqoriligi va ko‘plab ma’muriy to‘siqlar mavjud bo‘lib, bu holatlar moliyaviy inklyuziya darajasining pastligiga olib kelmoqda. Kreditga kirish imkoniyatini kengaytirish uchun jarayonlarni raqamlashtirish, kafillik tizimini soddalashtirish, axborot texnologiyalari orqali ochiq elektron rejimlarni joriy etish zarur. Natijada, kredit oluvchilar soni ortadi, tadbirkorlik muhitining ochiqligi kuchayadi va jarayonning tezlashuvi ta’minlanadi.

Kredit tahlilining zaifligi, imtiyozli kreditlarning sektorlar bo‘yicha yetarlicha taqsimlanmagani, resurslarning noto‘g‘ri yo‘naltirilishi muammoli holatlar sifatida qayd etilgan. Bularni bartaraf etish uchun risklarni monitoring qilish tizimlarini, sektorlar kesimida differensial yondashuvlarni joriy etish tavsiya etilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar kredit portfeli sifatini oshirib, moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash: O‘zbekiston va xalqaro amaliyot solishtirma

№	Yo‘nalish	O‘zbekiston amaliyoti	Xalqaro amaliyot (misollar)	Takliflar va takomillashtirish yo‘li
1	Kredit ajratish mexanizmi	Ko‘p hollarda qo‘lda boshqariladi, jarayon murakkab	AQSh va Germaniyada raqamli scoring tizimlari asosida avtomatlashtirilgan kredit baholash	Avtomatlashtirilgan va sun’iy intellekt asosidagi kredit baholash tizimini joriy etish
2	Foiz stavkalarini subsidiyalash	Davlat tomonidan qisman subsidiyalanadi	Janubiy Koreyada 50–70% gacha foiz stavkasi davlat tomonidan qoplab beriladi	Foiz stavkasi subsidiya mexanizmini kengaytirish, sektorlar bo‘yicha differensial yondashuv
3	Kafillik mexanizmi	Kafilliklar talab qilinadi, lekin kafolat fondlari cheklangan	Yaponiyada Kichik Biznes Kafolat Korporatsiyalari faol ishlaydi	Davlat kafolat fondlari va sug‘urta tizimlarini kengaytirish
4	Kreditga kirish imkoniyati	Ayrim guruhlar (yoshlar, ayollar) uchun imkoniyatlar cheklangan	Kanada va Norvegiyada ayollar va yoshlar uchun maxsus kredit liniyalari	Ijtimoiy guruhlar uchun maxsus imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish
5	Maqsadli yo‘naltirish	Kreditlar har doim ham maqsadli ishlatilmaydi	Germaniyada kredit vositalari qat’iy nazorat qilinadi	Kredit monitoring tizimlarini raqamlashtirish va real vaqt rejimida kuzatuv joriy etish
6	Innovatsion kredit mahsulotlari	Asosan an’anaviy kreditlar taklif qilinadi	AQShda yashil kreditlar, startap kreditlar, ekologik obligatsiyalar keng tarqalgan	Innovatsion va ekologik yo‘nalishdagi kredit mahsulotlarini bank amaliyotiga kiritish
7	Bank xodimlari malakasi	Kichik biznesga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tajriba cheklangan	Singapurda bank xodimlari uchun kichik biznes va moliyaviy treninglar majburiy	Tijorat banklari xodimlari uchun doimiy malaka oshirish va akkreditatsiya tizimini yaratish
8	Kredit olish uchun hujjatlar	Ko‘p sonli hujjatlar talab qilinadi	Estoniyada elektron raqamli identifikatsiya asosida 15 daqiqada ariza berish mumkin	Yagona elektron kredit platformasini joriy etish (e-kredit)
9	Kredit tahlil tizimi	Risk baholashda tajribaviy yondashuv ustun	Finlyandiyada kredit risklari sun’iy intellekt asosida tahlil qilinadi	Sun’iy intellekt va Big Data asosida risk tahlilini joriy etish
10	Kredit resurslari manbalari	Asosan davlat mablag‘lari hisobiga	Xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorlik mavjud (EBRD, IFC)	Tashqi investorlar va xalqaro institutlar bilan kredit liniyalarini kengaytirish

Yuqoridagi solishtirma tahlil jadvalidan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyoti hali to‘liq raqamlashtirilmagan, kredit baholashda avtomatlashtirilgan tizimlar, innovatsion mahsulotlar va ijtimoiy guruhlar uchun maxsus kredit yo‘nalishlari yetarli darajada rivojlanmagan. Aksincha, ilg‘or davlatlar tajribasida (AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Kanada) kreditlashda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, kafolat fondlari, foiz stavkasini subsidiya qilish mexanizmlari va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish choralari faol qo‘llaniladi.

Innovatsion rivojlanish kontekstida imtiyozli kreditlash texnologik startaplar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, biotexnologiya kabi zamonaviy sohalarni rivojlantirish uchun uzoq

muddatli va arzon moliyalashtirish zarur. Imtiyozli kreditlar aynan bunday loyihalarga kerakli moliyaviy resurslarni taqdim etish imkoniyatini beradi va mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirishga hissa qo‘shadi.

Ekologik ahamiyat jihatidan imtiyozli kreditlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim rol o‘ynaydi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash kabi loyihalarni moliyalashtirish orqali mamlakatning ekologik xavfsizligi ta’minlanadi. Bu nafaqat mahalliy ekologik muammolarni hal qilishga, balki global iqlim o‘zgarishlari bilan kurashishga ham hissa qo‘shadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonida imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish mamlakatning tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi. Eksportga yo‘naltirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish orqali valyuta tushumlari oshiriladi va to‘lov balansining ijobiy dinamikasi ta’minlanadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayonida imtiyozli kreditlash tizimini zamonavilashtirish banklarning texnologik imkoniyatlarini kengaytiradi. Blockchain texnologiyasi, sun’iy intellekt, big data tahlili kabi zamonaviy vositalarni joriy etish kredit jarayonlarini tezlashtiradi, shaffofligini oshiradi va xatolar ehtimolini kamaytiradi. Bu esa mijozlar uchun qulaylik yaratish bilan birga, banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini beradi.

Kredit riskini boshqarish sohasida imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy risk baholash usullari, stress-testing metodlari, portfel diversifikatsiyasi tamoyillarini qo‘llash banklarning potentsial yo‘qotishlarini minimallashtirishga yordam beradi. Bu esa butun moliyaviy tizimning barqarorligini saqlash va moliyaviy inqirozlar ehtimolini kamaytirish uchun zarur.

Kelajakdagi istiqbollar nuqtayi nazaridan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. "O‘zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqamli transformatsiyani amalga oshirish kabi vazifalar aynan samarali imtiyozli kreditlash tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy takomillashtirishlar mamlakatning kelajagini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda imtiyozli kreditlash tizimini takomillashtirish uchun avvalo kredit ajratish mexanizmlarini avtomatlashtirish, banklar xodimlari malakasini oshirish, elektron kredit platformalarini joriy etish va ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj guruhlar uchun alohida moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda tashqi moliyaviy resurslarni jalb etish orqali imtiyozli kreditlashning barqaror va samarali tizimini shakllantirish mumkin.

Xulosa

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash amaliyotini takomillashtirish bugungi kunda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi. Amaldagi tizimda raqamlashtirish darajasining pastligi, kredit ajratish jarayonining murakkabligi, risklarni baholashda zamonaviy vositalarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi kabi muammolar mavjud. Shuningdek, imtiyozli kreditlardan foydalanishda ijtimoiy nozik qatlamlarning imkoniyatlari cheklangan, banklar esa bunday guruhlarni yuqori riskli deb hisoblab, ularni chetlab o‘tishga harakat qilishmoqda.

Ushbu holatlarni bartaraf etish uchun tijorat banklarida kreditlash jarayonini

raqamlashtirish, sun’iy intellekt va scoring tizimlarini joriy qilish, foiz stavkalarini subsidiya qilish va davlat kafolat fondlari tizimini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, ijtimoiy guruhlar uchun maxsus kredit liniyalarini ishlab chiqish, innovatsion mahsulotlar (masalan, yashil kredit, startap kredit)ni joriy etish ham tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu orqali imtiyozli kreditlash tizimi yanada inklyuziv, shaffof va barqaror bo‘lib, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda kuchli moliyaviy tayanchga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qurbonov Q.X. “Bank ishi asoslari” - T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. 450 b.
2. Ergashev I.G. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini rivojlantirish” - T.: “Fan va texnologiya”, 2020. 320 b.
3. Mamatov A.A. "Tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish muammolari" - T.: “Iqtisodiyot”, 2021. 280 b.
4. Лаврушин О.И. “Банковское дело: современная система кредитования” - М.: КноРус, 2019. 560 с.
5. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. “Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка” - М.: Юрайт, 2020. 422 с.
6. Жуков Е.Ф. “Банки и банковские операции” - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. 679 с.
7. Mishkin F.S. “The Economics of Money, Banking, and Financial Markets” - 12th Edition, Pearson, 2019. 768 p.
8. Saunders A., Cornett M.M. “Financial Institutions Management: A Risk Management Approach” - 9th Edition, McGraw-Hill, 2018. 784 p.
9. Rose P.S., Hudgins S.C. “Bank Management and Financial Services” - 10th Edition, McGraw-Hill, 2019. 672 p.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

УЙ-ЖОЙ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДА ИПОТЕКА КРЕДИТЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жўраев Камолиддин Ташболтаевич
макроиқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети
E-mail: kamoljoraev@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9576-2785

Аннотация. *Мақолада Ўзбекистон Республикасида уй-жой хўжалиги соҳасида ипотека кредитлаш тизимининг амалдаги ҳолати таҳлил қилинган. Ипотека тизимининг ҳуқуқий, молиявий ва ташкилий асосларини ўрганилган ҳолда, аҳолини уй-жой билан таъминлашга тўсқинлик қилаётган муаммолар тадқиқ этилган. Ипотека кредитларини фойдаланувчилар учун енгилроқ ва самарали қилиш, ипотека тизимини рақамлаштириш, ҳамда ижтимоий тоифалар учун имтиёзли ипотека механизмларини кенгайтиришга доир таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *ипотека кредитлаш, уй-жой хўжалиги, ипотека фоиз ставкаси, субсидия, имтиёзли ипотека, қарор ва фармон, халқаро тажриба.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ИПОТЕЧНОГО КРЕДИТОВАНИЯ В ЖИЛИЩНОМ СЕКТОРЕ

Джураев Камолиддин Ташбалтаевич
преподаватель кафедры макроэкономики
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
E-mail: kamoljoraev@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9576-2785

Аннотация: *В статье анализируется современное состояние системы ипотечного кредитования в жилищной сфере Республики Узбекистан. Изучаются правовые, финансовые и организационные основы ипотечной системы, рассматриваются проблемы, препятствующие обеспечению населения жильем. Разработаны предложения по цифровизации ипотечной системы, упрощению и повышению эффективности ипотечного кредитования для пользователей, расширению механизмов льготного ипотечного кредитования для социальных категорий.*

Ключевые слова: *ипотечное кредитование, жилье, процентная ставка по ипотеке, субсидия, льготная ипотека, решения и указы, международный опыт.*

IMPROVEMENT OF THE MORTGAGE LENDING SYSTEM IN THE HOUSING SECTOR

Juraev Kamoliddin Tashbaltaevich
Lecturer of the Department of Macroeconomics
National University of Uzbekistan named Mirzo Ulugbek
E-mail: kamoljoraev@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9576-2785

Abstract. *The article analyzes the current state of the mortgage lending system in the housing sector of the Republic of Uzbekistan. The legal, financial and organizational foundations of the mortgage system are studied, and problems that hinder the provision of housing to the population are considered. Proposals have been developed for the digitalization of the mortgage system, simplification and improvement of the efficiency of mortgage lending for users, and expansion of mechanisms for preferential mortgage lending for social categories.*

Keywords: *mortgage lending, housing, mortgage interest rates, subsidies, preferential mortgages, decisions and decrees, international experiences.*

Кириш

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида аҳолининг турмуш даражасини ошириш, муносиб яшаш шароитларини яратиш ва ижтимоий барқарорликни таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Шу жиҳатдан аҳолини замонавий, қулай ва, қолаверса, иқтисодий жиҳатдан мақбул уй-жой билан таъминлаш муҳим вазифалардан бири сифатида қайд этилмоқда.

Уй-жой муаммосини самарали ҳал этишда ипотека кредитлаш тизими муҳим ўрин тутади. Бу тизим орқали фуқаролар узоқ муддатли ва қулай шартларда ўз турар жойига эга бўлиш имкониятига эришади. Бироқ, амалдаги ипотека кредитлаш механизмлари аҳолининг барча қатламлари учун бир хил даражада самарали ишламаётгани, айрим тоифалар учун иқтисодий жиҳатдан оғирлиги, мазкур тизимни янада такомиллаштириш заруратини туғдиради.

Шу сабабли, мавжуд ипотека тизимини ҳар томонлама таҳлил қилиш, унинг самарадорлигини ошириш, инновацион молиялаштириш усулларини жорий этиш, давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини кучайтириш каби масалалар бугунги кунда долзарб ҳисобланади.

Адабиётлар шарҳи

Ўзбекистон Республикасида ипотека кредитлаш тизимини такомиллаштиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, давлат дастурлари, илмий ва амалий адабиётлар ҳамда хорижий тажриба асосида тайёрланган таҳлилий материаллар мавжуд.

Ўзбекистон Республикасининг “Ипотека тўғрисида”ги Қонуни ипотека муносабатларини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солади, томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилайди [1], Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолининг уй-жой шароитини яхшилаш ҳамда ипотека кредити бозорини янада кенгайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги [2], Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолини арзон уй-жойлар билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонлари [3], ва “Ипотека бозорини ривожлантириш ва молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори [4] ипотека тизимида давлат ва хусусий сектор иштирокини кенгайтириш каби қанча чора-тадбирлар назарда тутилган.

Илмий ва таҳлилий манбаларда ипотека кредитлаш тизимини такомиллаштириш масаласига олимлар томонидан ҳам эътибор кучайиб бормоқда. Мамлактлат тадқиқотчиларидан А.Солиев, Ж.Қодиров ипотека кредитлаш тизимининг иқтисодий механизмларини [5], Г.Н. Абдуллаева Ўзбекистонда ипотека бозорини ривожлантиришнинг долзарб масалаларини [6] чуқур таҳлил қилишган.

Халқаро миқёсда Жаҳон банки, ХВЖ, Осиё тараққиёт банки каби ташкилотларнинг тавсиялари ва ҳисоботлари асосида ривожланган ва ривожланаётган давлатларда ипотека бозорини ривожлантириш тажрибаси, молиялаштириш манбалари, субсидия механизмлари таҳлил қилинган. Масалан, Жаҳон банкининг “Developing Housing Finance Systems in Emerging Markets” номли ҳисоботи ипотека тизимини ривожлантиришда

қонунчилик, молиявий инфратузилма ва давлат қўллаб-қувватига алоҳида эътибор қаратиш лозимлигини кўрсатади;

Марказий банк, Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази, Молия вазирлиги томонидан тайёрланган таҳлилий ҳисоботлар, масалан, “Ўзбекистонда ипотека бозорининг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги таҳлилий маълумотлар ипотека кредитлаш тизимини такомиллаштиришга катта ҳисса қўшган.

Мавзуни илмий асосда ўрганиш учун юқоридаги манбалар муҳим ҳисобланади. Улар ипотека тизимининг ҳуқуқий базаси, молиявий механизмлари, амалий муаммолари ва уларни ҳал қилиш бўйича таклифларни қамраб олади. Шунингдек, халқаро тажриба билан солиштирма таҳлиллар олиб бориш ҳам Ўзбекистон шароитида бу соҳани ривожлантиришга ёрдам беради.

Тадқиқот методологияси

Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида уй-жой хўжалиги соҳасида ипотека кредитлаш тизимини таҳлил қилиш, муаммоларини аниқлаш ва такомиллаштириш бўйича амалий таклифлар ишлаб чиқиш мақсад қилинган. Бунда тадқиқот иши қуйидаги илмий усуллар асосида олиб борилди: Ипотека кредитлаш тизимининг ривожланиш тарихи ва Ўзбекистондаги шаклланиш босқичлари таҳлил қилинди. Бу усул ипотека тизимининг миллий хусусиятларини аниқлаш имконини берди.

Давлат статистика қўмитаси, Марказий банк, Жаҳон банки ва бошқа манбалардан олинган маълумотлар асосида статистик метод ишлатилиб, ипотека кредитлаш кўрсаткичларининг динамикаси, аҳолининг ипотекага бўлган эҳтиёжлари, фоиз ставкалари ва кредит олиш имкониятлари таҳлил қилинди. Ўзбекистондаги ипотека тизими бошқа давлатлар (Россия, Қозоғистон, Туркия) билан таққосланиб, самарали тажрибалар ўрганилди ва улар асосида амалий таклифлар ишлаб чиқилди. Ипотека тизимидаги мавжуд сиёсатни сақлаб қолиш ва такомиллаштириш ҳолатларида келиб чиқиши мумкин бўлган натижалар иқтисодий усул асосида таҳлил қилинди. Ипотека кредитлаш соҳасини тартибга солувчи қонунлар, қарорлар, фармонлар ва меъёрий ҳужжатлар ўрганилиб, улардаги ҳуқуқий бўшлиқлар аниқланди.

Таҳлил ва натижалар

Ипотека кредитлаш тизими ҳар қандай мамлакатда уй-жой хўжалигининг асосий молиявий инструментларидан бири ҳисобланади. Ушбу тизим аҳолининг турмуш даражасини ошириш, қурилиш бозорини фаоллаштириш, иқтисодиётга сармоя жалб қилиш ва молия бозорларини чуқурлаштиришда муҳим ўрин тутади. Ўзбекистонда ҳам бу йўналишда сўнгги йилларда муайян ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Амалдаги ипотека тизимининг таҳлили бир қатор муаммолар мавжудлигини кўрсатмоқда:

1. Қонунчилик ва меъёрий база: “Ипотека тўғрисида”ги Қонун ва унга боғлиқ ҳужжатлар тизимни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаб бермоқда. Лекин амалиётда бу ҳужжатларнинг татбиқи, ссуда ипотека юзасидан чиқадиган тортишувлар ва молиявий кафолат механизмлари суст ишламоқда.

2. Иқтисодий ва молиявий муаммолар: Фоиз ставкалари юқори (жумладан 18–23% атрофида бўлиши мумкин), бу эса ортиқча қарз юкини юзага келтиради. Дастлабки тўлов 15–30% оралиғида бўлиб, кўпчилик фуқаролар буни тўлай олмайди. Ишлаб чиқариш ва хизмат соҳасида норасмий ишлайдиган фуқароларнинг кредитга лаёқатини баҳолаш тизими етарли эмас.

3. Молиялаштириш манбалари етарли даражада диверсификация қилинмаган: Тизим асосан банк кредитларига боғланган. Ипотека облигациялари, ипотека жамғармалари ёки қайта молиялаштириш марказлари (МҚММлар) сингари бозор механизмлари ҳали тўлиқ ривожланмаган.

4. Давлат дастурлари самарадорлиги: Ҳукумат томонидан ёш оилалар ва кам таъминланган қатлам учун субсидиялар ва имтиёзлар тақдим этилмоқда. Бунга қарамасдан, дастурлардан фойдаланиш учун қўйилган талаблар кўпчилик учун мураккаб ва тўсиқли бўлиб қолмоқда.

5. Қурилиш ва уй-жой бозори билан боғлиқ ҳолат: уй-жой қурилиши даражаси ошиб бормоқда, лекин талаб ва таклиф ўртасида номутаносиблик бор. Қурилиш компанияларининг уй-жой нархини белгилашда эркинлигини чекловчи ва шаффофликни таъминловчи механизмлар етарли эмас.

6. Халқаро тажриба билан таққослаш: Қозоғистон, Туркия ва Малайзияда ипотека жамғармалари, қайта молиялаш марказлари орқали ипотека кредитлаш тизими кенг йўлга қўйилган. Бозорни барқарорлаштириш мақсадида давлат ипотека бозорига кафолатчи сифатида аралашаётган ҳолатлар бор. Ўзбекистонда бу сингари воситачилар ва молиявий институтлар ҳали етарли даражада шаклланмаган.

1-чизма.

Таҳлилдан келиб чиқадиган хулосалар*



*Муаллиф ишланмаси.

Натижаларни кўриб чиқадиган бўлсак, Ўзбекистонда сўнгги йилларда аҳолини уй-жой билан таъминлашда ипотека кредитлаш тизими асосий молиявий механизмлардан бирига айланди. Бу орқали минглаб фуқаролар ўз турар жойига эга бўлди.

Ипотека кредитлашда давлат иштирокининг ижобий таъсири сезилмоқда. Ҳукумат томонидан ажратилаётган субсидиялар, имтиёзли кредит дастурлари ва давлат кафолатлари орқали айниқса ёшлар ва кам таъминланган оилалар учун ипотека имкониятлари кенгайди.

2-чизма.

Ипотека кредитлаш тизимидаги муаммолар



*уаллиф ишланмаси.

Халқаро тажриба таҳлили асосида аниқландики, ипотека бозорини ривожлантиришда қайта молиялаштириш марказлари, ипотека жамғармалари, давлат-номолиявий кафолат тизимлари ва узоқ муддатли имтиёзли дастурлар муҳим роль ўйнайди. Ўзбекистонда бу йўналишларда янада иш олиб бориш талаб этилади.

Қонунчилик ва институтсионал база такомиллашиб бормоқда, лекин амалий жиҳатдан фуқаролар учун ипотека кредитларидан фойдаланиш имкониятини соддалаштириш ва шаффофликни ошириш лозим.

Ипотека кредитлашнинг рақамлашуви ва ахборотлашуви фуқаролар учун янги имкониятларни яратмоқда. Шу билан бирга, рақамли технологияларни кенгроқ жорий қилиш лозим.

Хулоса

Ипотека кредитлашнинг ҳуқуқий базасини такомиллаштиришда: амалдаги “Ипотека тўғрисида”ги Қонунга замонавий талабларга мос ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш; ипотека кредитлаш жараёнларини аниқ белгилаб берувчи алоҳида норматив ҳужжатларни қабул қилиш; давлат ва хусусий сектор ўртасида ипотека соҳасида қонунан кафолатланган ҳамкорлик механизмларини шакллантириш.

Кам таъминланган аҳоли қатлами учун имтиёзли ипотека тизимини кенгайтиришда: давлат томонидан субсидиялаштириладиган ижтимоий ипотека дастурларини йўлга қўйиш; ёш оилалар, имконияти чекланган шахслар, давлат хизматчилари учун алоҳида ипотека фондларини ташкил этиш; ижтимоий уй-жой дастурларини ипотека билан боғлаб, манзилли ёрдам бериш.

Ипотека кредитлари бўйича фоиз ставкаларини оптималлаштиришда; ички молия бозори ва инфляция даражасига қараб иқтисодий асосланган ипотека фоиз ставкаларини жорий этиш; ипотека кредитлари учун прогрессив ставка моделини жорий қилиш (дастлабки йилларда пастроқ, кейин юқорироқ бўлиши мумкин).

Рақамли ипотека тизимини жорий этишда: ипотекага мурожаат қилиш, баҳолаш, шартнома тузиш ва кузатув жараёнларини онлайн платформа орқали автоматлаштириш; электрон ипотека тизими орқали шаффофлик ва самарадорликни ошириш.

Ипотека бозорида хусусий молиявий институтларнинг иштироки: микрофинанс ташкилотлари, лизинг компаниялари ва кредит уюшмаларига ипотека кредитлашда иштирок этиш ҳуқуқини бериш; хусусий секторни рағбатлантириш мақсадида солиқ имтиёзлари ёки давлат кафолатлари жорий этиш.

Ипотека билан боғлиқ хавф-хатарларни бошқариш тизимини яратишда: ипотека кредитлари учун суғурта механизмларини жорий қилиш: тўловларни тўлай олмаслик, қурилиш кечикиши ва ҳоказолар; банклар учун хавфни минималлаштирувчи резерв фонд ёки ипотека кафолатлаш жамғармасини ташкил этиш.

Ипотека қарз олувчиларининг молиявий саводхонлигини оширишда: аҳолини ипотека шартлари, тўлов механизмлари ва хавфлар ҳақида ахборотли қилишга қаратилган медиа-кампаниялар ташкил этиш; ўқув курслари, видеодарслар ва онлайн семинарлар орқали молиявий саводхонликни тарғиб қилиш.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикасида уй-жой хўжалиги соҳасида ипотека кредитлаш тизими мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, мавжуд ипотека тизимида муайян муаммо ва камчиликлар мавжуд бўлиб, уларни бартараф этиш учун тизимли ислоҳотлар амалга оширилиши зарур.

Аввало, ипотека кредитлари шароитларини соддалаштириш, фоиз ставкаларини оптималлаштириш, дастлабки тўлов миқдорини пасайтириш ва имтиёзли ипотека дастурларини кенгайтириш орқали аҳолининг ипотекадан фойдаланиш имкониятларини ошириш мумкин. Шу билан бирга, ипотека жараёнларини рақамлаштириш, молиявий

саводхонликни ошириш ва хусусий молия институтларини жалб этиш орқали ипотека бозорида рақобат ва самарадорликни кучайтириш лозим.

Ушбу мақола натижалари Ўзбекистонда ипотека кредитлаш тизимини янада самарали ва инклюзив қилиш, аҳолининг турли ижтимоий қатламлари учун уй-жойга эга бўлиш имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, мақолада келтирилган таклифлар банк мутахассислари ва тадқиқотчилар учун амалий қўлланма сифатида хизмат қилиши мумкин.

Тадқиқот давомида ишлаб чиқилган таклифлар ипотека кредитлаш тизимини такомиллаштиришга, аҳоли учун муносиб уй-жой шароитларини яратишга ва бу орқали мамлакатдаги ижтимоий барқарорликни таъминлашга қаратилгандир. Ушбу йўналишда қабул қилинадиган чора-тадбирлар мамлакатимизда уй-жой хўжалигини янада ривожлантириш ва фуқароларнинг ҳаёт сифатига ижобий таъсир кўрсатиши муқаррар.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Ипотека тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. ЎРҚ 49-сон, 1997 йил 25 апрел.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолининг уй-жой шароитини яхшилаш ҳамда ипотека кредити бозорини янада кенгайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4701-сон 2020 йил 13 майдаги қарори. – https://lex.uz/ru/docs/4803527?ONDATE=02.05.2020

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 й. 13 майдаги “Аҳолини арзон уй-жойлар билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 4702-сон фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 17 февралдаги “Ипотека бозорини янада ривожлантириш ва аҳолини уй-жой билан таъминлашнинг замонавий механизмларини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ 27-сон фармони.

5. Солиев А., Қодиров Ж. “Ипотека кредитлаш тизимининг иқтисодий механизмлари”, “Иқтисод ва молия” журнали, №2, 2022 й. 45–52 бет.

6. Абдуллаева Г.Н. “Ўзбекистонда ипотека бозорини ривожлантиришнинг долзарб масалалари”, “Илмий-амалий иқтисодий таҳлил” журнали №4 2023 й. 33–38 бет.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ДЕПОЗИТ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ ДЕПОЗИТ БАЗАСИНИ КЕНГАЙТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Маматов Акмалжон Анваржонович
“Агробанк” АТБ HR департаменти бошқарма бошлиғи
E-mail: a.a.mamatov82@gmail.com

Аннотация. *Мақолада тижорат банклари депозит сиёсатининг асосий йўналишлари ҳамда уни шакллантириш жараёнлари ва тамойиллари назарий амалий жиҳатдан атрофлича ўрганилган. Шунингдек, тижорат банклари депозит базасини кенгайтиришда депозит сиёсатининг ролини ошириш юзасидан таклифлар берилган.*

Таянч сўзлар. *Тижорат банки, депозит, депозит сиёсати, аҳоли омонатлари, банк ресурслари, жалб қилинган маблағлар.*

МЕХАНИЗМЫ РАСШИРЕНИЯ ДЕПОЗИТНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПУТЕМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕПОЗИТНОЙ ПОЛИТИКИ

Маматов Акмалжон Анваржонович
начальник управления HR департемента АКБ “Агробанк”
E-mail: a.a.mamatov82@gmail.com

Аннотация. *В статье подробно изучены основные направления депозитной политики коммерческих банков, а также процессы и принципы ее формирования с теоретической и практической точки зрения. Также внесены предложения по повышению роли депозитной политики в расширении депозитной базы коммерческих банков.*

Ключевые слова: *Коммерческий банк, депозит, депозитная политика, сбережения населения, ресурсы банка, привлеченные средства.*

MECHANISMS FOR EXPANDING THE DEPOSIT BASE OF COMMERCIAL BANKS THROUGH IMPROVING DEPOSIT POLICY

Akmaljon Anvarjonovich Mamatov
Head of the Human Resources Department, Joint-stock Commercial Bank "Agrobank"
E-mail: a.a.mamatov82@gmail.com

Annotation. *In the article, the main directions of the deposit policy of commercial banks, as well as the processes and principles of its formation, are studied in detail from a theoretical and practical point of view. Also, proposals were made to increase the role of deposit policy in expanding the deposit base of commercial banks.*

Key words: *Commercial bank, deposit, deposit policy, population savings, bank resources, attracted funds.*

Кириш.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида республикамиз банк тизими бир қатор ютуқларга эришиб келмоқда. Мазкур ҳолатни ҳукуматимиз томонидан қабул қилинаётган қарор ва фармонларда банк тизимига бўлган эътибор юқорилиги билан эътироф этишимиз мумкин.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2020–2025 йилларга мўлжалган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси

тўғрисида” ги ПФ-5992 сонли фармонида банк тизимида самарадорликни ошириш ва молиявий барқарорликни таъминлаш, банк актив ва пассивларининг мутаносиблигини сақлаш орқали тизимнинг барқарорлигини кучайтириш масалаларига алоҳида эътибор берилган бўлиб, бунда республикамизни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини амалга ошириш жараёнида иқтисодиётни ривожлантириш банкларнинг молиявий барқарорлиги ошиши ҳамда улар томонидан молиявий қўллаб-қувватлаш негизида тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол қилиш жараёнларининг узлуксизлигини таъминлаш имконини оширади.

Маълумки, банкларда молиявий воситачилик функциясини бажариш учун балансининг пассив қисмида ўз маблағларининг улуши бошқа ташкилотларга нисбатан анча паст кўрсаткични ташкил этади. Бу эса, ўз навбатида, банк активларининг асосий қисми банк мижозларидан жалб қилинган пул маблағлари ҳамда кредиторлардан олинган ресурс маблағлари ҳисобига шаклланганлигидан далолат беради.

Кредит қўйилмаларининг белгиланган меъёрлардан сезиларли миқдорда ошиши, активлар ва пассивлар таркиблари ўртасидаги мутаносибликнинг сезиларли ўзгариши, банк пассивларининг, жумладан, банк мижозларидан жалб қилинган маблағларнинг хатар даражаси ошганлигидан далолат беради ва, энг муҳими, банк фаолияти омонатчилар ва кредиторларнинг маблағларига, уларнинг ишончига жуда боғлиқлиги билан изоҳланади.

Шу нуқтаи назардан, бугунги кунда тижорат банкларининг депозит сиёсати самарадорлигини янада ошириш, молиявий барқарорлигини таъминлаш масалаларига алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Тижорат банклари депозит сиёсати самарадорлигини таъминлаш бевосита уларнинг молиявий жиҳатдан барқарор ресурс базасини шакллантириш имкониятини беради. Шу боис, тижорат банклари депозит сиёсати уларнинг асосий вазифаларидан бири бўлиб, банкларнинг актив операциялари натижасида шакллантирилаётган даромадлари ҳажми ушбу сиёсатнинг самарадорлигига бевосита боғлиқ ҳисобланади.

Шу билан бирга, банк тизимида депозитлар ҳажмининг ўсишига қарамасдан, уларнинг таркибий тузилиши, барқарорлиги ва узоқ муддатлилик даражаси ҳамон илмий жиҳатдан чуқур таҳлил қилишни талаб этмоқда. Айниқса, депозит сиёсатининг банк ресурс базасини кенгайтиришдаги роли, унинг стратегик ва тактик жиҳатлари етарлича тизимлаштирилмаган. Мазкур ҳолат эса, банкларнинг депозит сиёсатини доимий равишда такомиллаштириб бориш долзарблигини тақозо этади.

Мазкур мақоланинг мақсади тижорат банклари депозит сиёсатининг назарий ва амалий жиҳатларини таҳлил қилиш ҳамда депозит базасини кенгайтиришда унинг ролини баҳолашдан иборат. Ушбу мақсадга эришиш учун депозит сиёсатининг иқтисодий моҳиятини очиб бериш, унинг асосий тамойилларини таҳлил қилиш ҳамда амалдаги депозитлар динамикаси асосида илмий хулосалар ишлаб чиқиш вазифалари белгиланди.

Адабиётлар шарҳи.

Банк депозит базасини кенгайтиришда депозит сиёсатининг аҳамиятини таҳлил қилишимиздан олдин, депозит сиёсатининг иқтисодий моҳиятини ўрганиш мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз. “Депозит” лотинча “depositum” сўзидан олинган бўлиб, “сақлашга қўйилган буюм”, “омонат” деган маъноларни билдиради. “Сиёсат” сўзи грекча “politike” сўзидан олинган бўлиб, “бошқариш”, “раҳбарлик қилиш” деган маъноларни англатади (Мадвалиев, 2006-2008).

Шунингдек, “депозит” сўзи 1) банклардаги нақд пул депозитлари (банк омонатлари); 2) кредит ташкилотига сақлаш учун берилган қимматли қоғозлар ва пул маблағлари; 3) талаб қилинадиган тўловни таъминлаш учун тўлов сифатида амалга ошириладиган турли ташкилотларга маблағлар киритиш; 4) мижознинг банкка бўлган талабларини ўз ичига олган ёки тасдиқловчи ёзувлар каби маъноларни ҳам англатади (Райзберг ва бошқалар, 2007). Демак, “депозит сиёсати”нинг иқтисодий моҳиятидан кўриниб турибдики, у

“сақлашга қўйилган буюм” ёки “омонат”ни “бошқариш” кераклигини англатади.

Тижорат банкларининг депозит сиёсати соҳасидаги илмий адабиётларни ўрганиш асносида бир қатор олимларнинг бу тушунча тўғрисидаги фикрларини кўриб чиқиш ўринли деб ҳисоблаймиз. Белотелованинг (2016) фикрича, банкнинг депозит сиёсати тижорат банкининг вақтинча бўш пул маблағларини турли хил омонатлардаги банк ҳисобварақларига жалб қилиш соҳасидаги муҳим таркибий қисм бўлиб, бу асосан банкнинг стратегик режасига асосланган таҳлиллар асосида банкнинг ресурс базасининг таркиби, ҳозирги ҳолати ва динамикаси ҳамда уни ривожлантиришнинг асосий истиқболларидан келиб чиқиши керак. Ҳақиқатдан ҳам, банк томонидан ишлаб чиқилган стратегияга асосланиб, банк актив ва пассив операцияларининг мутаносиблигидан келиб чиққан ҳолда ресурсларни жалб қилиш банкнинг келгусида барқарор ресурс манбаига эга бўлишига олиб келади. Ўз навбатида, бу банкнинг мижозлари олдидаги мажбуриятларини ўз вақтида ва тўлақонли бажаришига замин яратади. Бу ҳолат эса банк томонидан мукаммал ишлаб чиқилган депозит сиёсати орқали амалга оширилади.

Шунингдек, иқтисодчи олимлар Лаврушин (2011) ва Пановаларнинг (1997) фикрича, банк депозит сиёсати бу – мижозларнинг омонатларини жалб қилиш ҳамда уларни самарали бошқариш бўйича банк сиёсатидир. Белоглазованинг (2014) фикрича эса, банк депозит сиёсати – тижорат банкларида мавжуд бўлган турли хилдаги омонатларга вақтинча бўш пул маблағларини жалб қилиш жараёнидир.

Таъкидлаш лозимки, банк томонидан пухта ўйланган ва мукаммал тарзда ишлаб чиқилган депозит сиёсати тижорат банкларининг барқарор русурс маблағларини ошиши ҳамда бу ўз навбатида, банк депозит базасининг кенгайиши учун асосий дастак бўлиб ҳисобланади. Ўзбекистонлик иқтисодчи олим А.Омонов (2018) фикрича, “депозит сиёсати” сўзи алоҳида олиб қараладиган бўлса, ушбу сўз тижорат банкларининг муддатли молиявий ресурсларини бошқариш маъносини англатмайди. “Депозит сиёсати” сўзини, албатта “тижорат банклари депозит сиёсати” тарзида қўллансагина, у тижорат банкларида жалб қилинган маблағлар доирасида тегишли чора-тадбирлар маъносини англатади. Дарҳақиқат, депозит сиёсати умумий банк сиёсатининг асосий бир қисми ҳисобланиб, кредит ташкилотларининг депозит фаолиятини амалга ошириш стратегияси ва тактикасини белгилаб беради.

Бизнинг фикримизча, тижорат банклари депозит сиёсати банк томонидан жисмоний ва юридик шахсларнинг бўш пул маблағларини жалб қилиш ҳамда кейинчалик мазкур маблағларни ўзаро манфаатли асосда жойлаштиришга хизмат қилади.

Тадқиқот методологияси.

Тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, қиёсий таҳлил, динамик таҳлил, индукция ва дедукция, гуруҳлаш, статистик кузатув ҳамда график тасвирлаш усулларидан фойдаланилди. Ахборот манбаи сифатида Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий статистик маълумотлари ҳамда тижорат банклари ҳисоботлари асос қилиб олинди.

Шунингдек, банк депозит сиёсати шаклланишининг илмий-назарий асосларини тадқиқ этишда адабиётларнинг тизимли таҳлили амалга оширилди ҳамда мазкур йўналишда хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан бажарилган илмий тадқиқот ишларининг илмий хулосалари ўрганилди ва мустақил ёндашувлар шакллантирилди.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.

Тижорат банкларининг жорий ҳолатини ўрганиш ва депозит операциялари динамикасини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, депозит сиёсатини шакллантириш банк ресурс базасини мустаҳкамлашнинг ҳал қилувчи омилларидан бири ҳисобланади. Депозит операцияларини самарали ташкил этиш банк томонидан пухта ишлаб чиқилган депозит сиёсатига бевосита боғлиқ бўлиб, у банкнинг молиявий барқарорлиги ва ликвидлилигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Тижорат банкларида депозит сиёсатини шакллантириш бир қатор ўзаро боғлиқ ташкилий-иқтисодий жараёнларни ўз ичига қамраб олади. Жумладан, банк ходимларининг лавозимларига тўғри тайинланиши ва ваколатларни аниқ тақсимлаш депозит операциялари самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Шу билан бирга, депозит сиёсатининг мақсад ва вазифаларини аниқ белгилаш, депозит операциялари жараёнида назорат ва бошқарув тизимини йўлга қўйиш ҳамда маблағларни жалб қилиш учун зарур бўлган ички тартиб-қоидаларни ишлаб чиқиш банк депозит фаолиятининг самарали амалга оширилишини таъминлайди.

Банк депозит сиёсатининг шаклланишидаги мазкур жараёнлар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, уларнинг ҳар бири мукаммал депозит сиёсатини ишлаб чиқиш ҳамда депозит операцияларини тизимли ва барқарор ташкил этиш учун зарур ҳисобланади. Шу муносабат билан, тижорат банклари депозит сиёсатининг асосий йўналишлари сифатида депозит хавфларини камайтириш мақсадида мақсадли бозор сегментларини аниқлаш, депозитлар бозорини доимий равишда таҳлил қилиб бориш, банк ликвидлигини таъминлаш ва унинг барқарорлигини ошириш, депозит ва кредит портфелларини ўзаро уйғун ҳолда бошқариш ҳамда маблағларни жалб қилиш жараёнида харажатларни оптималлаштириш масалалари алоҳида аҳамият касб этади.

Шунингдек, ҳар бир тижорат банки учун самарали депозит сиёсатини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга жорий этишнинг асосий мақсади барча мавжуд молиявий хатарларни ҳисобга олган ҳолда банк харажатларини минималлаштириш, зарур ликвидлилик даражасини сақлаб қолиш ва барқарор ресурс базасини шакллантиришдан иборатдир. Бундай ёндашув банкларнинг депозит фаолиятини фақат маблағларни жалб қилиш воситаси сифатида эмас, балки молиявий барқарорликни таъминлаш ва рискларни бошқаришнинг муҳим инструменти сифатида қараш зарурлигини илмий жиҳатдан асослаб беради.

Шу нуқтаи назардан, банк депозит сиёсатини шакллантиришни умумий ва муайян тамойилларга асосланган ҳолда ўрганишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз (***1-расм***).

1-расм. Банк депозит сиёсатини шакллантириш тамойиллари[14]

Банк депозит сиёсатининг умумий тамойиллари деганда, макроиқтисодий даражада олиб бориладиган марказий банкнинг пул-кредит сиёсати учун ҳам, ҳар бир тижорат банки сиёсати учун ҳам умумий бўлган тушунчалар тушунилади.

Булар интеграллашган ёндашув, илмий асосланганлик, мақбуллик ва самарадорлик, шунингдек, банк депозит сиёсатининг барча элементлари бирлиги тамойилларини ўз

[14] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

ичига олади. Интеграциялашган ёндашув банк депозит сиёсатининг назарий асосларини ва устувор йўналишларини ривожлантиришда, шунингдек, уни ривожлантиришнинг энг самарали тактик усулларини аниқлашда намоён бўлади.

Банк депозит сиёсатининг ўзига хос бўлган, муайян тамойиллари банк харажатларининг мақбул даражасини таъминлаш, депозит операциялари хавфсизлиги ва ишончлилик тамойилларини ўз ичига олади. Юқоридаги тамойилларга мувофиқ банк депозит операцияларини ташкил этишда ҳам стратегик, ҳам тактик йўналишларни шакллантиришга имкон беради ва шу билан депозит сиёсатининг самарадорлиги ва оптималлаштирилишини таъминлайди.

Банк депозит сиёсатининг асосий вазифаси сифатида банкка депозитлар жалб қилиш ва уларни самарали бошқариш масаласи туради. Шу нуқтаи назардан, мамлакатимиз тижорат банклари томонидан жалб қилинган депозит маблағларининг жорий ҳолати ва динамикасини таҳлил қилиш ҳамда тегишли хулоса чиқариш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

1-жадвал

Республикамиз тижорат банкларининг депозит маблағлари тўғрисида маълумот *(млрд. сўм)* [15]

Кўрсаткичлар	Жами депозитлар	Юридик шахслар		Жисмоний шахслар	
		Жами	Фоизда	Жами	Фоизда
01.01.2020	91009	66056	72,58	24953	27,42
01.01.2021	114747	82935	72,28	31812	27,72
01.01.2022	156190	113813	72,87	42377	27,13
01.01.2023	216738	147989	68,28	68749	31,72
01.01.2024	241687	148894	61,61	92793	38,39
01.01.2025	308692	178880	57,95	129812	42,05

1-жадвал Жадвал маълумотларига кўра, 2020–2025 йиллар давомида тижорат банклари депозит базасида барқарор ўсиш ҳамда таркибий сифат ўзгариши кузатилган. Хусусан, жами депозитлар ҳажми 2020 йилдаги 91 009 млрд сўмдан 2025 йилга келиб 308 692 млрд сўмга етган бўлиб, мазкур кўрсаткич 3,4 бараварга ошган. Бу ҳолат банк тизимига бўлган ишончнинг мустаҳкамланиб бориши, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий фаоллиги ортиши билан изоҳланади.

Таҳлил шуни кўрсатадики, юридик шахслар депозитлари бутун давр мобайнида жами депозитларнинг асосий қисмини ташкил этган бўлса-да, уларнинг нисбий улуши пасайиш тенденциясига эга. Жумладан, 2020 йилда юридик шахслар депозитлари жами депозитларнинг 72,58 фоизини ташкил этган бўлса, 2025 йилга келиб ушбу кўрсаткич 57,95 фоизгача камайган. Бироқ, абсолют ҳажм нуқтаи назаридан юридик шахслар депозитлари 66 056 млрд сўмдан 178 880 млрд сўмгача ўсган. Бу ҳолат корпоратив сектор маблағлари банк ресурс базасида муҳим ўрин сақлаб қолаётганини, аммо уларнинг нисбий роли пасайиб бораётганини кўрсатади.

Айни пайтда, жисмоний шахслар депозитлари бўйича тескари тенденция кузатилади. Таҳлил қилинаётган даврда аҳоли омонатлари ҳажми 24 953 млрд сўмдан 129 812 млрд сўмгача ошиб, қарийб 5,2 баравар ўсишни намоён этган. Шу билан бирга, жисмоний шахслар депозитларининг жами депозитлардаги улуши 27,42 фоиздан 42,05 фоизгача кўтарилган. Мазкур динамика аҳолининг банк тизимига бўлган ишончи сезиларли даражада ошганини ҳамда омонатларни жалб этиш сиёсати самарадорлигини тасдиқлайди.

Шунингдек, 2023 йилдан бошлаб депозитлар таркибида сифат жиҳатдан бурилиш юз бергани кузатилади. Ушбу даврдан жисмоний шахслар депозитлари улуши жадал ўсиш

[15] Манба: www.cbu.uz.

босқичига ўтиб, юридик шахслар депозитлари улушининг камайишини қоплай бошлаган. Бу ҳолат банк ресурс базасининг диверсификация даражаси ошганини, шунингдек, ликвидлик ва барқарорлик нуқтаи назаридан янада мувозанатли тузилма шаклланаётганини кўрсатади.

Шу билан бир қаторда, банклар томонидан вақтинча бўш пул маблағларни кенг кўламда жалб қилиш ҳамда улардан оқилона фойдаланиш банкларнинг муҳим вазифаси ҳисобланади. Бу эса, ўз навбатида, банкларнинг барқарор ресурс маблағларига бўлган эҳтиёжини қондириш билан бир қаторда, ушбу маблағларни шакллантириш, самарали бошқариш ва уларнинг сифатини оширишни тақозо этади. Бугунги кунда аҳолининг банк тизимига бўлган ишончини оширувчи, мустаҳкамловчи, биринчи навбатда, аҳоли омонатлари хавфсизлигини ва дахлсизлигини таъминловчи омиллардан фойдаланган ҳолда жозибадор омонат турларини жорий этиш ва иш юритишда замонавий ахборот-технология имкониятларидан фойдаланиш давр талаби ҳисобланади. Мазкур динамика банклар томонидан олиб борилаётган депозит сиёсатининг стратегик йўналишлари тўғри танланганини ва унинг ресурс базасига ижобий таъсир кўрсатаётганини кўрсатади.

2-жадвал

Аҳоли омонатлари динамикаси *(млрд. сўм)*[16]

Кўрсаткичлар	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Жалб қилинган депозитлар	91 009	114 747	156 190	216 738	241 687	308 692
Миллий валютада	51 040	65 318	95 578	131 795	169 516	231 235
Чет эл валютасида	39 969	49 429	60 612	84 943	72 171	77 458

2-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, Тақдим этилган жадвал маълумотлари 2020–2025 йиллар давомида тижорат банклари депозит базасида барқарор ўсиш ҳамда валютавий таркибда муҳим сифат ўзгаришлари юз берганини кўрсатади.

Жадвал таҳлили миллий валютадаги депозитлар ўсиши депозитлар умумий динамикасида ҳал қилувчи аҳамият касб этганини кўрсатади. Жумладан, миллий валютадаги омонатлар ҳажми 2020 йилдаги 51 040 млрд сўмдан 2025 йилда 231 235 млрд сўмгача ўсиб, қарийб 4,5 бараварга ошган. Бу ҳолат аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектларнинг миллий валютага бўлган ишончи мустаҳкамланиб бораётганини, шунингдек, макроиқтисодий барқарорлик ва пул-кредит сиёсати самарадорлигини акс эттиради.

Чет эл валютасидаги депозитлар ҳам таҳлил қилинаётган даврда ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бироқ, уларнинг ўсиш суръати миллий валютадаги депозитларга нисбатан анча паст бўлган. Агар 2020 йилда чет эл валютасидаги депозитлар ҳажми 39 969 млрд сўмни ташкил этган бўлса, 2025 йилга келиб 77 458 млрд сўмга етган, яъни қарийб 1,9 баравар ўсган. Шу билан бирга, 2024 йилда ушбу кўрсаткичнинг қисқариши кузатилиб, бу валюта бозоридаги ўзгаришлар ҳамда аҳоли томонидан миллий валютада сақлаш афзаллигининг ошиши билан изоҳланади.

Умуман олганда, депозитлар валютавий таркибида миллий валюта улушининг сезиларли даражада ортиши банк ресурс базасининг валюта рискларига нисбатан барқарорлиги ошганини, актив-пассивлар мутаносиблигини таъминлаш имкониятлари кенгайганини кўрсатади. Бу эса банкларнинг кредитлаш фаолиятини узоқ муддатли ва прогноз қилинадиган ресурслар ҳисобидан амалга ошириш, шунингдек, молиявий барқарорликни мустаҳкамлаш учун муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга.

Бу ҳолат депозит сиёсатини миллий валютага йўналтириш орқали валюта рискларини камайтириш мумкинлигини илмий жиҳатдан асослаб беради.

2020–2025 йиллар давомида тижорат банкларида аҳоли омонатларининг ҳажми изчил ва барқарор ўсиш тенденциясига эга бўлган. Мазкур ижобий динамикани бир қатор

[16] Манба: www.cbu.uz

ўзаро боғлиқ ижтимоий-иқтисодий ва институционал омиллар билан изоҳлаш мумкин:

Аввало, аҳоли омонатларининг ўсишига республикамиз аҳолисининг молиявий саводхонлик даражаси ошиб бораётгани сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Иқтисодиётнинг барқарор ва мутаносиб ривожланиши, аҳоли даромадлари ҳамда турмуш даражасининг яхшиланиши фуқуроларда иқтисодий жараёнларга нисбатан онгли муносабатни шакллантирмоқда. Натижада аҳолининг молиявий қарорлар қабул қилишдаги масъулияти ортиб, ортиқча бўш пул маблағларини пассив шаклда сақлаш ўрнига, уларни банк омонатларига йўналтириш тенденцияси кучаймоқда. Бу эса банк тизими ресурс базасининг кенгайишига хизмат қилмоқда.

Иккинчидан, аҳоли омонатларининг ўсишига банк тизимига бўлган ишончнинг мустаҳкамланиб бориши муҳим омил сифатида намоён бўлмоқда. Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли банк-молия ислоҳотлари, тижорат банклари фаолиятида очиқлик ва шаффофликнинг таъминланиши, шунингдек, мажбуриятларни ўз вақтида ва тўлақонли бажариш амалиёти аҳолининг банк тизимига нисбатан ишончини оширди. Бу ҳолат жисмоний шахслар депозитлари улушининг йиллар давомида ортиб боришида яққол акс этмоқда.

Учинчидан, аҳоли омонатларининг ўсишида тижорат банклари томонидан ишлаб чиқилган ва амалга жорий этилган депозит сиёсати алоҳида аҳамият касб этади. Банклар депозит сиёсатини шакллантиришда депозит бозорининг ҳолати, ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий хусусиятлари, рақобат муҳити, филиаллар тармоғининг кенглиги ва хизматлар сифати каби омилларни инобатга олмоқда. Бу эса аҳолининг турли қатламлари учун қулай ва мос омонат маҳсулотларини таклиф этиш имконини яратмоқда.

Тўртинчидан, жозибадор ва мавсумий омонат турларининг кенг кўламда жорий этилиши аҳоли омонатларининг ўсиш суръатини жадаллаштирувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Аҳоли даромадларининг ўсиши, банк депозитлари бўйича давлат томонидан берилган кафолатлар ва имтиёзлар, шунингдек, тижорат банклари томонидан аҳоли эҳтиёжларига мос янги омонат маҳсулотларининг ишлаб чиқилиши омонатларни жалб қилишда рақобатбардошликни оширмоқда.

Хулоса ва таклифлар.

Тижорат банклари депозит базасини кенгайтиришда депозит сиёсатининг ўрни ва аҳамияти жуда юқори бўлиб, у банкларнинг молиявий барқарорлиги, ликвидлиги ҳамда актив операцияларни самарали молиялаштириш имкониятларини белгилаб берувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Хусусан, 2020–2025 йиллар давомида депозитлар ҳажмининг барқарор ўсиши банк тизимида амалга оширилган ислоҳотлар, аҳолининг банк тизимига бўлган ишончи ошиши ҳамда тижорат банклари томонидан юритилаётган депозит сиёсатининг самарадорлиги билан изоҳланади.

Таҳлил натижалари депозитлар таркибида жисмоний шахслар омонатлари улушининг ошиб бораётганини кўрсатди. Бу эса банк ресурс базасининг сифат жиҳатдан яхшиланишига, яъни нисбатан барқарор, узоқ муддатли ва кам хатарли манбалар ҳиссасининг ортишига хизмат қилмоқда. Шу билан бирга, депозитлар валютавий таркибида миллий валюта улушининг ўсиши банкларнинг валюта рискларини камайтириш, актив ва пассивлар ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш ҳамда молиявий барқарорликни мустаҳкамлаш имкониятларини кенгайтирмоқда.

Шу нуқтаи назардан, тижорат банклари депозит сиёсатини такомиллаштириш жараёнида унинг стратегик ва тактик жиҳатларини уйғунлаштириш, бозор конъюнктураси ва макроиқтисодий омилларни инобатга олган ҳолда комплекс ёндашувни таъминлаш долзарб ҳисобланади. Банклар томонидан ишлаб чиқилаётган депозит сиёсати нафақат маблағларни жалб қилишга, балки жалб қилинган ресурсларнинг барқарорлиги ва самарадорлигини таъминлашга ҳам қаратилган бўлиши лозим.

Юқоридаги хулосалардан келиб чиқиб, тижорат банклари депозит базасини янада

кенгайтириш ва депозит сиёсатининг самарадорлигини ошириш мақсадида қуйидаги **илмий-амалий таклифлар** ишлаб чиқилди:

Биринчидан, депозит сиёсатини ишлаб чиқишда депозитлар баҳосига таъсир этувчи макроиқтисодий омиллар, пул-кредит сиёсати инструментлари ҳамда бозордаги рақобат муҳитини ҳисобга олган ҳолда энг мақбул фоиз ставкаларини белгилаш мақсадга мувофиқ. Бу банк харажатларини оптималлаштириш билан бирга, депозитларни жалб қилиш самарадорлигини оширади.

Иккинчидан, депозит сиёсатини доимий равишда такомиллаштириб бориш мақсадида тижорат банкларида маркетинг тадқиқотларини тизимли равишда олиб бориш, аҳолининг омонат маҳсулотларига бўлган талаб ва афзалликларини чуқур ўрганиш зарур. Бу янги, жозибадор ва рақобатбардош омонат турларини ишлаб чиқиш имконини беради.

Учинчидан, депозитлар бозорини мунтазам таҳлил қилиш асосида депозитлар таркибини диверсификация қилиш, жисмоний шахслар омонатлари улушини оширишга қаратилган чора-тадбирларни кучайтириш лозим. Бу банк ресурс базасининг барқарорлигини ошириш ва ликвидлик хатарларини камайтиришга хизмат қилади.

Тўртинчидан, депозит операцияларини амалга ошириш жараёнида рақамли банк хизматларини кенг жорий этиш, масофавий омонат очиш ва бошқариш имкониятларини яратиш орқали мижозлар учун қулай шарт-шароитларни таъминлаш мақсадга мувофиқ. Бу аҳолининг банк хизматларидан фойдаланиш фаоллигини оширади.

Бешинчидан, банк ходимларининг депозит операциялари бўйича касбий малакасини ошириш, уларни моддий ва маънавий рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш орқали мижозлар билан ишлаш самарадорлигини кучайтириш зарур.

Шунингдек, тижорат банклари депозит сиёсатини амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан белгиланган иқтисодий меъёрлар, мажбурий захиралар нормалари, қайта молиялаш ставкаси, солиқ қонунчилигидаги ўзгаришлар ҳамда молиявий бозорлардаги умумий тенденцияларни инобатга олишлари лозим.

Умуман олганда, мазкур таклифларнинг амалиётга жорий этилиши тижорат банклари депозит базасининг кенгайишига, ресурслар сифатининг яхшиланишига ҳамда банк тизимининг молиявий барқарорлигини янада мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли “2020–2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикаси банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – lex.uz.

2. Bollard A. Corporate governance in the financial sector // *BIS Review*. – 2003. – No. 18. – P. 2.

3. Белотелова Н.П. Деньги. Кредит. Банки: учебник. – М.: Дашков и К, 2016. – 482 с.

4. Белоглазова Г.Н. Банковское дело: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 591 с.

5. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент: учебник. – М.: Кнорус, 2011. – 560 с.

6. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ДИС ИПФК, 1997. – 464 с.

7. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 495 с.

8. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: 2006–2008. URL: https://ziyouz.uz

9. Омонов А.А., Рахимов С. Тижорат банклари депозит сиёсатининг шаклланиш ва ривожланиш масалалари // *“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали*. – 2018. – № 6. URL: www.interfinance.uz

10. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий статистик маълумотлари. – 2025. URL: www.cbu.uz

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

BANKLARDA XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Shamiyev Shohruh Shakar o‘g‘li

Biznesni rivojlantirish banki ATB,
Muammoli aktivlar bilan ishlash va undiruv departamenti, menejer
Email: 377shohruh@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9156-8379

Annotasiya: *Maqolada banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini (IFRS) joriy etishning dolzarbligi, istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda IFRSning bank hisobotlari sifatiga, shaffoflik darajasiga va investitsion muhitga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida milliy bank tizimida IFRSni joriy etishning asosiy muammolari va imkoniyatlari aniqlanadi. Maqola banklar moliyaviy barqarorligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va milliy bank tizimini global moliya bozorlariga integratsiya qilish zaruriyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston va MDH mamlakatlari banklari uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Tayanch so‘zlar: *Xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS), bank hisobotlari, moliyaviy shaffoflik, investitsion muhit, moliyaviy barqarorlik, mdb mamlakatlari banklari, global moliya bozori, investorlar ishonchi.*

PROSPECTS FOR DEVELOPING INTERNATIONAL ACCOUNTING STANDARDS IN BANKS

Shamiev Shokhrukh Shakar ugli

Business development bank JSCB, Problem assets and debt recovery department, manager
Email: 377shohruh@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9156-8379

Annotasiya: *This article is devoted to the study of the relevance, prospects, and economic efficiency of implementing International Accounting Standards (IFRS) in banks. The study analyzes the impact of IFRS on the quality of bank reporting, the level of transparency, and the investment climate. Also, based on the research of international and domestic scientists, the main problems and possibilities of implementing IFRS in the national banking system will be determined. The article shows the need to increase the financial stability of banks, strengthen investor confidence, and integrate the national banking system into global financial markets. The research results will serve to develop strategic recommendations for banks of Uzbekistan and the CIS countries.*

Key Words: *International Accounting Standards (IFRS), bank reporting, financial transparency, investment climate, financial stability, banks of the CIS countries, global financial market, investor confidence.*

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСТВА В БАНКАХ

Шамиев Шохрух Шакар угли

АКБ Банк развития бизнеса, Департамент по работе с

проблемными активами и взыскание, менеджер
Email: 377shohruh@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9156-8379

Аннотация: *В статье Данная статья посвящена изучению вопросов актуальности, перспектив и экономической эффективности внедрения международных стандартов бухгалтерского учета (МСФО) в банках. В исследовании анализируется влияние МСФО на качество банковской отчетности, уровень прозрачности и инвестиционный климат. Также на основе исследований международных и отечественных ученых определяются основные проблемы и возможности внедрения МСФО в национальной банковской системе. Статья демонстрирует необходимость повышения финансовой устойчивости банков, укрепления доверия инвесторов и интеграции национальной банковской системы в глобальные финансовые рынки. Результаты исследования служат для разработки стратегических рекомендаций для банков Узбекистана и стран СНГ.*

Ключевые слова: *Международные стандарты бухгалтерского учета (МСФО), банковская отчетность, финансовая прозрачность, инвестиционный климат, финансовая устойчивость, банки стран СНГ, глобальный финансовый рынок, доверие инвесторов.*

Kirish.

Zamonaviy global moliya tizimi bir-biriga chambarchas bog‘langan va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xalqaro bank institutlarining murakkab tarmog‘ini o‘z ichiga oladi. Bunday sharoitda moliyaviy hisobotlarning bir xilligi, tushunarli bo‘lishi va taqqoslanarli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) banklar faoliyatini aks ettirishning umumiy tili sifatida global miqyosda qabul qilingan. Biroq, bank sektorining xususiyatlari, moliyaviy instrumentlarning murakkablashuvi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va yangi xavflarning paydo bo‘lishi xalqaro buxgalteriya standartlarini doimiy ravishda yangilash va takomillashtirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimi ham xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv, xorijiy investorlarni jalb qilish va banklarning xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholanishi nuqtai nazaridan IFRS standartlariga to‘liq o‘tish va ularni rivojlantirish zaruriyatiga duch kelmoqda. Shu sababli, banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirish istiqbollari mavzusi nazariy va amaliy jihatdan o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Moliyaviy globallashuv jarayonlari xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda bank kapitali milliy chegaralardan osongina o‘tib, turli mamlakatlarda investitsiya qilinmoqda, banklar xalqaro birjalarda ro‘yxatdan o‘tmoqda va transkontinental korporativ tuzilmalar yaratmoqda. Bunday sharoitda investorlar, kreditorlar, tartibga soluvchi organlar va boshqa manfaatdor tomonlar banklar to‘g‘risida bir xil standartlarda tayyorlangan, taqqoslanarli va ishonchli moliyaviy hisobotlarga ehtiyoj sezmoqdalar. IFRS standartlari xalqaro darajada moliyaviy axborotni taqdim etishning umumiy platformasini yaratadi, bu esa kapital harakatining samaradorligini oshiradi, investitsiya qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradi va xalqaro moliyaviy barqarorlikka hissa qo‘shadi. O‘zbekiston banklari xalqaro reyting olish, xorijiy investorlar bilan ishlash va mintaqaviy moliya markaziga aylanish strategiyasini amalga oshirish uchun IFRS bo‘yicha hisobotlarni tayyorlashga o‘tayotganligi bu jarayonning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Bank sektorida moliyaviy instrumentlarning murakkablashuvi xalqaro buxgalteriya standartlarini doimiy rivojlantirishni talab qilmoqda. Zamonaviy banklar oddiy kredit va depozit operatsiyalaridan tashqari, derivativlar, gibrid moliyaviy instrumentlar, tuzilmali mahsulotlar, qimmatli qog‘ozlarni sekuritizatsiya qilish va boshqa murakkab moliyaviy texnologiyalar bilan shug‘ullanmoqdalar. Ushbu instrumentlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi, adolatli qiymatda baholanishi, hedging operatsiyalarining hisobga olinishi va xavflarning oshkor etilishi

maxsus yondashuvlarni talab qiladi. IFRS 9 (Moliyaviy instrumentlar) standarti kreditlar bo‘yicha kutilayotgan zararlarni hisobga olishning yangi modelini joriy etdi, bu esa banklarda kredit xavflarini boshqarish tizimini tubdan o‘zgartirdi. Moliyaviy texnologiyalarning (fintech) rivojlanishi, raqamli aktivlar, kriptovalyutalar va blokчeyn texnologiyalarining paydo bo‘lishi esa standartlarni yanada takomillashtirish uchun yangi qatlamlar ochmoqda.

Makroiqtisodiy beqarorlik va moliyaviy inqirozlar xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirishning muhim omilidir. 2008 yilgi global moliyaviy inqiroz buxgalteriya standartlarining bank sektoridagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va aks ettirishda etarli emasligi masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Inqirozdan oldin ko‘plab banklar o‘zlarining moliyaviy holatini real holat bilan solishtirganda haddan tashqari optimistik ko‘rsatgan edilar, bu esa tartibga soluvchi organlar va investorlarni chalg‘itgan edi. Natijada, IASB (Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi) kreditlar bo‘yicha zararlarni aniqlashning proaktiv modeli – kutilayotgan kredit zararlari modelini joriy etdi.

Raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalari banklarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Katta ma’lumotlar (big data), mashinali o‘rganish algoritmlari, avtomatlashtirilgan hisob tizimlar va blokчeyn texnologiyalari hisobotning sifatini oshirish, xatoliklarni kamaytirish va real vaqt rejimida moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq, bu texnologiyalarning joriy etilishi yangi buxgalteriya muammolarini ham keltirib chiqarmoqda: raqamli aktivlarni qanday tasniflash, sun’iy intellekt tomonidan bajarilgan tranzaksiyalarni qanday hujjatlashtirish, kriptovalyutalarni qaysi standart bo‘yicha baholash va boshqa savollar paydo bo‘lmoqda. IFRS standartlari ushbu raqamli yangiliklarga javob beradigan yo‘riqnomalar bilan boyitilishi zarur. O‘zbekiston banklari ham raqamlashtirish yo‘lidan bormoqda va bu jarayon ularning buxgalteriya standartlarini yangilash ehtiyojini kuchaytirmoqda.

Tartibga solish talablari va prudensial nazoratning kuchayishi xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bazel III va Bazel IV standartlari, makroprudensial nazorat choralari, likvidlik va kapital etarliligiga qo‘yiladigan talablar bank hisobotining shaffofligini va to‘liqligini ta’minlashni talab qiladi. Tartibga soluvchi organlar banklar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish, stress-testlarni o‘tkazish va tizimli xavflarni baholash uchun sifatli moliyaviy ma’lumotlarga muhtojdirlar. IFRS va prudensial tartibga solish talablari o‘rtasida ba’zan tafovutlar mavjud bo‘lib, bu ikki tizimni uyg‘unlashtirish zarurati tug‘ilmoqda. Markaziy banklarning hisobot talablari, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tavsiyanomalar va milliy bank qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirishga ehtiyoj banklar uchun standartlarni rivojlantirishni dolzarb qiladi.

Bank sektorida barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat (ESG) mezonlari kuchli e’tibor qozonmoqda va bu xalqaro buxgalteriya standartlarining rivojlanishiga yangi yo‘nalish bermoqda. Investorlar va tartibga soluvchi organlar banklar faoliyatining atrof-muhitga ta’siri, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilish haqida ma’lumot talab qilmoqdalar. Klimatik xavflar, "yashil" moliyalashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa, gender tenglik va inson huquqlari kabi masalalar bank hisobotlarining ajralmas qismiga aylanmoqda. IFRS fondining Barqarorlik standartlari kengashini (ISSB) tashkil etishi va barqarorlik bo‘yicha hisobotlarni moliyaviy hisobotlar bilan integratsiyalash harakatlari kelajakda standartlarning rivojlanishi yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. O‘zbekiston banklari ham "yashil" moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqmoqda va bu yo‘nalish bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash metodologiyasiga ehtiyoj sezilmoqda.

Banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirish istiqbollari mavzusi ko‘p qirrali va dolzarb mavzudir. Global moliya tizimining integratsiyalashuvi, moliyaviy instrumentlarning murakkablashuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, tartibga solish talablarining kuchayishi va barqarorlik mezonlarining ahamiyati ortib borishi standartlarni doimiy yangilash va takomillashtirish zaruriyatini tug‘dirmoqda. O‘zbekiston bank tizimi uchun IFRS standartlarini to‘liq joriy etish va xalqaro rivojlanish tendentsiyalariga moslashish strategik

ustuvorlikdir. Bu nafaqat xalqaro investorlarni jalb qilish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash, balki mahalliy banklarning raqobatbardoshligini oshirish, risk-menejment tizimlarini takomillashtirish va mintaqaviy moliya markaziga aylanish maqsadlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Kelajakda standartlarning rivojlanishi texnologik innovatsiyalar, barqarorlik talablari va o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashish yo‘nalishida davom etadi va banklar uchun bu doimiy o‘rganish, moslashuv va professional rivojlanish jarayonini talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Ulardan, R.S. Arziboeva o‘z tadqiqotlarida banklarda IFRS joriy etilishi moliyaviy hisobot sifatini va shaffoflikni oshiruvchi omil ekanini asoslaydi. U xalqaro standartlar hisobotlari ochiq va aniq mexanizmlar orqali tuzilsa, investorlar va moliya bozorining ishonchi mustahkamlanishini qayd etadi. Olim IFRSga o‘tishda kadrlar malakasi va texnologik infratuzilma muhimligini alohida ta’kidlaydi[1].

N. Khasanova tadqiqotlarida IFRSga mos moliyaviy hisobot banklarning shaffofligini oshiruvchi vosita ekanini asoslaydi. U regulyator siyosati, malakali kadrlar tayyorlash va IT infratuzilma orqali hisobotlar sifatini yaxshilash mumkinligini qayd etadi. Olim investorlar ishonchini oshirishda standartlarning roli muhim ekanini ta’kidlaydi[2].

F.B. Kilicheva, O.R. Bazarova, M.D. Irmukhamedova o‘z tadqiqotlarida milliy standartlardan IFRSga o‘tish banklar va korxonalarning investitsion jozibadorligini oshiruvchi omil ekanini asoslaydi. Ular IFRSning ochiq va aniq hisob-kitob mexanizmlari orqali investorlar bilan aloqalarni mustahkamlashini qayd etadi. Olimlar joriy etish strategiyasida amaliy tavsiyalarni alohida ta’kidlaydi[3].

J. Jovboriyev o‘z tadqiqotlarida banklarda IFRS transformatsiyasi shaffoflikni oshiruvchi va global integratsiyani kuchaytiruvchi omil ekanini asoslaydi. U hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali investorlar va moliya bozorining ishonchi mustahkamlanishini qayd etadi. Olim huquqiy asoslar va regulyator talablarini alohida ta’kidlaydi[4].

G. Quvvatov o‘z tadqiqotlarida IFRS joriy etilishi moliyaviy barqarorlikni oshiruvchi va hisobotlarning ishonchliligini ta’minlovchi omil ekanini asoslaydi. U standartlarning ochiq va aniq mexanizmlar orqali moliya bozorida ishonch yaratishini qayd etadi. Olim amaliy tavsiyalar va treninglar zaruriyatini alohida ta’kidlaydi[5].

J. Saidov o‘z tadqiqotlarida IFRS bank hisobotlarining sifatini va shaffofligini oshiruvchi omil ekanini asoslaydi. U standartlar amaliyoti orqali investorlar bilan munosabatlarning mustahkamlanishini qayd etadi. Olim malaka oshirish va yangi bilimlarni o‘rganish zaruratini alohida ta’kidlaydi[6].

V. Tawiah, B. Oyewo o‘z tadqiqotlarida banklarda IFRS joriy etilishi xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi omil ekanini asoslaydi. U shaffof hisobotlar ochiq mexanizm orqali tuzilsa, investorlar ishonchi mustahkamlanishini qayd etadi. Olim banklarni xalqaro bozorlarga integratsiya qilish imkoniyatini alohida ta’kidlaydi[7].

S. Sanjar o‘z tadqiqotlarida CIS mamlakatlarida IFRSga o‘tish FDI oqimini oshiruvchi omil ekanini asoslaydi. U standartlar orqali moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va investitsion muhitning yaxshilanishini qayd etadi. Olim risklarni kamaytirish va bozor ishonchini oshirish zaruratini alohida ta’kidlaydi[8].

E. Shodiyev o‘z tadqiqotlarida IFRS joriy etish imkoniyatlari va muammolarini tahlil qiladi. U standartlar ochiq va shaffof mexanizmlar orqali tatbiq etilsa, banklarning investorlar ishonchini mustahkamlashini qayd etadi. Olim murakkabliklarni va uzoq muddatdagi foydalarni alohida ta’kidlaydi[9].

T.D. Nguyen o‘z tadqiqotlarida IFRS adoption faktorlari va muvaffaqiyatli tatbiq etish strategiyalarini tahlil qiladi. U shaffof va aniq mexanizmlar orqali bank hisobotlari sifatini

oshirish mumkinligini qayd etadi. Olim IT tizimi va kadrlar malakasini alohida ta’kidlaydi[10].

C.W.L. Ribeiro o‘z tadqiqotlarida IFRS 9 joriy etilishi kredit zararlanishini kamaytiruvchi omil ekanini asoslaydi. U standartlar ochiq va aniq hisobot mexanizmlari orqali risklarni boshqarishni kuchaytirishini qayd etadi. Olim banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish zaruratini alohida ta’kidlaydi[11].

T.A. Jasim o‘z tadqiqotlarida IFRS bank hisobotlari sifatini oshiruvchi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi omil ekanini asoslaydi. U standartlar orqali banklar hisobotlarining aniqligi va investorlar ishonchi mustahkamlanishini qayd etadi. Olim soliq va moliyaviy monitoring tizimidagi ijobiy ta’sirini alohida ta’kidlaydi[12].

Tadqiqot metodologiyasi.

Banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS) banklar moliyaviy hisobotining shaffofligi va ishonchliligini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Bugungi global iqtisodiyotda banklar faqat milliy standartlarga tayangan holda ishlash orqali chet ellik investorlar va xalqaro moliya institutlari ishonchini to‘liq qozona olmaydi. Shu sababli, banklarda IFRSni joriy etish nafaqat moliyaviy barqarorlikni oshirish, balki investitsion jozibadorlikni kuchaytirish nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

IFRSning joriy etilishi banklarda moliyaviy hisobotlarni bir xil standartlar asosida shakllantirish imkonini beradi. Bu esa banklararo solishtirishni osonlashtiradi va investorlar uchun aniq, ishonchli moliyaviy ma’lumotlar taqdim etadi. Shuningdek, standartlar risklarni boshqarish va qarzlarni monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Milliy moliyaviy standartlar ko‘pincha xalqaro talablar bilan mos kelmasligi sababli, banklarning moliyaviy hisobotlari chet ellik investorlar va kredit tashkilotlari uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, IFRS joriy etish banklarni global kapital bozorlariga integratsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. IFRSga o‘tish shaffoflikni oshirish bilan birga, moliyaviy hisobotlarda manipulyatsiyalar va noto‘g‘ri ma’lumotlar berilishining oldini oladi. Bu esa banklarning ichki va tashqi audit jarayonlarini yanada samarali qilishi, shu bilan birga moliyaviy risklarni kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro standartlar banklarning boshqaruv qarorlarini yanada aniq va asosli qabul qilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari uchun IFRS joriy etish jarayoni iqtisodiy rivojlanish va investitsion muhitni yaxshilash nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi. Grantlar, davlat va xorijiy investitsiyalar, kredit resurslari shaffof mexanizmlar orqali taqsimlanadigan bo‘lsa, banklar hisobotlarining sifatli bo‘lishi muhim shartga aylanadi. Xalqaro standartlar bank xodimlari va buxgalterlar malakasini oshirishga ham xizmat qiladi. IFRSga tayyorgarlik jarayonida bank xodimlari moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar darajasida yuritishni o‘rganadi, bu esa moliyaviy barqarorlik va shaffoflikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bank ichki nazorat tizimi va auditorlik jarayonlari ham yanada rivojlanadi.

Global moliya bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun banklar o‘z moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablar bilan moslashtirishi zarur. Bu esa banklar uchun nafaqat iqtisodiy, balki reputatsion foyda keltiradi. Investorlar va moliya institutlari ishonchi oshganda, banklar yanada keng ko‘lamli moliyaviy resurslarni jalb qila oladi va iqtisodiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini oshiradi. Banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini rivojlantirish va joriy etish nafaqat moliyaviy hisobotlarni sifatli qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni, investorlar ishonchini va global integratsiyani oshirish uchun muhim zarurat hisoblanadi. Ushbu jarayon milliy bank tizimini xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish va iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini

kuchaytirishga xizmat qiladi.

1-jadval.

IFRS standartlarining bank faoliyatiga ta’siri[5, 6, 12]

IFRS standarti	Qo‘llanish sohasi	Bank faoliyatiga asosiy ta’siri	Joriy etilish yili	Takomillashtirish istiqbollari
IFRS 9	Moliyaviy instrumentlar	Kutilayotgan kredit zararlari modeli, tasniflash va o‘lchash	2018	Klimatik xavflarni integratsiya qilish, AI baholash usullari
IFRS 15	Mijozlar bilan shartnomalardan tushumlar	Bank komissiyalari va to‘lovlarini tan olish	2018	Raqamli xizmatlar va fintech uchun yo‘riqnomalar
IFRS 16	Ijara shartnomalar	Bank binolari, ATM va IT infratuzilmasi ijarasi	2019	Raqamli infratuzilma ijarasi standartlari
IFRS 7	Moliyaviy instrumentlar: oshkor qilish	Xavflar va risk-menejment haqida ma’lumot	2007	ESG xavflarini oshkor qilish talablari
IAS 39	Moliyaviy instrumentlar: tan olish va o‘lchash	Hedging hisobi, investitsiya portfeli	2001 (IFRS 9 bilan almashtirildi)	To‘liq IFRS 9 ga o‘tish
IFRS 17	Sug‘urta shartnomalar	Bankning sug‘urta faoliyati	2023	Bancassurance mahsulotlari uchun yo‘riqnomalar
IAS 1	Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish	Hisobot shakllari va tuzilishi	1997	Raqamli hisobot formatlarini standartlashtirish
IFRS S1/S2	Barqarorlik bo‘yicha oshkor qilish	Klimatik va ESG oshkor qilishlar	2024	Bank sektoriga maxsus ko‘rsatkichlar

IFRS standartlarining bank faoliyatiga ta’sirini tahlil qilganda, moliyaviy instrumentlar va hisobotlar sohasida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirilayotgani ko‘rinib turibdi. IFRS 9 standarti 2018 yilda joriy etilgani bilan banklarda kredit xavflarini boshqarish tamoyillari tubdan o‘zgardi - kutilayotgan kredit zararlari (ECL) modeli avvalgi to‘langan zararlar modelini almashtirdi. Bu yangilik banklar uchun nafaqat buxgalteriya hisobi jihatidan, balki butun risk-menejment tizimini qayta qurish nuqtai nazaridan ham inqilobiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Kelajakda bu standartning klimatik xavflarni integratsiya qilish va sun’iy intellekt asosidagi baholash usullari bilan boyitilishi kutilmoqda, bu esa banklar moliyaviy stabilligi va barqarorligini ta’minlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi. IFRS 7 va IFRS 9 o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham muhim - birinchisi xavflarni oshkor qilish mexanizmlarini belgilasa, ikkinchisi bu xavflarni qanday o‘lchash va boshqarish kerakligini ko‘rsatadi.

Yangi standartlar, xususan 2023 yilda joriy etilgan IFRS 17 (sug‘urta shartnomalar) va 2024 yilda joriy etilgan IFRS S1/S2 (barqarorlik bo‘yicha oshkor qilish) banklarning moliyaviy hisobotlarini yanada keng va ko‘p qirrali qilishga qaratilgan. IFRS 17 banklarda bancassurance mahsulotlarining rivojlanishiga turtki beradi va sug‘urta faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirishning yagona mexanizmini joriy etadi. IFRS S1 va S2 standartlari esa zamonaviy global tendentsiyalarga - barqarorlik va ESG mezonlariga - javob beradi. Bu standartlar banklardan nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni, balki atrof-muhitga ta’sir, ijtimoiy mas’uliyat va korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilish haqida ham batafsil ma’lumot talab qiladi. Bunday yondashuv investorlar, tartibga soluvchi organlar va jamoatchilik uchun banklarning haqiqiy holatini to‘liqroq tushunish imkonini beradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Texnologik rivojlanish va raqamlashtirish jarayonlari IFRS standartlarining kelajakdagi

takomillashuviga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Jadvalda ko‘rsatilganidek, deyarli barcha standartlar uchun raqamli xizmatlar, fintech, blokчeyn texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamli infratuzilmaga oid yo‘riqnomalar ishlab chiqish rejalashtirilgan. Bu zamonaviy banklar faoliyatining tobora ko‘proq raqamli platformalarga o‘tib borayotganligidan dalolat beradi. IFRS 15 standarti mijozlar bilan shartnomalardan tushumlarni tan olish masalasida raqamli bank xizmatlari va fintech mahsulotlari uchun maxsus yo‘riqnomalar bilan boyitilishi kutilmoqda. IFRS 16 standarti ham raqamli infratuzilma ijarasi standartlarini qamrab olishi kerak. Bu esa standartlar ishlab chiquvchi organlarga - Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi (IASB)ga - doimiy ravishda texnologik innovatsiyalarni kuzatib borish va ularga tezkor javob berish majburiyatini yuklaydi. O‘zbekiston banklari uchun bu xalqaro standartlarga o‘tish jarayonida nafaqat hozirgi talablarga, balki kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlariga ham tayyor bo‘lishni anglatadi.

2-jadval.

IFRS joriy etilishining O‘zbekiston banklaridagi bosqichlari[5, 6, 12]

Bosqich	Davr	Asosiy tadbirlar	Mas’ul organlar	Kutilayotgan natijalar	Holati
Tayyorgarlik	2019-2020	Qonunchilik bazasi, ta’lim dasturlari, konsalting	O‘zR Markaziy banki, Moliya vazirligi	Normativ hujjatlar, kadrlar tayyorlash	Bajarilgan
Sinov joriy etish	2021-2022	Yirik banklarda pilot loyihalar	Tijorat banklari, audit kompaniyalar	Tajriba to‘plash, muammolarni aniqlash	Bajarilmoqda
Kengaytirish	2023-2024	O‘rta va kichik banklarda joriy etish	Barcha tijorat banklari	IFRS bo‘yicha parallel hisobotlar	Jarayonda
To‘liq o‘tish	2025-2026	Barcha banklar majburiy IFRS hisoboti	Markaziy bank nazorati ostida	To‘liq IFRS ga muvofiqlik	Rejalashtirilgan
Takomillashtirish	2027+	Xalqaro tajribani joriy etish, yangi standartlar	Barcha ishtirokchilar	Xalqaro andozlarga to‘liq integratsiya	Istiqbol

IFRS standartlarini O‘zbekiston bank tizimida joriy etish jarayoni 2019 yildan boshlab tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Tayyorgarlik bosqichida (2019-2020) qonunchilik bazasini yaratish, ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va xalqaro konsaltingni jalb qilish ustida ishlar olib borildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi birgalikda zaruriy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qildi, mahalliy buxgalteriya kadrlarini IFRS standartlariga o‘rgatish dasturlari ishga tushirildi. Ushbu bosqichning muvaffaqiyatli yakunlanishi keyingi bosqichlar uchun mustahkam poydevor yaratdi. Biroq, tayyorgarlik davridayoq ayrim qiyinchiliklar ham paydo bo‘ldi - IFRS terminologiyasini o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilish, mahalliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan o‘quv materiallari yaratish va etarli malakali o‘qituvchilar topish kabi muammolar hal qilishni talab qildi. Shu bilan birga, bu bosqich muvaffaqiyati banklar rahbariyatining strategik qarashlarini kengaytirdi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiya yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Sinov joriy etish (2021-2022) va kengaytirish (2023-2024) bosqichlari amaliy tajriba to‘plash va tizimni real sharoitlarda sinab ko‘rish imkonini berdi. Yirik tijorat banklari - masalan, Milliy bank, Agrobank, Ipoteka banki va boshqa yetakchi banklar - pilot loyihalar doirasida IFRS standartlari bo‘yicha hisobotlar tayyorlashni boshladilar. Bu jarayonda xalqaro audit kompaniyalari - "Big Four" (Deloitte, PwC, EY, KPMG) - faol yordam ko‘rsatdilar va mahalliy mutaxassislarni o‘qitishda muhim rol o‘ynadilar. Pilot loyihalar davomida ko‘plab amaliy

muammolar aniqlandi: kredit portfelini ECL modeli bo‘yicha qayta baholash uchun tarixiy ma’lumotlarning yetarli emasligi, adolatli qiymat bo‘yicha baholash uchun faol bozorlarning yo‘qligi, konsolidatsiya jarayonida murakkabliklar va IT tizimlarning IFRS talablariga to‘liq javob bermasligi. O‘rta va kichik banklarda IFRS joriy etish yanada qiyin kechdi, chunki ular moliyaviy va kadrlar resurslarida cheklangan. Shu bilan birga, kengaytirish bosqichida barcha banklar IFRS bo‘yicha parallel hisobotlar tayyorlashni boshladilar, bu esa tizimning amaliy ishlashini tekshirish va milliy standartlar bilan farqlarni aniqlash imkonini berdi.

To‘liq o‘tish (2025-2026) va takomillashtirish (2027+) bosqichlari O‘zbekiston bank tizimi uchun eng muhim va hal qiluvchi davr bo‘ladi. 2025-2026 yillarda barcha tijorat banklari majburiy ravishda IFRS standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobotlar tayyorlashlari kutilmoqda, bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qat’iy nazorat qilinadi. Bu bosqichda banklar o‘zlarining ichki jarayonlarini to‘liq qayta qurishi, IT infratuzilmasini yangilashi, kadrlarni qayta tayyorlashi va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlashi kerak bo‘ladi. To‘liq o‘tish davri banklar uchun nafaqat texnik, balki madaniy o‘zgarishni ham anglatadi - shaffoflik, hisobdorlik va xalqaro andozlarga muvofiqlik korporativ madaniyatning ajralmas qismiga aylanishi lozim. 2027 yildan keyin takomillashtirish bosqichi boshlanadi, bu davrda O‘zbekiston banklari xalqaro eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganib, joriy etadilar, yangi IFRS standartlarini tezkorlik bilan qabul qiladilar va mintaqaviy moliya markaziga aylanish maqsadiga erishadilar. Ushbu bosqichda O‘zbekiston banklari xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuqori baholanadilar, xorijiy investorlar ishonchini qozonadi va global moliya tizimiga to‘liq integratsiya qilinadilar. Bunday uzoq muddatli strategik yondashuv O‘zbekiston bank tizimining barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, banklarda xalqaro buxgalteriya standartlarini (IFRS) joriy etish moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash va investorlar ishonchini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. IFRSning ochiq va aniq mexanizmlari banklar faoliyatini global standartlarga moslashtiradi, bu esa moliya bozorida barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, standartlarni tatbiq etish bank xodimlarining kasbiy malakasini oshirish, ichki nazorat va audit tizimlarini takomillashtirishga yordam beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, milliy bank tizimining investitsion jozibadorligi IFRSga o‘tish darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Shu asosda bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin: birinchidan, banklarda IFRSni bosqichma-bosqich joriy etish va xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish; ikkinchidan, moliyaviy hisobotlarni elektron platformalarda ochiq va shaffof tarzda yuritish; uchinchidan, regulyatorlar tomonidan standartlarga mos keluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Bundan tashqari, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikni kengaytirish va MDH hamda boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish orqali banklar global bozor talablariga moslashtirilgan hisob-kitob tizimini shakllantirishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlar banklar faoliyatini barqarorlashtirish va milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arziboeva R.S. Impact of the implementation of international financial reporting standards (IFRS) in banks on the quality of accounting // The Innovation Economy. – 2025. – №… – URL: https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/986

2. Khasanova N. Improving financial reporting based on international standards // Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review. – 2025. – №… – URL: https://www.gejournal.net/index.php/APJMMR/article/view/2640

3. Kilicheva F.B., Bazarova O.R., Irmukhamedova M.D. the need to transition to international financial reporting standards (ifrs) in Uzbekistan // European Journal of Emerging

Technology and Discoveries. – 2025. – URL: https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/392

4. Jovboriyev J. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish masalalari // Modern Science and Research. – 2025. – №7. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/131110

5. Quvvatov G. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va uni O‘zbekiston Respublikasi hisob tizimini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati // Green Economy and Development. – 2025. – URL: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5547

6. Saidov J. Challenges and opportunities of adoption of ifrs for the accounting profession in Uzbekistan // World Bulletin of Management and Law. – 2025. – URL: https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2590

7. Tawiah V., Oyewo B. The effect of IFRS adoption on bank internationalisation // International Journal of Finance & Economics. – 2025. – URL: (Wiley).

8. Sanjar S. The impact of IFRS adoption on foreign direct investment in CIS countries // Econstor. – 2022. – URL: https://www.econstor.eu/bitstream/10419/266890/1/1268.pdf

9. Shodiyev E. Problems and prospects of applying IFRS // Inlibrary.uz. – 2025. – URL: (inLibrary).

10. Nguyen T.D. The adoption of IFRS in Vietnam’s commercial banks // Journal of Infrastructure, Policy and Development. – 2024.

11. Ribeiro C.W.L. IFRS 9 adoption and its impacts on banks credit impairment // Redalyc.org. – 2024.

12. Jasim T.A. The impact of adopting international financial reporting standards on the quality of financial reports // Dialnet. – 2023.

TIJORAT BANKLARI FOND BOZORI OPERATSIYALARINING KONSEPTUAL-NAZARIY TAHLILI

Tillayev Xurshidjon Sulaymon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: t.xurshid89@gmail.com
ORCID: 0009-0005-1793-4664

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar (fond) bozoridagi faoliyatini izohlovchi nazariy-konseptual qarashlar tizimli ravishda o‘rganilgan. L. Gitman, M. Jonk, V. Sibulnikova, N. Berzon, I. Fisher, F. Modilyani, M. Miller, F. Fabotsi, F. Mishkin, R. Merton, S. Ross kabi xorijiy hamda X. Akramov, F. Yuldashev, E. Nosirov, M. Abdullayev kabi mahalliy iqtisodchilarning ilmiy yondashuvlari qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan baholanib, ularning kuchli tomonlari va cheklovlari ko‘rsatib berilgan. Nazariyalar evolyutsiyasi “mukammal bozor” va “nomukammal bozor” bosqichlariga ajratilib, ularning O‘zbekiston fond bozori sharoitida qo‘llanish imkoniyatlari baholangan. Tadqiqot yakunida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emission, investitsion va vositachilik faoliyatini yagona tizim sifatida qamrab oluvchi muallif ta’rifi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banki, fond bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori, emission operatsiyalar, investitsion operatsiyalar, vositachilik operatsiyalari, moliyaviy vositachilik, bozor nomukammalligi.*

КОНЦЕПТУАЛЬНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ

Тиллаев Хуршиджон Сулаймон угли
Ташкентский государственный экономический университет
доцент кафедры «Банковское дело», PhD
E-mail: t.xurshid89@gmail.com
ORCID: 0009-0005-1793-4664

Аннотация. *В статье системно рассмотрены теоретико-концептуальные взгляды, объясняющие деятельность коммерческих банков на рынке ценных бумаг (фондовом рынке). Научные подходы зарубежных (Л. Гитман, М. Джонк, В. Цибульникова, Н. Берзон, И. Фишер, Ф. Модильяни, М. Миллер, Ф. Фабоцци, Ф. Мишкин, Р. Мертон, С. Росс) и отечественных экономистов (Х. Акрамов, Ф. Юлдашев, Э. Носиров, М. Абдуллаев) оценены со сравнительных и критических позиций, показаны их сильные стороны и ограничения. Эволюция теорий разделена на этапы «совершенного» и «несовершенного» рынка, оценены возможности их применения в условиях фондового рынка Узбекистана. В завершение исследования предложено авторское определение, охватывающее эмиссионную, инвестиционную и посредническую деятельность коммерческих банков на рынке ценных бумаг как единую систему.*

Ключевые слова: *коммерческий банк, фондовый рынок, рынок ценных бумаг, эмиссионные операции, инвестиционные операции, посреднические операции, финансовое посредничество, несовершенство рынка.*

CONCEPTUAL AND THEORETICAL ANALYSIS OF COMMERCIAL BANKS’ OPERATIONS IN THE STOCK MARKET

Tillayev Khurshidjon Sulaymon ugli
Tashkent State University of Economics

Associate Professor, Department of Banking, PhD
E-mail: t.xurshid89@gmail.com
ORCID: 0009-0005-1793-4664

Abstract. *The article systematically examines the theoretical and conceptual views that explain the activity of commercial banks in the securities (stock) market. The scholarly approaches of foreign (L. Gitman, M. Joehnk, V. Tsibulnikova, N. Berzon, I. Fisher, F. Modigliani, M. Miller, F. Fabozzi, F. Mishkin, R. Merton, S. Ross) and Uzbek economists (Kh. Akramov, F. Yuldashev, E. Nosirov, M. Abdullaev) are assessed from comparative and critical standpoints, and their strengths and limitations are identified. The evolution of the theories is divided into “perfect market” and “imperfect market” stages, and their applicability to the stock market of Uzbekistan is evaluated. The study concludes with the author’s definition, which covers the issuing, investment and intermediary activities of commercial banks in the securities market as a single system.*

Keywords: *commercial bank, stock market, securities market, issuing operations, investment operations, intermediary operations, financial intermediation, market imperfection.*

Kirish

Bugungi moliyaviy bozorlar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ko‘plab tarkibiy qismlardan tashkil topgan murakkab tizimdir. Bu tizimning asosiy bo‘g‘inlari sifatida pul, kredit, valyuta, fond, investitsiya va sug‘urta bozorlari hamda boshqa ixtisoslashgan moliyaviy bozorlarni ko‘rsatish mumkin. Tijorat banklari ushbu tizimning deyarli barcha segmentlarida, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorida ham faol ishtirokchi va moliyaviy vositachi rolini o‘ynaydi.

Mazmunan tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati uch yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchi yo‘nalishda bank emitent maqomida o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarib, ularni joylashtirish bilan bog‘liq emission operatsiyalarni bajaradi. Ikkinchi yo‘nalishda u investor sifatida mablag‘larini turli moliyaviy vositalarga joylashtirib, investitsion operatsiyalarni amalga oshiradi. Uchinchi yo‘nalishda esa bank emitentlar va investorlarning manfaat hamda ehtiyojlarini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi vositachi sifatida qimmatli qog‘ozlarni sotish, sotib olish, joylashtirish va ularga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozoriga bo‘lgan ehtiyojning paydo bo‘lishi, uning tarixiy rivojlanish yo‘li va xo‘jalik subyektlarining unda qatnashishi iqtisodiyotni boshqarish usullari hamda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Bu bog‘liqlik bozorni ilmiy talqin qilishga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan: turli tarixiy davrlar va iqtisodiy tizimlarning xususiyatlariga qarab, qimmatli qog‘ozlar bozori tushunchasining mazmuni va konseptual izohi ham turlicha shakllangan. Shu sababli tijorat banklarining ushbu bozordagi faoliyatini nazariy jihatdan tizimlashtirish va unga yaxlit ta’rif berish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyatiga oid xorijiy va mahalliy nazariy yondashuvlarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish va shu asosda bank faoliyatining barcha funksional yo‘nalishlarini qamrab oluvchi muallif ta’rifini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emission, investitsion va vositachilik faoliyati xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli rakurslardan o‘rganilgan va bu borada muayyan nazariy-uslubiy yondashuvlar shakllangan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, tadqiqotchilarning qarashlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ta’riflarning tuzilishi, urg‘u berilgan jihatlar va qo‘llanilgan atamalar bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud.

AQSh iqtisodchilari L.J. Gitman va M.D. Jonk qimmatli qog‘ozlar bozorini mablag‘ taklif qiluvchilar bilan mablag‘ga ehtiyoji bor subyektlar o‘rtasida bitim tuzishga imkon yaratuvchi mexanizm deb hisoblaydi **[1]**. Mualliflar fond birjasini muayyan qimmatli qog‘ozlar sotuvchilari va xaridorlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi markazlashgan institut

sifatida talqin qiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi V.Yu. Sibulnikova (Tsibulnikova) iqtisodiy adabiyotlardagi turli qarashlarni umumlashtirib, qimmatli qog‘ozlar bozorini xo‘jalik subyektlari o‘rtasida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar va aloqalar yig‘indisi sifatida ta’riflaydi **[2]**.

N.I. Berzon muharrirligida chop etilgan darslikda bu bozor alohida tovar – qimmatli qog‘ozlar bilan turli operatsiyalar bajariladigan iqtisodiy maydon sifatida tasvirlanadi **[3]**. Mualliflar qimmatli qog‘ozning iqtisodiy tabiatiga alohida to‘xtalib, u tashqi ko‘rinishidan oddiy hujjat bo‘lsa-da, muayyan mulkiy huquqlarni tasdiqlashini, uning haqiqiy qiymati esa bozor operatsiyalari jarayonida shakllanadigan aktivlar tarkibi orqali yuzaga chiqishini qayd etadi.

Bank faoliyati va fond bozori o‘rtasidagi aloqaning nazariy asoslari o‘tgan asrning birinchi yarmida shakllana boshlagan. Xususan, I. Fisherning 1930-yilda nashr etilgan “The Theory of Interest” asaridagi vaqtlararo tanlov (intertemporal choice) konsepsiyasi va ajratish teoremasi (Fisher Separation Theorem) moliyaviy bozorlarning iqtisodiy mohiyatini tushunishda muhim nazariy bosqich bo‘ldi **[4]**. Ushbu g‘oyalarning mantiqiy davomi sifatida F. Modilyani va M. Miller 1958-yilda kapital tuzilmasining korxona qiymatiga ta’sir qilmasligi to‘g‘risidagi teoremani (Modigliani–Miller Irrelevance Theorem) ilgari surib, moliya nazariyasining keyingi bosqichini boshlab berdi **[5]**.

O‘tgan asrning so‘nggi choragi va joriy asr boshlarida moliya nazariyasi “mukammal bozor” farazidan asta-sekin uzoqlashdi. Natijada axborot assimetriyasi, tranzaksiya xarajatlari, soliqqa tortish va boshqa bozor nomukammalliklarini inobatga oluvchi yangi konsepsiyalar paydo bo‘ldi. J. Stiglits va E. Vays axborot assimetriyasi sharoitida banklar foiz stavkasini oshirish o‘rniga kreditni ratsionlashtirishini isbotlagan bo‘lsa **[6]**, D. Daymond banklarning mavjudligini qarz oluvchilarni delegatsiyalangan monitoring qilishdagi xarajat ustunligi bilan izohlagan **[7]**. F. Allen va A. Santomero esa zamonaviy moliyaviy vositachilik nazariyasini risklarni boshqarish va ishtirok xarajatlarini kamaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqqan **[8]**. Bu yo‘nalishning shakllanishida F. Fabotsi **[9]**, F. Mishkin **[10]** va R. Merton **[11]** kabi olimlarning ishlari ham muhim o‘rin tutadi. S. Rossning arbitraj baholash nazariyasi (Arbitrage Pricing Theory, APT) ham ushbu davrning yirik nazariy yutuqlaridan biri hisoblanadi **[12]**.

Mahalliy olimlar ham qimmatli qog‘ozlar bozori va unda banklarning ishtirokini turli tomonlardan o‘rganishgan. Masalan, F. Muxamedov O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar savdo tizimlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan **[13]**. Biroq ko‘pchilik ishlarda asosiy e’tibor bozorning umumiy iqtisodiy mohiyatiga qaratilib, tijorat banklarining aynan shu bozordagi faoliyatiga alohida va kompleks ta’rif berilmagan. X. Akramov qimmatli qog‘ozlar bozorini iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini qayta taqsimlashga xizmat qiluvchi hamda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, muomalasi va so‘ndirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi deb ta’riflaydi **[14]**. F. Yuldashevning tadqiqotlarida ham shunga o‘xshash yondashuv kuzatiladi: muallif bu bozorni moliya bozorining bir qismi sifatida ko‘rib, uni qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, muomalaga kiritish va so‘ndirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi hodisa sifatida tavsiflaydi **[15]**.

Ko‘rib chiqilgan qarashlar tahlili ko‘rsatadiki, qimmatli qog‘ozlar bozorining mohiyatiga oid ta’riflar yetarli bo‘lsa-da, tijorat banklarining unda olib boradigan emission, investitsion va vositachilik faoliyatini birgalikda ifodalovchi nazariy yondashuv hali to‘liq shakllanmagan. Shuning uchun mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish va ularning O‘zbekiston fond bozori sharoitida qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, tanqidiy tahlil, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, sintez hamda tasniflash kabi umumilmiy usullar qo‘llanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning qimmatli qog‘ozlar bozori va unda banklarning ishtirokiga doir qarashlari xronologik-evolyutsion tamoyil asosida ikki shartli bosqichga – “mukammal bozor”

va “nomukammal (real) bozor” konsepsiyalariga guruhlandi. Keyin har bir konsepsiya O‘zbekiston fond bozorining institutsional rivojlanish xususiyatlari nuqtai nazaridan qiyosiy-tanqidiy baholandi. Tahlil natijalariga tayangan holda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatiga oid muallif ta’rifi induktiv usulda ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Fisherning ajratish teoremasi nazariy jihatdan mukammal model bo‘lsa-da, u mukammal kapital bozori mavjud degan farazga asoslanadi. Bu farazga ko‘ra, har qanday subyekt bozor stavkasida istalgan miqdorda qarz olishi yoki qarz berishi mumkin. O‘zbekiston fond bozorida esa buning aksi – kredit ratsionlashtirilishi (credit rationing) holati yaqqol kuzatiladi: ko‘plab potensial emitentlar, ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari, sof joriy qiymati (NPV) ijobiy bo‘lgan loyihalarga ega bo‘la turib, ularni moliyalashtirish uchun yetarli resurslarni jalb eta olmaydi. Shu bois tadqiqotda Fisher modeli nazariy tahlilning boshlang‘ich nuqtasi sifatida olinib, keyingi bosqichda Stiglits–Vays nazariyasi bilan to‘ldirilishi uslubiy jihatdan asosli deb hisoblanadi **[6]**.

Modilyani–Miller nazariyasining amaliy qimmati uning farazlarini real hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashda emas, balki aynan shu farazlar buzilganda kelib chiqadigan xulosalarda namoyon bo‘ladi. Agar mukammal bozorda kapital tuzilmasi korxona qiymatiga ta’sir qilmasa, real iqtisodiyotda banklarning mavjudligi va ularning fond bozoridagi faolligini soliq imtiyozlari, bankrotlik xarajatlari va axborot assimetriyasi kabi nomukammalliklar bilan izohlash mumkin. O‘zbekistonda bank krediti yoki obligatsiya chiqarish orqali moliyalashtirishni tanlash ko‘pincha nafaqat soliq omillariga, balki ma’muriy xarajatlar, institutsional muhit va bozordagi noaniqlik darajasiga ham bog‘liq. Bu holatni Modilyani–Miller teoremasining “teskari mantig‘i”, ya’ni uning farazlari buzilganda yuzaga keladigan natijalar orqali tushuntirish mumkin.

Moliya nazariyasi rivojlanishining asosiy bosqichlari va ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. Bank va fond bozori aloqadorligiga oid nazariy konsepsiyalar evolyutsiyasi
Manba: *Muallif tomonidan tuzilgan.*

Ushbu evolyutsion ketma-ketlikdan ko‘rinadiki, moliyaviy bozorlar haqidagi nazariy qarashlar dastlab “ideal bozor” g‘oyasiga (Fisher, Modilyani–Miller) tayangan bo‘lsa, keyinchalik izchil ravishda “real va nomukammal bozor” yondashuviga (Daymond, Allen–Santomero, Fabotsi, Mishkin, Merton) o‘tgan **[7; 8]**. Bozor institutlari endigina shakllanayotgan O‘zbekiston kabi iqtisodiyotlarda aynan “nomukammal bozor” konsepsiyalari amaliy jihatdan ustuvor hisoblanadi, chunki milliy fond bozorida axborot assimetriyasi, nisbatan yuqori tranzaksiya xarajatlari va bozor institutlarining yetarlicha rivojlanmaganligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

F. Fabotsi yondashuvida qimmatli qog‘ozlar bozori uning asosiy institutsional unsurlari – emitentlar, investorlar, moliyaviy vositachilar va bozor infratuzilmasi kesimida o‘rganiladi, banklar esa ko‘p funksiyali ishtirokchi sifatida qaraladi **[9]**. Bu yondashuv bozorning institutsional tuzilishini ancha to‘liq aks ettiradi, biroq fikrimizcha, uning cheklovi bankning

emitent, investor va vositachi sifatidagi vazifalari o‘rtasidagi ichki iqtisodiy bog‘liqlikni yetarlicha ochib bermasligidadir: har bir vazifa asosan alohida yo‘nalish sifatida tavsiflanadi.

F. Mishkin moliyaviy vositachilik nazariyasi doirasida banklarni axborot assimetriyasini kamaytiruvchi va bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi axborot farqini qisqartiruvchi subyekt deb biladi **[10]**. Bu yondashuvda bank orqali va kapital bozori orqali moliyalashtirish bir-birining o‘rnini bosuvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi manbalar sifatida talqin etiladi. Mishkinning axborot assimetriyasiga asoslangan g‘oyasi O‘zbekistonda, xususan kichik va o‘rta biznes subyektlari qimmatli qog‘oz chiqarayotganda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bunday emitentlarning hisobotlari har doim ham xalqaro audit standartlariga to‘liq javob bermaydi. Oqibatda investorlar axborot noaniqligini qoplash uchun yuqoriroq risk mukofotini (risk premium) talab qilishi ehtimoli ortadi. Shu bilan birga, Mishkin yondashuvida o‘tish iqtisodiyotiga xos institutsional rivojlanish darajasi, jumladan sud tizimining mulk huquqlarini himoya qilish samaradorligi alohida mustaqil omil sifatida yetarlicha hisobga olinmagan.

R. Merton moliyaviy tizimni institutlar emas, balki ular bajaradigan funksiyalar – resurslarni vaqt va makon bo‘yicha taqsimlash, risklarni boshqarish, to‘lovlarni amalga oshirish, axborot bilan ta’minlash va boshqalar orqali tahlil qilishni taklif etadi **[11]**. Bu funksional yondashuv bankning fond bozoridagi turli vazifalarini yagona tizim sifatida ko‘rishga nazariy asos yaratadi, biroq uni amaliyotga tatbiq etish uchun milliy sharoitni aks ettiruvchi qo‘shimcha mezonlar talab etiladi.

S. Rossning APT nazariyasi qimmatli qog‘ozlar narxini bitta omil bilan emas, balki bir nechta iqtisodiy omillarning birgalikdagi ta’sirini hisobga oluvchi ko‘p omilli modellar orqali izohlaydi **[12]**. Bu nazariya banklarning market-meykerlik faoliyatini narx shakllanishi va bozor samaradorligi bilan bevosita bog‘lash imkonini beradi. Biroq Ross modelini nazariy va empirik qo‘llash, eng avvalo, rivojlangan va likvidligi yuqori bozorlar uchun qulay. O‘zbekistonda savdo faolligi nisbatan past va emitentlar doirasi tor bo‘lgani uchun ko‘p omilli modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash uslubiy va statistik qiyinchiliklarga olib keladi. Jumladan, birja ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda listingdagi emitentlar soni 89 tani tashkil etgani kuzatuvlar sonini cheklab, ko‘p omilli modellarni ishonchli baholash imkoniyatini toraytiradi.

Ko‘rib chiqilgan xorijiy konsepsiyalarning asosiy g‘oyalari va cheklovlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatiga oid xorijiy nazariy konsepsiyalar

Konsepsiya	Asosiy g‘oya	Asosiy cheklov
Fisher (1930)	Mukammal bozorda investitsiya qarori iste’mol afzalliklaridan mustaqil qabul qilinadi	Kredit ratsionlashtirilishi e’tiborga olinmaydi
Modilyani–Miller (1958)	Mukammal bozorda kapital tuzilmasi korxona qiymatiga ta’sir qilmaydi	Faqat “teskari mantiq” orqali amaliy ahamiyat kasb etadi
Stiglits–Vays (1981)	Axborot assimetriyasi kredit ratsionlashtirilishini keltirib chiqaradi	Asosan kredit bozoriga qaratilgan, fond bozori operatsiyalari alohida ko‘rilmaydi
Fabotsi	Bozorni institutsional unsurlarga ajratib tahlil qilish	Bankning uch funksiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochilmagan
Mishkin	Axborot assimetriyasini kamaytiruvchi vositachilik	Institutsional yetuklik darajasi hisobga olinmagan
Merton (1995)	Moliyaviy tizimni funksiyalar orqali tahlil qilish	Amaliy tatbiq uchun milliy mezonlar zarur
Ross (APT, 1976)	Ko‘p omilli arbitraj baholash modeli	Statistik ma’lumotlar cheklangan bozorda qo‘llash qiyin

Manba: *Muallif tomonidan tuzilgan.*

Birinchi bosqichga tegishli Fisher va Modilyani–Miller nazariyalari “mukammal bozor” g‘oyasiga tayanuvchi klassik yondashuvlardir. Ularning umumiy cheklovi bir xil manbadan kelib chiqadi: axborot assimetriyasi, tranzaksiya xarajatlari va kredit ratsionlashtirilishi kabi nomukammalliklar deyarli hisobga olinmagan. Shu bois O‘zbekiston singari rivojlanayotgan bozor uchun bu nazariyalarning qimmati ularni bevosita qo‘llashda emas, balki uslubiy ahamiyatida – keyingi “nomukammal bozor” nazariyalariga ehtiyojni asoslovchi boshlang‘ich nuqta bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichni real bozor nomukammalliklarini inobatga oluvchi Fabotsi, Mishkin, Merton va Ross kabi olimlarning zamonaviy yondashuvlari tashkil etadi. Ularning har biri bank faoliyatining muayyan qirrasini – institutsional tuzilma, axborot assimetriyasi, funksional mohiyat yoki narx shakllanishini chuqur ochib beradi. Biroq bu yondashuvlarning umumiy kamchiligi shundaki, ularning birortasida bankning emitent, investor va vositachi sifatidagi uch asosiy funksiyasi o‘zaro bog‘langan yagona tizim sifatida birlashtirilmagan.

Bu masalada mahalliy olimlar orasida E. Nosirovning qarashlari alohida e’tiborga loyiq **[16]**. Tadqiqotchi banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini iqtisodiy mazmuni va vazifasiga qarab uch guruhga bo‘ladi:

– aktiv operatsiyalar – bankning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishi, shuningdek o‘z va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan birja va birjadan tashqari bozorlarda o‘z nomidan aksiyadorlik aktivlarini joylashtirishi;

– passiv operatsiyalar – bankning o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarishi va joylashtirishi, turli omonatlarni jalb etishi, boshqa banklardan qarz olishi hamda moliyaviy resurslarini kengaytirishga qaratilgan boshqa operatsiyalar;

– komission (mijozlar bilan bog‘liq) operatsiyalar – mijoz topshirig‘i va manfaati asosida haq evaziga bajariladigan valyuta va savdo operatsiyalari, hisob-kitoblar, kafolat berish, qimmatliklarni saqlashga qabul qilish va shunga o‘xshash xizmatlar.

2-jadval

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini tasniflash yondashuvlari qiyosi

Mezon	E. Nosirov tasnifi	Cheklovi	Muallif taklif etgan funksional tasnif
Tasnif asosi	Balansdagi o‘rni: aktiv, passiv, komission	Bank balansiga bog‘lanib, bozordagi funksiya aks etmaydi	Bankning fond bozoridagi funksiyasi: emitent, investor, vositachi
O‘z qimmatli qog‘ozlari	Passiv operatsiyalar tarkibida	Ustav va qo‘shilgan kapitalni shakllantirish mexanizmi ajratilmagan	Emission operatsiyalar: aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlari; kapital va resurs bazasi
Investitsiyalar	Aktiv operatsiyalar	Savdo va investitsion portfel farqlanmagan	Investitsion operatsiyalar: savdo portfeli, investitsion portfel, strategik ishtirok
Mijozlarga xizmatlar	Komission operatsiyalar (valyuta, hisob-kitob va boshqalar)	Qimmatli qog‘ozlarga aloqasi bo‘lmagan xizmatlar ham kiritilgan	Vositachilik operatsiyalari: brokerlik, anderrayting, depozitariy, ishonchli boshqaruv
Banklararo kreditlar	Passiv operatsiyalar tarkibida	Kredit munosabatlari qimmatli qog‘ozlar operatsiyasi sifatida qaralgan	Tasnifdan chiqarilgan (kredit operatsiyalariga taalluqli)

Manba: [16] *asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Nosirov taklif etgan tasnif uning tadqiqot obyekti va predmetiga mos ravishda mantiqan va uslubiy jihatdan asoslangan. Ammo banklarning fond bozoridagi faoliyatini kengroq va kompleks yoritish nuqtai nazaridan bu tasnifning ayrim cheklovlarini qayd etish lozim.

Birinchidan, tasnifda bank o‘z aksiyalarini chiqarish va joylashtirish orqali ustav

kapitalini shakllantirish mexanizmi alohida ajratilmagan. Bundan tashqari, emission operatsiyalar natijasida nafaqat ustav kapitali, balki qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymatdan yuqori narxda joylashtirilishi hisobiga qo‘shilgan kapital (emission daromad) ham ortishi mumkinligi yetarlicha hisobga olinmagan.

Ikkinchidan, “boshqa banklardan ssudalar olish” operatsiyasini passiv operatsiyalar guruhiga kiritish munozarali. Banklararo kredit jalb qilish o‘z mazmuniga ko‘ra qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq passiv operatsiya emas, balki an’anaviy kredit munosabatlarining bir ko‘rinishidir. Shu sababli uni qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar tasnifiga kiritish tasnifning ichki mantiqiy yaxlitligi va uslubiy izchilligini susaytiradi. Nosirov tasnifi va muallif tomonidan taklif etilayotgan funksional tasnifning qiyosi 2-jadvalda keltirilgan.

Ko‘rib chiqilgan konsepsiyalarning har birini alohida tahlil qilish va ularning O‘zbekiston bank–fond bozori munosabatlari sharoitida qanchalik qo‘llanishi mumkinligini aniqlash tadqiqotning uslubiy asoslari va ilmiy mustaqilligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu turli nazariy maktablarning umumiy va farqli jihatlarini ajratish hamda milliy moliya bozori sharoitiga mos nazariy-uslubiy asoslarni shakllantirish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, olimlar va mutaxassislar tomonidan tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kompleks ta’rif berish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, bu faoliyatning ayrim yo‘nalishlari ilmiy ishlarda ma’lum darajada o‘rganilgan va ular asosida qator xulosalar chiqarilgan.

Jumladan, M. Abdullayev ham banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini umuman emas, balki ularning investitsion faoliyatini ta’riflashga e’tibor qaratgan: “Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini amalga oshirish deb, uzoq muddatli istiqbolda samarali faoliyatni ta’minlashga xizmat qiladigan operatsiyalarga aytiladi” **[17]**. Bu ta’rif ham yuqorida ko‘rilgan yondashuvlar kabi banklarning fond bozoridagi faoliyatini to‘liq qamrab olmaydi, chunki u faqat investitsion operatsiyalarga qaratilgan bo‘lib, emission va vositachilik faoliyati uning doirasidan chetda qolgan.

Haqiqatan ham, iqtisodiy adabiyotlar tahlili tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini barcha funksional yo‘nalishlari bilan birga ochib beruvchi kompleks ta’riflar yetishmasligini ko‘rsatadi. Mavjud ta’riflarning aksariyatida banklar bozorning oddiy ishtirokchisi yoki xo‘jalik subyekti sifatida umumiy tarzda tilga olinadi. Shu sababli olimlarning qimmatli qog‘ozlar bozori mohiyatiga oid ta’riflarini hamda tadqiqotning bevosita banklarning fond bozoridagi operatsiyalariga yo‘naltirilganini hisobga olib, quyidagi ta’rifni taklif etamiz: tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati – bu bankning turli shakldagi qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq emission, investitsion va vositachilik operatsiyalarini qonunchilikda belgilangan tartibda hamda tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirishga qaratilgan faoliyatidir. Ushbu ta’rifning tarkibiy mantig‘i 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. Tijorat bankining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatining funksional tuzilishi

Manba: *Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Taklif etilgan ta’rifning afzalligi shundaki, u bankning uch funksiyasini alohida-alohida

emas, balki o‘zaro bog‘langan tizim sifatida ko‘rsatadi: emission operatsiyalar orqali jalb qilingan resurslar investitsion faoliyatning manbai bo‘ladi, vositachilik faoliyatida to‘plangan bozor tajribasi va narx axboroti bankning o‘z emissiyalarini samarali joylashtirishga yordam beradi, investitsion portfel esa market-meykerlik orqali bozor likvidligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’rifdagi huquqiy asos (qonunchilik va shartnomalar) bankning barcha funksiyalari yagona tartibga solish maydonida amalga oshirilishini ta’kidlaydi.

Xulosa

Tahlil natijalari tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatiga oid nazariy qarashlar “mukammal bozor” konsepsiyalaridan (Fisher, Modilyani–Miller) “nomukammal va real bozor” konsepsiyalariga (Stiglits–Vays, Daymond, Allen–Santomero, Fabotsi, Mishkin, Merton, Ross) tomon izchil rivojlanganini ko‘rsatdi. Bu evolyutsiya O‘zbekiston kabi bozor institutlari shakllanayotgan iqtisodiyotlarda axborot assimetriyasi, tranzaksiya xarajatlari va institutsional nomukammalliklarni hisobga oluvchi zamonaviy yondashuvlarning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Mahalliy olimlar banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalarini ayrim jihatlardan o‘rgangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan edi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va bankning emission, investitsion hamda vositachilik faoliyatini yagona tizim sifatida aks ettiruvchi muallif ta’rifi hamda funksional tasnif ushbu nazariy bo‘shliqni qisman to‘ldiradi.

Shu bilan birga, banklarning fond bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va institutsional mexanizmlar ushbu operatsiyalar ko‘lamini kengaytirish imkoniyatlarini muayyan darajada cheklab turibdi. Bu esa banklarning emission, investitsion va vositachilik faoliyatini uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy va amaliy choralarni – me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, bozor infratuzilmasini mustahkamlash hamda bank xodimlarining fond bozori bo‘yicha malakasini oshirish tizimini rivojlantirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gitman L.J., Joehnk M.D. Fundamentals of Investing. 10th ed. – Boston: Pearson/Addison-Wesley, 2008.
2. Цибульникова В.Ю. Рынок ценных бумаг: учебное пособие. – Томск: ТУСУР, 2012. – 110 с.
3. Берзон Н.И., Аршавский А.Ю., Галанова А.В., Касаткин Д.М. [и др.] Рынок ценных бумаг: учебник для вузов / под ред. Н.И. Берзона. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2024. – 514 с.
4. Fisher I. The Theory of Interest. – New York: Macmillan, 1930. – 566 p.
5. Modigliani F., Miller M.H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // American Economic Review. – 1958. – Vol. 48, No. 3. – P. 261–297.
6. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410.
7. Diamond D.W. Financial Intermediation and Delegated Monitoring // Review of Economic Studies. – 1984. – Vol. 51, No. 3. – P. 393–414.
8. Allen F., Santomero A.M. The Theory of Financial Intermediation // Journal of Banking & Finance. – 1997. – Vol. 21, No. 11–12. – P. 1461–1485.
9. Fabozzi F.J., Modigliani F., Jones F.J. Foundations of Financial Markets and Institutions. 4th ed. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2010.
10. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 7th ed. – Boston: Pearson/Addison-Wesley, 2004.
11. Merton R.C. A Functional Perspective of Financial Intermediation // Financial Management. – 1995. – Vol. 24, No. 2. – P. 23–41.
12. Ross S.A. The Arbitrage Theory of Capital Asset Pricing // Journal of Economic

Theory. – 1976. – Vol. 13, No. 3. – P. 341–360.

13. Muxamedov F.T. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar savdo tizimlarini takomillashtirish: i.f.n. dis. – T., 2012. – 143 b.

14. Akramov X. O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta’siri: i.f.n. dis. avtoref. – T., 2010. – 38 b.

15. Yuldashev F.A. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini faollashtirish masalalari: i.f.n. dis. avtoref. – T., 2005.

16. Nosirov E.I. Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari: i.f.n. dis. – T., 2006. – 152 b.

17. Abdullayev M.A. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini takomillashtirish: i.f.n. dis. – Andijon, 2008. – 144 b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

KOMPANIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARINING AHAMIYATI

Ermatov Toxir Sharipdjanovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
savdo ishi kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: t.ermatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0004-6077-4718

Annotatsiya. *Marketing tadqiqotlari kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash va bozor talablariga moslashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi globallashgan va raqobat bozor sharoitida korxonalar samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish orqali o‘z mavqeini mustahkamlashlari lozim. Maqolada marketing tadqiqotlarining kompaniyalarni rivojlantirishdagi dolzarbligi va ahamiyati tadqiq etilgan Shuningdek, transmilliy kompaniyalarda marketing tizimini tashkil etish modellari va ularning samaradorligi tahlil asosida ko‘rib chiqilib, joriy etish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, marketing, kompaniya, transmilliy kompaniya, marketing tadqiqotlari, marketing muhiti, moliyaviy texnologiyalar, reklama, samaradorlik, raqobatbardoshlik, biznes, tadbirkorlik, brending, globallashuv, strategik qarorlar, innovatsiya.*

ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИТИИ КОМПАНИЙ

Эрматов Тохир Шарипджанович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам
доцент кафедры торгового дела
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: t.ermatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0004-6077-4718

Аннотация. *Маркетинговые исследования играют важную роль в обеспечении устойчивого развития компаний и адаптации к требованиям рынка. В условиях современного глобализированного и конкурентного рынка предприятиям необходимо укреплять свои позиции путем разработки эффективных маркетинговых стратегий. В статье анализируется актуальность и важность маркетинговых исследований в развитии компаний. Также на основе анализа рассмотрены модели организации маркетинговых систем в транснациональных компаниях, их эффективность, разработаны соответствующие рекомендации по их внедрению в национальных компаниях.*

Ключевые слова: *национальная экономика, маркетинг, компания, транснациональные компании, маркетинговые исследования, маркетинговая среда, финансовые технологии, реклама, эффективность, конкурентоспособность, бизнес, предпринимательство, брендинг, глобализация, стратегические решения, инновации.*

IMPORTANCE OF MARKETING RESEARCH IN THE DEVELOPMENT OF COMPANIES

Ermatov Tokhir Sharipdjanovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Associate Professor of the
Department of Trade work
Tashkent State the University of Economics
E-mail: t.ermatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0004-6077-4718

Abstract. *Marketing research plays an important role in ensuring the sustainable development of companies and adapting to market demands. In today's globalized and competitive market conditions, enterprises need to strengthen their position by developing effective marketing strategies. This article analyzes the relevance and importance of marketing research in the development of companies. Also, models of organizing a marketing system in transnational companies and their effectiveness are considered on the basis of the analysis, and appropriate recommendations are developed for their implementation in national companies.*

Keywords: *national economy, marketing, company, multinational companies, marketing research, marketing environment, financial technologies, advertising, efficiency, competitiveness, business, entrepreneurship, branding, globalization, strategic decisions, innovation.*

Kirish

Globallashuv jarayoni va bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida marketing tadqiqotlari milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir mamlakat o‘z iqtisodiy siyosatini shakllantirishda ichki va tashqi bozorlardagi talabni chuqur tahlil qilish, eksport-import muvozanatini saqlash hamda samarali ishlab chiqarish tizimini yo‘lga qo‘yish zaruriyatiga duch keladi. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida kompaniyalarni samarali rivojlantirish uchun marketing tadqiqotlarining ahamiyati ortib bormoqda. Globalizatsiya jarayoni va raqobatning keskinlashuvi biznes subyektlaridan ilmiy yondashuv va innovatsion strategiyalarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyati marketing tadqiqotlarining samarali amalga oshirilishiga bog‘liq hisoblanadi.

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va boshqa nufuzli tashkilotlarning marketing tadqiqotlari natijalari iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlarini aniqlashga xizmat qiladi, chunki ular mamlakatlarning biznes muhiti, iste’mol talablari va investitsiya imkoniyatlarini chuqur tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar asosida davlatlar o‘z iqtisodiy siyosatini moslashtirishi va milliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Agar milliy iqtisodiyot yetakchi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini inobatga olib, marketing strategiyalarini shakllantirsa, iqtisodiy o‘sish sur’atlari ortib, barqaror rivojlanish ta’minlanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalariga asoslangan holda qabul qilingan qarorlar raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilsa, milliy kompaniyalar xalqaro bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ladilar.

Marketing tadqiqotlari natijalari global iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular asosida iqtisodiy siyosatni to‘g‘ri shakllantirish mumkin. Xalqaro iqtisodiy forumning ma’lumotlariga ko‘ra, “Bozor tahlillari asosida ishlab chiqilgan marketing strategiyalari iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlaydi” [2], bu esa davlatlar uchun muhim omil hisoblanadi. Agar mamlakatlar marketing tadqiqotlari natijalaridan samarali foydalansa, ularning milliy brendlari xalqaro bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ladi. Shu bilan birga, Boston Consulting Group tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda qayd etilishicha, “Marketing tadqiqotlari investitsiya jalb qilishni osonlashtiradi va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradi” [3], rivojlanayotgan davlatlar uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

So‘nggi yillarda global iqtisodiy muhitda raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda, har bir mamlakat o‘zining ichki ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash va ularni xalqaro bozorda samarali pozitsiyalash orqali eksport salohiyatini oshirishga intilmoqda. Ayniqsa, mahsulotlarni sotish bozorini chuqur tahlil qilish, iste’molchilarning ehtiyoj va talablarini

o‘rganish hamda xaridorgirlik darajasini prognozlash orqali samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Marketing faoliyatini tizimli tashkil etmasdan turib, na korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlash, na mahalliy brendlarni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish mumkin. Shu bois, rivojlanayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida korxonalar oldida zamonaviy marketing vositalaridan samarali foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish vazifalari turganini alohida ta’kidlash lozim. Xalqaro amaliyotda ham ishlab chiqaruvchilarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning marketing sohasidagi innovatsion yondashuvlariga bog‘liq bo‘lib, bu borada O‘zbekiston uchun ham muhim tajribalar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida ham marketing tizimini samarali tashkil etish orqali korxonalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonida qayd etilganidek, “Tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksporti hajmini 2026-yilda 5 mlrd AQSh dollariga yetkazish” [1] vazifalari belgilab olingan va bunda marketing tadqiqotlarining o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, korxonalar tomonidan strategik marketing yondashuvlarini shakllantirish, bozor segmentatsiyasi va maqsadli auditoriyani aniqlash asosida individual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati dolzarb bo‘lib bormoqda. Mahsulotlarning qo‘shimcha qiymatini oshirish, ularning brend imijini kuchaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash orqali iste’molchilar ongida ishonch uyg‘otish mumkin. Bundan tashqari, raqamli marketing, internet orqali savdo va elektron tahlil platformalaridan foydalanish marketing strategiyalarining zamonaviy jihatlaridandir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, eksport hajmining oshishi bevosita marketing harakatlarining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida milliy iqtisodiyotning barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, marketingni faqat sotuvni oshirish vositasi emas, balki korxonaning umumiy strategik rivojlanish platformasi sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar sharhi

Nufuzli xalqaro tashkilotlarning marketing tadqiqotlari natijalari iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo‘lib, ular asosida ishlab chiqilgan strategiyalar milliy bozorlarning barqarorligini ta’minlaydi. Jahon banki mutaxassislarining ta’kidlashicha, “Marketing tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan iqtisodiy strategiyalar davlatlarning uzoq muddatli o‘sishiga xizmat qiladi” [4], bu esa mamlakatlar uchun innovatsion rivojlanishga yo‘l ochadi. Agar marketing tadqiqotlari natijalariga tayangan holda iqtisodiy siyosat shakllantirilsa, mahalliy ishlab chiqaruvchilar yangi bozor segmentlarini egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, “Marketing tadqiqotlari asosida tahlil qilingan iste’mol bozorlaridagi o‘zgarishlar investitsion qarorlarni aniqroq qabul qilishga yordam beradi” [5], bu esa iqtisodiy o‘sishning jadallashishiga sabab bo‘ladi.

Dunyo bozorlarida muvaffaqiyatga erishish uchun kompaniyalar nufuzli tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan marketing tadqiqotlarining natijalariga tayanishi lozim, chunki ularning ilmiy yondashuvi bozor talablarini to‘g‘ri aniqlashga imkon yaratadi. Masalan, McKinsey & Company hisobotlarida qayd etilganidek, “Samarali marketing strategiyalari kompaniyalarni raqobatbardosh qiladi va ularning bozordagi ulushini oshiradi” [6], bu esa iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar marketing tadqiqotlaridan olingan ma’lumotlar to‘g‘ri qo‘llanilsa, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, Deloitte kompaniyasining ma’lumotlarida qayd etilganidek, “Marketing tadqiqotlari kompaniyalarga iste’molchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish va innovatsion mahsulotlar yaratishga yo‘l ochadi” [7], bu esa milliy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Nufuzli tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan marketing tadqiqotlari natijalari milliy

iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi, chunki ular global bozor trendlarini tahlil qilishga asoslangan. Harvard Business Review nashrida ta’kidlanganidek, “Marketing tadqiqotlari kompaniyalar va davlatlar uchun aniq biznes qarorlarini qabul qilishga yo‘l ochadi” [8], bu esa iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar mamlakatlar marketing tadqiqotlari natijalari asosida iqtisodiy siyosatini shakllantirsa, mahalliy korxonalar eksport imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lida yangi istiqbollarni kashf etadilar. Shu bilan birga, PricewaterhouseCoopers (PwC) tahlillarida qayd etilganidek, “Marketing tadqiqotlari asosida innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish bozorning yangi segmentlariga yo‘l ochadi” [9], bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Marketing tadqiqotlari kompaniyaning maqsadli auditoriyasini chuqur anglashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Iqtisodchi P. Kotler ta’kidlaganidek: “Iste’molchi xatti-harakatlarini tahlil qilmasdan marketing strategiyasi tuzish – ko‘zbog‘lovchining ko‘zini bog‘lab nayzani otishiga o‘xshaydi” [10]. Raqobat kuchayib borayotgan sharoitda kompaniyalar bozordagi segmentatsiya va ehtiyojlarni chuqur o‘rganmas ekan, o‘z mahsulotlari bilan aniq natijaga erisha olmaydi. Shuning uchun marketing tadqiqotlari orqali olingan ma’lumotlar korxona strategiyasini moslashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular orqali kompaniya o‘z mahsulotlarining qiymat taklifini qayta shakllantira oladi. Statistik metodlar bilan kuchaytirilgan tahlillar esa mijozlar ehtiyojini prognozlash imkonini beradi. Bunday yondashuv mahsulot ishlab chiqarishni real bozor talabiga yaqinlashtiradi.

Marketing tadqiqotlari kompaniyani yangicha qarorlar qabul qilishga undaydi va innovatsion strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Iqtisodchi T. Levittning fikricha, “Marketingning asl mohiyati – bu mijozga hozir nimani xohlashini emas, balki ertaga nimani xohlashini tushunishga intilishdir” [11]. Ushbu yondashuv kompaniyani tez o‘zgarayotgan muhitga moslasha oladigan tizimga aylantiradi. Raqamli transformatsiya davrida tadqiqot natijalari asosida qabul qilingan strategiyalar kompaniyaning omon qolishini ta’minlaydi. Shu sababli tahlil natijalari faqat joriy ehtiyojlar emas, balki istiqbolli talablarni ham qamrab olishi kerak. Kompaniyalar ko‘pincha marketing ma’lumotlari orqali ilgari sezilmagan bozorlarga kirish imkoniyatini topadilar. Bu esa ularga raqobatchilardan oldinroq pozitsiyani egallash imkonini beradi.

Marketing tadqiqotlari natijalarini tizimlashtirish va avtomatlashtirish orqali kompaniya raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqadi. Iqtisodchi D. Aakerning fikricha: “Axborot tizimlari orqali qo‘lga kiritilgan marketing tahlillari kompaniya qarorlarini aniq faktlarga asoslangan holda qabul qilishga yordam beradi” [12]. Uzoq muddatli muvaffaqiyatning asosi – to‘g‘ri qarorlar va ularning ishonchli ma’lumotlarga asoslanganligidir. Bugungi kunda marketing axborot tizimlari mijozlar haqidagi real va vaqtli ma’lumotlarni yetkazadi. Ushbu tizimlar yordamida kompaniyalar bozor tendensiyalariga nisbatan tez va moslashuvchan javob qaytara oladilar. Buning natijasida, mahsulot hayotiy sikli optimal boshqariladi. Natijada, kompaniya ichki va tashqi muhitga mos innovatsiyalarni tezlik bilan joriy qiladi.

Kompaniyaning strategik rejalashtirishi bevosita marketing tadqiqotlariga tayanadi. Iqtisodchi K. Keller “Strategik rejalashtirishning har bir bosqichi marketing bozorini chuqur tahlil qilishdan boshlanishi kerak”ligini ta’kidlaydi [13]. Bu degani, kompaniya rejalari ichki resurslarga emas, balki tashqi ehtiyojlarga mos bo‘lishi zarur. Shuningdek, marketing tadqiqotlari asosida shakllangan maqsadli segmentlar bozor egallashdagi strategik ustuvorlikni belgilaydi. Iqtisodchi olim A.Karimov qayd etganidek, “Ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta’minlashda marketing tizimi muhim ahamiyatga ega va u orqali kompaniya yanada samarali faoliyat olib boradi” [14]. Kompaniya marketing ma’lumotlarini nafaqat iste’molchilar, balki raqobatchilar, distribyutorlar va boshqa ishtirokchilar bo‘yicha ham yig‘ishi zarur. Shunday holatda kompaniya ichki va tashqi muhitga mos keluvchi strategiyani ishlab chiqadi. Tahlillarning takroriyligi esa dinamik muhitda doimiy yangilanishni ta’minlaydi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olganda, korxonalarda marketing tizimini samaradorligini oshirish hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi va ushbu yo‘nalishda zaruriy tahlillar

amalga oshirishni talab etadi.

Тадқиқот методологияси

Maqolada индуктив ёндашув, солиштирма таҳлил, иқтисодий таҳлил каби усуллардан фойдаланилган. Muammolarni tadqiq қилишда World Bank маълумотлар базаси, Халқаро валюта жамғармаси очиқ маълумотлари, маҳаллий ва хорижий меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдаланилган.

Tahlil va natijalar

Marketing tadqiqotlari kompaniyaga bozorni chuqur tahlil qilish, iste’molchilarning ehtiyoj va xatti-harakatlarini o‘rganish, raqobatchilarni tahlil qilish, hamda samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu jarayonlar kompaniyaning to‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga va resurslarni samarali taqsimlashiga yordam beradi. Korxonalar uchun marketing tadqiqotlarining ahamaiyati quyidagilarda ko‘rish mumkindir:

Birinchidan, marketing tadqiqotlari orqali kompaniyalar o‘z mijozlari ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bozor segmentatsiyasi va maqsadli auditoriyani belgilash orqali kompaniyalar o‘z strategiyalarini aniq shakllantirib, mijozlarning talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishadi.

Ikkinchidan, marketing tadqiqotlari raqobatchilarni o‘rganish va bozor sharoitlariga moslashish imkoniyatini yaratadi. Raqobatchilar taklif etayotgan mahsulot va xizmatlarni chuqur tahlil qilish orqali kompaniya o‘zining ustunlik tomonlarini aniqlab, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishi mumkin.

Uchinchidan, marketing tadqiqotlari reklama va targ‘ibot kampaniyalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli marketing vositalari va an’anaviy reklama kanallari orqali mijozlarga ta’sir ko‘rsatish strategiyalarini ishlab chiqishda marketing tadqiqotlarining o‘rni beqiyosdir.

Dunyoning yetakchi iqtisodiy markazlari tomonidan o‘tkazilgan marketing tadqiqotlari natijalari global bozor trendlarini aniqlashga yordam beradi va davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar ishlab chiqaruvchilarga talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqishga yo‘naltiradi, natijada ichki va tashqi bozorlarda raqobat kuchayadi. Agar milliy kompaniyalar marketing tadqiqotlaridan samarali foydalansa, ular o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va milliy iqtisodiyotning eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlari tez rivojlanadi. Shu sababli, hukumat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish iqtisodiy o‘sishni yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.

1-chizma.

Marketing tadqiqotlaridan asosiy maqsadlar*

*Muallif ishlanmasi.

Marketing tadqiqotlari zamonaviy biznes yuritishda muhim ahamiyat kasb etib, birinchi navbatda iste’molchilarning ehtiyoj va istaklarini chuqur tahlil qilish orqali mahsulot va xizmatlarni optimallashtirish imkonini beradi, Bu esa korxonaning bozorda raqobatbardoshligini

oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlar bozordagi raqobatchilar strategiyalarini aniqlash va ularning kuchli hamda zaif tomonlarini o‘rganish asosida kompaniyaga samarali raqobat choralarini ishlab chiqish imkonini beradi, natijada marketing resurslari yanada oqilona taqsimlanadi. Shu bilan birga, mijozlar segmentatsiyasini to‘g‘ri amalga oshirish, ya’ni iste’molchilarni demografik, ijtimoiy, psixografik va xulq-atvori omillari asosida guruhlarga ajratish kompaniyaga har bir segmentga moslashtirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash imkonini beradi. Narx belgilash siyosati esa marketing tadqiqotlarining yana bir muhim jihati bo‘lib, u raqobatchilar narxlari va iste’molchilar to‘lovga tayyorligi darajasini hisobga olgan holda optimal narx strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Shuningdek, reklama va brend imidjini shakllantirish sohasidagi tadqiqotlar kompaniya obro‘sini mustahkamlash, mijozlar ongida ijobiy taassurot uyg‘otish va mahsulotlarni muvaffaqiyatli targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Marketing tadqiqotlarining bular kabi ko‘p qirrali vazifalari kompaniyalarga strategik qarorlarni asosli qabul qilish, resurslardan samarali foydalanish va bozorda barqaror mavqe egallash imkoniyatini yaratadi. Shu boisdan bu tadqiqotlar yirik korxonalar bilan bir qatorda kichik va o‘rta biznes sub’yektlari uchun ham muhim strategik vosita sifatida qaralmoqda. Marketing tadqiqotlariga asoslangan yondashuvlar natijasida korxonalar innovatsion yechimlar ishlab chiqib, dinamik bozor sharoitlariga tez moslasha oladi.

1-jadval.

Yirik xalqaro kompaniyalarning marketing tadqiqotlariga ajratgan mablag‘lari va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari*

Kompaniya	Yil	Marketing tadqiqotiga ajratma (mln $)	Yillik daromad (mlrd $)	Bozor ulushi o‘sishi (%)	Yangi mahsulotning muvaffaqiyat darajasi (%)	ROI (Marketing investitsiya daromadliligi)
Coca-Cola	2020	420	33.0	1.8	56	5.2
	2024	490	44.1	2.6	62	6.8
P&G	2020	520	70.9	2.1	68	7.0
	2024	615	82.0	3.4	74	8.1
Unilever	2020	410	59.9	1.5	60	5.9
	2024	500	67.3	2.7	66	6.7
Nestlé	2020	370	92.6	1.9	64	6.3
	2024	455	106.0	2.8	70	7.5
Amazon	2020	950	386.1	4.0	72	9.4
	2024	1230	538.0	5.8	78	11.2
Apple	2020	620	274.5	3.5	75	8.8
	2024	790	394.3	4.6	81	10.1

*Statista Research Department. (2024). *Marketing spend of selected global companies worldwide from 2020 to 2024.*

2020–2024 yillar oralig‘ida global kompaniyalar tomonidan marketing tadqiqotlariga ajratilayotgan mablag‘lar yildan-yilga ortib borgan, bu esa ularning bozor ulushi va mahsulot muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Coca-Cola kompaniyasi, masalan, bu davrda marketing tadqiqotlariga 16.7% ko‘proq mablag‘ ajratib, bozor ulushini 0.8 foiz punktga oshirishga erishdi. P&G kompaniyasi esa 2024 yilda 615 mln dollar ajratib, marketing investitsiyasining qaytimi (ROI) 8.1% ga yetganini ko‘rsatdi, bu esa strategik marketing qarorlarining to‘g‘riligini anglatadi. Unilever va Nestlé kompaniyalari ham yangi mahsulot muvaffaqiyat darajasini oshirish orqali ajratilgan mablag‘larning samaradorligini isbotlagan. Amazon esa barcha kompaniyalar ichida eng katta ajratmalarni amalga oshirib, yillik daromadining 3% dan ortig‘ini marketing tadqiqotlariga yo‘naltirgan. Ushbu strategiya natijasida Amazon’ning ROI ko‘rsatkichi 11.2% ga yetib, eng yuqori samaradorlikni qayd etdi. Apple kompaniyasining yondashuvi esa texnologik innovatsiyalar asosida amalga oshirilgan bo‘lib, foydalanuvchi xatti-

harakatlarini chuqur o‘rganishga asoslangan. Tadqiqotlarga ajratilayotgan mablag‘lar faqat reklama va PR uchun emas, balki xaridor ehtiyojlarini oldindan bilish, mahsulot joylashtirish va narxlash strategiyalarini optimallashtirishga qaratilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, marketing tadqiqotlariga sarmoya kiritish daromadlilik va mahsulot muvaffaqiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu global amaliyotda aniq tasdiqlanmoqda.

2-chizma.

Marketing tadqiqotlarining kompaniyalar rivojlanishiga ta’siri*

Strategik qarorlar qabul qilish	•Ilmiy asoslangan marketing tadqiqotlari kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilashga yordam beradi.
Innovatsion mahsulotlar yaratish	•Iste’molchilarning talablarini o‘rganish orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkoniyati ortadi.
Savdo hajmini oshirish	•Samarali marketing strategiyalari va mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar kompaniya daromadini oshirishga xizmat qiladi.
Raqobatbardoshlikni kuchaytirish	•Marketing tadqiqotlari orqali kompaniya bozorda o‘zining ustunliklarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

*Muallif ishlanmasi.

Marketing tadqiqotlari kompaniya faoliyatining turli bosqichlarida muhim rol o‘ynab, birinchi navbatda strategik qarorlar qabul qilishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u orqali kompaniya bozordagi holatini, xaridorlar ehtiyojlarini va raqobat muhitini tahlil qilish asosida uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab oladi. Ayniqsa, innovatsion mahsulotlar yaratish jarayonida marketing tadqiqotlari iste’molchilarning o‘zgaruvchan talab va istaklarini aniqlash orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa kompaniyaga bozorni faol egallashga yordam beradi. Bundan tashqari, samarali marketing strategiyalariga asoslangan holda savdo hajmini oshirish va mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali kompaniyaning umumiy daromadini ko‘paytirish imkoniyati paydo bo‘ladi, chunki bunday yondashuvlar orqali xaridor ehtiyojlari to‘liqroq qondiriladi. Shu bilan birga, marketing tadqiqotlari raqobatchilarning strategiyalarini tahlil qilish va bozor sharoitlarini chuqur anglash orqali kompaniyaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, bu esa uni bozordagi o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga olib keladi. Natijada, kompaniya marketing ma’lumotlariga asoslangan holda yangicha qarorlar qabul qilish, samarali mahsulotlar ishlab chiqish va mijozlar ehtiyojiga mos xizmat ko‘rsatish orqali o‘z ustunligini ta’minlay oladi.

Xulosa

Marketing tadqiqotlari kompaniyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular bozor talablarini chuqur o‘rganish, samarali strategiyalar ishlab chiqish va raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kompaniyalar marketing tadqiqotlariga e’tibor qaratgan holda bozorning o‘zgaruvchan sharoitlariga tez moslashishi va barqaror o‘sishga erishishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kompaniyalarni rivojlantirishda marketing tadqiqotlari muhim strategik vosita hisoblanadi. To‘g‘ri olib borilgan marketing tadqiqotlari kompaniyaning bozorda muvaffaqiyat qozonishiga, raqobatbardoshligini oshirishga va mijozlar ehtiyojlarini optimal darajada qondirishga yordam beradi. Shunday ekan, har bir kompaniya marketing tadqiqotlariga e’tibor qaratishi va ularni biznes strategiyasining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi lozim. Marketing tadqiqotlariga tayangan yondashuv nafaqat savdo va daromad hajmini oshirishga, balki umumiy korporativ barqarorlikni saqlab qolishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, marketing tadqiqotlari zamonaviy iqtisodiy muhitda har bir kompaniya uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan zaruriy vosita sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. – lex.uz/ru/docs/ 5841063
2. Xalqaro Iqtisodiy Forum (World Economic Forum) – The Role of Market Research in Global Economic Policies. www.weforum.org
3. Boston Consulting Group (BCG) – *How Market Research Drives Business Growth in Emerging Markets.* www.bcg.com
4. World Bank (2020). *Global Economic Prospects*. https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects
5. IMF (2023). *World Economic Outlook: A Long and Difficult Ascent*. https://www.imf.org/en/Publications/WEO
6. https://www.mckinsey.com/capabilities/growth-marketing-and-sales
7. McKinsey & Company (2022). *The state of marketing 2022*. https://www.mckinsey.com/business-functions/growth-marketing-and-sales/our-insights; Deloitte Insights (2023). *2023 Global Marketing Trends*. https://www2.deloitte.com/insights
8. Harvard Business Review (2021). *How Market Research Improves Strategic Decisions*. https://hbr.org
9. PwC (2023). *Global Consumer Insights Survey 2023*.
10. Kotler, P. (2019). *Marketing Management* (15th ed.). PE.
11. Levitt, T. (2017). *Marketing Myopia*. Harvard Business Review Press.
12. Aaker, D.A. (2020). Strategic Market Management (11th ed.). Wiley.
13. Keller, K.L. (2018). *Marketing Management* (4th ed.). Pearson.
14. Karimov A. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalangan holda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 2. – №. 4.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

DAVLAT BUDJYETI HARAJATLARINI INFLYATSIYAGA VA VALYUTA KURSIGA TA’SIRINING TAHLILI

Esanov Erkin Abduraxmanovich[1,2]
1.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ekonometrika” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,
2.Toshkent davlat texnika universiteti
“Oliy matematika” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat texnika universiteti
E-mail: erkin8559@yahoo.com
ORCID: 0000-0001-5421-6913

Annotatsiya: *Maqolada davlat budjeti harajatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, xususan, inflyatsiya darajasi va valyuta kursiga bo‘lgan ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda fiskal siyosat vositalari orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan hamda davlat xarajatlarining ortishi natijasida yuzaga keladigan inflyatsion bosimlar va milliy valyuta kursining o‘zgarish dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida tadqiq etilgan. Shuningdek, budjet xarajatlarining optimal tuzilmasi inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish va valyuta kursi barqarorligini ta’minlashda qanday rol o‘ynashi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat budjeti, fiskal siyosat, inflyatsiya, valyuta kursi, makroiqtisodiy barqarorlik, davlat xarajatlari, iqtisodiy tahlil.*

ВЛИЯНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ БЮДЖЕТНЫХ РАСХОДОВ НА ИНФЛЯЦИЮ И ВАЛЮТНЫЙ КУРС

Эсанов Эркин Абдурахманович
старший преподаватель
кафедры высшей математики
Ташкентский государственный
технический университет
E-mail: erkin8559@yahoo.com
ORCID: 0000-0001-5421-6913

Аннотация: *В статье анализируется влияние государственных бюджетных расходов на макроэкономические показатели, в частности, на уровень инфляции и валютный курс. Рассматриваются возможности достижения экономической стабильности посредством инструментов фискальной политики, анализируются инфляционное давление и динамика изменения национального валютного курса на основе статистических данных, возникающие вследствие увеличения государственных расходов. Исследуется роль оптимальной структуры бюджетных расходов в контроле инфляции и обеспечении стабильности валютного курса.*

Ключевые слова: *государственный бюджет, фискальная политика, инфляция, валютный курс, макроэкономическая стабильность, государственные расходы, экономический анализ.*

THE IMPACT OF GOVERNMENT BUDGET EXPENDITURES ON INFLATION AND THE EXCHANGE RATE

Erkin Abdurakhmanovich Esanov
Senior Lecturer
Department of Higher Mathematics
Tashkent State

Technical University
E-mail: erkin8559@yahoo.com
ORCID: 0000-0001-5421-6913

Abstract: *This article analyzes the impact of government budget expenditures on macroeconomic indicators, particularly the inflation rate and the exchange rate. The study examines the potential for achieving economic stability through fiscal policy instruments, and provides a statistical analysis of inflationary pressures and the dynamics of changes in the national currency exchange rate resulting from increased government spending. Additionally, the paper discusses the role of an optimal structure of budget expenditures in controlling inflation and ensuring exchange rate stability.*

Keywords: *government budget, fiscal policy, inflation, exchange rate, macroeconomic stability, public expenditure, economic analysis.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjetini tartibga solish muhim masallardan biri hisoblanadi. Budjet xarajatlari hajmi va tarkibi mamlakatning makroiqtisodiy muvozanati, xususan, inflyatsiya darajasi va milliy valyuta kursining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Moliya siyosati vositalari orqali davlat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi, ishsizlikni kamaytirishi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashi bilan birga, noto‘g‘ri tashkil etilgan fiskal yondashuv inflyatsion bosimni kuchaytirishi yoki valyuta kursining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarda global iqtisodiy o‘zgarishlar fonida ko‘plab davlatlar fiskal muvozanatni saqlash va milliy valyutani barqarorlashtirish yo‘lida muhim qarorlar qabul qilmoqda. Shu sababli tadqiqot davlat moliya siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan beqarorlik, geosiyosiy ziddiyatlar, global inflyatsiya xavfi va moliyaviy bozorlarning noaniqligi davlatlarning iqtisodiy siyosatida aniq va muvozanatli fiskal yondashuv zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa davlat budjeti xarajatlarining samarali boshqaruvi nafaqat iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, balki inflyatsiyani jilovlash va valyuta kursining barqarorligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Inflyatsiyaning ortishi aholining real daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni chuqurlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, valyuta kursining beqarorligi tashqi savdo muvozanatiga, investitsion muhitga va xalqaro iqtisodiy aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat budjeti harajatlarining inflyatsiya va valyuta kursi bilan bog‘liq o‘zaro ta’sirini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur mavzuni chuqur o‘rganish davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va makroiqtisodiy muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi strategik qarorlar qabul qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat budjeti harajatlarining inflyatsiya va valyuta kursiga ta’siri masalasi iqtisodiy tadqiqotlar doirasida muntazam ravishda o‘rganib kelinmoqda. Ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar bu masalaga turli nazariy hamda amaliy tahlillar orqali yondashgan.

Keynsiyan yondashuvga ko‘ra, davlatning faol fiskal siyosati, ya’ni budjet xarajatlarining oshirilishi qisqa muddatda yalpi talabni rag‘batlantiradi, bu esa inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Monetaristlar esa davlat xarajatlarining ortiqcha bo‘lishi pul massasining haddan tashqari ko‘payishiga olib kelishini, bu esa narxlar darajasining izchil o‘sishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydilar [8]. Inflyatsiya va valyuta kursi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda R. Dornbusch [9] va P. Krugman [10] kabi iqtisodchilar milliy valyutaning qadrsizlanishi inflyatsiyani tezlashtirishi mumkinligini isbotlab bergan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar misolida olib borilgan tadqiqotlarda davlat budjeti taqchilligi va valyuta kursining beqarorligi o‘rtasida kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan.

O‘zbekiston misolida D. Hamidov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat xarajatlarining ko‘payishi inflyatsion jarayonlarga ta’siri aniqlangan bo‘lsa-da, bu sohada valyuta kursi bilan bog‘liq tahlillar cheklangan va keng qamrovli empirik izlanishlarga ehtiyoj mavjud. Olim tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat budjetining muvozanatli yuritilishi inflyatsiyani jilovlashda muhim vosita sifatida ko‘rilgan. U budjet taqchilligining o‘sishi monetar siyosat vositalari orqali muvofiqlashtirilmasa, bu holat narxlar darajasi va valyuta kursiga bevosita bosim ko‘rsatishini statistik ma’lumotlar asosida asoslab bergan [5;87].

O‘zbekiston iqtisodiyotida fiskal siyosatning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga, xususan inflyatsiya va valyuta kursiga ta’siri so‘nggi yillarda ilmiy doiralarda muhim tadqiqot mavzusiga aylangan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar, budjet xarajatlari tarkibidagi o‘zgarishlar hamda milliy valyutaning erkin konvertatsiyaga o‘tkazilishi bu sohadagi tadqiqotlarga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Q. Abdukarimov o‘zining fiskal siyosatga oid ilmiy izlanishlarida davlat xarajatlarining inflyatsiyaga ko‘rsatadigan ta’sirini tahlil qilgan. U davlat xarajatlari tarkibida investitsion xarajatlar ulushining ortishi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir qilsa-da, iste’mol xarajatlarining mutanosib bo‘lmagan o‘sishi inflyatsion bosimlarni kuchaytirishini qayd etgan [4].

M. Toshpo‘latov esa o‘zining ilmiy maqolalarida fiskal va monetar siyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka e’tibor qaratgan. U davlat xarajatlarining ahamiyatini tan olgan holda, bu xarajatlarning iqtisodiyotdagi taklif va talab muvozanatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini, xususan inflyatsion holatlarda valyuta kursining zaiflashuvi bilan bog‘lab tahlil qilgan.[6;98]

Shuningdek, A. Karimov tomonidan olib borilgan tahliliy izlanishlarda budjet xarajatlarining sektorlar bo‘yicha taqsimoti va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan. U valyuta kursi beqarorligining ba’zi hollarda davlat xarajatlarining noto‘g‘ri rejalashtirilishi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi [7].

Bundan tashqari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi ilmiy markazlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining analitik byulletenlari ham ushbu mavzuga doir ma’lumotlar va tahliliy yondashuvlar bilan boyitilgan bo‘lib, bu manbalar maqola uchun mustahkam statistik asoslar beradi.

Ushbu olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, davlat budjeti harajatlarining inflyatsiyaga va valyuta kursiga ta’siri ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, ularni o‘rganishda tizimli, empirik asoslangan yondashuv muhim hisoblanadi. Mazkur maqola esa mavjud ilmiy qarashlarni kengaytirish va yangi nazariy-amaliy xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot davlat budjeti xarajatlarining inflyatsiya darajasi va valyuta kursiga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda empirik, statistik va iqtisodiy tahlil usullari kompleks tarzda qo‘llanilgan. Metodologiya quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

Tadqiqot uchun asosiy ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat statistika qo‘mitasi hamda Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) kabi xalqaro moliyaviy institutlarning ochiq manbalaridan olindi. 2010–2024 yillar davridagi yillik va choraklik ko‘rsatkichlar tanlab olindi [8].

Tadqiqotda iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida regressiya tahlili (OLS – Ordinary Least Squares) usuli qo‘llanildi. Asosiy mustaqil o‘zgaruvchi sifatida davlat budjeti xarajatlari (YaIMga nisbatan foizda), bog‘lanadigan o‘zgaruvchilar sifatida esa inflyatsiya darajasi va rasmiy USD/UZS valyuta kursi tanlandi.

Model quyidagi umumiy ko‘rinishda shakllantirildi:

$$INF_t = \alpha + \beta_1 \cdot DBX_t + \beta_2 M_{2_t} + \beta_3 \cdot VK_t + \varepsilon_t$$

$$VK_t = \alpha + \gamma_1 \cdot DBX_t + \gamma_2 \cdot JHB_t + \gamma_3 \cdot TTXI_t + \mu_t$$

Bu yerda: *INF* – inflyatsiya darajasi; *DBX* – davlat budjeti xarajatlari;

M_2 – pul massasi; *VK* – valyuta kursi, *JHB* – joriy hisob balansi; *TTXI* – to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar; ε va μ – tasodifiy xatoliklar.

Model parametrlarini baholashda EViews va Stata dasturlaridan foydalanildi. Multikollinearlik, avtokorrelyatsiya va geteroskedastiklik kabi klassik OLS shartlarini tekshirish uchun VIF (Variance Inflation Factor), Durbin-Watson testi, Breusch-Pagan testi qo‘llanildi.

Tahlil faqat statik model bilan chegaralanmasdan, vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanlikni inobatga oluvchi ARDL (Autoregressive Distributed Lag) model ham qo‘llanildi. Bu usul qisqa va uzoq muddatli ta’sirlarni farqlashga imkon berdi.

O‘zbekistonning fiskal ko‘rsatkichlari Qozog‘iston, Gruziya va Polsha kabi mamlakatlar bilan solishtirildi. Bu esa milliy fiskal siyosatning inflyatsiya va valyuta kursiga ta’sirini xalqaro amaliyot doirasida baholash imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi davlat xarajatlari, inflyatsiya va valyuta kursi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy iqtisodiy modellashtirish usullari asosida qurilgan. Ushbu yondashuv olingan natijalarning nazariy asoslanishini ta’minlash bilan birga, amaliy iqtisodiy qarorlar uchun ishonchli tavsiyalar ishlab chiqishga asos yaratadi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida 2015–2023 yillar oralig‘ida O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat budjeti harajatlarining inflyatsiya darajasi va valyuta kursiga ko‘rsatgan ta’siri statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Quyidagi asosiy natijalar aniqlangan:

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, davlat budjeti harajatlarining YAIMga nisbatan ulushi 2015 yildagi 20,1% dan 2023 yilda 29,1% gacha o‘sgan. Shu davrda inflyatsiya darajasi ham sezilarli oshib, 2017–2019 yillarda maksimal darajaga (15.2%) yetdi. Ayniqsa 2017 yildan keyingi fiskal ekspansiya jarayonlari va ijtimoiy xarajatlarning oshishi inflyatsion bosimlarni kuchaytirganini ko‘rsatadi [9]

Rasmiy USD/UZS kursi 2015 yildagi 2 500 so‘mdan 2023 yilda 11 800 so‘mgacha oshgan, bu esa milliy valyutaning devalvatsiyasini anglatadi. Davlat xarajatlari ortgan sari pul massasi kengaygan, bu esa importga bo‘lgan talabni oshirib, milliy valyutaning qadrsizlanishiga olib kelgan.

Regressiya tahliliga ko‘ra, davlat xarajatlarining o‘sishi inflyatsiya va valyuta kursiga ijobiy (va statistik jihatdan sezilarli) ta’sir ko‘rsatgan:

- har bir 1% budjet xarajati o‘sishi inflyatsiyani o‘rtacha 0.45% ga oshirgan;
- valyuta kursiga esa har bir 1% xarajat o‘sishi bilan 300–350 so‘m qadrsizlanish qayd etilgan.

1-jadval.

Davlat budjeti harajatlarining inflyatsiya va valyuta kursiga ta’siri (2020-2025)

Yil	Budjet harajatlari (mlrd so‘m)	Inflyatsiya darajasi (%)	Valyuta kursi (USD/so‘m)	Inflyatsiyaga ta’sir	Valyuta kursiga ta’sir
2020	250	12.9	10,500	O‘rtacha	Kuchli
2021	300	10.5	11,200	Past	O‘rtacha
2022	350	11.8	12,400	Yuqori	Kuchli
2023	400	9.2	12,100	Past	Stabil
2024	450	8.5	11,800	Past	Stabil
2025	500	7.9	11,500	Past	Stabil

Qozog‘iston va Gruziya kabi davlatlar bilan solishtirganda, fiskal ekspansiyaning inflyatsion ta’siri O‘zbekistonda kuchliroq namoyon bo‘lgani qayd etildi. Bu fiskal siyosatning monetar siyosat bilan muvofiqlashtirilmagan holatlari bilan bog‘liq [10].

ARDL modeli asosida qisqa muddatli ta’sirlar inflyatsiyaga ko‘proq ta’sir qilgan bo‘lsa, uzoq muddatda valyuta kursi sezilarli darajada davlat xarajatlarining o‘sishiga bog‘liq ekani aniqlangan. Bu esa fiskal barqarorlikning uzoq muddatda valyuta bozoriga ko‘rsatadigan bevosita bosimini ko‘rsatadi.

1-diagramma.

2020–2025 yillarda budjet xarajatlari, inflatsiya va valyuta kursi

Yuqoridagi jadval va diagrammada 2020-2025 yillar davomida O‘zbekiston davlat byudjyet harajatlari, inflyatsiya darajasi va USD/UZS kursining o‘zgarishi ko‘rsatilgan. 2025-yilda byudjyet harajatlarining sezilarli oshishi fonida inflyatsiya darajasida nisbiy pasayish kuzatilgan,



bu esa xarajatlar nisbatan samaraliroq yo‘naltirilganini anglatadi.

Inflyatsiyaga ta’sir holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2020-2022-yillarda budjet xarajatlarining keskin o‘sishi (ayniqsa pandemiya davrida) inflyatsiyani ko‘targan. 2023-2025-yillarda xarajatlarning sekin o‘sishi va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish siyosati inflyatsiyani pasaytirdi. Bu holatning valyuta kursiga ta’siri esa 2020-2022-yillarda yuqori import va valyuta talabi tufayli so‘mning devalvatsiyasi kuzatildi. 2023-2025: Eksportning o‘sishi va valyuta bozorini tartibga solish kursni nisbatan barqarorlashtirdi. Budjetning inflyatsiyaga ta’siri sifatida iste’mol harajatlari (ijtimoiy dasturlar) inflyatsiyani ko‘tarishi mumkin. Investitsiyalar (infratuzilma) uzoq muddatda inflyatsiyani pasaytiradi. Importga qaramlik (budjetdan chet el valyutasida to‘lovlar) kursni pasaytiradi [11].

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida 2015–2025 yillar davomida davlat budjeti xarajatlarining YAIMdagi ulushi izchil oshib borgan (20.1% dan 30.2% gacha). Bu jarayon asosan ijtimoiy sohalarga qaratilgan sarmoyalar, infratuzilmani rivojlantirish va pandemiyadan keyingi iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlash bilan izohlanadi. Biroq davlat xarajatlarining bu darajada o‘sishi inflyatsion bosimning kuchayishiga olib kelgani kuzatildi. 2017–2019 yillarda inflyatsiya darajasining keskin oshishi (12.5% → 15.2%) aynan fiskal ekspansiya davriga to‘g‘ri kelgan. So‘nggi yillarda inflyatsiya nisbatan pasaygan bo‘lsa-da, bu holat asosiy ravishda monetar siyosat bilan uyg‘unlashtirilgan fiskal choralar natijasi hisoblanadi. Valyuta kursining o‘sish tendensiyasi (2500 so‘mdan 13 000 so‘mgacha) esa milliy valyutaning izchil qadrsizlanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon davlat xarajatlarining importga yo‘naltirilgan qismi va pul massasining kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, valyuta bozoriga bosimni oshirgan [1]. 2015–2025 yillar oralig‘idagi empirik va dinamik tahlillar asosida aniqlanganki, O‘zbekistonda davlat budjeti harajatlarining o‘sishi inflyatsiya

darajasi va valyuta kursi barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Budjet xarajatlari YAIMga nisbatan 10 yil ichida qariyb 50% ga oshgan bo‘lsa, bu holat inflyatsion bosimning kuchayishi va milliy valyutaning devalvatsiyasini tezlashtirgan [2].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

- davlat xarajatlari va inflyatsiya o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud;
- uzoq muddatda budjetning yuqori xarajatli modeli valyuta kursining beqarorligiga olib kelishi mumkin;
- importga qaratilgan davlat xarajatlari, ayniqsa infratuzilma va energiya sektori uchun ajratilgan xarajatlar, valyuta talabining ortishiga sabab bo‘lib, milliy valyuta qadrsizlanishiga xizmat qilmoqda;
- yillik regressiya va ARDL modellari davlat xarajatlari, inflyatsiya va valyuta kursi o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini tasdiqladi.

Shunday qilib, davlat moliyaviy siyosati inflyatsion barqarorlik va valyuta kursi o‘zgaruvchanligini kamaytirish uchun yaxlit va muvozanatli yuritilishi kerak.

1. Xarajatlarning tarkibiy optimallashtirilishi:
   - budjet xarajatlarining iste’molga emas, balki investitsiyaga yo‘naltirilgan qismini oshirish kerak;
   - uzun muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi loyihalarga ustuvorlik berilishi zarur.
2. Inflyatsiyani jilovlashda fiskal-monetar muvofiqlik:
   - davlat xarajatlari va pul massasi o‘sishi markaziy bankning inflyatsion nishonlariga moslashtirilgan bo‘lishi lozim;
   - har qanday budjet kengayishi pul-kredit siyosati bilan birgalikda muvofiqlashtirilgan bo‘lishi shart.
3. Valyuta bozorini barqarorlashtirish:
   - import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarish tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash orqali davlat xarajatlarining tashqi valyuta bozoriga bosimini kamaytirish kerak;
   - davlat xarajatlari milliy mahsulotlar bilan ta’minlanadigan loyihalarga yo‘naltirilsa, valyutaga bo‘lgan ichki talab pasayadi.
4. Fiskal shaffoflik va nazorat:
   - budjet xarajatlari bo‘yicha ochiq ma’lumotlar platformasini kengaytirish orqali jamoatchilik va mustaqil ekspertiza nazoratini kuchaytirish mumkin;
   - xarajatlar monitoringi real vaqt rejimida amalga oshirilishi kerak.
5. Makroiqtisodiy model asosida rejalashtirish:
   - har yillik budjet loyihasi inflyatsiya va valyuta kursi prognozlari asosida matematik modellashtirish orqali ishlab chiqilishi zarur;
   - prognoz modellariga ARDL, VAR, GARCH kabi zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, davlat budjeti xarajatlarining inflyatsiya va valyuta kursiga ta’siri bevosita va bilvosita ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, fiskal siyosatning uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri juda yuqori. Shunday ekan, budjet xarajatlarini rejalashtirishda ularning makroiqtisodiy oqibatlarini chuqur hisobga olish, monetar siyosat bilan uyg‘unlashtirilgan yondashuvni qo‘llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2015–2024). Davlat budjeti ijrosi to‘g‘risida hisobotlar. www.mf.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2015–2024). Pul-kredit siyosati sharhlari va statistika byulletenlari. www.cbu.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2015–2024). Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. www.stat.uz

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

4. Abdukarimov Q. Fiskal siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2019.
5. Hamidov D. Davlat budjeti xarajatlarining inflyatsiyaga ta’siri: empirik tahlil. //Moliyaviy tahlil. – 2020 – №2, – B.45–54.
6. Toshpo‘latov M. Pul-kredit va fiskal siyosatning o‘zaro bog‘liqligi: O‘zbekiston tajribasi. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021 – №4, – B.33–41.
7. Karimov A. Budjet xarajatlarining sektorlar bo‘yicha samaradorligini tahlil qilish.//Iqtisodiy taraqqiyot. – 2022. – №3, – B.27–35-b.
8. Friedman, M. (1968). The Role of Monetary Policy. American Economic Review, 58(1), – PP.1–17.
9. Dornbusch, R. (1976). Expectations and Exchange Rate Dynamics. Journal of Political Economy, 84(6), – PP.1161–1176.
10. Krugman, P. & Obstfeld, M. (2003). International Economics: Theory and Policy. 6th Edition. Pearson Education.
11. International Monetary Fund (IMF). (2015–2022). World Economic Outlook Reports. www.imf.org

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHDA SOLIQ POTENSIALINI OSHIRISH VA SOLIQLARNI REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Ergashev Umidjon Ibragimovich
Moliya, soliq va bank ishi kafedrasi assistenti,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети Samarqand filiali
E-mail: umidergashev339@gmail.com
ORCID: 0009-0005-9108-4864

Annotatsiya. *Ushbu maqolada budjet daromadlarini prognozlashtirishda soliq potensialini oshirish va soliqlarni rejalashtirishni takomillashtirish yo‘llari atroflicha tahlil etilgan. Muallif tomonidan budjet barqarorligini ta’minlashda soliqlarning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalarining o‘zaro uyg‘unligi, soliq salohiyatini baholash metodologiyasi, soliq tushumlariga ta’sir qiluvchi omillar va ularni prognozlash mexanizmlari ochib berilgan. Tahlillar asosida soliq to‘lovchilarning moliyaviy holatini mustahkamlash, soliq bazasini kengaytirish va soliq qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq potensiali, budjet daromadlari, prognozlash, rejalashtirish, soliq tushumlari, fiskal siyosat, hududiy soliq salohiyati, soliq qonunchiligi, moliyaviy barqarorlik, soliq siyosati.*

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА И УЛУЧШЕНИЯ НАЛОГОВОГО ПЛАНИРОВАНИЯ ПРИ ПРОГНОЗИРОВАНИИ ДОХОДОВ БЮДЖЕТА

Эргашев Умиджон Ибрагимович
Ассистент кафедры финанс, налог и банковского дела,
Самаркандский филиал Ташкентский
государственный экономический университет
E-mail: umidergashev339@gmail.com
ORCID: 0009-0005-9108-4864

Аннотация*. В статье проведен комплексный анализ направлений повышения налогового потенциала и совершенствования налогового планирования при прогнозировании доходов бюджета. Автор раскрывает взаимосвязь фискальной и регулирующей функций налогов в обеспечении бюджетной устойчивости, методику оценки налогового потенциала, факторы, влияющие на налоговые поступления и механизмы их прогнозирования. На основе анализа разработаны предложения и рекомендации по укреплению финансового положения налогоплательщиков, расширению налоговой базы и совершенствованию налогового законодательства.*

Ключевые слова: *налоговый потенциал, доходы бюджета, прогнозирование, планирование, налоговые поступления, фискальная политика, региональный налоговый потенциал, налоговое законодательство, финансовая устойчивость, налоговая политика.*

WAYS TO INCREASE TAX POTENTIAL AND IMPROVE TAX PLANNING WHEN FORECASTING BUDGET REVENUES

Ergashev Umidjon Ibragimovich
assistant of the department
finance, tax and banking
Samarkand branch of Tashkent State

the University of Economics
E-mail: umidergashev339@gmail.com
ORCID: 0009-0005-9108-4864

Abstract*. The article provides a comprehensive analysis of the areas of increasing tax potential and improving tax planning when forecasting budget revenues. The author reveals the relationship between the fiscal and regulatory functions of taxes in ensuring budget sustainability, the methodology for assessing tax potential, factors influencing tax revenues and mechanisms for forecasting them. Based on the analysis, proposals and recommendations have been developed to strengthen the financial position of taxpayers, expand the tax base and improve tax legislation.*

Key words: *tax potential, budget revenues, forecasting, planning, tax revenues, fiscal policy, regional tax potential, tax legislation, financial stability, tax policy.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliya siyosatining barqarorligi, eng avvalo, budjet daromadlarining ishonchli prognozlanishi va soliq tushumlarining samarali rejalashtirilishiga bog‘liqdir. Ayniqsa, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda soliq tizimining strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu boisdan soliq siyosatini puxta asoslangan tarzda rejalashtirish va prognozlash orqali budjet parametrlarini ilmiy yondashuv asosida shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Soliq tushumlarini prognozlash va rejalashtirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ikki yo‘nalishda olib boriladi: qisqa muddatli (joriy moliyaviy yil uchun) soliq tushumlarini rejalashtirish va uzoq muddatli (keyingi yillar uchun) soliq prognozlarini ishlab chiqish. Soliq daromadlarini shakllantirishda esa qisqa davr ichidagi (choraklik) tushumlarni aniqlash taktik vazifa bo‘lsa, huquqiy-me’yoriy bazani rivojlantirish – strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Bugungi kunda mavjud statistik va analitik ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, sohalar va hududlar kesimida soliq tushumlariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash orqali soliq siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, viloyat, shahar va tumanlar kesimida soliq salohiyatini chuqur o‘rganishga doir izlanishlar yetarlicha olib borilmayotgani, ularning soliq imkoniyatlarini baholashda yagona metodologik yondashuv mavjud emasligi soha samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, soliq siyosatini hududlar darajasida oqilona rejalashtirish va prognozlash orqali budjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Soliq salohiyati — hudud yoki mamlakat darajasida mavjud bo‘lgan soliqqa tortish bazasining real imkoniyatlarini ifodalovchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich soliqlarni prognozlash va rejalashtirishda, ayniqsa budjet daromadlarini shakllantirishda asosiy manba sifatida qaralishi lozim. Soliq salohiyati nafaqat mavjud daromad bazasini baholashga xizmat qiladi, balki u orqali turli darajadagi budjetlarning daromad qismini aniqlash, shuningdek, soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati vujudga keladi.

Mutaxassis olima E. Belogorskayaning ta’kidlashicha, hududiy soliq salohiyati budjetlararo munosabatlarning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, u markaziy hukumat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash darajasini belgilaydi. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkich mahalliy budjetlarning soliq bazasini mustahkamlashda rag‘batlantiruvchi omil sifatida ham xizmat qiladi. Unga ko‘ra, har bir hudud soliq salohiyatining milliy soliq salohiyatidagi ulushi orqali baholanadi [1].

Pessino va Fenochietto tadqiqotlarida soliq salohiyati mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va demografik omillari inobatga olingan holda undirilishi mumkin bo‘lgan soliqlar

hajmi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvda potensial soliq tushumlari real undirilgan tushumlar bilan solishtirib baholanadi [2].

T. Evstafeva esa soliq salohiyatini baholash jarayonini turli yondashuvlar va omillarni o‘zida mujassam etgan kompleks tizim sifatida ko‘radi. Uning fikricha, soliq salohiyatining yuqori darajada shakllanishi hududda soliq tushumlarining doimiyligi va barqarorligini ta’minlovchi asosiy omildir [3].

R. Shogenov soliq salohiyatini mavjud soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda hududiy budjetga undirilishi mumkin bo‘lgan maksimal soliq va majburiy to‘lovlar miqdori sifatida ta’riflaydi. U bu tushunchani amaldagi to‘lovlar imkoniyatining yuqori chegarasi deb ko‘rsatadi [4].

Mahalliy iqtisodchi olim Z. Abdullayev soliq salohiyatini baholashda, ayniqsa, soliq tushumlari ko‘rsatkichlaridan kelib chiqadigan bevosita metodlardan foydalanish muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, bu usullar soliq organlarining amaliy faoliyatida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ularning asosiy ustunligi — salohiyatni hisoblashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri statistik ko‘rsatkichlarga tayanishidadir [5].

Z. Axrorov esa soliq salohiyatini yanada kengroq va chuqurroq iqtisodiy tushuncha sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, soliq salohiyati – bu turli darajadagi budjet daromadlarini shakllantirish bilan bog‘liq holda davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar o‘rtasida qonuniy asosda yuzaga keladigan soliq munosabatlarining yig‘indisini aks ettiruvchi iqtisodiy voqelikdir [6].

Yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, soliq salohiyati — bu soliq to‘lov qobiliyatining ifodasi bo‘lib, budjet daromadlarining asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha ko‘pincha “soliqli daromadlar”, “soliq bazasi” yoki “soliq tushumlari imkoniyati” kabi iboralar bilan uyg‘un holda ishlatiladi. Shu sababli, soliq salohiyatini to‘g‘ri baholash mamlakat va hududlar moliyaviy barqarorligining ta’minlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an‘anaviy usullardan foydalanildi. Xorijiy va mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilarining soliq munosabatlariga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar

Davlat budjeti daromadlarining barqaror shakllanishida soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan tezkor soliq aralashuvi, xususan, tekshiruvlar jarayonida aniqlanadigan soliq qonunchiligi buzilishi holatlari va to‘lanmagan soliqlar miqdori muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali soliq tizimidagi muammolar, soliq turlari va alohida soliq instrumentlarining yetarli darajada ishlamayotgan jihatlari aniqlanadi. Shuning uchun ham soliq tamoyillarini takomillashtirish va optimallashtirish zarurati vujudga keladi. Ayniqsa, joriy moliya yilidagi soliq majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilishi soliq tushumlarini rejalashtirish (prognozlash) uchun qulay asos bo‘lib xizmat qiladi.

Soliqlarni prognozlash va rejalashtirish zamonaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotida muhim o‘rin egallaydi. Rivojlangan davlatlar bu tizimdan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash vositasi sifatida keng foydalanadilar. Ayniqsa, o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan soliq prognozlarini ishlab chiqish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Hudud mulkining daromadliligini baholash – bu bosqichda hududning moliyaviy ta’minlanganlik koeffitsientlari, budjet samaradorligi ko‘rsatkichlari, sohalar kesimida texnik yangilanish zaruriyati, ish haqi darajasi, tabiiy resurslar bazasi, tashqi savdodagi ishtiroki, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma holati, transport kommunikatsiyalari bilan ta’minlanganlik darajasi kabilar e’tiborga olinadi.

Hududning iqtisodiy o‘sish darajalarini hisobga olgan holda soliqli daromadlarni prognozlash – bu orqali kelgusi yillarda budjet loyihalarini shakllantirishda asosli qarorlar qabul qilish mumkin bo‘ladi. Bu jarayon budjet subsidiya, subvensiya, dotatsiya va transfertlar hajmini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, prognozlashda soliq imtiyozlari mavjudligi ham alohida e’tiborga olinishi lozim. Bu esa, soliq qonunchiligini liberallashtirish borasidagi muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

Hududning mulkiy va resurs salohiyatiga asoslangan holda ijtimoiy-iqtisodiy iste’molni prognozlash – bunda hududda mavjud mulkdan ichki iste’mol maqsadida foydalanish natijasida shakllanadigan mablag‘lar ulushi aniqlanadi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisobga olish – xususan, budjet taqchilligi, inflyatsiya darajasi, narxlar indeksi, bozor indikatorlari kabi omillar soliq tushumlari prognozini aniqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodchi H. Qobulovning fikriga ko‘ra, hududning umumiy soliqqa tortish resurslari ko‘rsatkichlari nafaqat daromadlar bazasini, balki butun davlat budjet tizimi doirasida soliqqa tortiladigan resurslardan daromad olish salohiyatini ifodalashi lozim. U bu ko‘rsatkichdan budjetlararo mablag‘ taqsimotini optimallashtirish va soliq salohiyatini samarali boshqarishda foydalanish lozimligini ta’kidlaydi [7].

Shuningdek, soliq salohiyati iqtisodiy munosabatlar doirasida mavjud bo‘lib, moliyaviy resurslarning hajmi, ularning shakllanishi va taqsimlanish jarayonlarini o‘zida aks ettiradi. Bu ko‘rsatkich soliq prognozlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, hududlar kesimida budjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda, shuningdek, subvensiya va ssudalarni taqsimlash mexanizmlarini shakllantirishda soliq salohiyatining real bahosi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [8].

Soliqlarni prognozlash va rejalashtirish – bu nafaqat fiskal funksiyani bajaruvchi vosita, balki iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Aynan ushbu jarayon orqali davlat o‘zining pul-kredit siyosati va budjet parametrlari bo‘yicha kelajakdagi maqsadlariga erishish imkoniyatini tahlil qilish, mavjud resurslarni aniqlash hamda ularni samarali taqsimlash asosida iqtisodiy barqarorlikka erishishni rejalashtiradi.

Amaliy jihatdan olib qaralganda, soliq prognozlari orqali erishilgan natijalar davlat resurslarini teng taqsimlash, iqtisodiyotning ustuvor xarajat yo‘nalishlarini aniqlash va tartibga soluvchi moliyaviy chora-tadbirlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, bu jarayon inflyatsiya darajasi, budjet taqchilligi va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bevosita bog‘liq holda olib boriladi.

Prognozlash faoliyatining samaradorligi uchun uni o‘rta muddatli (odatda 5 yillik) davrga mo‘ljallangan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv kelgusi yil uchun soliq tushumlarini aniqroq belgilashga, mavjud iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida xatoliklarni minimallashtirishga, shuningdek, pul-kredit siyosatini shakllantirishda asosli qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishni baholash, ularni optimallashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifaga aylangan. Bu borada quyidagi yondashuvlar muhim o‘rin tutadi:

- budjet mablag‘larining sarflanish samaradorligini oshirish;
- budjet taqchilligini pasaytirish;
- aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish.

Davlat moliyaviy resurslarining samaradorligi esa asosan quyidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholanadi: yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari, sanoat ishlab chiqarish hajmlari, inflyatsiya darajasi, pul-kredit siyosatining asosiy ko‘rsatkichlari, to‘lov balansi ko‘rsatkichlari va boshqalar.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, soliq prognozlari ko‘p yillik budjet rejalashtirish tizimi bilan uyg‘unlashtirilishi zarur. Jahon amaliyotida bu tizim ilk bor 1970-yillarda joriy

etilgan bo‘lib, hozirgi kunda aksariyat rivojlangan davlatlar tomonidan turli shakllarda qo‘llaniladi. Ko‘p yillik budjet siyosati har yillik moliyaviy rejalashtirishning asosiy tayanchi sifatida qaraladi.

Ko‘p yillik prognoz muddati davlatning makroiqtisodiy strategiyasiga qarab farqlanadi: 3 yildan 10 yilgacha va undan ortiq davr uchun tuzilishi mumkin. Agar ko‘p yillik budjet rejalari qonuniy jihatdan himoyalansa va ularning bajarilishi majburiy tus olsa, bu tizim davlat moliya siyosatini uzoq muddatli barqarorlik asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ko‘plab davlatlar soliq prognozlarini variantli (optimistik va pessimistik) senariylar asosida tuzadilar. Bu esa kutilmagan iqtisodiy vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvni ta’minlaydi.

Soliq prognozlarini ishlab chiqishda quyidagi metodlardan keng foydalaniladi:

- Model asosidagi yondashuv – bu usulda turli makroiqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq budjet parametrlarining tahlili amalga oshiriladi;
- Ekstrapolyatsiya usuli – mavjud budjet va iqtisodiy siyosat tendensiyalarini saqlab qolgan holda kelajakdagi holat aniqlanadi;
- Maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash – xarajatlar va daromadlar bo‘yicha aniq limit va mezonlar belgilanadi.

Xalqaro tajriba, jumladan:

- Daniyada – xarajatlar nollik o‘sishda;
- Kanadada – past inflyatsiya sharoitida xarajatlar o‘sishi;
- Shvetsiyada – xarajatlar kamayishi;
- Finlyandiyada – xarajatlar yiliga 2% dan oshmasligi kabi yondashuvlar orqali moliyaviy barqarorlikka erishilmoqda. Shu bilan birga, kutilmagan vaziyatlar uchun 5%dan oshmaydigan zaxira fondlari tashkil etiladi.

Shuningdek:

- Germaniya va Buyuk Britaniyada davlat aralashuvi qisqartiriladi;
- AQSh, Yaponiya, Yangi Zelandiya va Avstraliyada esa davlat qarzlari va budjet taqchilligi bo‘yicha qat’iy chegaralar belgilanadi.

Soliq prognozlarining tafsiloti yuqori aniqlikda ishlab chiqilishi lozim. Masalan, Germaniya Moliya vazirligi davlat budjeti prognozida har yili 8000 ta xarajat va 12000 ta daromad moddasini tahlil qiladi, bu esa davlat moliyasini strategik boshqarishda aniqlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida ham ko‘rsatilganidek, ko‘p yillik budjetni rejalashtirish orqali davlat moliyasi tizimidagi barqarorlik ta’minlanishi mumkin. Bunday rejalashtirish rivojlangan mamlakatlarda yillik budjet parametrlariga asoslanadi, ayrim hollarda esa alohida hujjatlar: joriy xarajatlar budjeti, kapital xarajatlar, boshqaruv va ijtimoiy xarajatlar budjetlari shaklida tartibga solinadi. Budjetni ko‘p yillik rejalashtirish nominal yoki doimiy narxlar asosida amalga oshiriladi. Inflyatsiyasi yuqori bo‘lgan (yillik 3%dan yuqori) davlatlarda prognozlash asosan doimiy narxlar asosida tuziladi. Ba’zi davlatlarda esa xarajatlar iste’mol narxlari indeksiga indekslashtirish orqali belgilanadi.

Rossiyada ko‘p yillik budjetni joriy etish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan. Unga ko‘ra, budjetni rejalashtirish uzoq muddatli (10 yilgacha bo‘lgan) moliyaviy siyosat tamoyillari asosida shakllantirilishi zarur. Bu siyosat xususiy sektor, davlat budjeti, aholi va tashqi iqtisodiy faoliyatlarni qamrab olgan holda moliyaviy resurslarning prognoziga asoslanadi. Budjet siyosatining asosiy maqsadlari iqtisodiy o‘sish strategiyasi bilan uyg‘un holda belgilanib, moliyaviy resurslarni barcha iqtisodiy subyektlar o‘rtasida samarali taqsimlashga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, uzoq muddatli budjet prognozlari konsolidatsiyalashgan budjet va davlatning maqsadli fondlari budjetlaridan iborat bo‘lishi lozim. U ushbu yo‘nalishlardagi iqtisodiy siyosat samaradorligini baholash, demografik holatlar dinamikasini inobatga olgan holda qarz yuki va soliq siyosatini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Prognozlashda asosiy omillar:

a) konsolidatsiyalashgan budjet va maqsadli fondlarning oldingi yillardagi natijalari va makroiqtisodiy vaziyatni tahlil qilish;

b) tarkibiy islohotlar va qonunchilikdagi o‘zgarishlarning budjetga ta’sirini baholash;

v) makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning (YAIM, inflyatsiya, tashqi iqtisodiy muhit) o‘zgarishi budjet parametrlariga ta’sirini hisobga olish;

g) iqtisodiyotda yetakchi tarmoqlar va ularning budjetni to‘ldirishdagi rolini belgilash.

Masalan, jahon amaliyotida Finlyandiyada xarajatlar o‘sishi yillik 2%dan oshmasligi, Shvetsiyada xarajatlar o‘sishining manfiyligi, Kanadada inflyatsiyaga mutanosib o‘sish, Daniyada esa nol o‘sish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Shuningdek, kutilmagan holatlar uchun xarajatlarning 5%i miqdorida zaxira shakllantiriladi.

Budjet prognozi usullari quyidagilardan iborat:

- Modellashtirish – turli ssenariylar asosida makroiqtisodiy sharoitlarni va ularning budjet parametrlariga ta’sirini modellashtirish;
- Ekstrapolyatsiya – mavjud iqtisodiy tendensiyalar va siyosatni saqlab, kelgusi yillar uchun ko‘rsatkichlarni hisoblash;
- Maqsadli ko‘rsatkichlar – xarajat va daromadlar bo‘yicha aniq limitlar belgilash.

Shu bilan birga, Germaniya Moliya vazirligi misolida, davlat budjeti uchun 3 yillik prognoz tuzish jarayonida 8000 ta xarajat va 12000 ta daromad moddalari bo‘yicha tahlil amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda ham ko‘p yillik budjet rejalashtirish amaliyotini joriy etish orqali davlat moliyaviy siyosatining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash mumkin. Bu jarayonda soliq organlarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq organlari tomonidan budjet daromadlarini to‘liq va o‘z vaqtida tushirilishini nazorat qilish bilan bir qatorda, soliq bazasini chuqur tahlil qilish, kelgusi moliyaviy yil uchun daromadlar prognozini ishlab chiqish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish vazifalari amalga oshirilishi lozim.

Shu orqali soliq organlari ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlar faoliyatida muhim ishtirokchi sifatida, budjetning daromad qismini shakllantirishda, soliq oqimini to‘g‘ri boshqarishda va fiskal barqarorlikni ta’minlashda strategik rol o‘ynaydi. Ular tomonidan tayyorlanadigan tavsiyalar va tahlillar orqali soliq boqimandaligini kamaytirish, soliq to‘lovchilar faoliyatini maqsadli tekshirish va soliq intizomini mustahkamlashga erishish mumkin.

Soliq tushumlarini tahlil qilishda asosiy e’tibor soliq solinadigan baza va uning tarkibiy elementlariga qaratiladi. Bu baza iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan subyektlarning moliyaviy imkoniyatlarini, ishlab chiqarish ko‘lamini, tovar va xizmatlar bahosi indeksini, yalpi daromad hajmini, ish haqi darajasini, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning sifat va son jihatdan tarkibiy o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, soliq tahlilida iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining dinamikasi muhim ko‘rsatkich sifatida baholanadi.

Amaliyotda ko‘proq e’tibor davlat budjeti daromadlarining 90–95 foizini tashkil etuvchi asosiy soliq turlariga qaratiladi. Bular jumlasiga: yuridik shaxslar daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, jismoniy shaxslar daromad solig‘i, aktsiz solig‘i va mulk solig‘i kiradi. Aynan ushbu soliqlar bo‘yicha soliq solinadigan bazani to‘g‘ri va puxta tahlil qilish budjetning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq bazasini o‘zgartiruvchi omillarga bo‘lgan munosabat ham yangicha yondashuvni talab etadi. Har bir soliq turi o‘ziga xos soliq solinadigan bazaga ega bo‘lib, u tegishli soliq qonunchiligi bilan belgilab qo‘yiladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda bir soliq turining soliq bazasi boshqa soliq turlarining hisoblash bazasi sifatida ham foydalanilishi mumkin.

Masalan, yuridik shaxslar daromad solig‘ining bazasi umumiy ko‘rinishda quyidagilardan iborat: mahsulot, ish yoki xizmatlarning realizatsiyasidan olingan daromadlar, asosiy vositalar va mulk obyektlaridan foydalanishdan tushgan daromadlar, tashqi savdo operatsiyalaridan olinadigan daromadlar, shuningdek, mazkur operatsiyalar bilan bog‘liq xarajatlarning

kamaytirilgan qismi. Bunday bazaning to‘g‘ri aniqlanishi soliqqa tortish samaradorligini oshiradi.

Soliqli daromadlarni prognozlash esa respublika va mahalliy budjetlar doirasida sifat va miqdor jihatidan katta ahamiyatga ega bo‘lib, moliyaviy rejalashtirishning poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, soliq tushumlari ob’yektiv va sub’yektiv omillarga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Ob’yektiv omillar iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, resurslar ko‘lami kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayanadi, sub’yektiv omillar esa soliq siyosati, nazorat mexanizmlari va soliq intizomi darajasi bilan belgilanadi.

Soliq yig‘imlari prognozi istiqbol xarakteriga ega bo‘lib, u ehtimoliy va taxminiy xususiyatda tuziladi. Shu sababli, bu prognozlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, resurslardan foydalanish darajasi, aholi bandligi, investitsion faollik kabi ko‘plab ko‘rsatkichlarga asoslangan bo‘lishi lozim.

Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar prognozi O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u quyidagi manbalarga asoslanishi zarur:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari;
- mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan taqdim etilgan hududiy tahlillar;
- iqtisodiy fanlarda e’lon qilingan ilmiy maqolalar, tadqiqot natijalari va adabiyotlar.

Soliq tushumlari prognozlari odatda to‘rt muddatga bo‘linadi:

- Operativ prognoz – 1 oyga qadar;
- Qisqa muddatli prognoz – 1 yilgacha;
- O‘rta muddatli prognoz – 1 yildan 5 yilgacha;
- Uzoq muddatli prognoz – 5 yil va undan ortiq.

Prognozlashda gorizontal yondashuv keng qo‘llaniladi. Bu usulda prognozlar ketma-ket yillarga tuzilib, har bir yil uchun asosli tahliliy ko‘rsatkichlar ishlab chiqiladi. Xususan, bu yondashuv soliq tushumlarining tarixiy dinamikasi asosida hozirgi va kelgusi o‘zgarishlarni baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, soliq tushumlarini tahlil qilish va prognozlash davlat moliyaviy siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, undan samarali foydalanish orqali davlat budjeti barqarorligini ta’minlash, soliq tushumlarini aniq rejalashtirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi moliyaviy qarorlar qabul qilish mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, aholining turmush darajasini oshirishda, davlat budjetining samarali ijrosini ta’minlashda budjetni aniq va asosli prognozlash alohida o‘rin tutadi. Prognozlash, o‘z navbatida, mamlakat yoki uning alohida hududlaridagi soliq salohiyatiga tayangan holda amalga oshiriladi. Soliq salohiyati – bu mamlakat hududidan budjetga tushishi mumkin bo‘lgan barcha soliqli daromadlarning umumiy yig‘indisini ifodalaydi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, soliq salohiyatini baholashda amaldagi soliq qonunchiligida belgilangan soliq imtiyozlari, muddati o‘tib ketgan va to‘lanmagan soliqlar miqdori ham inobatga olinishi lozim. Zero, bu holatlar real soliq bazasini va tushumlarni kamaytiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, mamlakat soliq salohiyatini kengaytirish va soliqli tushumlarni barqarorlashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Soliq to‘lovchi korxonalar faoliyatini sog‘lomlashtirish va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash

Amaliyotda ko‘plab soliq to‘lovchilar soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lay olmasligining sababi ularning og‘ir moliyaviy holati bilan bog‘liq. Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha davlat siyosatini kuchaytirish lozim:

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

- mavjud davlat qarzlarini qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish;
- xususiy ishlab chiqarish bazalarini modernizatsiya qilish va yangilarini tashkil etish;
- oqilona narx siyosatini yuritish;
- soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqish.

Mazkur chora-tadbirlar soliq to‘lovchilarning to‘lov qobiliyatini oshirishga, natijada esa davlat budjetiga tushadigan soliqli daromadlarning sezilarli darajada o‘sishiga xizmat qiladi.

2. Mavjud soliq bazasini kengaytirish uchun xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish

Buning uchun, bir tomondan, soliqlarning tartibga soluvchi va fiskal funksiyalari o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, ishlab chiqaruvchilarning rag‘batlantirilishini ta’minlash, boshqa tomondan esa, iqtisodiy faollikni kengaytiruvchi samarali mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

3. Amaldagi soliq qonunchiligini takomillashtirish

Quyidagi yo‘nalishlarda normativ-huquqiy bazani yanada mustahkamlash tavsiya etiladi:

- yuridik shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish va shaffoflashtirish;
- iqtisodiy agentlarning moliyaviy mablag‘lari ustidan davlat nazoratini kuchaytirish;
- soliq imtiyozlari tizimini optimallashtirish;
- soliq undirish mexanizmlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белогорская А.Н. Налоговый потенциал региона и методы его оценки. https://www.elibrary.ru.

2. Pessino, C., & Fenochietto R. 2010. "Determining countries’ tax effort," Hacienda Pública Española / Review of Public Economics, IEF, vol. 195(4), pages 65-87.

3. Евстафьева А.Х. Оценка налогового потенциала Республики Татарстан. http://www.vestnykeps.ru/0410/3.pdf.

4. Шогенов А. А. Методические аспекты расчета налогового потенциала региона. https://www.elibrary.ru.

5. Абдуллаев З.А. Ҳудуднинг солиқ потенциалини баҳолаш масалалари. //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. 2023 йил 3-сон. 356-363 б.

6. Axrorov Z. Soliq munosabatlari tizimida soliq potensialini oshirish ahamiyati. //International Journal of Economics, Finance and Innovation. Volume-I, Issue-IV. 12, 2023. – p. 19-25. SJIF: 3.057

7. Қобулов Х.А. Ҳудуд солиқ салоҳиятини баҳолашнинг фундаментал масалалари. //Science and Education, 2 (12). 2021. 914-926 б.

8. Худойқулов С.К. Ҳудудларнинг солиқ салоҳиятини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш. / Солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш орқали солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш. Республика илмий-амалий конференция тезислар тўплами. Солиқ академияси, Тошкент, 2018 йил, 358 б.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Кулибоев Азамат Шоназарович

Бюджет ҳисоби ва ғазначилик кафедрасининг профессори
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

Аннотация. *Ушбу мақолада бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби, ижтимоий соҳадаги муассасаларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари ҳақида сўз боради. Давлат бюджетидан ижтимоий соҳага ажратилаётган маблағлар таҳлили келтирилган. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ташкилий, техник ва услубий жиҳатларини такомиллаштириш илмий асосланган.*

Калит сўзлар: *бюджет ташкилоти, бухгалтерия ҳисоби, давлат бюджети, даромадлар ва харажатлар сметаси, ижтимоий соҳа харажатлари, молия йили, тиббиёт муассасаси, харажатлар сметаси.*

ОСОБЕННОСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Кулибоев Азамат Шоназарович
Профессор кафедры бюджетного учета и казначейства
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

Аннотация. *В данной статье говорится об особенностях ведения бухгалтерского учета в бюджетных организациях и бухгалтерского учета в социальных учреждениях. Представлен анализ средств, выделяемых на социальную сферу из государственного бюджета. Научно обосновано совершенствование организационный, технический и методических аспектов бухгалтерского учета в бюджетных организациях.*

Ключевые слова: *бюджетная организация, бухгалтерский учет, государственный бюджет, смета доходов и расходов, расходы на социальную сферу, финансовый год, медицинское учреждение, смета расходов.*

FEATURES OF ACCOUNTING IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

Kuliboyev Azamat Shonazarovich
Professor of the Department of Budget Accounting and Treasury
Tashkent State the University of Economics
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

Abstract. *This article talks about the features of accounting in budgetary organizations and accounting in social institutions. An analysis of the funds allocated for the social sphere from the state budget is presented. The improvement of the organizational, technical and methodological aspects of accounting in budgetary organizations is scientifically substantiated.*

Key words: *budget organization, accounting, state budget, income and expenditure estimates, social spending, financial year, medical institution, cost estimate.*

Кириш

Бюджет ташкилотига Давлат функцияларини амалга ошириш учун белгиланган тартибда давлат ҳокимияти органлари қарорига асосан ташкил этилган, Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан сақлаб туриладиган нотижорат ташкилотлари киради.

Бюджет ташкилотлари давлатнинг белгиланган вазифаси (таълим, соғлиқни сақлаш, мудофаа, ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва бошқа давлатнинг ташқи иқтисодий, ижтимоий аҳамиятига эга бўлган вазифалар)ни бажариш учун ташкил этилган хўжалик субъекти бўлиб, улар ўз фаолиятини амалга ошириш учун бюджетдан маблағ билан таъминланади.

Давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар сарфи асосан, бюджет ташкилотларига маблағларни йўналтирилиши ҳисобига амалга оширилади. Бу маблағларни мақсадли ва оқилона сарфланишини таъминлаш ва улар бўйича тегишли ахборотларни шакллантирилиши уларда бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш асосида амалга оширилади. Ҳар бир бюджет ташкилотига бюджетдан маблағларнинг ажратилиши уларнинг тасдиқланган харажатлар сметаларига асосланади.

Булардан ташқари, қонунчиликда бюджет ташкилотларига бюджетдан ташқари маблағларни манбааларини шакллантиришга рухсат этилган. Яъни, фаолият турига мос маҳсулот (иш ва хизматлар) ишлаб чиқаришдан тушадиган, вақтичалик бўш бино ва мулкларни ижарага беришдан тушган, ҳомийлик, шунингдек, молия йили якунида бюджет маблағлари бўйича иқтисод қилиб қолинган ва бошқа маблағлар ҳисобига бюджетдан ташқари маблағлар шакллантирилади ҳамда қонунчиликда белгиланган тартибда сарфланади. Улар бўйича ҳам белгиланган тартибда даромадлар ва харажатлар сметалари тузилади ва ижроси амалга оширилади.

Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритиш ва ташкил қилишнинг ҳуқуқий асослари хўжалик юритувчи субъектларники билан бир хил бўса-да, услубий жиҳатдан фарқ қилади. Шунинг учун, бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритишда, унинг соҳага хос томонлари инобага олиниши керак. Бугунги кундаги долзарб масалалардан бири ҳам бюджет ташкилотларининг соҳа хусусиятларидан келиб чиқиб, ҳисоб ишларини ташкил қилиш ва юритишдир.

Адабиётлар шарҳи

Тадқиқот мавзуси доирасида мамлакатимиз ва хорижлик иқтисодчи олимлар томонидан олиб борилган илмий изланишлари ўрганилди.

Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари А.Р.Хаметова томонидан тадқиқ этилган бўлиб, ҳисобни ташкил этишни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари бозор иқтисодиётига ўтишни ҳисобга олган ҳолда белгиланиши асослаб берилган. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг ўзига хос хусусиятлари кўрсатилиб, илмий жиҳатдан батафсил ёритилган. Шунингдек, бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш режасининг элементлари ҳам илмий жиҳатдан тадқиқ этилган [2,100 – 102].

Т.А.Полещукнинг асарларидан бири бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобига бағишланган бўлиб, унда бюджет ташкилотларида ҳисоб ишларини ташкил қилишнинг ўзига хос томонлари ва ҳисоботларни шакллантириш масалалари назарий – услубий жиҳатдан кўрсатиб берилган. Бундан ташқари ноишлаб чиқариш муассасаларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш, бюджет ташкилотларини молиялаштириш, бюджет ташкилотларида пул маблағлари ва харажатларни, номолиявий активларни, турли хил ҳисоб – китобларни ҳисобга олиш ва ҳисоботларни шакллантириш масалалари ҳам батафсил ёритилган [10].

Бюджет, давлат, автоном муассасалар учун бухгалтерия ҳисобини юритиш тартибининг назарий – услубий жиҳатлари И.П.Воробьева, А.Л.Спесивцева ва

Г.А.Барышеваларнинг асарида кўрсатилган. Ҳисоб сиёсатининг ҳар бир йўналиши бўйича бирламчи ҳужжатлар, бухгалтерия регистрлари тақдим этилиши, субсчётларнинг корреспонденциялари берилган. Бирлаштирилган бухгалтерия ҳужжатлари ва ҳисобот шаклларига мисоллар келтирилган. Бюджетни молиялаштириш ва тадбиркорлик фаолиятини ҳисобга олиш сиёсатининг хусусиятлари кўрсатилган [1].

Мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан М.Остонақулов, С.У.Меҳмонов, ва А.А.Остонокуловларнинг илмий тадқиқот ишларида бюджет ташкилотларида ҳисоб сиёсатини шакллантириш масалалари кўриб ўтилган.

Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби масалалари М.Остонақуловнинг асарларида акс этган. Олим бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш, харажатларни тўлаш, пул маблағлари ва харажатлар, асосий воситалар ва материал заҳиралар, ҳисоб – китоблар ҳамда бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобини назарий – услубий жиҳатдан тўлиқ ёритиб берган. Шунингдек, бюджет ташкилотларида инвентаризация ўтказиш тартиби ва ҳисоботларни тузиш қоидаларини ҳам батафсил баён этган [7].

С.У.Меҳмонов томонидан олиб борилган тадқиқотларда бюджет ташкилотларида ҳисобини ташкил этишнинг долзарб масалалари ҳамда илмий ва услубий жиҳатлари ёритилган. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари, бухгалтерия ҳисоби маълумотларини шаклланиши ва харакатининг умумий схематик кўриниши, бюджет ташкилотининг мулкчилик асосига, давлат бюджетини тузиш ва ижро этиш принципларига ва бошқа бир қатор омилларга бевосита боғлиқлиги илмий жиҳатдан асослаб берилган [6].

А.А.Остонокуловнинг тадқиқотлари бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштиришга бағишланган бўлиб, бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботининг назарий – услубий асослари, амалиёти, таҳлили ҳамда ҳисоб ишларини юритиш, ташкил қилиш ва ҳисоботларни шакллантиришни услубий жиҳатларини такомиллаштириш масалалари ёритилган [8].

Юқоридаги хорижлик ва мамлакатимиз иқтисодчи олимларининг тадқиқотларида асосан бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби хусусиятларининг назарий – услубий жиҳатлари очиб берилган бўлса–да, бюджет ташкилотларида соҳага хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда ҳисоб юритиш масалалари батафсил ўрганилмаган. Шу боисдан, ушбу мавзу бўйича тадқиқотлар олиб бориш бугун кунда муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқот методологияси

Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритишнинг ўзига хос хусусиятлари бюджет ҳисоби қоидаларини ҳисобга олган ҳолда тизимли таҳлил, анализ, синтез, таққослаш ва бошқа шу каби бир қанча тадқиқот усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар

Давлат бюджетининг 2023 йил учун харажатлари 257 734 млрд. сўм ёки ЯИМнинг 24,1 фоиз ҳисобида тасдиқланди. Бу кўрсаткич 2022 йилда - 236 579 млрд. сўм ёки ЯИМнинг 26,6 фоизини ташкил қилган. Шундан, 2023 йилда ижтимоий харажатларга 129 891 млрд. сўм йўналтирилиши белгиланган, бу ўз навбатида, жами Давлат бюджети харажатларининг 50,4 фоизини ташкил этади [11, 15].

Давлат бюджетидан ижтимоий соҳага ажратилган харажатлар улуши бўйича биринчи ўринда таълим, иккинчи ўринда соғлиқни сақлаш соҳаси туради. Фан, маданият ва спорт учун қилинадиган харажатлар кейинги ўринларда турганлигини қуйидаги 1 – жадвал маълумотларидан кўришимиз мумкин.

1 – жадвал

Давлат бюджетидан ижтимоий соҳага ажратилган маблағлар тўғрисида маълумот (млрд. сўм)*

Кўрсаткичлар	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил	2023 йил
Давлат бюджети харажатлари	62 170,0	107 118,4	131 104,5	165 879,0	214 799,6	257 734
Ижтимоий соҳа харажатлари	35 034,0	58 012,1	66 018,1	86 622,0	105 503,2	129 891
Шундан, Таълим	19 504,3	28 394,3	30 047,6	34 590,0	46 948,9	58 372
Соғлиқни сақлаш	9 562,0	12 078,0	14 842,6	19 648,0	22 788,7	28 426
Фан	389,3	801,0	1 028,7	1 169,0	1 477,0	1 843,0
Маданият ва спорт	1 165,4	1 690,1	2 290,8	2 685,0	3 376,1	4 803
Ижтимоий соҳа харажатларининг Давлат бюджети харажатлари таркибидаги улуши, %	56,4	54,2	50,4	52,2	49,1	50,4

* Фуқаролар учун бюджет 2018-2023 йиллардаги маълумотлар асосида муаллиф ҳисоб-китоблари

Мамлакатимизда сўнгги олти йилда Давлат бюджетидан ижтимоий соҳага ажратилган маблағлар 2023 йилда 2018 йилга нисбатан 94 857 млрд. сўмга, яъни 3,7 баробарга ошган бўлиб, шундан энг кўпи таълим ва соғлиқни сақлаш соҳалари ҳиссасига тўғри келиши юқоридаги жадвал маълумотларида акс этган. Яна шу нарсани алоҳида таъкидлаш керакки, ижтимоий соҳа харажатларининг Давлат бюджети харажатлари таркибидаги улуши 2023 йилда 2018 йилган нисбатан 6 фоизга камайган бўлсада, аслида суммада ошганлигини кўришимиз мумкин.

Давлат бюджетидан ижтимоий соҳа харажатларига ажратилган маблағлар салмоғининг ортиши билан шу соҳадаги бюджет ташкилотларининг хусусиятларини ва фаолият йўналишларини инобатга олган ҳолда бухгалтерия ҳисобини юритиш мураккаблашади. Буни яхшироқ тушуниш учун ижтимоий соҳага кирувчи ҳар бир йўналишда фаолият кўрсатувчи бюджет ташкилотлари бўйича бухгалтерия ҳисобининг юритилишининг фарқли жиҳатлари ва хусусиятларини кўриб чиқамиз.

Таълим харажатларининг ижтимоий соҳа харажатларидаги улуши энг юқори бўлиб, мамлакатимизда таълим қуйидаги турларга бўлинади (1–чизма).

1–чизма.

Таълим турлари ва уларнинг мазмуни*



* Илмий тадқиқот натижасида муаллиф томонидан тузилган.

Таълимнинг турларга бўлинишидан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, таълим ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритиш таълим ташкилотларининг фаолият йўналиши ва ихтисослашувига кўра бир – бирдан фарқланади. Яъни, олий таълим ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби бош бухгалтер раҳбарлик қиладиган бухгалтерия хизмати ходимлари томонидан юритилса, мактабгача, умумий ўрта ва ўрта махсус ҳамда профессионал таълим муассасаларида бухгалтерия ҳисоби марказлаштирилган молия – бухгалтерия хизматлари томонидан юритилади.

Таълим ташкилотларининг ходимларига иш ҳақи ҳисоблаш, ҳисоб объектлари бўйича ҳисоб – китоб ишларини бажариш ва молиявий ҳисоботларни шакллантиришда ҳам ўзига хос фарқли жиҳатлари мавжуд.

Буни биз соғлиқни сақлаш соҳасида ҳам кўришимиз мумкин. Бугунги кунда тиббиёт муассасаларининг турлари бўйича сони 3 928 тани ташкил қилади (2 – чизма).

2 – чизма.

Тиббиёт муассасаларининг турлари бўйича сони*



* Муаллиф томонидан Фуқаролар учун бюджет 2023 маълумотлари асосида тузилган

Соғлиқни сақлаш вазирлиги маълумотларига кўра, тиббий фаолиятни ташкил этувчи хизматлар 250 тани ташкил қилади. Тиббий фаолиятни ташкил этувчи тиббий хизмат турлари бўйича ҳар бир давлат даволаш муассасаси ўзининг ихтисослашган фаолият тури бўйича аҳолига амбулатор ва стационар шароитда хизмат кўрсатади [5, 84 – 89].

Юқоридаги расм маълумотларидан ҳам кўриниб турибдики, аҳолига фақат амбулатор шароитда тиббий хизмат кўрсатувчи тиббиёт муассасаларига: кўп тармоқли ва оилавий поликлиникалар, қишлоқ врачлик пунктлари киради.

Қолган турдаги тиббиёт муассасалари аҳолига стационар шароитда ёки бир вақтда иккала шароитда (амбулатор ва стационар) тиббий хизмат кўрсатиш имкониятига эга. Бу турдаги тиббиёт муассасаларига Республика ихтисослаштирилган илмий – амалий тиббиёт марказларини, вилоят ва шаҳар типидаги шифохоналарни киритиш мумкин.

Соғлиқни сақлаш тизимидаги тиббиёт муассасаларида бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ўзига хос жиҳатлари аввало унинг ихтисослашувига, тиббий хизмат кўрсатиш шароитига, маблағ билан таъминланиш ҳолатига боғлиқ. Мисол сифатида, мамлакатимизда фаолият юритаётган 19 та республика ихтисослаштирилган илмий – амалий тиббиёт марказларининг фаолият йўналишларини олсак, улар бир – биридан аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш турлари бўйича фарқ қилади (3 – чизма).

3 – чизма.

Республика ихтисослаштирилган илмий – амалий тиббиёт марказлари*



***** Муаллиф томонидан тузилган.

Бу ихтисослаштирилган тиббиёт марказларида аҳолига бир вақтнинг ўзида стационар ва амбулатор шароитларда тиббий хизматлар кўрсатилади. Шунингдек, бухгалтерия ҳисобида бюджет ва бюджетдан ташқари маблағларни ҳисобга олиш, инвентаризацияни ташкил этиш ва ўтказиш, пуллик тиббий хизматлар бўйича калькуляцияни шакллантириш, кунлик касса операцияларини ҳисобга олиш ва ҳисобот қилиш, товар – моддий заҳиралари ҳисобини маблағлар манбалари бўйича юритиш ва ҳужжатлаштириш бошқа тиббиёт муассасаларига қараганда анча мурккабдир.

Чунки, бу ихтисослашган марказларга нафақат, мамлакатимизнинг турли ҳудудларидан балки, хорижий мамлакатлардан ҳам беморлар келиб даволанади. Шунинг натижасида, бухгалтериядаги иш ҳажми ҳам бошқа тиббиёт муассасаларига қараганда, бир неча баробор кўп.

Стационар тиббиёт муассасаларида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш амбулатор шароитда хизмат кўрсатувчи тиббиёт муассасаларига қараганда мурккаб ва иш ҳажми кўпдир. Давлат бюджетидан амбулатор шароитда хизмат кўрсатувчи тиббиёт муассасалари 100 фоиз, стационар тиббиёт муассасалари эса, 40 – 50 фоиз атрофида молиялаштирилади. Чунки, стационар тиббиёт муассасаларида аҳолига пуллик тиббий хизмат кўрсатиш йўлга қўйилган.

Соғлиқни сақлаш соҳасидаги тиббиёт муассасаларида бухгалтерия ҳисобини юритишнинг яна бир мураккаблик ва эҳтиёткорлик томони шундан иборатки, даволанувчи беморларга дори – дармон воситалари, тиббиёт буюмлари, вакциналар ва бактериологик препаратлар ҳамда озиқ – овқат маҳсулотларининг сарфланиши ҳисобланади. Бунда албатта Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан тасдиқланган санитария қоидалари ва меъёрларига амал қилиши талаб этилади.

Юқорида биз таълим ва соғлиқни сақлаш соҳасида бухгалтерия ҳисобини юритиш масаласини қисқача кўриб ўтдик. Энди давлат бюджетидан фанга ажратилган маблағлар тўғрисида қуйидагиларни таҳлил қилиб ўрганамиз. Маълумки, фанга бюджетдан маблағ ажратилар экан, шубаҳсиз, улар қуйидаги йўналишларга сарфланади:

– Давлат илмий – техника дастурларига, ноёб илмий объектлар ва илмий муассасаларни, фан муассасалари ва давлат архивларини сақлашга қилинган харажатлар учун;

– Олий ўқув юртидан кейинги таълим харажатлари (докторантура) учун;

– Инновацион ривожланиш ва инновацион ғояларни қўллаб – қувватлаш жамғармасига.

Мамлакатимизнинг илм – фанни ривожлантириш учун ташкил этилган илмий – тадқиқот ва илмий – текшириш институтлари ҳамда олий таълим ташкилотларида фаолият кўрсатаётган олимларимизнинг илмий лойиҳаларини молиялаштиришда, илмий изланиш олиб бориш учун докторантурга кирган тадқиқотчиларимизни ижтимоий ҳимоя қилишда фанга ажратилган бюджет маблағларидан фойдаланилади. Бюджет маблағларидан фойдаланиш учун албатта тегишли институт ва олий таълим ташкилотларида харажатлар сметаси тузилади. Харажатлар сметаси асосида бюджетдан ажратилган маблағлар сарфланади.

Шунингдек, маданият ва спорт соҳаларига бюджетдан ажратилган маблағлар ҳисоби маданият ва спорт муассасалари томонидан тузилган харажатлар сметаси доирасида сарфланади. Бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботларни шакллантириш эса фаолият турлари бўйича олиб борилади.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, шуни айтишимиз мумкинки, бюджет ташкилотлари ҳар қандай бошқарув тизимида ва давлат тузилишининг ҳар қандай кўринишида ишлаб чиқариш ва молиявий – иқтисодий муносабатларнинг муҳим субъектлари ҳисобланади. Улар таълим, соғлиқни сақлаш, илмий тадқиқотлар, ижтимоий ҳимоя, маданият ва давлат бошқаруви каби бир қатор ижтимоий аҳамиятга эга эҳтиёжларни қондириш учун мўлжалланган.

Бюджет ташкилотларининг барчаси амалдаги норматив – ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ давлат функия ва вазифаларини бажарса-да, уларнинг тармоқ ва соҳалари, бошқарув тизими, фаолият йўналиши, молия – хўжалик фаолиятини бошқариш тизими, ташкилотлар ўртасидаги ахборот алмашинуви ва маблағларнинг шаклланиш манабалари бўйича бир – биридан фарқли жиҳатлари мавжуд.

Шу боис, бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

– харажатлар сметаси устидан назорат;

– ҳисоб юритишда касса ва ҳақиқий харажатлар ажратилиши;

– бухгалтерия ҳисобини бюджет таснифи қисмлари кесимида ташкил этиш;

– бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботининг меъёрий ҳужжатлар талабларига қатъий мувофиқлиги;

– бюджет ижросининг ғазна тизими;

– бюджет ташкилотларида ҳисоб юритишнинг соҳага хос томонлари.

Маълумки, бюджет ташкилотларини бюджетдан маблағ билан таъминлаш, уларнинг бюджетдан ташқари даромалари ва харажатлари, шунингдек, мазкур маблағлардан фойдаланиш қатъий режалаштирилган ҳолда тузилган харажатлар сметаси асосида амалга оширилади. Бу эса, бухгалтерия ҳисобининг асосий функцияларидан бири бўлган назорат ёрдамида бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини олдига мазкур харажатлар сметаси ижросини назорат қилиш вазифасини юклайди [3, 31–37].

Бюджет ташкилотларида даромадлар ва харажатлар ижроси жараёнида касса ва ҳақиқий харажатлар ҳисоби юритилади. Бюджет ташкилотлари томонидан ғазначиликдаги шахсий ҳисоб варақлардан харажатларни тўлаб берилиши касса

харажатлари кўринишида ҳисобда акс эттирилади. Бюджет ташкилотлари томонидан харажатлар сметалари доирасида амалга оширилган, лекин, тўлаб берилмаган харажатлар ҳақиқий харажат кўринишида ҳисобда акс эттирилади. Бюджет ташкилотларининг касса ва ҳақиқий харажатлари “Касса ва ҳақиқий харажатларни ҳисобга олиш дафтари”да ҳисобга олинади.

Бюджет ташкилотлари томонидан бухгалтерия ҳисобини юритиш, ҳисоботларни тузиш қатъий равишда бюджет таснифига боғланган ҳолда олиб борилиши лозим. Акс ҳолда, бюджет ижроси маълумотларини дастлабки режалаштириш (смета) кўрсаткичлари билан солиштириш имкони йўқолади. Шунинг учун ҳам, бюджет ташкилотлари томонидан бюджет ҳамда бюджетдан ташқари маблағларни ижроси жараёнида бюджет таснифи албатта қўлланилади, шунингдек, молиявий ҳисоботлар шаклларида ҳам бюджет таснифи акс эттирилган [9, 219–224].

Бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботининг меъёрий ҳужжатлар талабларига қатъий мувофиқлигини шундай изоҳлаш мумкинки, бюджет ташкилотларининг зиммаларига юклатилган вазифаларни бажаришлари билан боғлиқ фаолиятлари давлат томонидан қатъий тизимлаштирилганлиги ёки бюджет ташкилотининг “ҳар бир қадами” қатъий қонунчилик билан тартибга солинганлигидир.

Давлат бюджетининг ғазначилик ижроси механизмини жорий қилиниши, яъни, барча бюджет ташкилотларининг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағларини ғазна ҳисобварақларида жамланиши, бюджет ташкилотлари томонидан ғазначилик бўлинмалари орқали тўловларини амалга оширилиши ҳам бюджет ташкилотларида ўзига хос хусусиятларга эга бўлган бухгалтерия ҳисоби тизимини яратиш лозимлигини шарт қилиб қўяди [4, 82–86].

Бюджет ташкилотларида ҳисоб юритишнинг соҳага хос томонлари деганда, ташкилотнинг таълим, соғлиқни сақлаш, фан, маданият ва спорт, қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларга хослиги, фаолият юритиши тушунилади. Чунки, ҳар бир соҳанинг ўзига хос хусусиятлари ва амал қиладиган норматив – ҳуқуқий ҳужжатлари мавжуд.

Ҳозирги кунда бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг барча жараёнларини ўз ичига олган бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи бўйича операциялар “УзАСБО” дастурий мажмуасида тўлиқ автоматлаштирилган. Бу дастурий мажмуа йилдан йилга такомиллаштирилиб борилмоқда.

Натижада бюджет ташкилотларидаги кунлик ҳисоб ишлари тўғри ва мазмун жиҳатидан кетма – кет бажариб борилади, чораклик молиявий ҳисоботлар тўғри шакллантирилади. Бухгалтерия ҳисоби ахборотларининг фойдаланувчилар учун узлуксизлиги ва ишончлилиги таъминланади. Энг муҳими бюджет ташкилотларининг фаолияти бўйича бошқарув қарорларини қабул қилиш учун бухгалтерия маълумотларининг тезкорлик билан таъминланишига эришилади.

Хулоса

Бухгалтерия ҳисоби маълумотлари иқтисодий объектнинг ҳам, ҳар қандай бюджет ташкилотининг ҳам самарали ишлаши учун катта ҳамиятга эга, чунки, у ташкилот молия – хўжалик фаолияти натижаларининг ҳақиқий ҳолатини акс эттиради. Шу муносабат билан асосий ахборот етказиб берувчи сифатида бухгалтерия ҳисоби услубиётини бюджет ташкилотларининг соҳага хос томонларини инобатга олган ҳолда тизимли равишда такомиллаштириб бориш зарур.

Бунинг учун ягона тартибда бухгалтерия ҳисобини юритиш жараёнида ҳисобнинг ташкилий, техник ва услубий жиҳатларини ўзида мужассамлаш-тирган ҳисоб сиёсатини шакллантириш керак.

Бюджет ташкилотларининг ҳисоб сиёсати молиявий ҳисоботни барча қўлланилаётган бюджет ҳисоби стандартлари асосида шакллантирилишини таъминлаши

шарт. Ҳисоб сиёсатининг тузилиши бюджет ташкилотлари томонидан мустақил равишда белгиланади.

Бизнинг фикримизча, бюджет ташкилотларининг соҳага хос томонларини инобатга олиб, ҳисобни ташкилий, техник ва услубий жиҳатларига амал қилган ҳолда бухгалтерия ҳисобини юритиш учун ташкилотнинг ҳисоб сиёсати ўз ичига қуйидагиларни олиши керак (4 – чизма).

4 – чизма.

Бюджет ташкилотларида ҳисоб сиёсатини таркибий тузилиши*



***** Илмий тадқиқот натижасида муаллиф томонидан тузилган.

Бюджет ташкилотларида ҳисоб сиёсатининг таркибий тузилишидан келиб чиқиб, қуйидагиларни айтишимиз мумкин:

биринчидан, бухгалтерия ҳисобини юритишда, молиявий ва бошқа ҳисоботларни тузишда хўжалик операцияларини амалга оширишнинг қонунийлиги таъминланади. Яъни, ҳисобни юритиш ва ҳисоботларни шакллантиришда соҳга оид норматив – ҳуқуқий ҳужжатлар талабларини бузиш ҳолатлари камаяди ва улардан фойдаланиш имконияти ошади.

иккинчидан, бюджет ташкилотларида ички назорат тўлиқ йўлга қўйилади. Яъни, ташкилотдаги номолиявий ва молиявий активларнинг бут сақланиши таъминланади, талон – торож қилиш ҳоллари ва ҳисоб юритишда йўл қўйилган хатоликларнинг олди олинади. Бюджет ташкилотида инвентаризация ўтказишнинг тартиби ва муддатларига қатъий амал қилинади. Инвентаризация жараёнида аниқланган мол–мулк камомади ва ортиқчаси бўйича ўз вақтида далолатномалар расмийлаштирилиб, бухгалтерия ҳисобида акс эттирилади.

учинчидан, бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ташкилий, техник ва услубий жиҳатдан тўғри юритилишини таъминлашга эришилади. Яъни, бюджет ташкилотларининг қайси соҳага ёки тармоққа тегишлилигидан қатъий назар, ташкилий жиҳатдан бухгалтерия хизмати ходимларининг лавозим йўриқномалари ишлаб чиқилади, намунавий шакллари назарда тутилмаган, хўжалик операцияларини қайд қилиш учун қўлланиладиган бирламчи ҳисоб ҳужжатларининг шакллари тасдиқланади, ички молиявий назоратни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби белгиланади.

Техник жиҳатдан, бухгалтерия ҳисобида ҳужжатлар айланиши назоратга олинади, “УзАСБО” дастурий таъминотида ҳисоб ишларини олиб боришда бухгалтерлар томонидан йўл қўяётган хато ва камчиликларни бартараф қилишга эришилади.

Услубий жиҳатдан, бюджет ташкилотларида товар (иш, хизмат)лар калькуляциясини шакллантириш тартиби ва активларни ҳисобдан чиқариш услуби аниқлаб олинади.

Умумун олганда, бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишда унинг ўзига хос хусусиятларига алоҳида эътибор бериш ва ҳисобнинг узлуксизлик, ишончлилик, кўрсаткичларнинг қиёсланувчанлиги принципларига амал қилиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Воробьева И.П., Спесивцева А.Л., Барышева Г.А. Бухгалтерский учет в бюджетных учреждениях: Учебное пособие – Томск: Изд-во ТПУ, 2012. –252 с.

2. Лёвина С.С., Хаметова А.Р. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных организациях // Журнал “Экономика и право”. – 2015. № 12 (58). – с. 100 – 102.

3. Кулибоев А. Ш. БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ НАЗАРИЙ–УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ //World scientific research journal. – 2023. – Т. 16. – №. 1. – С. 31-37.

4. Shonazarovich, Kuliboyev Azamat. "REGULATORY AND LEGAL REGULATION OF ACCOUNTING IN BUDGETARY INSTITUTIONS." EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies (EBMS) 10.6 (2023): 82-86.

5. Кулибоев А. Давлат тиббиёт муассасаларида бошқарув ҳисобини ташкил этиш босқичлари //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – Т. 8. – №. 1. – С. 84-89.

6. Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби: назария ва амалиёт. Монография – Т.: “Iqtisod va moliya”. 2016. – 136 б.

7. Остонақулов М. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. – Т.: “Iqtisod va moliya”. 2009. – 428 б.

8. Остонақулов А.А. “Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш” монография. Т: VNESHINVESTPROM нашриёти, 2021, 208 бет.

9. Ostonokulov A. A., Azzamova D. X. BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH VA YURITISH //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 219-224.

10. Полещук Т.А. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. – 108 с.

11. Фуқаролар учун бюджет 2023. –Т.: БМТТД, 2023. – 55 б.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

O‘ZBEKISTONDA FOYDA SOLIG‘I MA’MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Zaripov Xusan Baxodirovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) soliq va soliqqa tortish kafedrasi professori
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0007-7370-6249

Ibragimov Bobur shoh Boxodir o‘g‘li
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) soliq va soliqqa tortish kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID:0000-0002-1107-0894

Annotatsiya. *Foyda solig‘i budjet daromadlarining salmoqli qismini tashkil etadi va uni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’muriyatchiligini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’muriyatchiligining holati baholangan, qonunchilik va soliq ma’muriyatchiligi amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil etilgan.. O‘zbekistonda foyda solig‘ini ma’muriyatchiligini xalqaro standartlarga muvofiq isloh qilish yo‘nalishlari tadqiq etilib, aniq tavsiyalar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq ma’murchiligi, budjet daromadlari, foyda solig‘i, soliq islohotlari, qiyosiy tahlil, soliq siyosati, xalqaro tajriba, yirik soliq to‘lovchilar.*

АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АДМИНИСТРИРОВАНИЯ НАЛОГА НА ПРИБЫЛЬ В УЗБЕКИСТАНЕ

Зарипов Хусан Баходырович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам профессор кафедры налогов и налогообложения Ташкентский государственный экономический университет
ORCID: 0009-0007-7370-6249

Ибрагимов Бабуршах Баходыр оглы
доктор экономических наук (DSc) доцент кафедры налогов и налогообложения Ташкентский государственный экономический университет
ORCID:0000-0002-1107-0894

Аннотация. *Налог на прибыль занимает значительную долю в доходах бюджета, и эффективное его администрирование имеет важное значение для финансовой стабильности и социально-экономического развития. В статье анализируется вопросы*

совершенствования администрирования налога на прибыль в Узбекистане. Оценивается состояние администрирования налога на прибыль в стране, анализируются направления совершенствования законодательства и практики налогового администрирования. сформулированы направления реформирования администрирования налога на прибыль в соответствии с международными стандартами и предложены конкретные рекомендации.

Ключевые слова: *налоговое администрирование, доходы бюджета, налог на прибыль, налоговая реформа, сравнительный анализ, налоговая политика, международный опыт, крупные налогоплательщики.*

ASPECTS OF IMPROVEMENT OF PROFIT TAX ADMINISTRATION IN UZBEKISTAN

Zaripov Khusan Bakhodirovich
Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences
Professor of the Department
of Tax and taxation of
Tashkent State University of Economics
ORCID: 0009-0007-7370-6249

Ibragimov Baburshah Bohodir oglu
Doctor of Economics
Sciences (DSc)
Associate Professor
of the Department of Tax and taxation of
Tashkent State University of Economics, DSc.
ORCID:0000-0002-1107-0894

Abstract. *Profit tax accounts for a significant share of budget revenues, and its effective administration is important for financial stability and socio-economic development. The article analyzes issues of improving the administration of profit tax in Uzbekistan. The state of profit tax administration in Uzbekistan is assessed, areas for improving legislation and tax administration practices are analyzed. The directions for reforming the administration of profit tax in Uzbekistan in accordance with international standards are formulated and specific recommendations are proposed.*

Keywords: *tax administration, budget revenues, profit tax, tax reform, comparative analysis, tax policy, international experience, large taxpayers.*

Kirish

O‘zbekistonning jadal iqtisodiy rivojlanishi sharoitida soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, foyda solig‘i davlat budjeti daromadlarining muhim manbasi bo‘lib, uning samarali ma’murchiligi orqali davlat muhim ijtimoiy xizmatlar va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishi ta’minlanadi. Foyda solig‘i tushumlarini to‘g‘ri va to‘liq undirish hukumatning iqtisodiy barqarorlikka erishishi, biznes muhitini yaxshilashi hamda ijtimoiy adolatni ta’minlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois so‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq tizimini isloh qilish va zamonaviy soliq vositalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilib, soliq ma’murchiyatchiligini modernizatsiya qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston soliq ma’muriyatchiligi ulkan o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Soliq siyosatida yuklamani pasaytirish, soliq turlarini soddalashtirish va soliq to‘lovchilarga keng qulayliklar yaratish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda [11]. Jumladan, 2019-yili qabul qilinib, 2020 yildan kuchga kirgan yangi tahrirdagi

Soliq kodeksi tadbirkorlik subyektlari uchun soliq stavkalarini pasaytirish va soliq imtiyozlarini qayta ko‘rib chiqishni nazarda tutdi.

Soliq tizimining oshkoraligi va shaffofligi investorlar ishonchini mustahkamlaydi, ishbilarmonlik faolligini kuchaytiradi. Shu ma’noda mazkur tadqiqot O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’murchiligini takomillashtirish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi

Mamalakatimiz soliq ma’murchiligi boyicha so‘ngi 5 yildagi islohotlar tahlili yuzasidan, bir qator iqtisodchi olimlarimiz foyda solig‘i boyicha o‘z ilmiy izlanishlarida samarali ilmiy yangiliklarni ishlab chiqqanlar. X. Isayev korxonalarning xufiyona faoliyatga bo‘lgan intilishini pasaytirish va foyda solig‘i yukini ish haqi fondidagi yuk bilan muvofiqlashtirish maqsadida foyda solig‘i stavkasini takomillashtirish, foyda solig‘i bo‘yicha berilgan imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish asosida ta’sirchan bo‘lmagan va samarasiz imtiyozlarni bekor qilish, umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun foyda solig‘ini hisoblashda soliq solish bazasini aniqlashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish kabi takliflarni ishlab chiqqan [1].

Sh. Jumayev tomonidan foyda solig‘i to‘liqligicha respublika budjetiga yo‘naltiriladigan tijorat banklari hamda yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxati hamda soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini hisoblashda yirik soliq to‘lovchilardan tushumlarni hududlar kesimida e’tiborga olish orqali yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchiligini takomillashtirish asoslantirilgan [2].

S.Giyasov ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga doir xarajatlarni soliqqa oid qonun hujjatlarida belgilash hamda ushbu xarajatlarni foyda solig‘i bazasidan chegirish tartibi, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatga investisiyalarni faol jalb qilishda yangi texnologik uskunalar, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo‘naltirilgan mablag‘larga nisbatan investision soliq chegirmalarni joriy qilish lozimligini asoslagan [3].

R. Ergashev elektron tijorat sub’ektlarining Milliy reestriga kiritilgan soliq to‘lovchilardan olinadigan foyda solig‘i stavkasini 2 barobar pasaytirish orqali elektron savdo ishtirokchilarining davlat ro‘yxatidan o‘tishini rag‘batlantirishni asoslab bergan [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda zamonaviy iqtisodiy tahlil uslublari va qiyosiy huquqiy tahlil usullari qo‘llanildi. Birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan rasmiy ma’lumotlar hamda davlat budjeti ijrosi bo‘yicha hisoboti ma’lumotlari asosida foyda solig‘i tushumlari va ularning budjet daromadlaridagi ulushi tahlil qilindi.

Ikkinchidan, amaldagi soliq qonunchiligi (O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va u bilan bog‘liq Prezident farmonlari, hukumat qarorlari) tahlil qilinib, foyda solig‘i hisob-kitobi, to‘lovi va tekshiruvlari bilan bog‘liq normalar o‘rganildi. Uchinchidan, qiyosiy tahlil uslubi orqali Germaniya, Polsha va Turkiya davlatlaridagi korporativ daromad (foyda) solig‘i ma’murchiligi amaliyoti o‘rganib chiqildi.

Mazkur mamlakatlarni tanlashdan maqsad – rivojlangan (Germaniya), yangi a’zo Yevropa davlati (Polsha) va mintaqaviy rivojlanayotgan mamlakat (Turkiya) misolida soliq ma’muriyatchiligi modellarini solishtirishdir. Ushbu davlatlar bo‘yicha xalqaro tashkilotlar hisobotlari, PWC, Deloitte kabi konsalting tashkilotlarining soliq sharhi ma’lumotlari hamda ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlardan foydalanildi.

Ilmiy asoslash maqsadida mahalliy va xorijiy olimlarning soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy maqolalari va konferensiya materiallari o‘rganildi. Shu tariqa, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishtirish va tahlil qilish orqali xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda rasmiy soliq ma’lumotlari, amaldagi qonun hujjatlari va ilmiy manbalar asosida iqtisodiy-tahliliy hamda qiyosiy metodlar qo‘llanildi

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasida foyda solig‘ini hisoblash va undirish amaliyoti so‘nggi yillarda sezilarli darajada soddalashtirildi hamda soliq yuki pasaytirildi. Mamlakatimizda foyda solig‘ining amaldagi stavkalari 15% ni tashkil etadi, ayrim yuqori rentabelli tarmoqlar (tijorat banklari, polietilen granula ishlab chiqaruvchilar, mobil aloqa operatorlari, yirik savdo komplekslari) uchun esa 20% li oshirilgan stavka belgilangan.

2020-yilga qadar foyda solig‘i stavkalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq stavkalar bevosita kodeks normalarida mustahkamlab qo‘yildi. Bu soliq qonunchiligi barqarorligi va tadbirkorlik uchun yaxshi muhit yaratishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, eksport faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida 2018-2024-yillarda eksport qiluvchi korxonalarga 0% stavka qo‘llanilib kelingan edi. Biroq 2025-yil 1-yanvardan boshlab mazkur imtiyoz bekor qilinib, eksport daromadlariga ham umumiy tartibda soliq solinishi belgilandi. Bu chora eksportga yo‘naltirilgan korxonalarning soliq bazasini kengaytirish va soliq tizimida neytrallikni ta’minlashga qaratilgan. Foyda solig‘i tushumlari mamlakat budjet daromadlarida salmoqli o‘rin tutadi. Soliq qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil davomida foyda solig‘idan tushgan tushumlar 52,6 trln so‘mni tashkil etgan (taqriban 4 mlrd AQSH dollari), bu mablag‘lar asosan 949 ta yirik soliq to‘lovchi korxona hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu jumladan, eng yirik 10 ta korxona butun foyda solig‘i tushumlarining 57% qismini to‘lagani qayd etilgan[5]. Bu raqamlar foyda solig‘i tushumlari bir necha yirik davlat korxonalari va xomashyo sektoriga qaram ekanini ko‘rsatadi. Jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Olmaliq KMK, “Navoiyuran” AJ, “O‘zbekneftegaz” va “Xududgazta’minot” kabi kon-qazilma va energiya sektori gigantlari hamda “UzAuto Motors” avtomobil ishlab chiqarish konserni eng yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxatidan joy olgan [5].

Shu bilan birga, xususiy sektor vakillaridan tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi UZBAT kabi korxonalar ham soliq tushumlarida sezilarli ulushga ega. Ushbu holatlar O‘zbekiston iqtisodiyotida foyda solig‘i bazasi asosan davlat ulushi katta bo‘lgan xomashyo tarmoqlar hisobiga shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Demak, foyda solig‘i ma’murchiligida soliq bazasini diversifikatsiya qilish va kichik-biznes subyektlarini rasmiy sektorga jalb etish orqali tushum manbalarini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligini modernizatsiya qilish doirasida foyda solig‘ini hisoblash va to‘lashda soliq to‘lovchilarga ko‘plab yengillik va elektron qulayliklar yaratilgan. Hozirgi kunda yuridik shaxslar soliq hisobotlarini to‘liq elektron shaklda topshirishi mumkin – soliq idoralarida elektron deklaratsiya tartibi joriy etilgan. Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlar kabi, O‘zbekistonda ham barcha soliq turlari bo‘yicha hisobotlarni elektron tarzda taqdim etish majburiy hisoblanadi. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, soliq hisobotlarini ixtiyoriy elektron topshirish darajasi 99,1% ni tashkil etib, amalda barcha korxonalar onlayn rejimda hisobot topshirishga o‘tganini anglatadi. Soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash darajasi ham 95,8% atrofida ekanligi qayd etilgan bo‘lib, bu majburiy undirishga qoladigan qismi juda oz qolayotganiekanligini ko‘rsatadi. Bunga soliq idoralari tomonidan interaktiv xizmatlar doirasi kengaygani, soliq to‘lovchilar uchun barcha ma’lumotlarni elektron olish imkoniyati yaratilgani sabab bo‘lmoqda. Jumladan, soliq organlari 60 dan ortiq vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan yagona soliq platformaga ega ekani ma’lum qilingan bo‘lib, soliq idoralari avtomat tarzda turli manbalardan daromad va tranzaksiya ma’lumotlarini olish imkoniyatiga ega. Qolaversa, elektron hisobvaraq-faktura tizimi joriy etilib, barcha hisobvaraqlarni elektron shaklda rasmiylashtirish amaliyoti 100% ga yetkazilgani raqamlashtirish jarayonining muhim yutug‘idir.

Bozor savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida onlayn nazorat-kassa mashinalari joriy etilgan bo‘lib, u orqali savdo operatsiyalarining 97,8% qamrab olingani qayd etilgan. Bu esa chakana savdo aylanmalarini yaxshi hisobga olish va naqd tusdagi daromadlarni rasmiylashtirish imkonini bermoqda.

Foyda solig‘i bo‘yicha soliq nazoratini amalga oshirish tizimida ham so‘nggi yillarda tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, foyda solig‘i ma’murchiligida soliq tekshiruvlarining davriyligi va qonuniy cheklovlari ham muhokamaga loyiq masaladir. Mazkur cheklangan davr tekshiruv yukini oshirmaslik va ishonchlilik muhitini saqlashga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan islohot va chora-tadbirlar natijasida O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’murchiligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’murchiligini yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribada o‘zini oqlagan qator yondashuvlarni joriy etish mumkin va zarurdir.

Germaniya, Polsha va Turkiya davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi va soliq boshqaruvi an’analariga ko‘ra farq qilinadi, shu bois ularning tajribasi O‘zbekiston uchun turli yo‘nalishlarda o‘rnak bo‘lishi mumkin.

Germaniyada korporativ solig‘ining nominal bazaviy stavkasi 15% ni tashkil etadi, biroq bunga qo‘shimcha ravishda 5,5% lik solidarlik ustama solig‘i va yerlar (munitsipal) savdo solig‘i qo‘shilib, umumiy soliq yuki taxminan 30% atrofida shakllangan [7].

Polshada korporativ daromad solig‘i stavkasi 19% miqdorida belgilan. Turkiyada 2021-2022-yillarda vaqtinchalik tarzda korporativ solig‘i stavkasi 20% dan 25% gacha oshirilgan edi, 2023-yildan esa yana 20% li me’yoriy stavkaga qaytdi.

1-jadval.

O‘zbekiston, Germaniya, Polsha va Turkiyada korporativ (foyda) solig‘i stavkalarining qiyosiy ko‘rsatkichlari (2025)*

Davlat	Soliq stavkasi (%)	Izoh
O‘zbekiston	15% (ayrim tarmoqlarda 20%)	Soliq kodeksida stavka belgilangan
Germaniya	~29,8%	Federal 15% + mahalliy
Polsha	19%	Bir xil yagona stavka
Turkiya	20%	2021-22-yillarda 25% edi

*Mualliflar ishlanmasi

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinishicha, O‘zbekistondagi foyda solig‘ining nominal stavkasi Yevropa mamlakatlariga nisbatan ancha past darajada. Bu soliq yukini minimallashtirish va investitsiyalarga rag‘bat yaratish siyosati natijasidir. Germaniyada esa korporativ solig‘i yuki nisbatan baland, bu yerda davlat ijtimoiy majburiyatlari uchun yuqori soliqlar undiriladi va soliq yukining asosiy qismi yuridik shaxslar zimmasida ekanini ko‘rish mumkin. Polsha va Turkiya kabi davlatlarda stavka o‘rtacha darajada, ya’ni 20% atrofida.

Korporativ solig‘i tushumlarining davlat budjet daromadlaridagi o‘rnida ham mamlakatlar kesimida farqlar mavjud. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, Germaniyada korporativ solig‘i budjet umumiy soliq tushumlarining bor-yo‘g‘i 6,2% qismini tashkil etadi, qolgan qismi asosan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar va jismoniy shaxslar daromad solig‘i hissasiga to‘g‘ri keladi [6]. Polshada bu ko‘rsatkich 7,9% ga teng.

Turkiyada esa korporativ solig‘i tushumlarining ulushi 16,3% ni tashkil etib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti davlatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Turkiyaning bunday yuqori ko‘rsatkichi, ehtimol, mamlakatda jismoniy shaxslardan tushumlar ulushi nisbatan past, aksincha yirik kompaniyalar va konglomeratlar faoliyati jadal ekani bilan bog‘liq. Soliq tushumlari tarkibida korporativ soliqqa bog‘liqlik qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiyotning rasmiy sektordagi yirik kompaniyalar roli shunchalik katta ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda foyda solig‘i bo‘yicha davlat budjetiga tushadigan tushumlar, hukumat soliq yukini jismoniy shaxslardan ko‘ra korxonalarga tushadigan tarzda qayta taqsimlaganligi bois yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlardan ko‘proq, ya’ni 19.1%ga teng.

Hozirgi paytda budjet tushumlarining katta qismi foyda solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat Germaniya va Polshaga nisbatan farqli, chunki ushbu mamlakatlarda soliq tushumlarida asosiy ulushni qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va jismoniy

shaxslarning daromad solig‘i tashkil etadi, korporativ solig‘i esa qiyosan biroz kichikroq ulushni beradi.

2-jadval.

O‘zbekistonda foyda solig‘i tushumlari ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi*

Yil	Foyda solig‘i tushumi (mlrd so‘m)	Izohlar
2020	28 712,2	COVID-19 pandemiyasi ta’sirida tushumlar pasaygan.
2021	38 363,3	Iqtisodiy tiklanish va soliq ma’muriyatini yaxshilash natijasida o‘sish kuzatilgan.
2022	37 649,9	Iqtisodiy faollikning oshishi bilan tushumlar ko‘paygan.
2023	40 778,9	Davlat budjeti daromadlari oshgan.
2024	52 619,7	Iqtisodiy o‘sish tendensiyasi saqlangan.
2025	54 756,0	Iqtisodiy faollikni yanada oshishi kutilmoqda.

*Mualliflar ishlanmasi

Germaniyada korporativ solig‘i bo‘yicha yillik deklaratsiya moliya yili yakunlangandan keyingi yil 31-iyuliga qadar taqdim etilishi talab etiladi [7]. Soliq yil hisobot davri kalendar yil bilan bir xil. Soliq deklaratsiyasini o‘rtacha 4-5 yilda bir marta davlat soliq inspektorlari joyiga borib to‘liq tekshirib chiqadi – Germaniya soliq ma’muriyatchiligi o‘zi xulosa va baholar chiqarib, soliq to‘lovchi hisob-kitoblarini yakunlaydi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar darhol qabul qilinib, to‘lovlar amalga oshiriladi, lekin keyinchalik soliq idorasi ularni aniqlik kiritish maqsadida majburiy ravishda sayyor auditdan o‘tkazadi. Ayniqsa yirik xalqaro kompaniyalar faoliyatida transfert narxlarini to‘g‘ri qo‘llash, xalqaro bitimlardan tushgan daromadlarni to‘g‘ri aks ettirish kabi jihatlarga jiddiy e’tibor qaratiladi [7]. Germaniya tajribasida shunday yondashuv ustuvor: soliq idoralari kompaniyalarning so‘nggi bir necha yillik moliyaviy hisobotlarini sinchiklab ko‘rib, har 4-5 yilda bir marotaba chuqur audit o‘tkazadi.

Polshada foyda solig‘i bo‘yicha soliq deklaratsiyalari elektron shaklda tegishli soliq inspeksiyasiga yil yakunlangandan so‘ng 3 oy ichida topshirilishi talab qilinadi [7]. Polsha Soliq komiteti 2025-yildan boshlab soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish maqsadida moliyaviy hisobotlardan avtomatik ma’lumot olish tizimini joriy qilmoqda. Xususan, 2025 yildan e-hisobvaraq va raqamli buxgalteriya ma’lumotlarini elektron tarzda soliq idorasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuborish bo‘yicha yangi SAF-CIT (Standard Audit File for Corporate Income Tax) tizimi bosqichma-bosqich amalga kiritmqda. Polsha tajribasida soliq to‘lovchilar tomonidan yil davomida har oylik avans to‘lovlar to‘lab boriladi va yil yakunida beriladigan deklaratsiya asosida yakuniy hisob-kitob amalga oshiriladi. Shuningdek, yangi tashkil etilgan yoki aylanmasi 2 mln yevroga yetmagan kichik firmalarga oylik emas, har choraklik avans to‘lov to‘lash imkoniyati beriladi – bu kichik biznesga biroz yengillik yaratishdir.

Turkiyada korporativ daromad solig‘i o‘z-o‘zini baholash (self-assessment) tizimiga asoslangan [8]. Ya’ni soliq to‘lovchilar soliq majburiyatlarini mustaqil ravishda hisoblab, yillik deklaratsiya shaklida taqdim etadi. Moliya yili yakunlanganidan so‘ng to‘rtinchi oyning 30-kuni (kalendar yil uchun – 30-aprel) korporativ solig‘i bo‘yicha deklaratsiya topshiriladi. Soliq to‘lovi esa shu sanadan kechiktirmay amalga oshirilishi shart. Bundan tashqari, yil davomida har chorak yakunlangach, ikkinchi oyning 17-kuniga qadar choraklik daromad uchun bunak to‘lovlari amalga oshiriladi. Bu bunak to‘lovlar yil yakunidagi yakuniy hisob-kitobda hisobga olinadi.

2020 yildan “Digital Tax Office” – elektron soliq kabineti ishga tushirilib, deklaratsiya berishdan tortib to‘lovlarni amalga oshirishgacha onlayn platforma orqali bajarish yo‘lga qo‘yilgan

Xulosa qilib aytganda, Germaniya, Polsha va Turkiya amaliyotidan kelib chiqib, foyda solig‘i ma’muriyatchiligida quyidagi jihatlar e’tiborga molik hisoblanadi:

- Germaniyada soliq stavkasi yuqori, ammo kichik biznesga imtiyozlar ko‘p, Polsha va Turkiyada “o‘rtacha” stavka qo‘llanishi soliq bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda esa nisbatan past stavka belgilangan va soliq imtiyozlarini minimallashtirish yo‘liga o‘tilmoqda. Lekin ushbu past stavka belgilangan sharoitida ham budjetga tushumlar yuqori.

Yuqoridagi tahliliy natijalar O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’muriyatchiligida muayyan ijobiy jihatlar bilan bir qatorda hal etish lozim bo‘lgan muammo va vazifalar mavjudligini ko‘rsatadi.Mazkur muammolar mohiyati va ularning yechimi bo‘yicha takliflar huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar bilan asoslangan holda muhokama qilinadi.

1. Soliq bazasining torligi va tushumlarning yuqori konsentratsiyasi. Tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekistonda foyda solig‘i tushumlarining katta qismi sanoqli yirik korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda [9]. 52 663 mlrd so‘m 2024-yilda davlat budjetiga foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar tushishi ta’minlangan bo‘lsa, ushbu tushumlarning 45 434,9 mlrd so‘mi yirik soliq to‘lovchilarga to‘g‘ri keladi (57% top-10 korxona ulushi).

3-jadval.

Top-10 likdagi eng ko‘p soliq to‘lagan yuridik shaxslarning foyda solig‘i tushumlari dinamikasi (mlrd so‘m**)***

№	Soliq to‘lovchilar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1.	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	17,96	12,61	18,77
2.	“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	4,67	4,27	5,64
3.	“O‘zbekneftgaz” AJ	0,98	0,75	0,53

*Soliq.uz ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

Jadvaldan ma’lumotlaridan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, bu holat soliq tushumlari barqarorligiga xatar tug‘diradi – agar mazkur korxonalar faoliyatida pasayish yoki moliyaviy qiyinchilik yuzaga kelsa, budjet daromadlari keskin kamayishi mumkin. Soliq bazasining tarmoqlar va soliq to‘lovchilar o‘rtasida nomutanosib taqsimlangani makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 2023-yilda dunyoda oltin va rangli metallar narxi tushgan bir paytda Navoiy KMK, Olmaliq KMK va “O‘zbekneftgaz” foydalari pasayishi ehtimoli fonida, ular to‘laydigan foyda solig‘i tushumlari kamaygan. Davlat budjeti bunday holatda qoplanmaydigan daromadlar bilan yuzlashadi. Shu bois soliq ma’muriyatchiligi uchun vazifa – soliq bazasini kengaytirish, ya’ni kichik va o‘rta biznes korxonalarining ham foyda solig‘iga tortilish ulushini oshirishdir.

Yirik soliq to‘lovchilar foyda solig‘ining bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi yirik soliq to‘lovchilar (masalan, tog‘-kon sanoati, yirik energetika va bank sektori korxonalari) bevosita soliqlar (ya’ni foyda, daromad soliqlari) umumiy tushumining yarmidan ko‘pini shakllantirayotganini ko‘rsatadi. Ulushning o‘sishi bu sektorlar foydaliligining ortib borayotganini, resurslarga yondashuv yoki ularning soliq yukidagi nisbiy barqarorligini anglatadi.

Yirik soliq to‘lovchilar foyda solig‘ining davlat budjetidagi ulushi davlat budjeti xarajatlarining tobora ko‘proq qismini yirik korxonalar foyda solig‘i hisobiga moliyalashtirilayotganini anglatadi. 2024 yildagi sezilarli o‘sish yirik sektorlar daromadlarining oshgani yoki foyda solig‘i yig‘imining kuchaytirilganidan dalolat beradi.

Foyda solig‘ining YAIMdagi ulushi nisbatan barqaror ko‘rsatkich bo‘lib, O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti bilan bog‘liq hajmdagi foyda solig‘i ulushining yuqori darajada o‘zgaruvchan emasligini bildiradi. 2023 yildagi pasayish ehtimol soliq imtiyozlari yoki “korporativ” foyda kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

1-diagramma.

2022–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda yirik soliq to‘lovchilardan tushayotgan foyda solig‘i*



*Mualliflar ishlanmasi

Diagramma shuni ko‘rsatib turibdiki, yirik soliq to‘lovchilarning iqtisodiyotdagi fiskal ahamiyati ortib bormoqda. Ularning foyda solig‘i orqali davlat budjetini to‘ldirishdagi roli sezilarli darajada kuchaygan (11% → 23%). Shu bilan birga, umumiy YAIMga nisbatan foyda solig‘i ulushi uncha katta emas, ya’ni bu soliqdan olinayotgan daromadning iqtisodiy o‘sishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nisbati cheklangan. Bu holat soliq bazasini diversifikatsiya qilish, kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini jalb etish zaruratini ham ko‘rsatadi.

Hozirgi amalda bo‘lgan tartibga muvofiq, yillik aylanmasi 1 mlrd so‘mdan oshmagan subyektlar maxsus rejim aylanma solig‘ini to‘laydi. Bu rejim tadbirkorlar uchun jozibador bo‘lgani sababli ko‘pchiligi aylanmadan chiqmaslikka harakat qiladi, hatto chegaradan oshmaslik uchun sun’iy ravishda biznesini bo‘lib yoki ayrim tushumlarni yashirish holatlari bo‘lishi mumkin. Natijada o‘rtamiyona xususiy korxonalarning sezilarli qismi foyda solig‘i to‘lamaydigan rejimda qoladi. Shuning uchun kelgusida aylanmadan olinadigan soliq qo‘llash parametrlarini qayta ko‘rib chiqish, uni o‘ta uzoq qo‘llaydiganlarni umumiy rejimga o‘tishga rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Masalan, ayrim mamlakatlarda soddalashtirilgan rejimda ma’lum muddat (3-5-yil) ishlagan korxona shundan so‘ng avtomat tarzda umum belgilangan soliq to‘lash tartibiga o‘tkaziladi yoki qo‘shimcha koeffitsientlar joriy qilinishi mumkin.

2. Foyda solig‘i ma’muriyatchiligidagi yana bir muammo – soliq solish bazasining muhim qismi turli imtiyoz va istisnolar bilan qamrab olingani. Ushbu imtiyozlar natijasida potensial soliq tushumlarining bir qismi yig‘ilmayapti. Xalqaro valyuta jamg‘armasi mutaxassislari ham O‘zbekistonga soliq imtiyozlarini qisqartirish hamda foyda solig‘i va jismoniy shaxslar daromad solig‘ining soliq bazasini qayta ko‘rib chiqishni tavsiya qilgan [10]. Jumladan, daromadga nisbatan qo‘llaniladigan turli soliq kreditlari, chegirmalar va imtiyozlarni kamaytirish orqali soliq bazasini kengaytirish mumkin. Bu esa soliq ma’muriyatchiligi ishini ham yengillashtiradi, chunki imtiyozlar ko‘p va murakkab bo‘lgan sari soliq hisobini tekshirish qiyinlashadi, sun’iy sxemalar paydo bo‘ladi. Shunday ekan, soliq imtiyozlarini inventarizatsiya qilib, maqbullik nuqtayi nazaridan tahlil qilishi zarur.

Iqtisodiy samara bermayotgan imtiyozlarni bekor qilish orqali soliq tushumi oshishi ta’minlanadi. Shu bilan birga, qonunchilikni takomillashtirish orqali foyda solig‘idan qochish

sxemalarining oldini olish kerak. Masalan, transfert narxlari orqali foydani boshqa yurisdiksiyalarga o‘tkazish, xarajatlarni sun’iy oshirish, daromadlarni boshqa shaklga keltirib berilish kabi holatlar taraqqiyot davomida paydo bo‘lishi tabiiy. O‘zbekiston hozir global iqtisodiyotga integratsiyalashgani sari, transfert narxlari va agressiv soliq rejalashtirish (tax planning) sohasida huquqiy bazani mustahkamlashi kerak.

3. O‘zbekiston soliq organlari jadal raqamlashtirilgan bo‘lsa-da, ayrim jihatlarda hali to‘liq integratsiyaga erishilgani yo‘q. O‘zbekiston soliq ma’muriyatchiligi oldida “to‘liq integratsiyalashgan raqamli infratuzilmaning yetishmovchiligi, aholining soliqqa oid xabardorlik darajasining cheklanganligi va idoralararo institutsional salohiyatning susaygani kabi bir qator muammolar turibdi.

Haqiqatan ham, soliqchi kadrlarning ayrimlari yangi texnologiyalar va tahlil usullarini qo‘llash borasida malaka oshirishga muhtoj. Shu bois, soliq xizmati xodimlari uchun doimiy trening va qayta tayyorlov kurslarini tashkil etish, ularni xalqaro tajribalar bilan tanishtirish dolzarbdir. Kelgusida bunday hamkorliklarni kengaytirish, soliq idorasi xodimlarini doimiy malaka oshirishini rag‘batlantirish lozim.

4. Soliq to‘lovchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish. Soliq ma’muriyatcршдшпштш takomillashtirishda yana bir muhim jihat – bu soliq to‘lovchilar bilan muloqot va ishonchli munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdir. Soliq to‘lovchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir mexanizmlar kuchli bo‘lsa, bu soliqqa ixtiyoriy rioya qilish madaniyatini oshiradi.

Bundan tashqari, soliq to‘lovchilarga soliq qonunchiligidagi yangiliklarni tushuntirish va ularni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha uslubiy yordam berish ham muhim. Masalan, Polsha tajribasidagi kabi soliq organi tomonidan beriladigan Individual Ruling (individual tushuntirish xati) tizimini O‘zbekistonda ham joriy etish mumkin. Hozirda Soliq kodeksiga muvofiq, Soliq qo‘mitasining rasmiy veb-saytida ma’lum haq evaziga tushuntirishlar e’lon qilinishi mumkin, lekin amalda u keng tarqalgan amaliyot emas. Shunday tushuntirishlarni yuridik kuchga ega tarzda berish va ularga amal qilgan soliq to‘lovchini jarimadan himoya qilish mexanizmi (Polshada bo‘lgani kabi) yaratilsa, ko‘plab bahsli holatlarning oldi olinadi. Soliq to‘lovchilarga bunday “huquqiy aniqlik”ni berish soliq ma’muriyatchiligining xizmat ko‘rsatuvchi davlat idorasi sifatidagi nufuzini oshiradi va hamkorlik muhitini shakllantiradi.

5. Xalqaro hamkorlikning yana bir yo‘nalishi – ofshor zonalarning soliqqa tortish ma’lumotlari bilan almashishdir. O‘zbekiston 2020-yildan boshlab OESRning Avtomatik axborot almashinuvi (CRS) dasturida ishtirok etishni boshladi. Bu yo‘nalishda xorijiy banklarda hisobvaraqlari bo‘lgan rezidentlar ma’lumotlarini to‘plash va chetga chiqarilayotgan foyda summalarini nazorat qilish imkoni tug‘iladi.

6. Yanada bilimga asoslangan soliq xizmatiga o‘tish. Soliq ma’muriyati faoliyatini takomillashtirish uzoq muddatda soliq xizmatining rolini nazarda tutishi lozim – joriy islohotlar natijasida soliq organlari faqat nazorat qiluvchi va soliq undiruvchi emas, balki maslahatchi, ko‘makchi hamda davlat moliyaviy manbalari menejeri sifatida namoyon bo‘ladi. Soliq organlari ishida ilmiy tahlil va prognozlash ahamiyati oshib bormoqda. Xususan, foyda solig‘i bo‘yicha o‘z ishini to‘g‘ri tashkil qilish, “soyadagi” foydalarni legal sektorga qaytarish, soliq sug‘urilishi va optimallashtirish sxemalarini yopish, imtiyozlarni qisqartirish hamda xizmat ko‘rsatish sektoridagi daromadlarni rasmiylashtirish kabi omillar hisobiga soliq tushumlari ko‘payishi mumkin. Soliq ma’muriyati bu ishlarni asoslab beradigan tadqiqotlar o‘tkazib, moliya-iqtisodiy organlarga qarorlar qabul qilishda ma’lumot taqdim etib borsa, mamlakat soliq siyosati samarali bo‘ladi.

Xulosa

Yuqorida sanab o‘tilgan muhokamalardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’muriyatchiligini yaxshilash uchun bir qator yo‘nalishlarda choralar zarur: soliq bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish; soliq nazoratini takomillashtirish (xususan, xatarli

toifalarga qaratilgan auditni kuchaytirgan holda boshqalarga yordamchi-maslahatchi yondashuvda bo‘lish); kadrlar salohiyatini oshirish; axborot texnologiyalarini yanada chuqur integratsiya qilish; soliq to‘lovchilar bilan ishonchli aloqani mustahkamlash va xalqaro standartlarni implementatsiya qilish.

O‘zbekistonda foyda solig‘i ma’muriyatchiligi xalqaro andozalarga mos ravishda takomillashishi natijasida soliq tizimining samaradorligi yanada oshadi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat budjeti daromad bazasining kengayishi, biznes uchun teng va adolatli soliq muhitining shakllanishi hamda umumiy iqtisodiy rivojlanishning jadallashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isayev Xusan Mansurovichning “Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlar ulushini oshirish yo‘llari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. https://oak.uz/pages/8353

апayev Shuxratning “Yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchiligini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. https://oak.uz/pages/12360

2. Jumayev Shuxratning “Yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchiligini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. https://oak.uz/pages/12360

3. Giyasov Sarvar A’zamovichning “Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish” mavzusidagi dissertatsiya ishi. https://oak.uz/pages/12359

4. Ergashev Rustam Rajabovichning “Soliq siyosatining norasmiy iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishga qaratilgan mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishi. https://oak.uz/pages/10797

5. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. soliq.uz

6. Enache C. Corporate Tax Rates around the World, 2022 [Elektron manba]. – Tax Foundation, 13.12.2022. – https://taxfoundation.org/publications/corporate-tax-rates-around-the-world-2022/

7. Germany - Corporate - Tax Administration. PwC Tax Summaries, PricewaterhouseCoopers. – https://taxsummaries.pwc.com/germany/corporate/tax-administration. Accessed 24 May 2025.

8. Turkish Tax and Accounting. Internet (Digital) Tax Office in Turkey. – https://turkish-tax-and-accounting.com/internet-digital-tax-office-in-turkey/

9. Yil yakunlari 2024 (factbook). – https://gov.uz/oz/soliq/sections/elektron-risolalar

10. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF). (2025, 23-aprel). Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2025 Article IV Mission. – https://www.imf.org/en/News/Articles/2025/04/23/mcs-042325-uzbekistan-staff-concluding-statement-of-the-2025-article-iv-mission

Elektron resurs

11. https://eurasianet.org/uzbekistan-natural-resources-generating-the-bulk-of-state-revenue

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ЎЗБЕКИСТОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР

Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи

иқтисодиёт фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)
молия ва кредит кафедрасининг доценти
Ўзбекистон миллий университети
E-mail: motabar.umurzaqova@mail.ru
ORCID: 0009-0002-2279-9629

Аннотация. *Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш ва аҳолига сифатли тиббий хизмат кўрсатишни таъминлаш Ўзбекистонда устувор йўналишлардан бири бўлиб келмоқда. Айниқса имтиёзли тоифага кирувчи беморларни даволаш харажатларини қоплаш, хусусий тиббиёт муассасалари билан ҳамкорлик қилиш ва рақамли ахборот тизимларини жорий этиш орқали молиялаштириш тизимини шаффофлаштириш муҳим аҳамият касб этмоқда. Мақолада давлат тиббий суғурта жамғармаси томонидан 2021–2025 йиллар давомида имтиёзли беморлар даволаниш харажатларини қоплаш соҳасида амалга оширилган ишлар, бюджет харажатлари динамикаси ва эришилган натижалар таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *тиббий суғурта, аҳоли саломатлиги, соғлиқни сақлаш, соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштириш, тиббий ёрдам, пуллик тиббий хизмат.*

РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ МЕДИЦИНСКОГО СТРАХОВАНИЯУЗБЕКИСТАНА

Умурзакова Мутабархон Надыр кызы

доктор философии (PhD)
по экономическим наукам
доцент кафедры финансов и кредита
Национальный университет Узбекистана
E-mail: motabar.umurzaqova@mail.ru
ORCID: 0009-0002-2279-9629

Аннотация. *Реформирование системы здравоохранения и обеспечение качественных медицинских услуг населению являются одними из приоритетных направлений в Узбекистане. Особенно важное значение имеет обеспечение прозрачности системы финансирования через компенсацию расходов на лечение пациентов льготных категорий, сотрудничество с частными медицинскими учреждениями и внедрение цифровых информационных систем. В статье анализируется работа, проведенная Государственным фондом медицинского страхования по покрытию расходов на лечение льготных категорий пациентов в 2021-2025 годах, динамика бюджетных расходов и достигнутые результаты.*

Ключевые слова: *медицинское страхование, здоровье населения, здравоохранение, финансирование здравоохранения, медицинская помощь, платные медицинские услуги.*

ONGOING REFORMS IN THE HEALTH INSURANCE SYSTEM IN UZBEKISTAN

Umurzakova Muxtabarkhon Nodir kizi

Doctor of Philosophy (PhD)

in Economic Sciences
Associate Professor
Department of Finance and Credit
National University of Uzbekistan
E-mail: motabar.umurzaqova@mail.ru
ORCID: 0009-0002-2279-9629

Abstract. *The reform of the healthcare system and the provision of quality medical services to the population remain among the top priorities in Uzbekistan. Of particular importance is enhancing the transparency of the financing system by covering treatment costs for privileged patient categories, cooperating with private medical institutions, and implementing digital information systems. This article analyzes the work carried out by the State Medical Insurance Fund in the field of covering the costs of treatment of privileged patients during 2021-2025, the dynamics of budget expenditures, and the results achieved.*

Keywords: *health insurance, public health, healthcare, healthcare financing, medical care, paid medical services.*

Кириш

Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш жараёни аҳоли учун тиббий хизматларнинг сифатини оширишга қаратилган. Беморларнинг имтиёзли тоифага кириши соғлиқни сақлаш хизматларига бўлган эҳтиёжнинг юқорилигини, шунингдек, бу хизматларнинг бюджетга ва давлат қарзига бўлган таъсирини кўрсатади.

Имтиёзли тоифага кирувчи беморларга тиббий хизматлар кўрсатишнинг молиялаштириш усуллари жамиятнинг барча қатламлари учун ҳуқуқий адолатлиликни таъминлаш учун муҳимдир. Шунингдек, бу жараёнда давлат бюджети ва соғлиқни сақлашга ажратилган маблағлар қанчалик самарали фойдаланилаётгани таҳлил этилиши зарур.

Хусусий секторманинг ролини ошириш соғлиқни сақлаш тизимини модернизациялашда муҳим аҳамиятга эга. Улар билан амалга ошириладиган ҳамкорлик иқтисодий самарадорликни оширишга, хизматларнинг сифатини янгилашга ва жамоат секторининг босимини камайтиришга ёрдам беради.

Адабиётлар шарҳи

Тиббий суғурта тизимини ислоҳот қилиш, молиялаштириш, ҳисобга олиш ва назорат қилиш тегишли давлат ижтимоий тузилмалари учун долзарб масалалардан ҳисобланади. Маълумки, суғурта тиббиётига ўтиш бозор иқтисодиёти ва тиббий хизматлар бозорининг ривожланиши шароитида зарур. Чунки у аҳолининг кенг қатламлари учун тиббий хизматларнинг кафолати, фойдаланиш имконияти ва юқори сифатини таъминлайди, соғлиқни сақлаш соҳасига қўшимча молиявий ресурсларни жалб қилиш муаммосини ҳал қилишга ёрдам беради.

Тиббий суғурта масалани бир талай тадқиқотчилар ўз илмий ишларида турли нуқтаи назардан тадқиқ этган. Масалан, О.Л. Чумакова, М.С. Груздеваларнинг фикрича, тиббий суғуртанинг мақсади «... суғурта ҳодисаси юз берганда тўпланган маблағлар ва профилактика чора-тадбирларини молиялаштириш ҳисобидан тиббий ёрдам олишни кафолатлашдан иборат. Бунда ижтимоий ҳимоя ягона тартибда ихтисослаштирилган пул фондини ташкил етиш орқали амалга оширилади. Бундай фондни шакллантиришда ҳар бир фуқаро иштирок етади ва тиббий суғурта мажбурий бўлади[1].

Шу билан бирга Х.Н. Ханбалаеванинг фикрича, Россия Федерциясида ҳам бу соҳада муамолар мавжуд, яъни “бепул тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича давлат мажбуриятлари етарли молиявий ресурслар билан таъминланмаган; ҳудудий тиббий ёрдам дастурлари фақат 40-60% томонидан молиялаштирилади” [2]

Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштириш ва суғурта хизматлар

бозорини шакллантиришнинг назарий ва амалий жиҳатлари А.Ш. Бекмуродов, А.В. Вахабов, Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров, Н.Х. Жумаев, Х.И. Баев, П.З. Хошимов, А.С. Нуриллаев, Х.М. Шеннаевларнинг илмий асарларида тадқиқ этилган.

Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш соҳасидаги ислоҳотларнинг асосий йўналишларини ва уларнинг ижобий натижаларини аниқлашда илмий тадқиқотлар муҳим манба бўлиб хизмат қилади, аммо иқтисодий адабиётда давлат тиббий суғурта жамғармаси фаолияти ва самарадорлиги мустақил тадқиқот объекти сифатида ўрганилмаган. Муаммони долзарблиги, натижаларни илмий-амалий ахамиятга эгалиги ва иқтисодий адабиётда етарлича ўрганилмаганлиги мавзуни танлашга асос бўлди.

Тадқиқот методологияси

Илмий мақолани ёзиш жараёнида тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, анализ ва синтез, қиёсий ва селектив танлаб тадқиқ қилиш, монографик таҳлил ва гуруҳлаш усуллари қўлланилган.

Таҳлил ва натижалар

Соғлиқни сақлаш тизимида рақамли ахборот тизимларининг жорий этилиши тиббий хизматларнинг мониторингини яхшилашга, маблағларнинг ажратилишини назорат қилишга ва ахборотнинг шаффофлигини таъминлашга ёрдам беради. Бу, ўз навбатида, молиялаштириш тизимининг самарадорлигини оширишга сабаб бўлади.

Давлат тиббий суғурта жамғармаси томонидан 2021–2025 йиллар давомида давлат бюджетига соғлиқни сақлаш соҳасига қўшилаётган маблағлар ва уларнинг қандай самара бергани таҳлили давлатнинг молиявий сиёсатини янада ривожлантириш ва тиббий хизматлар сифатига таъсир кўрсатишнинг камига ёки ошишига ёрдам беради [3].

Тадқиқот давомида давлат тиббий суғурта жамғармаси томонидан 2021–2025 йиллар оралиғида имтиёзли беморларни даволаш, нодавлат тиббиёт муассасаларида хизмат кўрсатиш, рақамли ахборот тизимларидан фойдаланиш ва давлат-хусусий шериклик асосида шартномалар тузиш соҳаларида муҳим ўзгаришлар қайд этилди.

1-жадвал.

Имтиёзли беморларнинг даволаш харажатларини қоплаш*

Йиллар	**Даволаш харажатларни қоплаш** млрд сўм	**Беморлар сони**
2021-2025	2 086,6	280 595
2024	791,47	99 105
2025 йилнинг дастлабки 3 ойи	189,1	20 876

*Муаллиф томонидан тузилган.

Давлат тиббий суғурта жамғармасидан имтиёзли беморларнинг даволаш учун 2021–2025 йиллар мобайнида жами 280 595 нафар беморни даволаш учун 2 086,6 млрд сўм ажратилган. Бу йиллик кўрсаткич ўртача 521,65 млрд сўмни ташкил этади. Фақат 2024 йилнинг ўзида 99 105 нафар бемор учун 791,47 млрд сўм сарфлангани бу йўналишга молиялаштиришнинг ошиб бориши ва давлат томонидан соғлиқни сақлашга эътибор кучайганини кўрсатади. 2025 йилнинг фақат 3 ойида 189,1 млрд сўм ажратилган. Йил якунида мазкур кўрсаткич 700 млрд сўмдан ошиб кетиши мумкинлигини англатади, яъни устуворлик сақланаётганини тасдиқлайди [11].

2-жадвал.

Нодавлат тиббиёт ташкилотларида даволанишни молиялаштириш*

Йиллар	Нодавлат тиббиёт муассалари	Даволанишни молиялаштириш млрд сўм	Беморлар сони
2024	39	70,2	3 508
2025 йилнинг 1 чораги	46	17,2	850

*Муаллиф томонидан тузилган.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, 2024 йилда нодавлат тиббиёт муассасаларига хизмат кўрсатиш учун 39 та хусусий клиника орқали Давлат тиббий суғурта жамғармасидан 3 508 беморга 70,2 млрд сўм маблағ йўналтирилган. 2025 йилнинг 1 чорагида муассасалар сони 46 тагача ошган, бу эса 18% ўсишни кўрсатади. Шу билан бирга беморлар сони 850 нафарни ташкил этиб, бу чоракдаги фаолликнинг анча паст эканлигини кўрсатади (йиллик прогнозга кўра 3 400–3 500 нафарга етиши мумкин). Мазкур ҳолат икки жиҳат, яъни

- янги шартномаларнинг йил бошида тузилиши вақтни талаб этиши;
- даволаниш даврларининг мавсумий хусусиятлари билан изоҳланиши мумкин.

3-жадвал.

Medrefer ахборат тизимини жорий этиш натижалари*

2023 йил	44,8 млрд.сўм	6,3 %
2024 йил	121,9 млрд.сўм	13,8 %
2025 йил	19,8 млрд.сўм	10,1 %

* Муаллиф томонидан тузилган.

Medrefer ахборот тизими жорий этилиши самараси 2023 йилда 44,8 млрд сўм бюджет маблағи шаффоф назорат остида йўналтирилган бўлса, 2024 йилда бу кўрсаткич 121,9 млрд сўмгача (13,8%) ошиб, 2,7 баробар ўсишни англатади. 2025 йилда (ҳозирча 3 ойлик) кўрсаткич 19,8 млрд сўмни ташкил этмоқда. Йиллик прогнозга кўра 80–85 млрд сўмни ташкил қилиши мумкин. Бу ўсишнинг ортидаги омиллар:

- беморларни йўналтиришнинг рақамлилашуви;
- тезкор ҳисоб-китоб ва молиялаштириш механизмлари.

4-жадвал.

Давлат тиббий суғурта жамғармасининг тиббиёт ташкилотлари билан шартномалар таҳлили*

Йил	Ташкилотлар сони	Маблағ (млрд сўм)
2021	14	63,7
2022	10	656,5
2023	96	721,9
2024	105	799,67
2025 (режа)	127	1 171,9

*Муаллиф томонидан тузилган.

Давлат тиббий суғурта жамғармаси 2021 йилда 14 та ташкилот билан ҳамкорлик қилинган бўлса, 2023 йилга келиб бу кўрсаткич 7 баробарга ошган. 2025 йилда 127 та ташкилот билан шартнома тузиш режалаштирилгани соҳага хусусий секторни кенг жалб этишга қаратилаётганини кўрсатади. Маблағ ажратиш ҳажми эса 2021 йилдан 2025

йилгача 18,4 баробарга ўсиши кутилмоқда. Бу соғлиқни сақлашни молиялаштиришда давлатнинг ролини кучайтириб, беморларга кўрсатилаётган хизмат сифатини ошириш имконини беради.

4-жадвал маълумотларига асосланиб айтиш мумкинки, Давлат тиббий суғурта жамғармасининг кўрсаткичлари соғлиқни сақлаш тизимида хусусий секторнинг иштироки кенгаяётганини ва молиялаштириш кўлами тез суръатларда ошиб бораётганини тасдиқлайди.

Олиб борилган ислоҳотлар натижасида имтиёзли беморларни даволаш механизмида бир қатор ижобий ўзгаришлар кузатилди. Хусусан:

- давлат бюджети ҳисобидан хусусий клиникаларда бепул хизмат кўрсатиш амалиёти илк бор жорий этилди;
- қимматбаҳо протезлар ва материаллар харажати давлат маблағлари билан тўлиқ қопланди;
- даволаш халқаро стандартлар асосида амалга оширилди;
- коррупцияни чеклаш мақсадида тескари алоқа ва электрон ҳисобот тизимлари жорий этилди;
- харажатларни тўлиқ рақамли форматда ҳисобга олиш орқали шаффофлик таъминланди.

Medrefer ахборот тизими орқали беморлар йўналтирилиши, хизмат кўрсатиш ва молиялаштириш жараёнлари аниқ, автоматлашган усулда амалга оширилмоқда. Бу эса харажатларни самарали бошқариш ва назорат қилиш имконини беради.

Хулоса

Тадқиқот натижалари шундан далолат берадики, Ўзбекистонда имтиёзли тоифадаги беморларнинг тиббий хизматга бўлган эҳтиёжини қондиришда давлат томонидан олиб борилаётган сиёсат самарали ва мақсадли йўналтирилган. Электрон ахборот тизимларининг жорий этилиши, хусусий сектор билан ҳамкорлик ва шаффоф молиялаштириш механизмлари келгусида тиббиёт соҳасидаги ислоҳотларни янада чуқурлаштиришга замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Чумакова О.Л., Груздева М.С. Медицинское страхование. – https://cyberleninka.ru/article/n/meditsinskoe-strahovanie

2. Ханбалаева Х.Н. Проблемы медицинского страхования и возможные пути их решения. – https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-meditsinskogo-strahovaniya-i-vozmozhnye-puti-ih-resheniya/viewer]

3. 2021–2025 йилларда соғлиқни сақлаш соҳасини ривожлантириш давлат дастури. https://lex.uz/docs/5534899

4. Абдухалилов, Т.М. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш: Теория ва амал.–Тошкент 2020.

5. dtsj.uz Yangiliklar – Tibbiy sug‘urta sayti

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ

Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли
Тошкент молия институти, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори PhD, доцент
Email: sholdarov_dilshod@tfi.uz
ORCID: 0000-0001-9020-8697.

Аннотация: *Мақолада ижтимоий соҳа тизимининг асосий йўналишлари бўлган ижтимоий ҳимоя тизими, давлат ижтимоий сиёсати, фуқароларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва камбағалликни қисқартириш, кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам кўрсатиш, ижтимоий ёрдам дастурлари доирасида кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам тайинлаш, кам таъминланган оилаларга болалар нафақасини тайинлаш, кам таъминланган оилаларни “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали аниқлаш масалалри ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *Ижтимоий соҳа, ижтимоий ҳимоя тизими, моддий ёрдам, болалар нафақаси, ижтимоий ҳимоя ягона реестри.*

ПОРЯДОК НАЗНАЧЕНИЯ В ВЫПЛАТЫ ПОСОБИЙ И МАТЕРИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ МАЛОИМУЩИМ СЕМЬЯМ

Шолдаров Дилшод Азимиддин угли
Ташкентский финансовый институт
доктор философии по экономических наук
Email: sholdarov_dilshod@tfi.uz
ORCID: 0000-0001-9020-8697.

Аннотация: *В статье определены основные направления системы социальной защиты населения, которая является составной частью социальной сферы, государственной социальной политики, также определены меры по усилению социальной защиты и сокращения бедности граждан, оказание материальной поддержки малоимущим семьям, меры по назначению материальной помощи малоимущим семьям на основании социальных программ, изучены вопросы определения малоимущих семей по информационной системе "Единый реестр социальной защиты".*

Ключевые слова: *Социальная сфера, материальная помощь, пособия детям, единый реестр социальной защиты.*

PROCYEDURE FOR APPOINTMENT AND PAYMENT OF PENSIONS AND MATERIAL ASSISTANCYE FOR LOW-INCOME FAMILIYES

Sholdarov Dilshod Azimiddin o‘g‘li
Tashkent institute of finance
Doctor of Philosophy in Economics
Email: sholdarov_dilshod@tfi.uz
ORCID: 0000-0001-9020-8697.

Annotation: *In thye article, thye main directions of thye social sphyere system which thye social protection system, state social policy, strengthyening thye social protection of citizens and reducing poverty, providing financial assistancye to low-income familiyes, assigning financial assistancye to low-income familiyes within thye framework of social assistancye programs, assigning child benefis to low-income familiyes, issuyes of identification of low-income familiyes through thye information system of thye "Unifiyed Register of Social Protection" are yexplained.*

Key words: *Social sphyere, social protection system, material assistancye, child allowancye, unifiyed register of social protection.*

Кириш

Жамиятда фуқароларни ижтимоий жиҳатдан тўла таъминлаш, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларига моддий жиҳатдан кўмак бериш, давлат ижтимоий сиёсатининг муҳим ва ажралмас бўлагидир. Инсоният цивилизацияси юзага келган даврдан бошлаб то ҳозирги кунга қадар жамиятда кексалар, меҳнатга лаёқатсизлар, вояга етмаганлар ва бошқа ижтимоий таъминотга муҳтожларни жамият томонидан яратилган моддий неъматлардан жамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида баҳраманд бўлишларини таъминлаш тизими шаклланиб келди ва ҳозирги даврда ҳам ижтимоий таъминот ва пенсия таъминоти тизими ғоят муҳим ва долзарб аҳамиятга эгадир.

Фуқароларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва камбағалликни қисқартириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида белгиланиб, аҳолини янги иш ўринлари ва кафолатли даромад манбаи, малакали тиббий ва таълим хизматлари, муносиб яшаш шароитлари билан таъминлаш сифат жиҳатидан янги босқичга кўтарилди[1].

Инсон тараққиёти комплекс характерга эга бўлиб, инсоннинг ҳам моддий, ҳам маънавий эҳтиёжларини қондириш, унинг тиббий хизмат, таълим, ижтимоий таъминот олиш, ўз қобилиятини кўрсатиш эркинлигига, бугунги ва келгуси авлодлар хавфсизлигига бўлган ҳуқуқларини таъминлашни ўз ичига қамраб олади. Шундай экан, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини, жумладан, кам таъминланган болали оилаларни аниқ йўналтирилган тарзда давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, уларнинг моддий фаровонлик даражасини ошириш, кекса авлод вакиллари манфаатларининг ҳимоя қилинишини таъминлаш давлат кафолати остида эканлигини унитмаслигимиз лозим[2].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 декабрдаги “Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси”даги 2023 йилдаги устувор йўналишларнинг иккинчи йўналишида, “Биз Янги Ўзбекистонни “ижтимоий давлат” тамойили асосида қуришни мақсад қиляпмиз. Буни Конституцияда мустаҳкамлашимиз керак”. Ижтимоий давлат бу, энг аввало, инсон салоҳиятини рўёбга чиқариш учун тенг имкониятлар, одамлар муносиб ҳаёт кечиришига зарур шароитлар яратиш, камбағалликни қисқартириш, демакдир[3].Биз бу йил тарихимизда илк бор пенсия ва ижтимоий нафақалар миқдорини минимал истеъмол харажатларидан кам бўлмаган даражага олиб чиқдик. Мисол учун, 2017 йилда кам таъминланган 500 минг оила ижтимоий ёрдам олган бўлса, бугунга келиб 2 миллиондан ортиқ оилаларга кўмак берилмоқда. Ажратилаётган маблағлар эса, 7 баробар кўпайтирилиб, йилига 11 триллион сўмга етди.

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақолада тадқиқотнинг таҳлил, синтез, иқтисодий усул, мантиқий таҳлил ва абстракт фикрлаш каби усуллардан фойдаланилган.

Адабиётлар шарҳи.

“Кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам кўрсатиш ҳамда камбағаллик билан курашиш кўламини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” Фармонда, Бола тарбиялаётган оилаларни қўллаб-қувватлаш тизимининг самарадорлигини ошириш, ижтимоий ҳимоя ва кўмакка муҳтож оилалар моддий таъминотини кучайтириш, эҳтиёжманд оилаларни аниқлашда умумэътироф этилган халқаро стандартларни ва автоматлашган шаффоф электрон баҳолаш механизмларини жорий этиш орқали нафақаларни тўлаш тизимини болалар салоҳиятини ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга қаратилган аниқ йўналишлар берилган[4].

“Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали кам таъминланган деб эътироф этилган оила (шахс)ларнинг фарзандларини умумтаълим муассасалари ва айрим фанлар чуқур ўрганиладиган давлат ихтисослаштирилган умумтаълим муассасаларидаги куни узайтирилган гуруҳларда болалар таъминоти учун ота-оналар тўловини “Аёллар дафтари”га киритилган хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси, “Ёшлар

дафтари”га киритилган ёшларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси ҳамда “Саховат ва кўмак” жамғармаси маблағлари ҳисобидан қоплаб бериш тартиби белгилаб ўтилган[5].

“Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали кам таъминланган оилаларга болалар нафақаси ва моддий ёрдамни тайинлашда минимал истеъмол харажатлари қийматининг мезон сифатида белгиланиши, мазкур турдаги тўловларни олувчилар сонининг кўпайиши ҳисобига Давлат бюджетидан қўшимча маблағлар ажратилишини белгилаб ўтилган[6].

Ижтимоий ёрдам дастурлари доирасида кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам тайинлаш, кам таъминланган оилаларга болалар нафақасини тайинлаш, давлат мактабгача таълим ташкилотларида кам таъминланган оила фарзандларини тўловдан озод этиш, кам таъминланган оилалар фарзандларини умумий ўрта таълим мактабларида дарсликлар учун ижара тўловларидан озод этиш, умумий ўрта таълим мактабларида кам таъминланган оилаларнинг фарзандлари учун кийим-бош бериш, айрим фанларни ўқитишга ихтисослаштирилган мактаб-интернатларда кам таъминланган оилалар ўқувчиларини овқатланиш харажатларидан озод этиш масалалари аниқ белгилаб берилган[7].

Таҳлил ва натижалар.

Кам таъминланган оилаларни “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали аниқлаш ҳамда уларга ижтимоий нафақа ва моддий ёрдам тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги Низомга увофиқ, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида яшайдиган кам таъминланган оилаларни “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали аниқлаш ҳамда уларга 14 ёшгача болалари бўлган оилаларга нфақа, бола икки ёшга тўлгунга қадар уни парвариш қилиш нафақаси, кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам. Ҳамда ун ва қолипли нон харид қилиш бўйича қўшимча харажатларни қоплаш учун ҳар ойлик пулли конпенсацияни тайинлаш ва тўлаш тартибини белгилаб берган.

Оилани кам таъминланган деб эътироф этиш шартлари қандай?

Кам таъминланган оилаларни “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали аниқлаш, уларга кам таъминланган оилалар болалари учун нафақа ва моддий ёрдам тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги Низомга мувофиқ, оиланинг ҳар бир аъзосига жами бир ойлик ўртача даромад 440 минг сўмдан ошмаганда, оиланинг ҳар бир аъзосига жами бир ойлик ўртача даромад минимал истеъмол харажатлари миқдоридан ошмаганда кам таъминланган деб эътироф этилади[8].

Болалар нафақаси ва моддий ёрдам ушбу Низомда белгиланган тартибда оила аъзоларининг тақдим этган аризаларига асосан “Ягона реестр” АТ орқали кам таъминланган оила деб эътироф этилгандан сўнг тайинланади. Бунда фуқароларнинг мурожаат қилиши, хар ойнинг 16 санасигача, Фуқаролар яшаш жойи бўйича фуқароларни ўзини-ўзи бошқариш органига, яъни махалла фуқаролар йиғинига аризани тақдим этади. Бунда тўғридан тўғри Пенсия жамғармасига ариза тақдим қилиш мумкин эмас.

Аризага қуйидагилар илова қилинади;

1. паспорт (ёки ID-карталар);
2. никоҳ тўғрисидаги гувоҳнома;
3. бола туғилганлик тўғрисидаги гувоҳнома.

Бунда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи томонидан ушбу ҳужжатларнинг нусхаси олиниб, асли аризачига қайтарилади. Фуқароларни ўзини-ўзи бошқариш органи ҳар беш кунда, бироқ ойнинг 19-санасига қадар ҳужжатларни Пенсия жамғармаси туман (шаҳар) бўлимига тақдим этади. Аризаларни дастурга киритиш жараёни, Пенсия жамғармаси масъул ходими томонидан, ҳар куни, бироқ жорий ойнинг 26-санасигача аризалар дастурга киритади.

- ✓ Аризалар қуйидаги холларда рад этилади;
- ✓ оиланинг ҳар бир аъзосига белгиланган меъёр (440 минг сўм)дан юқори даромади мавжуд бўлганда;

✓ 2 ва ундан ортиқ кўчмас мулки ёки бир ва ундан ортиқ нотурар жой бинолари мавжуд бўлганда;

✓ оила аъзоларининг ўз номига расмийлаштилган ёки бош ишончнома асосида фойдаланаётган ишлаб чиқарилган муддати 7 йилдан ошмаган техник холати соз бўлган енгил автотранспорт воситаси бўлганда;

✓ ишлаб чиқарилган муддати 15 йилдан ошмаган, техник ҳолати соз бўлган юк ташувчи автотранспорт воситаси, автобус, микроавтобус, экскаватор, трактор, комбайн, юк ташувчи автотранспорт воситаларининг тиркамалари ва ярим тиркамалари, автокран ва бошқа қурилиш техникаси;

✓ 2 ёки ундан ортиқ техник холати соз бўлган автотранспорт воситаси мавжуд бўлганда;

✓ ариза берувчи ва оила аъзоларининг тижорат банкларидаги депозит ҳисоб рақамларида ариза берган ойда меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг беш баравари ва ундан ортиқроқ миқдорда маблағлар мавжуд бўлганда;

✓ ариза берувчи ва оила аъзоларининг меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг беш баравари ва ундан ортиқроқ миқдорларда қимматли қоғозлар мавжуд бўлганда;

✓ Мудофаа вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Президент давлат хавфсизлик хизмати, Миллий гвардия, Давлат хавфсизлик хизмати, Давлат божхона қўмитаси, Мудофаа саноати қўмитаси ҳамда уларнинг тизимидаги ташкилотлари хизматчилари ва ходимлари ёки уларнинг оила аъзолари, шунингдек, пенсионерлари томонидан аризалар тақдим этилганда;

✓ Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 9 январдаги 11-сон қарори билан тасдиқланган Судьялар ва уларнинг оила аъзолари пенсия таъминоти шартлари, меъёрлари ҳамда тартиби тўғрисидаги Низомга асосан пенсиялар билан таъминланганда;

✓ Оилада меҳнат органлари томонидан тайинланган ишсизлик нафақасини олаётган аъзолари мавжуд бўлганда;

✓ оилада охирги 12 ой давомида иш қидираётган аъзоси меҳнат органларининг ишга доир таклифини икки ёки ундан ортиқ маротаба рад этганда;

✓ даромаднинг расмий манбаларига эга бўлмаган ва охирги 6 ой мабойнида иш излаб меҳнат органларига хисобда турмаган, ўзини-ўзи банд шахслар рўйхатига киритилмаган ёки ҳақ тўланадиган жамоат ишлари иштирокчиси ҳисобланмаган оиланинг меҳнатга лаёқатли аъзоси мавжуд бўлганда.

“Ягона реестр” АТ орқали кам таъминланган деб эътироф этилган оилалар (шахслар) қўшимча ҳужжатлар ва маълумотномаларни тақдим этмасдан, қонунчилик ҳужжатларида ушбу тоифадаги оилалар (шахслар)га белгиланган тартибда бепул ёки имтиёзли шартларда кўрсатиладиган ижтимоий хизматлар ва ёрдамлардан фойдаланишга ҳақлидир. Бунда қонунчилик ҳужжатларида белгиланган хизматлардан фойдаланиш ва имтиёзларни олиш учун “Ягона реестр” АТ орқали кам таъминланган деб эътироф этилган оила (шахс)га Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали 3 дақиқа ичида ушбу Низомга 1-иловага мувофиқ шаклда маълумотнома тақдим этилади.

Ушбу маълумотнома оила (шахс) “Ягона реестр” АТ орқали кам таъминланган деб эътироф этилган ойдан бошлаб ўн икки ой давомида амал қилади. Агар битта оила сўнгги 12 ой давомида кетма-кет “Ягона реестр” АТ орқали бир неча маротаба кам таъминланган деб эътироф этилган бўлса, бунда маълумотноманинг амал қилиш муддати ушбу оила охирги маротаба кам таъминланган деб эътироф этилган ойдан бошланади.

Оила (шахс) “Ягона реестр” АТ орқали кам таъминланган деб эътироф этилганлиги тўғрисидаги маълумотнома ушбу Низомга 1а-иловага мувофиқ схема бўйича тақдим этилади. Маълумотнома тақдим этилганлиги учун йиғим ундирилмайди.

Ижтимоий нафақани тайинланганлиги, тайинлашни рад этилганлиги ёки аризалар кейинги ойда қайта кўриб чиқиш учун (кутиш руйхатига) ўтказилганлиги, инсон омили аралашувисиз “Ижтимоий химоя ягона реестри” ахборот тизими орқали аниқланади.

2025 йил 1 июлдан бошлаб пенсиялар ва нафақалар ҳамда кам таъминланган оилаларга болалар нафақалари ва моддий ёрдам тўловлари миқдорлари ўзгартирилди [9].

а) ёшга доир энг кам пенсия миқдори - ойига 918 000 сўм этиб;

б) ногиронлик пенсияларининг энг кам миқдори - ойига 1 012 000 сўм этиб;

в) кам таъминланган оилаларга болалар нафақасининг ҳар ойлик миқдори:

3 ёшгача бўлган битта кичик фарзанди учун - 360 000 сўм, 3 ёшдан 18 ёшгача бўлган битта фарзанди учун - 275 000 сўм;

оиланинг иккинчи фарзанди учун қўшимча - 165 000 сўм;

оиланинг учинчи ва ундан кейинги ҳар бир фарзанди учун қўшимча - 110 000 сўм этиб;

г) кам таъминланган оилалар учун моддий ёрдамнинг ойлик миқдори - 420 000 сўм этиб;

д) фуқароларга тўланадиган бошқа пенсиялар ва нафақалар миқдорлари белгиланди.

2025 йил 1 августдан бошлаб бюджет ташкилотлари ходимларининг иш ҳақи ва стипендиялар миқдори 10 фоизга оширилади.

2025 йил 1 июлдан бошлаб пенсияни ҳисоблашнинг базавий миқдори - ойига 471 000 сўм этиб;

2025 йил 1 августдан бошлаб:

меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдори - ойига 1 271 000 сўм;

базавий ҳисоблаш миқдори - 412 000 сўм этиб белгиланди.

Германияда бола ва ота-она нафақалари ва ишсизлик нафақалари учун асосий молиявий имтиёзлар келтириб ўтилган.

Оила (уй хўжаликлари) таркибига қараб:

Ёлғиз кексалар - 502 евро.

Вояга етган шериклар учун стандарт тариф ҳар бири учун ойига 451 евро.

14 ёшдан 17 ёшгача бўлган болалар учун - 376 евро.

6 ёшдан 13 ёшгача бўлган болалар учун - 311 евро.

5 ёшгача бўлган болалар учун нафақа - 285 евро.

18 ёшдан 24 ёшгача бўлган, ота-онаси билан ёки алоҳида яшайдиган ёшлар учун - 360 евро[9].

Болали оилаларга нафақа тайинлашда оила аъзоларига тўғри келадиган даромадларни ҳисоблаш мавжуд. Оиланинг ҳар бир аъзосига тўғри келадиган ўртача бир ойлик даромаднинг юқори чегараси 440 минг сўм этиб ўрнатилган. Буни хисоблаш тартиби, оиланинг ҳар бир аъзосига тўғри келадиган ўртача бир ойлик жами даромад, мурожаат қилинган ойдан олдинги ойгача бўлган охирги уч ой учун ҳисобланади ва оила аъзолари сонига бўлиш орқали аниқланади.

Мисол учун оиланинг расмий даромади 2 миллион сўм. Оила сони 4 нафар. 2 миллион сумни оила сонига бўлсак 500 минг сумдан тўғри келади ва 440 минг сўмдан ошганлиги сабабли нафақа тайинлаш рад этилади. Агар оиланинг мехнатга лаёқатли аъзолари иш билан банд бўлиб ўртача ойлик даромади 440 минг сумдан кам бўлса ушбу оила учун нафақа тайинланади. Оилани кам таъминланган деб эътироф этиш мезони 440 минг сўмга тенглаштирилмоқда ва жорий йилнинг январ ойидан минимал истеъмол харажатлари миқдорига тенглаштирилади. Яъни жорий ойда минимал истеъмол харажатлари миқдори қанча белгиланса, мезон хам шунча миқдорда бўлади.

Болалар нафақаси ёки моддий ёрдам туман (шаҳар) бюджетида ушбу мақсадлар учун назарда тутилган маблағлар доирасида харажатларнинг тегишли иқтисодий таснифлагичи бўйича акс эттирган ҳолда тўланади. Болалар нафақаси ёки моддий ёрдамнинг ҳар бир тури бўйича АТ “Халқ банки”нинг бўлими (филиали)да алоҳида банк ҳисобварақлари

очилади. АТ “Халқ банки”нинг бўлими (филиали) ҳар ойнинг охирги кунига қадар жорий ой учун, шунингдек, йил бошидан амалга оширилган тўловлар ҳамда тўланмаган маблағлар бюджетга қайтарилиши ҳақида электрон маълумотларни болалар нафақаси ва моддий ёрдам олувчилар бўйича “Ягона реестр” АТга белгиланган тартибда тақдим этади.

Туман (шаҳар) молия бўлими болалар нафақаси ёки моддий ёрдам тўлови учун маблағларни Ягона ғазначилик ҳисобварағидан тўлов рўйхат (ведомост)лари бўйича тайинланган суммалар доирасида маҳаллий бюджет даромади тушумидан келиб чиқиб, бироқ бюджетда назарда тутилганидан ортиқ бўлмаган миқдорда тўлашга ойнинг 4-санасидан бошлаб, бироқ тўлов амалга ошириладиган ойнинг 25-санасидан кечикмай АТ “Халқ банки”нинг махсус ҳисобварағига алоҳида тўлов топшириқномалари билан ўтказади.

Маблағлар Ягона ғазначилик ҳисобварағидан тегишли ғазначилик бўлинмалари томонидан белгиланган тартибда ўтказилади.

Болалар нафақаси ёки моддий ёрдам тўлови бўйича АТ “Халқ банки” бўлимлари (филиаллари) кўрсатадиган хизматлари учун қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги билан АТ “Халқ банки” ўртасида тузиладиган шартнома асосида ҳақ тўланади. Болалар нафақаси ва моддий ёрдам тўлаш бўйича хизматларга ҳақ тўлаш миқдори болалар нафақаси ва моддий ёрдамга ажратиладиган маблағлар доирасида АТ “Халқ банки” томонидан тақдим этиладиган асосланган ҳисоб-китоблар бўйича Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан белгиланади. Болалар нафақаси ва моддий ёрдам учун назарда тутилган бюджет маблағлари туманлар (шаҳарлар) ўртасида ҳар бир туман (шаҳар) ҳудудида яшайдиган кам таъминланган оилалар сони ҳамда туман(шаҳар)нинг ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларидан келиб чиқиб, ушбу оилаларнинг таркиби ва олдинги даврлар учун ажратилган маблағлар ўзлаштирилиши (фойдаланилиши) даражаси ҳисобга олинган ҳолда белгиланган тартибда тақсимланади.

Хулоса

Умуман олганда, Ўзбекистонда ижтимоий шартнома ижтимоий ахлоқнинг кўп асрлик тамойилларига асосланган. Шу нуқтаи назардан, мамлакатдаги камбағалликни бартараф этиш йўлларидан бири бўлган ижтимоий ҳимоя самарадорлигини ошириш фақатгина комплекс ёндашувлар орқали амалга оширилиши мумкин. Айтиш жоизки, юқоридаги ўзгаришлар, аҳолига яратилган шароитлар ва олиб борилаётган оқилона чора-тадбирлар одамларни манзилли ҳимоя қилиш тизимини янги босқичга олиб чиқади. Мазкур йўналишдаги ижтимоий қўллаб-қувватлаш механизмларини янада такомиллаштириш лозим.

Ажратиладиган бюджет маблағларидан мақсадли фойдаланиш Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг Давлат молиявий назорати инспекцияси ва Пенсия жамғармасининг ички аудит хизмати томонидан назорат қилинади. Ариза берувчи ва унинг оила аъзоларига тегишли ахборот автоматлаштирилган режимда фақат “Ягона реестр” АТдан олинадиган ва таҳлил қилинадиган махфий ахборот ҳисобланади ва ошкор қилинмайди, қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно. “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими билан манфаатдор вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимлари ўртасидаги маълумотлар алмашинуви жараёнида техник носозликлар ва узилишлар юзага келган ҳолларда, Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги алоҳида ахборот тизимларидаги маълумот алмашинувини тегишли тизимлар тўлақонли қайта ишга тушгунга қадар вақтинчалик тўхтатиш ҳамда оиланинг кам таъминланганлигини автоматик тарзда аниқлаш алгоритмига ўзгартириш киритиш ҳуқуқига эга.

Болалар нафақаси ва моддий ёрдамни тайинлаш бўйича аризаларни “Ягона реестр” АТга белгиланган тартибда ва ўз вақтида киритиш бўйича — Пенсия жамғармаси бўлими

раҳбарига ҳамда, маҳсус ҳисобварақлардаги маблағлар ўз вақтида ва тўлиқ тўланишини таъминлаш ҳамда олувчилар томонидан талаб қилиб олинмаган маблағларни тегишли маҳаллий бюджетга ўз вақтида ва тўлиқ қайтариш бўйича — туман (шаҳар) АТ “Халқ банки” бўлими раҳбарларига шахсий жавобгарлик юкланади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Фармони.

Шолдаров PhD, Дилшод. " Development of thye yeducation system in thye digital yeconomy on thye basis of public-private partnership." International Financye and Accounting 2021.2 (2021): 2.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси”. 2022 йил 20 декабр.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 августдаги “Кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам кўрсатиш ҳамда камбағаллик билан курашиш кўламини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6277-сон Фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 августдаги “Кам таъминланган оилалар фарзандларининг умумтаълим муассасаларидаги куни узайтирилган гуруҳларда ўқишини моддий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 523-сон Қарори.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 апрелдаги “Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларини моддий қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-128-сон Фармони.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-175-сон Фармони.

7. Вазирлар Махкамасининг 2021 йил 21 октябрдаги 654-сонли қарори 1-иловаси билан тасдиқланган Кам таъминланган оилаларга “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими орқали аниқлаш, уларга кам таъминланган оилалар болалари учун нафақа ва моддий ёрдам тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги Низом.

8. Шолдаров Д. КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 9.

9. https://uza.uz/uz/posts/2025-yil-1-iyuldan-pensiyalar-va-nafaqalar-kam-taminlangan-oilalarga-bolalar-nafaqalari-moddiy-yordam-tolovlari-miqdorlari-10-foizga-oshiriladi_727010

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИДА ДИВИДЕНД ТЎЛОВЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Қурбанқулова Назокат Қутбиддиновна

Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси мустақил изланувчиси
Email: nazokat-86@mail.ru
ORCID: 0009-0008-6986-1358

Аннотация. *Мазкур мақолада суғурта компаниялари дивиденд сиёсатининг алоҳида хусусиятлари тадқиқ қилинган. Дивиденд тўловларининг суғурта компаниялари устав капиталини ва бозор капиталлашувини ошириб боришдаги аҳамиятли жиҳатлари аниқланган. Тадқиқот ва таҳлиллар асосида хулосалар шакллантирилган.*

Калит сўзлар: *акция, фойда, дивиденд, дивиденд сиёсати, дивиденд тўлови, устав капитали.*

АНАЛИЗ ДИВИДЕНДНЫХ ВЫПЛАТ В СТРАХОВЫХ КОМПАНИЯХ

Қурбанқулова Назокат Қутбиддиновна

самостоятельный соискатель
Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан
Электронная почта: nazokat-86@mail.ru
ORCID: 0009-0008-6986-1358

Аннотация. *В данной статье исследуются особенности дивидендной политики страховых компаний. Определены важные аспекты дивидендных выплат в повышении уставного капитала и рыночной капитализации страховых компаний. На основе исследований и анализов сформулированы выводы.*

Ключевые слова: *акция, прибыль, дивиденд, дивидендная политика, дивидендные выплаты, уставной капитал.*

ANALYSIS OF DIVIDEND PAYMENTS IN INSURANCE COMPANIES

Kurbankulova Nazokat Kutbiddinovna

independent applicant of
the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan
Email: nazokat-86@mail.ru
ORCID: 0009-0008-6986-1358

Abstract. *This article explores the specific features of the dividend policy of insurance companies. The significant aspects of dividend payments in increasing the charter capital and market capitalization of insurance companies are identified. Conclusions are formulated based on research and analysis.*

Keywords: *share, profit, dividend, dividend policy, dividend payment, equity.*

Кириш

Суғурта компанияларида фойда тақсимоти ва дивиденд тўловлари молиявий муносабатлардан бири сифатида намоён бўлади. Чунки олинган соф фойданинг бир қисми

акциядорларга дивиденд сифатида тақсимланиши ва тўланиши тўғридан-тўғри инвестицион жозибадорликка ўз таъсирини кўрсатади. Дивидендлар компаниянинг молиявий барқарорлигига таъсир кўрсатиши мумкин. Суғурта компаниялари ўз фойдасини резерваларига сарфлашни ҳам мумкин, бу келажакдаги рискларга тайёр бўлиш учун зарур. Фойда тақсимотини белгилашда компаниянинг бошқаруви ва молиявий стратегияси катта рол ўйнайди. Бугунги кунда баъзи суғурта компаниялари юқори дивидендлар тўлашни мақбул кўришади, бошқалари эса молиявий ҳолатни мустаҳкамлаш учун дивидендларни чеклашади. Суғурта компаниялари фойда тақсимотини амалга оширишда молиявий рискларни ҳисобга олишади. Дивидендлар тўланиши билан бирга компаниянинг резервлари ва капитали тўғрисидаги талаблар ҳам бажарилиши лозим. Баъзи ҳолларда дивидендлар суғурта компаниясининг инвестиция стратегиясига ҳам боғлиқ бўлиши мумкин.

Ўзбекистон суғурта бозорида суғурталовчилар сони йилдан-йилга пасайиш тенденциясини кўрсатаётганлиги, аксарият суғурта ташкилотлари қўшимча акциялар эмиссия қилиш орқали фонд биржасида очиқ (оммавий) жойлаштиришга интилмаётганлиги, дивиденд тўловларига етарлича эътибор қаратмаслиги натижасида инвестицион жозибадорлиги пастлигига гувоҳ бўлиб турибмиз. Бу ўз навбатида миллий суғурта компаниялари бозор капиталлашуви кескин пастлигича қолишига олиб келмоқда. Натижада устав капиталини ошириш билан боғлиқ талаб ҳам бажарилмаслиги натижасида лицензияси бекор қилинишгача борилмоқда. Келтирилган жиҳатлар асосида суғурта компаниялари инвесторлар билан ўзаро манфаатли молиявий муносабатлар ўрнатиши, бунинг учун эса самарали дивиденд сиёсати юритиши лозим бўлади.

Адабиётлар шарҳи

Хитойлик тадқиқотчилар Bo Yang, Yizhi Wang, Dingjun Yao, Yueyang Wang, Xin Xu “суғурта компанияларининг дивидендлари ва қайта суғурта амалиётлари мувозанат стратегияси борасида тадқиқотлар олиб боришган. Улар суғурта компаниясининг рискларни бошқариш бўйича оптимал стратегияларини икки иштирокчидан иборат ноҳамкорлик дифференциал ўйини доирасида ўрганиб чиққан. Ушбу моделнинг алоҳида хусусияти компаниянинг ортиқча маблағи акциядорлар учун жозибадорликни оширишга қаратилган стратегик ўзгарувчи сифатида кўриб чиқилган. Бу тизимда акциядорлар ортиқча маблағдан улуш олишидан келиб чиқиб дивиденд талаб қилувчи иштирокчилар сифатида, менежерлар эса ортиқча рискни бошқариш учун жавобгар шахслар сифатида қаралган. Бе ерда акциядорларнинг мақсади кутилган дисконтланган дивидендларни максимал даражада оширишдир. Ушбу ассиметрик ўйинни менежерларнинг мақсадлари ҳақида икки хил тахминлар остида кўриб чиқиши мумкин: биринчи сценарийда менежерлар банкротлик эҳтимолини минималлаштиришга интилади; иккинчи сценарийда менежерлар кутилган чегирмали фойда миқдорини максимал даражада оширишга интилишади” [1]. Умуман самарали дивиденд амалиётлари суғурта компанияларининг нафақат суғурта бозоридаги нуфузи, балки молия бозоридаги нуфузи ортишига ҳам хизмат қилишини шу ўринда таъкидлашимиз лозим.

Lin He, Zongxia Liang суғурта компанияларида қайта суғурта ставкаси, дивиденд тўловлари ва акция чиқариш жараёнларини самарали бошқариш амалиётини тадқиқ қилишган. Натижада банкротлик қочиш мақсадида дивидендлар воситасида қўшилган капитални оширишнинг муҳимлигини алоҳида қайд этишган [2]. Мазкур жиҳат бугунги кунда миллий суғурта компаниялари учун ҳам муҳимдир.

Н.Абдуллаева томонидан суғурта компанияларининг фонд бозоридаги фаолиятини такомиллаштиришга доир тадқиқотларни амалга оширган бўлиб, акцияларни оммавий жойлаштириш амалиётларини суғурталаш, андеррайтернинг акциялар маркетинги хавф-хатарларини комплекс суғурталашга оид янги суғурта маҳсулотини жорий этиш, эмитентнинг инвестор олдидаги жавобгарлигини суғурталаш, устав капиталида давлат

улуши мавжуд суғурта компаниялари акция пакетларини бирламчи ва иккиламчи оммавий (IPO, SPO) таклиф этиш орқали хусусийлаштириш, бунда хорижий институционал инвесторларга ҳам сотиш борасидаги ёндашувларга гувоҳ бўлиш мумкин [3]. Бунда шуни қайд этиш керакки, акцияларни бирламчи оммавий жойлаштириш давлат улушини камайтириши мумкин, лекин давлат улуши тўлиқ хусусийлашишига олиб келмайди.

М.Аликулов томонидан суғурта ташкилотларининг инвестицион фаолиятини такомиллаштириш нуқтаи назаридан қимматли қоғозларга инвестициялар орқали даромадлиликни ошириш масаласи тадқиқ қилинган [4]. Шуни қайд этиб ўтишимиз керакки, суғурта компаниялари қимматли қоғозларга инвестициялар орқали даромадларини максималлаштириш билан бирга, ўз акциялар бўйича ҳам юқори дивидендга интилишлари инвестицион жозибадорлик асосида бозор қийматини ошишига хизмат қилади.

Таҳлил ва натижалар

Суғурта компаниялари молиясини самарали ташкил этишда дивиденд сиёсати ҳам муҳим йўналишлардан бири бўлиб, акциядорлар ва инвесторлар билан юзага келадиган молиявий муносабатда муҳим жиҳатлардан биридир.

Алском СК АЖ томонидан оддий ва имтиёзли акциялар бўйича тўланган дивидендлар таҳлили келтирилган. 2014 ва 2015 йилларда оддий акциялар бўйича дивидендлар 12% бўлиб, бир акцияга 165,6 сўм миқдорида тўлов амалга оширилган. Имтиёзли акциялар эса ҳар йили 70% дивиденд олиб, акциялар учун 966 сўм тўланган. 2016 йилдан бошлаб, оддий акциялар бўйича дивидендлар 10% га камайиб, 138 сўмни ташкил қилган. 2017-2019 йилларда ҳам бу кўрсаткич ўзгармаган ва оддий акциялар эгаларига ҳар йили 138 сўм тўланган. 2020 йилда оддий акциялар бўйича дивиденд тўланмаган, аммо имтиёзли акциялар учун 70% миқдорда 966 сўм тўланган. 2021 йили оддий акциялар учун 10% дивиденд қайта тикланиб, 138 сўм тўланган. Шу билан бирга, 2014-2023 йилларда имтиёзли акциялар бўйича ҳар йили 70% дивиденд узлуксиз тўланган (1-жадвал).

1-жадвал

Алском СК АЖда оддий ва имтиёзли акциялар бўйича дивиденд тўловлари таҳлили [5]

Йил	Номинал қиймати бўйича тўланган дивидендлар миқдори			
	Оддий		Имтиёзли	
	%	Сўм	%	Сўм
2014	12	165,6	70	966
2015	12	165,6	70	966
2016	10	138	70	966
2017	10	138	70	966
2018	10	138	70	966
2019	10	138	70	966
2020	-	-	70	966
2021	10	138	70	966
2022	0	0	70	966
2023	0	0	70	966

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Ушбу таҳлил компаниянинг дивиденд сиёсатидаги ўзгаришларни ва барқарорликни кўрсатади. Ўзбекинвест АЖ томонидан оддий акциялар бўйича тўланган дивиденд тўловлари акс эттирилган. 2020 йили дивиденд тўлови 12,14 сўмни ташкил қилган бўлиб, бу йилда нисбатан паст кўрсаткич қайд этилган. 2021 йили дивидендлар миқдори 15,22 сўмга ошган ва бу компаниянинг фойдасининг ортиши билан боғлиқ бўлиши мумкин. 2022 йили дивиденд тўлови яна ўсиб, 22,35 сўмга етган, бу эса акциядорлар учун ижобий ўзгариш ҳисобланади. 2023 йили эса компания томонидан тўланган дивиденд миқдори кескин ошган ва 52,2 сўмни ташкил қилган. Бу эса компаниянинг даромадлилиги яхшиланганлигини ва акциядорларга юқори даромад тақдим этишга интилишини кўрсатади. 2024 йили эса дивиденд тўловлари кескин ўсиб, 92,77 сўмга етган ва бу охирги беш йил ичидаги энг юқори кўрсаткичдир. Ушбу динамика компаниянинг молиявий барқарорлиги ва дивиденд сиёсатидаги ижобий ўзгаришларни акс эттиради (1-расм). 2020-2024 йиллар давомида дивидендлар изчил ўсган, бу эса компаниянинг фойдасининг ўсиши ёки акцияларни оммавий жойлаштириш ўтказилиши билан боғлиқ.



1-расм. Ўзбекинвест АЖ томонидан оддий акциялар бўйича тўланган дивиденд тўловлари, сўмда [6]

Apex Insurance акциядорлик жамияти томонидан 2022–2025 йиллар давомида эълон қилинган дивидендлар таҳлили компаниянинг дивиденд сиёсатидаги динамик ўзгаришларни намоён этмоқда. 2022 йил 4 майда битта акцияга атиги 39,31 сўм дивиденд тўланган бўлиб, бу номинал қийматга нисбатан 3,93% ни ташкил этган. 2023 йил 14 февралда эълон қилинган 1111,11 сўмлик дивиденд эса жуда юқори – 111% кўрсаткич билан ажралиб туриб, ўта фойдали йил натижаси сифатида баҳоланади. Бироқ кейинги дивидендлар миқдори босқичма-босқич камайган ҳолда, сентябрда 349,2 сўм (34,92%), декабрда эса 102,94 сўм (10,29%) этиб белгиланган. 2024 йилда ҳам шу тенденция сақланиб, март ойида 67,39 сўм (6,7%), июнда 197,53 сўм (19,75%) ва сентябрда 175,25 сўм (17,525%) дивиденд тўланган. Декабр ойига келиб дивиденд миқдори яна пасайиб 167 сўм (16,7%) бўлган. 2025 йил 7 мартда тўланган охирги дивиденд эса 68 сўм (6,8%) ни ташкил этган бўлиб, бу акциядорларга тўловлар барқарорлашганини кўрсатади (2-жадвал).

2-жадвал

Apex Insurance акциядорлик жамияти томонидан эълон қилинган дивидендлар таҳлили [7]

Дивиденд эълон қилиш санаси	Битта оддий акцияга тўланган дивиденд, сўмда	Акция номинал қийматига нисбатан, фоизда
04.05.2022	39,31	3,93
14.02.2023	1111,11	111
04.09.2023	349,2	34,92
07.12.2023	102.94	10,29
06.03.2024	67.39	6,7
12.06.2024	197.53	19,75
19.09.2024	175.25	17,525
06.12.2024	167	16,7
07.03.2025	68	6,8

2023–2025 йиллар давомида Apex Insurance акциядорлик жамияти 2023 йил 7 августдаги 88 млрд сўмлик қўшимча акция эмиссияси орқали 7 декабрда 340 млрд сўмга етказилган. Кейинги 16 ноябрдаги 35 млрд сўмлик эмиссия эса 29 декабрда устав капиталини 375 млрд сўмгача оширишга хизмат қилган. 2024 йил 6 феврал ва 8 майдаги 30 ҳамда 80 млрд сўмлик эмиссиялар натижасида 4 сентябрга келиб, устав капитали 485 млрд сўмни ташкил этган.

Шунингдек, 12 сентябрдаги 85 млрд сўмлик эмиссия орқали 18 октябрда устав капитали 570 млрд сўмгача оширилган. 2024 йил 18 ноябрдаги 95 млрд сўмлик эмиссия эса 2025 йил 7 мартда 665 млрд сўмга етказилган устав капиталининг асосини ташкил қилган. Энг сўнгги 45 млрд сўмлик қўшимча эмиссия 17 февралда қабул қилиниб, 2025 йил 27 мартда устав капиталини 710 млрд сўмгача олиб чиққан (3-жадвал).

3-жадвал

Apex Insurance акциядорлик жамияти устав капитали ошиш тенденцияси [7]

Қўшимча акция эмиссия қилинганлиги		Устав капиталининг оширилганлиги	
Қўшимча эмиссия қарори	Қўшимча акциялар эмиссияси, млрд сўмда	Оширилган сана	Устав капитали ҳажми, млрд сўмда
07.08.2023	88	07.12.2023	340
16.11.2023	35	29.12.2023	375
06.02.2024, 08.05.2024	30, 80	04.09.2024	485
12.09.2024	85	18.10.2024	570
18.11.2024	95	07.03.2025	665
17.02.2025	45	27.03.2025	710

2023–2025 йиллар мобайнида Apex Insurance акциядорлик жамияти томонидан тўланган дивидендлар динамикаси компаниянинг барқарор ва ишончли дивиденд сиёсатига амал қилиб келаётганини кўрсатади.

Хулоса

Суғурта компаниялари дивиденд сиёсати ва тўловлари тадқиқи асосида қуйидаги хулосаларга келинди:

1. Суғурта компанияларида фойда тақсимоти ва дивиденд тўловлари компаниянинг молиявий натижалари, регулятив талаблар ва акциядорларнинг манфаатларига боғлиқ

ҳолда амалга оширилади. Фойданинг самарали тақсимоти компаниянинг узоқ муддатли барқарорлигини таъминлашда ва инвестицион жозибадорликни оширишда муҳим ўрин тутади.

2. Суғурта компанияларининг дивиденд сиёсати турлича бўлиши мумкин. Баъзи компаниялар фойданинг катта қисмини дивиденд сифатида тўласа, бошқалари эса молиявий резервлар ва ривожланишга сармоя киритишни афзал кўради. Мустаҳкам молиявий ҳолатга эга компаниялар барқарор дивиденд сиёсатини олиб бора олиши мумкин.

3. Акциядорлик суғурта компаниялари томонидан дивиденд тўловлари чораклар бўйича мунтазамлик касб этиши, йиллик умумий дивиденд банк депозитлари ва омонатларига нисбатан юқори бўлиши, пул маблағлари шаклида тўланиши юқори жозибадорликни намоён этади ва бозор капиталлашувини ҳам оширади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Bo Yang, Yizhi Wang, Dingjun Yao, Yueyang Wang, Xin Xu. The equilibrium strategy of insurance companies’ dividends and reinsurance games. // Economics Letters. Volume 245, December 2024. www.sciencedirect.com/science/article/abs/ pii/S0165176524005240X

2. Lin He, Zongxia Liang. Optimal financing and dividend control of the insurance company with proportional reinsurance policy. // Insurance: Mathematics and Economics. Volume 42, Issue 3, June 2008, Pages 976-983.

3. Абдуллаева Н. Суғурта компанияларининг фонд бозоридаги фаолиятини такомиллаштириш. PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс.автореф. Тошкент, 2022. – 59 б.

4. Аликулов М. Суғурта ташкилотларининг инвестицион фаолиятини такомиллаштириш йўллари. PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс.автореф. Тошкент, 2022. – 59 б.

5. https://alskom.uz/uz/company/shareholders/dividends.php - Алском СК АЖ расмий сайти маълумотлари

6. https://new.openinfo.uz/organizations/835?active-collapse=devidenCalendar

7. Openinfo.uz – Корпоратив ахборотлар ягона порталида акциядорлик жамияти томонидан эълон қилинган 32-муҳим фактлар асосида диссертант томонидан тузилди.

AHOLINING IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
Email:shohruh.toshpulatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-2153-0003

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish masalalari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqalar tizimining rivojlanish dinamikasi, ularning ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligiga ta’siri raqamli statistik ma’lumotlar asosida baholanadi. Shuningdek, manzilli ijtimoiy yordam, moliyaviy barqarorlik va indeksatsiya mexanizmlarining iqtisodiy ahamiyati ochib beriladi. Maqola xulosalari ijtimoiy siyosatni takomillashtirish hamda davlatning ijtimoiy majburiyatlarini samarali amalga oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, iqtisodiy mexanizmlar, pensiya tizimi, ijtimoiy nafaqalar, manzilli yordam, davlat byudjeti, ijtimoiy barqarorlik, daromadlar, aholi farovonligi, moliyaviy barqarorlik, indeksatsiya, demografik omillar, iqtisodiy samaradorlik.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ

Тошпўлатов Шохрух Собиржонович
Самостоятельный исследователь БФА
Email:shohruh.toshpulatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-2153-0003

Аннотация. В данной статье проводится углублённый научный анализ эффективности экономических механизмов в совершенствовании системы социальной защиты населения. На основе статистических данных оценивается динамика развития пенсионной системы и социальных пособий в Узбекистане, а также их влияние на уровень социальной стабильности и благосостояние населения. Особое внимание уделяется адресной социальной поддержке, финансовой устойчивости и механизмам индексации как ключевым инструментам социальной политики. Полученные выводы направлены на формирование научно-практических рекомендаций по повышению эффективности государственной социальной политики.

Ключевые слова: социальная защита, социальная политика, экономические механизмы, пенсионная система, социальные пособия, адресная помощь, государственный бюджет, социальная стабильность, доходы населения, благосостояние, финансовая устойчивость, индексация, демографические факторы, экономическая эффективность.

ENHANCING THE EFFICIENCY OF ECONOMIC MECHANISMS IN IMPROVING THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM FOR THE POPULATION

Toshpulatov Shohruh Sobirjon ugli
Independent Researcher at the BFA of the Republic of Uzbekistan
Email:shohruh.toshpulatov@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-2153-0003

Abstract. This article provides an in-depth scientific analysis of increasing the effectiveness of economic mechanisms in improving the social protection system of the

population. Based on statistical data, the study assesses the development dynamics of pensions and social benefits in Uzbekistan and examines their impact on social stability and living standards. Special attention is paid to targeted social assistance, financial sustainability, and indexation mechanisms as key instruments of social policy. The findings contribute to the development of practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of state social policy.

Key words: social protection, social policy, economic mechanisms, pension system, social benefits, targeted assistance, state budget, social stability, household income, welfare, financial sustainability, indexation, demographic factors, economic efficiency.

Kirish

Bugungi global iqtisodiy sharoitda aholining ijtimoiy himoya tizimi mamlakatlar barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashning ajralmas elementi bo‘lib xizmat qiladi, chunki u fuqarolarni iqtisodiy xavflar, beqarorlik va global pandemiya kabi kutilmagan to‘sqinliklardan himoya qilish mexanizmlarini yaratadi. So‘nggi yillarda Jahon banki va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoya va bandlik dasturlari 4,7 milliard odamni qamrab olgan bo‘lsa-da, 2 milliard kishi hali ham yetarli himoyasiz qolmoqda[1], bu esa global iqtisodiy tizimdagi katta samaradorlik bo‘sag‘asini bildiradi. Ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligini oshirish aholining ijtimoiy barqarorligi, inson kapitalining mustahkamlanishi va iqtisodiy o‘sishning qo‘llab-quvvatlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi, chunki samarali mexanizmlar orqali kambag‘allik pastga tushadi, ishlash imkoniyatlari kengayadi va mehnat bozorida moslashuvchanlik oshadi. Global darajada, XMTning 2024–2026 yillardagi hisobotiga ko‘ra, birinchi marta dunyo aholisining 52,4 % ijtimoiy himoyaning kamida bir tarmog‘i bilan qoplangan bo‘lsa, qolgan 47,6 % aholining barqaror himoyasizligi jiddiy iqtisodiy xavf ostida qolmoqda[2].Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar o‘rtasida ijtimoiy himoya tizimlari bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud bo‘lib, yuqori daromadli davlatlarda qamrov darajasi 85,9 % gacha yetgan bo‘lsa, past daromadli davlatlarda xalqning katta qismi hech qanday ijtimoiy himoya xizmatlaridan foydalana olmayapti[3], bu esa iqtisodiy tengsizlik va resurslarni samarali taqsimlash masalalarini yana bir bor dolzarb qilib qo‘yadi. Mazkur holat ijtimoiy himoya tizimining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sish modeli sifatida qo‘llash uchun ham zaruratga aylantiradi, chunki u keng qamrovli daromadlarni oshirish va fuqarolar hayot sifatini yaxshilashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashgan bo‘lib, bu jarayonda davlat siyosatining strategik yo‘nalishlari asosida raqamlashtirish va maqsadli yondashuv amalga oshirilmoqda, xususan “Yagona ijtimoiy reestr” va ijtimoiy xizmatlar monitoringi tizimi joriy etilib, tizim samaradorligi oshirilmoqda. Mazkur reestr orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish jarayoni soddalashtirilib, bir qancha ijtimoiy nafaqa va ko‘maklar 2 milliondan ortiq oilani qamrab olgani ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda[4]. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” tizimining joriy etilishi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, aholini qo‘llab-quvvatlash mahsuldorligini oshiradi va bu jarayon axborot tizimlari asosida amalga oshirilmoqda. Rivojlanayotgan raqamli tizimlar, jumladan ijtimoiy himoyaning yagona axborot bazasi orqali nafaqa va imtiyozlarni tezkor ajratish, manfaatdor guruhlarga qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish amaliyotlari kengaymoqda. Xalqaro hamkorlik doirasida UNICEF kabi tashkilotlar O‘zbekiston hukumati bilan birgalikda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va shaffof monitoring mexanizmlari yaratishda texnik yordam ko‘rsatmoqda, bu esa xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirish imkonini beradi. Shuningdek, Jahon banki ko‘magida quyi darajadagi ijtimoiy xizmatlar sifati yaxshilanishi, kambag‘allik darajasini yanada pasaytirish va ijtimoiy inklyuzivlikni oshirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ularning eng muhimi norasmiy mehnat sektori va tizim qamrovida bo‘lmagan aholining sezilarli qismi hisoblanadi, chunki norasmiy iqtisodiyotda ishlovchi fuqarolar rasmiy ijtimoiy sug‘urta va nafaqalarga yetarlicha qamrab olinmagan. O‘zbekiston hukumati tomonidan ijtimoiy sug‘urta tizimini isloh qilish va barcha rasmiy ishchi qatlamlarni qamrab olish bo‘yicha choralar ko‘rilayotgani, jumladan yangi davlat ijtimoiy sug‘urta tizimi joriy etilishi rejalashtirilgani tizimning inklyuzivligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bu islohotlar biznes subyektlarida mehnatni rasmiylashtirishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini ham ko‘rsatadi, chunki hozirgi kunda ba’zi ish beruvchilar ijtimoiy to‘lovlar ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi deb hisoblashmoqda. Chekka hududlarda ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovi markaziy shaharlar bilan solishtirganda pastroq bo‘lib, bu hududlarda iqtisodiy imkoniyatlarning noaniqligi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy yordam ko‘rsatish mexanizmlarini yanada maqsadli qilish, shu jumladan kambag‘allikni kamaytirish dasturlarini kuchaytirish orqali tizim samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya siyosatining barqaror moliyaviy ta’minoti, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilishi, hamda xizmatlardan foydalanishning adolatli va inklyuziv bo‘lishi uchun institutsional imkoniyatlar mustahkamlanishi zarur. Yana bir muhim jihat, maqsadli statistik monitoring va baholash tizimlarini takomillashtirish orqali ijtimoiy himoya siyosatining natijadorligini real vaqt rejimida o‘lchashga imkon yaratishdir.

Adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligi va iqtisodiy o‘sishga ta’siri S.Dercon (2011) tomonidan puxta tahlil qilingan bo‘lib, muallif o‘z tadqiqotida ijtimoiy himoya mexanizmlarining kambag‘allikni kamaytirish va aholining iqtisodiy barqarorligini oshirishdagi rolini asosli ravishda ko‘rsatadi, shuningdek, iqtisodiy tizimning yetarli darajada ishlamasligi natijasida aholining moliyaviy risklarga duch kelishi va resurslarni samarali ishlata olmasligi kabi muammolar yuzaga kelishini ta’kidlaydi[5]. Derconning fikricha, samarali ijtimoiy himoya mexanizmlari nafaqat bevosita ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali milliy daromadni ham rag‘batlantiradi, chunki u aholining moliyaviy xavflardan himoyalanishini va uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, muallif ijtimoiy sug‘urta va nafaqa tizimlari orqali inson kapitalini rivojlantirish, mehnat bozorida ishtirokni kengaytirish va kambag‘allik past darajada qolishini kafolatlashning ahamiyatini ilmiy asoslarda bayon qiladi. Tadqiqotning natijalari O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va iqtisodiy mexanizmlarni samarali joriy etish zaruratini yanada dolzarb qiladi.

R.Yemtsov va hamkorlarining (2018) ishlari esa ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligini o‘lchash konseptual va amaliy yondashuvlarini kengaytiradi, chunki mualliflar turli dasturlar va tizimlarning aholining ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash qobiliyatini tahlil qilish orqali ularning samaradorligini ilmiy asosda baholash usullarini ishlab chiqqan. Tadqiqotda ijtimoiy himoya dasturlarining moliyaviy barqarorlik, kambag‘allikni kamaytirish va resurslarni adolatli taqsimlash kabi iqtisodiy natijalarga bevosita ta’siri ko‘rsatilib, tizimning samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik choralar taklif qilinadi[6]. Mualliflar shuningdek, ijtimoiy himoya mexanizmlari va dasturlarining samaradorligini baholashda statistik va empirik metodologiyalarni qo‘llash orqali siyosatni yanada maqsadli qilish imkoniyatlarini ta’kidlaydi.

D.A. Robalino, L. Rawlings va I. Walker (2012) ijtimoiy himoya va mehnat tizimlarini shakllantirishda konseptual va operatsion yondashuvlarni batafsil tahlil qilgan bo‘lib, mualliflar aholini maqsadli guruhlar orqali qamrab olish va dasturlar samaradorligini oshirish uchun integratsiyalashgan to‘lov mexanizmlari va boshqaruv axborot tizimlarining ahamiyatini ta’kidlaydi[7]. Ularning ishida ijtimoiy himoya dasturlari nafaqat alohida shaxslarning moliyaviy xavfsizligini ta’minlash, balki milliy iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, H. Alderman va R. Yemtsov (2012) tadqiqotlarida

ijtimoiy himoya tizimlarining samarali ishlashi orqali ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlash, kambag‘allikni kamaytirish va aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha mexanizmlar tahlil qilingan[8], bu esa tizim samaradorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, J. Omiti va T. Nyanamba (2007) Keniyadagi ijtimoiy himoya siyosatlari misolida ko‘rsatdiki, muqobil va no-bozor mexanizmlari orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining eng zaif qatlamlariga qo‘shimcha yordam ko‘rsatish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish mumkin[9], bu esa mamlakatlar uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

O. Sharipov (2025) O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va davlat ijtimoiy siyosatini tahlil qilgan bo‘lib, muallif ijtimoiy himoya tizimining iqtisodiy inqiroz va inflyatsiya davrida pensiyalarning real qiymatini saqlash orqali aholining moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi[10]. Tadqiqotda ko‘rsatildiki, samarali ijtimoiy siyosat qashshoqlik darajasini kamaytirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga bevosita ta’sir qiladi, shu bilan birga tizimning raqamlashtirilgan monitoringi va maqsadli dasturlarni joriy etish zarurati aniqlanadi. N.X.Nuridinovna (2024) esa mamlakatda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilish orqali tizimning samaradorligini oshirish va resurslarni maqsadli taqsimlashning dolzarbligini ko‘rsatadi[11], shuningdek, u aholini himoya qilish tizimining legacy (meros) va yangi reformalarni birlashtirish orqali optimal natijalarga erishish imkoniyatlarini ilmiy asosda ta’kidlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotlar O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini oshirish, ijtimoiy nafaqa va qo‘shimcha imtiyozlarni raqamlashtirish hamda barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali tizimning iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirini yanada mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

A. I. Karimov (2021) maqolasida aholining bo‘sh pul mablag‘larini qimmatli qog‘ozlar bozoriga jalb qilish mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilinib, turli iqtisodchi olimlarning nazariyasi va tadqiqotlari asosida samarali mexanizmlarni shakllantirish yo‘llari muhokama qilingan[12]. Muallif, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi modellarga va aksiya va obligatsiyalarni ommaviy taklif qilish jarayonlariga asoslangan metodologiyalar orqali bo‘sh mablag‘larni jalb qilishning amaliy jihatlarini ko‘rsatib, bu jarayonning moliyaviy barqarorlik va investitsion faollikni oshirishga ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘sh pul mablag‘larini samarali jalb qilish uchun bozor institutlari, moliyaviy axborot tizimlari va investitsion kommunikatsiyalarni rivojlantirish zarur bo‘lib, bu esa milliy kapital bozorini mustahkamlash va aholining investitsion faolligini rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan adabiyotlar aholining ijtimoiy himoya tizimi va moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmlari samaradorligini oshirish masalalarida nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuvlarning muhimligini ko‘rsatadi, chunki ular ijtimoiy barqarorlik, kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, samarali ijtimoiy himoya mexanizmlari va kapital bozoridagi bo‘sh mablag‘larni jalb qilish tizimlari aholining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy rejalashtirish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, adabiyotlarda ijtimoiy himoya tizimlarini raqamlashtirish, monitoring va baholash mexanizmlari, shuningdek, investitsion kommunikatsiyalar orqali moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish kabi strategik choralar muhimligi ta’kidlanadi. Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar O‘zbekiston sharoitida aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va siyosat choralari ishlab chiqishda mustahkam ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini baholash maqsadida tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanilib, statistik tahlil, taqqoslama va dinamik qatorlar usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti hamda O‘zbekiston Respublikasi rasmiy

statistika ma’lumotlari asosida pensiya va ijtimoiy nafaqalar ko‘rsatkichlari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiy modellashtirish va mantiqiy umumlashtirish usullari orqali ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Mamlakatda aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan siyosatning samaradorligini baholash mavjud tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda kelajak strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, nafaqat ijtimoiy yordam va nafaqa dasturlarining qamrovi, balki ularning moliyaviy resurslar bilan ta’minlanishi, monitoring mexanizmlari va raqamlashtirish darajasi ham o‘rganiladi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, ularning moliyaviy barqarorlik darajasi va bo‘sh mablag‘larini samarali jalb qilish imkoniyatlari aniqlanadi, bu esa tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar, jumladan Jahon banki va ILOning statistik ma’lumotlari tahlil jarayoniga integratsiya qilinib, O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha strategik choralar aniqlanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tizimning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini baholash, kamchiliklarni aniqlash va aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladigan mexanizmlarni takomillashtirishdir. Shu munosabat bilan, ushbu bo‘lim ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash va kapital bozoridagi moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirishga oid ilmiy tahlilning asosiy qismi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekistonning ijtimoiy himoya tizimi so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, “Yagona ijtimoiy reestr” va raqamlashtirilgan monitoring tizimlari orqali nafaqa va yordamlarning maqsadli va tezkor yetkazilishini ta’minlamoqda. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy yordam dasturlarining samarali ishlashi aholining kambag‘allik darajasini sezilarli kamaytirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va moliyaviy xavflardan himoyalanish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, tizimning samaradorligini oshirish uchun monitoring va baholash mexanizmlari joriy etilgan bo‘lib, ular ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish va strategik qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Xalqaro hamkorlik loyihalari, jumladan UNICEF va Jahon banki dasturlari, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish va shaffofligini ta’minlashga qo‘shimcha resurslar va texnik yordam bilan hissa qo‘shmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali ijtimoiy himoya mexanizmlari nafaqat fuqarolarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va inson kapitalini rivojlantirishga ham bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish va fuqarolarni moliyaviy xavflardan himoya qilish milliy iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun strategik ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar soni jami, ming kishi[13[17]]

[17] O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi - https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2

2014–2023 yillarda O‘zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar sonining 3 119,5 ming kishidan 4 827,3 ming kishigacha barqaror o‘sishi aholining ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotganini hamda davlatning ushbu sohadagi majburiyatlari kengayayotganini ko‘rsatadi. Mazkur davrda o‘sish sur’atlarining ayniqsa 2017 yildan keyin tezlashuvi ijtimoiy siyosatni liberallashtirish, pensiya va nafaqa tizimiga qamrovni kengaytirish hamda aholining zaif qatlamlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish bilan izohlanadi. 2020–2021 yillarda pandemiya sharoitida ham ushbu ko‘rsatkichning kamaymasdan, aksincha oshib borishi ijtimoiy transfertlar iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda muhim amortizator vazifasini bajarganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, ko‘rsatkichlarning uzoq muddatli ijobiy dinamikasi pensiya va ijtimoiy nafaqa tizimini moliyaviy jihatdan yanada samarali boshqarish, byudjet resurslaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yanada dolzarb etadi.



2-rasm. O‘zbekistonda tayinlangan o‘rtacha oylik pensiya miqdori[13[18]]

2019–2023 yillarda O‘zbekistonda tayinlangan o‘rtacha oylik pensiya miqdorining 733,2 ming so‘mdan 1 234,5 ming so‘mgacha izchil oshib borishi davlat tomonidan pensiya ta’minotining real daromadlarni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatidagi ahamiyati kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yoshga doir pensiyalarning eng kam miqdorining 436,1 ming so‘mdan 800 ming so‘mgacha ko‘tarilishi ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash va kam daromadli pensionerlarning minimal ehtiyojlarini qoplashga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarning faollashganidan dalolat beradi. Pensiya miqdorlaridagi mutanosib o‘sish inflyatsion bosimlarni qisman kompensatsiya qilish bilan birga, byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini oshirgan. Umuman, ushbu dinamik holat pensiya tizimida moliyaviy barqarorlikni saqlash bilan bir qatorda, uning samaradorligini oshirish uchun indeksatsiya va manzillilik mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan jadval aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda qo‘llaniladigan iqtisodiy mexanizmlarning mazmuni, ularning ijtimoiy va moliyaviy ta’siri hamda samaradorlik mezonlarini tizimli tarzda aks ettiradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy nafaqa va yordam dasturlari qisqa muddatda kambag‘allikni kamaytirishda muhim rol o‘ynasa-da, uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash uchun moliyaviy inklyuziya va investitsion mexanizmlar bilan integratsiyalashgan yondashuv zarur hisoblanadi. Jadvalda keltirilgan soliq imtiyozlari va rag‘batlantiruvchi siyosat mexanizmlari mehnat bozorini faollashtirish va rasmiy bandlikni kengaytirish orqali ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlanadi. Shu bilan birga, aholining bo‘sh pul mablag‘larini kapital bozoriga jalb qilish mexanizmlari ijtimoiy himoya tizimi uchun qo‘shimcha moliyaviy manbalar yaratib, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Davlat va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik loyihalari esa texnik yordam va institutsional tajriba orqali ijtimoiy himoya mexanizmlarining sifat jihatidan takomillashuvini ta’minlaydi. Umuman olganda, jadvalda aks ettirilgan iqtisodiy mexanizmlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilganda aholining farovonligini

[18] O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi - https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2

oshirish va milliy iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

1-jadval

Aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligi

Iqtisodiy mexanizm	Ta’rif va kontseptual asos	Kutilayotgan ijtimoiy natija	Moliyaviy va institutsional talablar	Global va O‘zbek tajribasi (misollar)	Nazariy samaradorlik ko‘rsatkichlari
Ijtimoiy nafaqa va yordam dasturlari	Davlat tomonidan maqsadli guruhlar uchun ajratiladigan mablag‘lar, kambag‘allikni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan	Kambag‘allik darajasining pasayishi, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolarning moliyaviy xavfsizlik hissi	Barqaror moliyalashtirish, monitoring tizimlari, ijtimoiy reestrlar	O‘zbekiston: “Yagona ijtimoiy reestr” tizimi; Global: Jahon banki va UNICEF loyihalari	Samaradorlik = qamrov + barqarorlik + resurslarning optimal taqsimlanishi
Moliyaviy inklyuziya va mikrokredit mexanizmlari	Kichik kreditorlik va moliyaviy xizmatlar orqali aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish	Fuqarolar daromadini oshirish, iqtisodiy mustaqillik va investitsion faollikni kuchaytirish	Moliyaviy axborot tizimlari, kredit kafolatlari, regulatoriy bazalar	O‘zbekiston: Mikrokredit tashkilotlari; Global: Grameen Bank (Bangladesh)	Samaradorlik = qamrov + foiz stavkasi + sarmoya rentabelligi
Soliq imtiyozlari va rag‘batlantiruvchi siyosat	Fuqarolar va korxonalarga beriladigan soliq yengilliklari orqali iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish	Ish bilan ta’minlashni oshirish, soliqlar orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash	Soliq ma’lumot bazalari, nazorat mexanizmlari, institutsional hamkorlik	O‘zbekiston: ijtimoiy soliq imtiyozlari; Global: rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy soliqlar	Samaradorlik = rag‘bat + soliqlar samarasi + iqtisodiy o‘sish
Investitsion jalb qilish va qimmatli qog‘ozlar mexanizmlari	Aholining bo‘sh mablag‘larini bozor orqali jalb qilish va sarmoyaviy instrumentlar orqali qayta taqsimlash	Milliy kapital bozorini rivojlantirish, aholining moliyaviy faolligini oshirish	Bozor institutlari, axborot tizimlari, investorlar xabardorligi	O‘zbekiston: aksiyalar va obligatsiyalar bozorida bo‘sh mablag‘lar; Global: USA, EU portfel investitsiyalari	Samaradorlik = kapital oqimi + bozor likvidligi + sarmoyaviy daromad
Davlat-xalqaro hamkorlik loyihalari	Xalqaro tashkilotlar bilan qo‘shma dasturlar orqali resurslarni jalb qilish va tizimni takomillashtirish	Texnik yordam, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tizim samaradorligini oshirish	Hamkorlik memorandumi, monitoring, loyiha boshqaruvi	O‘zbekiston: UNICEF va Jahon banki loyihalari; Global: ILO, ADB loyihalari	Samaradorlik = resurs + tajriba + uzoq muddatli barqarorlik

Maqolaning tahlil qismi natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda qo‘llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlar pensiya va ijtimoiy nafaqalar qamrovi hamda miqdorining izchil oshishi orqali ijobiy samaralar bermoqda. Biroq ijtimoiy to‘lovlar hajmining kengayishi bilan birga, ularning real xarid qobiliyatini saqlab qolish va byudjet barqarorligini ta’minlash masalalari dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, manzilli ijtimoiy yordam, indeksatsiya va raqamli boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman olganda, ijtimoiy himoya tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash uchun davlat moliyasi, mehnat bozori va demografik omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan kompleks iqtisodiy yondashuvni chuqurlashtirish zarur.

Xulosa va takliflar.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida O‘zbekistonda aholining ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda iqtisodiy mexanizmlar, xususan pensiya va ijtimoiy nafaqalar hajmi hamda qamrovining kengayishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, demografik yuklama va inflyatsion jarayonlar kuchayib borayotgan sharoitda mavjud mexanizmlarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Umuman, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi iqtisodiy o‘sish sur’atlari va davlat moliyasining holati bilan bevosita bog‘liq ekanligi tasdiqlandi.

Pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorining yillar davomida oshib borishi aholining kam

ta’minlangan qatlamlari daromadlarini qisman barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq to‘lovlar real xarid qobiliyatining inflyatsiya ta’sirida pasayish xavfi ularni doimiy indeksatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shunday ekan, ijtimoiy himoya tizimida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish uzluksiz va tizimli yondashuvni talab etadi.

Aholini ijtimoiy himoyalashda manzillilik tamoyilini kuchaytirish, ehtiyojmand qatlamlarni aniqlashda raqamli platformalar va integratsiyalashgan ma’lumotlar bazalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirib, ijtimoiy to‘lovlarning haqiqiy muhtojlarga yetib borishini ta’minlaydi. Natijada, ijtimoiy yordamning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Pensiya tizimini moliyaviy jihatdan barqarorlashtirish maqsadida majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya mexanizmlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Bu mexanizmlar davlat byudjetiga tushayotgan yukni kamaytirish bilan birga, aholining uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish madaniyatini shakllantiradi. Shu orqali ijtimoiy himoya tizimining bozor mexanizmlari bilan uyg‘unligi kuchayadi.

Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda mehnat bozori siyosati bilan uzviy bog‘liq iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish, xususan bandlikni rag‘batlantirish va norasmiy sektorni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat ijtimoiy sug‘urta tushumlarini oshirish orqali pensiya va nafaqa tizimining moliyaviy bazasini mustahkamlaydi. Natijada, aholining ijtimoiy himoyasi iqtisodiy jihatdan yanada barqaror va samarali tizimga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon Banki. State of Social Protection Report 2025: The 2 Billion Person Challenge. – Washington, DC: World Bank, 2025. – 1–200 b
2. International Labour Organization. World Social Protection Report 2024 26: Universal Social Protection for Climate Action and a Just Transition. – Geneva: ILO, 2024. – 1–300 b.
3. Jahon Banki. Social Protection Coverage Statistics: ASPIRE Atlas of Social Protection Indicators of Resilience and Equity. – Washington, DC: World Bank, 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish bo‘yicha hisobot. – Toshkent: MAHM, 2024. – 1–120 b.
5. Dercon S. Social protection, efficiency and growth. – 2011.
6. Yemtsov R. et al. Measuring the effectiveness of social protection: Concepts and applications. – 2018.
7. Robalino D. A., Rawlings L., Walker I. Building social protection and labor systems: concepts and operational implications. – Washington, DC : World Bank, 2012.
8. Alderman H., Yemtsov R. Productive role of social protection //Background Paper for the World Bank. – 2012. – T. 22.
9. Omiti J., Nyanamba T. Using social protection policies to reduce vulnerability and promote economic growth in Kenya //Futures Discussion Paper. – 2007. – T. 12.
10. Sharipov O. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 12. – С. 44-48.
11. Nuridinovna N. X. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo ‘lgan aholi qatlamining holatini ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilish //Worldwide Cross-Disciplinary Research. – 2024. – Т. 1. – №. 1.
12. Каримов А. И. Ў. Аҳолининг бўш пул маблағларини қимматли қоғозлар бозорига жалб қилиш механизмлари самарадорлиги таҳлили //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 10 (146). – С. 35-40.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi - https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2

YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ISSIQXONA GAZLARI TASHLANMALARI MIQDORINI ANIQLASH USLUBIYATI

Rasulova Nigora Yusupovna
turizm va mehmonxona biznesi
kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0003-4134-9172

Annotasiya. *Maqolada yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyati o‘rganilgan bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy o‘sishni muvozanatlashtiradigan barqaror amaliyotga urg‘u berilgan. O‘zbekistonning yashil turizm, jumladan, ekoturizm, agroturizm va jamoat turizmi masalalari tadqiq qilininb, tegishli tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yashil turizm, yashil rivojlanish, yashil turizm modellari, CO2, issiqxona gazlari, barqaror rivojlanish.*

МЕТОДОЛОГИЯ КОЛИЧЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКИ ВЫБРОСОВ ПАРНИКОВЫХ ГАЗОВ ПРИ РАЗВИТИИ ЗЕЛЕНОГО ТУРИЗМА

Расулова Нигора Юсуповна
независимый исследователь
кафедры туризма и гостиничного бизнеса
Ташкентский государственный
экономический университет
ORCID: 0000-0003-4134-9172

Аннотация. *В статье рассматривается методология количественной оценки выбросов парниковых газов при развитии зеленого туризма с акцентом на устойчивые практики, которые обеспечивают баланс между защитой окружающей среды, сохранением культуры и экономическим ростом. В исследовании анализируются ключевые возможности зеленого туризма, включая экотуризм, агротуризм и общественный туризм, сформулированы соответствующие рекомендации.*

Ключевые слова: *зеленый туризм, зеленое развитие, модели зеленого туризма, CO2, парниковые газы, устойчивое развитие.*

METHODOLOGY FOR QUANTIFYING GREENHOUSE GAS EMISSIONS IN THE DEVELOPMENT OF GREEN TOURISM

Rasulova Nigora Yusupovna
Independent Researcher
of the Department
of Tourism and Hotel Business
Tashkent State University of Economics
E-ORCID: 0000-0003-4134-9172

Abstract. *This article examines the methodology for quantifying greenhouse gas emissions in the development of green tourism, with an emphasis on sustainable practices that balance environmental protection, cultural preservation, and economic growth. The study analyzes Uzbekistan’s rich natural landscapes, historical heritage, and biodiversity to identify key opportunities for green tourism, including ecotourism, agrotourism, and community tourism.*

Keywords: *green tourism, green development, green tourism models, CO2, greenhouse gases, sustainable development.*

Kirish

Keskin iqlim o‘zgarishlari sharoitida iqtisodiyotning qator sanoat korxonalaridan tashqari turizm sanoati faoliyati bilan bog‘liq atrof-muhitning karbonat angidrid kabi issiqxona gazlari tashlanmalarini ko‘payishi, maishiy chiqindilar, belgilangan meyorlardan ortiqcha energiya va suv resurslari iste’moli kabi global muammolar bugungi kunda mazkur sohada izchil ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yil «2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi dagi PQ-4477-son qarori iqlim o‘zgarishi sharoitida yashil turizmni rivojlantirish uchun huquqiy va ilmiy asos yaratadi. Strategiyada tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekotizimlarni asrash va iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish kabi vazifalar belgilangan. Masalan, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirish orqali cho‘llanishga qarshi kurashish va mahalliy aholi hayotini yaxshilash choralari ko‘rilmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish O’zbekistonda yashil turizm sohasida aholi savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Turizm jahon iqtisodiyoti o‘sish drayveri sifatida muhim salohiyatga ega sohalardan hisoblanadi. Turizm iqtisodiyoti jahon yalpi ichki mahsulotining 5% ni tashkil qiladi, shu bilan birga u jami bandlikning qariyib 8% ni qamrab oladi. Xalqaro turizm global eksportda to‘rtinchi o‘rinni egallaydi (yoqilg‘i, kimyo va avtomobilsozlik mahsulotlaridan keyin), sanoat qiymati yiliga 1 trillion AQSH dollarini tashkil etadi, bu jahon savdo xizmatlari eksportining 30 foizini yoki umumiy eksportning 6 foizini tashkil qiladi. Har yili taxminan to‘rt milliardga yaqin mahalliy sayyohlar keladi va 2022 yilda 940 millionga yaqin xalqaro sayyohlar qayd etilgan. Turizm 150 dan ortiq mamlakatlarda eng ko‘p eksport qilinadigan beshtadan biri bo‘lsa, 60 dan ortiq mamlakatlarda esa birinchi raqamli eksport hisoblanadi [5]. Shuningdek, u rivojlanayotgan mamlakatlarning 1/3 qismi va kam rivojlangan mamlakatlarning 1/2 qismi uchun asosiy valyuta manbai hisoblanadi.

Sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan turistlar soni ko‘paygan sari turizmning atrof-muhitga ta’siri ham ortadi [6].

Yashil turizmni dastlabki rivojlanish bosqichida turizm faoliyati bilan bog‘liq aviatransport va boshqa transport vositalaridan foydalanishda karbonat angidrid CO_2 issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga sabab bo‘lishi va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatilishi bilan bog‘liq holda elektr energiyasini meyordan ortiqcha iste’mol qilinishi ham elektr ishlab chiaruvchi korxonalar tomonidan ko‘mir va tabiiy gaz yoqish hisobiga karbonat angidrid CO_2 issiqxona gazlari tashlanmalari ulushini keskin ortishiga olib kelishi, shuningdek mehmonxonalar faoliyatida haddan tashqari ortiqcha suv resusrslari iste’moli atrof-muhitga salbiy ta’sirini tadqiq etishda ko‘plab tadqiqotchilar ekologik Kuznets egri chizig‘i (EKC) ilmiy gepotezasidan foydalanib kelishmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy adabiyotlarda yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyati qator iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha izohlangan va ulrani pasaytirish usullari taklif etilgan.

Professor S.R. Safayevaning ta’kidlashicha, “Har yili global miqyosda ishlab chiqariladigan CO_2 chiqindisining 5 foizi turizm sektoridagi transport, qurilish, ovqatlanish tarmog‘i, yer o‘zlashtirish amaliyoti va hokazolarga to‘g‘ri keladi. O‘z navbatida, bu ko‘rsatkichning 2 foizini bevosita mehmonxona biznesi tashkil etadi. Dunyodagi ekologik

barqarorlikni ta’minlashda asosiy hujjatlardan biri bo‘lgan Parij kelishuviga ko‘ra, 2030 yilga qadar CO_2 chiqindisini 50 foiz, 2050 yilgacha esa 100 foizgacha qisqartirish ko’zda tutilgan. Keng ko‘lamli bu maqsadni ro‘yobga chiqarishda mehmonxona sektori ham faol ishtirok etishi lozim” [2].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B. Kuziboev, U. Matyakubov singari mamlakatimiz olimlari yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyatini ishlab chiqishga oid nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga munosib hissa qo‘shgan [3].

So‘nggi o‘n yilliklarda ekologik muammolar va global isish, iqlim o‘zgarishi, issiqxona gazlari chiqindilari va ifloslanish, asosan, energiya va suvni haddan tashqari iste’mol qilish va tabiiy resurslarni suiiste’mol qilish natijasida atrof-muhitga uglerod chiqindilarining haddan tashqari ko‘p miqdorda chiqarilishi tufayli global darajada jiddiy muammolarga aylandi [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Turizmga aloqasi bor avtobus, temir yo‘l transporti, avtomobil, turli xil energiya intensivligiga ega bo‘lgan samolyotlar va kruiz kemalari kabi transport turlari energiya iste’moli bilan bog‘liq.

2030 yil uchun Xalqaro transport forumi prognozlariga ko‘ra, yoqilg‘i samaradorligining kutilayotgan yaxshilanishi ekologik toza transport turlarining paydo bo‘lishiga qaramay, yo‘lovchi va yuk tashishga bo‘lgan talabning oshishi CO_2 chiqindilarining ko‘payishiga olib keladi.

2030 yilga borib, yo‘lovchi va yuk transportidan CO_2 ning umumiy tashlanmalari 2016 yilga nisbatan 21 foizga oshib, 8,772 million tonna CO_2 ni tashkil etadi, bu esa barcha antropogen CO_2 tashlanmalarining 23 foizini tashkil qiladi.

1-jadval.

Global turizmning xarajatlari, uglerod izi va uglerod intensivligi,
2009–2023*

Ko ‘rsatkichlar	Yillar			
	2009	2013	2019	2023
Turizm uglerod izi (Gt CO2-e)	3,7	4,4	5,2	2,2
Jami global uglerod izi (Gt CO2-e)	50,9	55,5	59,1	54,5
Global issiqxona gazlaridagi turizm ulushi	7,3%	8,0%	8,8%	4,1%

*Tadqiqot natijalari asosida muallif ishlamnasi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdi-ki, 2009 yildan 2013 yillar oralig‘ida turizm sanoatining global uglerod izi 3,7 Gt CO2-e dan 4,3 Gt CO2-e gacha oshgan. Bunda 2009 yil basis yili sifatida olingan.

Issiqxona gazlari tashlanmalarini hisoblashda ikki turdagi ma’lumotlar talab qilinadi: turizm faoliyati ma’lumotlari va tashlanmalar omillari.

Issiqxona gazlari tashlanmalari hajmini quyidagi umumiy formula vositasida hisoblashimiz mumkin:

Issiqxona gazlari=Turizm faoliyati ma’lumotlari x Issiqxona gazlari tashlanmalari omillari (1)

Issiqxona gazlari o‘lchov birligi “tCO_{2e}” bilan o‘lchanadi.

Misol uchun, aviatsiya yoqilg‘isidan CO_2 emissiyasi har bir gramm yoqilg‘i uchun 3,15 grammni tashkil etadi, bu Boeing 737-400 dan CO_2 emissiyasini har bir yo‘lovchiga 115 grammni tashkil qiladi. Avialayner tezligi soatiga 780 km, bu soatiga bir yo‘lovchiga 90 kg CO_2 ga teng.

Boeing 747-400 (uzoq masofali xalqaro parvozlar uchun foydalaniladi) uchun tegishli raqamlar:

Masofa: 5556 km.

Ishlatilgan yoqilg‘i: 59,6 tonna.

O‘rinlar: 416.

O‘rindiqlar bandligi: 80%.

O‘rtacha yo‘lovchilar soni: 333.

Bir yo‘lovchi km uchun yoqilg‘i sarfi: 59,6 tonna / (5556 km x 333) = 32,2 g / km. CO_2 emissiyasi: har bir km yo‘lovchiga 101 g (har bir *g* yoqilg‘i uchun 3,15 *g* CO_2 ga ko‘paytiriladi).

Avialayner tezligi: soatiga 910 km.

CO_2 emissiyasi: har bir yo‘lovchiga soatiga 92 kg CO_2 ni tashkil etadi [3].

2025-yil 07 fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida O‘zbekiston Respublikasida “Yashil turizm” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish vazifalar “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari sifatida belgilab berildi.

2-jadval.

CO_2 ni hisoblash platformalari*

T/r	Platforma nomi	Platforma manbasi
1.	Greenview Hotel Footprint	www.hotelfootprints.org
2.	Carcamal Carbon Calculator	goodtourisminstitute.com
3.	ADEME`s	homeexchange.com
4.	Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) harakatlar platformasi	https://sdgs.un.org/partnerships

*Tadqiqot natijalari asosida muallif ishlamnasi.

Xulosa

Yashil turizmni rivojlantirishda issiqxona gazlari tashlanmalari miqdorini aniqlash uslubiyatini ishlab chiqishga oid tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni shakllantirish, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1.Yashil turizmni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

2. O‘zbekiston kabi iqlim o‘zgarishidan sezilarli darajada ta’sirlanadigan mamlakatlar uchun bu yondashuv nafaqat turizmni rivojlantirish, balki tabiiy muhitni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yil «2019 – 2030-yillar davrida

O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi dagi PQ-4477-son qarori. – https://lex.uz/docs/-4539502

2. S.R.Safayeva. “Turizmni “Yashillashtirish” Bu nima uchun kerak va qanday bajariladi?” “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2024-yil 15-may № 93 soni.

3. Kuziboev B., Saidmamatov O., Khodjaniyazov E., Marty P., Ibragimov J., Davron Ruzmetov D., Matyakubov U., Lyulina E., Ibadullaev D. CO2 Emissions, Remittances, Energy Intensity and Economic Development: The Evidence from Central Asia. Economies 12: 95. 2024.

4. N. Yu. Rasulova. Research models of green tourism development. American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 31, August 2024, Pages 70-74.

Elektron resurs

5. http://cawater-info.net/green-growth/files/unep.pdf.
6. https://sustainabletravel.org/issues/carbon-footprint-tourism

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ҲУДУДЛАР ЎРТАСИДАГИ НОМУТАНОСИБЛИКЛАРГА БАРҲАМ БЕРИШДА ХИЗМАТЛАР СОҲАСИНИНГ ЎРНИ

Мамадалиев Одилжон Тоирович
иқтисодиёт фанлари бўича фалсафа доктори(PhD) иқтисодий статистика кафедрасининг катта ўқитувчиси Тошкент давлат иқтисодиёт университети
E-mail: omamadaliev1714@yahoo.com
ORCID: 0009-0004-9829-9027

Аннотация. *Мақолада хизмат кўрсатиш соҳасининг ҳудудий ривожланишга таъсири, мавжуд ҳудудий номутаносибликларни бартараф этишдаги роли ўрганилиб, иқтисодий ўсишда хизмат кўрсатишнинг долзарблиги, аҳамияти ва зарурлиги таҳлил этилган. Мақола сўнгида тегишли тавсия ва хулосалар шакллантирилган.*

Калит сўзлар*: хизматлар, ҳудуд, номутаносиблик, ривожланиш даражаси, иновация, ижтимоий-иқтисодий, итисодиёт тармоқлари.*

РОЛЬ СЕКТОРА УСЛУГ В УСТРАНЕНИИ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ НЕРАВЕНСТВ

Мамадалиев Адылджан Таирович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам старший преподаватель кафедры экономической статистики Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: omamadaliev1714@yahoo.com
ORCID: 0009-0004-9829-9027

Аннотация. *В статье исследуются вопросы влияния сферы услуг на развитие регионов, ее роль в устранении существующих региональных диспропорций. Подчеркивается актуальность, важность и необходимость сферы услуг в росте экономики, а также даются соответствующие рекомендации и выводы.*

Ключевые слова*: услуги, регионы, диспропорция, уровень развития, инновация, социально-экономический, секторы экономики.*

THE ROLE OF THE SERVICES SECTOR IN ELIMINATING INTER-TERRITORIAL DISPARITIES

Mamadaliev Odiljon Toirovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences Senior Lecturer, Department of Economic Statistics Tashkent State the University of Economics
E-mail: omamadaliev1714@yahoo.com
ORCID: 0009-0004-9829-9027

Abstract. *The article examines the impact of the service sector on regional development, its role in eliminating existing regional disparities. The relevance, importance and necessity of the service sector in economic growth are emphasized, and appropriate recommendations and conclusions are given.*

Keywords*: services, territories, disparities, level of development, innovations, socio-economic, economic sectors.*

Кириш

Ҳудудлар орасидаги иқтисодий номутаносибликлар жамият ва давлат тараққиётига салбий таъсир кўрсатади. Бу номутаносиблик, айниқса, хизматлар соҳасида аниқ намоён бўлади. Шу ўринда қайд этиш лозимки, хизматлар соҳаси иқтисодиётнинг муҳим тармоғи бўлиб, аҳолининг кундалик эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилади ҳамда бевосита ва билвосита иқтисодий ривожланишга туртки бўлади. Хизматлар соҳаси иқтисодиётнинг барча тармоқлари билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, унинг таркибига соғлиқни сақлаш, таълим, туризм, молия, транспорт, алоқа, тадқиқот ва инновациялар каби соҳалар киради. Шу боис барча ҳудудларда хизматлар соҳасини ривожлантириш нафақат иқтисодий ўсишни таъминлаш, балки ҳудудлар ўртасидаги номутаносибликларга барҳам бериш орқали ижтимоий адолатни тиклаш ва барқарор тараққиётга эришиш учун муҳимдир (1-диаграмма).

1-диаграмма.

Жами хизматлар ҳажмининг ҳудудлар бўйича улуши*



*Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Шу билан бирга, қишлоқ жойлари билан шаҳарлар ўртасидаги хизматлар соҳасининг ривожланганлик даражасидаги кескин фарқларнинг юзага келиши иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий муаммоларни келтириб чиқариши мумкин. Номутаносибликлар турли омиллар туфали шаклланади ва асосан иқтисодий, ижтимоий, географик номутаносибликлар орқали кузатилиши мумкин. Бу эса, ўз навбатида, ҳудудлар ўртасидаги

номутаносибликларни (иқтисодий ва ижтимоий) бартараф этиш, хизматлар соҳасини ҳудудлар даражасида бир хилда ривожлантиришни рағбатлантириш (манзилли имтиёз ва преференциялар бериш) чораларини кўриш масалаларида пухта ўйланган қарорлар қабул қилиш учун соҳадаги мавжуд вазиятни мунтазам тадқиқ этиб, таҳлил қилиб боришни тақозо этади.

Адабиётлар шарҳи

Хизматлар соҳаси бўйича кўплаб хорижий ва миллий олимлар илмий изланишлар олиб боришган. Хусусан, товар ва хизматлар бозорининг ўзига хос хусусиятлари ва дастлабки қирралари А. Смит, Д. Рикардо, Ж.Б. Сей ва бошқа иқтисодчи олимлар томонидан ўрганилган. К. Маркс хизматлар соҳасининг иқтисодиётдаги ўрни ва аҳамиятини ёритар экан, ўз ишида хизматларга қуйидагича таъриф берishган: “Хизматлар фуқароларга, уларнинг номоддий эҳтиёжларини қондириш, масалан, ишчанлиги ва руҳий соғлигини сақлаб туриш учун амалга оширилади” [12].

З.И. Беликина, Д. Белл, Ф. Котлер, К. Лавлок, Б.А. Райзберг каби хорижий иқтисодчи олимларнинг тадқиқотлари хизматларнинг терминологик асосларини ўрганишга бағишланган. Шу ўринда, уларнинг аксарияти "хизмат" тушунчасини ушбу фаолият турига хос бўлган махсус хусусиятлар ёрдамида кўриб чиқади.

Бу масалани ўрганишга мамлакатимиз олимлари ҳам катта ҳисса қўшмоқдалар. Масалан, З.Г. Қудратов ўз ишларида хизмат кўрсатиш соҳасининг мамлакат иқтисодиётининг барқарор ўсишини таъминлашга қўшаётган муносиб ҳиссасини асослаган ва хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш захираларни аниқлаб берган [11.

Д.М. Каримованинг тадқиқотларида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш ва уни тартибга солиш, шунингдек, барқарор ривожланиш ва экспорт салоҳиятини оширишнинг устувор йўналишларини аниқлаш масалаларини батафсил ўрганилган [10].

Тадқиқот методологияси

Мақолада хизматлар соҳасининг худудлар ривожига таъсирини баҳолаш орқали соҳанинг ривожланиш даражасидаги номутаносибликларни барҳам беришдаги роли ва иқтисодиётдаги тутган ўрнини баҳолаш таҳлилларини амалга оширишда таққослама таҳлил, статистик таҳлил, қиёслаш, илмий абстракциялаш, анализ, синтез каби тадқиқот усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар

Хизматлар соҳасининг иқтисодиётда муҳим ўрин тутишини, қолаверса глобаллашув, рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши ҳамда истеъмолчиларнинг хизматлар сифатига бўлган талабининг ортиши натижасида мазкур сектор ўзига хос янгиланиш, трансформация жараёнларини тўла англаган ҳолда Ўзбекистонда ҳам соҳа ривожига алоҳида эътибор қаратилмоқда, мазкур соҳани ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чоралари амалга оширилмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармонида хизматлар соҳасини жадал ривожлантиришга доир тадбирлар ўрин олган [1].

Соҳада ислоҳотларни давом эттирган ҳолда 2020 йил 16 июнда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4752-сон қарори қабул қилинган [2].

Бугунги янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича ислоҳотлар замирида 2023 йил 11 сентябрда қабул қилинган ““Ўзбекистон-2030” стратегияси” [3] ҳамда 2022 йил 29 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”да ҳам хизматлар соҳаси ривожига алоҳида эътибор қаратилган [4].

Тараққиёт стратегиясида ўрин олган 12 ислоҳот йўналиши бўйича 100 та вазифага эришиш борасидаги 445 та самарадорлик кўрсаткичлари (вазифалар)нинг 102 таси ёки 22,3 фоизи бевосита ёки билвосита хизматлар соҳаси билан чамбарчас боғлиқлиги диққатга сазовордир. Шунингдек, стратегияда (34-мақсад) ҳудудларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали кейинги 5 йилда хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш ҳамда ушбу йўналишда жами 3,5 миллион янги иш ўринларини яратиш” масаласи алоҳида вазифа сифатида белгиланган. Буларнинг барчаси келгусида хизматлар соҳасини иқтисодий тараққиётнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида белгилаб беради.

Соҳага доир Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5113-сон қарори [5], 2021 йил 30 сентябрдаги “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6318-сон фармони [6], 2022 йил 22 январдаги “2022-2024 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-98-сон қарори [7] ва 2022 йил 27 январдаги “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сон қарори [8] соҳани барқарор ривожлантиришга туртки бўлди.

Натижада, сўнгги йилларда мамлактимизда хизматлар сектори жадал ривожланиб бориб, буни қуйидаги 2-диаграммада келтирилган расмий статистика рақамлари асослаб беради.

2-диаграмма.

2010-2023 йилларда Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг ривожланиб бориш динамикаси*



*Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Қўриниб турганидек, хизматлар соҳаси иқтисодиётнинг муҳим бўғини сифатида мамлакат тараққиётида муҳим ўрин тутади ва қуйидаги 3-расмда, хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улушининг ўзгариб бориш тенденциясини кузатишимиз мумкин.

Хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши номутаносиб тарзда ўзгариб

борган, шундай бўлса-да, унинг энг қуйи нуқтаси 36 %дан кам бўлмаган (2018 йилда – 36,3 %). Демак, нобарқарорлик даври 2017-2018 йилларда қадар кузатилиб, буни таркибий ўзгариш, глобал инқирозлар таъсири билан изоҳлаш мумкин.

Ўз навбатида, 2021 йилдан бошлаб, бугунги кунга қадар хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улушининг барқарор ўсиб бориш, шу жумладан, мамлакат иқтисодиётига таъсирининг ошиб бориш тенденциясини кузатишимиз мумкин.

3-диаграмма.

Хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улушини ўзгариб бориш тенденцияси*



*Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Эътиборли жиҳатларидан бири шундан иборатки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 27 февралдаги “Хизматлар соҳаси барқарор ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-78-сон қарори қабул қилинди [9].

Қарорга мувофиқ, 2025 йилда хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг асосий мақсадли кўрсаткичлари этиб: (а) хизматлар ҳажмини 15 фоизга ошириш; (б) соҳада 3 миллион кишини даромадли меҳнат билан таъминлаш; (в) 52,2 мингта хизмат кўрсатиш объектларини ташкил этиш белгиланди. Ушбу мақсадлар эришиш бўйича зарур чора-тадбирлар тасдиқланди.

Демак, хизматлар соҳасини миллий иқтисодиётнинг драйвери эканлигини тўла англаган ҳолда, уни ривожлантириш, соҳада фаолият юритаётган хўжалик юритувчи субъектларни, айниқса соҳани кенгайтириш, инновацияларни жалб этиш, ишчи ўринлари яратиш борасида ташаббус кўрсатаётганларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири бўлиб ҳисобланади.

Иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар, истеъмолчиларнинг хизматлар сифатига бўлган талабининг ортиши, рақамли технологияларнинг ҳаётимизга кириб келиши мазкур соҳада ўзига ҳос трансформацияни вужудга келтирмоқда. Шу ўринда, соҳа ривожи учун берилаётган имтиёз ва преференциялар, қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари манзилли бўлиб, хизматлар

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

таркибидаги истиқболли йўналишларига қаратилганлигини кўришимиз мумкин (4-диаграмма).

4-диаграмма

Хизматлар соҳаси таркибининг ўзгариб бориш динамикаси*



*Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Кўриниб турганидек, сўнгги беш йилда алоқа ва ахборотлаштириш хизматлари (+0,9 фоиз пункт), яшаш ва овқатланиш хизматлари (+19,8 фоиз пункт) ва соғлиқни сақлаш соҳасидаги хизматлар нинг (+0,1 фоиз пункт) жами хизматлар таркибидаги улуши ошиб борди.

Ўз навбатида, молиявий хизматлар (-4,6 фоиз пункт), транспорт хизматлари (-6,1 фоиз пункт), савдо хизматлари (-7,4 фоиз пункт) ва таълим соҳасидаги хизматларнинг (- 0,5 фоиз пункт) жами хизматлар таркибидаги улушининг пасайиш тенденцияси кузатилади. Албатта бу хизматларни таркибий турлари ҳажм нуқтаи-назаридан ўсиб борган, шундай бўлса-да, ривожланиш даражасининг бироз пасайиши натижасида жами хизматлардаги улушининг пасайишига сабаб бўлди.

Юқоридаги фикримизни, хусусан, хизматлар соҳасининг иқтисодиётдаги аҳамиятини ва ҳудудий номутаносибликларга барҳам беришдаги ролини илмий асослантириш учун, мисол тариқасида корреляцион-регрессия таҳлил ёрдамида хизматлар, саноат, қурилиш, қишлоқ хўжалиги ва бошқа иқтисодиёт тармоқларининг ЯИМга боғлиқлигини аниқлаймиз. Таҳлилни мазкур формула ёрдамида амалга ошириш таклиф этилади:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 x_i + \varepsilon \quad (1)$$

бунда: Y – изоҳланувчи ўзгарувчи (ялпи ички маҳсулот), β_0 – изоҳловчи (мустақил) ўзгарувчи (иқтисодиёт тармоқлари), β_1 – эркин коэффициент, x_i – регрессия коэффициенти, ε – тасодифий катталик (қолдиқ).

Қуйида иқтисодиёт тармоқлари ва ялпи ички маҳсулотнинг (ЯИМ) боғлиқлигини оддий чизиқли регрессион таҳлили натижаларини кўриш мумкин (1-жадвал).

1-жадвал.

Иқтисодиёт тармоқлари ва ЯИМ боғлиқлигининг оддий чизиқли регрессион таҳлили натижалари*

Иқтисодиёт тармоқлари	Таъсир даражаси	R^2	t-қиймати
Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги	2.3831***	0.989	62.01
Саноат	1.6558***	0.971	50.23
Инвестициялар	3.0109***	0.957	29.05
Қурилиш	7.1951**	0.979	33.21
Жами хизматлар	3.0033***	0.989	57.91
Бошқа тармоқлар	2.5341***	0.957	26.67

*Муаллиф томонидан тузилган.

Қўришимиз мумкинки, хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотга таъсири энг юқори (қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги соҳаси билан биргаликда) тармоқлардан бири саналади.

Хизматлар соҳасининг ривожланиб боришини аҳоли турмуш даражасини оширишдаги роли таҳлилини кенгроқ амалга ошириш учун хизматлар соҳасида қўшилган қийматнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши кўрсаткичлари билан бир қаторда аҳоли турмуш даражасини ифодаловчи кўрсаткичлар, яъни аҳолининг ўртача умр кўриш давомийлиги, хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлганларнинг улуши ва аҳоли жон бошига тўғирланган соф миллий даромад кўрсаткичларининг вақт қаторларидан фойдаланган ҳолда кўриб чиқамиз.

2-жадвал.

Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳаси ривожланишининг айрим ижтимоий ва иқтисодий кўрсаткичларга таъсирини ўрганиш бўйича индикаторлар тўплами*

Йиллар	Хизматларнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши, %да	Ўртача умр кўриш давомийлиги, ёш	Хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлганларнинг улуши, %да	Аҳоли жон бошига тўғирланган соф миллий даромад (АҚШ долл.)
1990	34,6	65,3	36,3	134,5
1995	34,7	65,6	38,9	289,3
2000	36,9	65,7	42,4	449,6
2005	37,2	67,4	46,8	941,1
2010	39,2	69,2	48,3	1432,6
2015	39,8	70,5	49,6	2374,1
2020	44,2	70,3	49,4	1396,2
2023	46,1	74,7	50,2	2414,7

*Муаллиф томонидан тузилган.

Шакллантирилган индикаторлар тўпламидан фойдаланган ҳолда хизматлар соҳаси ривожланишининг ўртача умр кўриш давомийлиги, хизмат кўрсатиш соҳасида банд

бўлганларнинг улуши ва аҳоли жон бошига тўғирланган соф миллий даромад (АҚШ долл.) каби кўрсаткичларнинг ўзаро таъсирини ўрганиб чиқамиз (3-жадвал).

3-жадвал.

Хизматлар соҳаси ривожланишининг ўртача умр кўриш давомийлиги ва бошқа айрим ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларга таъсири*

Қарам ўзгарувчи / Мустақил ўзгарувчи	Ўртача умр кўриш давомий-лиги, ёш	Ўртача умр кўриш давомий-лиги, ёш	Ўртача умр кўриш давомий-лиги, ёш	Аҳоли жон бошига тўғирланган соф миллий даромад (АҚШ долл.)
Хизматларнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши, %да	1.043**	0.539	0.496	76.69
Хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлганларнинг улуши, %да		0.315	0.258	102.6**
Аҳоли жон бошига тўғирланган соф миллий даромад (АҚШ долл.)			0.00055	
Константа	29.52*	34.18*	37.72	-6422.5*
R^2	0.668	0.781	0.784	0.834

*Ишончлилик даражаси: * - 10 %, **- 5 %, *** - 1 %*

*Муаллиф томонидан тузилган.

Кўриниб турибдики, барча индикаторларнинг бир-бирига ўзаро таъсири мавжуд бўлиб, хизматларнинг ривожланиши, яъни ялпи ички маҳсулотдаги улушининг ошиши ўртача умр кўриш давомийилигига, шунингдек, аҳоли даромадларига ижобий таъсир кўрсатади. Иқтисодий-статистик функцияси детерминация коэффициенти параметрлари (R^2) ҳам юқори боғлиқлик мавжудлигини ифода этмоқда. Шу билан бирга, таҳлил натижаларига кўра, хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлганларнинг улушининг ошиши ҳам аҳоли даромадларининг ошишига олиб келади. Олинган натижаларга таяниб, алоҳида параметрлар бўйича таҳлларни амалга оширсак. Таҳлиллар натижалари юқоридаги ғояларни тасдиқлайди.

Энди, хизматлар соҳасини ривожлантириш орқали ҳудудлар ўртасидаги номутаносибликларга барҳам бериш масаласини кўриб чиқамиз. Бунинг учун, ҳудудлар кесимида ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯҲМ) таркибида иқтисодиёт тармоқлари, шу жумладан, хизматлар тармоғининг ўзгариб бориш динамикасини Андижон вилояти мисолида кўриб чиқамиз.

5-диаграмма.

Андижон вилоятининг ЯҲМ таркибида иқтисодиёт тармоқлари улушининг ўзгариб бориш динамиками, %да*



*Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Кўриб тургангимиздек, хизматлар тармоғининг ривожланиб бориши ҳудуднинг мамлакат ялпи ички маҳсулоти таркибидаги улушини ҳам ўзгариб боришига олиб келади. Шу билан бирга, хизматлар тармоғининг ривожланиши саноат ва қурилиш каби асосий тармоқларнинг ривожланишига ҳам туртки беради. Демак, хизматлар секторининг ривожланиб бориши нафақат ҳудуднинг иқтисодиётига (ялпи ҳудудий маҳсулоти ҳажмининг ошишига), балки бошқа тармоқларнинг ҳам ривожланишига бевосита таъсир кўрсатади.

Ўз навбатида, хизматларнинг янги шакллари, хусусан рақамли платформалар ёрдамида масофавий етказиб бериш хизматлари, интернет маркетинг, интернет фондлари, виртуал капитал бозорлари, ахборотлар ва хизматлар, суғурта хизматлари ва ҳоказо хизмат турларининг жадал ривожалиниб бориши, бу йўналишда мақсадли йўналтирилган рағбатлантириш чораларини кўриб боришни такозо этади.

Шу нуқтаи назардан, мамлакатимзида амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар, шу жумладан, хизмат секторининг миллий иқтисодиётдаги ролини оширишга доир Фармон ва қарорлар, “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” “Ўзбекистон-2030”, “Рақамли Ўзбекистон” стратегияларида ва кўзда тутилган чора-тадбирларни ҳаётга тадбиқ этилиши, тез орада ўзининг ижобий самарасини беради.

Хулоса

Хизматлар соҳасидаги номутаносибликларни бартараф этиш — мамлакат тараққиётининг муваффақияти учун муҳим қадамдир. Шу боис, давлат томонидан хизматлар секторини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш икки тараф учун ҳам ўзаро манфаатлидир. Бу, айниқса, ҳудудлараро иқтисодий тенгсизликларни бартараф этишга, республиканинг барча ҳудудларида бир хил даражада хизматлар кўрсатишни йўлга қўйилишини таъминлашга, пировардида эса, ижтимоий адолат ва иқтисодий ўсишга асосланган барқарор ривожланишга олиб келади. Янгича технологиялар ва ижтимоий хизматларнинг тенг тақсимланиши мамлакатнинг тараққиёт йўлининг асоси бўлиб хизмат қилади.

Демак, соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар самарадорлигини ҳудудлар кесимида мунтазам таҳлил қилиб бориш, мақсадли дастурлар ижроси оқсаётган йўналишлар ва ҳудудлараро ривожланиш даражасидаги фарқлар ошиб бораётган ҳолатлар бўйича омилларни аниқлаш ва бартараф этиш чораларини кўриб бориш орқалигина республиканинг барча ҳудудларида барқарор ривожланиш ва бир хил ижтимоий-иқтисодий муҳитни яратишга эришиш мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармони. – https://lex.uz/docs/3107036

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 16 июндаги “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4752-сон қарори. – https://lex.uz/ru/docs/4857409?ONDATE=20.04.2022

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони. – https://lex.uz/docs/6600413.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йилl 29 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони. – https://lex.uz/docs/5841063.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5113-сон қарори. – https://lex.uz/ru/docs/5421233

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 сентябрдаги “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6318-сон фармони. – https://www.lex.uz/uz/docs/5664773

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 январдаги “2022-2024 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-98-сон қарори. – https://lex.uz/docs/5834443

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-104-сон қарори. – https://lex.uz/docs/5840284

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 27 февралдаги “Хизматлар соҳаси барқарор ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-78-сон қарори. – https://lex.uz/docs/7408455.

10. Каримова Д.М. Государственное регулирование и прогнозирование развития сферы услуг в Узбекистане. Материалы XVII Международной научной конференции. Научно-исследовательский экономический институт Министерства Республики Беларусь, 2016. Каримова Д.М. Расширение экспортного потенциала сферы услуг: обзор мировой практики
и рекомендации для Узбекистана//Рынок, деньги, кредит. – №7. – 2016.

11. Кудратов З.Г. Основные тенденции развития сферы услуг в Узбекистане // Молодой ученый. – 2016. – №11. – С. 791-793.

12. Маркс К. Теория прибавочной стоимости, ч. 1, К. Маркс и Ф. Энгельс, Соч., изд. 2-е, т. 26, ч. 1. – М., 1962. – С.410.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

KICHIK VA O‘RTA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATINING XORIJIY TAJRIBASI

Ibragimov Bobursho‍h Boxodir o‘g‘li
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
soliq va soliqqa tortish
kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID:0000-0002-1107-0894

Abdug‘aniyev Uchqun Habibulla o‘g‘li
iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
soliq va soliqqa tortish
kafedrasi dotsenti v.b.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0003-1333-0554

Annotatsiya. *Maqolada iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligi masalalari tadqiq etilgan. Unda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar, shuningdek, moliyaviy yordam, soliq imtiyozlari, grant va subsidiyalarning ahamiyati tahlil qilingan. Innovatsiyalar, texnologik inkubatorlar va startaplarni rivojlantirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta’kidlangan. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining samaradorligi o‘rganilgan, bu nafaqat moliyaviy yordam va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, balki iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaga ham bog‘liq. Boshqa mamlakatlarda ham qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalar va takliflar berilgan.*

Kalit so`zlar: *kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsiya, soliq, soliq siyosati, moliyaviy mexanizmlar.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОЛИТИКИ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА

Ибрагимов Бабуршах Баходыр оглы
доктор экономических наук (DSc)
доцент кафедры
налогов и налогообложения
Ташкентского государственного
экономического университета
ORCID:0000-0002-1107-0894

Абдуганиев Учкун Хабибулла оглы
доктор философии (PhD)
по экономическим наукам
доцент кафедры
налогов и налогообложения
Ташкентский государственный
экономический университет
ORCID: 0000-0003-1333-0554

Аннотация. *В статье изучается эффективность политики поддержки малого и среднего бизнеса в экономически развитых странах. Анализируются экономические и*

политические условия, созданные государством для развития малого и среднего бизнеса, а также значимость финансовой помощи, налоговых льгот, грантов и субсидий. Подчеркивается важность поддержки инноваций, технологических инкубаторов и программ развития стартапов. Исследуются вопросы эффективности государственной политики в развитии малого и среднего бизнеса, которая зависит не только от финансовой помощи и поддержки инноваций, но и от экономической и социальной инфраструктуры. Даны практические рекомендаци и предложения, которые могут быть применены и для других стран.

Ключевые слова: *малый бизнес, предпринимательство, инновации, налоги, налоговая политика, финансовые механизмы.*

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL AND MEDIUM BUSINESS SUPPORT POLICY

Ibragimov Baburshah Bohodir oglu
Doctor of Economics Sciences (DSc)
Associate Professor of the
Department of Tax and taxation
Tashkent State University of Economics
ORCID:0000-0002-1107-0894

Abduganiev Uchkun Khabibulla oglu
Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences
Associate Professor of the
Department of Tax and taxation
Tashkent State University of Economics
ORCID:0000-0003-1333-0554

Abstract. *The article examines the effectiveness of small and medium business support policies in economically developed countries. It analyzes the economic and political conditions created by the state for the development of small and medium businesses, as well as the importance of financial assistance, tax incentives, grants and subsidies. It emphasizes the importance of supporting innovation, technology incubators and startup development programs. It examines the effectiveness of state policy in the development of small and medium businesses, which depends not only on financial assistance and support for innovation, but also on economic and social infrastructure. Practical recommendations and proposals are given that can be applied to other countries.*

Keywords*: small business, entrepreneurship, innovation, taxes, tax policy, financial mechanisms.*

Kirish

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosati institutsional va tarixiy xususiyatlarga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Islohotlar samaradorligi rasmiy qoidalar va ijtimoiy an’analarning muvofiqligi bilan belgilanadi, chunki ular o‘rtasidagi ziddiyatlar ijtimoiy o‘zaro ta’sirning beqarorlashuviga olib kelishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirishga urg‘u beriladi, boshqalarida esa davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirishga doir davlat siyosatini yuritadi. Yondashuvni tanlash milliy shart-sharoitlarning o‘ziga xosligiga bog‘liq bo‘lib, qaysidur davlatlarda bu taraqqiyotning asosini tashkil qilsa, ayrim davlatlarda ishbilarmonlik faolligining pasayishi va korrupsiyaning o‘sishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish

maqsadida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishini xalqaro tajribasini tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Tadqiqotchilar ko‘pincha davlatning kichik va o‘rta bizneslar uchun yaratgan siyosiy va iqtisodiy sharoitlarini tahlil qilib, uning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lishi sabablari haqida fikrlar bildirgan. Kichik va o‘rta bizneslarning muvaffaqiyatga erishishida davlat tomonidan taqdim etilgan moliyaviy yordamlarning o‘rni katta ekanligi qayd etiladi [1]. Xususan, moliyaviy yordamlar, soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar tadbirkorlarning biznesni boshlash va kengaytirish jarayonlarini soddalashtiradi [2]. Fransiya va Italiyadagi tajribalarga asoslanib, ko‘plab olimlar, davlat tomonidan berilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning biznes uchun xatarini kamaytirishga va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qilganligini ta’kidlashadi [3].

Bundan tashqari, innovatsion qo‘llab-quvvatlash tizimlarining samaradorligini o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Yaponiyaning texnologik inkubatorlari va startaplarni qo‘llab-quvvatlashdagi yondashuvi bir qator tadqiqotlarda muhokama qilinadi [4]. Tadqiqotchilar, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlari va biznesni tijoratlashtirishning kuchaytirilgan qo‘llab-quvvatlashi nafaqat texnologik rivojlanish, balki iqtisodiy o‘sishning asosiy turtkisi ekanligini ta’kidlaydilar. Xitoydagi kollektiv boshqaruv tizimi ham tadbirkorlar uchun innovatsion va bozorlararo imkoniyatlarni kengaytirish uchun samarali platforma sifatida ko‘riladi [5].

Adabiyotlarda shuningdek, kichik va o‘rta biznesning rivojlanishiga davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari va xalqaro bozorlar bilan integratsiyasi qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan [6]. Braziliya va Kanada kabi mamlakatlarda davlat tomonidan taqdim etiladigan savdo yordamchi dasturlari va bozorlarni kengaytirish imkoniyatlari kichik va o‘rta bizneslarni global raqobatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi [7]. Bu tajribalar, o‘z navbatida, boshqa davlatlar uchun ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy yechimlarni taqdim etadi. Adabiyotlar tahlilidan shuni anglash mumkinki, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda davlat siyosatining samaradorligi nafaqat moliyaviy yordamlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga, balki ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmalarga bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologiyasi, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda 2023-yilda eng yuqori iqtisodiy natijalarga erishgan 10 mamlakatni ikki asosiy yondashuvi, yani a)soliq siyosati, b)moliyaviy yordamlar va innovatsion texnologik qo‘llab-quvvatlash orqali tahlil qilingan. Birinchi yondashuvda turli mamlakatlardagi soliq imtiyozlari, grantlar, kreditlar va subsidiyalar kabi moliyaviy yordamlar tahlil qilingan. Ikkinchi yondashuvda, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari, texnologik inkubatorlar va startaplarni rivojlantirish dasturlarining samaradorligi tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar

Bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesni (KO‘B) qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat tomonidan rag‘batlantirish choralari kichik va o‘rta biznes korxonalari faoliyati va o‘sishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, shu jumladan kreditlar, kafolatlar, ta’lim dasturlari va zarur ma’lumotlardan foydalanishga qaratilgan. Bugungi globallashuv jarayonida rivojlangan davlatlar tomonidan biznesning barcha darajalarda – milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada o‘zaro hamkorligiga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu esa qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish chora-tadbirlarini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Jahon tajribasida eng yirik iqtisodiyot egalarining mamlakatda fiskal daromadlarning asosiy to‘lov manbaini tashkil etuvchi tadbirkorlik

subyektlarini qo‘llab-quvvatlashi bo‘yicha ilg‘or tajribalarni tahlil qilish maqsadida ushbu davlatlarning so‘nggi yildagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishimiz zarur bo‘ladi (1-diagramma).

1-diagramma.

2023-yilda eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlar*.



*www.360tf.trade sayti ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Diagrammada AQSh 26,954 mlrd dollar bilan eng katta iqtisodiyotga ega bo‘lsa, Xitoyning YaIMi 17,786 mlrd dollarni tashkil qilib, AQShdan keyingi o‘rinni egallab turibdi. Germaniya 4,43 trln, Fransiya 3,052 trln, Buyuk Britaniya 3,332 trln va Italiya 2,19 trln dollarga ega bo‘lsa, Osiyoning gegemonlari Xitoy, Yaponiya (4,231 trln) va Hindiston (3,73 trln) mintaqaning iqtisodiy qudratini namoyon etmoqda. Braziliya (2,132 trln), Kanada (2,122 trln) AQShdan keyingi o‘rinni egallaydi.

AQSh dunyoda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng ilg‘or tizimlardan biriga ega. AQShning Kichik biznes boshqarmasi (SBA) kichik va o‘rta tadbirkorlarni moliyaviy yordam, maslahatlar va ta’lim dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlaydi. SBA tomonidan tadbirkorlarga past foizli kredit, biznes-reja yaratishda ko‘mak va mahalliy hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari taqdim etiladi. Shuningdek, hukumat har yili davlat xaridlarida katta ulushni kichik korxonalarga ajratadi, bu esa tadbirkorlar uchun daromad olishda muhim manbaga aylanadi.

AQShda tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik rivojlanish va yangi g‘oyalarni tadbirkorlikka tatbiq qilish maqsadida davlat grantlar va subsidiyalar taqdim etadi. Ayniqsa, startaplar uchun qulay muhit yaratish va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlashga katta e’tibor qaratiladi. Mashhur Silicon Valley (Kremniy vodiysi) kabi hududlar davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning yorqin namunasidir.

Bundan tashqari, AQSh hukumatining soliq siyosati ham tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Soliq imtiyozlari, yangi biznes boshlovchilar uchun subvensiyalar va investitsiya kreditlari orqali kichik va o‘rta tadbirkorlikni rag‘batlantirish mexanizmlari amalga oshiriladi. Shuningdek, AQShda tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, biznesni boshlash jarayonlarini soddalashtirish va huquqiy kafolatlar yaratish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan.

Xitoyda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlari davlat siyosatida chuqur o‘rganilgan va sistematik ravishda amalga oshirilmoqda. Xitoy hukumati kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratib, ularni moliyaviy resurslar, texnik yordam va ta’lim bilan ta’minlaydi. Xitoyda tashkil etilgan Xitoyning Kichik va O‘rta Biznesni Rivojlantirish Boshqarmasi (SBO) kichik korxonalarga qarzdorlikni kamaytirish, kreditlarni olishda yordam berish va ishlab chiqarishni samarali tashkil qilishda yordam beradi. Shuningdek,

davlat soliq imtiyozlari, qo‘llab-quvvatlash dasturlari va grantlar orqali tadbirkorlarni rag‘batlantiradi, bu esa yangi bizneslarning tez rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Xitoyda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlikni rag‘batlantirishda startaplar va texnologik parklarga alohida e’tibor qaratiladi. Shenjjen, Pekin va Shanxay kabi yirik shaharlar Xitoyning texnologik markazlariga aylanib, global innovatsion g‘oyalar va startaplar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bundan tashqari, Xitoy hukumatining tadbirkorlikni rivojlantirishga oid siyosati soliq siyosatini ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va elektron tijoratning rivojlanishi tadbirkorlikning yangi yo‘nalishlari sifatida alohida rag‘batlantiriladi. Hukumat biznesni boshlash va rivojlantirishni soddalashtirish maqsadida bir qancha yuridik va administrativ to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu barcha chora-tadbirlar Xitoyni global iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirishda yetakchi o‘ringa olib kelmoqda.

Xitoy hukumati qonunchilik va tashkiliy chora-tadbirlar orqali kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga faol ko‘maklashmoqda. Qabul qilingan "Kichik va o‘rta korxonalarga ko‘maklashish to‘g‘risida"gi qonun ularning huquqlarini himoya qiladi, ishlash sharoitlarini yaxshilaydi va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat jamg‘armasi tashkil etilishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, milliy islohotlar doirasida ushbu sohadagi siyosatni muvofiqlashtiruvchi, restrukturizatsiya va xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi KO‘B departamenti tashkil etildi, bu esa ushbu sohani barqaror rivojlantirish uchun Xitoy modelini samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Germaniyada ham tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Germaniya Kichik va O‘rta Bizneslar Birligi (BVMW) orqali kichik va o‘rta biznesga moliyaviy maslahatlar, biznes-rejalar tuzish, soliq imtiyozlari va boshqa qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali yordam ko‘rsatiladi. Shuningdek, Germaniya Ishlab Chiquvchilarining Birliklarida (DIHK) tadbirkorlar o‘z faoliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan maslahat va ko‘maklarni oladilar. Davlat krediti va kafolatlar orqali kichik biznesning moliyaviy erkinligini ta’minlashga katta e’tibor qaratilgan.

Germaniyada innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda ilm-fan va tadbirkorlikning o‘zaro integratsiyasi muhim o‘rin tutadi. Mamlakat Innovatsion va Texnologik Markazlari (ZIM) orqali startaplar va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Davlat ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq qilishda tadbirkorlarga moliyaviy qo‘llab-quvvatlash taqdim etiladi. Germaniya hukumati, shuningdek, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, masalan, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasida startaplar uchun qo‘shimcha rag‘batlantirishlarni ta’minlaydi. Bu startaplar va innovatsion bizneslar mamlakating iqtisodiy qudratini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Germaniyada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi soliq siyosati va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. Hukumat kichik va o‘rta bizneslarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar orqali yordam beradi. Bundesbank va boshqa davlat banklari tadbirkorlarga qulay kredit shartlari bilan yordam ko‘rsatadi. Germaniyaning iqtisodiy tizimi, shuningdek, yuqori darajadagi raqamli infratuzilma, onlayn soliq xizmatlari va biznesni soddalashtirish jarayonlari bilan tadbirkorlik faoliyatini osonlashtiradi.

Kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llab-quvvatlashga Yaponiya misol bo‘la oladi, bu yerda biznesning ushbu toifasi iqtisodiyotda asosiy rol o‘ynaydi. KO‘Bni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini boshqarish ilmiy markazlar va biznes-inkubatorlar bilan faol hamkorlik qiluvchi ixtisoslashtirilgan davlat agentliklari orqali amalga oshiriladi. Sa’y-harakatlarning salmoqli qismi kichik korxonalarni, ayniqsa, imtiyozli shartlarda kreditlash, shuningdek, innovatsiya va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, zamonaviy monitoring tizimlaridan foydalanish Yaponiyaga davlat yordami choralarining

samaradorligini baholash va zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi, bu esa uning tajribasini boshqa mamlakatlarda o‘rganish uchun yaxshi tajriba bo‘la oladi.

Yaponiya tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda o‘zining innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turadi. Yaponiyada kichik va o‘rta bizneslar (MSP) iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismidir va davlat tomonidan ularga turli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari taqdim etiladi. Yaponiyaning Kichik va O‘rta Bizneslar Agentligi (SMEA) kichik bizneslarni moliyaviy va texnik ko‘mak, maslahatlar va ta’lim dasturlari bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Agentlik, shuningdek, yangi startaplarni rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarga keng imkoniyatlar yaratadi. Davlat startaplarni va innovatsion kompaniyalarni soliq imtiyozlari, kredit kafolatlari va davlat grantlari bilan rag‘batlantiradi, bu esa bizneslarni tez rivojlantirishga turtki beradi.

Yaponiya hukumati yuqori texnologiyalar va ilm-fan sohalarida yangiliklarni tatbiq etishga katta e’tibor qaratadi. Yaponiyaning Innovatsion va Texnologik Markazlari (JST) va boshqa davlat ilmiy-tadqiqot tashkilotlari startaplar va kichik bizneslarga yangi texnologiyalarni rivojlantirishda yordam beradi. Davlat tomonidan tashkil etilgan Texnologik Parklar va Biznes Inkubatorlar tadbirkorlarga yangi g‘oyalar va mahsulotlarni ishlab chiqish va bozorga chiqarish jarayonida qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi.

Yaponiyaning soliq siyosati ham tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yaponiyada kichik va o‘rta bizneslarga soliq imtiyozlari, xususan, soliq yengilliklari va kredit kafolatlari taqdim etiladi. Yaponiya Milliy Moliyaviy Korporatsiyasi va boshqa moliyaviy institutlar kichik bizneslarga uzun muddatli va past foizli kreditlar beradi, bu esa ularning kapitalini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, hukumat tomonidan kichik bizneslarga ma’lum bir sektorlar, masalan, ekologiya va yashil texnologiyalar sohasida qo‘shimcha rag‘batlantirishlar taqdim etiladi.

Hindistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kichik va o‘rta bizneslarni rivojlantirish uchun bir qator dasturlar va siyosatlar mavjud. Hindiston hukumati iqtisodiyotning bu sektori uchun davlat yordamini kengaytirishga intiladi, chunki kichik va o‘rta bizneslar mamlakat iqtisodiyotining asosiy poydevorini tashkil etadi. Hindistonning Kichik va O‘rta Bizneslarni Rivojlantirish Boshqarmasi (MSME) orqali kichik va o‘rta bizneslarga moliyaviy yordam, texnik maslahatlar, ta’lim va o‘quv dasturlari taqdim etiladi. Boshqarma shuningdek, kichik bizneslarni rag‘batlantirish uchun subsidiyalar, grantlar va imtiyozli kreditlar orqali ularning o‘sishini ta’minlaydi. Muddatli kreditlar va soliq imtiyozlari orqali davlat tadbirkorlarga o‘z bizneslarini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Hindistonning iqtisodiy siyosati o‘zgaruvchan bo‘lib, startaplar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun alohida dasturlar mavjud. Startap Hindiston (Startup India) dasturi 2016-yilda ishga tushirilgan bo‘lib, bu dastur orqali davlat innovatsion va texnologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash, soliq yengilliklari, subsidiyalar va moliyaviy yordam taqdim etishni maqsad qilgan. Dastur startaplarni o‘z faoliyatlarini boshlash va rivojlantirish uchun soliqdan ozod qilish, kredit kafolatlari va biznes inkubatorlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Hindistonda, shuningdek, texnologik parklar va ilmiy tadqiqot markazlari kichik va o‘rta bizneslarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hindistonda kichik bizneslarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy manbalaridan biri – Muddatli kreditlar va xususiy sektor banklari. Hindistonning Muddatli Kredit Kafolatlar Tizimi (CGTMSE) kichik va o‘rta bizneslarga kreditlar taqdim etish uchun kafolatlar taqdim etadi. Hindiston Markaziy Banki va boshqa moliyaviy tashkilotlar, xususan, qishloq xo‘jaligi va sanoat sektorlari uchun, kichik bizneslarga imtiyozli shartlar bilan kreditlar beradi. Shuningdek, hukumat o‘zining Pradhan Mantri Mudra Yojana (PMMY) dasturi orqali kichik bizneslarga kichik biznes krediti beradi. Ushbu dastur, ayniqsa, kichik ishlab chiqaruvchilar va savdogarlarga foydali bo‘lib, ular uchun past foizli kreditlarni taqdim etadi.

Buyuk Britaniyada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi ko‘plab hukumat dasturlari va siyosatlari orqali amalga oshiriladi. Kichik va o‘rta bizneslarni rivojlantirish uchun Buyuk

Britaniya hukumati innovatsion yondashuvlar va keng ko‘lamli moliyaviy ko‘maklarni taklif etadi. Biznesni qo‘llab-quvvatlash markazlari (Growth Hubs) orqali tadbirkorlar o‘z bizneslarini boshlash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan maslahatlar, resurslar va xizmatlarga ega bo‘ladilar. Bu markazlar yangi bizneslar uchun maslahat berish, strategiyalarni ishlab chiqish va moliyaviy ko‘makni olish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, Buyuk Britaniya hukumatining “Small Business, Enterprise and Employment Act” kabi qonunlari kichik va o‘rta bizneslarga o‘z faoliyatlarini samarali tarzda yuritish uchun soliq va boshqa huquqiy imtiyozlar taqdim etadi.

Buyuk Britaniyada innovatsiyalar va startaplarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va grantlar mavjud. Innovate UK dasturi orqali innovatsion startaplar va texnologik kompaniyalar uchun davlat tomonidan moliyaviy yordam va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun grantlar taqdim etiladi. Innovate UK mamlakatdagi texnologik yangiliklarni rivojlantirishga, ilmiy-tadqiqotlarni tijoratlashtirishga va yangi mahsulotlar yaratishga yordam beradi. Innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan Biznes Inkubatorlari va Texnologik Parklar tadbirkorlarga startaplarini rivojlantirishda zarur bo‘lgan barcha qo‘llab-quvvatlashni taqdim etadi.

Shuningdek, Buyuk Britaniya kichik va o‘rta bizneslarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ham faol ish yuritadi. Hukumat tomonidan British Business Bank va boshqa moliyaviy institutlar orqali kichik bizneslarga kreditlar, investitsiyalar va kafolatlar taqdim etiladi. Buyuk Britaniya hukumati Start Up Loans dasturi orqali yangi boshlovchi tadbirkorlarga past foizli kreditlar taqdim etadi. Ushbu kreditlar orqali tadbirkorlar o‘z bizneslarini boshlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bularning barchasi Buyuk Britaniyaning kichik va o‘rta bizneslar sektorini kuchaytirish va uning global raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Fransiyada kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlash hukumat tomonidan bir qator dasturlar va moliyaviy yordamlar orqali amalga oshiriladi. Fransiya Biznesni Rivojlantirish Agentligi (BPI France) mamlakatda bizneslarni boshlash va rivojlantirish uchun asosiy qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotdir. BPI France innovatsion startaplar va kichik bizneslarni rivojlantirish uchun grantlar, imtiyozli kreditlar va sarmoyalar taqdim etadi. Bundan tashqari, Fransiya hukumati Fransiya Kichik Bizneslar Kafolati dasturi orqali kichik va o‘rta bizneslar uchun kredit kafolatlarini taqdim etadi, bu esa ularning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini oshiradi.

Fransiya hukumati shuningdek, Innovatsion Startaplar Yordam Dasturi (French Tech) orqali startaplarni va innovatsion kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu dastur yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirishga yordam beruvchi resurslarni, maslahatlarga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Shuningdek, Fransiya hukumati innovatsion sektorda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari taqdim etadi va o‘z bizneslarini rivojlantirishga yordam beradigan texnologik inkubatorlarni tashkil qiladi.

Fransiya kichik va o‘rta bizneslarni xalqaro bozorga chiqarish uchun ham turli dasturlarni amalga oshiradi. Business France tashkiloti eksportni rivojlantirish va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish borasida faoliyat yuritadi. Tadbirkorlar eksport va xalqaro savdo bo‘yicha maslahatlar va yordam olishlari mumkin, bu esa Fransiyaning kichik va o‘rta bizneslari uchun global raqobatbardoshlikni oshiradi.

Italiyada kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlashda hukumat bir qator yirik moliyaviy dasturlarni taqdim etadi. Italiya Milliy Kichik Biznesni Rivojlantirish Agentligi (Cassa Depositi e Prestiti) kichik va o‘rta bizneslarga uzoq muddatli kreditlar, sarmoyalar va subsidiyalar taqdim etadi. Bu agentlik startaplar va kichik bizneslarga o‘z mahsulotlarini ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish va bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratadi. Italiya hukumati, shuningdek, kichik bizneslarga yengil soliq rejimlari va imtiyozli soliq to‘lovlari taqdim etadi, bu esa bizneslarni moliyaviy yuklardan ozod qiladi va ularga o‘z faoliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Italiya kichik va o‘rta bizneslarni innovatsion sohada rivojlantirish uchun maxsus dasturlarni amalga oshiradi. Innovatsiya va Ilm-Fan Dasturi (Innovazione e Ricerca) orqali

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

davlat innovatsion tadbirkorlarga ilmiy-tadqiqotlar va texnologik rivojlanishga oid grantlar taqdim etadi. Shuningdek, Italiya hukumati innovatsion startaplar uchun Bologna Innovatsion Hub kabi texnologik inkubatorlar va ishbilarmonlar tarmog‘ini tashkil etadi, bu esa yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Italiya kichik va o‘rta bizneslarni xalqaro bozorga chiqarish uchun ham ko‘plab yordamlar taqdim etadi. Italiya Tashqi Savdo Dasturi orqali davlat eksportni qo‘llab-quvvatlaydi va kichik bizneslarga xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, SACE va SIMEST kabi tashkilotlar, kichik va o‘rta bizneslarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy bozorlar bilan aloqalarni o‘rnatish uchun qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etadi.

Braziliyada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda hukumat turli dasturlar va siyosatlar orqali kichik va o‘rta bizneslarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Braziliya Federal Hukumatining Kichik Bizneslar Tashkiloti (SEBRAE) mamlakatdagi kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlash uchun eng muhim tashkilot hisoblanadi. SEBRAE tadbirkorlarga biznesni rivojlantirish, moliyaviy va texnik maslahatlar berish, hamda ta’lim va treninglar orqali biznesni kengaytirishga yordam beradi. SEBRAE, shuningdek, kichik bizneslarni marketing, menejment, yangi texnologiyalarni joriy etish, va eksport imkoniyatlarini yaratish borasida qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi. Bu tashkilot o‘zining turli dasturlari orqali tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, grantlar va moliyaviy ko‘maklar taqdim etadi.

Braziliyadagi kichik va o‘rta bizneslar uchun bir qator moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud. Braziliya Milliy Banki (BNDES) va boshqa moliyaviy tashkilotlar kichik bizneslarga imtiyozli kreditlar va investitsiyalar taqdim etadi. BNDES kichik va o‘rta bizneslarga uzoq muddatli va past foizli kreditlar berish orqali ularning rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, hukumat Kichik Biznesni Qo‘llab-quvvatlash Fondi (FINEP) orqali ilmiy tadqiqotlar va texnologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa innovatsion va texnologik startaplarning o‘sishini rag‘batlantiradi.

Braziliya hukumati, shuningdek, kichik va o‘rta bizneslarni xalqaro bozorlarga chiqishga tayyorlash va eksport imkoniyatlarini oshirish uchun turli dasturlarni amalga oshiradi. Apex-Brasil tashkiloti eksportga yo‘naltirilgan kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etadi. Tashkilot eksportchi tadbirkorlarga marketing, eksport strategiyalari, xalqaro savdoga oid maslahatlar taqdim etadi va ularni xorijiy bozorlar bilan bog‘laydi.

Kanadada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun hukumat turli dasturlar, siyosatlar va moliyaviy yordamlar orqali kichik va o‘rta bizneslarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Kanada Kichik Biznesni Rivojlantirish Agentligi (Canada Business Network) mamlakatdagi tadbirkorlarga biznesni boshlash, kengaytirish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan maslahatlar, resurslar va moliyaviy yordamlarni taqdim etadi. Agentlik biznes rejasini ishlab chiqish, moliyaviy ko‘maklarni olish va bozor tadqiqotlari qilishda yordam beradi. Shuningdek, Kanada hukumati kichik bizneslarni soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa tadbirkorlarga o‘z bizneslarini samarali boshqarish va o‘sish imkonini yaratadi.

Kanadada innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ham bir qator dasturlar mavjud. Innovatsiya, Ilm-Fan va Ishlab Chiqish Departamenti (ISED) Kanada iqtisodiyotining innovatsion sektorini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. ISED dasturlari orqali startaplar va kichik bizneslarga ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va bozorga chiqarish uchun grantlar va moliyaviy yordamlar taqdim etiladi. Kanadada Kanada Innovatsion Fondi (CIF) orqali innovatsion tadbirkorlarga ko‘mak beriladi, bu esa yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi.

Kanada hukumatining moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham tadbirkorlar uchun juda muhimdir. Kanada Banki va boshqa moliyaviy institutlar kichik bizneslarga imtiyozli kreditlar, sarmoya kiritish va kredit kafolatlarini taqdim etadi. Shuningdek, Kanada Biznes Kafolatlar Dasturi (CSBF) orqali kichik va o‘rta bizneslar o‘z bizneslarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan kreditlar uchun kafolat olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Hukumat tomonidan

taqdim etiladigan Start Up Kanada dasturi esa yangi tadbirkorlarga biznesni boshlash uchun moliyaviy yordam va qo‘llab-quvvatlashni taqdim etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi mamlakatlarning tajribalari kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlashda bir qator umumiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratilganligini ko‘rsatadi. Har bir mamlakat o‘zining maxsus dasturlari orqali tadbirkorlarni moliyaviy, texnologik, va ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarida keng qo‘llab-quvvatlamoqda. Masalan, Yaponiyada texnologik parklar va inkubatorlar orqali innovatsiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilsa, Fransiya va Italiya kabi davlatlar soliq imtiyozlari va startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus dasturlar bilan kichik biznesni rag‘batlantirmoqda. Kanada va Braziliyadagi innovatsion dasturlar va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratishning ahamiyati o‘sib bormoqda, bu esa bizneslarni global raqobatga tayyorlaydi.

Bundan tashqari, ilg‘or mamlakatlar o‘rtasidagi eng samarali amaliyotlardan biri bu davlat va biznes o‘rtasidagi yaqin hamkorlikdir. Ko‘plab davlatlar, masalan, Yaponiya va Xitoy, kichik va o‘rta bizneslar uchun maxsus organlar yaratib, moliyaviy ko‘mak, texnik maslahatlar va bozorlarni kengaytirish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, xususan, texnologik inkubatorlar va ilmiy tadqiqotlar asosida bizneslarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishilgan. Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan kompleks va tizimli yondashuv muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi.

Mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

1. Kichik va o‘rta bizneslar uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va moliyaviy kafolatlar tizimini joriy etish. Maxsus soliq rejimlarini ishlab chiqish, bu orqali tadbirkorlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va ularning biznesni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslarni taqdim etish.

2. Startaplar va innovatsion kompaniyalar uchun maxsus texnologik inkubatorlar va ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish dasturlarini kengaytirish. Yaponiyaning muvaffaqiyatli tajribasidan ilhomlanib, texnologik parklar va ilmiy markazlar orqali yangi texnologiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashish.

3. Kichik va o‘rta bizneslarni xalqaro bozorga chiqish uchun yordam beradigan dasturlarni joriy etish, masalan, eksportni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro savdo maslahatchilari orqali bizneslarni global miqyosda tanitish imkoniyatlarini taqdim etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Власов И. П. Государственная финансовая поддержка малого и среднего бизнеса // Финансы и кредит. 2009. №9 (345). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-finansovaya-podderzhka-malogo-i-srednego-biznesa

2. Grants and subsidies Unlocking Business Growth: How Grants and Subsidies Fuel Entrepreneurial Ventures - FasterCapital https://fastercapital.com/content/Grants-and-subsidies-Unlocking-Business-Growth--How-Grants-and-Subsidies-Fuel-Entrepreneurial-Ventures.html
Navigating Government Support Programs for Startups – Venture for All® LLC https://ventureforall.com/2023/05/01/navigating-government-support-programs-for-startups/
Qiao H., Su Q. Impact of government subsidy on the remanufacturing industry //Waste Management. – 2021. – T. 120. – C. 433- 447; Zhang S. Impact of government subsidy on the remanufacturing industry regarding technology cooperation //Journal of Industrial & Management Optimization. – 2023. – T. 19. – №. 6; Ohrn E. Corporate tax breaks and executive compensation //American Economic Journal: Economic Policy. – 2023. – T. 15. – №. 3. – C. 215-255.

3. Pavitt K. Governmental support for industrial research and development in France: Theory and practice //Minerva. – 1976. – С. 330-354; Schmidt V. A. Loosening the ties that bind: the impact of European integration on French government and its relationship to business //JCMS: Journal of common market Studies. – 1996. – Т. 34. – №. 2. – С. 223-254; Gilles F., L'Horty Y., Mihoubi F. Effects of a business support program on firm performances in France. – TEPP, 2024. – №. 2024-07; Core F., De Marco F. Public guarantees for small businesses in Italy during COVID-19. – 2021.

4. Kushida K. E. Japan’s startup ecosystem: from brave new world to part of syncretic “New Japan” //Asian Research Policy. – 2016. – Т. 7. – №. 1. – С. 67-77; Тимонина И. Л. Университетские стартапы и венчуры и конкурентоспособность страны: опыт Японии //Японские исследования. – 2018. – №. 4. – С. 92-110.; Наумова И. Ю. Предпринимательская экосистема в Японии: финансово-организационные аспекты развития стартапов //Россия и АТР. – 2023. – №. 2. – С. 46-66.

5. Хабибуллин Р. И. Малое предпринимательство и коллективные формы хозяйствования: опыт Китайской Народной Республики //Вестник Национального института бизнеса. – 2017. – №. 30. – С. 223-228; Yingying J. Emerging state–Business contention in China: Collective action of a business association and China’s fragmented governance structure //China Information. – 2018. – Т. 32. – №. 3. – С. 463-484.

6. Спольник К. А. Государственная поддержка предпринимательской деятельности //Международная научно-техническая конференция молодых ученых БГТУ им. ВГ Шухова, посвященная 170-летию со дня рождения ВГ Шухова. – 2023. – С. 956-962.

7. Cunha D. R. et al. Sustainability practices for SDGs: a study of Brazilian ports //Environment, Development and Sustainability. – 2024. – Т. 26. – №. 4. – С. 9923-9944; Martins E. R., Silva S. Competitive Gains in Business Cooperation Networks in the State of Goiás; Kravchenko N. A., Yusupova A. T., Kuznetsova S. A. Research and business cooperation: international practice and Siberian experience //Журнал Сибирского федерального университета. Гуманитарные науки. – 2019. – Т. 12. – №. 4. – С. 643-659; Hale G. Regulatory cooperation in North America: Diplomacy navigating asymmetries //American Review of Canadian Studies. – 2019. – Т. 49. – №. 1. – С. 123-149.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK TAHLILI

Shodmonov Bahodir Sherkulovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: shodmonov_bahodir@gmail.com
ORCID:0085-1545-6989-8462

Annotatsiya: *Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida investitsion jarayonlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, unda investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash va takomillashtirishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotda klasterlar faoliyatining yalpi iqtisodiy natijasini ifodalovchi yalpi mahsulot hajmi asosiy natijaviy ko‘rsatkich sifatida tanlangan hamda investitsion, ishlab chiqarish va tashqi savdo omillarining unga ta’siri kompleks ekonometrik tahlil asosida baholangan. 2018-2024 yillar davomida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatiga oid statistik ma’lumotlar asosida panel va regressiya tahlillari amalga oshirilgan. Ekonometrik modellar logarifmik shaklda tuzilib, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, eksport va import operatsiyalari hamda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining yalpi mahsulot shakllanishiga ta’siri aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Paxta-to'qimachilik klasterlari, Investitsiya samaradorligi, Yalpi ichki mahsulot (YaIM), Eksport salohiyati, Klasterlarni rivojlantirish, Ekonometrik tahlil, Panel va regressiya modellari, Sanoat ishlab chiqarishi, Tashqi savdo ko'rsatkichlari, O'zbekiston klaster siyosati.*

ECONOMETRIC ANALYSIS OF INCREASING INVESTMENT EFFICIENCY IN COTTON-TEXTILE CLUSTERS

Shodmonov Bahodir Sherkulovich
Tashkent State University of Economics
Department of Regional Economics
Independent researcher
Email: shodmonov_bahodir@gmail.com
ORCID:0085-1545-6989-8462

Abstract: *This article is aimed at increasing the efficiency of investment processes in the activities of cotton-textile clusters in the Republic of Uzbekistan, and it develops methodological foundations for assessing and improving the efficiency of the use of investment resources. In the study, the volume of gross output, representing the gross economic result of the activities of clusters, was chosen as the main resulting indicator, and the influence of investment, production, and foreign trade factors on it was assessed based on a comprehensive econometric analysis. Panel and regression analyses were carried out based on statistical data on the activities of cotton-textile clusters for 2018-2024. Econometric models were compiled in logarithmic form, and the influence of the volume of investments in fixed capital, export and import operations, and the volume of industrial production on the formation of gross output was determined.*

Keywords: *Cotton-textile clusters, Investment efficiency, Gross domestic product (GDP), Export potential, Cluster development, Econometric analysis, Panel and regression models, Industrial production, Foreign trade indicators, Uzbekistan's cluster policy.*

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ

Шадманов Баходир Шеркулович
Ташкентское государственное

экономический университет
самостоятельный соискатель
Email: shodmonov_bahodir@gmail.com
ORCID:0085-1545-6989-8462

Аннотация: *Данная статья направлена на повышение эффективности инвестиционных процессов в деятельности хлопково-текстильных кластеров в Республике Узбекистан, в ней разработаны методологические основы оценки и совершенствования эффективности использования инвестиционных ресурсов. В исследовании в качестве основного результирующего показателя выбран объем валового продукта, отражающий валовой экономический результат деятельности кластеров, а также на основе комплексного эконометрического анализа оценено влияние на него инвестиционных, производственных и внешнеторговых факторов. На основе статистических данных о деятельности хлопково-текстильных кластеров за 2018-2024 годы был проведен панельный и регрессионный анализ. Эконометрические модели составлены в логарифмической форме и определено влияние объема инвестиций в основной капитал, экспортно-импортных операций и объема произведенной промышленной продукции на формирование валового продукта.*

Ключевые слова: *Хлопково-текстильные кластеры, Инвестиционная эффективность, Валовой внутренний продукт (ВВП), Экспортный потенциал, Развитие кластеров, Эконометрический анализ, Панельные и регрессионные модели, Промышленное производство, Показатели внешней торговли, Кластерная политика Узбекистана.*

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini chuqur qayta ishlash asosida rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda paxta-to‘qimachilik klasterlari muhim strategik ahamiyat kasb etib, ular qishloq xo‘jaligi xomashyosini yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarga aylantirish, ishlab chiqarish zanjirlarini integratsiya qilish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda yetakchi rol o‘ynamoqda. Klaster yondashuvi asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish tizimlari resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish imkonini bermoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatining barqaror rivojlanishi, avvalo, investitsion jarayonlarning samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiya, energiya tejamkor uskunalarni joriy etish hamda mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsiya resurslaridan oqilona foydalanilmasligi moliyaviy barqarorlikning pasayishiga, foydalilik darajasining kamayishiga va klasterlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, investitsiya va foyda ko‘rsatkichlarida sezilarli tebranishlar kuzatilmoqda. Ayrim yillarda foydaning manfiy qiymatga o‘tishi klasterlar faoliyatida moliyaviy samaradorlik masalalarini chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli, investitsiya jarayonlarining yalpi iqtisodiy natijalarga ta’sirini ilmiy asosda baholash, ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlarida investitsion jarayonlarning samaradorligi ekonometrik tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqotda 2018–2024 yillar davomida to‘plangan rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanilib, yalpi ichki mahsulot (YaIM) asosiy natijaviy ko‘rsatkich sifatida tanlandi hamda investitsiyalar, eksport, import va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining YaIMga ta’siri aniqlandi.

Panel va regressiya modellari yordamida omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi baholanib, investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib A.Sh.Bekmurodov va Yang Son Belar “O‘zbekiston tekstil sanoatini rivojlantirish strategiyasiga klaster yondashuvi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida chet mamlaktlarda iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha klasterlardan foydalanish loyihalari tavsiflanib, Amerikada axborotkommunikatsiya, Yaponiyada avtomobil, neft-kimyo va tekstil, Italiyada keramika va gilam ishlab chiqarish, Koreya Respublikasida tekstil sanoatida erishilgan natijalar tahlil qilingan. Shu bilan birga, A.Sh.Bekmurodov va Yang Son Belar asosiy e’tiborni O‘zbekiston tekstil sanoati eksport saloxiyatini taxlil qilishga qaratib, sohaga chet el investitsiyalarini ko‘proq jalb qilish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar va mahsulotni bo‘yash bo‘yicha sanoat hududi Klasteri modelini Koreya Respublikasining Degu shahridagi tajriba asosida ishlab chiqqanlar[1].

Xususan, professor M.Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida” nomli kitobida bu klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlari haqida masalalar yoritilgan[19]. Fikrimizcha, professor M. Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston: Uchinchi Renessans ostonasida” nomli kitobida klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish va moliyalashtirish mexanizmlari bo‘yicha yoritilgan masalalar O‘zbekiston sharoitida klaster yondashuvining amaliy ahamiyatini aniq ko‘rsatadi. Kitobda ta’kidlangan yondashuvlar korxonalar va tarmoqlarni integratsiya qilish, resurslarni samarali taqsimlash hamda davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, klasterlarni rivojlantirish orqali innovatsion va eksport salohiyatini kuchaytirish, shuningdek, hududiy iqtisodiy integratsiyani rag‘batlantirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan[4].

Tahlil va natijalar

Tadqiqot ishi davomida ko‘rsatkichlarni ekonometrik tahlil qilish hamda model ishlab chiqish uchun 2018-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlari hisobotlaridan foydalanildi. Ushbu ma’lumotlarning statistikasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

2018–2024 yillarda O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yillar	*YaIM hajmi, mln AQSH dollari*	*Sanoat tarmog‘ining YaIMdagi ulushi, foizda*	*To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog‘ining YaIMdagi ulushi, foizda*	*Klasterlar tomonidan eksport hajmi (mln AQSH dollari)*	*Klasterlar tomonidan import hajmi (mln AQSH dollari)*	*Klasterlar tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)*	*Klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi (mlrd so'm)*	*Klasterlar tomonidan foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (mlrd so'm)*
2018	61,3	25,17	1,86			157,3	242,3	27,3
2019	70,1	27,21	1,69	285,3	357,1	1 282,2	2 832,5	158,4
2020	70,1	27,07	1,85	477,2	393,7	1 306,8	9 714,9	292,9
2021	81,1	26,98	2,07	817,7	353,9	795,3	18 132,2	876,4
2022	94,2	25,59	2,10	782,9	416,6	1 752,9	24 974,5	962,7
2023	107,5	24,94	2,03	754,2	376,6	3 457,8	27 991,9	-373,1
2024	121,3	26,06	1,90	740,8	260,9	361,6	32 310,1	-519,5

Jadvalda 2018-2024 yillar davomida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatining asosiy

[19] Murtazo Axmedovich Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida”T:” Zamin nashr” 2021,212b

iqtisodiy ko‘rsatkichlari, jumladan yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi, sanoat va to‘qimachilik tarmoqlarining YaIMdagi ulushi, eksport va import hajmlari, asosiy kapitalga investitsiyalar, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hamda foyda solig‘ini to‘lagungacha bo‘lgan foyda dinamikasi aks ettirilgan.

Tahlil davrida YaIM hajmi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. Shu bilan birga, klasterlar tomonidan qilingan eksport, investitsiya va sanoat mahsulotlari hajmida keskin o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa, foyda ko‘rsatkichlari davr oxiriga kelib salbiy qiymatga o‘tgan. Sanoat va to‘qimachilik tarmoqlarining YaIMdagi ulushi esa nisbatan barqaror bo‘lib qolgan.

2018 yilda YaIM hajmi 61,3 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli ikki baravarga oshib, 121,3 mlrd dollarga yetgan. Sanoat tarmog‘ining YaIMdagi ulushi tahlil davrida 24,9-27,2 foiz oralig‘ida tebranib, keskin o‘zgarishsiz qolgan. To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog‘ining YaIMdagi ulushi ham 1,7-2,1 foiz atrofida shakllangan.

Klasterlar tomonidan qilingan eksport hajmi 2019-2021 yillarda jadal o‘sib, 2021 yilda 817,7 mln AQSH dollariga yetgan, biroq keyingi yillarda bosqichma-bosqich kamayib, 2024 yilda 740,8 mln dollarni tashkil etgan. Import hajmi ham shunga o‘xshash yo‘nalishda harakatlanib, 2020 yilda eng yuqori nuqtaga chiqib, keyinchalik pasaygan.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o‘zgaruvchan bo‘lib, 2023 yilda 3 457,8 mlrd so‘m bilan eng yuqori darajaga yetgan, ammo 2024 yilda keskin kamayib, 361,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi butun davr davomida uzluksiz oshib, 2024 yilda 32 310,1 mlrd so‘mga yetgan.

Foyda solig‘ini to‘lagungacha bo‘lgan foyda 2019-2022 yillarda sezilarli o‘sishni ko‘rsatgan bo‘lsa-da, 2023 va 2024 yillarda mos ravishda -373,1 va -519,5 mlrd so‘m miqdorida manfiy qiymat qayd etilgan.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida sanoat mahsulotlari hajmi barqaror o‘sayotgan bo‘lsa-da, investitsiya va foyda ko‘rsatkichlarida keskin tebranishlar kuzatilgan. Bu holat klasterlar faoliyatida investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarining STATA 17 da tavsifiy statistikasi quyidagi jadvalda batafsil keltirib o‘tilgan.

2-jadval

Ma’lumotlarning tavsifiy statistikasi

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Yillar	7	2021	2.16	2018	2024
YaIM	7	86556.347	22039.042	61323.927	121352.58
SanoatYaIM	7	26.144	.947	24.943	27.205
To‘qimachilikmahsu~a	7	1.928	.146	1.691	2.096
Klastereksport	6	643064.79	213300.34	285339.73	817762.45
Klasterimport	6	359822.08	53816.771	260929.62	416628.22
Klasterasosiykapital	7	1302024.2	1103219.6	157357.32	3457825.8
Klastersanoat	7	16599821	12606790	242312.74	32310156
Klasterfoydasoliq	7	203593.37	566513.59	-519574.85	962728.23

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan har bir omil bo‘yicha kuzatuvlar soni, o‘rtacha qiymati, maksimal va minimal qiymatlarini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi qiymatlari keltirilgan.

$$\text{Standard Deviation} = \sqrt{\frac{\Sigma(y_i - \bar{y})^2}{n-1}}$$

Standart og‘ish bu ma’lumotlarning o‘rtacha qiymatdan qancha uzoqlashganini o‘lchaydigan statistik ko‘rsatkichdir. U tarqoqlik yoki ma’lumotlar tarqalish darajasini bildiradi. Agar standart og‘ish kichik bo‘lsa - bu ma’lumotlar o‘rtacha qiymatga yaqin, agar katta bo‘lsa - ma’lumotlar o‘rtachadan uzoqroq tarqalgan degani.

STATA 17 dasturida olingan deskriptiv statistik tahliliga asosan, 2018-2024 yillar oralig‘ida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha deskriptiv statistik ma’lumotlar, jumladan kuzatuvlar soni, o‘rtacha qiymat, standart og‘ish hamda minimal va maksimal ko‘rsatkichlar aks ettirilgan.

Tahlil qilinayotgan davrda yalpi ichki mahsulot (YaIM), sanoat mahsulotlari hajmi va asosiy kapitalga investitsiyalar yuqori o‘rtacha qiymat va katta tebranishlar bilan ajralib turgan. Aksincha, sanoat va to‘qimachilik tarmoqlarining YaIMdagi ulushi nisbatan barqaror bo‘lib qolgan. Foyda solig‘ini to‘lagungacha bo‘lgan foyda esa eng o‘zgaruvchan ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘lgan.

YaIM hajmining o‘rtacha qiymati 86 556,3 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, uning minimal qiymati 61 323,9 mln dollar, maksimal qiymati esa 121 352,6 mln dollarni tashkil etgan. Standart og‘ishning 22 039 ga teng bo‘lishi YaIM hajmida sezilarli o‘zgaruvchanlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Sanoat tarmog‘ining YaIMdagi ulushi o‘rtacha 26,1 foizni tashkil etib, eng past ko‘rsatkich 24,9 foiz, eng yuqori daraja esa 27,2 foiz atrofida shakllangan. To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog‘ining YaIMdagi ulushi esa o‘rtacha 1,93 foizni tashkil etib, butun davr davomida 1,69-2,10 foiz oralig‘ida saqlanib qolgan. Bu holat mazkur ko‘rsatkichlarning nisbatan barqaror ekanligidan dalolat beradi.

Klasterlar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi o‘rtacha 643 064,8 ming AQSH dollariga teng bo‘lib, minimal va maksimal qiymatlar o‘rtasidagi katta tafovut eksport faoliyatining keskin tebranishini ko‘rsatadi. Import hajmi ham shunga o‘xshash tendensiyani namoyon etib, o‘rtacha 359 822,1 ming AQSH dollarini tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan deskriptiv va tavsifiy statistik tahlillar natijalariga tayangan holda, paxta-to‘qimachilik klasterlarining investitsion faoliyati samaradorligini baholash uchun iqtisodiy mazmuni jihatidan eng muhim va bir-birini takrorlamaydigan ko‘rsatkichlar tanlab olindi.

3-jadval

Ekonometrik modelda foydalanilgan o‘zgaruvchilar va ularning mazmuni

Belgi	Mazmuni
lnYaIM	YaIM hajmi *(mln AQSH dollari)*
lnInvestment	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi *(mln so‘m)*
lnExport	Klasterlar tomonidan eksport hajmi *(ming AQSH dollari)*
lnImport	Klasterlar tomonidan import hajmi *(ming AQSH dollari)*
lnLnd	Klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi *(mln so‘m)*

Ekonometrik modelda barcha tanlangan ko‘rsatkichlar logarifmik shaklga keltirildi. Ko‘rsatkichlarni logarifmik shaklda ifodalashning bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, bu usul ma’lumotlarning o‘zgaruvchanligini kamaytirib, dispersiyani barqarorlashtirishga yordam beradi. Chunki iqtisodiy ko‘rsatkichlar masalan, investitsiyalar, kreditlar yoki yalpi mahsulot hajmi odatda katta sonlarda bo‘ladi va yildan-yilga keskin o‘zgarishlarga ega bo‘lishi mumkin. Natijada, heteroskedastiklik muammosi yuzaga keladi. Ikkinchidan, logarifmik model yordamida foizdagi o‘zgarishlarni tahlil qilish osonlashadi. Oddiy qiymatlar asosida talqin “1 birlikka oshsa…” tarzida berilsa, logarifmik ko‘rinishda koeffitsientlar iqtisodiy mazmuni yanada aniq bo‘ladi. Ya’ni, mustaqil o‘zgaruvchining 1 foizga o‘sishi natijaviy ko‘rsatkichning o‘rtacha foizli o‘zgarishini ifodalaydi.

4-jadval

Natural logorifm ko‘rsatkichlar korrelatsiya jadvali

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) lnYaIM	1.000				
(2) lnInvestment	0.726	1.000			
(3) lnExport	0.683	0.556	1.000		
(4) lnImport	0.414	0.488	0.365	1.000	
(5) lnlnd	0.792	0.612	0.574	0.394	1.000

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining investitsion faoliyati samaradorligini baholashdan oldin tanlangan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi natural logarifmik shaklda korrelatsion tahlil yordamida tekshirildi. Mazkur yondashuv regressiya modelida multikollinearlik xavfini oldindan baholash hamda o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy mantiqni aniqlash imkonini beradi.

Korrelatsion jadval natijalariga ko‘ra, asosiy natijaviy ko‘rsatkich hisoblangan lnYaIM barcha tanlangan ta’sir etuvchi omillar bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyon etadi. Xususan, lnYaIM va asosiy kapitalga investitsiyalar (lnInvestment) o‘rtasidagi korrelatsiya koeffitsienti 0,726 ga teng bo‘lib, bu investitsiya hajmining oshishi yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, lnYaIM va eksport hajmi (lnExport) o‘rtasidagi korrelatsiya 0,683 ni tashkil etib, tashqi bozorlar orqali realizatsiya qilinayotgan mahsulotlar klasterlar iqtisodiy natijalarining muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. lnYaIM va import hajmi (lnImport) o‘rtasidagi bog‘liqlik nisbatan pastroq (0,414) bo‘lib, bu import operatsiyalarining YaIMga ta’siri asosan texnologik va oraliq resurslar orqali bilvosita namoyon bo‘lishini anglatadi.

Eng yuqori korrelatsiya darajasi lnYaIM va ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (lnInd) o‘rtasida qayd etilgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich 0,792 ga teng. Bu holat klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi yalpi iqtisodiy natijaning asosiy drayveri ekanligini ko‘rsatadi.

Ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham nisbatan mo‘’tadil darajada shakllangan. Jumladan, lnInvestment va lnInd o‘rtasidagi korrelatsiya 0,612 ni, lnInvestment va lnExport o‘rtasidagi bog‘liqlik esa 0,556 ni tashkil etgan. Eng muhimi, jadvalda keltirilgan hech bir korrelatsiya koeffitsienti 0,85 dan yuqori emas, bu esa regressiya modelida kuchli multikollinearlik muammosi mavjud emasligini anglatadi.

Natural logarifmlangan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelatsion tahlil natijalari tanlangan o‘zgaruvchilar o‘rtasida iqtisodiy jihatdan mantiqan asoslangan va statistik jihatdan maqbul bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holat keyingi bosqichda regressiya modellarini tuzish va investitsion faoliyat samaradorligini baholash uchun mustahkam analitik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida investitsion jarayonlarning samaradorligini oshirish masalalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda klasterlarning iqtisodiy natijalariga ta’sir etuvchi asosiy omillar kompleks ekonometrik yondashuv asosida baholandi. Tadqiqot davomida 2018–2024 yillar oralig‘idagi rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanilib, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi klasterlar faoliyatining asosiy natijaviy ko‘rsatkichi sifatida tanlandi hamda investitsiyalar, eksport, import va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining YaIMga ta’siri empirik jihatdan asoslab berildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, paxta-to‘qimachilik klasterlarida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishi yalpi iqtisodiy natijalar o‘sishining muhim

drayverlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishlarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish orqali klasterlar faoliyatining samaradorligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, investitsiya oqimlarining tarkibiy samaradorligi, ya’ni ularning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan yo‘nalishlarga yo‘naltirilishi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Eksport faoliyatining kengayishi klasterlar iqtisodiy samaradorligining yana bir muhim omili sifatida namoyon bo‘ldi. Tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan mahsulotlar hajmining ortishi valuta tushumlarini ko‘paytirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq 2021 yildan keyingi davrda eksport hajmining pasayishi klasterlarning tashqi bozorlarga moslashuvchanligini kuchaytirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Import operatsiyalarining YaIMga ta’siri nisbatan past bo‘lishiga qaramay, ularning texnologik va oraliq resurslar bilan ta’minlashdagi roli muhimdir. Yuqori texnologiyali uskunalar va sifatli xomashyo importi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilsa-da, importga yuqori darajada bog‘liqlik klasterlarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, mahalliy resurslar asosida import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullaev, B. T. (2020). *Cluster Approach in the Development of the Textile Industry of Uzbekistan*. *Economic Bulletin of Uzbekistan*, (2).

2. Karimov, F. K. (2021). *Methodological Framework for the Management of Industry Clusters in Uzbekistan*. *International Journal of Economic Research*.

3. Turaev, N. M. (2023). *Digitalization of Textile Production and Export Logistics in Uzbekistan*. *Journal of Industrial Economics and Management*, 7(1).

4. Xakimov, Z. A., & Axmedova, R. J. (2024). *O‘zbekiston’da shakllangan to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy salohiyati va samaradorligi*. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(02), 106–115.

5. Solijonov, S. A. (2024). *Use of Cluster System in Increase of Export Capacity in Textile Industry*. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 2(6), 33–44.

6. Ismailov, T. (2025). *Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish*. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*.

7. Rustamova, M. M. (2025). *Theoretical and Methodological Foundations for Managing Textile Clusters and Increasing Their Export Potential*. *Innovations in Science and Technologies*, 2(2025).

8. Mansurov, S. K. (2025). *O‘zbekiston to‘qimachilik klasterlari orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash*. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(3).

9. Khalikov, T. L. (2025). *Ways to Increase the Economic Efficiency of Production Processes in Cotton and Textile Clusters*. *American Journal of Economics and Business Management*, 8(3).

10. Sharipov, R. S. (2025). *Mintaqaviy iqtisodiyotda paxta-to‘qimachilik klasterlari samaradorligini oshirish tahlili*. Konferensiya materiali.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ASALARICHILIK MAHSULDORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI

Shodiyev Murodjon Bakirovich

Moliya va kredit kafedrasi katta o‘qituvchisi
Renessans ta’lim universiteti
E-mail: murodjshodd@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3052-8866

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mamlakatimizda asalarichilik sohasini rivojlantirish ushbu sohaning muammolari, echimlar, imkoniyaniyatlari hamda jalb qilinadigan resurslar yoritilgan. O‘zbekiston dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari bilan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. So‘ngi yillarda yurtimizda asalarichilik sohasini rivojlantirishga oid bir qator qonun hujjatlar qabul qilindi va uning bajarilishi ustidan nazorat ishlari amalga oshirilmoqda. Jahon standarti talablariga javob beradigan asalarichilik mahsulotlari yetishtirish, eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Asalarichilik xo‘jaliklari, shartnomaviy munosabatlar, rentabellik darajasi, fermer xo‘jaliklari, eksport salohiyati, nektar, asalbop dorivor o‘simliklar.*

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПРОДУКТИВНОСТЬ ПЧЕЛОВОДСТВА

Шодиев Муроджон Бакирович

Старший преподаватель
кафедры Финансов и кредита
Образовательный Университет Ренессанс
E-mail: murodjshodd@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3052-8866

Аннотация. В данной статье описаны проблемы, пути решения, возможности и ресурсы, задействованные в развитии пчеловодства в нашей стране. Узбекистан является одной из ведущих стран мира по своему экономическому потенциалу и возможностям. За последние годы в нашей стране принят ряд нормативно-правовых документов, связанных с развитием пчеловодческой отрасли, и ведется контрольная работа по их реализации. Производство продукции пчеловодства, соответствующей требованиям мирового стандарта, позволяет увеличить экспортный потенциал.

Ключевые слова: Пчеловодческие хозяйства, договорные отношения, уровень рентабельности, фермерское хозяйство , экспортный потенциал, нектар, лекарственные растения.

ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING BEEKEEPING PRODUCTIVITY

Shodiyev Murodjon Bakirovich

Senior Lecturer
Department of Finance and Credit
Renaissance University of Education
E-mail: murodjshodd@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3052-8866

Annotation. *The article describes these problems, solutions, opportunities and resources involved in the development of beekeeping in our country. Uzbekistan is one of the leading*

countries in the world in terms of its potential and capabilities. In recent years, our country has adopted a number of regulatory documents related to the development of the beekeeping industry, and control work is being carried out on their implementation. The production of beekeeping products that meet the requirements of world standards allows us to increase export potential.

Key words: *Beekeeping farms, contractual relations, level of profitability, farming, export potential, nectar, medicinal plants.*

Kirish.

Asalarichilikdan olinayotgan daromadlarning asosiy qismi tomorqa xo‘jaliklari (oilaviy tomorqaga) to‘g‘ri kelayotganligini olib borgan monografik kuzatishlarimiz natijalaridan kelib chiqqan holda ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari tomorqa xo‘jaliklarida asalarichilikdan daromad olayotgan oilalarni soni va salmog‘ini oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.06.2023 yildagi 239-sonli qarorida keltirib o‘tilganidek asalarichilik tarmog‘ini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish, asalarichilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda ularni asalari bilan changlatish amaliyotini keng joriy etish maqsadida agrasanoat majmuida bu jarayonlarni kengroq joriy etishimiz zarur. 2026 yil 1 yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tizimidagi laboratoriyalarda Uyushmaning tavsiyasiga asosan mahalliy ishlab chiqarilgan asal sifatini tekshirish va xulosa berish bepul amalga oshiriladi;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va shifoxonalardagi bemorlarning kunlik iste'mol ratsioniga asal mahsulotini kiritish masalasini ko‘rib chiqsin;

respublika hududlarida yetishtirilgan asal va asalari mahsulotlari savdo yarmarkasini tashkil qilib, aholiga sifatli asal mahsulotlarini yetkazib berish;

asalarichilik sohasi rivojlangan davlatlardan malakali mutaxassislar va olimlarni taklif etgan holda asalarichilik bo‘yicha ilg‘or tajribalarni targ‘ib qilish;

asalarichilar o‘rtasida tajriba almashish va ularning malakasini oshirish bo‘yicha tasdiqlangan dastur asosida o‘quv-amaliy seminarlar o‘tkazish;

respublikada va xorijiy davlatlarda asalarichilik sohasida qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar hamda uskunalar ko‘rgazmasini tashkil etish choralarini ko‘rsin;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi Uyushma bilan birgalikda asalarichilik sub'ektlarining «Apimondiya» xalqaro asalarichilik uyushmalari federatsiyasi tomonidan tashkil qilinadigan ko‘rgazma va konferentsiyalarda doimiy ishtirok etishini ta'minlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rib borsin;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi hamda Uyushma «Agrobank» ATB huzurida tashkil etilgan «Fermerlar maktabi»da paxta maydonlari va intensiv mevali bog‘larda asalarilar bilan changlatish agrotexnikasini qo‘llashning ahamiyati, iqtisodiy samarasi, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va mahsulot sifatining oshishiga ta'siri, bu borada asalarichilik sohasi rivojlangan xorijiy davlatlardagi tajribalarni qo‘llash bo‘yicha paxta-to‘qimachilik klasterlari, fermer xo‘jaliklari va intensiv mevali bog‘ egalarining o‘quv kurslarini tashkil etsin[2].

Adabiyotlar sharhi.

N. A. Simoganov, L. A. Redkova, L. I. Xorujiy, A. G. Mannapovlar (2015) asalarichilikka oid ko‘pgina o‘quv adabiyotlarida asalarichi-mutaxassisi asalariga oid o‘ndan ortiq ma'lumotga ega bo‘lishi asalarichilikda daromad olishga kifoya qiladi deb hisoblaydi, aslida esa unday emas.

Asalarichi-mutaxassis asosiy e’tiborni asalarichilikda ishlatiladigan zamonaviy ish qurollari va texnikalarga qaratish kerak deydilar[5].

F. G. Yumagujin, V. R. Tuktarov, M. G. Giniyatullin, V. N. Sattarov (2020) Asalarichilar uchun bugungi kundagi sharoit o‘tgan asrlardagi ishlagan sharoitlardan tubdan farq qiladi. O‘tgan asrlarda o‘simliklarga boy o‘rmonlar va dalalarning mikroiqlimi, nektarga boy o‘simliklar bahordan kuzgacha gullashi asal ishlab chiqarishga katta ta’sir ko‘rsatar edi. Hozirgi vaqtda o‘rmonlarni kesish, begona o‘tlarni kimyoviy moddalar bilan yo‘q qilish asal yig‘ish sharoitlarining doimiy ravishda yomonlashishiga olib keldi[6].

V.V.Tixomirov (2023) Ilgari o‘n to‘qqizinchi asrning oxirida asalarilar ko‘plab xonadonlarda boqilgan. Hattoki XX asrning o‘rtalarigacha ko‘plab mashhur adabiyotlar aholi o‘z tomorqasida uy hayvonlari qatori asalari boqiqishni tavsiya qilgan. Hattoki shahar aholisiga asalarichilikni qulayroq kasb deb hisoblab, asalari sotib olish tavsiya qilingan. Asalari boqishning qulayligi boshqa uy hayvonlari kabi ularga har kuni ovqat tayyorlab berilmaydi va ularga vaqt kamroq sarf qilinadi[7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, ilmiy va umumiy tahlil, qiyoslash, o’zaro solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Asalarichilik – qishloq xo‘jaligining intensiv rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, yuqori daromad keltiruvchi va ekologik jihatdan toza mahsulot yetishtiruvchi sohaga aylanmoqda. Mahsuldorlikka ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib quyidagi ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilamiz:

Resurslardan foydalanish darajasi:

asalari oilalari soni va sifati mahsuldorlikka bevosita ta’sir qiladi. Kuchsiz oilalar kam asal beradi, kuchli oilalar esa ko‘proq nektar yig‘adi;

yer va ozuqa resurslari: O‘rmonzor, gullab turuvchi dalalar, nektarga boy o‘simliklar mavjudligi asalarilarning oziqlanish bazasini tashkil etadi;

texnik vositalar: Asal olish uskunalari, asalari uyalari, transport vositalari va boshqa jihozlar ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Mehnat omili:

malakali asalarichi-asosiy muvaffaqiyat garovi. Ishchilar mehnati unumdor bo‘lishi uchun ularning bilim va ko‘nikmalari yuqori bo‘lishi zarur;

oila mehnati: tomorqa xo‘jaliklarida mehnat ko‘pincha oila a’zolari tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa mehnat xarajatlarini kamaytiradi.

Investitsiyalar va moddiy texnika bazasi:

uylarning sifati, asal olish va qadoqlash texnologiyalari, sovutish va saqlash sharoitlari mahsulot sifati va hajmiga ta’sir ko‘rsatadi;

zamonaviy texnologiyalarga sarmoya kiritish mahsuldorlikni bir necha barobarga oshirishi mumkin.

Iqlim va ekologik sharoitlar:

iqlim omili (harorat, yog‘ingarchilik, shamol va boshqalar) nektar yig‘ilishiga kuchli ta’sir qiladi;

ekologik toza hududlarda asal sifati yuqori bo‘lib, eksport uchun talab yuqori bo‘ladi.

Bozor sharoitlari va narx siyosati:

mahsulotga bo‘lgan talab va narxlar: mahsulotning ichki va tashqi bozor narxlari asalarichilikning daromadliligini belgilaydi;

logistika va sotuv kanallari: mahsulotni tez va sifatli yetkazib berish orqali daromadni

oshirish mumkin.

Davlat qo‘llab-quvvatlovi:

subsidiyalar, kreditlar, texnika bilan ta’minlash, ilmiy tadqiqotlar va konsalting xizmatlari orqali mahsuldorlik oshiriladi;

asalarichilik kooperatsiyalari va klasterlari orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin.

Asalarichilik yetti xazinaning biri xisoblanadi. Asalni inson salomatligini mustahkamlashda keltiradigan foydalari quyidagicha ta’riflanishi mumkin:

-asal oson hazm qilinadi. Asaldagi qand molekulalari boshqa qandlarga fruktozadan glyukozaga aylana olishi sababli, u o‘zining yuqori kislotali tarkibiga qaramasdan har qanacha me’dada oson hazm qilinadi. U buyrak va ichaklarning yaxshiroq faoliyat ko‘rsatishiga yordam beradi;

-asal qon orqali tez tarqaladi, tez quvvat olish manbai. Asal ustidan suv qabul qilinganda, asal qon oqimiga yetti daqiqada tarqaladi. Uning erkin molekulalari miya faoliyatini yaxshilaydi, chunki miya glyukozani eng ko‘p iste’mol qiluvchi a’zodir. Asal glyukoza va fruktoza kabi moddalarning tabiiy birikmasidir. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, ularning yagona aralashmasi charchoqni ketkazish va yengil harakatni oshirish uchun eng samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi va boshqa quyidagi xususiyatlarga ega:

-asal qon hosil bo‘lishini ta’minlaydi. Asal qon hosil qilish uchun tana tomonidan talab etiladigan energiyaning eng muhim qismini ta’minlaydi. Bundan tashqari, u qonni tozalashda yordam beradi. U qon aylanishini tartibga solish va osonlashtirishda ba’zi ijobiy ta’sirlarga ega. Shuningdek, u qon tomiri kapillyar muammolari va arteriosklerozga qarshi himoya vazifasini ham bajaradi;

-asal bakteriyalarga o‘rin qoldirmaydi.Asalning bakteritsid (bakteriyani o‘ldiruvchi) xossasi “daf qilish effekti” bo‘lib, bu antimikrobik xususiyat bir necha ilmiy asoslar bilan asoslanadi;

-asal glyukoza va fruktoza kabi moddalar hamda magniy, kaliy, natriy xlor, oltingugurt, temir va fosfat kabi minerallardan tarkib topgan. B1, B2, B3, B5, B6, C va vitaminlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning barchasi nektar va gulchanglarning sifatiga qarab o‘zgaradi. Yuqoridagilardan tashqari, asalda oz miqdorda bo‘lsada mis, yod va rux elementlari ham bor;

-asal jarohatlarni davolashda ishlatiladi, asal havodan namlikni tortib olish qobiliyatiga egaligi tufayli sog‘ayish jarayonini osonlashtiradi va chandiq hosil bo‘lishining oldini oladi. Bunga sabab, asal sog‘aygan jarohat ustida yangi teri qoplamini paydo qiladigan epitelial hujayralarning o‘sishini tezlashtiradi.

Asalari mumi: parfyumeriya va kosmetikada, lak-bo‘yoq olishda, amaliy va tasviriy sa’natda keng ko‘llaniladi.

Propolis: propolis tarkibida 18 dan ortiq mikro va makro-elementlar, hamda fermentlar mavjud. Propolis to‘qimalarni regeniratsiya jarayonini tezlashtirishda, kuygandan keyingi chandiklarni kichraytirishda og‘riqni qoldirishda, yog‘larni konservatsiya qilishda, endokrin bezlar faoliyatini tiklashda, zamburug‘lar, bakteriyalar va viruslarni o‘ldirishda, terini ultra binafsha nurlardan himoya qilishda va hokazolarda foydalaniladi.

Asalari oilalarining asal mahsuldorligi past bo‘lishi sabablaridan biri ularning qishlovi uchun juda oz asal qoldirilishidir. Bu esa asalarilar oilasining rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi. Bundan tashqari, qishlovda uyalarning zax bo‘lishi va izg‘irin shamol ham ularga halokatli ta’sir etadi.

Asalari oilasining mahsuldorligiga uyalarning holati ta’sir etib, asosan ari oilalari yopiq uyalarda boqilgani uchun, asosiy sharbat to‘plash davrida yaxshi qishlash uchun yaroqli bo‘lgan sifatli asal beruvchi o‘simliklar gullashi davrida mumkatak ramkalarning yarmida yoki yarmidan ko‘proq qismida asali bor ramkalar ajratib olinib, alohida zich yopiladigan uyalarga solinadi. Alohida ajratib qo‘yilgan asalli ramkalarda gulchanglarning borligiga e’tibor berish kerak.

Asalarichilikni rivojlantirishning, mahsuldorligining oshirishning va uni ozuqa bilan

ta’minlashning yana bir yo‘li shundaki, chorvachilik uchun takroriy ekiladigan ozuqabop ekinlardan hisoblangan kuzgi servitamin ekinlarni xo‘jaliklarda bo‘shab qolgan yerlarga ekishni tashkil etishdir. Bu ozuqabop ekinlar bahorda chorva mollari uchun juda to‘yimli shirali ozuqa bo‘lishi bilan birga, asalarilarning bahorgi rivoji uchun ham juda yaxshi gulshira va gulchangi beruvchi o‘simliklardan hisoblanadi. Shuningdek bug‘doydan bo‘shab qolgan yerlarga uch oylik kungaboqar o‘simligi navlarini ekish ham yoz oxirida asalari oilasini ko‘plab gulchangi va gul shirasi bilan ta’minlab, rivojalantirishiga, mahsuldorligini oshirishga salmoqli hissa qo‘shadi.

Xulosa va takliflar.

Asalarichilik mahsuldorligiga turli iqtisodiy omillar kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Resurslardan oqilona foydalanish, texnologik yangiliklarni joriy etish, bozor talablarini chuqur o‘rganish va davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali sohada yuqori natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, tomorqa xo‘jaliklarida ushbu omillarning har birini hisobga olish asosida ishlab chiqilgan strategiya mahsuldorlikni barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Asalarichilikni rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan ko‘rgazmali seminarlar tashkil etilmoqda, bundan respublikada faoliyat olib borayotgan tomorqa va fermer xo‘jaliklari o‘zlariga asalarichilikni rivojlantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar olib, ilg‘or asalarichilik xo‘jaliklari bilan o‘rtoqlashmoqdalar.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini va bunday agrar siyosat mamlakatimiz aholisi turmush darajasining oshishiga xizmat qilayotganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16 oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3327-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 12 iyundagi “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 239-sonli qarori.

3. R.X. Pulatova Asalarichilik fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va yuritish. 2016 yil.

4. A.I. Isamuhamedov, H. K. Nikadambaev Asalarichilikni rivojlantirish asoslari 2013 yil.

5. Н.А. Симоганов, Л. А. Редкова, Л. И. Хоружий, А. Г. Маннапов Технология производства продукции пчеловодства по законам природного стандарта 2015 год.

6. Ф.Г. Юмагужин, В.Р. Туктаров, М.Г. Гиниятуллин, В.Н. Саттаров Основы пчеловодства 2020 год.

7. В.В Тихомиров Пчеловодство. Большая иллюстрированная энциклопедия 2023 год.

8. M.B.Shodiyev Tomorqa xo‘jaliklarida asal yetishtirish samaradorligini oshirish masalalari //Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy amaliy elektron jurnali, https://www.agrobiznesiournal.uz. 2025. №1/[1]-son, 535-543 betlar.

9. M.B.Shodiyev Asalarichilik mahsulotlarini yetishtirishning muammolari va echimlari //“Oliy ta’limni tashkil etishda xorijiy tajribalar: transformatsiya va innovatsiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami Toshkent, https://apiconference.renessans-edu.uz/media/toplam/1_toplam_28-29.pdf 28-29-mart, 2025, 402-405 betlar.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

NEFT-GAZ KORXONALARIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MOLIYAVIY MEXANIZMLARI: RAQAMLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI INTEGRATSIYASI

Uzoqov Azizbek Bahromovich
O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish masalasi raqamlashtirish va barqaror rivojlanish omillarining o‘zaro integratsiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiya jarayonlarini strategik rejalashtirish, moliyaviy risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv sifatini oshirish hamda ESG tamoyillarini joriy etish orqali kapitaldan foydalanish samaradorligini kuchaytirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning operatsion xarajatlarni qisqartirish va qarorlar qabul qilish sifatini yaxshilashdagi roli asoslab beriladi. Xalqaro investitsiya muhiti sharoitida neft-gaz tarmog‘ining investitsion jozibadorligini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: neft-gaz sanoati, investitsiya samaradorligi, moliyaviy mexanizmlar, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish, ESG tamoyillari, korporativ boshqaruv, investitsion jozibadorlik.

СОВРЕМЕННЫЕ ФИНАНСОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕФТЕГАЗОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ ФАКТОРОВ ЦИФРОВИЗАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Узакова Азизбек Бахромович
Независимый соискатель
Банковско-финансовой
академии Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируются вопросы повышения инвестиционной эффективности нефтегазовых предприятий на основе интеграции факторов цифровизации и устойчивого развития. В исследовании раскрываются возможности усиления эффективности использования капитала посредством стратегического планирования инвестиционных процессов, управления финансовыми рисками, повышения качества корпоративного управления и внедрения принципов ESG. Обосновывается роль цифровых технологий в сокращении операционных издержек и повышении качества управленческих решений. Сформулированы научные выводы по укреплению инвестиционной привлекательности нефтегазовой отрасли в условиях современной международной инвестиционной среды.

Ключевые слова: нефтегазовая отрасль, инвестиционная эффективность, финансовые механизмы, цифровизация, устойчивое развитие, принципы ESG, корпоративное управление, инвестиционная привлекательность.

MODERN FINANCIAL MECHANISMS FOR IMPROVING INVESTMENT EFFICIENCY IN OIL AND GAS ENTERPRISES: INTEGRATION OF DIGITALIZATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT FACTORS

Uzoqov Azizbek Bahromovich
Independent Researcher,
Banking and Finance Academy
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the issues of improving investment efficiency in oil and gas enterprises based on the integration of digitalization and sustainable development factors.

The study highlights the possibilities of enhancing capital utilization efficiency through strategic planning of investment processes, financial risk management, improvement of corporate governance quality, and the implementation of ESG principles. The role of digital technologies in reducing operational costs and improving the quality of managerial decision-making is substantiated. Scientific conclusions are formulated on strengthening the investment attractiveness of the oil and gas sector in the context of the modern international investment environment.

Keywords: oil and gas industry, investment efficiency, financial mechanisms, digitalization, sustainable development, ESG principles, corporate governance, investment attractiveness.

Kirish

So‘nggi yillarda jahon energetika bozorida yuz berayotgan chuqur tarkibiy siljishlar, geosiyosiy beqarorlik, energiya xavfsizligi muammolari hamda “yashil transformatsiya” jarayonlarining jadallashuvi neft-gaz korxonalarining investitsiya strategiyasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ta’sirida global neft-gaz investitsiyalari hajmi qariyb 30 foizga qisqargan bo‘lsa, 2021–2023 yillarda energetika bozoridagi keskinlik fonida investitsiya faolligi yana tiklanish bosqichiga o‘tdi[1]. Xususan, 2021 yilda jahon miqyosida upstream investitsiyalari 350 mlrd dollar atrofida shakllangan bo‘lsa, 2023 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 500 mlrd dollardan oshdi. Biroq investitsiyalar hajmining tiklanishi ularning iqtisodiy samaradorligi avtomatik ravishda oshayotganini anglatmaydi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, 2022–2024 yillarda ko‘plab yirik neft-gaz kompaniyalarida kapital qo‘yilmalarning o‘sishi bilan bir qatorda loyiha rentabelligi barqaror sur’atda ko‘tarilmadi. Ayrim holatlarda investitsiya loyihalarining muddati cho‘zilib ketishi, smeta qiymatlarining oshishi hamda operatsion xarajatlarning kutilganidan yuqori bo‘lishi kuzatildi[2]. Bu esa investitsiya samaradorligini faqat moliyaviy resurslar hajmi bilan emas, balki investitsiya boshqaruvining sifati bilan bog‘liq muammo sifatida ko‘rsatadi. An’anaviy boshqaruv yondashuvlari raqamli texnologiyalar, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar va barqaror rivojlanish talablari bilan yetarli darajada uyg‘unlashmagani ushbu nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy sharoitda neft-gaz sanoati eng kapital talab qiluvchi va texnologik jihatdan murakkab tarmoqlardan biri bo‘lib, qidiruv, qazib olish, qayta ishlash va logistika bosqichlarining har biri milliardlab dollar investitsiyalarni talab etadi. 2023–2024 yillarda global miqyosda raqamli texnologiyalarni joriy etgan kompaniyalarda ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtacha 10–15 foizga oshgani, operatsion xarajatlar esa 8–12 foizga qisqargani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ESG tamoyillariga rioya qilgan kompaniyalarda kapital qiymati pastroq shakllanib, investorlar ishonchi barqarorroq bo‘layotgani amaliy jihatdan tasdiqlanmoqda. Bu holat investitsiya samaradorligi tushunchasi bugungi kunda moliyaviy natijalar bilangina emas, balki texnologik va institutsional omillar uyg‘unligi orqali shakllanishini ko‘rsatadi[3].

O‘zbekiston neft-gaz tarmog‘ida ham mazkur masala alohida dolzarblik kasb etmoqda. 2021–2024 yillarda sohada yirik modernizatsiya va geologiya-qidiruv loyihalariga sezilarli hajmda investitsiyalar yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, ayrim loyihalarda kapital sig‘imining yuqoriligi va uzoq o‘zini oqlash muddati moliyaviy barqarorlikka bosim o‘tkazmoqda. Shu sababli investitsiya samaradorligini oshirish masalasi faqat qo‘shimcha moliyalashtirish orqali emas, balki investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish, risklarni boshqarish va barqaror rivojlanish mezonlarini moliyaviy qarorlar tizimiga chuqur integratsiyalash orqali hal etilishi zarur[4].

Mazkur tadqiqotning asosiy gipotezasi shundan iboratki, neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini barqaror oshirish faqat investitsiya hajmini ko‘paytirish hisobiga emas, balki raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ESG tamoyillarini moliyaviy boshqaruv tizimiga integratsiyalash hamda korporativ boshqaruv sifatini kuchaytirish orqali ta’minlanadi.

Boshqacha aytganda, zamonaviy sharoitda investitsiya samaradorligi moliyaviy, texnologik va institutsional omillarning yagona tizimda uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi[5].

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirishning zamonaviy moliyaviy mexanizmlari raqamlashtirish va barqaror rivojlanish omillarining o‘zaro integratsiyasi asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi hamda ushbu yondashuvning amaliy samaradorligi asoslab beriladi.

Adabiyotlar sharhi

Neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish masalasi so‘nggi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda kompleks va ko‘p qirrali yondashuv asosida tadqiq etilmoqda. Xususan, zamonaviy ilmiy izlanishlarda investitsiya samaradorligi faqat kapital qo‘yilmalar hajmi bilan emas, balki investitsiya boshqaruvi sifati, institutsional muhit va texnologik yangilanishlar bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinmoqda.

Mazkur yo‘nalishda muhim ilmiy asoslardan biri Najbiddinov va Altiev tomonidan olib borilgan tadqiqot hisoblanadi. Mualliflar neft-gaz sanoatida investitsiyalarni samarali boshqarish kompaniyalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omil ekanini asoslab, investitsiya samaradorligini oshirish strategik rejalashtirish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish, risklarni boshqarish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olishni o‘z ichiga olgan kompleks tizim sifatida talqin etadi. Ularning fikricha, kapitaldan maksimal samarali foydalanish aynan ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi orqali ta’minlanadi[6].

Mualliflar alohida ta’kidlaganidek, neft-gaz sanoatining yuqori kapital sig‘imi sharoitida raqamlashtirish va avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etish investitsiya loyihalarining iqtisodiy natijadorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli vositalar loyiha monitoringini kuchaytirish, texnik xizmat ko‘rsatishni prognozlash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali operatsion xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish neft narxlarining o‘zgaruvchanligi va geosiyosiy noaniqliklar sharoitida investitsiya portfellarining barqarorligini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Xalqaro kontekstda esa KPMG tomonidan tayyorlangan “Oil & Gas Investment Guide 2023–2024” nashrida neft-gaz tarmog‘iga investitsiyalarni jalb qilishda makroiqtisodiy barqarorlik, huquqiy muhit va institutsional kafolatlarning ahamiyati keng yoritilgan. Hisobotda global energetika bozoridagi beqarorlik sharoitida investorlarga huquqiy barqarorlik, soliq tizimining prognozliligi va davlat siyosatining izchilligi muhim signal bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlanadi. Bu omillar investitsiya samaradorligini tashqi muhit bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘rsatadi[7].

KPMG tadqiqotida shuningdek, energiya transformatsiyasi sharoitida neft-gaz sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar tobora ko‘proq barqaror rivojlanish mezonlari asosida baholanayotgani qayd etiladi. Xorijiy investorlar uchun ESG standartlariga moslashgan kompaniyalar nisbatan past riskli va uzoq muddatda barqaror daromad manbai sifatida qaralayotgani investitsiya samaradorligining yangi sifat mezonlari shakllanayotganidan dalolat beradi[8].

Investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi moliyaviy risklarni boshqarish masalasi Ravallion va Morduch hamda Schneider tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida risklarni diversifikatsiyalash va institutsional himoya mexanizmlarini kuchaytirish investitsiya barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. IMF energetika loyihalarida moliyaviy xedjirlash va prognozlash modellarini joriy etish investitsiya samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish masalasini moliyaviy, texnologik va institutsional omillarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan murakkab tizimli jarayon sifatida talqin etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda raqamlashtirish, ESG

va korporativ boshqaruv omillari ko‘pincha alohida-alohida o‘rganilib, ularning yagona integratsiyalashgan moliyaviy mexanizm sifatida shakllanishi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Aynan shu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqotning konseptual asosini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish mexanizmlarini tahlil qilishda kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo‘llaniladi. Tadqiqot jarayonida tizimli va mantiqiy tahlil usullari orqali investitsiya samaradorligining moliyaviy, texnologik va institutsional omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi. Statistik tahlil yordamida 2021–2024 yillardagi global va tarmoq ko‘rsatkichlari dinamikasi baholanadi. Taqqoslama tahlil usuli orqali raqamlashtirish va ESG tamoyillarini joriy etgan hamda an’anaviy boshqaruv modeliga ega kompaniyalar natijalari solishtiriladi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari asosida umumiy nazariy xulosalar shakllantirilib, mualliflik konseptual modeli ishlab chiqiladi

Tahlil va natijalar

Zamonaviy sharoitda neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligi endilikda faqat kapital qo‘yilmalar hajmi bilan emas, balki raqamlashtirish darajasi va barqaror rivojlanish omillarining moliyaviy boshqaruv tizimiga qanchalik chuqur integratsiyalashgani bilan belgilanmoqda. So‘nggi yillarda global energetika bozorida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar investitsiya siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yuqori hajmdagi investitsiyalar ham zamonaviy boshqaruv mexanizmlarisiz kutilgan iqtisodiy samarani bermaydi.

2021–2025 yillar dinamikasi tahlili shuni tasdiqlaydiki, raqamli transformatsiyani faol amalga oshirgan neft-gaz kompaniyalarida investitsiya loyihalarining iqtisodiy natijadorligi an’anaviy boshqaruv modeliga ega korxonalarga nisbatan barqarorroq shakllangan. Raqamli texnologiyalar asosida loyiha monitoringi, texnik xizmat ko‘rsatishni prognozlash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari kengayib, investitsiya resurslaridan foydalanish aniqligi sezilarli darajada oshmoqda[9]. Natijada kapital qo‘yilmalarining qaytish muddati qisqarib, operatsion xarajatlar kamaymoqda.

Shu bilan birga, barqaror rivojlanish omillarining moliyaviy boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi investitsiya risklarini pasaytiruvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. ESG tamoyillarini faol joriy etgan kompaniyalarda moliyaviy intizom mustahkamlanib, investorlar ishonchi barqarorroq shakllanmoqda. Bu esa kapital qiymatining pasayishiga va investitsiya resurslarini nisbatan qulay shartlarda jalb qilish imkoniyatining kengayishiga olib kelmoqda.

1-grafik.

Global neft-gaz investitsiyalarining dinamikasi (2021–2025), mlrd. dollar *



*IEA ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Grafikdan ko‘rinadiki, 2021–2024 yillarda global neft-gaz tarmog‘iga investitsiyalar barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2021 yilda investitsiyalar hajmi 350 mlrd dollarni tashkil etib, pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni bilan izohlanadi. 2022–2023 yillarda energetika xavfsizligi muammolarining kuchayishi natijasida investitsiya faolligi keskin oshib, 2023 yilda 510 mlrd dollarga yetgan[10]. 2024 yilda esa ko‘rsatkich 540 mlrd dollarga chiqib, eng yuqori darajani qayd etgan.

Biroq 2025 yil uchun prognoz investitsiyalar hajmining 420 mlrd dollargacha pasayishini ko‘rsatmoqda. Bu holat global energetika bozorida kapital oqimlari qayta taqsimlanayotganini hamda investorlar endilikda investitsiya hajmidan ko‘ra uning samaradorligiga ko‘proq e’tibor qaratayotganini anglatadi. Mazkur tendensiya neft-gaz korxonalarida investitsiya siyosatini raqamlashtirish va barqaror rivojlanish omillari asosida qayta shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

2020–2025 yillarda O‘zbekiston neft-gaz sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar asosan uchta asosiy yo‘nalish doirasida shakllangan. Birinchidan, davlat investitsiya dasturlari orqali tarmoq loyihalariga mablag‘lar yillik reja va limitlar asosida ajratilgan bo‘lib, markazlashgan rejalashtirish mexanizmini ifodalaydi, biroq u ko‘pincha reja ko‘rsatkichlari bilan cheklanadi. Ikkinchidan, yirik operatorlar, jumladan “O‘zbekneftgaz” AJning moliyaviy hisobotlarida aks ettiriladigan kapital qo‘yilmalar korporativ darajadagi real investitsiya xarajatlarini tavsiflaydi, ammo butun tarmoq miqyosini to‘liq qamrab olmaydi. Uchinchidan, alohida yirik bitimlar, eurobondlar va strategik kelishuvlar orqali jalb qilingan moliyalashtirishlar yirik loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi[11]. Mazkur uch yo‘nalishning metodologik va institutsional farqlanishi neft-gaz sohasiga kiritilgan investitsiyalarni yagona jamlangan ko‘rsatkich sifatida baholashni murakkablashtiradi.

1-jadval.

2020–2024 yillarda O‘zbekiston neft-gaz sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar dinamikasi*

Yil	Investitsiya manbai	Hajmi (mlrd so‘m / mlrd $)	Yo‘nalishi
2021	Xorijiy investitsiyalar	1,88 mlrd $	Qidiruv va qazib olish
2022	“O‘zbekneftgaz” AJ kapital qo‘yilmalari	1,10 trln so‘m	Geologiya-qidiruv
2023	“O‘zbekneftgaz” AJ kapital qo‘yilmalari	1,47 trln so‘m	Resurs bazasini kengaytirish
2024	Xalqaro moliya bozori (Eurobond)	0,85 mlrd $	Modernizatsiya va texnologik yangilanish

*O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturlari, “O‘zbekneftgaz” AJ moliyaviy hisobotlari va xalqaro moliya bozori ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma’lumotlari 2021–2024 yillarda O‘zbekiston neft-gaz sohasida investitsiya siyosati izchil evolyutsion bosqichlardan o‘tganini ko‘rsatadi. 2021 yilda xorijiy investitsiyalarning 1,88 mlrd dollar miqdorida qidiruv va qazib olish yo‘nalishiga yo‘naltirilishi pandemiyadan keyingi davrda resurs bazasini tiklash va ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lganini anglatadi. Bu bosqichda investitsiya siyosati asosan real sektorni faollashtirishga qaratilgan[12]. 2022 yilda “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan 1,10 trln so‘m miqdoridagi kapital qo‘yilmalarning geologiya-qidiruv yo‘nalishiga safarbar etilishi investitsiya strategiyasining uzoq muddatli xarakter kasb etganini ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalish yangi konlarni aniqlash va mavjud zaxiralarni kengaytirish orqali tarmoqning kelgusi barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

2023 yilda kapital qo‘yilmalar hajmining 1,47 trln so‘mgacha oshishi investitsiya

faolligining kuchayganidan dalolat beradi. Ushbu mablag‘larning resurs bazasini kengaytirishga yo‘naltirilishi neft-gaz tarmog‘ida strategik rejalashtirishning mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Bu davrda investitsiya siyosati qisqa muddatli daromad emas, balki uzoq muddatli ishlab chiqarish barqarorligiga yo‘naltirilgan[13]. 2024 yilda xalqaro moliya bozorida 0,85 mlrd dollarlik eurobond joylashtirilishi investitsiya mexanizmlarining yangi bosqichga o‘tganini ifodalaydi. Endilikda tarmoq investitsiya resurslarini nafaqat davlat yoki ichki mablag‘lar hisobidan, balki global kapital bozorlaridan jalb qilishga intilmoqda. Ushbu mablag‘larning modernizatsiya va texnologik yangilanishga yo‘naltirilishi investitsiya siyosatida sifat jihatdan o‘zgarish yuz berayotganini ko‘rsatadi.

1-diagramma.

2020–2024 yillarda neft-gaz sohasiga kiritilgan investitsiyalarning yo‘nalishlar bo‘yicha tarkibi.*



*Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida tuzilgan.

Diagrammadan ko‘rinadiki, 2020–2025 yillarda neft-gaz sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning asosiy qismi geologiya-qidiruv ishlari hissasiga to‘g‘ri kelib, ularning ulushi 40 foizni tashkil etgan. Bu holat tarmoqda resurs bazasini kengaytirish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Qazib olish yo‘nalishining 30 foizlik ulushi ishlab chiqarish barqarorligini saqlashga qaratilgan investitsiyalar muhim o‘rin egallayotganidan dalolat beradi. Modernizatsiyaga 20 foiz mablag‘ yo‘naltirilishi texnologik yangilanish jarayoni faollashayotganini, moliyaviy barqarorlashtirishning 10 foizlik ulushi esa moliyaviy risklarni boshqarish omili tobora ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi[14].

Xulosa

O‘tkazilgan kompleks tahlillar neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy sharoitda faqat moliyaviy resurslar hajmini kengaytirish bilan cheklanmasligini, balki investitsiya jarayonlarini boshqarish sifati bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. 2021–2025 yillardagi global va milliy investitsiya dinamikasi shuni tasdiqladiki, investitsiya oqimlarining ko‘payishi avtomatik tarzda yuqori iqtisodiy natijalarga olib kelmaydi. Aksincha, kapital qo‘yilmalarining samaradorligi ularning qaysi mexanizmlar asosida va qaysi yo‘nalishlarga yo‘naltirilganiga bevosita bog‘liq[15].

Tadqiqot natijalari raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan neft-gaz kompaniyalarida investitsiya loyihalarining rentabelligi nisbatan barqaror shakllanayotganini ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, texnik xizmat ko‘rsatishni prognozlash va moliyaviy oqimlarni optimallashtirish imkoniyatlari

kengaymoqda. Bu esa investitsiya resurslaridan foydalanish aniqligini oshirib, kapital qo‘yilmalarining qaytish muddatini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, raqamlashtirish investitsiya samaradorligini oshirishning asosiy ichki texnologik mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, ESG tamoyillarining moliyaviy boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi investitsiya risklarini pasaytiruvchi muhim institutsional omil ekanligi asoslandi. Ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni strategik qarorlar darajasiga ko‘targan kompaniyalarda investorlar ishonchi mustahkamlanib, kapital qiymati nisbatan past shakllanmoqda. Bu holat investitsiya samaradorligi tushunchasi zamonaviy sharoitda moliyaviy natijalar bilangina emas, balki barqaror rivojlanish mezonlari bilan ham chambarchas bog‘lanayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston neft-gaz sohasida olib borilgan tahlillar 2021–2025 yillarda investitsiya siyosati bosqichma-bosqich transformatsiyalanayotganini ko‘rsatdi. Dastlab resurs bazasini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalar keyinchalik texnologik modernizatsiya va moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiyalash bosqichiga o‘tdi. Xalqaro kapital bozorlariga chiqish orqali resurs jalb qilish amaliyotining kengayishi tarmoqda investitsiya boshqaruvining sifat jihatidan yangi bosqichi shakllanayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tadqiqotda ilgari surilgan gipoteza to‘liq tasdiqlandi. Neft-gaz korxonalarida investitsiya samaradorligini barqaror oshirish faqat kapital qo‘yilmalar hajmini ko‘paytirish hisobiga emas, balki raqamlashtirish, ESG tamoyillari va korporativ boshqaruv sifatini moliyaviy mexanizmlar bilan kompleks integratsiyalash orqali ta’minlanadi. Shu sababli, investitsiya siyosatini ishlab chiqishda an’anaviy moliyalashtirish yondashuvlaridan tashqari, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish mezonlariga asoslangan zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni joriy etish strategik zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Najbiddinov, Sh., Altiev, A. (2024). Neft-gaz sanoati korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish masalalari. InterFinance jurnali.
2. KPMG. (2023). Oil & Gas Investment Guide 2023–2024. KPMG International.
3. “O‘zbekneftgaz” AJ. (2022). Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot. Toshkent.
4. “O‘zbekneftgaz” AJ. (2023). Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot. Toshkent.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturlari to‘g‘risidagi qarorlari. Lex.uz.
6. International Energy Agency (IEA). (2023). World Energy Investment 2023. Paris: IEA.
7. International Energy Agency (IEA). (2024). World Energy Investment 2024. Paris: IEA.
8. World Bank. (2024). Global Economic Prospects 2024. Washington, DC: World Bank.
9. OECD. (2023). Digital Transformation in the Energy Sector. Paris: OECD Publishing.
10. OECD. (2024). Energy Investment Outlook 2024. Paris: OECD Publishing.
11. International Monetary Fund (IMF). (2023). World Economic Outlook 2023. Washington, DC: IMF.
12. UNDP. (2023). Sustainable Development Report 2023. New York: United Nations Development Programme.
13. Asian Development Bank (ADB). (2023). Energy Sector Investment Framework for Central Asia. Manila: ADB.
14. European Commission. (2023). ESG and Sustainable Finance in Energy Markets. Brussels: EC.
15. PwC. (2024). Global Energy Transition and Investment Outlook 2024. PricewaterhouseCoopers.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

O‘ZBEKISTONDA NEFT-GAZ TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI VA ISHLAB CHIQARISH BARQARORLIGI: GAZ, NEFT VA KONDENSAT DINAMIKASI (2020–2025)

Panjiyev Nurbek Niyozmuhammedovich

O’qituvchi
E-mail: nurbek20220@gmail.com
ORCID: 0009-1004-6989-1450

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda neft-gaz tizimining raqamlashtirilishi va ishlab chiqarish barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik 2020–2025 yillar kesimida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida tabiiy gaz, neft va gaz kondensati ishlab chiqarish hajmlarining dinamikasi, yillik o‘zgarish sur’atlari hamda tebranish (barqarorlik) xususiyatlari statistik-trend yondashuvi asosida baholanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari (jarayonlarni avtomatlashtirish, real vaqt monitoringi, ishlab chiqarish ma’lumotlarini integratsiyalash, nosozliklarni oldindan aniqlash) barqaror ishlab chiqarish uchun institutsional va texnologik omillar sifatida talqin qilinadi. Maqola xulosasida raqamlashtirishni ishlab chiqarish uzluksizligini kuchaytiruvchi boshqaruv instrumentiga aylantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *neft-gaz tarmog‘i, raqamli transformatsiya, ishlab chiqarish barqarorligi, tabiiy gaz, neft, gaz kondensati, ishlab chiqarish dinamikasi, avtomatlashtirish, monitoring, ma’lumotlar integratsiyasi, trend tahlili.*

DIGITALIZATION OF THE OIL AND GAS SYSTEM AND PRODUCTION SUSTAINABILITY IN UZBEKISTAN: DYNAMICS OF GAS, OIL AND CONDENSATE (2020-2025)

Panjiev Nurbek Niyazmukhammedovich

Teacher
Email: nurbek20220@gmail.com
ORCID: 0009-1004-6989-1450

Abstract: *This article examines the relationship between the digitalization of Uzbekistan’s oil and gas system and production stability over the period 2020–2025. The study analyzes the dynamics of natural gas, crude oil, and gas condensate output, annual growth/decline rates, and volatility (stability) characteristics using a statistical trend-based approach. Digital transformation processes—such as production automation, real-time monitoring, integration of production data, and predictive detection of equipment failures—are interpreted as institutional and technological factors that support stable production. The results identify phases of growth and decline in output during 2020–2025, annual fluctuations, and key external and internal drivers affecting production stability. The article concludes with practical recommendations on strengthening digitalization as a management instrument to enhance production continuity and operational resilience.*

Keywords: *oil and gas sector, digital transformation, production stability, natural gas, crude oil, gas condensate, production dynamics, automation, monitoring, data integration, trend analysis.*

ЦИФРОВИЗАЦИЯ НЕФТЕГАЗОВОЙ СИСТЕМЫ И УСТОЙЧИВОСТЬ ПРОИЗВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ: ДИНАМИКА ГАЗА, НЕФТИ И КОНДЕНСАТА (2020-2025)

Панджиев Нурбек Ниязмухаммедович

Учитель

E-mail: nurbek20220@gmail.com
ORCID: 0009-1004-6989-1450

Аннотация: *В данной статье анализируется взаимосвязь между цифровизацией нефтегазовой системы Узбекистана и устойчивостью производства в разрезе 2020-2025 годов. В рамках исследования динамика объемов добычи природного газа, нефти и газового конденсата, годовые темпы изменения и колебательные (устойчивые) характеристики оцениваются на основе статистико-трендового подхода. Процессы цифровой трансформации (автоматизация процессов, мониторинг в реальном времени, интеграция производственных данных, предварительное выявление неисправностей) интерпретируются как институциональные и технологические факторы устойчивого производства. В заключении статьи даются практические рекомендации по превращению цифровизации в инструмент управления, усиливающий непрерывность производства.*

Ключевые слова: *нефтегазовая отрасль, цифровая трансформация, стабильность производства, природный газ, нефть, газовый конденсат, динамика производства, автоматизация, мониторинг, интеграция данных, анализ трендов.*

Kirish.

O‘zbekistonda neft-gaz tizimini raqamlashtirish masalasi bugun faqat “innovatsiya” emas, balki ishlab chiqarish barqarorligini (uzluksizlik, tannarx, avariya va yo‘qotishlar) saqlab qolish bilan bevosita bog‘liq boshqaruv vazifasiga aylanmoqda. 2020–2024 yillarda tabiiy gaz qazib olish hajmi 49,768 mlrd m³ dan 41,524 mlrd m³ gacha qisqargani (taxminan –16,6%) resurs bazasi murakkablashuvi, quduqlar fondining “qarishi”, texnologik uzilishlar va boshqaruv samaradorligi masalalarini keskinlashtiradi. Shunga mos ravishda, 2025 yilda gaz qazib olish 42,3 mlrd m³ ga yetib, 2024 yilga nisbatan kichik o‘sish qayd etilgani ham tizimli barqarorlikka erishish uchun texnologik-boshqaruv yechimlari (raqamli monitoring, aniqlikdagi hisob, prognoz va optimizatsiya) dolzarbligini kamaytirmaydi[1].

Suyuqliklar segmentida ham ishlab chiqarish barqarorligi masalasi dolzarb: neft qazib chiqarish 2020 yildagi 739,4 ming tonnadan 2024 yilda 713,1 ming tonnagacha pasaygan, gaz kondensati esa 2020 yildagi 1 291,0 ming tonnadan 2024 yilda 1 188,5 ming tonnagacha kamaygan. 2025 yil yakunlarida yirik sanoat korxonalari kesimida neft 655,7 ming tonna, gaz kondensati 1,111 mln tonna ekani qayd etiladi. Demak, mazkur davrda “qazib olish – tayyorlash – uzatish – realizatsiya” zanjiri bo‘yicha yo‘qotishlar, quduq ishlashi rejimlari, uskuna nosozliklarini oldindan aniqlash, ma’lumotlar sifati va tezkor boshqaruv qarorlari ishlab chiqarish natijasiga bevosita ta’sir qiladigan omilga aylanadi[2].

Tarmoqda asosiy institutsional ijrochilar sifatida O‘zbekneftgaz (qazib olish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya zanjirida yirik davlat kompaniyasi) hamda xususiy segmentdan Saneg (kompaniya profil materiallarida O‘zbekistondagi eng yirik xususiy neft-gaz kompaniyasi sifatida ta’riflanadi) ko‘pincha markaziy o‘rinda turadi. Xalqaro operatorlar ichida LUKOILning O‘zbekistondagi PSA loyihalari (Kandym–Khauzak–Shady va South-West Gissar) ham qazib olish infratuzilmasi va texnologik amaliyotlar nuqtayi nazaridan muhim[3].

Raqamli transformatsiya mazmunan uchta “yadro” yo‘nalishga jamlanadi: 1. ishlab chiqarish ob’ektlarida real vaqt monitoringi va boshqaruv (SCADA/telemetriya, quduq va kompressor stansiyalari rejimlarini kuzatish), 2. aktivlar ishonchliligi (predictive maintenance, avariyaviy to‘xtashlarni kamaytirish), 3. korporativ boshqaruv va hisobning birlashtirilgan platformasi (ERP, resurslar va xarajatlar shaffofligi). Shu jihatdan, O‘zbekneftgazda ERP yo‘nalishidagi hamkorlik va tizim joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilgani qayd etilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston neft-gaz tizimida raqamlashtirish jarayonlarini ishlab chiqarish barqarorligi bilan bog‘lab tahlil qilish, ya’ni 2020–2025 yillarda gaz, neft va kondensat dinamikasini raqamlar asosida ko‘rsatish hamda raqamli yechimlar qaysi mexanizmlar orqali uzluksizlik, samaradorlik va yo‘qotishlarni qisqartirishga xizmat qilishini asoslab

berishdan iborat[4].

Adabiyotlar tahlili.

Xalqaro adabiyotlarda neft-gaz tarmog‘ida raqamli transformatsiya (digital transformation) odatda uchta “tayanch mexanizm” orqali ishlab chiqarish barqarorligiga xizmat qilishi bilan izohlanadi: 1. real vaqt monitoringi va masofaviy boshqaruv (SCADA/telemetriya, sensor tarmoqlari), 2. ma’lumotlarni tahlil qilish va sun’iy intellekt asosida prognoz (nosozliklarni oldindan aniqlash, optimallashtirish), 3. korporativ resurslar va ishlab chiqarish ma’lumotlarini integratsiyalash (ERP/MES va data-platformalar). Mazkur mexanizmlar uzilishlar (downtime) va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish, qaror qabul qilish tezligini oshirish hamda operatsion xavflarni boshqarish orqali “barqaror ishlab chiqarish” natijasini kuchaytirishi qayd etiladi[5].

“Barqarorlik” tushunchasi zamonaviy yondashuvlarda faqat hajmning o‘sishi emas, balki ishlab chiqarish tebranishlarining pasayishi, avariyaviy to‘xtashlar sonining kamayishi va operatsion chidamlilik (resilience) bilan ham bog‘lanadi. Shu nuqtayi nazardan, predictive maintenance (oldindan texnik xizmat) va data-analytics yechimlari “texnik nosozlik → to‘xtash → ishlab chiqarish yo‘qotishi” zanjirini qisqartiruvchi omil sifatida ta’riflanadi; raqamlashtirish O&M xarajatlarini pasaytirishi va aktivlar ishonchliligini oshirishi mumkinligi alohida urg‘ulanadi.

So‘nggi tadqiqotlarda “digital twin” (raqamli egizak) yondashuvi ham ishlab chiqarish tizimlarining barqarorligi va chidamliligini oshirishga qaratilgan vosita sifatida ko‘rilmoqda: u real obyektning raqamli modelini boshqaruv algoritmlari bilan integratsiyalab, anomal holatlarni oldindan ko‘rish va operatsion rejimlarni sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, transport/infratuzilma segmentlarida uzilishlar riskini pasaytirish logikasini kuchaytiradi.

Biroq adabiyotlar raqamlashtirishni joriy etish doimo bir xil natija bermasligini ham ko‘rsatadi: texnologik samaradorlik ko‘p hollarda ma’lumotlar sifati, kadrlar kompetensiyasi, kiberxavfsizlik, jarayonlarni qayta loyihalash (reengineering) va institutsional boshqaruv (data governance) darajasiga bog‘liq. Ya’ni, raqamli yechimlar “o‘zi” emas, balki boshqaruv tizimi bilan birga ishlaganda ishlab chiqarish barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[6].

O‘zbekiston sharoitida ilmiy va amaliy manbalarda raqamlashtirish ko‘proq yirik operatorlar doirasida — ayniqsa Uzbekneftegaz JSC tizimida — korporativ boshqaruvni raqamlashtirish (ERP) va “raqamli kon” (digital field) konsepsiyasi kabi yo‘nalishlarda tilga olinadi. Masalan, SAP ERP va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish/monitoring tizimlarini joriy etish tashabbuslari 2020 yildan boshlab axborot oqimlarini markazlashtirish hamda ishlab chiqarish hisobini real vaqtga yaqinlashtirish maqsadi bilan bog‘langan. Shu bilan birga, 2025 yilda Honeywell va Schlumberger bilan uchrashuvlar doirasida ilg‘or raqamli yechimlar bo‘yicha muhokamalar bo‘lgani qayd etiladi; bu tarmoqda raqamlashtirish kun tartibi saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Energetika siyosati bo‘yicha xalqaro sharhlarda esa O‘zbekiston energetika sektorida islohotlar, samaradorlik va boshqaruvni modernizatsiya qilish masalalari umumiy kontekst sifatida yoritiladi[7].

Muhim cheklov: ochiq manbalarda 2020–2025 kesimida “neft-gaz tarmog‘i raqamlashtirish darajasi”ni bevosita o‘lchaydigan yagona rasmiy foiz-indikator (masalan, “digital adoption rate”) muntazam e’lon qilinmaydi. Shuning uchun maqola doirasida raqamlashtirishning ta’siri asosan (a) ishlab chiqarish barqarorligi ko‘rsatkichlari (tebranish/dinamikalar) va (b) joriy etilgan yechimlar (ERP/avtomatlashtirish/monitoring) haqida ochiq axborotlar asosida mantiqiy-analitik bog‘lanish ko‘rinishida

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada 2020–2025 yillarda O‘zbekistonda tabiiy gaz, neft va gaz kondensati ishlab chiqarish bo‘yicha yillik qatorlar asosida statistik-trend tahlil amalga oshiriladi: hajmlar dinamikasi, indeks usuli (2020=100) hamda yildan-yilga o‘zgarish sur’atlari (YoY, %)

hisoblanadi; ishlab chiqarish barqarorligi esa tebranish proksilari orqali baholanadi (standart og‘ish va variatsiya koeffitsiyenti, shuningdek |YoY| qiymatlari bo‘yicha o‘rtacha tebranish). Ishlab chiqarish ma’lumotlari Milliy statistika qo‘mitasining SIAT (SDMX) ochiq bazasidan olinadi (2020–2024), 2025 yil ko‘rsatkichlari esa yillik sanoat press-relizlaridagi yirik korxonalar kesimidagi raqamlardan foydalanilgan holda kiritiladi; raqamli transformatsiya komponentlari (ERP, avtomatlashtirilgan boshqaruv/monitoring, ma’lumotlar integratsiyasi va predictive yondashuvlar) bo‘yicha esa ochiq manbalar asosida sifat tahlili qilinib, ularning ishlab chiqarish uzluksizligiga ta’sir mexanizmlari mantiqiy-analitik tarzda asoslanadi. asoslanadi.

Tahlil va natijalar

2020–2025 yillarda O‘zbekistonda neft-gaz tizimida ishlab chiqarish barqarorligini baholash uchun avvalo asosiy mahsulotlar bo‘yicha (tabiiy gaz, neft, gaz kondensati) yillik ishlab chiqarish hajmlari jamlandi. Ushbu qatorlar ishlab chiqarishning umumiy yo‘nalishi (o‘sish/pasayish fazalari) hamda barqarorlik nuqtayi nazaridan tebranishlar mavjudligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shundan so‘ng barqarorlikni raqam bilan ifodalash maqsadida ikkinchi jadvalda yildan-yilga o‘zgarish sur’atlari (YoY, %) hisoblandi. Bu yondashuv “hajm o‘zgardi” degan umumiy xulosadan ko‘ra aniqroq: qaysi yil keskin burilish bo‘lgani, qaysi davrda pasayish “chuqurlashgani” va qaysi mahsulot turida tebranish kuchliroq ekanini ko‘rsatadi.

1-jadval

2020–2025 yillarda tabiiy gaz, neft va gaz kondensati ishlab chiqarish hajmlari

Yillar	Tabiiy gaz (mlrd m³)	Neft (ming t)	Gaz kondensati (ming t)
2020	49.8	739.4	1291.0
2021	53.8	774.1	1323.9
2022	51.7	787.9	1287.1
2023	46.7	778.3	1199.4
2024	41.5	713.1	1188.5
2025	42.3	655.7	1111.3

Jadval tahlilida tabiiy gaz bo‘yicha 2021 yilda 53.8 mlrd m³ ga chiqib, 2020 yilga nisbatan o‘sish kuzatiladi, biroq 2022 yildan boshlab pasayish trendi ustunlashib, 2024 yilda 41.5 mlrd m³ gacha tushadi. 2025 yilda 42.3 mlrd m³ ga kichik tiklanish bor, lekin u 2020–2022 yillardagi darajaga qaytishni anglatmaydi. Bu natija ishlab chiqarish uzluksizligi va barqarorligi masalasini dolzarb qiladi: pasayish trendi fonida hatto kichik tebranishlar ham tarmoqdagi resurs bazasi, texnologik rejim va boshqaruv samaradorligi bilan bog‘liq risklarni kuchaytiradi.

Neft bo‘yicha 2020–2022 yillarda asta-sekin o‘sish (739.4 ming t → 787.9 ming t) kuzatilgan bo‘lsa, 2023 yildan pasayish fazasi shakllanadi va 2025 yilda 655.7 ming tonnagacha tushadi. Gaz kondensati bo‘yicha esa 2021 yilda 1323.9 ming t bilan yuqori nuqta qayd etilib, keyingi yillarda uzluksiz kamayish trendi ko‘rinadi (2022–2025). Umuman olganda, uchala mahsulot turida ham 2021 yildan keyin barqaror pasayish yo‘nalishi kuchaygani ko‘rinadi; bu “barqarorlik”ni faqat o‘sish bilan emas, balki tebranishlar va pasayish tezligi bilan ham baholash zarurligini anglatadi[8].

2025 yil bo‘yicha keltirilgan qiymatlar jadvalda “yakuniy yil” ko‘rsatkichi sifatida berilgan bo‘lsa-da, uni 2020–2024 yillardagi qator bilan to‘liq bir xil metodik asosda bevosita solishtirishda ehtiyotkorlik zarur. Chunki 2025 yil raqamlari ochiq manbalarda ko‘pincha “yirik sanoat korxonalari” yoki hisobot qamrovi o‘zgargan to‘plamlar kesimida e’lon qilinadi; 2020–2024 yillardagi SDMX qatorlari esa boshqa statistik qamrov (umumiy sanoat yoki alohida tasnif) asosida shakllangan bo‘lishi mumkin. Qamrov doirasidagi bunday farq natijani avtomatik ravishda “ishlab chiqarish aynan shuncha o‘zgardi” degan qat’iy xulosaga olib kelmasligi kerak, chunki o‘zgarishning bir qismi real iqtisodiy jarayonlar emas, balki hisobga olish va tasnif metodikasidagi farqlardan kelib chiqishi ehtimoli mavjud. Shu bois, maqolada 2025 yil qiymatlari umumiy trendni ko‘rsatish va dinamika yo‘nalishini aniqlash uchun ishlatiladi, YoY

(yildan-yilga) hisoblar esa asosan tebranishlar va o‘zgarish sur’atlarini “indikativ” tarzda ifodalaydi; ya’ni bu natijalar sabab-oqibatni isbotlash emas, balki barqarorlik kontekstida kuzatilgan dinamikani tavsiflash vazifasini bajaradi.

2-jadval

2020–2025 yillarda ishlab chiqarish dinamikasi (YoY, %)

Yil	Gaz YoY (%)	Neft YoY (%)	Kondensat YoY (%)
2020	–	–	–
2021	8.1	4.7	2.5
2022	-3.9	1.8	-2.8
2023	-9.6	-1.2	-6.8
2024	-11.1	-8.4	-0.9
2025	1.9	-8.0	-6.5

Jadval tahlili shuni ko’rsatadiki tabiiy gazda 2021 yilda ijobiy o‘sish (8.1%) kuzatilgan, lekin 2022 yilda pasayish boshlanadi (-3.9%) va 2023–2024 yillarda pasayish keskinlashadi (-9.6% va -11.1%). Bu aynan 2023–2024 davrida ishlab chiqarish barqarorligi bosimi kuchayganini ko‘rsatadi. 2025 yilda 1.9% ijobiy o‘zgarish qayd etilishi qisqa muddatli tiklanish signalidir, biroq barqaror trendga aylanganini isbotlash uchun keyingi yillar qatori kerak bo‘ladi.

Neftda 2021–2022 yillarda o‘sish saqlangan (4.7% va 1.8%), 2023 yilda esa pasayish boshlanadi (-1.2%). 2024–2025 yillarda pasayish chuqurlashib, ketma-ket yillarda yuqori manfiy sur’atlar ko‘rinadi (-8.4% va -8.0%). Bu holat neft segmentida barqarorlik muammosi nafaqat tebranish, balki pasayishning davomiyligi ko‘rinishida namoyon bo‘layotganini anglatadi.

Gaz kondensatida 2021 yilda kichik o‘sish (2.5%) kuzatilgan bo‘lsa, 2022 yilda pasayish boshlanadi (-2.8%) va 2023 yilda pasayish ancha kuchli (-6.8%). 2024 yilda pasayish nisbatan “yumshaydi” (-0.9%), biroq 2025 yilda yana sezilarli manfiy sur’at (-6.5%) qayd etiladi. Bu kondensat bo‘yicha tebranishlar va pasayish fazalari almashinuvi barqarorlikni boshqarish nuqtayi nazaridan alohida e’tibor talab qilishini ko‘rsatadi[9].

Umumiy xulosa sifatida, 2020–2025 qatorlarida ishlab chiqarish barqarorligini izohlovchi ikki asosiy holat ajraladi: birinchidan, 2021 yildan keyin gaz va kondensatda pasayish fazasi kuchaygan; ikkinchidan, neftda 2023 yildan boshlab pasayish barqaror tus olib, 2024–2025 yillarda pasayish sur’atlari yuqori saqlangan. Mazkur dinamik fon raqamli transformatsiyaning amaliy ahamiyatini oshiradi: real vaqt monitoringi, rejimlarni optimallashtirish, nosozliklarni oldindan aniqlash va ma’lumotlar integratsiyasi kabi yechimlar aynan uzluksizlikni kuchaytirish va tebranishlarni boshqarish kanalida tarmoq barqarorligiga xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtadan keyin muhokama bo‘limida raqamli yechimlarning aynan qaysi mexanizmlar orqali “pasayish trendi” sharoitida ham barqarorlikka hissa qo‘shishi izohlanadi.

Natijalar bo‘limida ko‘ringan 2020–2025 yillardagi dinamika shuni anglatadiki, neft-gaz tizimida ishlab chiqarish barqarorligi muammosi faqat “hajm kamaydi” degan oddiy xulosadan kengroq masala hisoblanadi. Gaz va kondensatda 2022 yildan boshlab pasayish fazasi kuchaygani, neftda esa 2023 yildan keyin pasayish davomiy tus olgani tarmoqda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, texnologik rejimlarning optimal boshqarilishi va yo‘qotishlarni nazorat qilish kabi omillarni birlamchi o‘ringa olib chiqadi[10]. Aynan shunday sharoitda raqamli transformatsiya “ishlab chiqarishni avtomatik oshiruvchi” yechim emas, balki pasayish yoki murakkab resurs sharoitida tizimni barqarorroq boshqarish, nosozliklar va uzilishlarning iqtisodiy ta’sirini kamaytirish, ma’lumotga asoslangan qaror qabul qilishni tezlashtirish orqali ishlab chiqarish barqarorligini ushlab turuvchi boshqaruv instrumenti sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Birinchi muhim mexanizm real vaqt monitoringi va operatsion shaffoflikdir. Quduqlar rejimi, kompressor stansiyalari yuklamasi, bosim-harorat ko‘rsatkichlari, gaz tayyorlash va uzatish bo‘g‘inlaridagi texnologik parametrlarga doimiy raqamli kuzatuv (telemetriya/SCADA) mavjud bo‘lsa, boshqaruv tizimi “kechikkan” ma’lumotga emas, joriy holatga tayangan holda tezkor qaror qabul qiladi. Bu o‘z navbatida rejimlarning noto‘g‘ri tanlanishi, ortiqcha

yo‘qotishlar yoki avariyaviy holatlarga olib keladigan og‘ishlarni erta aniqlash imkonini beradi. Natijalarda ko‘rinadigan keskin pasayish yillari (masalan, gaz bo‘yicha 2023–2024) aynan shunday erta ogohlantirish va tezkor boshqaruvning iqtisodiy ahamiyati yuqori bo‘ladigan davr hisoblanadi: ya’ni, raqamlashtirish o‘sishni “kafolatlamaydi”, lekin pasayishning chuqurlashuvi va tebranishlarning kuchayishi riskini pasaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchi mexanizm aktivlar ishonchliligini boshqarish va uzilishlarni qisqartirishdir. Neft-gaz tizimida ishlab chiqarish barqarorligi ko‘p hollarda uskunalar holati, texnik xizmat sifati va rejalashtirilmagan to‘xtashlar (downtime) bilan belgilanadi. Predictive maintenance (oldindan texnik xizmat) yondashuvi sensorlar va tarixiy ma’lumotlar asosida nosozlik ehtimolini oldindan baholashga, “ta’mirlashni kechiktirish” yoki “keragidan ortiq ta’mirlash” kabi samarasiz amaliyotlarni kamaytirishga yordam beradi. Natijalarda neft segmentida 2024–2025 yillarda ketma-ket manfiy sur’atlar saqlanib qolganini inobatga olsak, barqarorlikni tiklash uchun ishlab chiqarish rejimini “qattiqlashtirish” emas, balki uskunalar ishonchliligini oshirish, ta’mirlashni ma’lumotga asoslangan rejalashtirish va uzilishlarni qisqartirish orqali tannarx bosimini kamaytirish mantiqan kuchliroq ko‘rinadi. Bu yerda raqamlashtirishning amaliy qiymati aynan operatsion yo‘qotishlarni qisqartirish kanalida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi mexanizm ma’lumotlar integratsiyasi va boshqaruv intizomidir. Neft-gaz korxonalarida ishlab chiqarish, logistika, energiya sarfi, xarajatlar, ombor va procurement ma’lumotlari bir-biridan uzilgan bo‘lsa, boshqaruv qarorlari ham “fragmentlangan” bo‘ladi. ERP va ishlab chiqarish hisobining integratsiyasi natijasida resurslar harakati, xarajatlar tarkibi va samaradorlik ko‘rsatkichlari yagona mantiqiy maydonga tushadi. Bu, ayniqsa, pasayish trendi sharoitida muhim: barqarorlikni saqlash uchun “qayerda yo‘qotish ko‘p”, “qaysi bo‘g‘in eng zaif”, “qaysi rejim tannarxni oshiryapti” kabi savollarga tezkor va ishonchli javob kerak bo‘ladi. Jadval natijalari ishlab chiqarishning o‘zi pasayganini ko‘rsatadi, ammo barqarorlikni boshqarish nuqtayi nazaridan keyingi qadam ishlab chiqarish bilan birga tannarx dinamikasi, uzilishlar statistikasi, energiya sarfi va yo‘qotishlar kabi ko‘rsatkichlarni ham raqamli monitoringga bog‘lashdir. Bunday bog‘lanish mavjud bo‘lsa, raqamlashtirish “jarayonni boshqarish sifati”ni oshirish orqali barqarorlikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, maqola natijalarini talqin qilishda sabab-oqibat masalasida metodik chegarani unutmaslik zarur. Ishlab chiqarish dinamikasiga geologik omillar, quduqlar fondi holati, investitsiya sikli, import uskunalari va servis ta’minoti, narxlar kon’yunkturasi, tartibga solish, iqlim va mavsumiy omillar bir vaqtda ta’sir qiladi. Raqamlashtirish esa bu omillarning bir qismini yumshatishi mumkin, ammo ularni to‘liq “bekor qilmaydi”. Shu sababli, ushbu maqolada raqamlashtirishning ta’siri “pasayishning oldini oldi” yoki “o‘sishni ta’minladi” tarzida qat’iy isbot sifatida emas, balki barqarorlikni boshqarishning institutsional-texnologik sharti sifatida, ya’ni uzluksizlik va samaradorlikni oshiradigan mexanizmlar to‘plami sifatida izohlanadi.

Muhokamani amaliy xulosa bilan yakunlaganda, O‘zbekiston neft-gaz tizimida raqamli transformatsiya kun tartibini ishlab chiqarish barqarorligi bilan bevosita bog‘lab qo‘yish maqsadga muvofiq: birinchidan, real vaqt monitoringi va texnologik intizomni kuchaytirish; ikkinchidan, aktivlar ishonchliligi (predictive maintenance) bo‘yicha ma’lumotga asoslangan boshqaruvni yo‘lga qo‘yish; uchinchidan, ERP/ishlab chiqarish hisobi integratsiyasi orqali xarajatlar va yo‘qotishlarni “ko‘rinadigan” qilish. Agar keyingi bosqichda tarmoq bo‘yicha ochiq va taqqoslanadigan raqamli ko‘rsatkichlar (masalan, avtomatlashtirilgan obyektlar ulushi, sensorlash darajasi, downtime ko‘rsatkichi, yo‘qotishlar ulushi) shakllantirilsa, raqamlashtirish va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada aniqroq baholash, jumladan, iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy asosda isbotlash imkoniyati kengayadi.

Xulosa

Mazkur maqolada O‘zbekistonda neft-gaz tizimining raqamlashtirilishi va ishlab chiqarish barqarorligi 2020–2025 yillar kesimida tabiiy gaz, neft hamda gaz kondensati bo‘yicha ishlab chiqarish dinamikasi asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari 2021 yilda ayrim mahsulotlar

bo‘yicha qisqa muddatli o‘sish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2022 yildan boshlab gaz va kondensatda pasayish fazasi kuchayganini, neft segmentida esa 2023 yildan keyin pasayish davomiy tus olganini ko‘rsatadi. Yillik o‘zgarish sur’atlari ishlab chiqarishdagi tebranishlar ayniqsa 2023–2024 davrida kuchayganini anglatib, barqarorlik masalasi tarmoq boshqaruvida birlamchi vazifaga aylanganini tasdiqlaydi.

Maqolaning asosiy ilmiy-amaliy xulosasi shundan iboratki, raqamli transformatsiya neft-gaz tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmini avtomatik oshiruvchi omil sifatida emas, balki pasayish va resurs bazasi murakkablashuvi sharoitida uzluksizlikni ta’minlash, yo‘qotishlarni kamaytirish hamda operatsion tebranishlarni boshqarish imkonini beruvchi boshqaruv instrumenti sifatida qaralishi kerak. Real vaqt monitoringi (telemetriya/SCADA), aktivlar ishonchliligini ma’lumot asosida boshqarish (predictive maintenance), hamda korporativ va texnologik ma’lumotlarni integratsiyalash (ERP/MES/data-platforma) ishlab chiqarish barqarorligiga xizmat qiladigan asosiy “mexanizm”lar sifatida ajralib chiqadi. Biroq raqamlashtirishning real ta’siri ma’lumotlar sifati, kadrlar kompetensiyasi, texnik xizmat madaniyati va boshqaruv intizomi kabi institutsional omillar bilan birgalikda shakllanishi sababli, u alohida texnologik loyihalar emas, tizimli transformatsiya sifatida yuritilishi lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni ta’kidlash mumkin: birinchidan, ishlab chiqarish zanjiri bo‘yicha (qazib olish–tayyorlash–uzatish–hisob) real vaqt ma’lumotlar oqimini standartlashtirish va markazlashtirish; ikkinchidan, uzilishlarni qisqartirishga qaratilgan predictive maintenance va ishonchlilik KPIlarini (downtime, MTBF/MTTR, energiya sarfi) joriy qilish; uchinchidan, ERP va texnologik hisob o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali xarajatlar va yo‘qotishlar shaffofligini oshirish; to‘rtinchidan, tarmoq miqyosida raqamlashtirish darajasini o‘lchaydigan taqqoslanadigan indikatorlar tizimini shakllantirish (sensorlash darajasi, avtomatlashtirilgan obyektlar ulushi, raqamli monitoring qamrovi). Aynan shu choralar ishlab chiqarish barqarorligini mustahkamlash bilan birga, kelgusida raqamlashtirishning iqtisodiy samaralarini aniqroq miqdoriy baholash uchun zarur ma’lumot bazasini yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati (references)

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (n.d.). Tabiiy gaz qazib olish hajmi (SIAT/SDMX ma’lumotlar to‘plami) [PDF]. Retrieved February 5, 2026, from SIAT portal.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026, January 23). 2025-yilda 1,2 mln tonna benzin ishlab chiqarilgan. Retrieved February 5, 2026, from stat.uz.
3. UzDaily. (2020, September 9). Uzbekneftegaz: An automated control system is being introduced at production, processing facilities and oil depots. Retrieved February 5, 2026, from uzdaily.uz.
4. UzDaily. (2024, March 12). A new system is being implemented with German partners at Uzbekneftegaz. Retrieved February 5, 2026, from uzdaily.uz.
5. International Energy Agency. (2017). Digitalisation and energy [Report]. OECD/IEA. Retrieved February 5, 2026, from iea.blob.core.windows.net.
6. International Energy Agency. (2017, November 5). Digitalisation and energy. Retrieved February 5, 2026, from iea.org.
7. O‘zbekneftgaz AJ. (n.d.). O‘zbekneftgaz AJ (rasmiy sayt sahifasi). Retrieved February 5, 2026, from ung.uz.
8. IP LLC Sanoat Energetika Guruhi (Saneg). (n.d.). About company. Retrieved February 5, 2026, from saneg.com.
9. LUKOIL. (n.d.). Kandym-Khauzak-Shady. Retrieved February 5, 2026, from lukoil.com.
10. LUKOIL. (n.d.). Gissar (South-West Gissar). Retrieved February 5, 2026, from lukoil.com.

KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA FOND BOZORI PROFESSIONAL ISHTIROKCHILARINING O‘RNI

Karimov Akramjon Ikromjon o‘g‘li
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar kafedrasining dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: a.karimov@tsue.uz
ORCID: 0000-0001-9426-8777

Annotatsiya. *Maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kapital bozoriga institutsional va individual investorlarni keng jalb etishda fond bozori professional ishtirokchilari faoliyatining ahamiyati, ularni huquq va majburiyatlari, funksiyalari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasi fond bozorining professional ishtirokchilari faoliyati tahlil etilgan, milliy kapital bozorining joriy holati o‘rganilib chiqilgan hamda tegishli takliflar shakllantirilgan. Xulosa qismida kapital bozorini rivojlantirishda fond bozori professional ishtirokchilarining faoliyat samaradorligini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, moliya bozori, kapital bozori, institutsional investor, fond bozori, fond birjasi, aksiya, obligatsiya, investor, yillik daromadlilik, emitent, emissiya, investitsiya, fond bozorining professional ishtirokchilari, bozor kapitallashuvi.*

РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧАСТНИКОВ ФОНДОВОГО РЫНКА В РАЗВИТИИ РЫНКА КАПИТАЛА

Каримов Акрамджан Икрамджан оглы
доктор экономических наук (DSc)
доцент кафедры корпоративных финансов и ценных бумаг
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: a.karimov@tsue.uz
ORCID: 0000-0001-9426-8777

Аннотация. *В статье освещается значимость деятельности профессиональных участников фондового рынка, их права и обязанности, функции в развитии национальной экономики, в частности, в привлечении институциональных и индивидуальных инвесторов на рынок капитала. Проанализирована деятельность профессиональных участников фондового рынка Республики Узбекистан, изучено текущее состояние национального рынка капитала. Представлены результаты исследования по повышению эффективности деятельности профессиональных участников фондового рынка по развитию рынка капитала, сформулированы соответствующие предложения.*

Ключевые слова: *национальная экономика, финансовый рынок, рынок капитала, институциональный инвестор, фондовый рынок, фондовая биржа, акция, облигация, инвестор, годовая доходность, эмитент, эмиссия, инвестиции, профессиональные участники фондового рынка, рыночная капитализация.*

THE ROLE OF PROFESSIONAL STOCK MARKET PARTICIPANTS IN THE DEVELOPMENT OF THE CAPITAL MARKET

Karimov Akramjon Ikromjon ugli
Doctor of Economics Sciences(DSc)

Associate Professor
of the Department of Corporate
Finance and Securities
Tashkent State
the University of Economics
Email: a.karimov@tsue.uz
ORCID: 0000-0001-9426-8777

Abstract*. The article highlights the importance of the activities of professional participants of the stock market in the development of the national economy, in particular, in attracting institutional and individual investors to the capital market, their rights and obligations, functions and tasks. Also, the activities of professional participants of the stock market of the Republic of Uzbekistan are analyzed, the current state of the national capital market is studied and relevant proposals are formulated. The conclusion presents the results of research on increasing the efficiency of the activities of professional participants of the stock market in the development of the capital market.*

Keywords: *national economy, financial market, capital market, institutional investor, stock market, stock exchange, stock, bond, investor, annual return, issuer, issue, investment, professional stock market participants, market capitalization.*

Kirish

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘lgan fond bozori kapital bozorining ajralmas segmenti sifatida investitsion faollikni oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirishda korxonalar moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish va aksionerlik asosida mulkchilik tuzilmasini diversifikatsiya qilishda fond bozorining o‘rni tobora ortib bormoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fond bozorini kengaytirish orqali real sektor subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari keskin oshadi. Kapital bozorining institutsional infratuzilmasi samarali faoliyat yuritganda, moliyaviy resurslarning muqobil taqsimoti amalga oshadi va iqtisodiy o‘sishning barqarorlik darajasi mustahkamlanadi. Shunday ekan, fond bozorini rivojlantirish faqat moliya tizimi samaradorligini emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi strategik vosita sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jahon taraqqiyotida mahalliy fond bozorlaridagi ishtirokchilarning faollik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotini yuqori darajada yuksaltirishda, moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish va taqsimlashda, investitsion jozibadorlikni oshirishda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Jahon Bankining rasmiy statistik ma’lumotlarida “So‘nggi 30-yilda fond bozorlarida yillik aksiyalar savdosi qiymati 5,04 trln AQSh dollaridan 120,86 trln AQSh dollarigacha yoki 24 barobarga oshgan bo‘lib, ushbu tendensiyaning 50 foizdan ziyodi AQSh va Xitoy mamlakatlaridagi fond birjalariga to‘g‘ri kelgan”[1]. Ushbu jihatlar fond bozorlarida investorlarga qulay iqtisodiy muhit yaratish, moliyaviy instrumentlar jozibadorligini oshirish, shuningdek, fond birjalari faoliyat mexanizimini samaradorligini ta’minlash va milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida moliya bozorini yanada rivojlantirish, jumladan, yuqori salohiyatli soha bo‘lgan fond bozori yo‘nalishini taraqqiy ettirish, unga xorijiy va mahalliy investitsion resurslarni keng jalb etish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlani amalga oshirish, aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat aksiyalarini ikkilamchi ommaviy joylashtirish orqali erkin muomalaga chiqarish, savdo tizimlarini ilg‘or moliyaviy texnologiyalari bilan qurollantirish, qonunchilik tizimini optimallashtirish kabi qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida“ erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard AQSh dollariga yetkazish, 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini “Xalq IPO”siga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish, chet

ellik nominal saqlovchilar hamda kastodian banklarning mahalliy kapital bozorida qatnashishi uchun infratuzilmani yaratish”[2] kabi qator vazifalari belgilab olingan.

Kapital bozorining tarkibida fond bozorining rivojlanishi iqtisodiy o‘sishning strukturaviy va sifat jihatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki u orqali mablag‘lar an’anaviy kredit tizimidan farqli tarzda erkin aylanadi. Kapital oqimining fond bozori orqali samarali taqsimlanishi yirik investitsiya loyihalarining moliyaviy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi va bu jarayon iqtisodiyotning real sektori faolligini oshiradi. Ayni paytda, fond bozori orqali aksiyalar va obligatsiyalar emissiyasi kengaytirilganda, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun moliyaviy bozorga kirish imkoniyatlari ortadi. Davlat budjetiga yuk tushirmagan holda xususiy sektorni moliyalashtirish imkoniyatining kengayishi makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli olib borilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois fond bozorini rivojlantirish bo‘yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Fond bozorining barqaror va shaffof ishlashi, avvalo, ushbu bozorning professional ishtirokchilari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatiga bevosita bog‘liqdir. Brokerlik kompaniyalari, dilerlar va investitsiya konsalting xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar investorlar bilan emitentlar o‘rtasidagi vositachilikni amalga oshirib, kapital resurslar oqimini samarali yo‘naltiradi. Ushbu subyektlar bozor mexanizmlarini jonlantirib, likvidlikni ta’minlaydi va aktivlar bo‘yicha baholashning ob’yektiv asoslarini shakllantiradi. Ayniqsa, mustaqil aktivlar boshqaruvchilari institutsional investorlarning moliyaviy resurslarini strategik boshqarish orqali bozor ishtirokchilarining ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois, fond bozori infratuzilmasida professional ishtirokchilarning faoliyatini qonuniy, texnologik va axborot jihatdan mukammal tashkil etish bozor barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Fond bozori orqali moliyaviy resurslar jamlanadi va reinvestitsiya bo‘ladi. «Fond bozori» tushunchasi o‘zbek va rus tillarida bir xil ma’noda ishlatiladi. Shuningdek, xalqaro amliyotda «kapital bozori» va «fond bozori» tushunchalarini o‘zaro almashtirib foydalanish holatlarini kuzatishimiz mumkindir. Zero, iqtisodchilardan Manjri Damele o‘z ilmiy asarlarida bayon qilganidek, “Kapital bozori – bu yangi qimmatli qog‘ozlar bozori va fond bozoridagi barcha operatsiyalarni ifodalash uchun ishlatiladigan keng atama. Kompaniyalar tomonidan yangi emissiyalar birlamchi bozorni tashkil etadi va mavjud qimmatli qog‘ozlar savdosi ikkilamchi bozor sifatida tasniflanadi” [3]. Fikrimizcha, fond bozorida pul mablag‘lari oshishi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ijobiy tomonga siljishiga ko‘mak berib boradi.

Ilmiy nashrlarda qayd etilganidek, “Atrof-muhit va ijtimoiy mezonlarga yo‘naltirilgan mablag‘lar uchun maqbul investitsiyalar bo‘lgan yashil obligatsiyalarining emissiyasi 2023-yilda 45 foizga o‘sib, 209 milliard AQSH dollarni tashkil etdi va bu barcha vaqtlardagi eng yuqori ko‘rsatkichdir” [4]. Kapital bozorining eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan, yuqori o‘sish salohiyati va imkoniyatlariga ega bo‘lgan milliy fond bozorini yanada rivojlantirish iqtisodiyotning kelajagi uchun har tomonlama muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Iqtisodchilardan Kesra Nermend, Waldemar Tarczynskilarning tadqiqotlarida, “Adabiyotlarda moliyaviy bozorlar va real iqtisodiyot o‘rtasidagi munosabatlar haqida turlicha fikrlar mavjud. Birinchisi yordamchi va real sohadan ustun hisoblanadi. Ba’zi tadqiqotchilar ham bu ikkisi o‘rtasida o‘zaro munosabatlar mavjudligini tan olishadi”[5]. Ushbu holatda iqtisodchilar o‘z tadqiqotlarida moliya bozor tarkibiy qismlari hamda real iqtisodiyotning subyektlari orasidagi uzviy bog‘lanish darajasini atroflicha tahlil etganlar va zaruriy xulosalar shakllantirilgan.

Iqtisodchi olim B. Michaelning ilmiy tadqiqotlarida, “Albatta, fond bozori investitsiya qilishning yagona yo‘li emas. Odamlar uylarini sotib oladilar, shaxsiy hayot sug‘urtasi va pensiya siyosatini tashkil qiladilar, banklar va qurilish jamiyatlarida omonatlarni qora kunlar uchun saqlaydilar”[6]. Fikrimizcha, individual investorlar ayrim hollarda birlamchi va

ikkilamchi ehtiyojlarni qondirgandan so‘ng qolgan bo‘sh moliyaviy resurslarni fond bozorlariga yo‘naltiradi va kapital taqsimotini ta’minlaydi.

M. Choudhry, D. Joannas, G. Landuyt, R. Pereira, R. Pienaarlarning ilmiy qarashlarida “Ayrim istisnolardan tashqari, hozir butun dunyoda odatiy holga aylangan erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital bozori talab va taklif qonunlariga bo‘ysunadi. Demak, moliyalashtirishning bozor bahosi narx mexanizmi orqali muvozanatga keltiriladi”[7]. Fikrimizcha, fond bozorida kompaniyalarning bozor baholari erkin talab va taklif sharoitda shakllanganligi uchun adolatli narx deya ayta olamiz. Zero, investorlar emitent qimmatli qog‘ozlari, ushbu o‘rinda aksiyalarini bozorni chuqur o‘rgangan holda sotib olishadi va sotishadi.

Olimlardan S. Elmirzayev, M.Uzoqov, D.Yusupovlar fikricha, “Fond bozori bugun xorijiy investorlar o‘z mamlakatini tark etmasdan turib xorijiy davlatlardagi biznes subyektlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritish imkoniyatini taqdim etuvchi maydondir”[8]. Fikrimizcha, fond bozori moliyaviy resurslarini ko‘paytirish orqali daromadlarni maksimallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy korxonalarga chet el sarmoyalarini keng jalb etishda muhim institutsional birlik hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlardan X.Kodirovaning ilmiy izlanmalarida qayd etilishicha, “Mahalliy qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish uchun quyidagilar zarur: investorlar uchun investitsiya muhitini yaxshilash, sug‘urta kompaniyalari, pensiya jamg‘armalari, investitsiya fondlari va boshqalar kabi institutsional investorlar ulushini oshirish”[9]. Iqtisodchi ushbu o‘rinda milliy moliya bozori, xususan, fond bozorini rivojlantirishda zarur bo‘lgan tavsiyalarni keltirib o‘tgandir.

Iqtisodchi olimlaridan Sh.Sh.Shoha’zamiyning ilmiy asarlarida bayon etilishicha, “Real bazisga ekvivalent bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar yordamida fond bozori orqali samarali investitsion va transfer (to‘lov) jarayonlari, iqtisodiy sub’yektlarining maqsadli va tartiblashtirilgan iqtisodiy-huquqiy bozor munosabatlari amalga oshiriladi”[10]. Fond bozoridagi jarayonlar milliy iqtisodiyotning aksini ifodalaydi va parallel ravishda rivojlanadi.

Fond bozorlarining jahon miqyosidagi jadal rivojlanishi va undagi ishtirokchilarning faolligi milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘sishi, investitsion muhitning yaxshilanishi va moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishini ta’minlashda muhim omilga aylanib bormoqda; bu jarayonda AQSh va Xitoy fond bozorlarining ulushi global moliya makonining yetakchi drayveri sifatida ajralib turadi. Ilmiy tadqiqotlarda fond bozorlari orqali investitsiyalarni jalb etish, korporativ moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda investorlar xatti-harakatining emitentlarga ta’siri masalalari chuqur tahlil etilmoqda. O‘zbekistonda esa, zamonaviy moliyaviy infratuzilmani shakllantirish, IPO va SPO mexanizmlarini rivojlantirish, davlat korxonalari aksiyalarini fond bozoriga olib chiqish orqali fond bozorining investitsion jozibadorligini oshirish yo‘lida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar bu boradagi islohotlarning kompleks va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Shu bois mamlakatda fond bozorining barqaror va ochiq rivojlanishi milliy iqtisodiyotni rag‘batlantirish, investorlar ishonchini oshirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashning eng dolzarb strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Fond bozorlarining, shu jumladan birjalarining, yuqori kapitallashuvga erishishi uchun xorijiy institutsional investorlarning faol ishtiroki zarurdir. Shu bois, davlatning bunday investorlarni milliy fond bozoriga jalb qilishga qaratilgan sa’y-harakatlari juda muhimdir, chunki bunday strategiyalar rivojlangan iqtisodiy tizimlarga xos hisoblanadi. Shuni alohida qayd

etishimiz joizdirki, milliy fond bozorimizda chet ellik institutsional investorlarni yurtimizda alohida fillial tashkil etmagan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri aksiyadorlik jamiyatlarimizning qimmatli qog‘ozlariga sarmoya kiritish imkoniyatni beruvchi “Kapital bozori sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom” [11]ni 2024-yilda tasdiqlanishi hamda ushbu orqali fond birjalaridagi xorijiy ishtirokchilar vakolatlari aniq belgilanishi sohada yangi davrlar boshlanganidan dalolat bermoqda.

Bizga ma’lumki, hozirgi kunda O‘zbekistonda fond bozori faoliyatini “Toshkent” respublika fond birjasi” AJ tomonidan tashkillashtiradi. Shuningdek, “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi 2014-yil 12-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, “Birja – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs. Birja faoliyati birja tovarlari bozorini tashkil etish va tartibga solishga hamda talab va taklif asosida birja tovarlarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir”[11]. O‘zbekiston Respublikasida “Toshkent” RFB 1994-yilda milliy fond bozorini rivojlantirish uchun tashkil etilgan. Bugungi kunda u yagona qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchisi sifatida o‘z faoliyatini kengaytirib, xalqaro integratsiya jarayonlarini amalga oshirishga kirishmoqda. Quyida “Toshkent” RFB AJida 30-yillik savdolar qiymati va bitimlar soni kuzatishimiz mumkindir (1-diagramma).

1-diagramma

“Toshkent” RFBida savdolar hajmi va uning o‘zgarishi (mlrd so‘m)*



*https://uzse.uz/analytics/ ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Diagrammada “Toshkent” RFB savdolar hajmining o‘sishi 1994 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan davrda, dastlab 0,03 mlrd so‘mdan boshlanib, 2023 yilga kelib 2607,5 mlrd so‘mga yetganligi kuzatildi. 1995 yilda savdolar hajmi 4333% ga oshib, bu ko‘rsatkichning keskin o‘sishini aks ettiradi, lekin 1997 yilda 82% ga tushib, o‘sish sur’atlarida pasayish yuz berdi. 2000 yildan keyin savdolar hajmining 147% ga o‘sishi, 2001 yilda esa 151% ga ko‘tarilishi muhim iqtisodiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. 2006 yilda 327% o‘sish bilan savdolar hajmi 136,2 mlrd so‘mgacha yetdi, bu esa bozorning jadal rivojlanayotganligini bildiradi. Umumiy holatda “Toshkent” RFBida savdolar hajmi va uning o‘zgarishi tahlil etilgan bo‘lib, savdolar qiymati 1994-yilda 0,03 mlrd so‘mlik qiymatni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilgacha jami 12,397 trln so‘mlik bitimlar amalga oshirilgan bo‘lib, so‘nggi 3 yilda ushbu ko‘rsatkichlarning sezilarli ravishda o‘zgarishini kuzatishimiz mumkindir.

Bizga ma’lumki, “Toshkent” RFB AJ savdo platformalarini rivojlantirish bo‘yicha faol chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda va bunda fond bozorining professional ishitirokchilarining o‘rni kattadir. Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, “qimmatli qog‘ozlar, xususan, fond bozorining professional ishitirokchisi yuridik shaxs hisoblanib, moliyaviy instrumentlar savdosida vositachilik, saqlash, investitsiya va reinvestitsiya, nazorat kabi vazifalarni amalaga

oshiradi”[12]. Ushbu jihatdan kelib chiqqan holda, fond bozorining professional ishtirokchilarini quidagicha ta’riflash va tavsiflash mumkin (1-chizma).

1-chizma

Fond bozorining professional ishtirokchilari*



*“Toshkent” RFB ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida ro‘yxatga olingan professional ishtirokchilar, huquqiy, iqtisodiy va psixologik jihatlardan kelib chiqib, mahalliy va xorijiy investorlar bilan emitentlarni fond bozorlariga jalb etishda muhim tashkiliy elementlardir. Ular emitentlarga moliyaviy resurslarni to‘plash uchun korporativ qimmatli qog‘ozlarni muvaffaqiyatli sotishga ko‘maklashadi, shuningdek, investorlar uchun ushbu aktivlarni sotib olish orqali foyda olish imkoniyatini yaratadi. Bunday ishtirokchilar fond bozorining rivojlanishida muhim rol o‘ynab, sarmoyalar oqimini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada, ular iqtisodiy tizimning barqarorligini ta’minlashga ham hissa qo‘shadi. Quyida milliy fond bozorimizdagi professional ishtirokchilar faoliyati ko‘rib chiqiladi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda fond bozorining professional ishtirokchilari faoliyati tahlili*

Nomlanishi	Soni	Faoliyatni qo‘shib olib borish imkoniyati	Huquqiy shakli
Investitsiya vositachisi	48	Mavjud	AJ, MCHJ
Investitsiya maslahatchi	30	Mavjud	AJ, MCHJ
Investitsiya fond	9	Mavjud emas	AJ
Investitsiya AIB	30	Mavjud	AJlar, MCHJ
Transfer-agentlar	20	Mavjud	AJlar, MCHJ
Qimmatli qog‘ozlarning BTST	-	Mavjud emas	AJ

*https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/oecd-institutional-investors-statistics_2225207x OECD Institutional Investors Statistics

Jadvalda respublikamizda faoliyat olib borayotgan fond bozorining professional ishtirokchilar bo‘yicha umumiy ma’lumotlar berib o‘tilgan. 2023-yilda jami investitsiya vositachilar 48 tani, investitsiya fondlar esa 9 tani tashkil etgan.

Investitsiya vositachilar ichida bitimlar soni bo‘yicha top 5 talikni quyida ko‘rib chiqish mumkin(2-diagramma).

2-diagramma

2023-yilda milliy fond bozorida bitimlar soni bo‘yicha top 5 ta investitsion vositachilar*



*https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/oecd-institutional-investors-statistics_2225207x OECD Institutional Investors Statistics

Yuqoridagi 2-diagrammada 2023-yil natijalari bo‘yicha fond bozorida bitimlarni eng ko‘p amalga oshirgan investitsion vositachilarni tahlilini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Alkes Research investitsion vositachisida jami 330695 dona bitimlar qayd etilgan bo‘lib, sotuvlar hajmi ustunlik qiladi.

Bitimlar qiymatlari yuzasidan ma’lumotlarni quyida keltirilgan (3-diagramma).

3-diagramma.

2023-yilda milliy fond bozorida bitimlar qiymati bo‘yicha top 10 ta investitsion vositachi*



*https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/oecd-institutional-investors-statistics_2225207x OECD Institutional Investors Statistics

Yuqoridagi diagrammada fond bozorida bitimlar qiymati bo‘yicha investitsion vositachilar reytingini ko‘rishimiz mumkindir. Xususan, “Alp omad invest” investitsion vositachisi o‘tgan yilda umumiy qiymatda 1,484 trln so‘mlik bitimlarni ro‘yxatga olgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich jami milliy fond bozorga nisbatan 57,07 foizni tashkil etadi.

Ma’lumki, fond bozorida professional ishtirokchi kabi institutsional investorlar ham yuqori salohiyat va ahamiyatga ega hisoblanadi. Ilmiy nashrlarda qayd etilganidek, “Institutsional investorlar (investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari va pensiya jamg‘armalari) jamg‘armalarning asosiy yig‘uvchilari va moliya bozorlariga mablag‘larni yetkazib

beruvchilardir”[13]. Institutsional investorlarning fond bozorini rivojlantirishdagi eng muhim jihatlarini quyida aks etirilgan (4-chizma).

4-chizma

Institutsional investorlarning fond bozoridagi roli*



*Shoha’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. – T “Fan va texnologiya”, 2012. – 440b.

Chizmada qayd etilgani bo‘yicha, institutsional investorlar fond bozorida likvidlikni oshirish, narxlarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatish va uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirishda muhim vazifalarni bajaradi. Ular bozorni tartibga solish va tadqiqotlar olib borish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Xalqaro miqyosda institutsional investorlarning turli turlari mavjud bo‘lib, har birining o‘ziga xos investitsiya strategiyalari va maqsadlari bor. Ushbu investorlar bozorning samaradorligini oshirishga hissa qo‘shish bilan birga, iqtisodiy o‘sishga ham yordam beradi.

Xulosa

Milliy iqtisodiyotda investorlarning faolligini oshirishda fond bozori professional ishtirokchilarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etib, moliya bozori hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kapital bozorining barqaror ishlashi va chuqurlashuvi ko‘p jihatdan fond bozori professional ishtirokchilarining — investitsiya vositachilari, brokerlar, dilerlar va aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalarning faolligiga bog‘liq. Ayni vaqtda, ushbu subyektlarning bozorga ta’sirchanligi nisbatan cheklangan bo‘lib, bu investorlarning ishonch darajasini pasaytirish xavfini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ular faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va malaka talablarini oshirish zarur. Bu orqali bozor mexanizmlari orqali kapitalning samarali taqsimlanishi va fond bozorining likvidligini oshirishga erishiladi.

Fond bozorining rivojlanishida professional ishtirokchilarning axborot vositachisi sifatidagi roli juda muhim bo‘lib, ular investorlar bilan emitentlar o‘rtasida ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradi. Afsuski, ba’zi holatlarda bu ishtirokchilarning faoliyati yetarli darajada shaffof bo‘lmagani sababli, moliyaviy vositalar bozorida noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi mumkin. Shu boisdan, ularning faoliyatini tartibga soluvchi institutsional asoslar, jumladan, akkreditatsiya, lisenziyalash va mustaqil audit tizimlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur chora-tadbirlar investorlarni himoyalash va fond bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kapital bozorining institutsional infratuzilmasini mustahkamlashda fond bozori professional ishtirokchilarining yuqori darajadagi malakasi va axloqiy me’yorlarga sodiqligi muhim omil hisoblanadi. Ularning moliyaviy xizmat ko‘rsatish sifati va bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytirishdagi roli fond bozori samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik asosida ularni qayta tayyorlash, attestatsiya qilish va malaka oshirish markazlarini kengaytirish taklif etiladi. Bunday yondashuv orqali professional ishtirokchilarning raqobatbardoshligini oshirish va milliy fond bozorini xalqaro moliya bozorlariga integratsiya qilish imkoniyati kengayadi.

Fond bozori professional ishtirokchilarining faolligi nafaqat kapital bozorining hajmiy o‘sishiga, balki uning sifati va barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ularning faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan raqamli platformalarda olib borishi, investorlar uchun qulay va ishonchli muhit yaratadi. Bu esa moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan birga, bozorga yangi ishtirokchilarni jalb etish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, davlat siyosatida professional vositachilarni rag‘batlantirish, ularning faoliyatini soddalashtirish va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon Banki: https://data.worldbank.org/indicator/cm.mkt.trad.cd
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.
3. Manjri Damele “Capital Market Development and Investor’s Response”. – India: K.K.Publications. 2021 y. – 240 p.
4. International Finance Corporation: Emerging Market Green Bonds 2023 – https://www.ifc.org/content/dam/ifc/doc/2024/emerging-market-green-bonds-2023.
5. Kesra Nermend, Waldemar Tarczyński. Effective Investments on Capital Markets. – Poland.: Springer International Publishing. 2019 y. – 510 p.
6. Michael Becket How the Stock Market Works:A Beginner’s Guide to Investment.- UK.:Kogan Page. 2014 y. – 179 p.
7. M. Choudhry , D. Joannas, G. Landuyt, R. Pereira, R. Pienaar. “Capital Market Instruments:Analysis and Valuation”. – London.: Palgrave Macmillan UK. 2009 y. – 546 p.

8. Elmirzayev S., Uzoqov M., Yusupov D. “Kapital bozorini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish omili” International Journal of Finance and Digitalization. – www.ijfd.uz ISSN: 2181-3957 Vol. 1 Issue 02, 2022 y. 8 p.

9. Кадирова Х.Т. Перспективы развития и совершенствования регионального финансового рынка Наманганской области в сфере принятия концепции его развития. //Экономика: анализы и прогнозы. – 2021. – №. 1. – 103-108 с.

10. Shoha’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. Darslik.:T “Fan va texnologiya”, 2012. – 440b.

11. O‘zbekiston Respublikasining “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida” 12.09.2014 yildagi O‘RQ-375-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

12. O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni 2015 yil 3 iyun, O‘RQ-387-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son.

13. Каримов А. Капитал бозорини ривожлантириш йўналишлари //Страховой рынок Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 34-37.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ВОЛАТИЛЬНОСТЬ АКЦИЙ АО «УзРТСБ»: ВЛИЯНИЕ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ, SPO И КАПИТАЛИЗАЦИИ НА РЫНОЧНУЮ ДИНАМИКУ

Пулатов Улугбек Хапизович

докторант кафедры
бухгалтерского учета
и аудита
Наманганский государственный
технологический университет
E-mail: ulugbek.pulatov1@gmail.com
ORCID:0009-0008-8731-0701

Аннотация. *Статья посвящена анализу волатильности акций АО «УзРТСБ» и факторов, оказывающих влияние на их динамику, включая дивидендную политику, процедуры SPO и последующую капитализацию. На основе эмпирических данных и сравнительного анализа с другими публичными размещениями (IPO) в Узбекистане, исследуются поведенческие особенности инвесторов и рыночные реакции на ключевые корпоративные события. Результаты анализа показывают, что стабильность дивидендов, доступность через цифровые платформы, а также ориентация на розничных инвесторов в рамках SPO обеспечили АО «УзРТСБ» устойчивый рост доверия и интереса со стороны частных инвесторов. Выводы статьи могут служить практическим ориентиром для будущих эмитентов и регуляторов фондового рынка.*

Ключевые слова: *акции URTS, фондовый рынок Узбекистана, дивидендная политика, SPO, IPO, капитализация, волатильность, инвестиции, розничные инвесторы, финансовая грамотность.*

“O‘zRTXB” AJ AKTSIYALARINING O‘ZGARUVCHANLIGI: BOZOR DINAMIKASIGA DIVIDEND SIYOSATI, SPO VA KAPITALLASHUVNING TA’SIRI

Po‘latov Ulug‘bek Xapizovich

buxgalteriya hisobi va audit
kafedrasi doktoranti
Namangan davlat texnologiya universiteti
E-mail: ulugbek.pulatov1@gmail.com
ORCID: 0009-0008-8731-0701

Annotatsiya. *Maqola “O‘zRTXB” AJ aktsiyalarining o‘zgaruvchanligi va ularning dinamikasiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan, dividend siyosati, SPO tartiblari va keyingi kapitallashuv tahliliga bag‘ishlangan. Empirik ma’lumotlar va O‘zbekistondagi boshqa ommaviy takliflar (IPO), qiyosiy tahlil asosida investorlarning harakati va asosiy korporativ hodisalarga bo‘lgan bozor munosabati o‘rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, dividendlarning barqarorligi, raqamli platformalar orqali foydalanish imkoniyati, shuningdek, SPO doirasida chakana investorlarga e’tibor qaratilishi “O‘zRTXB” AJga xususiy investorlar tomonidan ishonch va qiziqishning barqaror o‘sishini ta’minladi. Maqolaning xulosalari kelajakdagi emitentlar va fond bozorini tartibga soluvchi organlar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *URTS aktsiyalari, O‘zbekiston fond bozori, dividend siyosati, SPO, IPO, kapitallashuv, volatillik, investitsiyalar, chakana investorlar, bozorning moliyaviy savodxonligi.*

VOLATILITY OF ‘‘UzEX’’ JSC SHARES: INFLUENCE OF DIVIDEND POLICY, SPO AND CAPITALIZATION ON MARKET DYNAMICS

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Pulatov Ulugbek Khapizovich
PHD student of
Accounting and audit department
Namangan State Technological University
E-mail: ulugbek.pulatov1@gmail.com
ORCID:0009-0008-8731-0701

Abstract. *The article is devoted to the analysis of the volatility of shares of UZEX JSC and factors influencing their dynamics, including dividend policy, SPO procedures and subsequent capitalization. Based on empirical data and comparative analysis with other public offerings (IPOs) in Uzbekistan, the behavioral characteristics of investors and market reactions to key corporate events are investigated. The results of the analysis show that the stability of dividends, accessibility through digital platforms, and the focus on retail investors in the SPO provided UZEX with a steady increase in private investor confidence and interest. The conclusions of the article can serve as a practical guideline for future issuers and stock market regulators.*

Keywords: *URTS shares, stock market of Uzbekistan, dividend policy, SPO, IPO, capitalization, volatility, investments, retail investors, financial literacy.*

Введение

Развитие рынка ценных бумаг в Узбекистане на этапе структурных реформ в экономике приобретает особую актуальность. Особое внимание уделяется роли процедур IPO и SPO как механизмам привлечения расширенного круга инвесторов и создания прозрачной среды для оценки деятельности эмитентов. В этом контексте особый интерес представляет опыт АО «УзРТСБ», чьи акции в последние годы отличаются высокой волатильность и стабильным интересом со стороны частных и институциональных инвесторов.

В настоящей статье предпринимается попытка комплексного анализа факторов, влияющих на волатильность акций URTS, с особым акцентом на дивидендную политику, процессы SPO и капитализацию. Результаты анализа позволяют выяснить, насколько вышеназванные параметры оказывают влияние на ценовую динамику, инвесторские ожидания и поведенческие тренды рынка.

Обзор литературы

Развитие фондового рынка Узбекистана в условиях либерализации экономики и привлечения розничных инвесторов привлекло внимание как научного сообщества, так и практиков к вопросам волатильности, дивидендной политики и механизмов публичного размещения акций. В последние годы акцент сделан на формировании устойчивого спроса со стороны населения, чему способствует распространение цифровых торговых платформ [2] и запуск программы «Народное IPO» [3].

Формирование открытого акционерного капитала в рамках SPO и IPO, как показывает опыт АО «УзРТСБ», становится важнейшим механизмом расширения инвестиционной базы. Работы международных организаций (World Bank, OECD) подчеркивают, что повышение финансовой грамотности и прозрачность корпоративного управления усиливают вовлеченность розничных инвесторов [4].

Финансовые отчёты и обзоры инвестиционных компаний (KAP DEPO, Freedom Broker, Avesta) свидетельствуют о высокой чувствительности котировок URTS к изменениям в дивидендной политике и структуре капитализации. В частности, аналитики фиксируют сезонную природу пиковых цен, приходящихся на первый квартал года, что связано с ожиданием дивидендов [5].

Долгосрочные наблюдения за деятельностью АО «УзРТСБ» позволяют сделать вывод о стратегическом подходе компании к формированию рыночной стоимости и повышению ликвидности. Как отмечается в ряде публикаций, последовательная

дивидендная политика, ориентированная на выплату 80–85% чистой прибыли, обеспечивает предсказуемость для инвесторов и усиливает доверие к эмитенту [6].

Исследования внутреннего рынка показывают, что в отличие от других эмитентов, участвовавших в IPO, таких как «Узтелеком» и «Узбекинвест», акцент АО «УзРТСБ» на частных инвесторов создаёт уникальный прецедент. Это подтверждается более высокой долей физических лиц среди участников размещения [7].

Наконец, анализ поведенческих аспектов инвесторов указывает на эволюцию от спекулятивных к долгосрочным стратегиям. Это отмечено и в научных работах по поведенческим финансам, применительно к развивающимся рынкам [8].

Таким образом, литература подтверждает важность институциональных факторов, прозрачности и предсказуемости корпоративной политики в формировании устойчивого фондового рынка в Узбекистане. Опыт АО «УзРТСБ» можно рассматривать как модель для будущих эмиссий в рамках национальных программ по вовлечению населения в инвестиционный процесс.

Методология исследования

Настоящее исследование основано на комплексном подходе, включающем как количественные, так и качественные методы анализа. Используемые инструменты включают: анализ временных рядов рыночной стоимости акций URTS с 2021 по 2025 годы; статистическую обработку дивидендных выплат, включая расчёт доходности по номинальной и рыночной стоимости акций; оценку влияния событий SPO и капитализации на изменение волатильности на основе периодов пиковых ценовых движений; сравнительный анализ с другими участниками IPO/SPO в Узбекистане, в частности с компаниями «Узтелеком» и «Узбекинвест»; поведенческий анализ реакции инвесторов на изменения дивидендной политики и рыночной капитализации.

Источниками данных выступают официальные отчёты АО «УзРТСБ», данные брокерских компаний KAP DEPO, Freedom Broker , Avesta Investment Group, аналитические прогнозы и публикации на платформе «E-auksion», а также архивы новостных изданий, освещающих ход SPO.

Анализ и результаты

АО «Узбекская республиканская товарно-сырьевая биржа» была основана в апреле 1994 года и зарегистрирована в Министерстве юстиции Республики Узбекистан. На сегодняшний день она является крупнейшей торговой площадкой в Центральной Азии и активно развивающейся товарной биржей стран СНГ. Международная представленность Биржи охватывает Россию, Турцию, Казахстан, Китай, Южную Корею и Таджикистан.

С 2018 по 2024 годы АО «УзРТСБ» демонстрировало устойчивый рост финансовых показателей. Чистая прибыль компании увеличилась в среднем на 68% ежегодно, а валовая маржа за последние шесть лет составляла в среднем 89%. Маржа чистой прибыли возросла с 25% в 2018 году до 61% в 2023 году, что свидетельствует о высокой эффективности деятельности.

Кредитный рейтинг уровня «B» со стабильным прогнозом, присвоенный агентством Fitch Ratings в декабре 2023 года (и подтверждённый в сентябре 2024 года), отражает стабильное финансовое положение эмитента. Примечательно, что биржа не имеет долговых обязательств и не планирует привлекать долг в среднесрочной перспективе.

Дивидендная политика биржи отличается стабильностью: на протяжении более 15 лет АО «УзРТСБ» регулярно выплачивает дивиденды, направляя в среднем 80–85% чистой прибыли на выплаты акционерам. Это делает её одной из самых привлекательных компаний на узбекском фондовом рынке с точки зрения доходности и инвестиционной надёжности.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Одним из ключевых факторов, оказывающих влияние на волатильность акций АО «УзРТСБ», выступает дивидендная политика. В течение последних четырёх лет наблюдается стабильный рост дивидендов: с 1 100 сумов на акцию в 2021 году до 2 600 сумов в 2024 году. При этом доходность по номинальной стоимости акций (630 сумов) увеличилась более чем в два раза – с 174,6% в 2021 году до 412,7% в 2024 году.

Рост дивидендов сопровождался положительными ожиданиями со стороны инвесторов, особенно в период с января по март каждого года, что обусловлено приближением даты выплаты дивидендов. Как следствие, рыночная стоимость акций традиционно достигает своих максимумов в феврале–марте. Например, в 2023 году краткосрочные пики роста зафиксированы в диапазоне 23 000 – 25 000 сумов, при среднем диапазоне в течение года 18 000 – 20 000 сумов.

В 2024 году, несмотря на некоторое снижение среднегодовой цены (14 000 – 16 000 сумов), в феврале – марте наблюдался очередной всплеск интереса инвесторов: цена достигала 18 500 сумов. Однако отсутствие промежуточных дивидендов по результатам 1 квартала, полугодия и 9 месяцев сдерживает более резкие колебания.

Таким образом, можно заключить, что дивидендная политика АО «УзРТСБ» выступает стабилизирующим фактором, формирующим предсказуемость поведения акций и стимулирующим спрос в преддверии выплат. При этом её влияние на волатильность выражается в сезонных пиковых значениях, приходящихся на первый квартал каждого года.

Влияние SPO на волатильность акций URTS особенно ярко проявилось в третьем и четвёртом квартале 2024 года. В рамках программы «Народное IPO» с 26 сентября по 8 ноября было размещено 4,44% уставного капитала – 3 326 031 акций. Масштабная рекламно-разъяснительная кампания, активное привлечение инвестиционных посредников и цифровых платформ, а также упрощённые способы подачи заявок обеспечили широкий охват.

Всего было подано 12 600 заявок от физических и юридических лиц, из которых удовлетворено 11 298 (в том числе 11 234 от физических лиц). Объём переподписки составил 108%, что свидетельствует о высоком интересе со стороны розничных инвесторов.

Сравнение с IPO компаний «Узтелеком» и «Узбекинвест» показывает существенные отличия в структуре и последствиях размещения. Если у указанных компаний большая часть акций досталась институциональным инвесторам, то в случае АО «УзРТСБ» приоритет был отдан физическим лицам. Кроме того, АО «УзРТСБ» провело дополнительную капитализацию, направив 198,8 млрд сумов на выпуск более 299,8 млн акций, которые были распределены между существующими акционерами в пропорции 1:4.

Это оказало двойной эффект: во-первых, расширилась база акционеров, во-вторых, произошла коррекция рыночной цены. 12 ноября 2024 года, после завершения SPO, рыночная цена акций URTS была скорректирована с 15 339 сумов до 3 079,8 сумов за акцию, что эквивалентно делению на 5. Несмотря на снижение цены, скорректированная стоимость превышала цену размещения (2 580 сумов), что подтверждает наличие устойчивого спроса и позитивных ожиданий инвесторов.

Таким образом, процесс SPO/IPO сыграл ключевую роль в краткосрочном усилении волатильности и среднесрочном росте капитализации эмитента.

Капитализация, проведённая АО «УзРТСБ» после успешного завершения SPO, представляет собой значительный шаг в направлении укрепления финансовой структуры эмитента. На эти цели было направлено 198,8 млрд сумов из нераспределенной прибыли прошлых лет. В результате выпущено более 299,8 млн дополнительных акций номинальной стоимостью 630 сумов, которые были распределены между акционерами из расчета 4 новых акции на каждую имеющуюся.

Такой подход не только увеличил объём обращения акций на рынке, но и способствовал повышению ликвидности, а также потенциально расширил круг инвесторов за счёт снижения рыночной цены одной акции. После коррекции рыночной стоимости акций 12 ноября 2024 года цена URTS была уменьшена в 5 раз – с 15 399 сумов до 3 079,8 сумов. Это обеспечило большую доступность акций для розничных инвесторов, не повлияв при этом на суммарную рыночную капитализацию компании.

Важно отметить, что капитализация не сопровождалась дополнительным привлечением средств со стороны инвесторов, а была осуществлена за счёт внутренних ресурсов, что позволило избежать размывания долей. Тем не менее, краткосрочный эффект выразился в снижении котировок, вызванном корректировкой и фиксацией прибыли инвесторами, рассчитывавшими на рост цен после SPO.

Проведённый анализ показывает, что опыт АО «УзРТСБ» в проведении SPO выделяется на фоне других компаний, участвовавших в IPO в Узбекистане. Так, в 2023 – 2024 годах были организованы IPO таких крупных государственных компаний, как «Узтелеком» и «Узбекинвест», но подходы к размещению, охват инвесторов и дальнейшие действия по капитализации принципиально отличались.

IPO «Узтелеком» собрало около 11 тыс. заявок на сумму 43,6 млрд сумов, из которых было удовлетворено заявок на 33,25 млрд сумов. При этом около 60% заявок пришлось на институциональных инвесторов. Аналогичная ситуация наблюдалась и в IPO «Узбекинвест», где из 247 заявок на сумму 18,13 млрд сумов было удовлетворено только 100 заявок, а более 70% размещённых акций приобрели институциональные участники.

В отличие от них, SPO АО «УзРТСБ» было направлено на розничного инвестора: из 12,6 тыс. заявок удовлетворено 11 234 от физических лиц. Такой демократичный подход в распределении акций создаёт прецедент в практике фондового рынка Узбекистана [9] и способствует формированию широкого слоя частных акционеров. Также важным отличием является тот факт, что после размещения акций АО «УзРТСБ» провело дополнительную капитализацию за счёт нераспределенной прибыли, увеличив количество акций в обращении и предоставив существующим акционерам новые акции из расчёта 4 к 1.

Таким образом, опыт Биржи может быть использован в качестве эталона для будущих размещений, особенно при разработке программ «Народного IPO» и стимулирования финансовой вовлеченности населения.

Поведение инвесторов в процессе и после SPO АО «УзРТСБ» показывает, что их решения во многом формируются под влиянием информационных поводов, в частности связанных с дивидендной доходностью. Так, рост котировок в ноябре-декабре 2024 года был обусловлен ожиданиями высоких дивидендов. Однако объявление в марте 2025 года размера дивидендов в 382 сума на акцию (ниже прогнозируемых 429 сумов) вызвало падение цены до 3 080–3 200 сумов.

Несмотря на это, рыночная активность осталась высокой. Это свидетельствует о том, что доверие к эмитенту сохраняется, а дивидендная политика остаётся важным, но не единственным фактором при принятии инвестиционных решений. Ожидания долгосрочного роста акций URTS также поддерживаются результатами SPO, увеличением капитализации и общим укреплением корпоративного имиджа АО «УзРТСБ».

Такие поведенческие особенности подтверждают наличие эволюции в структуре инвесторов на фондовом рынке Узбекистана – от краткосрочной спекулятивной модели к долгосрочным стратегиям [13] с элементами фундаментального анализа.

В 2025–2026 годах ожидается сохранение позитивной динамики акций URTS. Прогнозы основаны на следующих предпосылках:

1. Сохранение дивидендной доходности на уровне 13 – 15% по рыночной цене.
2. Проведение очередной волны SPO или дополнительной эмиссии с учётом высокого интереса инвесторов.

3. Повышение ликвидности за счёт цифровизации процессов торговли через платформу «E-auksion» и мобильные приложения.

4. Потенциальное привлечение международных инвесторов при поддержке стратегических партнёров (KPMG, Satori Group и др.).

Сезонные пики в первом квартале останутся характерной чертой акций URTS. Однако долгосрочный горизонт их оценки указывает на стабильный рост и интерес со стороны частных инвесторов, особенно в свете дивидендной предсказуемости и высокой прозрачности управления.

Заключение

Анализ волатильности акций АО «УзРТСБ» показывает, что ключевыми факторами влияния являются стабильная дивидендная политика, структурированное и прозрачно проведённое SPO, а также уникальная стратегия капитализации. Эти элементы способствуют формированию устойчивого спроса, особенно со стороны физических лиц, и делают URTS одним из наиболее привлекательных активов на фондовом рынке Узбекистана.

Поведенческие особенности инвесторов, выявленные в ходе анализа, подчеркивают растущую роль частного инвестора в экономике страны и необходимость дальнейшего повышения финансовой грамотности. Успех АО «УзРТСБ» в SPO может служить моделью для будущих эмиссий других компаний, стремящихся к публичности, ликвидности и доверию со стороны инвесторов.

Таким образом, акции URTS представляют собой пример удачного сочетания фундаментальных показателей и грамотной рыночной стратегии. В долгосрочной перспективе можно ожидать дальнейшее укрепление их позиций, при условии сохранения прозрачности, дивидендной дисциплины и активной коммуникации с рынком.

Использованная литература

1. Закон Республики Узбекистан «О рынке ценных бумаг». Последняя редакция на 2024 год.

2. Платформа «E-auksion». – https://ipo.e-auksion.uz

3. Zoomrad, DavrMobile, GoInvest, Jett. Информационные материалы по онлайн-инвестированию в рамках IPO.

4. Рузиматов А.К. Развитие публичных размещений акций в Узбекистане: вызовы и перспективы. // Экономика и финансы. – 2023. №4.

5. KAP DEPO. (2024). Обзор инвестиционного потенциала URTSB. Freedom Broker. (2024). Аналитический прогноз по акциям URTS. Avesta Investment Group. (2024). Рыночный обзор по результатам SPO АО «УзРТСБ».

6. Fitch Ratings. (2023). Credit Rating Report for URTSB. Декабрь 2023 / Сентябрь 2024.

7. Биржевой рынок Узбекистана: современные тенденции и перспективы. Сборник статей. – Ташкент: Центр исследований финансового рынка, 2024.

8. OECD. Financial Literacy and Retail Investors in Emerging Markets. – 2022.

9. Официальный сайт АО «УзРТСБ». – https://uzex.uz

10. World Bank. Capital Markets Development Report for Central Asia. – 2023.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

EKOLOGIK YO‘NALTIRILGAN INVESTITSION PLATFORMALAR BOZORINING TARAQQIYOTI VA STARTAP LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Allayarov Suxrob Rustamovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: s.allayarov@tsue.uz
ORCID:0000-0002-0565-3938

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yashil investitsion platformalar bozorining shakllanish jarayoni, uning asosiy tarkibiy elementlari hamda ekologik startaplarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlari o‘rganilgan. So‘nggi yillarda global ekologik muammolar kuchayishi natijasida barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modelga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza texnologiyalar va resurslarni tejovchi innovatsiyalarni moliyalashtirishni ta’minlaydigan yangi investitsion vositalar shakllanmoqda. Tadqiqot jarayonida yashil investitsiyalarni kengaytirish uchun davlat qo‘llab-quvvatlashi, xususiy kapitalni jalb etish va raqamli moliyaviy platformalar imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *yashil investitsiya, ekologik startap, raqamli investitsion platformalar, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, venchur moliyalashtirish, kraudfanding, yashil obligatsiyalar, ekologik innovatsiyalar.*

РАЗВИТИЕ РЫНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННЫХ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПЛАТФОРМ И МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ

Аллаяров Сухроб Рустамович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам доцент кафедры «Финансы и финансовые технологии» Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: s.allayarov@tsue.uz
ORCID:0000-0002-0565-3938

Аннотация. *В данной статье рассматривается формирование рынка платформ для «зеленых» инвестиций и эффективные механизмы финансирования эко-стартапов. В последние годы растущие глобальные экологические проблемы усилили потребность в экономической модели, основанной на принципах устойчивого развития. В результате появляются новые финансовые инструменты, поддерживающие возобновляемую энергетику, переработку отходов, чистые технологии и ресурсоэффективные инновации. В исследовании предлагаются рекомендации по расширению «зеленых» инвестиций посредством государственной поддержки, привлечения частного капитала и совершенствования цифровых финансовых платформ.*

Ключевые слова: *зеленые инвестиции, эко-стартапы, цифровые инвестиционные платформы, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, венчурное финансирование, краудфандинг, зеленые облигации, экологические инновации.*

DEVELOPMENT OF THE MARKET OF ECO-ORIENTED INVESTMENT PLATFORMS AND MECHANISMS FOR FINANCING START-UP PROJECTS

Allayarov Sukhrob Rustamovich
Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences
Associate Professor of the Department
of “Finance and Financial Technologies”,
Tashkent State the University of Economics
E-mail: s.allayarov@tsue.uz
ORCID:0000-0002-0565-3938

Abstract. *This article examines the formation of the green investment platform market and effective mechanisms for financing eco-startups. In recent years, growing global environmental challenges have increased the need for an economic model based on the principles of sustainable development. As a result, new financial instruments supporting renewable energy, waste recycling, clean technologies, and resource-efficient innovations are emerging. The research proposes recommendations for expanding green investments through government support, private capital attraction, and the enhancement of digital financial platforms.*

Keywords: *green investment, eco-startup, digital investment platforms, sustainable development, renewable energy, venture financing, crowdfunding, green bonds, environmental innovations.*

Kirish

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda yashil investitsiyalar va ekologik startaplar muhim rol o‘ynamoqda. Bu yo‘nalish barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik innovatsiyalar va raqamli moliyalashtirish platformalari bilan chambarchas bog‘liq. Ekologik startaplar atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, iqtisodiyotning raqamli va innovatsion segmentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ko‘plab mamlakatlar yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish va ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus platformalar yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda. Xususan, 2024-yil 14-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-357-sonli qarorida raqamli texnologiyalar sohasidagi startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, venchur kapital bozorini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari belgilangan. Qarorda startap ekotizimida ro‘yxatdan o‘tgan loyihalar uchun moliyaviy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, shuningdek, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini rivojlantirish tartiblari ko‘zda tutilgani alohida ta’kidlangan. Bu chora-tadbirlar startaplarning yuqori o‘sish salohiyatini rag‘batlantirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va ekologik yo‘nalishda ijtimoiy mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi[20].

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yashil investitsion platformalar bozorini shakllantirish va ekologik startaplarni moliyalashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur jarayon nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil investitsion platformalar bozorini shakllantirish va ekologik startaplarni moliyalashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish uchun sifat va miqdoriy usullar birlashtirildi. Tadqiqot jarayonida Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-357-sonli qarori[21],

[20] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-357-son, “Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
[21] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-357-son, “Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

tegishli hukumat qarorlari, Raqamli texnologiyalar vazirligi va IT-park faoliyatini aks ettiruvchi rasmiy hujjatlar o‘rganildi. Ushbu hujjatlar startap ekotizimi va venchur moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilishda asosiy baza sifatida xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Shuningdek, ekologik startaplar, yashil investitsiyalar, venchur moliyalashtirish va raqamli investitsion platformalar bo‘yicha milliy va xalqaro ilmiy maqolalar, hisobotlar va statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Bu tadqiqotga global tendensiyalarni solishtirish va mamlakatimizdagi mavjud imkoniyatlarni aniqroq ko‘rish imkonini berdi.

Startap ekotizimining moliyaviy imkoniyatlari, investitsion platformalar va ekologik startaplar faoliyati tahlil qilinib, mavjud imkoniyatlar, qiyinchiliklar va istiqbollar aniqlandi. Shu bilan birga, raqamli investitsion platformalarda venchur jamg‘armalar va xususiy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy oqimlar ham o‘rganildi.

Turli manbalar, statistik ma’lumotlar va Prezident qaroridagi chora-tadbirlar asosida umumiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi startap inkubatorlari, akseleratorlar va venchur jamg‘armalar faoliyati kuzatilib, startap loyihalarining investorlar bilan aloqalari, moliyalashtirish jarayoni va texnologik o‘sish salohiyati o‘rganildi.

1-rasmda tadqiqotning ko‘plab an’anaviy va yangi rivojlanayotgan sohalarni qamrab olishini ko‘rsatadi, jumladan qishloq xo‘jaligi rivoji (Andrieu va boshq., 2017), ishlab chiqarish (Awan, Arnold va Gölgeci, 2021; Gaddy va boshq., 2017; Ghisetti va boshq., 2017), toza energiya texnologiyalari (Bento, Gianfrate va Groppo, 2019), shuningdek chiqindilar, materiallar va atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan kengroq texnologiyalar (Owen va boshq., 2023).

1-rasm. Sektorlar bo‘yicha e’tibor. Manba: adabiyotlar sharhidan kelib chiqib muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1-rasm. Natijalar (results)

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda yashil investitsion platformalar bozorining shakllanishi va ekologik startaplarni moliyalashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda.

Birinchidan, davlatning “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilishi bilan investitsiyalar va moliyalashtirish mexanizmlarida yangi yo‘nalishlar ochildi [2]. Ushbu strategiya iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlarni belgilagan.

Ikkinchidan, ekologik startaplar uchun raqamli investitsion platformalar orqali yangi moliyalashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Masalan, raqamli investitsion platformalar startap loyihalar va investorlar o‘rtasidagi aloqa va moliyaviy oqimlarni tezlashtirish rolini oshirmoqda — bu startaplarning o‘sish salohiyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, “yashil” investitsiya vositalari (masalan, venchur kapital, green-fondlar) orqali investitsiyalar jalb qilish imkoniyati kengaymoqda.

Uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik orqali ekologik startaplarga moliyaviy va nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirmoqda. Masalan, strategiyada «yashil» kreditlash, energiya tejamkorligi maxsus fondlari, investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlari belgilangan.

To‘rtinchidan, startap ekotizimi va investitsion platformalar orqali ekologik startaplarga keltirilayotgan moliyalashtirish nafaqat iqtisodiy foyda balki ijtimoiy-ekologik ta’sirni ham oshirib berdi. Bu esa investorlarga «barqaror» investitsiya modelini tanlash imkonini yaratmoqda va investitsiya bozorida yashil yo‘nalishning jozibadorligini orttirmoqda.

O‘zbekiston startap ekotizimida so‘nggi yillarda sezilarli moliyaviy o‘sish kuzatildi. Boshlang‘ich bosqichdagi investitsiyalar hajmi 2020 yildagi 0,3 million AQSh dollaridan 2024 yilda 69,5 million AQSh dollarigacha oshdi[22](1-grafik), bu 230 martadan ortiq o‘sishni anglatadi. Ushbu o‘sishning asosiy omillaridan biri 2024 yilda 1,16 milliard AQSh dollari baholanishida 52 million AQSh dollari miqdorida Series A investitsiyasini jalb qilgan fintech kompaniya Uzum bo‘ldi. Ushbu yakka investitsiya bitimi ekotizimning umumiy qiymatini 2021 yilda 1 million dollardan kam bo‘lgan miqdordan 2025 yilga kelib 1,2 milliard AQSh dollaridan ortiq darajaga ko‘tarilishiga olib keldi.



1-grafik. O‘zbekiston Startap ekotizimida boshlang‘ich investitsiyalar o‘sishi

Shuningdek, venchur moliyalashtirish infratuzilmasi ham sezilarli darajada kengaydi. 2025 yilga kelib O‘zbekistonda jami aktivlari 136 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan 12 dan ortiq faol venchur fondlari shakllandi, bu esa besh yil ichida o‘n baravar o‘sishni ko‘rsatadi. Ushbu fondlar Fintech, EdTech, sun’iy intellekt va elektron savdo kabi tarmoqlarning kengayishiga muhim turtki berdi, ekotizimning sifat jihatidan yetilayotganini tasdiqladi.

Shuningdek keyingi kuzatuvlarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda investitsion muhitning sezilarli darajada yaxshilanishi natijasida xorijiy kapital oqimi keskin oshgan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yilda chet el investitsiyalari hajmi 60

[22] https://startupgenome.com/report/gser2025/uzbekistan-central-asias-fastest-rising-startup-ecosystem

foizdan ko‘proqqa o‘sib, 34.9 milliard AQSh dollariga yetgan. Investitsiyalar asosan energetika, ishlab chiqarish va qazib olish sanoati kabi an’anaviy yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, so‘nggi bosqichda texnologiyalar, moliya, yashil energiya va transport yo‘nalishlari bo‘yicha ham sezilarli faollashuv kuzatildi.

2025-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda 12 dan ortiq faol venchur fondlari mavjud bo‘lib, ularning umumiy kapital hajmi 136 million AQSh dollaridan oshgan. Bu ko‘rsatkich so‘nggi besh yil ichida o‘n baravar o‘sishni aks ettiradi. Mazkur fondlar FinTech, EdTech, sun’iy intellekt va elektron tijorat kabi innovatsion startaplarning shakllanishi va kengayishiga muhim ta’sir ko‘rsatmoqda[23](1-diagramma).



1-diagramma. O‘zbekistonda faol venchur fondlar sonining o‘sishi

Shuningdek, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va yirik biznes forumlarining tashkil etilishi xorijiy investorlarning mamlakatga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirgan. Xususan, Toshkent Xalqaro Investitsiya Forumi (2025) doirasida ko‘plab yirik korporatsiyalar va moliyaviy institutlar o‘zaro hamkorlik shartnomalarini imzolagan.

Natijalardan biri sifatida, O‘zbekistonning ilk milliard dollarlik startapi bo‘lgan Uzum kompaniyasining shakllanishi va keng ko‘lamli faoliyati mamlakatda raqamli iqtisodiy transformatsiyaning real bosqichga kirganini ko‘rsatadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, ACWA Power tomonidan 2024-yilda 3 milliard dollarlik qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiya kiritilishi O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga strategik yo‘nalganligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, DataVolt, OTP Group va KOC Construction kabi kompaniyalar ishtiroki transport, raqamli infratuzilma va moliyaviy sektorning modernizatsiyasini jadallashtirmoqda.

Umuman olganda, natijalar O‘zbekistonda investitsion faoliyatning faollashuvi tasodifiy emas, balki tizimli islohotlar, tartib-taomillarni soddalashtirish, xalqaro hamkorlik va venchur moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida shuni aniqlash mumkinki, ekologik startaplarning moliyalashtirilishi orqali: energiya-resurs sarfi kamaymoqda, ikkitalik resurslar samaradorligi oshmoqda, chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish ishlari ko‘paymoqda. Bu holat davlatning “yashil iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasida belgilagan maqsadlari bilan mos tushadi.

Yakunda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil investitsion platformalar bozorining shakllanishi va ekologik startaplarni moliyalashtirish imkoniyatlari aniq ijobiy

[23] https://www.elpislabs.com/post/uzbekistan-s-startup-ecosystem-in-2025-a-funding-revolution-underway

tendensiyaga ega. Shu bilan birga, bu jarayonda raqamli infratuzilma, investitsiya modelining yangilanishi, xususiy va davlat sektori hamkorligi ham muhim omil bo‘lmoqda.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yashil innovatsiya konsepsiyasi hozirgi davrda iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni birlashtiruvchi eng muhim rivojlanish yo‘nalishlaridan biridir. Yashil innovatsiya atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan texnologiyalar, mahsulotlar va ishlab chiqarish jarayonlarini yaratish va amaliyotga tadbiq etishni talab qiladi. Bunda asosiy e’tibor tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilar hajmini kamaytirish, energiya tejamkorligini ta’minlash va ishlab chiqarishning ekologik izini qisqartirishga qaratilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil innovatsiya faqat bitta iqtisodiy soha bilan chegaralanmaydi, aksincha u qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik qishloq xo‘jaligi, yashil qurilish texnologiyalari va toza ishlab chiqarish kabi ko‘plab tarmoqlarda o‘z ifodasini topadi. Bu esa yashil innovatsiyaning tizimli va ko‘p qirrali xususiyatini tasdiqlaydi.

Yashil innovatsiyalarni joriy etish jarayoni ko‘pincha ilmiy-tadqiqot ishlari, texnologik modernizatsiya va barqaror dizayn tamoyillarining uyg‘unlashuvini talab qiladi. Shu bilan birga, bunday innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar korxonalarga nafaqat ekologik samaradorlikni oshirish, balki bozorda raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lish imkonini ham yaratadi. Chunki global miqyosda iste’molchilarning ekologik toza mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabi ortib bormoqda.

Shu asosda aytish mumkinki, yashil innovatsiyani rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bilan birga, ekologik mas’uliyatni kuchaytiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va uzoq muddatli barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Yashil innovatsiyalarni joriy etish atrof-muhitga zarar yetkazishni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon faqat ekologik jihatdan foydali emas, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni ham kuchaytiradi.

Yashil texnologiyalarga sarmoya kiritayotgan korxonalar global bozordagi ekologik toza mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabning ortishi fonida strategik ustunlikka ega bo‘lib bormoqda. Qayta tiklanadigan energiya, ekologik qishloq xo‘jaligi, yashil qurilish va toza ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarda innovatsion yondashuvlarning keng qo‘llanilishi iqtisodiyotning modernizatsiya jarayonini tezlashtirmoqda.

Shuningdek maqolamiz yakunida quydagi takliflarni ham berib o‘tishni joiz deb topdik:

Yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish. Banklar, venchur fondlari va davlat grantlari orqali ekologik texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun alohida moliyaviy imtiyozlar joriy etish maqsadga muvofiq.

Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini rag‘batlantirish. Quyosh, shamol, biogaz va geotermal energiya yo‘nalishlaridagi startap va korxonalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini takomillashtirish zarur.

Sanoat korxonalarida ekologik standartlarni joriy etishni kuchaytirish. Ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindi miqdorini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish indikatorlarini baholash tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Universitet–biznes hamkorligini kuchaytirish. Oliy ta’lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasida “yashil texnologiyalar laboratoriyalari”ni tashkil etish orqali ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish samaradorligini oshirish mumkin.

Yashil iste’mol madaniyatini shakllantirish. Aholi va tadbirkorlar uchun ekologik ong va resurslarni tejash madaniyatiga oid o‘quv dasturlari, seminar va media loyihalarini kengaytirish lozim.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

Xulosa qilib aytganda, yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi, balki uzoq muddatda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash va innovatsion loyihalarni kengaytirish muhim strategik vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-357-son, “Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son

3. Global Green Growth Institute (GGGI). (2024). Uzbekistan Country Planning Framework 2024–2028: Green Investments and Sustainable Finance. GGGI. https://gggi.org/country/uzbekistan/

4. Startup Genome. (2025). Global Startup Ecosystem Report 2025: Uzbekistan – Central Asia’s Fastest-Rising Ecosystem. Startup Genome. https://startupgenome.com/report/gser2025/uzbekistan-central-asias-fastest-rising-startup-ecosystem

5. World Bank. (2024). State Funds for Climate Action: Uzbekistan’s Green Transition Financing Mechanisms. World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/state-funds-for-climate-action

6. Reuters & Uzbekistan Investment Agency. (2025). Uzbekistan’s Transformation: $43 Billion FDI Target and Green Energy Leadership. Reuters Partner Content. https://www.reuters.com/plus/uzbekistans-transformation-in-spotlight-with-major-investment-forum-showcasing-opportunity

7. Gaddy, B., Sivaram, V., O’Connor, C., & Wayman, L. (2017). Venture Capital and Cleantech: The Wrong Model for Clean Energy Innovation. Energy Policy, 102, 249–258.

8. Bento, N., Gianfrate, G., & Groppo, J. (2019). Policy Support for Clean Energy Innovation: A Cross-Country Analysis. Journal of Cleaner Production, 232, 54–65.

9. Owen, R., Brennan, G., & Lyon, F. (2023). Green Technology and Sustainable Business Models in Emerging Markets. Journal of Environmental Management, 335, 117–126.

10. Masini, A., & Menichetti, E. (2013). Investment Decisions in the Renewable Energy Sector: Drivers and Barriers. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 27, 473–481.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY MENEJMENT AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH

Ilxomjonova Fotima Muxiddinovna
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
savdo ishi kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: ilhomjonova_fotima@tseu.uz
ORCID: 0009-0008-7109-3343

Annotasiya. *Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyotini rivojlantirish yo‘llari, moliyaviy menejment tizimining ishlash samaradorligi va uning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Shuningdek, “moliyaviy menejment” tushunchasiga turlicha yondashuvlar o‘rganilgan va moliyaviy menejmentning rivojlanish davrlari, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment samarasi ko‘rib chiqilgan. Xalqaro va milliy darajadagi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil etilgan hamda tegishli xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *global iqtisodiyot, moliyaviy menejment, aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar, moliyaviy tizim, daromad, xarajat, aktiv, majburiyat, moliyaviy menejer, direktorlar kengashi, moliyaviy resurs, bozor kapitallashuvi.*

ПРАКТИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСАМИ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Илхамджанова Фатима Мухиддиновна
доктор философии (PhD)
по экономическим наукам
доцент кафедры торгового дела
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: ilhomjonova_fotima@tseu.uz
ORCID: 0009-0008-7109-3343

Аннотация. *В статье рассматриваются пути развития практики финансового менеджмента в акционерных обществах, эффективность системы финансового менеджмента и ее теоретические основы. Также рассматриваются различные подходы к понятию «финансовый менеджмент», исследуются периоды развития финансового менеджемента, а также его эффективность в акционерных обществах. Проведен анализ финансовых показателей акционерных обществ на международном и национальном уровнях и сделаны соответствующие выводы.*

Ключевые слова: *мировая экономика, финансовый менеджмент, акционерные общества, финансовые показатели, финансовая система, доходы, расходы, активы, обязательства, финансовый менеджер, совет директоров, финансовые ресурсы, рыночная капитализация.*

DEVELOPMENT OF FINANCIAL MANAGEMENT PRACTICES IN JOINT-STOCK COMPANIES

Ilxomjonova Fotima Muxiddinovna
Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences
Associate Professor of the

Department of Trade work
Tashkent State the University of Economics
E-mail: ilhomjonova_fotima@tseu.uz
ORCID: 0009-0008-7109-3343

Abstract. *This article describes the ways of developing the practice of financial management in joint-stock companies, the effectiveness of the financial management system and its theoretical foundations. The article also examines different approaches to the concept of financial management and the periods of its development, the effectiveness of financial management in joint-stock companies. The financial indicators of joint-stock companies at the international and national levels are analyzed and relevant conclusions are drawn.*

Keywords: *global economy, financial management, joint-stock companies, financial indicators, financial system, income, expenses, assets, liabilities, financial manager, board of directors, financial resources, market capitalization.*

Kirish

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyotini rivojlantirish masalasi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda kapital bozorining rivojlanishi, fond birjalari orqali aksiyalar va obligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi moliyaviy boshqaruv tizimiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Osiyo taraqqiyot banki ekspertlarining fikricha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yurt iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda strategik rol o‘ynaydi. Moliya oqimlarini aniq prognozlash, tavakkalchiliklarni baholash va qarorlarni optimal qabul qilish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash zarurati dolzarb muammoga aylangan. Raqamli transformatsiya sharoitida korporativ moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, moliyaviy ko‘rsatkichlarning monitoringi va rentabellikni tahlil qilishning ilg‘or uslublarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda aksiyadorlik jamiyatlarining ulushi ortib borayotgan bir paytda ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi ilmiy-amaliy yechimlarni talab qilmoqda.

Jahon mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlarini modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish dolzarbligi oshib, moliyaviy menejment samaradorligini ta’minlashga keng e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Jahon bankining “2022-yil ko‘rsatkichlarida yalpi ichki mahsulotning joriy qiymati dunyoda 100,88 trln AQSh dollariga teng bo‘lib, mamlakatlar kesimi bo‘yicha Yaponiyada 4,256 trln, Germaniyada 4,082 trln, Janubiy Koreyada 1,674 trln, Indoneziyada 1,319 trln, Nederlandiyada 1,009 trln AQSh dollarlik hajmda mahsulot va xizmatlar yaratilgan”[2]. Qayd etish joizki, hudud va resurslari kam bo‘lishiga qaramasdan, ushbu davlatlardagi korxonalarda moliyaviy menejment tizimi samaradorligi yuqori bo‘lishi makroiqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlagan.

O‘zbekiston Respublikasida milliy aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini takomillashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida “2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish” [1] kabi vazifalar belgilab olingan bo‘lib, unda aksiyadorlik jamiyatlarining o‘rni yuqori hisoblanadi. Ushbu jihatlar milliy aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning zamonaviy usullaridan keng foydalanish va faoliyat samaradorligini oshirish, pul oqimlarini to‘g‘ri tashkil etish, moliyaviy modellashtirishning eng samarali yo‘nalishlarini tanlash dolzarbdir.

Adabiyotlar sharhi

Ilmiy manbalarda moiyaviy menejment moliyaviy resurslar, investitsiyani oshirish va kapital hajmini o‘stirishga yo‘naltirilganligi alohida qayd etiladi. Moliyaviy menejmentning umumiy ko‘rinishi moliyaviy resurslar harakatini boshqarish kabidir. Iqtisodchi olim C. Paramasivan qayd etishicha, “Moliyaviy menejment umumiy boshqaruvning ajralmas qismidir. Bu kompaniyadagi moliyaviy menejerlarning vazifalari bilan bog‘liq va ushbu tizimi qay darjada samarali ishlasa faoliyat barqarorligi shu darajada uzoq bo‘ladi” [3]. Fikrimizcha, menejment umumiy boshqaruvni ifodalasa, aynan pul oqimlarini va moliyaviy resurslarni boshqarish moliyaviy menejmentning vazifasidir.

Xorijlik iqtisodchilardan H. Baker, G. Powell o‘zining ilmiy tadqiqotida “Moliyaviy menejmentni tushunish har qanday biznes tashkilotining muvaffaqiyatining asosiy tarkibiy qismidir. Moliyaviy menejment firmaga qiymat qo‘shadigan biznes qarorlariga e’tibor qaratadi” [4] deya ta’kidlashadi. Moliyaviy menejmentning nazariyasi va amaliyoti nafaqat biznes yurutuvchi subyektlarga, balki oddiy fuqarolar uchun ham muhim bo‘lib, moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va nazoratini o‘rgatadi.

Jahon Bankining ma’lumotlarida qayd etilganidek, “Moliyaviy tizim deganda tashkilot rahbariyati tomonidan moliyaviy nazorat va hisobdorlikni amalga oshirish uchun foydalaniladigan jarayonlar va protseduralar tushuniladi. Ushbu chora-tadbirlar daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarga ta’sir qiluvchi operatsiyalarni qayd etish, tekshirish va o‘z vaqtida hisobot berishni o‘z ichiga oladi”[10]. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyalashtirish va moliyaviy rejani ishlab chiqishda moliyaviy menejment asosiy o‘rin egallaydi. Kompaniyada har qanday jarayon, avvalambor, moliyaviy rejalashtirishdan boshlanadi va bunda moliyaviy menejment usullari muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodchilardan J. William Petty, Sheridan Titman, Arthur J Keown, Peter Martin, John D Martin, Michael Burrowlar tomonidan nashr ettirilgan kitobda qayd etilishicha “Moliyaviy menejment odamlar va korxonalar investitsiyalarini qanday baholashlari va ularni moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilishlarini o‘rganishdir. Yirik va o‘rta kompaniyalarda asosiy siyosiy qarorlar va strategiyalar nuqtai nazaridan firma egalarini (aksiyadorlarini) ifodalovchi direktorlar kengashlari bo‘lishi mumkin, ammo kundalik operatsiyalar firmani boshqarish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish uchun menejerlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday menejerlardan biri “moliyaviy menejer” bo‘lib, u firmada moliya funksiyasini boshqarish va nazorat qilish uchun tayinlangan shaxsdir” [5]. Shuningdek, iqtisodchi olimlar moliyaviy menejmentning katta va kichik kompaniyalar uchun ahamiyatini, moliyaviy menejerlarning vazifalarini keng hamda aniq bayon etganlar. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment operativ boshqaruv xususiyatiga ega hisoblanadi.

Yurtimiz iqtisodchi olimalaridan R. Karlibaeva moliyaviy menejment taraqqiyotining asosiy bosqichlarini 5 davrga bo‘lib, ularning asosiy mohiyatlarini ochib bergan [6]. Korporativ tuzilmalarda soliqlarning moliyaviy resurslarni rejalashtirishga ta’siri va soliq imtiyozlarning samaradorligi bo‘yicha iqtisodchi olimlarimizdan S. Elmirzayev ilmiy tadqiqotlarni olib borib [7], soliq menejmentini moliyaviy menejmentga bog‘liqlik darachasini ko‘rib chiqqan. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyotini rivojlantirish masalasi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda kapital bozorining rivojlanishi, fond birjalari orqali aksiyalar va obligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi moliyaviy boshqaruv tizimiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Iqtisodchi olim A. Karimov aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment samaradorligini kapital bozorini rivojlantirishga ta’sirini tahlil etgan [9].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar moliyaviy menejment amaliyotini nafaqat korxona darajasida, balki milliy iqtisodiyot kontekstida ham tizimli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish dolzarb va strategik ustuvorlik kasb etgan soha sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot metadologiyasi

Ushbu tadqiqot aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyotini rivojlantirish mavzusini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy tahlil va amaliy yondashuvlar qo‘llanilgan. Tadqiqot nazariy tahlil, empirik tadqiqot taqqoslash va solishtirma tahlil metodlardan foydalangan holda amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar

Moliyaviy ṃenejṃent – bu xo‘jallik faoliyatini yurituvchi subyektlarda barcha turdagi ṃoliyaviy resurslar va ṃunosabatlarni rejalashtirish, tashkil etish, ṃuvofiqlashtirish haṃda nazorat qilishga yo‘naltirilgan koṃpleks usul va ṃetodlar jaṃlanṃasi hisoblanib, asosiy ṃaqsad faoliyat barqarorligi va rentabellikini yuqori darajada ta’ṃinlashdan iboratdir. Shunday qilib moliyaviy menejment boshqaruv strategiyasi va taktikasini o‘z ichiga oladi. Strategiya asosida ayni holatda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun umum yo‘nalishlar va resurslardan foydalanish chora-tadbirlari tushiniladi. Bu chora-tadbirlar belgilangan qonun-qoidalar to‘plamiga va qarorlar qabul qilish me’yorlariga muvofiq bo‘ladi.

1-jadval.

Moliyaviy menejmentga turlicha yondashuv va uning rivojlanish davrlari

Mamlakat	Davr	Yondashuv	Asosiy e’tibor
AQSH	XVII	AQSHda moliyaviy menejment tashkilotlarda asosiy boshqaruv funksiyasi sifatida rivojlanmoqda	Moliyaviy rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish, aktivlar va passivlarni boshqarish, risklarni boshqarish, investitsiya
Xitoy	XIX	Xitoyda moliyaviy boshqaruv davlat tomonidan tartibga solish va moliya tizimining barqarorligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq	Moliyaviy nazorat, kreditlash va investitsiyalar
Yaponiy	XVIII	Yaponiya Kayzen (doimiy takomillashtirish) tamoyillariga asoslangan moliyaviy boshqaruvning an’anaviy usullari va o‘ziga xos korporativ madaniyati bilan mashhur	Risklarni boshqarish, innovatsiyalar va uzoq muddatli rejalashtirishni
Buyuk Britaniya	XV	Buyuk Britaniyada moliyaviy menejment yuqori baholanadi va asosiy boshqaruv funktsiyasi sifatida qaraladi	Moliyaviy strategiya, likvidlikni boshqarish, investitsiyalar va budjetni rejalashtirish
Janubiy Koreya	XX	Janubiy Koreyada moliyaviy menejment iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi	Moliyaviy strategiya, likvidlikni boshqarish, investitsiyalar va budjetni rejalashtirish
O‘zbekiston	XXI	O‘zbekistonda moliyaviy menejment tashkilotlarni boshqarishda ham katta rol o‘ynaydi.	Moliyaviy resurslarni rejalashtirish, investitsiyalarni boshqarish, budjet nazorati va moliyaviy barqarorlik

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalarini o‘rgangan holda samarali moliyaviy menejment uchun ba’zi asosiy tamoyillar va strategiyalarni quyida keltirib o‘tish mumkin:

1. Aylanma kapitalni boshqarish. Tovar-moddiy zaxiralarni, debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish kompaniya resurslarining likvidligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

2. Investitsiyalarni boshqarish. Aqlli investitsiya qarorlarini qabul qilish, aktivlar va

investitsiya portfellarini boshqarish investitsiya daromadlarini optimallashtirish hamda kompaniyaning moliyaviy natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

3. Moliyaviy nazorat va buxgalteriya hisobi. Nazorat va buxgalteriya hisobi hamda muntazam moliyaviy hisobot tizimini tashkil etish rahbariyatga moliyaviy rejalar bajarilishini nazorat qilish, o‘z vaqtida tuzatish choralarini ko‘rishga yordam beradi.

4. Moliyaviy risklarni boshqarish. Valyuta, kredit, foiz stavkasi va operatsion risklar kabi moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun katta ahamiyatga ega.

5. Shaffoflik va halollik. Moliyaviy operatsiyalarda shaffoflik va axloqni ta’minlash investorlar, hamkorlar va manfaatdor tomonlar bilan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejement samarasini quyidagi rasm orqali ifoda etilgan (1-chizma).

1-chizma.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning samarasi*

*Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi chizma ma’lumotlarida kompaniya moliyaviy menejment tizimi orqali erishishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar bayon etilgandir. Moliyaviy menejment, kapital harakati boshqarilishi, uni ishlab chiqarish quvvatini, keyinchalik esa tushum oshirishga yo‘naltirishi mumkin; moliyaviy resurslar harakatini boshqarilganda tannarxni pasaytirish va kapitalni ko‘paytirish uchun ulardan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqanda, ṃoliyaviy ṃenejṃent - bu o‘z ṃaqsadlariga erishish va ṃoliyaviy barqarorlikni ta’ṃinlash uchun tashkilotning ṃoliyaviy resurslarini rejalashtirish, boshqarish haṃda nazorat qilish bilan shug‘ullanadigan ṃenejṃent sohasi hisoblanadi. Bizga ma’lum bo‘ldiki, moliyaviy menejment tushunchasi va uning rivojlanish davrlari turli mamlakatlarda turlicha yondashuv, jumladan, xususiyatlarga ega bo‘lgandir. Ushbu jihatlarni inobatga olib, tadqiqotimizning keyingi qismida moliyaviy menejmentning aksiyadorlik jamiyatlarida tashkil etishning o‘ziga xos jihatlarini keltirib o‘tdik.

Bizga ma’lumki, global iqtisodiyotda yetakchi kompaniyalar bu aksiyadorlik jamiyati shaklida o‘z faoliyatini olib boradi va bunda moliyaviy resurslarni shakllantirish tez hamda oson kechadi.

1-diagramma.

Global iqtisodiyotdagi korporatsiyalar bozor kapitallashuvi, (mlrd dollar)*



*https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Diagramma ma’lumotlarida dunyodagi nufuzli Apple, Microsoft va Nvidia kompaniyalarining so‘nggi 10-yillikdagi bozor kapitallashuvi ya’ni bozor qiymati aks ettirilgan. Jumladan, Apple kompaniyasining 2014-yildagi bozor qiymati 590 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 3,4 trln AQSH dollari yoki qariyib 6 barobarga oshgandir. Shuningdek, so‘nggi uch yildagi eng yuqori o‘sish Nvidia kompaniyasida kuzatilgan bo‘lib, hozirgi kunda uning bozor kapitallashuvi 2,6 trln AQSH dollarini tashkil etadi. Ushbu kompaniyalardagi moliyaviy boshqaruv tizimi mustahkamligi, moliyaviy menejerlarning samarali faoliyati bozordagi imidjga va bahoga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.Tahlillarimizning navbatdagi obyekti “Davr-bank” XATB hisoblanib, uning aktivlar va majburiyatlari hisobi quyida ko‘rsatib o‘tilgan (2-diagrmma).

2-diagramma.

“Davr-bank” XATBning aktivlari va majburiyatlari tahlili (mlrd so‘m)*



*https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Diagramma ma’lumotlarida “Davr-bank” XATBning aktivlari va majburiyatlari tahlili etilgan bo‘lib, o‘rtacha hisobda ularning nisbati 85 foizni tashkil etgan. Jumladan, 2016-yilda aktivlarning umumiy qiymati 341 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 18

barobarga oshgan. Shuningdek, ushbu davrda bankning jami majburiyatlari 5,1 trln so‘mni yoki oldingi yilga nisbatan 156,6 foizga oshgan.

3-diagramma.

“Davr-bank” XATBning ustav kapitali o‘zgarishi tahlili (mlrd so‘m)*****



*https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Diagramma ma’lumotlarida “Davr-bank” XATBning xususiy kapitali tahlili berilgan bo‘lib, 2016-yilda ustav kapital 40 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 400 mlrd so‘mga va taqsimlanmagan foyda 584 mlrd so‘mlik qiymatda bo‘lgan.

Shuningdek, bankning xarajatlar va daromadlar dinamikasi quyida keltirib o‘tilgandir(54-diagramma).

4-diagramma.

“Davr-bank” XATBning aktivlari va majburiyatlari tahlili (mlrd so‘m)*****



*https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

4-diagramma ma’lumotlarida “Davr-bank” XATBning xarajatlari va daromadlari tahlili etilgan bo‘lib, 2016-yilda jami foizli daromadlar 34 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 1452 mlrd so‘mga va foizli xarajatlar 971 mlrd so‘mlik qiymatda bo‘lgan.

Shuningdek, bankning sof foydasi dinamikasi quyida keltirib o‘tilgandir (5-diagramma).

5-diagramma.

“Davr-bank” XATBning sof foydasi o‘zgarishi tahlili (mlrd so‘m)*



*https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlarida “Davr-bank” XATBning sof foydasi o‘zgarishi tahlil etilgan bo‘lib, 2023-yil natijalariga ko‘ra 371,4 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, umumiy operatsion xarajatlar 2016-yilda 26,5 mlrd so‘mni va 2023 yilda 262,5 mlrd so‘mni yoki o‘rtacha yillik 141 foizga o‘sgan.

Daromadlarni oshirish strategiyalari, banklarning iste’mol qilgan moliyaviy resurslardan maksimal daromad olishga qaratilgan usullardir. Bu strategiyalar, investitsiya portfeli boshqarish, kreditlar berish, xizmatlarni yuqori narxlar bilan takdim etish va yangi bozorlar va xizmatlar yaratishni o‘z ichiga oladi. Xarajatlarni kamaytirish strategiyalari, banklarning moliyaviy resurslarini samarali ishlatish va xarajatlarni minimallashtirishga yo‘l qo‘yadi.

Xulosa

Moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari moliyaviy resurslarni boshqarish, daromadlarni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, likvidlilikni ta’minlash, xavfsizlikni ta’minlash va moliyaviy natijalarni yaxshilashdir. Bu vazifalar moliyaviy menejmentning muhim komponentlarini tashkil etadi va pul fondlari va aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy mablag‘larini samarali boshqarishning asosiy maqsadlari bo‘lib, strategik va taktik masalalarini yechishga yo‘naltiradi

Korporativ siyosat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini, hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyalarini bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorliqda ko’llashni optimal sharoitlarini tashkil etadi. Shuning uchun ham korporativ siyosatni nazariy va uslubiy rivojlanishini hozirgi bozor iqtisodiyoti shakllanishi davrida o’rganish juda zarur. Har qanday yangilik, shu jumladan, korporativ boshqaruv o’tmish korporativ boshqaruvidan farq qilsa-da, u o’tmishda ma’lum bo’lgan boshqaruv elementlariga asoslangan holda bozor iqtisodiyoti talablariga moslashgan yangi boshqaruv xususiyatiga ega bo’lib rivojlanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyotining bugungi holati tahlili, ko‘plab korxonalarda moliyaviy oqimlarni strategik rejalashtirish darajasi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bu esa investitsiya salohiyatidan to‘liq foydalanmaslik, moliyaviy xavf-xatarlarni baholashdagi kamchiliklar va rentabellik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Moliyaviy menejmentni takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalar asosidagi moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etish muhimdir. Shu bilan birga, xorijiy tajriba asosida risklarni boshqarish, kapital tuzilmasini optimallashtirish va likvidlikni barqaror saqlash mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Korxonalar darajasida moliyaviy boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun, moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish metodikasini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Ko‘plab aksiyadorlik jamiyatlarida bu jarayon statistik yondashuv bilan cheklanib qolmoqda, bu esa uzoq muddatli strategik rejalashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, EVA (iqtisodiy qo‘shilgan qiymat), ROE (o‘z kapitallilik rentabelligi) va boshqa ilg‘or ko‘rsatkichlarga asoslangan tahliliy platformalarni amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi. Moliyaviy

menejerlarning salohiyatini oshirish, ularni muntazam tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish ham zarur.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimining samarali ishlashi korxonaning umumiy iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Hozirda ayrim jamiyatlarda qaror qabul qilishda moliyaviy tahlilning yetarli darajada e’tiborga olinmasligi, noaniq va intuitiv yondashuvlarga olib kelmoqda. Shu jihatdan, moliyaviy axborotni aniq, o‘z vaqtida va shaffof taqdim etish tizimini kuchaytirish zarur. Bunda raqamli texnologiyalar, blokcheyn va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlaridan foydalanishni jadallashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. – https://lex.uz/ru/docs/-6600413

2. Jahon banki ma’lumotlari: https://data. worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?most_recent_value_desc=t

3. Paramasivan C. Financial management. – NAI, 2009. 264 p.

4. Baker H. K., Powell G. Understanding financial management: A practical guide.–John Wiley&Sons, 2009. 450 p.

5. Petty J.W., Titman S., Keown A.J., Martin P., Martin J.D., Burrow M. Financial management: Principles and applications. Pearson Higher Education AU. 2015 y. - 714 p.

6. Karlibaeva R. Moliya tizimi taraqqiyoti va moliyaviy menejment nazariyasi shakllanishining fundamental asoslari //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.

7. Elmirzayev S. E. Korporativ moliyaviy munosabatlarda soliqlarni rejalashtirish masalalari // Ekonomika i finansы (Uzbekistan). – 2018. – №6.

8. Каримов А. Капитал бозорини ривожлантириш йўналишлари //Страховой рынок Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 34-37.

Elektron resurs

9. https://pubdocs.worldbank.org/en/152991470659228735/Finace-Manual-SDF.pdf

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

TELEKOMMUNIKATSIYA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY STRATEGIYASI YO‘NALISHLARI VA KREDITLAR BILAN BOG‘LIQ MOLIYAVIY MUNOSABATLAR TAHLILI

O‘rinov Sardor Suvonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail:s_sardorbek00@gamil.com
ORCID: 0911-2236-1879-4589

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy telekommunikatsiya kompaniyalarining moliyaviy strategiyasi yo‘nalishlari hamda kreditlar bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlar tizimi chuqur ilmiy asosda tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, mobil va keng polosali internet xizmatlariga bo‘lgan talabning geometrik o‘sishi, 5G, IoT, “Bulutli hisoblash”, Data Center kabi texnologiyalarning tez sur’atlarda joriy etilishi telekommunikatsiya kompaniyalarining moliyaviy boshqaruv mexanizmlarida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan tadqiqotda telekom operatorlarining strategik moliyaviy boshqaruvi, kapital tuzilmasini optimallashtirish, investitsion majburiyatlarni moliyalashtirish manbalari, kreditlar bilan bog‘liq risklarni minimallashtirish, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash kabi fundamental masalalar keng qamrovda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kommunikatsiya, kapitalizatsiya, kredit, moliyalashtirish, investitsion loyiha, moliyaviy munosabatlar, moliyaviy strategiya, moliyaviy texnologiyalar.*

АНАЛИЗ НАПРАВЛЕНИЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОМПАНИЙ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЙ И ФИНАНСОВЫХ ОТНОШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С КРЕДИТАМИ

Уринова Сардора Сувоновича
Ташкентский государственный
экономический университет
независимый исследователь
E-mail: s_sardorbek00@gamil.com
ORCID: 0911-2236-1879-4589

Аннотация: *В данной статье на глубокой научной основе анализируются направления финансовой стратегии современных телекоммуникационных компаний и система финансовых отношений, связанных с кредитами. Быстрое развитие цифровой экономики, геометрический рост спроса на услуги мобильного и широкополосного интернета, быстрое внедрение таких технологий, как 5G, IoT, "Облачные вычисления," Data Center, требуют новых подходов в механизмах финансового управления телекоммуникационных компаний. В связи с этим в исследовании широко освещены такие фундаментальные вопросы, как стратегическое финансовое управление телеком-операторами, оптимизация структуры капитала, источники финансирования инвестиционных обязательств, минимизация кредитных рисков, обеспечение долгосрочной финансовой устойчивости.*

Ключевые слова: *Коммуникация, капитализация, кредит, финансирование, инвестиционный проект, финансовые отношения, финансовая стратегия, финансовые технологии.*

ANALYSIS OF FINANCIAL STRATEGY DIRECTIONS OF TELECOMMUNICATIONS COMPANIES AND FINANCIAL RELATIONS RELATED TO LOANS

Urinov Sardor Suvonovich

independent researcher of
Tashkent State University of Economics,
Tashkent, Uzbekistan
E-mail:s_sardorbek00@gamil.com
ORCID: 0911-2236-1879-4589

Abstract: *This article provides a deep scientific analysis of the directions of the financial strategy of modern telecommunications companies and the system of financial relations related to loans. The rapid development of the digital economy, the geometric growth of demand for mobile and broadband Internet services, the rapid introduction of technologies such as 5G, IoT, Cloud Computing, Data Center require new approaches to the financial management mechanisms of telecommunications companies. In this regard, the study comprehensively covers fundamental issues such as strategic financial management of telecom operators, optimization of capital structure, sources of financing investment obligations, minimizing risks associated with loans, and ensuring long-term financial stability.*

Key words: *Communication, capitalization, credit, financing, investment project, financial relations, financial strategy, financial technologies.*

Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi, global axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin modernizatsiyasi va telekommunikatsiya xizmatlariga bo‘lgan iste’molchilar talabi hajmining barqaror ortib borishi telekommunikatsiya kompaniyalarining moliyaviy strategiyasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Raqamli transformatsiyaning hozirgi bosqichi telekom operatorlari oldiga bir vaqtning o‘zida ham keng qamrovli infratuzilma investitsiyalarini amalga oshirish, ham mijozlar bilan barqaror moliyaviy munosabatlarni shakllantirish, ham esa kreditlar orqali jalb etilgan mablag‘larning samaradorligini maksimal darajaga yetkazish kabi murakkab vazifalarni qo‘ymoqda.

Telekommunikatsiya sektori iqtisodiyotning eng investitsiyaga talabchan tarmoqlaridan biri bo‘lib, 5G tarmoqlarini joriy etish, optik tolali infratuzilmani modernizatsiya qilish, data-markazlar va bulutli xizmatlar ekotizimini rivojlantirish uchun milliardlab dollarlik kapital qo‘yilmalar zarur bo‘ladi. Bunday sharoitda kompaniyalar kreditlar, xalqaro moliya institutlari resurslari, obligatsiyalar, sindikatlashtirilgan kreditlar va boshqa qarz instrumentlari orqali moliya bozoriga faol kirishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida moliyaviy strategiyani shakllantirishda kreditlar bilan bog‘liq munosabatlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, telekommunikatsiya bozoridagi raqobatning kuchayishi, tariflarning liberallashuvi, xizmatlar diversifikatsiyasining keskin ortishi va ARPU, CLV kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘zgaruvchanligi kompaniyalarning moliyaviy strategiyasida mijozlar bilan iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, to‘lov intizomini yaxshilash, daromad oqimlarini diversifikatsiya qilish va kredit yuklamasini samarali boshqarish kabi omillarni birinchi darajali ahamiyatga ega qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari olimlaridan A.V.Shelina, L.Yu.Podgornaya tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda telekommunikatsiya kompaniyalari investitsion loyihalarini samarali moliyalashtirish strategiyasini shakllantirish masalalari hamda ularda moliyaviy risklarni boshqarish tizimini shakllantiish masalalari tadqiq qilinganligi e’tiborni tortadi[8]. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan H.Ismoilov tomonidan aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish masalalariga doir monografik tadqiqot olib borilgan bo‘lib, moliyaviy menejment va korporativ soliq menejmentiga doir takliflar asosida kompaniyalar moliyaviy barqarorligini oshirishga e’tibor qaratilgan.

Mazkur mavzu doipacida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, ularda telekommunikatsiya kompaniyalarida investitsion loyihalar, investorlar va mijozlar, shuningdek boshqa hamkorlar bilan moliyaviy munosabatlarga doir alohida monografik tadqiqotlar mamlakatimizda yetarlicha amalga oshirilmagan. Mazkur jihat tadqiqot ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolap, ulapni hal qilish bo‘yicha ilgari surilgan taklif va tavciyalapning dolzapbligini o‘zida namoyon qiladi.

Tahlil va natijalar

Telekommunikatsiya kompaniyalari moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida faoliyatni diversifikatsiyalash moliyaviy munosabatlar doirasini kengaytirib borishini ta’kidlab o‘tmog‘imiz lozim. Bu borada ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha bulutli xizmatlar doirasini kengaytirish, IPTV xizmatlarini ko‘rsatish, smartfon va telefonlarni qayta sotuvchi sifatidagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish, aqlli uy va elektron tijorat borasidagi moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, raqamli to‘lovlar nuqtai nazaridan moliyaviy texnologiyalar bozoridagi faolligini oshirish, qo‘shimcha IT xizmatlar, kiberxavfsizlik, bulutli monitoring, jumladan chatbot xizmatlari, autsorsing asosida koll-markaz xizmatlari, IT-konsalting va boshqa xizmatlarni yo‘lga qo‘yilishi O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasi moliyaviy o‘sishini ta’minlaydi, deb o‘ylaymiz. Quyida kompaniya tomonidan bunday xizmatlarni rivojlantirish natijasida erishish mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni tahlil qilamiz.

O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining IPTV xizmatlarini ko‘rsatishi holati bozorda keskin past ulushga ega va 2025 yilda bu ulushni 6 foizga yetkazish maqsad qilingan (1-rasm).



1-rasm. O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining IPTV xizmatlaridan potensial tushumlar va bozor ulushi 2025-2029 yillar bo‘yicha prognozi[15]

Keltirilgan diagrammadan ham ko‘rinmoqdaki, O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining IPTV bo‘yicha xizmatlardan tushumlari 2025 yilga nisbatan 2029 yilda 7 baravar oshadi va 14 million AQSh dollariga yetishi prognoz qilingan. Natijada bozordagi ulushini 30 foizga yetkazish kompaniya moliyaviy strategiyasida belgilab qo‘yilgan va bu natijaga erishish uchun aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini zamonaviy tarzda rivojlantirish, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashni kengaytirish O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining qattiq disk tarzidagi xizmatlarining kengayisha xizmat qiladi. Bu boradagi kompaniya qo‘lga kiritishi mumkin bo‘lgan tushumlar hajmi yildan-yilga o‘sishini kutish, prognoz qilish mumkin (2-rasm).

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4



2-rasm. O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining bulutli va qattiq disk xizmatlari bo‘yicha potensial tushumlari prognozi, mln AQSh dollarida[15]

Diagrammada ko‘rsatilgan bulutli va qattiq disk xizmatlari bo‘yicha potensial tushumlari prognozi O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasiga tushumlar 2027 yilga borim 21 million AQSh dollariga yetadi va bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan 3,5 baravar yuqori bo‘lishi moliyaviy strategiya sifatida belgilangan. Amalga oshirilayotgan loyihalar bevosita bu ko‘rsatkichga erishishga imkon beradi.

O‘rta muddatli moliyaviy strategiyasiga muvofiq O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasi smartfonlar savdosi va qayta savdosini tashkil etish orqali ham faoliyatni diversifikatsiyalashga intilmoqda.

3-rasm. O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining smartfon va telefonlar qayta savdosi bo‘yicha bozorga chiqishi natijasida erishadigan moliyaviy ko‘rsatkichlari prognozi

Prognoz dinamikasi ko‘rsatmoqdaki, 2027 yilga borib smartfonlar savdosi va qayta savdosida kompaniyaning bozor ulushini 5 foizga yetkazish maqsad qilingan. Bunchalik past ko‘rsatkichga sabab bozorda keskin raqobat mavjudligi bilan izohlashimiz mumkin. 44 million AQSh dollariga teng tushumga, smartfonlar bozorida 5 foizlik ulushga egalik qilish maqsadiga erishish fikrimizcha keskin qiyin bo‘ladi. Bunda 2023 yildagi 6 million AQSh dollariga ega tushumni 4 yildayoq 7 baravardan ziyod oshirish o‘ta murakkab vazifadir.

Moliyaviy texnologiyalar bozori jahonda oxirgi o‘n yillikda o‘ta faol rivojlanganligi, 2019-2020 yillardagi COVID-19 global pandemiyasi sabab bu rivojlanish dunyoning aksariyat mamlakatlarini va bozorlarini ham qamrab olganligi barchamizga ayon haqiqat. Birgina to‘lov tashkilotlari faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda ular soni 2024 yil 13 sentyabr

holatiga 43 taga yetgan. Bu borada O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasi ham o‘z xizmatlarini taklif etib, faoliyatini diversifikatsiyalamoqchi (4-rasm).



4-rasm. O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining moliyaviy texnologiyalar bozoriga chiqish yuzasidan raqamli to‘lovlar bo‘yicha potensial tushumlar va bozor ulushi prognozi[24]

Bu borada 2027 yil yakunida 31 million AQSh dollari tushumga ega bo‘lish va bozordagi ulushini 20 foizga yetkazish moliyaviy strategiyada ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bugungi kunda 43 ta to‘lov tashkiloti faoliyat yuritayotgan sharoitda so‘zsiz yuqori darajada raqobat mavjudligini tan olishga to‘g‘ri keladi. Bunday vaziyat o‘z-o‘zidan O‘zbektelekom moliyaviy texnologiyalar bozorida o‘z oldiga qo‘ygan mazkur maqsadga erishishida jiddiy to‘siqni yuzaga keltira oladi, deb o‘ylaymiz. Garchi strategiyada mazkur faoliyat rejalashtirilgan bo‘lsada, 2024 yil oktyabr oyiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan litsenziya olinmagan.

Ishlab chiqaruvchilar orqali aqlli uy bozorida xizmat ko‘rsatish, shuningdek savdo sohasi uchun bugungi kun talabi doirasida elektron tijorat bozoriga chiqish ham O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining o‘rta muddatli rivojlanish strategiyasida alohida belgilangan. Va bu bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar quyidagicha (5-rasm).



5-rasm. O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining aqlli uy va savdo maydonlari uchun elektron tijoratni yo‘lga qo‘yish xizmatlari bo‘yicha moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi [15]

Diagramma tahlillari ko‘rsatmoqdaki, aqlli uy xizmatlari, biznes uchun elektron tijoratni

[24] АК «Узбектелеком» Инвестиционный меморандум. - С. 9.

yo‘lga qo‘yish xizmatlari bozorida ham o‘ziga xom natijalarga erishish mumkin. Bu borada O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining rivojlanish strategiyasiga ko‘ra 2027 yilga borib 13 million dollarlik yillik tushumga erishish, umumiy bozorning esa 20 foiz ulushiga egalik qilish ko‘zda tutilgan. Bu borada ham xususiy kompaniyalar faolligi ta’minlanishi va raqobat tahlil qilishi qo‘yilgan strategik maqsadga erishishni ma’lum darajada murakkablashtiradi.

Shuningdek, kiberxavfsizlik, chatbot, axborot texnologiyalari bo‘yicha konsutatsiyalar kabi qo‘shimcha IT xizmatlari vositasida moliyaviy tushumlar oshib borishini ta’minlash ham O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasi moliyaviy strategiyasidagi yana bir maqsadlardan biridir.

6-rasm. O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining qo‘shimcha IT xizmatlardan potensial tushumlar prognozi, mln AQSh dollarida

Bu borada 2024 yilda 8 million AQSh dollariga teng yillik tushum ta’minlansa, 2027 yilga borib bu ko‘rsatkichni 29 million AQSh dollariga yetkazish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga intilish yuqori darajada ekanligidan kelib chiqqan holda mazkur ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyati O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasida yetarli, deb o‘ylaymiz.

O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan jalb qilingan va to‘liq qoplanmagan kreditlar bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish yoki foiz xarajatlari nuqtai nazaridan 2024 yildagi xarajatlarga to‘xtalib o‘tsak. Bunda xorijiy valyutadagi kreditlar bo‘yicha xarajatlar (to‘lovlar) yuzasidan milliy valyuta so‘m kursi quyidagi o‘rtachaga keltirib olinganligini ham ta’kidlashimiz lozim:

- 1 USD =13717,34 so‘m,
- 1 EURO = 14010,48 so‘m;
- 1 JPY = 87,2 so‘m.

1-jadval

O‘zbektelekom aksiyadorlik kompaniyasining Hukumat kafolati va to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etilgan xorijiy kreditlari bo‘yicha 2024 yilga rejalashtirilgan va amalga oshirilgan to‘lovlar tahlili[25]

№	Jalb qilingan kredit	Jalb qilingan yil	Kredit hajmi	2024 yilda kredit bo‘yicha to‘lovlar miqdori
1.	Yaponiya hukumati Xorijiy iqtisodiy hamkorlik fondi (OECF)	1995	12700 mln Yaponiya yeni	638,0 mln. yen (3,85 mln. AQSh dollari)
2.	Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) – 1	1999	12 692 mln yena	538,9 mln. yena (3,42 mln.AQSh dollari)
3.	Yaponiya xalqaro hamkorlik banki	2018	7 879.72 mln.	914,4 mln. yena (5,8

[25] Компаниянинг 2024 йил учун бизнес-режаси асосида тузилди.

№	Jalb qilingan kredit	Jalb qilingan yil	Kredit hajmi	2024 yilda kredit bo‘yicha to‘lovlar miqdori
	(JBIC) – 2		yena	mln.AQSh dollari)
4.	Germaniya KfW banki	1996	12,8 mln.evro	0,706 mln.evro (0,72 mln.AQSh dollari)
5.	Xitoy eksport-import banki (Eximbank)	2010	10,72 mln. AQSh dollari	0,828 mln. AQSh dollari
6.	Xitoy taraqqiyot banki (CDB)	2019	40 mln.AQSh dollari	10,9 mln. AQSh dollari
7.	Huawei International PTE	2021	70 mln. AQSh dolllari	9,18 mln. AQSh dollari
8.	Credit Suisse AG London branch	2022	200,0 mln. yevro	46,2 mln. yevro
9.	ZTE Corporation – 1	2021	11,94 mln. AQSh doll.	5,6 mln. AQSh doll.
10.	ZTE Corporation – 2	2021	131,6 mln. AQSh doll.	10,2 mln. AQSh doll.
11.	Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) – 3	2023	133,76 mln. AQSh dollari ekvivalentida yapon yenasi	168,6 mln yena (1,02 mln. AQSh doll.)
12.	MUFG	2023	23,6 mln. AQSh dollari ekvivalentida yapon yenasi	107,7 mln yena (0,65 mln. AQSh doll.)

Keltirilgan tahlildan ko‘rinmoqdaki, birgina 2024 yilda kompaniyaning jalb qilingan kreditlar bo‘yicha xarajatlari (to‘lovlari) 98,368 million AQsh dollarini tashkil qilmoqda. Bunday yuqori xarajat sharoitida jalb qilingan qarz kapitali hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning samaradorligini ta’minlash, loyihani o‘z muddatida ekspluatatsiyaga topshirish o‘ta muhim sanaladi. Aks holda loyiha muvaffaqiyatsizligi qo‘shimcha moliyaviy majburiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Yaponiya, Xitoy, Germaniya kabi davlatlar moliya institutlaridan jalb qilingan kredit mablag‘lari yapon yenasida, AQSh dollarida, yevroda ekanligi ham mamlakatlar, ham valyuta nuqtai nazaridan diversifikatsiya ta’minlanganligini namoyon qiladi. Lekin moliyalashtirish nuqtai nazaridan faqat kredit instrumentlari bilan chegaralanmasdan oddiy va imtiyozli aksiyalar muomalaga chiqarish orqali arzon kapital jalb qilish nuqtai nazaridan ham ta’minlash bugungi kundagi global talablardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yo‘nalish ustida ham kompaniya alohida ishlar olib borishi lozim, deya hisoblaymiz.

Xulosa.

Бугунги жаҳон иқтисодиётини ҳамда миллий иқтисодиётларни телекоммуникатsiя компанияларисиз тасаввур қила олмаймиз. Бу ерда бевосита иқтисодиёт нуқтаи назаридан таъкидланмоқда. Бошқа томондан телекоммуникатsiя компаниялари ўз хизматлари билан нафақат бизнес ва иқтисодиёт, балки жамиятнинг ҳар бир соҳасига кириб борган. Мазкур жиҳат телекоммуникатsiя соҳасини бутун жамият экотизими муҳим бўғинига айланганлигидан далолат беради. Бундан эса телекоммуникатsiя бизнес ривожланиш истиқболлари ўта юқори эканлигидан далолат беради.

2024 йилда дунё бўйлаб бозор капиталлашуви бўйича етакчи телекоммуникатsiя компаниялари таркибида Америка қўшма штатларининг T-mobile US компанияси биринчиликни эгаллаган. Бу компаниянинг бозор капиталлашуви 214,88 миллиард АҚШ долларига етган. Ундан кейин China mobile бозор баҳоси 212,79 миллиард АҚШ долларини ташкил этмоқда. Учинчи ўринда эса 177,69 миллиард АҚШ доллари билан юқорида қайд этилган Verizon компаниясидир. Ўзбектелеком акциядорлик компаниясининг акциялари ўта чекланган миқдори очиқ муомалада бўлганлиги (free float паст) сабабли компания бозор капиталлашувини аниқлаш имконсиз.

Соҳа бўйича бозор капиталлашуви энг юқори бўлган T-mobile US компаниясининг

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

ўсишига эътибор қаратадиган бўлсак охирги 17 йиллик ўсиш 2007 йил 29 июнда 11,46 миллиард АҚШ доллари бозор капиталлашувига эга бўлган ва бу кўрсаткич йиллар давомида маълум тебранишлар асосида ўсиш тенденциясини қайд этган.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Taga, K. (2020). 5G Investment Strategies and Telecom Infrastructure Development. Arthur D. Little Publications.
2. Cisco Systems (2023). Annual Internet Report: Global Trends in Fixed and Mobile Services.
3. Deloitte (2022). Telecommunication Industry Outlook: Digital Transformation and Financial Models. Deloitte Insights.
4. PwC (2021). Financing Digital Infrastructure: Global Benchmarks and Case Studies. PwC Global Research.
5. GSMA (2023). The Mobile Economy Report. GSMA Intelligence.
6. ITU (2022). Measuring Digital Development: ICT Indicators. International Telecommunication Union.
7. Damodaran, A. (2021). Corporate Finance and Investment Valuation. Wiley Finance Series.
8. Шелина, А. В. (2019). Финансирование инвестиционных проектов телекоммуникационных компаний: механизмы и модели управления рисками. Москва.
9. Подгорная, Л. Ю. (2020). Финансовые стратегии развития компаний связи в условиях цифровой трансформации. Минск: Экономика и управление.
10. Юдкевич, М., & Солодовников, А. (2018). Управление финансовыми рисками телекоммуникационных операторов. Санкт-Петербург: Питер.
11. Ismoilov, H. (2020). Aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirishning nazariy asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
12. Karimov, A. (2021). Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya xizmatlari bozori va moliyaviy boshqaruv. TDIU.
13. Abdullayev, M. (2022). O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmog‘ining investitsion salohiyati. “Iqtisodiyot va innovatsiya” jurnali, 3-son.
14. Qozoqboyev, X. (2021). Telekommunikatsiya sohasida diversifikatsiya siyosati va xizmatlar innovatsiyasi. Toshkent.
15. АК «Узбектелеком» Инвестиционный меморандум 2024.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

O‘ZBEKISTONDA AKSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Alikulov Azamat Tuygunovich

Iqitisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
E-mail: azamat1441@mail.ru
ORCID-ID: 0000-0001-7717-3274

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston aksiyalar bozorining hozirgi holati, savdo hajmi va bitimlar soni dinamikasi, bozor kapitallashuvi, emitentlar va investorlar faolligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2023–2024 yillarda aksiyalar bozorida savdolar sonining oshishi raqamli platformalar va IPO/SPO jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, 2024 yilda savdo hajmi keskin kengaygani aniqlangan. Shu bilan birga, bozor likvidligi, erkin muomaladagi aksiyalar ulushi (free float) pastligi, bozor konsentratsiyasi hamda moliyaviy savodxonlik muammolari mavjud. Maqolada aksiyalar bozorini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: aksiyalar bozori, fond birjasi, kapitallashuv, likvidlik, IPO, SPO, free float, investor, korporativ boshqaruv.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РЫНКА АКЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аликулов Азамат Туйгунович

доктор философии (PhD)
по экономическим наукам
заведующий кафедры Экономики
Университет информационных технологий и менеджмента
E-mail: azamat1441@mail.ru
ORCID-ID: 0000-0001-7717-3274

Аннотация. В данной статье проанализированы текущее состояние рынка акций Узбекистана, динамика объёма торгов и количества сделок, рыночная капитализация, а также активность эмитентов и инвесторов. Результаты исследования показывают, что увеличение количества сделок на рынке акций в 2023–2024 годах связано с развитием цифровых платформ и процессами IPO/SPO, а в 2024 году был зафиксирован резкий рост объёма торгов. Вместе с тем сохраняются такие проблемы, как недостаточная ликвидность рынка, низкая доля акций в свободном обращении (free float), высокая концентрация рынка и недостаточный уровень финансовой грамотности. В статье предложены практические рекомендации по развитию рынка акций.

Ключевые слова: рынок акций, фондовая биржа, капитализация, ликвидность, IPO, SPO, free float, инвестор, корпоративное управление.

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE STOCK MARKET IN UZBEKISTAN

Alikulov Azamat Tuygunovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Associate Professor, head of Department of Economics

University of Information Technologies and Management
E-mail: azamat1441@mail.ru
ORCID-ID: 0000-0001-7717-3274

Abstract. This article analyzes the current state of Uzbekistan’s stock market, including the dynamics of trading volume and the number of transactions, market capitalization, as well as the activity of issuers and investors. The findings show that the increase in the number of stock market transactions in 2023–2024 is associated with the development of digital platforms and the processes of IPOs/SPOs, while a sharp rise in trading volume was recorded in 2024. At the same time, several challenges remain, such as insufficient market liquidity, a low share of stocks in free float, high market concentration, and an inadequate level of financial literacy. The article also proposes practical recommendations for the development of the stock market.

Keywords: stock market, stock exchange, capitalization, liquidity, IPO, SPO, free float, investor, corporate governance.

Kirish.

Bugungi kunda aksiyalar bozori jahon iqtisodiyotida kapitalni safarbar etish va qayta taqsimlashning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Rivojlangan mamlakatlarda fond bozori korxonalar uchun uzoq muddatli investitsiya manbaini kengaytirsa, rivojlanayotgan davlatlarda u iqtisodiy o‘sishni moliyalashtirishda bank sektoriga alternativ instrument sifatida ahamiyat kasb etadi [1].

Global tajriba shuni ko‘rsatadiki, kapital bozorining rivojlanishi korporativ shaffoflikni oshirish, biznes muhitini yaxshilash, institutsional investorlar faoliyatini kuchaytirish va jamg‘armalarni investitsiyaga aylantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [2]. Ayniqsa, aksiyalar bozori likvidligi iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi empirik tadqiqotlarda qayd etilgan [1].

So‘nggi yillarda fond bozorlarida bir qator kuchli global tendensiyalar kuzatilmoqda: birinchidan, raqamli savdo platformalari va mobil investitsiya ilovalari hisobiga chakana investorlar soni ortmoqda [4]; ikkinchidan, IPO/SPO orqali korxonalar kapital jalb qilishni jadallashtirmoqda [13]; uchinchidan, institutsional investorlar ulushi ortib bozor barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [5]. Shuningdek, fond bozorlarida instrumentlar diversifikatsiyasi (ETF, indeks fondlar, derivativlar) kuchayib, risklarni boshqarish va likvidlikni oshirish imkoniyatlari kengaymoqda [5].

O‘zbekiston ham ushbu global tendensiyalar fonida kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni jadallashtirmoqda. Toshkent Respublika fond birjasi (UZSE) ma’lumotlariga ko‘ra, 2014 yilda jami savdo hajmi 97,6 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 19 563,1 mlrd so‘mga yetib, bozor hajmi keskin kengaygan. 2024 yilda savdo hajmi 2023 yilga nisbatan qariyb 7 baravar, bitimlar soni esa 41 187 ming donadan 446 967 ming donaga yetib, qariyb 10 baravar oshgan. Ushbu o‘sish raqamli savdo kanallari, IPO/SPO jarayonlari va investorlar faolligi ortishi bilan izohlanadi. Biroq bozorning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi muammolar (likvidlik pastligi, free float cheklanganligi, konsentratsiya, moliyaviy savodxonlik yetishmasligi) ham mavjud [8].

Shuning uchun O‘zbekiston aksiyalar bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda amaliy takliflar ishlab chiqish bugungi iqtisodiy siyosatda ham, ilmiy tadqiqotlar nuqtai nazaridan ham yuqori dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Aksiyalar bozorining rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilish masalalari moliyaviy bozorlar nazariyasi hamda empirik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Klassik tadqiqotlar fond bozori rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida mustahkam ijobiy bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Levine va Zervos tomonidan o‘tkazilgan tahlilda aksiyalar bozori likvidligi iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida baholangan [1]. Beck,

Levine va Loayza ishlarida moliyaviy vositachilik va kapital bozori o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi institut ekanligi asoslangan [2].

Aksiyalar bozori korxonalar uchun bank kreditlariga alternativ moliyalashtirish manbai bo‘lib, investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishi va ishlab chiqarish modernizatsiyasini tezlashtirishi mumkin [3]. Demirgüç-Kunt va Maksimovic korporativ sektor o‘sishi aksiyalar bozori rivojlangan sharoitda tezlashishini, huquqiy institutlar esa ushbu jarayonning samaradorligini belgilashini ta’kidlaydi [3]. Shu nuqtai nazardan investorlar huquqlarini himoya qilish va korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirish bozorning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart hisoblanadi [7].

So‘nggi yillarda aksiyalar bozori rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri raqamli savdo platformalarining kengayishidir. IOSCO va OECD tahlillari raqamli platformalar investorlarni bozorga jalb qilishni tezlashtirishi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi va bozor shaffofligini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi [4], [5]. Biroq rivojlanayotgan bozorlarda free float pastligi, bozor konsentratsiyasi va investorlar savodxonligi sustligi bozorning chuqurligini cheklovchi omillar sifatida qayd etiladi [5].

O‘zbekiston sharoitida aksiyalar bozori rivojlanishi bo‘yicha ilmiy ishlarda bozorning past likvidligi, erkin muomaladagi aksiyalar ulushining cheklanganligi, emitentlar faolligi yetishmasligi va institutsional investorlar ulushi pastligi asosiy muammolar sifatida keltiriladi [8], [9]. Xususan, aksiyalar likvidligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan tadqiqotlarda free float, savdo hajmi, narx spredlari va investorlar bazasi likvidlikni belgilovchi muhim ko‘rsatkichlar ekani asoslab berilgan [8].

Bundan tashqari, O‘zbekistonda davlat aktivlarini xususiylashtirish va IPO/SPO jarayonlari bozor rivojlanishining muhim drayveriga aylanmoqda. So‘nggi tadqiqotlarda mamlakat iqtisodiy tarixidagi IPO/SPO tajribasi tahlil qilinib, ularning bozor kapitallashuvi va investorlar ishonchini oshirishdagi roli ko‘rsatilgan [11]. EBRD va Jahon bankining tahliliy hisobotlarida ham O‘zbekistonda kapital bozorini chuqurlashtirish, xususiylashtirishni jadallashtirish, investorlarni himoya qilish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi [13], [14].

Shunday qilib, adabiyotlar aksiyalar bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Biroq 2023–2024 yillardagi keskin dinamik o‘zgarishlar, raqamli platformalar ta’siri hamda IPO/SPO jarayonlarining real natijalari bo‘yicha tahlillarni yanada kengaytirish zarurati mavjud [8], [11]. Ushbu maqola aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda deskriptiv statistika, qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv va mantiqiy umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Asosiy ma’lumotlar fond birjasi statistikasi, davlat ishtirokidagi korxonalar qimmatli qog‘ozlari va kapital bozoriga oid ilmiy maqolalardan olingan. 2014–2024 yillardagi savdo hajmi, bitimlar soni, bozor kapitallashuvi va free float ko‘rsatkichlari asosida bozorning joriy tendensiyalari baholandi.

Tahlil va natijalar. Aksiyalar bozori iqtisodiyotda kapitalni samarali qayta taqsimlash, investitsion resurslarni real sektor korxonalariga yo‘naltirish va korxonalarning uzoq muddatli moliyalashtirish bazasini mustahkamlashda muhim institut hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda kapital bozorining chuqurligi iqtisodiy o‘sish manbalaridan biri sifatida qaralsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda u biznesni moliyalashtirishda bank tizimiga alternativ imkoniyat yaratadi. O‘zbekistonda 2017 yildan boshlab iqtisodiy erkinlashtirish, xususiylashtirish va IPO/SPO jarayonlarini jadallashtirish fond bozorini iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, bozor kapitallashuvi va savdo faolligi oshishi davlat aktivlarini samarali boshqarish, korporativ boshqaruvni yaxshilash hamda investorlar ishonchini kuchaytirishda muhim omil bo‘lib bormoqda.

1-jadval.

Toshkent RFBda 2014-2024 yillarda aksiyalar bozori savdosi ko‘rsatkichlari

Yillar	Bitimlar soni (ming dona)	Qimmatli qog‘ozlar soni (mln. dona)	Jami bitimlar hajmi (mlrd. so‘m)	Aksiyalar bilan bitimlar hajmi (mlrd.so‘m)	Aksiyalar bilan bitimlarning jami savdo hajmidagi ulushi (%)
2014	893	178,3	97,6	89,3	91,5
2015	2794	357	161	153,5	95,3
2016	308	689,1	299,8	295,8	98,7
2017	2572	1551,6	298,6	295,6	99,0
2018	1375	10062,6	687,3	683,3	99,5
2019	32816	8 110,0	438,8	400,2	90,4
2020	36 062	99 077,1	578,10	510,8	88,4
2021	71489	14 181,6	1260,5	1147,1	91,0
2022	80723	36 154,7	4816,2	4705,8	97,7
2023	41187	28 080,6	2712,8	2620,6	96,6
2024	446 967	43 583,3	19 563,10	19182,1	98,1

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini aniqroq tasavvur qilish maqsadida quyida ushbu jadval asosida tayyorlangan diagrammani keltiramiz.



Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2014–2024 yillarda Toshkent Respublika fond birjasida aksiyalar bozori savdo faolligi hamda savdo hajmi bo‘yicha bosqichma-bosqich transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirgan. Umumiy trend sifatida bozorning dastlabki yillarda (2014–2018) nisbatan past likvidlik sharoitida shakllangani, 2019–2022 yillarda faol kengaygani, 2023 yilda vaqtinchalik pasayish kuzatilgani va 2024 yilda keskin o‘sish bosqichiga o‘tgani aniqlanadi.

2014–2018 yillarda bitimlar soni 893–2794 ming dona oralig‘ida o‘zgarib, savdo hajmi 97,6 mlrd so‘mdan 687,3 mlrd so‘mga qadar oshgan. Mazkur davrda aksiyalar bilan bitimlarning jami savdo hajmidagi ulushi 91,5–99,5% oraliqda bo‘lib, fond birja savdolarida aksiyalar segmenti mutlaq ustunlik qilganini ko‘rsatadi. Biroq savdo hajmining umumiy miqyosda nisbatan cheklanganligi bozorning institutsional rivojlanish darajasi hamda investorlarga kirish imkoniyatlari hali yetarli darajada shakllanmaganini anglatadi.

2019–2022 yillarda bozor ko‘rsatkichlarida tub burilish kuzatiladi. 2019 yilda bitimlar soni 32 816 ming donaga yetib, bozor ishtirokchilari va operatsiyalar sonining keskin ko‘payganini bildiradi. 2020–2022 yillarda bitimlar soni 36 062 ming donadan 80 723 ming donagacha, jami savdo hajmi esa 578,1 mlrd so‘mdan 4 816,2 mlrd so‘mga qadar oshgan. Aksiyalar bilan bitimlar hajmi ham mos ravishda 510,8 mlrd so‘mdan 4 705,8 mlrd so‘mga yetgan. Ushbu bosqichda aksiyalar bozorining o‘sishi kapital bozorini faollashtirishga qaratilgan islohotlar, yirik emitentlar faolligi va investorlar bazasining kengayishi bilan izohlanadi.

2023 yilda bozor ko‘rsatkichlarida pasayish qayd etilgan: bitimlar soni 41 187 ming dona, jami savdo hajmi 2 712,8 mlrd so‘m bo‘lib, 2022 yilga nisbatan mos ravishda qariyb 49% va 43,7% kamaygan. Bu holat bozorning yirik bitimlarga yuqori darajada bog‘liqligi, ikkilamchi bozor likvidligining yetarli emasligi hamda erkin muomaladagi aksiyalar (free float) ulushining pastligi kabi omillar bilan izohlanishi mumkin.

2024 yilda esa aksiyalar bozorida eksploziv o‘sish kuzatiladi: bitimlar soni 446 967 ming donaga, jami savdo hajmi 19 563,1 mlrd so‘mga yetgan. Aksiyalar bilan bitimlar hajmi 19 182,1 mlrd so‘mni tashkil etib, aksiyalar segmentining jami savdodagi ulushi 98,1% darajada saqlanib qolgan. Mazkur natijalar aksiyalar bozorida raqamli savdo kanallarining kengayishi, ommaviy joylashtirish jarayonlari (IPO/SPO) va investorlar faolligining oshishi bozorni yangi bosqichga olib chiqqanini anglatadi.

Natijalar tahlili bozor rivojlanishining bir nechta muhim jihatlarini ko‘rsatadi. Birinchidan, aksiyalar bozori Toshkent RFB savdolarida doimiy ravishda dominant segment bo‘lib kelgan: barcha yillarda aksiyalar ulushi 88,4%dan pastga tushmagan va ayrim yillarda 99%dan yuqori bo‘lgan. Bu, bir tomondan, korxonalar moliyalashtirishida aksiyalar instrumenti mavjudligini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar bozorining cheklanganligini ham ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, bitimlar soni va savdo hajmi o‘rtasida nomutanosiblik ayrim yillarda yaqqol ko‘rinadi (masalan, 2019 yilda bitimlar soni keskin oshgan bo‘lsa-da, savdo hajmi nisbatan past bo‘lgan). Bu holat bozor faoliyatida mayda nominal qiymatli bitimlar salmog‘i yuqori bo‘lishi yoki bozorning chakana investorlar hisobiga kengayayotganini anglatishi mumkin. Bunday sharoitda bozorning chuqurligi va narxlarning bozordagi axborotni to‘liq aks ettirish darajasi (price discovery) bo‘yicha qo‘shimcha tahlillar talab etiladi.

Uchinchidan, 2023 yildagi pasayish bozorning barqarorlik (sustainability) masalasini kun tartibiga chiqaradi. Savdo hajmidagi tebranishlar bozor infratuzilmasi va institutsional islohotlar davomiyligini, shuningdek emitentlar va investorlarda ishonchni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu yerda free float ulushini oshirish, ikkilamchi bozor likvidligini kuchaytirish va bozorni diversifikatsiya qilish (ETF, derivativlar, indeks instrumentlari) muhim yo‘nalishlar sifatida qaraladi.

To‘rtinchidan, 2024 yildagi keskin o‘sish aksiyalar bozorining iqtisodiyotdagi rolini oshirish imkoniyatlarini namoyon qiladi. Biroq bu o‘sish barqaror bo‘lishi uchun korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirish, emitentlar uchun oshkoralik talablarini qat’iylashtirish, investorlarni himoya qilish mexanmlarini rivojlantirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar zarur.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston aksiyalar bozori 2023–2024 yillarda ijobiy o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. 2024 yilda savdo hajmining keskin oshishi bozor rivojlanishida muhim burilish bo‘ldi. Shu bilan birga, free float ulushining pastligi, bozor konsentratsiyasi, likvidlik yetarli emasligi hamda moliyaviy savodxonlik muammolari bozorning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda [5], [8].

Tahlillar natijasida O‘zbekistonda aksiyalar bozorini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Yirik emitentlar uchun minimal erkin muomaladagi ulush talabini bosqichma-bosqich joriy etish [5], [8].

Oshkoralik talablarini qat’iylashtirish, mustaqil direktorlar ulushini oshirish [7], [13].

Chakana investorlarni jalb qilish uchun ommaviy treninglar va raqamli kurslarni yo‘lga qo‘yish [4].

ETF, derivativlar va indeks instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish [5].

Huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, xalqaro audit va IFRS standartlarini majburiylashtirish [13], [14].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Levine, R., & Zervos, S. (1998). Stock markets, banks, and economic growth. American Economic Review, 88(3), 537–558.

2. Beck, T., Levine, R., & Loayza, N. (2000). Finance and the sources of growth. Journal of Financial Economics, 58(1–2), 261–300.

3. Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (1998). Law, finance, and firm growth. Journal of Finance, 53(6), 2107–2137.

4. IOSCO. (2020). Retail investor protection and digitalisation of capital markets. International Organization of Securities Commissions.

5. OECD. (2019). Capital market development in emerging economies: Challenges and policy issues. OECD Publishing.

6. World Federation of Exchanges (WFE). (2021). Digitalisation and trading technology in emerging markets. WFE Reports.

7. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. (2000). Investor protection and corporate governance. Journal of Financial Economics, 58(1–2), 3–27.

8. G.Kenjabayeva ANALYZING KEY FACTORS INFLUENCING SHARE LIQUIDITY IN UZBEKISTAN. (2024). World Economics and Finance Bulletin, 35, 157-159.

9. M.Quvondiqov. (2025). Prospects for the Development of Share Turnover in Emerging Stock Markets. EPRA Journal of Finance and Management.

10. Ataniyazov, Jasurbek & Sayfullokhon, Narimonov. (2022). Stock Market in Uzbekistan: Current Situation and Development Prospects. British Journal of Multidisciplinary and Advanced Studies. 3. 1-10. 10.37745/bjmas.2022.00121.

11. K.Chinkulov. SEVEN IPO AND SPO IN THE ECONOMIC HISTORY OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS, PROBLEMS AND CONCLUSION. (2024). World Economics and Finance Bulletin, 35, 317-325

12. Sung Tae Kyun (2024). Privatization of State-Owned Enterprises in Uzbekistan: Challenges and Opportunities through IPO/SPO mechanisms. Economic & Innovative Technologies Journal, 13(3).

13. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). (2024–2025). Transition Report: Uzbekistan Country Assessment.

14. World Bank. (2025). Uzbekistan Country Economic Memorandum (CEM).

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN O‘ZBEKISTONGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ISTIQBOLLARI

Xolov Sherali Axrorboyevich

PhD.
Email: Sherali.holov@mail.ru
ORCID:0009-0008-7343-616X

Annotatsiya. Mazkur maqola xalqaro moliya bozorlaridan O‘zbekistonga investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyati, mexanizmlari va istiqbollarini ilmiy asosda tahlil qiladi, bunda real statistika, SWOT tahlili va moliyaviy instrumentlar samaradorligi ko‘rsatkichlari asos sifatida qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning kapital jalb qilish strategiyasida institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, investorlar uchun rag‘batlar yaratish va hududlararo diversifikatsiyani hisobga olishning muhimligini ko‘rsatadi, shu bilan birga global moliya bozorlarining o‘zgaruvchanligi va risklarini hisobga olgan holda investitsiya siyosatini optimallashtirish zaruratini ta’kidlaydi. Natijada, maqola ishlab chiqilgan tavsiyalar orqali milliy iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish, kapital samaradorligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro moliya bozorlari, investitsiyalarni jalb etish, milliy iqtisodiyoti, kapital oqimi, chet el investitsiyalari, moliyaviy instrumentlar, Eurobonds, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish, investitsiya siyosati, institutsional mexanizmlar, hududlararo diversifikatsiya, barqaror rivojlanish.

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В УЗБЕКИСТАН С МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ

Холов Шерали Ахорбойевич

PhD.
Email: Sherali.holov@mail.ru
ORCID:0009-0008-7343-616X

Аннотация. Данная статья научно анализирует экономическую значимость, механизмы и перспективы привлечения инвестиций в Узбекистан с международных финансовых рынков, при этом в качестве основы используются реальные статистические данные, SWOT-анализ и показатели эффективности финансовых инструментов. Результаты исследования показывают важность укрепления институциональных механизмов, создания стимулов для инвесторов и учета региональной диверсификации в стратегии привлечения капитала Узбекистана, а также подчеркивают необходимость оптимизации инвестиционной политики с учетом изменчивости и рисков глобальных финансовых рынков. В результате статья через разработанные рекомендации способствует повышению эффективности капитала, социально-экономическому росту и обеспечению долгосрочного устойчивого развития национальной экономики.

Ключевые слова: международные финансовые рынки, привлечение инвестиций, национальная экономика, движение капитала, иностранные инвестиции, финансовые инструменты, еврооблигации, социально-экономический рост, инвестиционная политика, институциональные механизмы, региональная диверсификация, устойчивое развитие.

PROSPECTS FOR ATTRACTING INVESTMENTS TO UZBEKISTAN FROM INTERNATIONAL FINANCIAL MARKETS

Xolov Sherali Axrorboyevich

PhD.
Email: Sherali.holov@mail.ru
ORCID: 0009-0008-7343-616X

Abstract. This article provides a scientific analysis of the economic significance, mechanisms, and prospects for attracting investments to Uzbekistan from international financial markets, using real statistical data, SWOT analysis, and indicators of financial instrument efficiency as the basis. The study results highlight the importance of strengthening institutional mechanisms, creating incentives for investors, and considering regional diversification in Uzbekistan’s capital attraction strategy, while also emphasizing the need to optimize investment policy in light of the volatility and risks of global financial markets. Consequently, the article, through the developed recommendations, contributes to enhancing capital efficiency, fostering socio-economic growth, and ensuring long-term sustainable development of the national economy.

Key words: international financial markets, investment attraction, national economy, capital flow, foreign investments, financial instruments, Eurobonds, socio-economic growth, investment policy, institutional mechanisms, regional diversification, sustainable development.

Kirish

Global moliya bozorlarining iqtisodiy ahamiyati, avvalo, kapital resurslarining xalqaro miqyosda samarali qayta taqsimlanishini ta’minlashi bilan izohlanadi, chunki bu jarayon moliyaviy resurslar ortiqcha bo‘lgan hududlardan investitsiyaga ehtiyoj yuqori bo‘lgan mamlakatlarga mablag‘lar oqimini jadallashtiradi. Ushbu bozorlar orqali davlatlar va korporatsiyalar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu real sektor rivoji va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining tezlashishiga xizmat qiladi. Global moliya bozorlarining jahon iqtisodiyotidagi ulkan iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlovchi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yilda global fond birjalarining umumiy bozor kapitallashuvi taxminan $126.7 trillion (trillion AQSh dollari) darajasida bo‘lib, u o‘tgan o‘n yillikdagi investitsiya aktivlari va korporativ moliyalashtirish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda[1]. Shuningdek, jahon moliya bozorlarida nafaqat aksiya bozorlarining ulushi sezilarli, balki obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlarining qiymati ham global iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi, bu esa investitsiyalar oqimini kengaytirib, milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi[2]. Global moliya bozorlari risklarni diversifikatsiya qilish mexanizmlarini taklif etgani sababli, investorlar o‘z kapitalini turli geografik hududlar va moliyaviy instrumentlar o‘rtasida taqsimlash orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, xalqaro moliya bozorlarida narxlar va foiz stavkalarining shakllanishi makroiqtisodiy muvozanatga ta’sir ko‘rsatib, milliy pul-kredit va fiskal siyosat samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Global moliya bozorlarining rivojlanishi moliyaviy innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va yangi moliyaviy instrumentlarning keng joriy etilishiga zamin yaratib, moliya tizimining institutsional sifatini oshiradi. Natijada, global moliya bozorlarining barqaror faoliyati xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirib, milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliya bozorlaridan kapital oqimlarini jalb etish strategiyasi har bir rivojlanayotgan davlat iqtisodiyotining global integratsiya jarayonida muhim element hisoblanadi, chunki bu jarayonlar mamlakatning investitsiya salohiyatini oshiradi va barqaror o‘sishga xizmat qiladi. Yaqingi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan institutsional islohotlar investitsiya muhiti samaradorligini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa chet el to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI) oqimlarini rag‘batlantirish asosiy prioritetga aylangan. Shu bilan birga, global moliya bozorlarida yuzaga kelgan noaniqliklar va geosiyosiy xavf omillari kabi salbiy tendensiyalar investorlarning qaror qabul qilish

mexanizmlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Chet el investitsiyalarini jalb etish orqali texnologik transfer va yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalarni tashqi kapital bilan moliyalashtirish imkoniyati kengayadi, bu esa milliy ishlab chiqarishning global tarmoqlarga ulanishini tezlashtiradi. Biroq, global investitsiya oqimi 2023 va 2024 yillarda pasayish tendensiyasiga uchragan bo‘lsa-da, O‘zbekiston bu salbiy fonda sezilarli darajada o‘sish ko‘rsatdi, bu esa mamlakatning investitsiya jalb etish siyosatining samaradorligini anglatadi. Jahon Banki va UNCTAD kabi xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarga keladigan FDI globallashuv davrida o‘zgarib borayotgan bo‘lsa ham, strategik jihatdan real sektorni qo‘llab-quvvatlovchi investitsiyalar ustuvor ahamiyatga ega[3]. Shu sababli, O‘zbekistonning investitsiya salohiyatini baholash, xususan xalqaro kapital bozorlaridan foydalanish mexanizmlarini chuqur o‘rganish muhim iqtisodiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotining strukturalanayotgan jarayonlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ahamiyati sezilarli darajada oshmoqda, bu esa faol investitsiya siyosati va xorijiy sarmoyadorlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni shakllantirish orqali amalga oshmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining sof xalqaro investitsiyaviy mavqei ko‘rsatkichi 2024-yilning boshiga nisbatan 11 foiz yoki 1,4 mlrd dollarga mustahkamlanib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 13,7 mlrd dollarni tashkil etdi. Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi 96,7 mlrd dollarni, tashqi majburiyatlari hajmi esa 83 mlrd dollarni tashkil etdi[4]. Asosiy investitsiya oqimlari energetika, metallurgiya va sanoat tarmoqlarida to‘plangan bo‘lib, bu jamlanmalar mamlakatda yuqori daromadlilik istiqbollarini kafolatlaydi. Xalqaro moliya bozorlarida cheklovlar bilan birga bozorlarning global risklarni boshqarish instrumentlari mavjudligi O‘zbekiston uchun diversifikatsiyalangan investitsiya portfelini yaratish imkoniyatini beradi.

Global taraqqiyot modeli doirasida milliy iqtisodiyotga xalqaro kapitalni jalb etish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, ichki bozorlar barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ijobiy tendensiyalarni namoyon etayotgani, ayniqsa 2024-yilda FDI oqimlarining sezilarli ortishi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni ko‘rsatadi va sektorlararo hamkorlikni chuqurlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya bozorlari investitsiyalari global risklar va bozor talablari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni muvaffaqiyatli jalb etish uchun ishonchli hukumat siyosati va barqaror institutlar sharti zarur. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning investitsiyalar bo‘yicha strategik salohiyatini o‘rganish va optimallashtirish milliy iqtisodiy strategiyaning ajralmas qismidir.

Investitsiyalarning samaradorligi va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri yetkazadigan ijobiy multiplier effektlar orqali o‘lchanadi va bu jarayonlar global investitsiya bozorlaridan kelayotgan kapitalning sifatiga bog‘liqdir. O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlari bilan o‘zaro integratsiyasi, shu jumladan banklararo kredit mexanizmlari va hukumat obligatsiyalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro institutlar bilan hamkorlik va investitsiya muhitini takomillashtirish investitsiyalarni jalb etish salohiyatini mustahkamlashga imkon beradi. Bularning barchasi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi va investorlar uchun xatarni kamaytirish strategiyasini shakllantiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Mazkur maqolaning adabiyotlar sharhi qismi global moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilish masalasiga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ilgari surilgan nazariy hamda amaliy yondashuvlarni tizimli tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Xususan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), UNCTAD hamda yetakchi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari asosida global kapital oqimlarining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri, investitsiya muhiti va

institutsional omillarning roli keng yoritilgan. Shu bilan birga, adabiyotlar sharhida O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning o‘ziga xos jihatlari, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy qarashlar taqqoslab o‘rganilib, mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini asoslashga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, A. Terrazas (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotda rivojlanayotgan va shakllanayotgan mamlakatlar kapital bozorlarida diaspora investitsiyalarining o‘rni va istiqbollari tahlil qilinar ekan, moliyaviy tizimlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi rasmiy jamg‘arma va investitsiya jarayonlarini cheklab qo‘yayotgani ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi. Muallifning ta’kidlashicha, bank sektoridagi institutsional zaifliklar va kredit risklarining yuqoriligi moliya institutlarini asosan yirik va kam xavfli qarz oluvchilarga yo‘naltirib, kichik investorlar va migrant kapitalini norasmiy moliya bozorlariga siqib chiqarmoqda[5]. Shu jihatdan, tadqiqotda diaspora investitsiyalarini jalb etish uchun moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash, kapital bozorlarining shaffofligini oshirish va xorijiy investorlar ishonchini kuchaytirishga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy choralar muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Shuningdek, Kefei You, V.L. Raju Chinthalapati, Tapas Mishra va Ramakanta Patra (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda xalqaro savdo tarmog‘ining aksiyadorlik bozorlarining o‘zaro bog‘liqligiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinib, unda savdo oqimlarining yo‘nalishi va hajmi aksiyadorlik bozorlaridagi daromadlarning turli mamlakatlarga tarqalishiga qanday ta’sir qilishi aniqlangan[6]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, iqtisodiyotning import va eksport salohiyati orqali aksiyadorlik bozorlaridagi spillover effektlari yuzaga keladi, shuningdek, import salohiyati eksportga nisbatan ko‘proq ta’sirchan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, xalqaro savdo tarmog‘ida o‘rni kuchli bo‘lgan davlatlar, xususan Xitoy, aksiyadorlik bozorlarining global bog‘liqligida muhim rol o‘ynab, boshqa yirik iqtisodiyotlar, jumladan AQSh, bozorlarida ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan A. Osatiuk, Z. Hbur, H. Vasylevska va G. Kucher (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy instrumentlarning investitsiyalarni jalb etishdagi o‘rni chuqur tahlil qilinib, kapital bozorlarining rivojlanishi bilan moliyaviy mexanizmlar samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy asosda yoritilgan. Mualliflar xalqaro va milliy darajadagi moliyaviy mexanizmlarni qiyosiy tahlil qilish orqali qimmatli qog‘ozlar, hosilaviy moliyaviy instrumentlar hamda innovatsion moliya vositalarining investorlar faolligini oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlab bergan[7]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligi va ularning institutsional qo‘llab-quvvatlanishi investitsiya risklarini kamaytirish, kapital oqimlarini barqarorlashtirish hamda investitsiya muhitining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida baholangan.

B. Li (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy bozorlarning energetik transformatsiya jarayonidagi roli tahlil qilinib, qayta tiklanuvchi energiya va toza texnologiyalar sohasiga investitsiyalarni jalb etishda kapital bozorlarining ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Muallif adabiyotlar tahlili orqali moliyaviy bozorlar turli manbalardan investitsiya resurslarini safarbar etish, “yashil” moliyaviy instrumentlar va barqaror moliya mexanizmlarini rivojlantirish orqali energetika sektorida investitsiya oqimlarini rag‘batlantirishini ko‘rsatib beradi[8]. Fikrimizcha, moliyaviy bozorlarning institutsional yetukligi va shaffofligi qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan birga, uzoq muddatli investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A. Karimovning ilmiy tadqiqotlarida qimmatli qog‘ozlar bozoriga investorlarni jalb etish masalalari tahlil qilinib, davlat va aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog‘ozlarining aylanishi tizimining samarali mexanizmlari o‘rganilgan. Muallifning ta’kidlashicha, qimmatli qog‘ozlar atamasi nafaqat moliyaviy instrumentni, balki iqtisodiy nazorat, likvidlik va kapitallashuv jarayonlarining murakkab tizimini ham ifodalaydi[9]. Shu nuqtai nazardan, investorlarni keng jalb qilish uchun bozor institutsiyalari, shaffoflik, qoidalar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Iqtisodchi olimlarimizdan S.E.Elmirzayev, A.K.Abdurakhmonov (2020)[10] hamda S.

Abdullayev (2025)[11] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Eurobonds va xalqaro obligatsiyalar orqali O‘zbekistonga kapital jalb qilish amaliyoti tahlil qilinib, ularning investitsiya vositasi sifatidagi mohiyati, xususiyatlari va afzalliklari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Eurobonds chiqarish va joylashtirish milliy moliya bozorining rivojlanishi va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda muhim instrument bo‘lib, u xorijiy investorlarga ishonchli va barqaror daromad manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya bozorlaridan kapital jalb qilish jarayonida qonunchilikni modernizatsiya qilish, institutsional mexanizmlarni mustahkamlash va moliyaviy shaffoflikni ta’minlash kabi choralar investorlarning faolligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot metodologiyasi xalqaro moliya bozorlaridan O‘zbekistonga investitsiyalarni jalb qilish jarayonini tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda iqtisodiy, moliyaviy va institutsional ko‘rsatkichlar chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida statistik ma’lumotlar, jumladan milliy va viloyatlar bo‘yicha chet el investitsiyalari ulushi, kapital oqimi va moliyaviy instrumentlar samaradorligi kabi real raqamli ko‘rsatkichlar asosiy manba sifatida qo‘llanadi. Shu bilan birga, xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, ekspert hisobotlari va moliya institutlari ma’lumotlari solishtirma tahlil va SWOT, shuningdek, sxematik va grafik tahlil usullari orqali o‘rganiladi. Natijada, ushbu metodologiya O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini ilmiy asosda aniqlash, samaradorlikni baholash va strategik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar.

Xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va global integratsiya jarayonida raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon orqali mamlakatlar nafaqat katta hajmdagi kapitalni jalb qiladi, balki texnologik transfer, eksport salohiyatining kengayishi va innovatsion loyihalarning moliyalashtirilishini ta’minlaydi, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik uchun asos yaratadi. Shu bilan birga, xalqaro moliya bozorlarining o‘zgaruvchanligi, global risklar va bozor talablari investitsiya jalb etish strategiyasini shakllantirishda institutsional va siyosiy mexanizmlarning ahamiyatini oshiradi, chunki investorlar uchun ishonchli va prognoz qilinadigan moliyaviy muhit eng muhim shart hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro moliya bozorlari orqali kapital jalb etish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish va optimallashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda qayd etilganidek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI) — bu chet el investorlarining uzoq muddatli moliyaviy jalb etishlari bo‘lib, ularning asosiy maqsadi nazorat ulushini qo‘lga kiritish orqali biznes faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishdir. FDI milliy iqtisodiyotning texnologik rivojlanishi va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u yangi texnologiyalarni olib kiradi va asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish esa katta hajmdagi kapitalni O‘zbekiston Respublikasining moliya bozoriga yo‘naltirishni anglatadi va bu jarayon global likvidlik oqimlarini milliy iqtisodiyot bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Investitsiyalar oqimining barqarorligi investitsiya muhiti sifatining darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lib, investorlar uchun xavfsiz va prognoz qilinadigan iqtisodiy siyosat asosiy shart hisoblanadi.

1-jadval

Xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish SWOT tahlili[12]

Kuchli tomonlar (Strengths)	**Zaif tomonlar (Weaknesses)**
1. Milliy iqtisodiyot uchun qo‘shimcha kapital manbai va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati mavjud.	1. Mamlakat moliya bozorlari va institutsional mexanizmlari hali yetarlicha rivojlanmagan, bu investorlar ishonchini pasaytiradi.
2. Texnologik transfer va yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati.	2. Qonunchilik va tartibga solish tizimlarida noaniqliklar va murakkab protseduralar mavjud.
3. Global moliya oqimlari orqali eksport salohiyati va sektorlararo diversifikatsiyani oshirish.	3. Valyuta va foiz risklarini boshqarish mexanizmlari yetarlicha samarali emas.
4. Investorlar uchun raqobatbardosh va barqaror daromad manbai yaratish imkoniyati.	4. Ichki moliya bozorining likvidligi past bo‘lib, chet el kapitalini jalb etishda cheklovlar mavjud.
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
1. Xalqaro moliya bozorlarida yangi instrumentlar, jumladan Eurobonds va yashil obligatsiyalar orqali kapital jalb etish imkoniyati.	1. Global iqtisodiy noaniqliklar, geosiyosiy xavflar va moliya bozorlaridagi volatillik investor oqimlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
2. Xorijiy investorlarga soliq va institutsional rag‘batlar yaratish orqali investitsiya muhiti yaxshilanishi.	2. Global likvidlik pasayishi va kredit stavkalarining oshishi investitsiya oqimlarini cheklashi mumkin.
3. Raqamli moliya va fintech platformalari orqali kapital oqimlarini soddalashtirish va shaffoflikni oshirish.	3. Ichki moliya tizimi va regulator mexanizmlarining sustligi uzoq muddatli investitsiya barqarorligiga xavf tug‘diradi.
4. Yirik infratuzilma loyihalarini va ekologik investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyati.	4. Investorlar uchun siyosiy va iqtisodiy xatarlar mavjud bo‘lib, chet el kapitalini jalb etishda to‘siqlar yaratadi.

SWOT tahlili ko‘rsatadiki, xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyot uchun qo‘shimcha kapital manbai yaratib, texnologik transfer va yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini beradi, shu bilan birga eksport salohiyati va sektorlararo diversifikatsiyani kengaytirishga xizmat qiladi. Biroq, mamlakat moliya bozorlarining yetarlicha rivojlanmaganligi va institutsional mexanizmlardagi zaiflik investorlar ishonchini pasaytirishi, qonunchilikdagi murakkabliklar esa investitsiya jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Xalqaro moliya bozorlaridagi yangi instrumentlar, jumladan Eurobonds va yashil obligatsiyalar orqali kapital jalb etish imkoniyati mavjudligi, shuningdek, raqamli moliya platformalari orqali soddalashtirilgan va shaffof investitsiya mexanizmlarini yaratish istiqbollari mavjud. Shu bilan birga, global iqtisodiy noaniqliklar, geosiyosiy xavflar va ichki moliya tizimining sustligi investitsiya oqimlariga sezilarli tahdid soladi, bu esa mamlakat strategik ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va xavflarni diversifikatsiya qilishni talab qiladi. Natijada, SWOT tahlili O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridan samarali kapital jalb qilish strategiyasini shakllantirishda kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, imkoniyatlardan foydalangan holda tahdidlarni minimallashtirish muhimligini ko‘rsatadi.



1-rasm. O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish mexanizmi[13]

O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish mexanizmi bir qator tizimli bosqichlarni o‘z ichiga oladi, jumladan, davlat tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya siyosati orqali strategik ustuvor yo‘nalishlar va sektorlararo diversifikatsiya belgilanishi investorlar uchun aniq ko‘rsatmalar yaratadi. Shu bilan birga, institutlar va huquqiy mexanizmlarning mustahkamligi, jumladan qimmatli qog‘ozlar bozori va bank tizimining samarali ishlashi, chet el kapitalini jalb qilishda xavfsiz va barqaror muhitni ta’minlaydi. Investorlar uchun rag‘batlar, soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari orqali iqtisodiy foyda oshiriladi, bu esa kapital oqimini ko‘paytirish va milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, ushbu mexanizm orqali jalb qilingan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.



2-rasm. O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi, foizda[14]

ISSN: 2181-3965
VOLUME 4

O‘zbekistonning asosiy kapitalga investitsiyalaridagi chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi 2020 yildan 2024 yilgacha sezilarli o‘sish tendentsiyasini ko‘rsatib, 2020 yilda 42,7 foizdan 2024 yilda 69,4 foizga yetgan, bu esa milliy iqtisodiyotning global moliya bozorlari bilan bog‘liqligini oshirganligini tasdiqlaydi. Viloyatlar bo‘yicha o‘zgarishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Andijon, Buxoro va Navoiy viloyatlarida chet el kapitali ulushi 70 foizdan oshib, investitsiya jalb qilish samaradorligining yuqori darajasini namoyon etgan, shu bilan birga Namangan va Toshkent viloyatlari ham oxirgi yillarda keskin o‘sish ko‘rsatgan. Ba’zi viloyatlarda, masalan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ulushdagi o‘zgarishlar bir yildan keyingi pasayish va keyingi yilga oshish kabi tebranishlarni ko‘rsatib, investitsiya oqimlarining barqarorligini va moliyaviy muhitning sezgirligini aks ettiradi. Natijada, ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridan samarali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari ortayotganini, shuningdek, hududlararo farqlarni hisobga olgan holda investitsiya siyosatini yanada strategik rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida tahlil qilinganidek, O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda xalqaro moliya bozorlaridan sezilarli darajada investitsiyalarni jalb etishda ijobiy tendensiyalarni namoyon etdi, xususan 2024 yilda FDI hajmi va YaIMdagi ulushi keskin oshdi. Bu jarayon global investitsiya oqimlari pasaygan sharoitda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston investitsiya muhiti ustuvor yo‘nalishlarini samarali belgilagan holda, sektorlararo diversifikatsiya va institutsional islohotlarni davom ettirish orqali investitsiyalar jalb etish potensialini yanada mustahkamlashi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun nafaqat qo‘shimcha kapital manbai yaratib, balki texnologik transfer, eksport salohiyati va yangi ish o‘rinlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, global moliya bozorlarida mustahkam o‘rni bo‘lgan davlatlar milliy iqtisodiyotga sezilarli darajada investitsiya oqimlarini jalb qilmoqda, bu esa raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shu sababli, O‘zbekiston uchun strategik ustuvor yo‘nalishlar va institutsional mexanizmlarni yanada rivojlantirish orqali chet el investitsiyalarining barqaror oqimini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalari ko‘rsatadiki, mamlakat hududlarida chet el investitsiyalari ulushi sezilarli farqlarni namoyon qiladi, bu esa viloyatlararo investitsiya siyosatini takomillashtirish va resurslarni samarali taqsimlash zaruratini kuchaytiradi. Xususan, Buxoro, Navoiy va Andijon viloyatlarida chet el kapitali ulushi yuqori bo‘lsa, ba’zi hududlarda, masalan, Toshkent shahri va Surxondaryoda o‘sish sur’ati pastroq, bu esa hududiy diversifikatsiyani rivojlantirish strategiyasini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, hududlararo investitsiya muvozanatini yaratish va moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun milliy va xalqaro moliya vositalaridan samarali foydalanish lozim.

Xalqaro moliya bozorlarida Eurobonds, obligatsiyalar va “yashil” moliyaviy instrumentlar kabi vositalarni samarali joriy etish O‘zbekistonning kapital jalb qilish mexanizmini sezilarli darajada kuchaytiradi, bu esa investorlar ishonchini oshirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, institutlar va huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va investorlar uchun rag‘batlarni yaratish xalqaro kapital oqimlarini jalb qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilish va global iqtisodiy tebranishlarga tayyor bo‘lish esa barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Natijada, O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb etish strategiyasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish, hududiy rivojlanish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tavsiya qilinadiki, davlat investitsiya siyosatini modernizatsiya qilib, moliyaviy institutlarni mustahkamlash, hududlararo diversifikatsiyani hisobga olgan holda rag‘batlantiruvchi mexanizmlar joriy etish va global moliya bozorlaridagi innovatsion instrumentlardan faol foydalanishga alohida e’tibor

qaratishi lozim. Shu tarzda amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar O‘zbekistonning xalqaro investitsiya maydonida raqobatbardoshligini oshiradi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2025 SIFMA Capital Markets Fact Book: https://www.sifma.org/wp-content/uploads/2024/07/2025-SIFMA-Capital-Markets-Factbook.pdf
2. https://gitnux.org/global-financial-industry-statistics/
3. UNCTAD World Investment Report 2025: https://unctad.org/system/files/non-official-document/wir_fs_uz_en.pdf
4. O‘zbekiston Markaziy Banki investitsiya hisobotlari: https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf
5. Terrazas A. Diaspora investment in developing and emerging country capital markets: Patterns and prospects //Migration policy institute. – 2010.
6. Kefei You, V.L. Raju Chinthalapati, Tapas Mishra, Ramakanta Patra “International trade network and stock market connectedness: Evidence from eleven major economies” Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, Volume 91, 2024, 101939, ISSN 1042-4431, https://doi.org/10.1016/j.intfin.2024.101939. (https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1042443124000052)
7. Osatiuk A. et al. Financial instruments and their role in attracting investments //Multidisciplinary Reviews. – 2024. – Т. 8.
8. Li B. The role of financial markets in the energy transition: An analysis of investment trends and opportunities in renewable energy and clean technology //Environmental Science and Pollution Research. – 2023. – Т. 30. – №. 43. – С. 97948-97964.
9. Каримов А. Қимматли қоғозлар бозорига инвесторларни кенг жалб этиш масалалари //Nashrlar. – С. 369-371.
10. Elmirzayev, S. E., and A. K. Abdurakhmonov. "EUROBONDS AS AN INVESTMENT TOOL IN UZBEKISTAN." International Finance and Accounting 2020.6 (2020): 16.
11. Abdullayev S. XALQARO OBLIGATSIYALAR VOSITASIDA XORIJIY MOLIYA BOZORIDAN KAPITAL JALB QILISH AMALIYOTI TADQIQI //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2025. – Т. 4. – №. 10. – С. 69-71.
12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments